Nemis olimi Lotar Meyer 1864 yilda o'z sistemasini ishlab chiqdi. U 27 ta elementni valentliklariga qarab olti gruppaga bo'ldi. U o'z asarini "atom og'irliklarning son bilan ifodalanadigan qiymatlarida biror qonuniyat borligiga shubxa bo'lishi mumkin emas" degan ibora bilan tugatdi. Meyer o'zining ikkinchi maqolasida (uning maqolasi Mendeleyev maqolasidan keyin nashr qilingan edi) elementlarning solishtirma xajmlari davriy ravishda o'zgarishini (ya'ni bir necha elementdan keyin qaytarilishini) kashf etdi. Bu kashfiyot katta ahamiyatga ega bo'ldi, lekin davriy qonunni ta'riflash uchun yetarli emas edi.

D.I.Mendeleyevdan oldin olib borilgan ishlarning xech birida kimyoviy elementlar orasida o'zaro uzviy bog'lanish borligi topilmadi. Xech kim elementlar orasidagi o'xshashlik va ayirmalar asosida kimyoning muxim qonunlaridan biri turganligini D.I.Mendeleyevgacha kashf etolmadi. Chuqur ilmiy bashorat va ilmiy izlanishlar natijasida D.I.Mendeleyev 1869- yilda tabiatning muxim qonuni-kimyoviy elementlarning davriy qonunini ta'rifladi. U ta'riflagan davriy qonun va uning grafik ifodasi - davriy jadval xozirgi zamon kimyo fanining fundamenti bo'lib qoldi.

Davriy sistemaning qadimgi variant D.I.Mendeleyev kimyoviy elementlarning ko'pchilik xossalari shu elementlarning atom og'irligiga bog'liq ekanligini topdi. D.I.Mendeleyev o'sha zamonda ma'lum bo'lgan barcha elementlarni ularning atom og'irliklari ortib borishi tartibida bir qatorga qo'yganida elementlarning xossalari 7 ta, 17 ta va 31 ta elementdan keyin keladigan elementlarda qaytarilishini, ya'ni davriylik borligini ko'rdi. Masalan, litiydan ftorga o'tganda atom og'irlik ortib borishi bilan

elementlar va ular birikmalarining kimyoviy xossalari ma'lum qonuniyat bilan o'zgarib boradi. Litiy tipik metall; undan keyin keladigan berilliyda metallik xossalar ancha kuchsiz ifodalangan. Berilliydan keyingi element - bor metallmaslik xossalarini namoyon qiladi. Ugleroddan ftorga o'tganda metallmaslik xossalari kuchayadi, ftor eng tipik metallmas sifatida topilgan elementdir, ftordan keyingi element - natriy (o'sha zamonda neon xali ma'lum emas edi) – o'z xossalari bilan litiyga o'xshaydi. Uning oksidi Na_2O o'z shakli bilan litiy oksid Li_2O ga o'xshashdir.

D.I.Mendeleyev o'zi kashf etgan davriy qonunni quyidagicha ta'rifladi: elementlarning xossalari, shuningdek ularning birikmalarining shakl va xossalari elementlarning atom og'irliklariga davriy ravishda bog'liq bo'ladi. D.I.Mendeleyev davriy qonunni kashf etishda elementlarning atom og'irlik qiymatlariga, fizik va kimyoviy xossalariga e'tibor berdi. U barcha elementlar bo'ysunadigan davriy qonunni kashf qildi va ba'zi elementlar (chunonchi, berilliy, lantan, indiy, titan, vanadiy, erbiy, seriy, uran, toriy) ning o'sha vaqtda qabul qilingan atom og'irliklarini 1.5-2 marta o'zgartirish, ba'zi elementlarning (kobalt, tellur, argonning) joylashish tartibini o'zgartirish kerakligini va nixoyat 11 ta elementning (fransiy, radiy, aktiniy, skandiy, galliy, germaniy, protaktiniy, poloniy, texnisiy, reniy, astat) kashf qilinishi kerakligini oldindan aytib berdi. Ulardan uchta element (eka-bor, eka-alyuminiy va eka-silisiy) ning barcha kimyoviy va fizikaviy xossalarini batafsil bayon qildi. 15 yil ichida bu uch element kashf qilinib, D.I.Mendeleyevning bashorati tasdiklandi. Yukoridagi uchta elementga galliy (eka-alyuminiyga), skandiy (eka-borga) va germaniy (eka-silisiyga) nomlari berildi. D.I.Mendeleyev xar qaysi elementning tartib nomeri nixoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Davriy sistema va uning tuzilishi. Davriy sistemaning birinchi variantini 1869 yilda D.I.Mendeleyev tuzdi. D.I.Mendeleyev tuzgan bu sistemada 63 ta element bo'lib, o'xshash elementlar gorizontallarga joylashgan edi. Davriy sistemaning ikkinchi varianti 1871 yilda e'lon qilindi. Bu variantda o'zaro o'xshash elementlar vertikal qatorlarga joylashgan. D.I.Mendeleyev bitta vertikal qatorga joylashgan o'xshash elementlarni grupp deb, xar qaysi ishkoriy metallardan galogengacha bo'lgan elementlar qatorini davr deb atadi. D.I.Mendeleyev dastlab taklif kilgan davriy sistemaga

keyinchalik birmuncha o'zgarishlar kiritilib, davriy sistemaning hozirgi variantlari tuzildi. U yettita davr va sakkizta gruppadan iborat.

Xozir davriy sistemada 121 ta element bor. I, II va III davrlarning xar biri faqat birgina qatordan tuzilgan bo'lib, ularni kichik davrlar, IV, V, VI, va VII davrlar katta davrlar deyiladi. IV, V va VI davrlarning xar qaysisi ikki qatordan tuzilgan, VII davr tugallanmagan davrdir. Birinchi davrdan boshqa xamma davrlar ishkoriy metall bilan boshlanib inert gaz bilan tugaydi.

Kichik davrlarda ishkoriy metall bilan galogen orasiga 5 ta element, katta davrlarda 15 ta element (VI da 29 ta element) joylashgan. Shunga ko'ra katta davrlarda bir elementdan ikkinchi elementga o'tganda elementlarning xossalari kichik davrdagilarga qaraganda bir muncha sustroq o'zgaradi. Katta davrlar juft va toq qatorlarga ega. Xar qaysi katta davrda elementlarning xossalari ishqoriy metallardan inert gazga o'tgan sayin ma'lum qonuniyat bilan o'zgarib boradi, bundan tashqari elementlarning xossalari xar bir juft qator ichida va xar bir toq qator ichida xam ma'lum ravishda o'zgaradi. Shunga asoslanib, katta davrlarda qo'shaloq davriylik namoyon bo'ladi deb aytiladi. Masalan, Be, Mg, Ca, Sr, Ba elementlaridan iborat gruppacha Zn, Cd, Hg elementlaridan tuzilgan gruppaga o'xshaydi. Xar ikkila gruppacha elementlarining maksimal valentligi ikkiga teng. Katta davrlarning juft qator elementlari faqat metallar bo'lib, metallik xususiyati chapdan o'ngga o'tgan sayin pasayadi. Toq qatorlarda chapdan o'ngga o'tish bilan metallik xossalari yanada zaiflashib, metallmaslik xossalari kuchayadi.

Davriy sistemada 57- element lantan va undan keyin 14 ta element lantanoidlar aloxida vaziyatni egallaydi. Bu 14 ta element uzlarining kimyoviy xossalari bilan lantanga va bir-birlariga o'xshaydi. Shuning uchun davriy sistemada bu 15 ta elementga faqat bitta katak berilgan. VII davrda 89-element va 14 ta aktinoidlarga xam bir o'rin berilgan. II va III davr elementlarini D.I.Mendeleyev tipik elementlar deb atagan. Xar qaysi gruppacha ikkita gruppachaga bo'linadi. Tipik elementlarga ega gruppacha asosiy gruppacha nomi bilan yuritiladi. Toq qatorlarning elementlari esa yonaki yoki qo'shimcha gruppacha deb ataladi.

Asosiy gruppacha elementlari kimyoviy xossalari jixatidan yonaki gruppacha elementlaridan farq qiladi. Buni VII gruppacha elementlarida yaqqol ko'rish mumkin. Bu gruppaning asosiy gruppacha elementlari (vodorod, ftor, brom, yod, astat) aktiv metallmaslar bo'lib, yonaki gruppacha elementlari (marganes, texnesiy, reniy)- xaqiqiy metallardir.

VIII gruppaning asosiy gruppachasi inert gazlar, yonaki gruppachasi 9 ta metall (temir, kobalt, nikel, ruteniy, radiy, palladiy, osmiy, iridiy, platina)dir. Xar qaysi gruppacha nomeri o'sha gruppaga kiruvchi elementlarning kislorodga nisbatan maksimal valentligini ko'rsatadi. Lekin mis gruppachasida va VIII, VII gruppacha elementlarida bu qoidadan chetga chiqish xollari ro'y beradi; chunonchi mis bir va ikki valentli bo'ladi, oltinning valentligi 3 ga yetadi; VIII gruppaning qo'shimcha gruppacha elementlaridan faqat osmiy va iridiy 8 valentlik bo'ladi; VII gruppacha elementi ftor faqat bir valentli bo'la oladi; boshqa galogenlarning kislorodga nisbatan valentligi yetti (yodda, xlorda) va besh (bromda) bo'lishi mumkin. Asosiy gruppacha elementlari vodorodga nisbatan xam valentlik namoyon qiladi. IV, V, VI va VII gruppacha elementlari gazsimon (yoki uchuvchan) gidridlar xosil qiladi. Elementlarning vodorodga nisbatan valentligi IV gruppadan VII gruppaga o'tgan sari 4 dan 1 ga qadar pasayadi, ularning kislorodga nisbatan valentliklari esa 4 dan 7 ga qadar ortadi. Xar qaysi gruppada metallmasning kislorodga nisbatan valentligi bilan vodorodga nisbatan valentligi yigindisi 8 ga tengdir.

Xar bir gruppacha ichida atom og'irlik ortishi bilan elementlarning metallik xossalari kuchayib boradi. Demak, elementlarning xossalari (atom og'irligi, valentliklari, kimyoviy birikmalarining asos yoki kislota xarakteriga ega bo'lishi va xakazolar) davriy sistemada va davr ichida xam, gruppacha ichida ma'lum qonuniyat bilan uzgaradi. Binobarin xar qaysi element davriy sistemada uz urniga ega va bu urin uz navbatida ma'lum xossalar majmuasini ifodalaydi va tartib nomer bilan xarakterlanadi. Shu sababli, agar biror elementning davriy sistemada tutgan urni ma'lum bulsa, uning xossalari haqida to'la fikr yuritib, ularni to'g'ri aytib berish mumkin.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Masharipov Tirkashev Argonik va Onorgonik kimyo
2. Tirkashev Anorganik kimyo.
3. 7-sinf kimyo darslik 2011 yil nashri

ФИО авторов: Кушимова Махбуба Жанибековна

катта ўқитувчи, Хорижий тиллар кафедраси, ТДИУ, Тошкент, Ўзбекистон
Кузикулова Дилфуза Махамматисақовна

катта ўқитувчи, Хорижий тиллар кафедраси, ТДИУ, Тошкент, Ўзбекистон

Название публикации: «ЎЗБЕК ТАЛАБАЛАРИДА ЧЕТ ТИЛИ МОНОЛОГИК
НУТҚИ КЎНИКМАЛАРИНИ ҲОСИЛ ҚИЛИШДАГИ АЙРИМ
ҚИЙИНЧИЛИКЛАР»

***Аннотация.** Мақолада ўзбек талабаларида чет тили монологик нутқи кўникмаларини ҳосил қилишдаги айрим лексик, грамматик ва талаффуз қийинчиликлари, чет тили ўқитиш методикасида нутқ психологияси, нутқ фаолиятининг турларига хос кўникмаларни шакллантириш, таълимнинг мазмунини танлаш, чет тили монологик нутқ кўникмаларини ҳосил қилиш, сўз, сўз бирикмаси, ва гаплардан бошлаб, катта ҳажмдаги мураккаб матнгача бўлган бирликлар ёрдамида ахборот бериш ва ахборот олиш кўникмаларини шакллантириш масалалари кўрилган.*

***Калит сўзлар:** чет тили, нутқ, ўқитиш методикаси, нутқ психологияси, лексик, грамматик, талаффуз, лингвистик, монологик нутқ, тушуниб тинглаш, такрорлаш, ёд олиш, талаба, кўникма.*

Мустақиллигимизнинг дастлабки йилларида чет тилларга бўлган эҳтиёж сезилиб қолди, ёшларимиз орасида чет давлатларга чиқиш, у ердаги таълим жараёни билан танишиш, билимлари билан ўртоқлашиш, фикр алмашишга бўлган қизиқишлари ривожланиб борди. Бунинг натижасида эса жамиятнинг турли қатламларидаги турли касб эгалари ўртасида чет тиллар (айниқса инглиз, немис, француз, араб тиллари)ни ўрганишга бўлган қизиқиш кескин кучайди. Олий ўқув юртлари талабалари орасида ҳам кўпроқ чет тилларини ўрганишга нисбатан қизиқиш ортиб кетди.

Талабанинг чет тилида нутқи равон бўлиши учун аввало чет тили ўқитиш методикаси нутқ психологияси далиллариغا таянишимиз лозим. Методика нутқ

фаолиятининг турларига хос кўникмаларни шакллантириш, таълимнинг мазмунини танлаш, нутқни ахборот бериш ва олиш жиҳатидан характерлаш хусусиятига ҳам эга бўлиши керак.

Чет тили монологик нутқ кўникмаларини ҳосил қилиш деганда , сўз, сўз бирикмаси, ва гаплардан бошлаб, катта ҳажмдаги мураккаб матнгача бўлган бирликлар ёрдамида ахборот бериш ва ахборот олиш кўникмаларини шакллантириш тушунилади.

Чет тилидаги монологик нутқ - бу мулоқотга киришишнинг муҳим шаклларида бири бўлиб, у талабаларнинг чет тилини ўрганишдаги тинглаб тушунишини ривожлантиришнинг ҳам қулай ва самарали йўлидир.

Талабаларда монологик нутқ кўникмаларини ҳосил қилишда аввало тинглаб тушунишнинг лингвистик қийинчиликларини қисқача таҳлил қилиб олишимиз лозим. Монологик нутқ доимо тингловчига қаратилади. Ким биландир фикрлашиш, тингловчига ўз фикрини баён қилиш монологик нутқ жараёнида амалга оширилади.

Монологик нутқ шаклини танлаш мулоқотга киришишга ундайдиган нутқий вазиятлар ва гапирувчининг индивидуал ҳолатлари асосида амалга оширилади.

Монологик нутқ - суҳбат, ҳикоя, табрик сўзи, мақтов, тасвирлаш ва ҳоказолар тарзида намоён бўлади. Методик адабиётларда монологик нутқнинг ўзига хос белгилари сифатида қуйидагилар келтирилган¹:

маълум бир шахс томонидан бажарилиши ва тингловчига йўналтирилганлиги, мантиқий боғлиқлик, мазмунан тугалланганлик, мустақиллилик, яъни тингловчига боғлиқ эмаслиги, маълум мавзу асосида олиб борилиши, нутқий вазиятга мослик ва қисман тайёрланган бўлишидир.

Ўзбек талабаларида чет тили монологик нутқи кўникмаларини ҳосил қилишда айрим лексик, грамматик ва талаффуз қийинчиликларига дуч келамиз. Улар ўз хусусиятларига кўра лингвистик ва психологик характерга эга. Масалан

¹ Ў.Хошимов, И. Ёқубов. “Чет тили ўқитиш методикаси” Шарқ нашриёти 2003 й

монологик нутқ учун керакли лексик ва грамматик материални билмаслик, сўз ва сўз бирикмаларини нутқий вазиятга мос қўллай олмаслик, тўғри талаффуз қила олмаслик, гапиришда хато қилиб қўйишдан чўчиш, гапирувчида гапиришга нисбатан мотивация (истак-хоҳиш)нинг йўқлиги ва бошқалар шулар жумласидан. Талабаларда монологик нутқ кўникмаларини ўстиришда нафақат чет тилидаги луғат бойлигининг камлиги, балки нутқ жараёнида афоризмлар, фразеологик бирикмалар (идеомалар, фраземалар, мақоллар) нинг учраб туриши, қолаверса монологик нутқ кетаётган пайтда чет тилидаги товуш ёки ҳарфлар, сўз ёки ибораларни ўзбекча оҳангда талаффуз қилинишлари ўз-ўзидан тилнинг бузилишига олиб келади ва юқорида келтирилган қийинчиликларга сабаб бўлади.

Матнни чуқур англаш учун аввало кўп маъноли сўзлар, паронимлар, антоним ва синонимларни ўрганиш зарур ва бу талабалардан сўзларнинг лексик қурилишини ўрганишни талаб этади. Монологик нутқни ҳосил қилишдаги қийинчиликларни енгиш учун талаба тил материални билиши, шу материаллар асосида нутқ ҳаракатини ижро этиши, мавзунини тўлалигича ўзлаштира олган бўлиши, ўз фикрини тингловчига еткази олиши учун экстралингвистик ифода воситалари бўлган урғу, ритм ва оҳангнинг нутқ фаолиятига мослаштири олиши зарур. Монологик нутқ кетаётган пайтда сўзловчининг юз, кўз, қош, қўл ва бош ҳаракатлари, кулимсираш, жиддийлашиш, ва шу каби имо-ишоралар тингловчига нутқни англашда осонлик туғдиради, монологни тинглаб тушуниш кўникмасини ўстиради.

Талабаларнинг ўзаро фикрлашувида, улар ўртасидаги муомала ҳолатларида сўзлар ва сўзлардан ташкил топган гаплар асосий вазифаларни бажаради.

Бундан кўриниб турибдики, сўзлар фикр юритиш ва муомала ишларида, тушунча ва тафаккурнинг ривожланашида жамият аъзолари ўртасида алоқа қуроли сифатида асосий ролни ўйнайди.

Талабаларда чет тили монологик нутқ кўникмаларини ҳосил қилишда чет тили грамматик механизмининг ўзгариши, она тилимиздан тубдан

фарқ қилиши, ўрганаётган чет тилини тўла ўзлаштира олишига ва гапларни тўғри ифодалай олишига ҳалақит беради.

Грамматика - бу муомала жараёнида сўзларнинг тўғри қўлланилиши ва уларни етарли даражада тушуниш демакдир.

Ҳар бир тилда сўз қурилиши, гап тузилиши, фикр ифодаланиши турлича йўللарда амалга оширилади. Ўзбек талабалари учун чет тилидаги сўз тартиби, замонлар системасининг фарқи, уларнинг фикрларини очик-ойдин ва равон ифодалаб беришларида қийинчилик туғдиради ва бу монологик нутқ кетаётган пайтда сўз тартибининг бузилиши, замон шакллариининг нотўғри қўлланилишига сабаб бўлади. Бу каби камчиликларни енгишда ўзбек ва чет тили грамматик қурилишини қиёслаб ўрганиш мақсадга мувофиқдир.

Монологик нутқ бир киши нутқи бўлиб, унда кетма-кет келадиган жумлалар мантиқан боғланади, нутқ оҳанги ва мазмуни жиҳатидан қўйилган мақсад сари йўналтирилади.

Чет тили монологик нутқ кўникмасини ҳосил қилиш учун фонетик қийинчиликларнинг мавжудлиги талабаларда тинглаш қобилиятининг унчалик шаклланмаганлиги товушларнинг нотўғри эшитишга, чет тилидаги товушларни она тилидаги товушлар билан чалкаштириб юборишларига ҳамда чет тилидаги сўзларни она тилидагидек талаффуз қилишларига олиб келади. Бу монологик нутқ жараёнида урғунинг нотўғри қўйилиши, жумлалар оҳангининг бузилишига сабаб бўлади.

Биз биламизки чет тилидаги сўзлар ўзбек тилидаги сўзларга нисбатан кучлироқ талаффуз қилинади аммо кўп ҳолатларда талабалар бунга эътибор бермайдилар ва ўз нутқини равон ифода эта олмайдилар. Монологик нутқ кетаётган пайтда сўзларни тўғри талаффуз қилиш, гап оҳангига эътибор бериш, фикрни тўғри ифодалай олиш ёки тушуниб тинглаш учун монологни гапирувчи ортидан худди унга ўхшаб такрорлаш ёки магнит лентаси орқали тинглаш, қайтариш ва ёд олиш талабаларда монологик нутқ кўникмасини ҳосил қилишдаги қийинчиликларни енгишга ёрдам беради. Нутқ кетаётган пайтда

сўзларнинг аниқ- равшан, оҳангдор ва жарангдор талаффуз этилиши нутқни чинакамига гўзал ва равон қилади.

Монологик нутқ кетаётган пайтда, тингловчининг индивидуал салоҳиятидан, эҳтиёжларидан узоқ бўлган сўзлар ва жумлаларни қўшиб гапириш масалан, талабалар учун нотаниш бўлган сўз ва ибораларнинг қўлланилиши нутқнинг таъсирсиз ва мавҳум бўлишига олиб келади.

Талабаларда чет тили монологик нутқ кўникмаларини ҳосил қилишда нутқнинг бадийлигига эътибор бериш керак, яъни нутқ ясама иборалардан, узундан-узоқ дабдабали сўзлардан холи, оддий ва тингловчига бирдек тушунарли бўлиши лозим.

Нутқда жумлаларни қисқа тузишнинг ёрқин намуналаридан бири қуйидаги парчада аниқ ифодаланиб берилган²:

“Маънавият тақдирнинг эҳсони эмас. Маънавият инсон қалбида камол топиши учун у қалбан ва виждонан, ақл ва қўл билан меҳнат қилиши керак... Маънавият инсоннинг, халқнинг, жамиятнинг, давлатнинг куч-қудратидир. Куч йўқ жойда ҳеч қачон бахт-саодат бўлмайди. Нафақат кўҳна тарих, балки янги тарих ҳам бунинг кўплаб мисолларини беради”

Монологик нутқ жараёнида ифоданинг тўлақонлилигини юзага келтирадиган омиллардан бири унинг нутқ маданияти доирасида амалга оширилиши билан боғлиқ бўлиб, мазкур жиҳатга бефарқ муносабатда бўлиш муаллиф матнини ўзига хос хусусиятидан ҳамда муайян мақсадга йўналтирилган умумхалқ тилининг индивидуал ижодий қўлланилиш меъёрларидан маҳрум қилади.

Юқорида биз ўзбек талабаларида чет тили монологик нутқи кўникма ва малакаларини ҳосил қилишдаги айрим лингвистик қийинчиликларга тўхталиб ўтдик. Ушбу қийинчиликларни енгиш, фикрларимизни умумлаштириш

² Каримов И.А. “Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т., 1992 12-13 бетлар.

мақсадида қуйидаги талабларни амалга ошириш ва нутқ жараёнига татбиқ этиш мақсадга мувофиқдир: Сўзловчидан,

- монологик нутқ жараёнида нутқ маданиятига эътибор бериши;
- монологик нутқни шакллантириш ва ифодалаш йўллари билиши;
- монологик нутқ жараёнида нутқнинг шакли ва мазмуни бирлигини яратиши;
- монологик нутқ кетаётган пайтда сўз ва ибораларни тўғри талқин этиши;
- матннинг асосий маънони ифодаловчи қисмларини ажрата олиши;
- монологик нутқ қисмларини хотирада сақлаб қолиши;
- монологик нутқ мазмунини аниқлай олиши ва билиши;
- монологик нутқни тингловчига етказа олиши ва тинглай билиши;
- нутқ ҳаракатини амалга ошириши;
- монологик нутқ орқали ўз (лексик, грамматик, фонетик) билими ва тажрибасини кўрсата олиши;
- монологик нутқ орқали тингловчидан кутилган натижани олиши талаб этилади.

Демак, ўзбек талабаларида чет тилидаги монологик нутқ кўникмаларини шакллантириш ва ўстиришга нисбатан янгича ёндашув талаб этилади. Чет тилидаги монологик нутққа оид матнни тинглаш, уни ёд олиш билан чегараланиб қолмаслик керак. Бу эса монологик нутқ кўникмаларини ўстириш коммуникатив мулоқот жараёнида ва шу жараёни ўз ичига олган нутқий вазиятлар асосида олиб борилиши мақсадга мувофиқ эканлигини тақозо этади.

Адабиётлар

1. Хошимов Ў., Ёқубов И. Инглиз тили ўқитиш методикаси. Т., 2003: 295 б.
2. Каримов И.А. “ Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Т., 1992 12-13 бетлар.

ФИО автора: Abduraimova Sohiba Karimkul qizi

Guliston Davlat Universiteti, 1-bosqich magistranti, (Guliston, Uzbekistan)

Название публикации: «BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA HARAKATLI O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI VA SAMARASI»

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang'ich sinf matematika darslarida harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi va samarasi, harakatli o'yinlardan dars davomida foydalanishning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek muallif tomonidan amaliyotda qo'llanilib, yaxshi samaraga erishgan "Sonlarni qo'shish va ayirish" harakatli o'yini, uning metodikasi va samarasi haqida.

Kalit so'zlar. Harakatli o'yinlar, "Sonlarni qo'shish va ayirish", samaradorlik, ta'lim tizimi.

METHODS AND EFFICIENCY OF USING MOVING GAMES IN ELEMENTARY MATH LESSONS

Abduraimova Sohiba Karimkul qizi

Level 1 Master

Gulistan State University
(Gulistan, Uzbekistan)

Annotation. This article discusses the methodology and effectiveness of the use of moving games in primary school mathematics lessons, the role and importance of the use of moving games in the classroom to improve the quality of education, as well as the author's "Numbers swelling and multiplication" about the game, its methodology and effectiveness.

Keywords. Action games, "Addition and subtraction of numbers", efficiency, education system.

МЕТОДЫ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ДВИЖУЩИХСЯ ИГР В МАТЕМАТИКЕ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Абдураимова Сохиба Каримкуловна

Магистр 1 уровня

Гулистанский государственный университет
(Гулистан, Узбекистан)

Аннотация. В статье рассматриваются методика и эффективность использования движущихся игр на уроках математики в начальной школе, роль и важность использования движущихся игр на уроках для повышения качества

обучения, а также авторские «Числа» набухания и умножения » Об игре, ее методологии и эффективности.

Ключевые слова. Игры-действия, «Сложение и вычитание чисел», эффективность, система обучения.

Boshlang'ich sinf matematika darslari matematik bilimlarning fundamental asosini tashkil etadi. Shu sababli ham boshlang'ich sinf matematika darslarining samaradorligining yuqori bo'lishi har qanday mamlakat ta'lim tizimida ustuvor vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda dars davomida turli xil interfaol metodlar keng qo'llanilmoqda. Ular darslarning samaradorligi oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shuni aytish joizki, o'quvchilarning diqqatini darsga qaratishda, mavzularni yaxshi o'zlashtirish uchun dars davomida turli xil jismoniy harakatlardan iborat didaktik o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Rivojlangan davlatlar tajribasidan shu ma'lum-ki, dars bu- aniq belgilangan vaqtda, muqim joyda o'tkaziladigan dars mashg'uloti. Darsni qay usulda tashkil etishni o'qituvchi mavjud sharoitlardan kelib chiqqan holda tanlashi mumkin.

Shu navbatda o'yin o'zi nima ekaniga izoh berish lozim. O'yin — bolalarning ongi, qalbiga singib ketgan faoliyat hisoblanadi. Ularning bu faoliyati, o'yin turlariga qarab, obyektiv voqelikni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada davomi va mustahkamlanishidir. Tajribalar shuni isbotlanganki, o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur hayotiy ehtiyojidir.

Didaktik o'yin — ta'lim beruvchi usul bo'lib, bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvga, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinni o'tkazishda muayyan bir vazifa maqsad qilib olinadi.


Boshlang'ich sinf matematikda kursida o'quvchilarga sanoqni o'rgatish va dastlabki arifmetik amallarini bajarish davomida “ Sonlarni qo'shish va ayirish” didaktik o'yinidan foydalanish yaxshi samara beradi. O'yinning maqsadi-arifmetik amallar haqidagi bilimlarni takrorlash va mustahkamlashdir. Bunda qo'shiluvchi yoki ayiriluvchi sonni o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda tanlaydi. O'yin davomida har bir o'quvchining javobi tinglanadi.

Ta'limdagi didaktik o'yinlarning asosiy kamchiligi o'zlashtirishi o'rta va past darajada bo'lgan o'quvchilarning harakatli o'yinlarda ham ishtiroki past darajada ekanligidir. Shuning uchun ham o'yin 2 bosqichda tashkil etiladi. 2-bosqichi aynan o'zlashtirishi o'rta va past darajada bo'lgan o'quvchilar uchun tashkil etiladi. Arifmetik amallarni qo'llash borasidagi bilimlarini oshiradi va mustahkamlaydi.

O'yinning qisqa ta'rifi quyidagicha:

O'yin uchun maxsus belgilangan joy tanlab olinadi. O'quvchilar joylashadigan joy “Yashil yo'lakcha” yashil rangga, “Ogohlik maydonchasi” esa sariq rangga bo'yaladi. O'quvchilar “Bilimlar bayroqchasi” dan foydalanib, bir-birlariga to'g'ri javob berganlarida o'yin davom etadi.

1-bosqich: Guruh o'quvchilari ikkiga bo'linadi, har bir guruh a'zolari aylana shaklida "Yashil yo'lakcha"ga turishadi va qo'llariga "Bilimlar bayroqchasi" ni olishadi. (1-rasm)



1-rasm. "Sonlarni qo'shish va ayirish" harakatli o'yining 1-bosqichi.

Guruhlarning har ikkisi alohida shart aytiladi. Birinchi guruhga : "1 sonini 30 sonigacha 2 birlik orttiring!" deb, ikkinchi guruhga esa: "30 sonini 1 sonigacha 2 birlik kamaytiring!" deb topshiriq beriladi. To'g'ri javob berilgan paytda o'quvchilar qo'llaridagi bayroqchani keyingi o'quvchiga beradilar, agar o'quvchi noto'g'ri javob bersa aylana markazidagi ogohlik maydonchasiga o'tadilar.

O'yin quyidagicha davom etadi:


Birinchi guruhning birinchi o'quvchisi: " 1 sonini 2 birlik orttirsak 3 soni hosil bo'ladi" deb javob beradi va qo'lidagi bayroqchani navbatdagi o'quvchiga beradi. Ikkinchi bola esa o'yinni davom ettiradi: " 3 sonini 2 birlik orttirsak 5 soni hosil bo'ladi" , o'yin shunday 29 soni hosil bo'lgunga davom etadi.

Ikkinchi guruhning birinchi o'quvchisi o'yinni boshlaydi: " 30 sonini 2 birlik kamaytirsak 28 soni hosil bo'ladi" deb javob beradi va qo'lidagi "Bilimlar bayroqchasi" ni navbatdagi o'quvchiga beradi. Ikkinchi o'quvchi ham javob beradi: " 28 sonini 2 birlik kamaytirsak 26 soni hosil bo'ladi" va bayroqchani navbatdagi o'quvchiga uzatadi. Shunday qilib o'yin 2 soni hosil bo'lgunga qadar davom etadi (o'yin shartida 30 sonini 1 sonigacha kamaytirish belgilangan edi). O'yin oxirida

eng ko'p a'zosi qolgan guruh g'olib sanaladi va rag'batlantiriladi. Shu bilan o'yinning birinchi bosqichi nihoyasiga yetadi.

2-bosqich: Endi “ Ogohlik maydonchasi”dan joy olgan o'quvchilar uchun o'yinning ikkinchi bosqichi boshlanadi, boshqa bolalar esa biroz tanaffus qilishadi.

Ogohlik maydonchasidagi bolalar bir qator qilib safga turishadi. Va 1 sonida 30 sonigacha sonlarni aytib safdan shuncha qadam oldinga chiqishadi. (2-rasm)



2-rasm. “Sonlarni qo’shish va ayirish” harakatli o’yinining 2-bosqichi.

Masalan, 1 degan o'quvchi bir qadam, 2 degan o'quvchi 2 qadam, 3 degan o'quvchi 3 qadam oldinga chiqadi. Shu bilan o'quvchilar sonlar ketma-ketligini va sonlarni birlikka qanday orttirish mumkinligini yodga oladilar.

So'ngra ular aylana shaklida turib qo'llariga “Bilimlar bayroqchasi”ni olishadi va o'yinni qaytadan tashkil etishadi.

“Sonlarni qo’shish va ayirish” harakatli o'yini shu shart bo'yicha “Sonlarni ko'paytirish va bo'lish” shaklida ham tashkil etilishi mumkin. Bunda endi o'quvchilarning “Ko'paytirish jadvali”ni qay darajada yod olishganini va sonlarni ongli ko'paytirib, bo'lish ko'nikmasi nazoratdan o'tadi. O'yinning tez va tartibli tashkil etilishini o'qituvchi nazorat qilishi va o'quvchilar javobini nazorat qilishni o'quvchilarning o'ziga “ O'zingni o'zing bahola!” shaklida tashkil etishi ham yoki o'qituvchining o'zi nazorat qilishi ham mumkin.

Bu kabi harakatli o'yinlar asosiy dars vaqtidan keyin tashkil etilishi ham mumkin. Bu kabi o'yinlarning takror-takror tashkil etilishi o'quvchilarda arifmetik amallarni avtomatik ravishda bajarishni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2017, 14-15 bet
2. Abdulkarimov H., O.Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. - T.: o'quv-metodik qo'llanma, 2012
3. Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. 2019, 6- son, 24- 27 bet
4. Mavlonova R., Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda innovatsion pedagogika. TDPU, 2013
5. Mavlonova R., Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi. - T., "Ilm ziyo", 2009

ФИО автора: Karimova Shaxzoda Sobitjonovna

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Gumanitar fanlar fakulteti Milliy g'oya: ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
yo'nalishi 18/1 guruh talabasi

Название публикации: «"OMMAVIY MADANIYAT"NING YOSHLAR
MA'NAVIYATIGA TA'SIRI»

Mamlakatimiz jahon hamjamiyatida o'z o'rniga ega davlatlar qatorida, o'z taraqqiyot yo'li sari dadil qadam tashlab bormoqda. Yurtimizda olib borilayotgan tinchliksevarlik siyosati xalqimizning osuda va farovon turmush kechirishi uchun xizmat qilayotgani ayni haqiqatdir.

Bu haqiqatni anglamoq uchun jahonda yuz berib turgan siyosiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlarni kuzatish, tahlil qilishning o'zi yetarli. Ayrim mamlakatlarda sodir bo'layotgan fuqarolik urushlari, siyosiy beqarorlik, tabiat hodisalari tufayli yuz berayotgan halokatlarni ko'rganda Alloh nazari tushgan mana shunday jannatmakon yurtda yashayotganingga shukur aytasan kishi.

Ammo, bugungi globallashuv jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgan, ayniqsa kelajak egalari bo'lgan yoshlarimiz ongini zaharlashga urinayotgan "ommaviy madaniyat" ta'siri turmushimizda anchayin sezila boshlagani ogohlikka chaqiruvchi holatdir. Zero, yoshlarimizning bugun qanday unib-o'sayotganliklari, qanday inson bo'layotganliklariga bog'liqligi rad etib bo'lmas haqiqatdir.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, eng kuchli va eng ta'sirchan qurolimiz — bu ma'naviyatdir. Ma'naviyatli inson — irodali, dunyoqarashi keng, tafakkuri boy va madaniyatli bo'ladi. Va aynan yuksak ma'naviyat "ommaviy madaniyat"ga, buzg'unchi va vayronkor g'oyalarga qarshi kuchli himoyadir.

Yurtimiz buyuk insonlar yurtidir. Biz ajdodlarimiz bilan qancha faxrlansak, iftixor etsak shuncha ozdir. Ammo kechagi kun xotira, bizga saboq bo'lsa, ertangi kun bizdan harakatni, umidlar va orzularning ro'yobini kutadi. Ajdodlarimiz kutgan istiqlol

bizning davrimizga nasib bo'ldi. Endi mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, uning qadriga yetish hamda bizdan keyingi avlodga obod va farovon, taraqqiyot yo'lidan ildam odim otib borayotgan mustaqil Vatanni qoldirish mas'uliyati chin insoniylik hamda vatanparvarlik burchidir.

Buning uchun eng avvalo yoshlarimiz ta'lim tarbiyasiga, dunyoqarashining shakllanishiga e'tibor berishimiz, turli xil yot g'oyalar ta'siriga tushib qolmasliklari va "ommaviy madaniyat" qurboniga aylanmasliklari uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim.

O'zbek milliy tarbiyasi yetuk va komil insonni andoza qilib olgan. "Ommaviy madaniyat" esa insonni bilim, imon, insof, hayo hamda sadoqat kabi tuyg'ularga nisbatan loqayd va befarq shaxsga aylantirib qo'yadi.

"Ommaviy madaniyat" qurboni bo'lgan kishi vatanparvar, fidoyi, rostgo'y, insofli bo'lishi qiyin, chunki u erkin fikrlashi kerak. Mustaqil fikrlovchi odamlar ko'p bo'lsa, "ommaviy madaniyat"ning bozori kasod bo'ladi. Shuning uchun ularga o'rtamiyona, ergashuvchi omma kerak.

Yoshlar qiziquvchan, ishonuvchan, ergashuvchan, lekin katta kuchdir. Shu bois ham "ommaviy madaniyat" qurbonlari ko'proq yoshlardir. "Ommaviy madaniyat" shaxsning didini o'ldirib, millionlab odamlarni mustaqil fikrdan, shaxsiy munosabatdan, demak, o'zligidan va qalbidan judo qiladi. Bu esa turli xil yot g'oyalarni g'arazli maqsadlar yo'lida targ'ib qilayotgan kuchlar uchun ayni muddao. Demokratiya niqobidagi bunday tahdidlardan ogoh bo'lish uchun esa o'zlikni anglash hamda mohiyatini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa kasb-hunar kollejlari, akademik litsey o'quvchilari va oliy o'quv yurti talabalari o'rtasida olib borilayotgan ma'naviy-axloqiy tarbiya borasidagi ishlarning ahamiyati beqiyosdir. Shu sababdan ushbu qatlam o'rtasida sog'lom turmush tarzini, istiqlol g'oyalarini targ'ib etuvchi tadbir va loyihalar ko'lamini yanada kengaytirish, ularning qalbiga kirib borish uchun zamon talabidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish davr talabidir.

Milliy tarix va madaniyatni bilish — o'zlikni anglashning ostonasi. G'ururi hamda iftixori bor odam birovga bo'yin egmaydigan, dadil odimlaydigan, irodali va

ulkan ishlarga qodir orzu-havasli shaxs. Yoshlarimizni vatanparvar, chinakam buyuk inson etib tarbiyalash esa pedagoglardan g'ayrat-shijoat, fidoiyluk va ogohlikni talab qiladi.

XXI asrning katta muammolaridan biri "mafkuraviy tazyiq"dir. Uning yoshlarga yetkazayotgan ta'sirlari ko'pgina davlatlar qatori mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. Fan va texnika taraqqiy etgan ushbu asrda, ayniqsa, axborot texnologiyalari aql bovar qilmaydigan darajada rivojlanib bormoqda. Shuning bilan birga "ommaviy madaniyat" zararlari ham kirib kela boshladi. Avvalo madaniyat so'zi haqidagi allomalar fikrini ko'zdan kechirsak. Qori Niyoziy ushbu so'zning keng qamrovli tushuncha ekani haqida shunday deydi: "Madaniyat tarixi g'oyat darajada murakkab bo'lib, uning hamma tomonlarini o'z ichiga olgan kitob hech qaysi bir tilda yo'q va bo'lishi ham mumkin emas". Is'hoqxon Ibrat esa madaniyatni oziqlantirib turuvchi omil yaxshi axloq ekanini ta'kidlaydi: Madaniyat jahondan osoyish, Xulq husni anga oroyish. Madaniyat xaloyiqqa rohat, Ko'rmagay g'amni hech soat. E'tibor bersak, bu tushunchaning negizi ezgulikdan iboratdir.

Biroq, bugun tilimizda qo'llanayotgan "ommaviy madaniyat" iborasi bu mazmunni inkor etayotgani rost. Yoshlar ongidagi g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan kirib kelayotgan, biz uchun yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tuban illatlarni o'z ichiga olgan bu "madaniyatlar" ko'plab falokatlarning ibtidosidir. "Ommaviy madaniyat" degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig'dirolmaydigan ko'plab axloqiy buzuvchilik g'oyalari mavjud. Xususan, zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar ana shular jumlasidandir. Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni "madaniyat" deb atalishi, yoyinki, ming yillik ma'naviy qadriyat va an'analarni bepisandlik bilan "eskilik sarqiti" deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an'analalar bilan almashtirish ongli insonga xos bo'lmagan odatdir. Taniqli o'zbek adibi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek shunday degan ekan: "O'zbek xalqi azaldan buyon madaniyat bulog'ining boshida bo'lgan".

Bugun yozuvchimiz A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asarida tasvirlagan oila, muhabbat, burch, hayo, iffat, ma’suliyat, e’tiqod, hurmat va mehr-oqibat kabi har bir millatdoshimiz uchun ibrat bo‘la oladigan qadriyatlarning hayotdagi aksini to‘laqonli uchratishimiz qiyin ekanligiga ko‘pchiligimiz guvoh bo‘lib turibmiz. Buyuk yozuvchimiz ularni millatdoshlarimizning ongi va qalbiga singdirish, uni ommalashtirish uchun o‘z jonini qurbon qilgan edi. Uning millatimiz ma’naviyatini saqlab qolish yo‘lidagi fidoiyligi hammani qolipga solish, yagona ma’naviyatni shakllantirishni maqsad qilgan, shu yo‘l bilan sobiq ittifoqdagi barcha millat va elatlarning ma’naviyati o‘rniga o‘zga xalq ma’naviyatining hukmronligini ta’minlash yo‘lida kamarbasta bo‘lgan ma’naviy qashshoq siyosatchilar va shovinistlarni dahshatga solgan edi. Masalan, millatimizda asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onamizni ulug‘lash, oila muqaddasligini himoya qilish, farzandning ota-ona oldidagi burchi, ularning gapiga quloq solish, qilinadigan katta ishlarni bamaslahat amalga oshirish, aka-ukalar opa va singillar, kelin, qayinota va qayinonalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, mehr-oqibat, ustoz va shogird hurmati kabi muaqaddas qadriyatlarni qayta tiklash milliy tarbiyamiz oldida turgan eng dolzarb vazifadir.

Ammo, bugun Yevropaga xos bo‘lgan individualizm, ota-ona holidan xabar olmaslik, aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi yaqinlikning bo‘lmasligi va ularning bir-birlarini qo‘llab-quvvatlamasliklar va boshqa bir qator holatlar millatimiz hayotiga kirib bormoqda. Bunday salbiy jarayonlarning oldini olish uchun ham milliy tarbiyamizning bosh yo‘nalishi globallashuv jarayonida sodir bo‘layotgan ana shu salbiy holatlarni barataraf etish taraqqiyotimiz talabi hisoblanadi. Bu xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev: “Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar va oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi”, degan edilar.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda biz uchun ommaviy madaniyat bu bir guruh boylikka o'ch odamlar tomonidan zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda axloqiy buzuvchilik, zo'rovonlik, o'z manfaatini o'zgarlar manfaatidan ustun qo'yish, "Men"ni ulug'lash kabilarni aks ettiruvchi har xil o'ta sayoz madaniyat asarlarini moddiy va ma'naviy hayot maydonlariga tashlab, ko'ngilocharlik bahonasida tijoratga asoslangan iste'molchilikni yo'lga qo'yib xalqlarni o'z milliy qadriyatlariga asoslangan madaniyatidan judo qilish evaziga katta daromad topishga qaratilgan aksilmadaniyatdir. Darhaqiqat, "ommaviy madaniyat" tahdidlarining inson ongiga salbiy ta'sirlari quyidagilardan iboratdir: "ommaviy madaniyat" inson ongini real hayotdan uzoqlashtiradi va soxta yaratilgan obrazlarga yo'naltiradi; aldovga oson ishonadigan shaxslarni paydo qiladi; insonni ishlab chiqaruvchiga emas, faqat iste'molchiga aylantiradi hamda insonni milliylikka borib taqaluvchi ildizlarini kesadi va ma'naviy jihatdan qashshoqlashtiradi. Afsuski, bugungi kunda ham jamiyatimizda "ommaviy madaniyat" niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning yoshlarimiz ongiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarini kuzatishimiz mumkin, jumladan: bizga ma'lumki internet orqali yoshlarimiz ko'plab ijtimoiy tarmoqlardan ro'yxatdan o'tishgan.

Oliy o'quv yurtlarining deyarli 90% talabalari internetning ijtimoiy tarmoqlaridan keng foydalanib kelishmoqda. Albatta, bu quvonarli holat, ammo hozirgi kunda yoshlarning 2 mln.dan ortiq qismi eng mashhur "Odnoklassniki.ru" deb nomlangan ijtimoiy tarmoqdan ro'yxatdan o'tganlar. Shuningdek, "V kontakte" ijtimoiy tarmog'ida 200 mingdan ortiq foydalanuvchilar mavjud. Amerika ijtimoiy tarmog'i xisoblangan Facebook tarmog'ida esa O'zbekiston yoshlari 130 mingdan oshib ketdi, ulardan 72% o'smirlar va yoshlardir. Ammo ushbu ijtimoiy tarmoqlarni yoshlar ma'naviy ongi uchun to'liq ijobiy ma'lumotlar beradi deya olmaymiz. Ayrim yoshlarimiz ushbu ijtimoiy tarmoqlardan o'z yaqinlari bilan uzoqni yaqin qiluvchi vosita sifatida foydalanishsa, ko'pchilik yoshlar zerikish natijasida axloqsizlikni targ'ib qiluvchi pornografik ma'lumotlar olishga, ma'naviy ongi va fikrlash doirasi axloqiy jihatdan past bo'lgan o'rtoqlar izlashga va ular bilan axloq chegaralaridan chetga chiqqan intim mavzularda suhbat qurishga harakat qiladilar. Shuningdek,

“ommaviy madaniyat” targ‘ibotchilari oilalarga, ayniqsa yosh oilalarga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, har bir millatning, har bir insonning ma’naviyati va o‘ziga xos madaniyati shakllanishida oilaning o‘rni beqiyos. “Ommaviy madaniyat”ni o‘ta mavhumlashtirib yubormasdan oddiygina usulda yoshlarimizga tushuntirib borilsa, har bir narsaga ko‘r-ko‘rona taqlid qilish emas, har qanday masalaga tanqidiy ruhda yondashish, yaxshi-yomonning farqini bilish ko‘nikmasini shakllantirishga erishish oson bo‘ladi. Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana gap nima haqida ketayapti!”.

Shunday ekan biz o‘z mafkuramizni turli xil yot g‘oyalar uchun bo‘shliqqa yo‘l ochib bermasligimiz, aksincha ularga qarshi o‘zimizda immunitet hosil qilishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekistonda inklyuziv ta’limning joriy etilishi. P.Q 4860.13.10.2020
2. "Ta’lim tog‘risida"gi Qonun 02.07.1992 yil. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi Toshkent 2011. Inklyuziv ta’lim shakllari haqida 128 bet.
4. Inklyuziv ta’lim jarayonini tashkil etish 134 135 betlar.
5. www.ipb.uz

ФИО автора: Abdurahimova Ra'no Sobitovna

Toshkent viloyati Toshkent tumanidagi 14- umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Название публикации: «QUYOSH VA QUYOSH ENERGIYASI»

Anotatatsiya: Quyosh koinotdagi behisob galaktikalardan biri Somon yo'li tekisligida o'rnashgan. Galaktikamizdagi barcha yulduzlar bir-biridan taxminan 4-6 yorug'lik yiliga teng bo'lgan masofada joylashib, harakat qiladi.

Kalit so'z: Quyosh, sayyoralar, yorug'lik, quyosh sistemasi

Quyosh. Quyosh koinotdagi yerga eng yaqin bo'lgan yulduz. U Quyosh tizimining markazida bo'lib, yorug'lik tarqatib turadigan gaz holidagi o'ta qizigan jismdir. Bu qizigan gaz sharning diametri 1mln. 391ming km ga teng, zichligi Yernikidan 4 marotaba kichik. Quyosh massasi juda katta, u butun Quyosh tizimi massasining 99,80 % ini tashkil qiladi. Quyoshning yuzasi Yer yuzasidan 12 ming marta, hajmi esa 1 mln. 300 ming marta katta. Quyosh diametri Yernikidan 109 marta katta. Quyosh yuzasidagi tortishish kuchi Yer yuzasi tortishish kuchidan 25 marta ko'p. Quyosh o'ta qizigan plazma - olovli sferik massa bo'lib, yuzasidagi harorat 5700°C ga, markazida esa harorat 15-20 million daraja, bosim 300 mlrd. atmosferaga teng. Bunday sharoitda vodorod geliyga aylanib, uzluksiz yadro reaksiyasi sodir bo'lib turadi. Oqibatda yulduzning markazidan issiqlik energiyasi tashqariga chiqib, Olamga tarqaladi. Quyosh nuri Yerga 8 minut 18 sekundda yetib keladi. Tovush tezligida (soatiga 1200 km) uchadigan reaktiv samolyot to'xtovsiz uchsa, Yerdan Quyoshga 14 yilda yetib borgan bo'lar edi.

Quyosh bizga eng yaqin (150 mln. km) joylashgan oddiy yulduzlarning biri. Shu sababli Quyosh bizga nuqta emas, doira shaklida ko'rinadi. Agar Quyosh nuri bizga 8 minut 18 sekundda yetib kelsa, ikkinchi yaqin yulduz Praksima Sentavr nuri Yerga 4,5 yilda yetib keladi.

Quyosh koinotdagi behisob galaktikalardan biri Somon yo'li tekisligida o'rnashgan. Galaktikamizdagi barcha yulduzlar bir-biridan taxminan 4-6 yorug'lik yiliga teng bo'lgan masofada joylashib, harakat qiladi.

Quyosh o'z o'qi atrofida Yerning 27 sutkasida bir marta aylanib chiqadi. Quyosh Yer va boshqa sayyoralar bilan birgalikda Gerkules yulduzlar turkumi tomon bir sekundda 19,7 km tezlikda harakat qiladi. Galaktikadagi hamma yulduzlar uning atrofida aylanadi. Quyosh galaktika markazidan 25 ming yorug'lik yiliga teng uzoqlikda joylashgan bo'lib, sekundiga taxminan 250 km tezlik bilan harakat qiladi va 200-250 million yilda galaktika atrofini bir marta aylanib chiqadi. Bu vaqtni galaktika yili deb ataladi. Barcha sayyoralar Quyosh atrofida ekliptika tekisligida Quyoshning aylanish yo'nalishiga mos holda harakat qiladi.

Quyosh energiyasi. Quyoshning markazida yadro reaksiyasi sodir bo'ladi. Bunda o'lgan miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Yerga Quyosh taratadigan issiqlikning milliarddan ikki qismi yetib keladi. Quyosh taratayotgan issiqlik bilan birga yilliga $1,4 \times 10^{12}$ t. modda Quyoshdan olib ketiladi. Olimlarning hisoblashlaricha 10 mlrd. yildan so'ng Quyosh so'nadi.

Quyoshning kimyoviy tarkibi quyidagicha: massasining 71 % i vodorod, 25,5 % i geliy, kolgan 3,5%i boshqa elementlardan (kislorod, karbonat angidrid, azot, magniy, natriy, kaliy va hk) tashkil topgan.

5.1.1. Quyoshning ichki tuzilishi

Quyoshning ichki tuzilishi qatlamsimon tuzilishiga ega. U yadro, issiqlikni nur orqali taralashi oblasti, konvektiv zona va Quyosh atmosferasi kabi qatlamlardan iborat.

Yadro - Quyoshning markazi bo'lib, unda bosim va harorat juda yuqori, natijada doimo yadro reaksiyalari sodir bo'lib turadi. Yadro deyarli ko'zga ko'rinmaydigan va harakatsiz o'ta yuqori haroratga ega bo'lgan gazlardan iborat.

Yadroning ustki qismida *issiqlikni nur orqali taralashi oblasti* joylashgan. Mazkur qatlamda issiqlikni tashqi qobiqlarga uzatilishi nur yordamida amalga oshiriladi, bunda gazlar harakatsiz qoladi. Mazkur jarayon quyidagicha sodir bo'ladi: yadrodan issiqlik nur oblastiga qisqa to'lqinli diapozonlarda keladi (gamma nur taratish), ketishda esa uzun to'lqinli (rentgenli) diapozonlarda ketadi, bu esa tashqarida haroratni pastligi bilan bog'liq.


Konvektiv oblast issiqlikni nur yordamida tashilish oblastining tepasida joylashgan. Mazkur oblast ham konvektiv holatdagi ko'zga ko'rinmaydigan gazlardan iborat.

Issiqlikning konvektiv harakati Quyoshning markazi va tashqarisida bosim va haroratning farqlari tufayli sodir bo'ladi.

Quyosh atmosferasi. Quyosh atrofini o'rab olgan, qizigan gazlardan iborat bo'lgan qatlam **Quyosh atmosferasi** deb ataladi. U o'z navbatida bir-biridan harorati va gazlarning holati jihatidan farqlanuvchi uch qatlamdan - fotosfera, xromosfera va Quyosh tojidan tashkil topgan (6-rasm).

Fotosfera. Quyoshning o'ta qizigan, ustki ko'rinishi notekis, gazsimon moddalar mavjud bo'lgan, yorug'lik tarqatuvchi yuzasi - **fotosfera** deb ataladi. Fotosfera Quyosh atmosferasining quyi qatlami. Bevosita konvektiv oblastining tepasida joylashgan. Fotosfera qizigan, ionlashgan gazlardan iborat. Uning qalinligi 200 km, quyi qismida (asosida) harorat 6000°C , yuqori qismida esa 4500°C . Fotosfera juda yupqa gaz qatlamidan iborat.

Quyoshda vodorod geliyga aylanib, uzluksiz yadro reaksiyasi sodir bo'lishi oqibatida markazdagi issiqlik energiyasi tashqariga otilib chiqadi. Natijada fotosfera yuzasidan o'ta qizigan (olovli) mahsulotlar alangasimon yoki girdob



6-rasm. Quyosh atmosferasining tuzilishi (Baratov P., 2010).

(quyun) shaklida sekundiga 700 km tezlikda 160 ming km, ba'zan 586 ming km balandlikgacha tarqaladi. Fazoga uloqtirilayotgan bunday plazma (olovli) gazlarni fanda *protuberantslar* deb ataladi.

Xromosfera. Quyosh to'la tutilganda qoraygan doiraning eng chekkasida och qizil yog'du ko'rinadi. Ana shu yog'du ***xromosfera*** deyiladi. Xromosfera fotosferaning tepasida joylashgan. U 18 000 km balandlikgacha ko'tarilib, harorati 5000°Sga yetadi.

Quyosh toji – Quyoshning tashqi atmosferasi hisoblanib, u xromosferadan yuqorida joylashgan. Quyosh toji juda siyrak ionlashgan gazlardan iborat. U elektron va proton bilan zaryadlangan zarrachalar «Quyosh shamoli»ni hosil qilib, sekundiga 500 km tezlikda 500 000 000 km masofaga tarqalib ketadi. Quyosh tojining tashqi qatlamlari koinotga toj gazlarini tarqatadi.

Olimlar Quyosh tizimini ikki faslga - qulay va noqulay fasllarga ajratadi. Quyosh tizimining *qulay fasli* deganda uning o'z orbitasi bo'ylab o'nlab yillar davomida bir me'yorda harakatlanishi tushuniladi. Bu faslda Yerdagi hayot ham bir maromda qulay geografik sharoitda davom etadi. Quyosh tizimining noqulay faslida (xuddi har 76 yilda Galliley kometasining Yerga yaqinlashgani kabi) Quyoshga qandaydir yulduzlar olamidani birortasi yaqin kelib qolishi mumkin. Bu davrda Nyuton qonuniga binoan o'zaro tortishish kuchi ta'sirida Quyosh tizimidagi sayyoralarning o'rni o'zgarishi mumkin. Oqibatda, dahshatli zilzilalar, suv toshqinlari, kuchli bo'ronlar, tufonlar kabi tabiiy hodisalar sodir bo'lishi mumkin.

Ma'lumki, Quyosh faolligi sikllik harakteriga ega. Chunki, har 11-12 yilda Quyosh yuzasida dog'larni o'zgarib turishi oqibatida u bilan bog'liq holda Yer shari geografik qobig'i tabiiy jarayonlarida, xususan, iqlimda (yog'in miqdorining o'zgarishi), suv toshqinlari yoki kamayishi kabi o'zgarishlar sodir bo'ladi.

ФИО автора: Atoyeva Zarnigor Azimovna

Buxoro viloyati Romitan tumani 7- umumiy o'rta ta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Название публикации: «BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIGA ALIFBONI O'QITISH USULLARI VA BOSHQICHLARI»

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining savod chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda qo'llaniladigan metodlar haqida tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, bo'g'inlar jadvali, dam olish daqiqasi, savod chiqarish, aksini ayt o'yini.

Bizga ma'lumki savodo'rgatish juda murakkab jarayon bo'lib, 4 oy davom etadi. Birinchi sinf o'quvchilari bu jarayonda bir xil o'zlashtira olmaydilar. Ayrim o'quvchilar tez o'rgansalar, ayrimlari o'zlashtirishda ortda qoladilar.

Savod o'rgatish jarayoni 2 davrga bo'linadi:

Alifbogacha tayyorgarlik davri. (2 hafta) 2. Alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

1. Alifbogacha tayyorgarlik davrida bolalar maktab, sinf, tartib-intizomqoidalari, o'quv qurollari, bilan tanishadi, nutq o'stirishga oid mashqlar o'tkazilib, fonematik eshitishni o'stirishdan iborat.

I. Alifbogacha tayyorgarlik davri ikki bosqichga bo'linadi:

1. Harf o'rganilmaydigan bosqich (1 hafta)

2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqich (1 hafta)

1. Harf o'rganilmaydigan bosqich- bu jarayonda maxsus nusxalar asosida o'quvchilarning bog'lanishli nutqi ustida ishlanadi. Ularga "Alifbe"da berilgan rasmlar asosida hikoya, tuzdirishdan tashqari o'zlari bilgan she'r, ertak, hikoya, tezaytish, maqol, topishmoq qo'shiqlar aytiriladi. Yozuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtiriladi, harf elementlari yozishga o'rgatiladi.

2. Unli tovush va harf o'rganiladigan bosqichda unli tovush-harflar o'rgatiladi.

II. Alifbo davri. Bu davr. 31-dekabrgacha davom etib, unda o‘quvchilar alifbodagi barcha unli va undosh –harflar bilan tanishadilar.

Savod chiqarish jarayoni bosqichlari bilan ham tanishib oldik. 4 oy davom etadigan ushbu jarayonni bosqichli amalga oshirish davomida boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari ham o‘quvchilarimiz ham bir qator qiyinchiliklarga uchraydi.

Birinchi sinf o‘quvchilari bog‘chada yoki uyda ko‘p vaqtini o‘ynab o‘tkazganligi sababli sinfda o‘tirib, dars mavzusini tinglashi qiyin bo‘ladi. Ularni ko‘niktirish mashg‘ulotlarga qiziqtirish kerak.

Sinfxona ko‘rinishi jihozlanishida chinakam “mo‘jiza” yaratish yaxshi natija beradi. Bunda har o‘qituvchi xonaga ertak qahramonlari aks ettirilgan bukletlar tayyorlash, turli xil rangli qog‘ozlardan katta harflar yasab sinf pardalariga ilish o‘ziga xos bezatish lozim.

Илгари кичик меъморий шакллар фақат прагматик маънога эга эди, аммо архитектура ва дизайннинг ривожланиши билан - улар шаҳарсозликда муҳим эстетик рол ўйнади. Ва, бунёдкорлик ишлари билан шуғулланувчи соҳа мутахассислари бадиий-безак элементларидан оқилона фойдаланиш йўллари, тамойиллари ва комплекс лойиҳаларни яратиш бўйича бошқотира бошлашди.

Қуйида ободончиликда кичик меъморий шаклларнинг умумий вазифалари келтирилган:

- муҳитнинг қулайлик даражасини яхшилаш;
- атрофдаги маконни безаш;
- ҳудуд чегарасини зоналаштириш;
- макон услубий ҳамжамиятни яратиш;
- атроф-муҳитни лойиҳалашда бирон бир нарсага эътиборни қаратиш.

Кичик меъморий шаклларнинг яна бир муҳим ва кўп жиҳатдан қизиқарли вазифаси инсон қурган сунъий иншоотлар ўртасида табиий муҳит билан алоқани яратишдир. Бундай ҳолда кичик меъморий шакллар бинолардан табиий муҳитга "силлиқ ўтишни" таъминлайди.

Айтилганидек, кичик меъморий шаклларнинг асосий мақсади фақат икки гуруҳга бўлинади:

1. Фойдаланувчи. Булар инсоннинг қулай муҳитдаги эҳтиёжларини қондириш учунгина хизмат қилади.
2. Безак. Бу гуруҳнинг кичик меъморий шакллар- санъатга мансублиги билан аввалгисидан фарқ қилади.

Бугунги кунда, кичик меъморий шаклларнинг вазифалари фақат биргина функцияни бажариши камдан-кам ҳолларда кузатилади.

Улар одатда утилитар ва декоративликни бирлаштиради. Кичик меъморий шакллар деярли ҳамма жойда ишлатилади: шаҳар кўчаларида оммавий турар-жойларни ривожлантириш доирасида ва жамоат жойларида, боғ ва паркларда, спорт ва кўнгилочар объектлар ҳудудларида, транспорт ёқалари атрофини ташкиллаштириш ва бошқалар. Ўрнатиш жойига қараб, турли хил кичик меъморий шакллар ишлатилиши мумкин:

-ўсимликлардан фойдаланиш (клумбалар, перголалар, гулзорлар, трельяжлар);

-кўкаламзорлаштириш элементларидан ташқари (декоратив тошлар, ҳайкаллар, ёдгорликлар, киосклар ва бошқалар.).

Ўсимликлардан фойдаланмасдан кичик меъморий шакллар ҳам кўкаламзорлаштириш билан боғлиқ бўлиши мумкин, фақат бу ерда у структуранинг афзалликлари аниқроқ ифодаланадиган фон ролини ўйнайди.

Кичик меъморий шакллар рўйхати жуда хилма-хил ва турли хил декоратив ва функционал маҳсулотларни ўз ичига олади.

- зиналар ва тўсиқлар;
- ҳайкаллар ва фавворалар;
- ёритиш полосалари;
- ахборот бурчаклари;
- гулзорлар ва клумбалар;
- майсазорлар;
- меъмориал архитектурасининг кичик шакллари;
- плакатлар ва рекламалар ва ҳоказо.

Темир йўл объектлари ва унинг ҳудудида кичик меъморий шаклларни ташкиллаштиришдаги меъёрлар.

Станциянинг бир қисми сифатида визуал коммуникациялар (ўриндиқлар, киоскалар, гул дўконлари ва бошқалар) кичик меъморий шакллар ва воситалар мажмуасини лойиҳалаш), турли белгилар, плакатлар, ахборот кўргазмалари, пиктографлар ва бошқалар.). Улар ахборотни яхшилаш, транспорт оқимларини ташкил этишни такомиллаштириш ва йўловчиларни йўналтиришга кўмаклашиш, уларнинг ҳаракат хавфсизлигини яхшироқ таъминлаш учун мўлжалланган, яъни йўловчиларга хизмат кўрсатиш учун янада қулай шарт-шароитлар яратиш, об-ҳавонинг салбий ҳолатларидан ҳимоя қилиш, станция ҳудудини ободонлаштириш ва унинг жозибадорлиги ва эстетик сифатларини ошириш. Бундан ташқари, маҳаллий шароитларга қараб йўловчиларга тарихий,

маданий, меъморий ва бадий ёдгорликлар ҳамда жойнинг бошқа диққатга сазовор жойлари ҳақида маълумот бериш учун улардан фойдаланиш лозим. [1].

Кичик меъморий шакллар ва кўргазмали алоқа элементларининг сони, ҳажми ва жойланиши станциянинг мақсади ва ҳажми, йўловчи ташиш ҳажми ва бошқа маҳаллий шароитларга қараб лойиҳаланиши лозим., одатда платформада жойлаштирилган элементларнинг минимал сони кўрсатади.

Кичик меъморий шакллар ва визуал алоқа воситалари лойиҳанинг маҳаллий шароитларига қараб, темир йўл вокзали биноларида, прогноз, платформалар ва темир йўл кесишмаларида жойлаштирилиши керак. Темир йўл станциясининг бошқа элементлари билан биргаликда улар ягона архитектура-режалаштириш ва бадий композицияни шакллантириши ҳамда мамлакатнинг бутун темир йўл тармоғи станциялари учун мазмун ва шаклда ягона тизимни ифодалаши ва умумий меъморий-график услубга эга бўлиши керак. Визуал ахборот элементлари-шрифтлар ва пиктограммалар (белги-нишонлар) барча станциялар учун бир хил бўлиши керак, яхши ўқилиши ва йўловчилар томонидан. Станциянинг ранг схемасига ва визуал коммуникацияларнинг, айниқса пиктограммаларнинг рангли кодлашларига алоҳида эътибор бериш керак. [2].

Кўплаб шаҳарлар мисолида гулларни, майсаларни ҳамда турли ўсимликларни гулдонларда ўстиришга ҳаракат қилиб кўрилган. Лекин доимий парваришга эҳтиёж туфайли бундай тажрибалардан воз кечилган.

Кичик меъморий шакллар темир йўл ёқаларида композицион муҳим рол ўйнайдиган алоҳида турган объектлар кўринишида ҳам жойлашиши мумкин.

Умуман, йўллар яқинидаги кичик меъморий шакллар меъморий жанрнинг алоҳида бир тури сифатида қаралиши керак.

Улар икки услубий йўналишда:

1. Меъморчиликда фольклор миллий анъаналаридан фойдаланиш. Одатда, қишлоқ меъморчилигининг конструктив ва бадий методларидан фойдаланилади - Бурятия, Хакасия. Бундай элементлар атрофдаги ландшафтга осонгина мос келади, маҳаллий материаллардан тайёрланади ва йўлда

йўловчилар томонидан яхши қабул қилинади. Фольклор объектларининг камчилиги уларнинг индивидуал ишлаб чиқарилишидир. [4].

2. Замонавий қурилиш материаллари алюминий, пластмасса, пўлат, темир-бетондан кенг фойдаланган ҳолда оммавий ишлаб чиқариш учун илғор технологик техникалардан фойдаланиш. Шуниси қизиқки, бундай объектлар урбанизациялашган ёки қисман урбанизациялашган муҳитга яхшироқ мос келади.

Стандарт туридаги шакллар табиий ландшафт билан етарли даражада уйғунлашмайди. Бу ерда" фольклор " йўналиши, табиий материалдан, рангдан кенг фойдаланиш мақбулроқ.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, бугунги кундаги республикамиздаги жадал суръатлардаги шаҳарсозлик, ободонлаштириш ва турли соҳаларда бўлаётган ўзгаришларни кўриб, нафақат маҳаллий аҳолимизда балки бошқа давлатлардан келаётган меҳмонларнинг ҳам қизиқиш ортиб бормокда. Тўғри, бу бизни қувонтирадиган ҳолат, лекин ҳали бажарилиши керак бўлган ишлар етарлича. Бу гап билан айтмоқчимизки, энди темир йўллар ёқалари ҳудудини ҳам тўғри ташкиллаштиришимиз ва янги лойиҳавий таклифлар орқали унинг визуал кўринишини ўзгартириш вақти келди назаримизда. [3].

Адабиётлар

1. Отраслевые нормы технологического проектирования железнодорожных вокзалов для пассажиров дальнего следования

<http://docs.cntd.ru/document/1200029388>

2. Отраслевые нормы технологического проектирования железнодорожных вокзалов для пассажиров дальнего следования

<http://docs.cntd.ru/document/1200029388>

3. Дорожная архитектура малых форм

https://studopedia.su/10_142445_dorozhnaya-arhitektura-malih-form.html

4. Разработка метода проектирования железной дороги по цифровой модели местности Диссертации в Техносфере: Изыскания и проектирование железных дорог. И.И. Контор. М., 2003.ст -172].

ФИО автора: Элибоев Шероз Шакарбой ўғли 201-“Шаҳар ва қишлоқ аҳоли яшаш жойини комплекс қуриш” (Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти)

ФИО научного руководителя: проф. О.М. Салимов (ТАҚИ), архитектура фанлари доктори,

Название публикации: «ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИҚЛИМИ ШАРОИТИДА АГРОСАНОАТ МАЖМУАСИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ»

Аннотация. Мазкур мақолада минтақада аграр соҳасини рақамлаштиришнинг устувор йўналишларини шакллантириш. Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан, сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ва экинлар ҳолатини назорат қилишнинг идоровий ва идоралараро ахборот тизимларини жорий этиш. Агросаноат мажмуидаги ташкилотлар томонидан кўрсатиладиган хизматларни, шу жумладан, давлат хизматларини тўлиқ электрон шаклга ўтказиш. Қишлоқ хўжалиги соҳасида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш учун давлат-хусусий шериклик шартлари асосида мақсадли лойиҳаларни амалга ошириш тўғрисида маълумот берилган.

Аннотация. В статье описаны приоритеты цифровизации аграрного сектора региона. Внедрение ведомственных и межведомственных информационных систем для эффективного использования сельскохозяйственных земель, водных ресурсов и контроля за состоянием посевов. Передача услуг, предоставляемых организациями агропромышленного комплекса, в том числе государственных, в полной электронной форме. Была предоставлена информация о реализации целевых проектов на основе государственно-частного партнерства по внедрению современных информационно-коммуникационных технологий в сельском хозяйстве.

Annotation. This article describes the priorities for the digitization of the agricultural sector in the region. Introduction of departmental and interdepartmental information systems for efficient use of agricultural lands, water resources and control over the condition of crops. Transfer of services provided by organizations in the agro-industrial complex, including public services, in full electronic form. Information was provided on the implementation of targeted projects on the basis of public-private partnership for the introduction of modern information and communication technologies in agriculture.

Калит сўзлар: агросаноат, интенсив боғлар, ахборот хавфсизлиги, Ақли кишлоқ, электрон тижорат, субъект, лойиҳа, сув ресурслари, ирригация тизимлари, ахборот-коммуникация, кишлоқ хўжалиги.

Ключевые слова: агропромышленный комплекс, интенсивные сады, информационная безопасность, интеллектуальное сельское хозяйство, электронная коммерция, предмет, проект, водные ресурсы, ирригационные системы, информация и связь, сельское хозяйство.

Keywords: agro-industry, intensive gardens, information security, smart agriculture, e-commerce, subject, project, water resources, irrigation systems, information and communication, agriculture.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сон Фармони ҳамда «Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 28 апрелдаги ПҚ-4699-сон қарорига мувофиқ, шунингдек, кишлоқ ва сув хўжалигида рақамли ва геоахборот технологияларидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси қарор қилади:

1. Қуйидагилар Ўзбекистон Республикаси аграр соҳасини рақамлаштиришнинг устувор йўналишлари этиб белгилансин:

-қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлардан, сув ресурсларидан самарали фойдаланиш ва экинлар ҳолатини назорат қилишнинг идоравий ва идоралараро ахборот тизимларини жорий этиш;

-агросаноат мажмуидаги ташкилотлар томонидан кўрсатиладиган хизматларни, шу жумладан, давлат хизматларини тўлиқ электрон шаклга ўтказиш;

-қишлоқ хўжалиги соҳасида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш учун давлат-хусусий шериклик шартлари асосида мақсадли лойиҳаларни амалга ошириш;

-сув омборлари ва ирригация тизимларида сув ресурсларидан фойдаланишни «онлайн» режимида назорат қилиш технологияларини жорий этиш;

-сув ресурсларини бошқариш тизимини такомиллаштириш, сувдан фойдаланиш ва сув истеъмоли ҳисобини юритиш ҳамда маълумотлар базасини шакллантириш;

-бизнес-стартап лойиҳаларни амалга ошириш ва инновацион фаолият натижаларини тижоратлаштириш учун аграр соҳадаги тадбиркорлик субъектларига кўмаклашиш.

«Рақамли қишлоқ хўжалиги» ахборот тизимида ва Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги тизимида дастурий маҳсулотларнинг узлуксиз ишлашини таъминлаш;

-агросаноат ва озиқ-овқат соҳасига оид маълумотлар базасини яратиш;

-агросаноат мажмуидаги барча вазирлик, идора ва ташкилотлар ҳамда хўжалик юритувчи субъектларнинг маълумотлар узатиш тармоғини лойиҳалаштириш;

-қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш ва сотиш жараёнига электрон тижорат амалиётини жорий этиш;

-агросаноат мажмуидаги вазирлик, идора ва ташкилотларга интерактив давлат хизматларидан, жумладан, интернет жаҳон ахборот тармоғидаги шахсий кабинет орқали фойдаланишда кўмаклашиш;

«Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияларини жорий этиш учун технологик шароитлар яратиш;

-агросаноат мажмуи учун махсус дастурий маҳсулотларни ишлаб чиқиш ва татбиқ этиш, интеграциялашган ягона ахборот тизими иш фаолиятини ташкил этиш ҳамда белгиланган тартибда очик турдаги маълумотлардан фойдаланишни таъминлаш;

-ахборот хавфсизлигини таъминлаш доирасида қўлланиладиган махсус дастурий маҳсулотларни жорий этиш. Бунда Марказнинг мавжуд ички ахборот тизимларидан ва «Рақамли қишлоқ хўжалиги» ахборот тизимидан фойдаланишда ахборот хавфсизлиги хавфларини аниқлаш ва уларнинг олдини олиш чораларини кўриш;

2. Стратегия «Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияларини ривожлантиришнинг кўйидаги узок муддатли асосий йўналишларини белгилаб беради:

-қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланишда рақамли ва геоахборот технологияларини жорий этиш;

-замонавий компьютер технологияларини татбиқ этиш орқали сув ресурсларини бошқариш ва ундан фойдаланиш;

-интенсив боғларни ташкил этиш ва боғдорчилик маҳсулотларини етиштиришда автоматлаштирилган бошқариш технологияларини жорий этиш;

-иссиқхона хўжаликларида автоматлаштирилган, компьютерлаштирилган интеллектуал технологияларни жорий этиш;

-чорвачилик ва паррандачилик соҳасига автоматлаштирилган технологияларни татбиқ этиш;

-қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш жараёнларига замонавий технологияларни жорий этиш, замонавий ахборот ва коммуникация

технологиялари билан жиҳозланган логистика ва савдо марказларини ташкил этиш;

-қишлоқ хўжалигининг барча йўналишлари учун «Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологиялари бўйича малакали кадрлар тайёрлаш ва кадрлар малакасини ошириб бориш;

Мамлакатимизда «Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияларини жорий этишнинг норматив-ҳуқуқий базасини шакллантириш.

Қишлоқ хўжалиги тизими фермер хўжаликлари, деҳқон хўжаликлари ва қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотлар, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини тайёрлаш, қайта ишлаш, моддий-техника ресурсларини етказиб бериш билан шуғулланувчи, механизациялашган ишларни бажарувчи, хўжаликларга сервис, агрокимё, агротехника хизматлари ва хўжаликларга қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш билан боғлиқ бошқа хизматлар кўрсатувчи тайёрлов, хизмат кўрсатиш ташкилотларини қамраб олади.

Давлатимиз мустақилликка эришганидан сўнг агросаноат соҳасининг бозор ва экспортга йўналтирилган рақобатбардошлигини таъминлашда, фермерлар даромадини оширишда, янги иш ўринларини яратишда, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда ҳамда табиий ресурслардан барқарор фойдаланишда ёрдам берувчи, жаҳонда янги термин остида мужассамлашган «Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияларининг кенг имкониятларидан фойдаланишни ва уни алоҳида самарали тармоқ сифатида шакллантириш вазифаси долзарб бўлиб турибди.

«Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияларини жорий этиш тизимининг ривожланиши ушбу белгиланган мақсадли кўрсаткичлар ва индикаторларга эришилишига асосланади. Агросаноат мажмуасида ишлаб чиқаришни асосий мақсади — қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини ва чорва моллари маҳсулдорлигини оширишга эътибор қаратган ҳолда, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришга юқори технологияларни жорий этиш бўйича чора-тадбирларни амалга ошириш ҳисобланади. Бунинг учун бошқарув самарадорлигини ошириш куйидагилардан иборат:

-ресурс тежайдиган технологиялар, хусусан, аниқ уялаб экадиган сеялкалар, GPS ускуналар билан жиҳозланган қишлоқ хўжалиги техникаларини қўллаш;

-сув ресурслари, минерал ўғитлардан самарали фойдаланишни назарда тутувчи сувни тежайдиган, автоматлаштирилган суғориш технологияларини қўллаш;

-чорва молларини парваришлаш ва сут соғиш бўйича автоматлаштирилган технологияларни жорий қилиш;

-қишлоқ хўжалигига замонавий касбий билимга эга ходимларни жалб этиш;

-рақамли шаклдаги маълумотлар алмашинувига ўтиш, ҳисобот турларини қисқартириш орқали иштирокчилар ўртасида ва давлат билан ўзаро ҳамкорлик самарадорлигини ошириш;

-қишлоқ хўжалиги соҳасининг қуйи тармоқлари ва ҳудудлари учун умумфойдаланишга қаратилган билим ва технологиялар базасини яратиш;

-қишлоқ хўжалиги экинларининг иқлим ўзгаришига мосланувчанлиги ва чидамлилигини ошириш;

-ички бозор ва экспортга йўналтирилган рақобатбардош қишлоқ хўжалигини шакллантириш;

-озик-овқат хавфсизлигини мустаҳкамлаш ва атроф-муҳитни муҳофаза қилишни кучайтириш;

-давлат-хусусий шериклик шартлари асосида давлат харажатлари самарадорлигини ошириш;

-хорижий аналогларга мос келадиган «Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияларини режа асосида жорий этиб бориш;

-инновацион ечимларни жорий этиш орқали қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқарувчиларнинг логистика инфратузилмаси самарадорлигини ошириш.

-қишлоқ жойларда ахборот-коммуникация технологияларини жорий этиш учун қулай муҳит яратиш;

-рақамли технологиялардан фойдаланган ҳолда, қишлоқ хўжалиги ерларида навигация тизимини ривожлантириш, шу жумладан, фермер хўжаликларига

очик ахборотни тақдим этиш, рақамли технологиялар тизимини жорий этишни жадаллаштириш;

-«Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияси республиканинг барча ҳудудларини тўлиқ қамраб олишини режалаштириш ва уни амалга ошириш;

-хўжалик юритувчи субъектларда маблағлар айланишини тезлаштириш орқали давлат хизматларини кўрсатиш муддатларини қискартириш;

-қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни прогнозлаштириш платформаси, қишлоқ хўжалиги техникасини бошқариш, об-ҳаво прогнози ва ўсимликлар вегетациясини назорат қилиш воситалари, ишлаб чиқаришни режалаштириш ва бошқариш элементлари ҳамда қишлоқ хўжалиги рақамли платформасини рақамли иқтисодиёт жараёнлари билан интеграциялаш;

-қишлоқ хўжалиги рентабеллигини оширадиган ва иқтисодий асосланган илғор технологиялар ва амалий тажрибаларни, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришда «дала-пештахта» тамойилини жорий этиш;

-ернинг сунъий йўлдошлари ва учувчисиз учиш аппаратларининг сигналлари асосида маҳаллий аппаратура ва ускуналар учун функционал талабларни ишлаб чиқиш;

-тупроқ ҳолати, таркиби ва тузилишини таҳлил қилишнинг рақамли технологиясини қўллаш, қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигининг мониторингини юритиш, ҳосилдорликка зараркунандалар ва касалликлар ҳамда бошқа омилларнинг зарарли таъсирини олдиндан таҳлил қилиб бориш;

-минерал ўғит ва кимёвий воситаларни дифференциялашган ҳолда тупроққа бериш бўйича маҳаллий аппаратларнинг техник талабларини ишлаб чиқиш ва жорий этиш ҳамда «Аниқ деҳқончилик» платформаси учун тупроқнинг рақамли агрокимёвий картограммаларида ҳар бир қишлоқ хўжалиги ерларининг алоҳида хусусиятлари кўрсатилишини таъминлаш;

-илғор тажрибага асосланган илмий салоҳиятдан фойдаланиш орқали юқори сифатли, экологик жиҳатдан хавфсиз қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун республика ҳудудлари бўйича рақамли ечимлар матричасини яратиш;

-маълумотларни таҳлил қилиш орқали ер ва сув ресурсларидан фойдаланишни назорат қилиш ва мониторингини олиб бориш, таҳлилий рақамли воситаларни ва тартибга солувчи ечимларни интеграциялаш;

-сув ресурслари ва минерал ўғитлардан самарали фойдаланишни назарда тутувчи сувни тежайдиган ва автоматлаштирилган суғориш технологияларини кенг жорий этиш;

Интенсив боғ ташкил этиш, боғларни автоматик тарзда бошқариш технологияларини жорий этиш:

-робототехника, ҳайдовчисиз машина, агрегатларни қўллаган ҳолда, боғдорчилик маҳсулотларини етиштиришнинг барча технологик жараёнларини амалга оширувчи ва назорат қилувчи «Ақлли боғ» тизимини ишлаб чиқиш;

-кам ҳосилли ва эски боғлар ўрнига интенсив технологияларга асосланган мевали боғ майдонлари ҳажминини кўпайтириш;

Хулоса қилиб шуни айтиш лозимки, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини сақлаш ва қайта ишлаш жараёнларига замонавий технологияларни жорий этиш, замонавий ахборот коммуникациялари билан жиҳозланган логистика ва савдо марказларини ташкил этиш. Мамлакатимизни қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини экспорт қилувчи етакчи давлатлар қаторига олиб чиқиш учун қишлоқ хўжалиги маҳсулотларининг ишлаб чиқариш жараёнлари ва стандартларини халқаро талабларга мослаштириш;

-маҳсулотларнинг биржа ва омборхоналарда мавжудлиги (пахта, ғалла, ёғ, шакар, гуруч ва бошқалар) ҳамда улардан мавсумий савдо талаби ва таклифи мувозанатини молиявий ростловчи бошқарув воситалари сифатида фойдаланиш;

-бозор иштирокчилари ва давлат ўртасида ўзаро рақамли шаклдаги алоқани кучайтириш, ахборот ресурсларини интеграциялаш ҳамда ахборотдан тезкор ва эркин фойдаланиш имкониятини яратиш;

-қишлоқ хўжалигида масофавий таълимнинг рақамли муҳитини ва профессионал агроконсалтинг бозорини ривожлантириш;

-қишлоқ хўжалигида транспорт ва логистика инфратузилмасининг ҳолисона мониторингини олиб бориш ва бошқарув платформаларини жорий қилиш;

-қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришда етакчи хорижий технологияларни импорт ўрнини босувчи маҳаллий технологияларга босқичма-босқич алмаштириш мақсадида қўлланилаётган стандарт ва техник талабларни халқаро талабларга мослаштириш;

-қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг барча босқичларидаги технологик жараёнларда қўлланиладиган рақамли бошқариш технологияларини (ишлаб чиқаришни биологизациялаш) синовдан ўтказиш, таҳлил қилиш ва жорий этиш (дифференциал минерал ўғит бериш, бошқариладиган ва назорат транспорт воситалари, ҳосилнинг самарали ўрим-йиғими ва ўрим-йиғимдан кейинги логистика);

-қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришни бошқариш бўйича ахборот тизимлари ўртасидаги маълумотлар алмашинувининг халқаро стандартлар билан мувофиқлигини таъминлаш мақсадида рақамли ечимлар асосида етакчи провайдерларнинг рақобатбардошлигини ошириш;

-қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини харид қилиш, экспорт ва импортини бошқариш бўйича ахборот тизимларини яратиш учун маълумотлар базасини шакллантириш;

-бозор иштирокчилари ва давлат ахборот тизимларини интеграциялаш, қишлоқ хўжалигида инновацион технологияларнинг экологик ва иқтисодий самарадорлиги, барча ишчи тизимлар, шу жумладан, кузатув тизимлари, уруғ ва генетик ресурслар фонди ҳамда минерал ўғитларни етказиб берувчилар тўғрисидаги маълумотлар базасини шакллантириш;

Қуйидагилар йўналишлар бўйича ишлар натижалари ҳисобланади:

-асосий турдаги қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат маҳсулотлари бозорларининг ҳолати тўғрисида ўрта муддатли прогнозлар;

-қишлоқ хўжалиги ва қайта ишлаш саноатининг жойлашиш схемаси;

-аграр сиёсатнинг қишлоқ хўжалиги ҳолати, истеъмолчилар даромади, озиқ-овқат маҳсулотлари ва қишлоқ хўжалиги хомашёси ташқи савдосининг динамикасига таъсирини баҳолаш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. **Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А. АРИПОВ.** Тошкент ш.,2020 йил 17 декабрь,794-сон
2. **Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 17 декабрдаги 794-сон қарорига 1-ИЛОВА«Ақлли қишлоқ хўжалиги» технологияларини ривожлантиришСТРАТЕГИЯСИ**

ФИО автора: Ashurov G'anisher Alisherovich

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Название публикации: «INSULIN BU OQSIL TABIATLI GORMON»

Аннотация: Ushbu maqola Insulin va uning organizmidagi o'rni va organizmda kechadigan bioximyoviy mexanizmlardagi roli, qandli diabetning yuzaga kelishida organizmda o'zgarishlarni keltirib chiqarishligi xaqida.

Калит so'zlar: Insulin, gipergilikamiya, glikozuriya, atetonomiya, atsetonuriya, geksokinaza, krebs sikli, langergans orolchalari, proinsulin, glikogen, pentozofosfat.


Insulin gormoni tabiati jihatdan oqsildir. Insulin hosil bo'lishi jarayoni oshqozon osti bezining Langergans orolchalarida hosil bo'ladi deb qaraladi. Bioximyaviy nuqtai nazardan olganda esa Insulin Langergans orolchalarining b-hujayralaridan dastavval proinsulin ya'ni dastlabki insulin holatida sintezlanadi, lekin bu to'la qonli insulin degani emas, balki proinsulin qisman proteoliz yo'li bilan insulinga aylanadi.

Insulin organizmda o'zgarishi quydagi mexanizm asosida amalga oshadi:

Insulin gormonining ta'sir etish mexanizmi o'rganib chiqilmagan.

Lekin biz inson organizmidagi moddalar almashinuvi jarayonlarini yanada to'loqonli ravishda chuqurroq taxlil qilib chiqadigan bo'lsak, shu bilan birga insulinning bog'liq jihatlarini ham tadqiq qilsak amalda ko'zlagan maqsadimizga erisha olamiz.



Hozirgi kunga kelib insulin va shu qatori barcha oqsil tabiatli gormonlar birlamchi ta'sirining membranada joylashganligi aniqlangan. Insulin gormoni



yetishmovchiligi uglevodlar almashinuvi regulyatsiyasini buzadi, oqibatta esa qandli diabet kasalligi kelib chiqadi.

Bu jarayon yuzaga kelib chiqqanida gipergilikamiya va glikozuriya qondagi qandning miqdori hatto 1000mg% ko'rsatkichidan

ham oshib ketishligi mumkun bo'lib qoladi va siydik bilan glyukoza ko'p miqdorda



ajralib chiqa boshlashligi mumkin. Birgina bu emas atetonomiya va atsetonuriya qonda atseton, atseto sirka kislota va goksimoy kislotalarining miqdori oshib ketadi, hattoki siydik orqali ham ko'p miqdorda ajralib chiqa boshlaydi. Uglevodlar almashinuvi regulyatsiyasi organizmda buzulganda glioksimoy va atsetosirka kislotalari atsetonga aylanadi, sog'lom insonlarda esa

glioksimoy va atsetosirka kislotalari CO_2 va H_2O gacha oksidlanib ketadi.


Shu bilan birgalikda qandli diabetda organizm ichki muhitida ham o'zgarishlar fizologik jihatdan jadallashadi, qonning PH 7 va normadan buzulishiga olib keladi,

natijada qondagi oqsilning to'qimalarda parchalanishi tezlashadi, oxir oqibat azot tuvchi oxirgi moddalar ham siydik bilan birgalikda jadallik bilan ajaralib keta boshlaydi. Shu tariqa kasallangan organizmda suv va tuz almashinuvi buzuladi.


Demak, organizmda qandli diabet yuzaga keldimi quydagi bioximyoviy o'zgarishlar yuzaga kelib chiqadi:

1. Organizmda glikogen sintezi pasayadi ayrim holatlarda butkullay toxtaydi.
2. Geksokinaza fermentining faolligi pasayib, glyukoza-6-fosfatazaning faolligi oshadi bunda glyukoza-6-fosfatning hujayrada miqdori kamayadi.
3. Organizmda krebs siklining tezligi susayadi.
4. Glyukoza-6-fosfatdehidrogenaza va fosfoglyukonatdrogenazalarning faolligi pasayishi glyukozaning pentozofosfat yo'li bilan oksidlanishini kamayishiga olib keladi.
5. Organizmda glyukozaning lepidga aylanishi toxtab qoladi.
6. Aminokislotalarning va yog'larning parchalanishi mahsulotlaridan glyukozaning sintezlanishi tezlashadi.

Organizmda insulin yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan holat mehanizimi:



Insulin gormonining yetishmovchiligi uglevod almashinuvi buzulishiga va regulyatsiyaning buzulishi esa uglevodlarning buzulishiga emas, balki organizmdagi aminokislotalar, yog'lar, suv va mineral tuzlar almashinuvining buzulishiga olib kelishi o'rganib chiqilgan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. R.A.Sobirova, O.A.Abrorov, F.X.Inoyatova, A.N.Aripov "Biologik kimyo". "Yangi asr avlodi" 2006-yil.
2. A.Ya. Nikolayev. Biologik kimiyo. Toshkent. Ibn Sino nomidagi nashriyot. 1991- yil.
3. A.A.Jo'rayeva Biologik kimyo Toshkent 2009-yil.
- 4.Yo. To'raqulov Biokimyo Toshkent 1995-yil.
- 5.C.M.Ivanov, O.S. Menika Medetsiniskaya bioximya Moskva 1915-yil.

ФИО авторов: Sultonov Ne'matulla Shukrullayevich

Guliston Davlat Universiteti 1-kurs magistranti.

Karimov Xumoyun Nurbek o'g'li

Guliston Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

Название публикации: «SIRDARYO VILOYATI IQLIM SHAROITIDA UZUM YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHNING AHAMIYATI»

Annotatsiya: Ushbu maqola Sirdaryo viloyati tuproq iqlim sharoitida uzum yetishtirish va uzumni qayta ishlashning avfzalliklari haqida.

Kalit so'zlar: istiqbolli tok navlari, moddiy texnika, Kattaqo'rg'on, Shtur angur, Rizamat, Qora janjal, Qora kaltak, Sultoni, Nimrang, Aleksandriya muskati, Statistika.

Mamlakatimizda uzum qadim qadimdan yetishtirib kelingan. Ozbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida uzumchilik muhim o'rin tutadi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil davomida respublikamizda 1,6 mln. tonna uzum yetishtirildi. Bu o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda o'sish sur'ati 102,2% ga teng. Uzum yetishtirish bo'yicha Samarqand viloyati yaqqol yetakchi - 555,0 ming tonna.

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi:

- Qoraqalpog'iston R. – 10,2 ming
- Andijon – 88,2 ming
- Buxoro – 208,3 ming
- Jizzax – 28,0 ming
- Qashqadaryo – 93,8 ming
- Navoiy – 78,9 ming
- Namangan – 130,9 ming
- Samarqand – 555,0 ming
- Surxondaryo – 95,5 ming
- Sirdaryo – 13,1 ming
- Toshkent – 115,3 ming
- Farg'ona – 177,0 ming

- Xorazm – 45,0 ming tonna

O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazida 2017-2021 yillarda meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarni yanada rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Markaz olimlari tomonidan mevalar va uzumning 150 dan ortiq yangi navi yaratildi. uzumchilik sohasi qishloq ho'jalik ekinlari orasida alohida o'rin tutadi. Aholini uzum va uni qayta ishlash mahsulotlariga ortib borayotgan ehtiyojini to'la qondirish uchun seleksioner olimlar bu borada yanada chuqur izlanishlar olib borishlarini taqozo etmoqda. O'lkamizning qulay tabiiy iqlim va tuproq sharoitlari ta'mi yaxshi, donasi yirik, shirador juda erta va kech yetiladigon turli uzum navlarini o'stirish imkonini beradi. Sirdaryo viloyatida istiqbolli tok navlarini mintaqalashtirish va oqilona joylashtirish, tokzorlar maydonlarini kengaytirish, ilmiy ba'zani mustahkamlash, seleksiya ishlarini kuchaytirish, moddiy texnika ta'minotini rivojlantirish, sohaning ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish, uzum yetishtirish hajmlarini oshirish, uzum yetishtiruvchilar va qayta ishlovchilar o'rtasida shartnomaviy munosabatlarni mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish orqali kelgusida uzumchilikdan yuqori va sifatli mahsulot olishga qaratilmoqda.

Uzumchilikni yuqori pog'onaga ko'tarishda fermerlar fan yutuqlari va ilg'or tajribalarni o'z vaqtida va yuqori agrotehnika darajasida amalga oshirishlari zarur. Tuproq-iqlim sharoitlarining qulayligi, ajoyib uzum navlarining mavjudligi, ulardan yuqori, mo'l va sifatli hosil olish imkoniatini beradi. Tok navlarini takomillashtirish uzumchilikni rivojlantirishni eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda uzumning mavjud standart navlari orasida ho'raki va eng avvalo erta va kech yetiladigon navlari yetarli emas. Masalan atir xidli (muskat) va qishda saqlanadigon, rangdor navlari juda kam. Keyingi yillarda akademik Mahmud Mirzayev nomli bog'dorchilik, uzumchilik, vinochilik ilmiy tadqiqot institutining Samarqand filiali xodimlari tomonidan yaratilgan uzumning bir necha navlari Respublika qishloq xo'jalik ekinlari navlarini sinash Davlat komissiyasi nav sinoviga topshirilgan. Uzumning Xishrav kishmishi va Xusayni, Muskat navlari O'zbekiston Davlat standart navlari qatoriga kiritildi. Uzumning urug'siz navlariga mansub qora kishmish va oq

kishmish ko'proq rayonlashtirilgan bo'lib, mayiz yetishtirishda asosiy xom- ashyo hisoblanadi. Lekin bu navlarning donalarining maydaligi asosiy kamchiligi hisoblanadi. Bundan tashqari oq kishmish navi sentabr oyining o'rtalarida pishishi tyfayli quritish uchun yoyib qo'yilgan mahsulot ko'pincha yomg'ir ostida qolib ketadi va bu quritishga yetilgan uzumlarni buzilishiga sabab bo'ladi va tobiga yetkazib quritishda qiyinchiliklar tug'iladi. Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish¹¹¹ uchun duragaylash usuli yordamida uzumning yangi navlarini yaratish, uzumchilikning eng qadimgi manbaalarini ekspeditsion tekshirish va boshqa ilmiy muassasalar kolleksiylaridan yangi tok ko,,chatlarini olib kelib o'stirish usullari hal qilinmoqda. Shuni qayd etish lozimki, uzim navlarin aniq maqsadga qaratilgan holda duragaylash usulini takomillashtirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda yirik mevali onalik shakllari bilan urug,,siz otalik shakllarini sun`iy changlatish orqali duragaylanmoqda. Bu usul yordamida uzumning erta yetiladigon oq va qora rangli, danaksiz danagi yumshoq va danakli turlaridan iborat 10 dan ortiq istiqbolli navlari yaratildi. Muskat hidli uzum navini yaratishda dastlabki natijalarga erishildi. Ma`lumki, uzum mahsulotlari yilning muayyan mavsumida yetishtiriladi. Shu sababli ularni uzoq vaqt saqlash va qayta ishlashni tashkil qilmagan holda aholini yil bo,,yi turli uzum turlari bilan ta`minlash masalasini hal qilib bo'lmaydi. Uzum mahsulotlarini yeg'ish, tashish, qayta ishlash va saqlash ilmiy tashkil qilinsa, bu borada fan texnika yutuqlari hamda ilg,,or tajribalarga tayanib ish ko'rilsa, mahsulotning isrof bo'lishi ancha kamayadi.

Sirdaryo viloyati iqlim sharoiti uzum quritish uchun nihoyatda qulay. Issiq yozning davomiyligi, nisbiy namlikning past bo'lishi, a'lo sifatli mayiz va xo'raki uzum navlarining yetishtirilishi, xalqning an'anaviy tajribalari, shuningdek fan yutuqlari, quyoshli ochiq havoda va soyada meva quritish usullaridan keng foydalanishga, kam mablag' sarflab, yuqori sifatli mahsulot olishga imkon beradi. Quritish uchun tovar sifati yuqori bo'lgan xom ashyoni keskin ko'paytirish muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli ado etish uchun har bir xo'jalikdagi tokzorda kompleks agrotexnika tadbirlarini eng qulay muddatda to'liq va yuqori sifatli qilib o'tkazish zarur. Quritilgan mahsulot miqdorini ko'paytirish va uning sifatini

yaxshilash uchun hosilni terib olishga ikki xafta qolganda tok barglari olib tashlanadi, novdalari chekanka qilinib, sugʻorish toʻxtatiladi. Chunki meva tarkibida ortiqcha namlikning saqlanishi quritish vaqtini bir muncha kechiktiriladi. Kishmish nav uzum tarkibida qand moddasi 23-25% ni, mayzbop uzum tarkibida esa 22-23% ni tashkil qilingan paytda quritiladi. Quritish uchun eng yaxshi navlar quyidagilar xisoblanadi: Urugʻsiz – “Oq kishmish”, “Qora kishmish”, “Xishrov kishmishi”, “Sogdiana kishmishi”, “Botir kishmishi”, “Zarafshon kishmishi” va boshqalar: Mayiz uchun – “Kattaqoʻrgʻon”, “Shtur angur”, “Rizamat”, “Qora janjal”, “Qora kaltak”, “Sultoni”, “Nimrang”, “Aleksandriya muskati” Yogʻingarchilik boshlangunga qadar qurimasligi sababli yirik donali uzum sortlariga ajratiladi va ishlov bermasdan, yupqa qilib, yogʻoch patnoslarga yoki oldindan – somonloy bilan suvalgan quritish maydonlariga yoyiladi. Uzunning “Qora kishmish” navidan olingan mahsulot – “Oq kishmish” navidan olingan esa bedona deb ataladi. Quritish 18-20 kun davom etadi, 22-25% quritilgan mahsulot olinadi, namligi 18% ni tashkil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI¹¹²

1. A.Ribakov va boshqalar “Oʻzbekiston uzumchiligi” Toshkent 1969 y. 32-45 betlar.
2. A.I.Marupov, A.Raxmetov “Tokni asosiy kasalliklardan himoya qilish” (tavsiyanoma) Toshkent 2009 y.
3. R.M.Abdullayev va boshqalar “Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi”. Toshkent “Fan” nashriyoti. 2011 y.
4. R.M.Abdullayev va boshqalar “Fermar xoʻjaliklarida uzum navlaridan yuqori hosil olish agrotexnikasi” Toshkent. 2013 y¹¹².
5. . <https://uz.wikipedia.org/wiki/Uzumchilik>
- 6.. <http://uz.denemetr.com/docs/134/index-21081-3.html?page=6> Uzumchilik. Uzumchilikning xalq xoʻjaligidagi ahamiyati, tokzorlar barpo qilish, tok koʻchatlarini yetishtirish texnologiyasi.

ФИО автора: Ходиева Зайтуна Жумаевна

Бухоро вилоят Ромитан туман халк таълими булимига карашли 6- умумтаълим мактабининг маънавий- маърифий ишлар буйича директор муовини

Название публикации: «КИЗЛАР ТАРБИЯСИ, ТАРБИЯДАГИ МУАММОЛАР, ЭРТА ТУРМУШНИНГ САЛБИЙ ОКИБАТЛАРИ»

Аёл борки, олам мунаввар. У меҳрибон уй бекаси, хонадон чароғбони бўлиш билан бир қаторда келажагимиз бўлмиш ёш авлодни дунёга келтирувчи она ҳамдир. Унинг саломатлиги жамиятда соғлом муҳитнинг яратилишида асосий омил ҳисобланади. Шу боисдан ҳам оила ва жамиятда репродуктив саломатликни мустаҳкамлаш, жисмонан ва маънан баркамол авлодни тарбиялашга муҳим жиҳат деб қаралмоқда.

Президентимиз Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 23 йиллиги муносабати билан ўтказилган тантанали маросимда сўзлаган нутқида кириб келаётган янги – 2016 йилни юртимизда Соғлом она ва бола йили, деб эълон қилишни таклиф қилиб, таъкидлаб ўтганларидек: “Бу ёруғ оламда ҳаёт бор экан, оила бор. Оила бор экан, фарзанд деб аталмиш бебаҳо неъмат бор. Ҳар қайси онгли инсон жондан азиз фарзандининг бахтини, камолини ўйлаб, ҳамиша эзгу орзу-интилишлар билан яшайди, ўз зурриёдининг ҳар томонлама соғлом ва баркамол бўлишини истайди. Соғлом бола, соғлом авлод орзуси аждодларимиздан бизга ўтиб келаётган, қон-қонимизга сингиб кетган азалий интилишдир. Агар ота-боболаримизнинг турмуш ва тафаккур тарзига назар солсак, улар инсоннинг насл-насабига, етти пуштининг тозалиги, авлоднинг соғлиғига жуда катта эътибор берганини кўрамиз.

... Қиз болани коллежни битирмасидан, ҳунар эгалламасидан туриб, кимки турмушга бермоқчи бўлса, билиб қўйинглар, буни мен узоқни кўрмаслик, калтабинлик деб ҳисоблайман. Қиз бола, аввало, касб эгалласин, ўз фикрига эга бўлсин, ҳаётни англасин. Шундан кейин у ҳаётда ўзининг муносиб ўрнини топади, жамиятимизнинг фаол аъзосига айланади, эртага у қурадиган оила ҳам

мустаҳкам бўлади. Бу менинг энг катта орзуим ва тилагимдир, десам, айти ҳақиқатни айтган бўламан.”

Юртбошимиз ўз маърузаларида аҳоли ўртасида тиббий маданиятни ошириш, санитария-гигиена соҳасидаги ишларни янада кучайтириш, ҳомиладор аёлларни асраб-авайлаш, ёш оналар ва болаларни талаб даражасида парвариш қилиш, уларнинг овқат рациони, унинг сифати ва калорияси каби масалаларга жиддий эътибор бериш лозимлигини ҳам алоҳида таъкидлаб ўтдилар.

Мустақиллик йилларида мамлакатимизда оналар ва болалар саломатлигини муҳофаза қилиш, замонавий тиббий хизмат кўрсатишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада давлатимиз томонидан қатор меъёрий ҳужжатлар қабул қилиниб, улар ҳаётга татбиқ этилаяпти. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 65-моддасида “Фарзандлар ота-оналарнинг насл-насабидан ва фуқаролик ҳолатидан қатъи назар, қонун олдида тенгдирлар. Оналик ва болалик давлат томонидан муҳофаза қилинади” деб белгилаб қўйилганлиги ҳам фикримизнинг ёрқин ифодасидир. Шунинг алоҳида таъкидлаш жоизки, бу борада давлатимиз раҳбарининг 2014 йил 1 августдаги “2014-2018 йилларда Ўзбекистонда аҳолининг репродуктив саломатлигини янада мустаҳкамлаш, оналар, болалар ва ўсмирлар соғлиғини муҳофаза қилиш борасидаги давлат дастури тўғрисида”ги Қарори ҳам барча тиббиёт ходимлари учун ҳам муҳим дастуриламал бўлмоқда.

Мамлакатимизда оналар ва болалар саломатлигини муҳофаза қилиш, уларга замонавий тиббий хизмат кўрсатишга алоҳида эътибор қаратилиб, хориждан замонавий тиббий жиҳозлар келтириляётгани бежиз эмас. Оналар ва болалар саломатлигига эътиборни 2016 йилнинг “Соғлом она ва бола йили” деб номланиши ва бу борада тегишли Давлат дастури қабул қилинганлигида ҳам кўришимиз мумкин.

Малакали тиббиёт мутахассислари иштирокида маҳаллаларда, олий ўқув юртларида, коллеж ва лицейларда, мактабларда соғлом турмуш тарзини тарғиб қилувчи учрашувлар, давра суҳбатлари, очиқ мулоқотлар ўтказилмоқда. Аёллар репродуктив саломатлигини муҳофаза қилиш ва соғлом оилани шакллантириш,

Ўсмир қизларни оилавий ҳаётга тайёрлаш, қариндошлар ўртасидаги никоҳнинг салбий оқибатлари, туғма наслий касалликлар, никоҳдан олдинги тиббий кўрикнинг аҳамияти аҳамияти борасида тушунтириш ишлари олиб борилмоқда. Бу сабб-ҳаракатларнинг замирида бўлажак оналар саломатлигига берилаётган эътиборни кўрамиз.

Халқимиз азалдан қизлар тарбиясига алоҳида эътибор билан ёндашган. Бугунги кунда ҳам қиз болаларни ҳар жиҳатдан етук, соғлом ва баркамол этиб вояга етказишга муҳим вазифа сифатида қаралмоқда. Шу сабабли ҳам болалар ва ўсмирлар спорти, айниқса, қишлоқ жойларида спортни ривожлантиришга катта аҳамият билан қаралмоқда.

Репродуктив саломатлик деганда аёлнинг қачон ва қандай шароитларда она бўлишини назорат қилиш, онанинг ҳам, туғилажак боланинг ҳам саломатлиги учун мақбул шарт-шароитларни яратиш тушунилади.

16-18 ёшларда аёл организми соғлом фарзанд кўриш учун ҳали тўла шаклланмаган бўлади. Ҳомиладор бўлиш, фарзанд дунёга келтириш билан боғлиқ жараёнларда она организми ўзидан кўп миқдорда қувват сарфлайди. Кўзи ёриган аёл организми ўзини тиклаб олиши учун унга камида 3-4 йил вақт зарур бўлади. Бу бир томондан боланинг она сутига тўйиб ўсишини таъминласа, иккинчи томондан она навбатдаги ҳомиладорликдан сақланади.

Аёллар саломатлигини фақатгина ҳомиладорлик даврида сақлабгина қолмай, балки ўсмир қизларни ҳам ёшлик давридан соғ-саломат ўсишига ота-она катта эътибор қаратиши зарур. Аёллар учун фарзанд кўришнинг энг қулай даври 20-30 ёш оралиғи ҳисобланади. Агар ҳомиладор 20 ёшдан кичик бўлса, унда 30 фоизгача ҳомиланинг яхши ривожланмаслиги, чақалоқ вазни кичик бўлиши, туғилган фарзанд ўлими ҳолатларининг икки бараварга ошиши, ёш оналар орасида оналарнинг ўлими ҳолати уч бараварга ошиши кузатилади.

Кўриниб турибдики, эрта турмуш қуришнинг салбий оқибатлари кўп. Бунда биринчи навбатда онанинг саломатлиги муҳим рол ўйнайди. Сабаби, соғлом она соғлом фарзандни дунёга келтиради.

Мустақиллик йилларида амалга оширилаётган кенг кўламли тиббий ислохотлар натижасида аҳолининг ўртача умр кўриш кўрсаткичи узайди. Оналар ва болалар ўлими уч барабар камайди. Мамлакатимиз соғлиқни сақлаш тизимида эришилаётган бундай юксак ютуқлар халқаро миқёсда ҳам кенг эътироф этилмоқда. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти томонидан Ўзбекистоннинг оналик ва болаликни муҳофазалашга оид миллий модели тараққий этган мамлакатларга намуна сифатида тавсия этилгани бунга ёрқин мисолдир.

Бироқ, эрта турмуш оқибатида ҳаётдан барвақт кўз юмаётган ёш оналар ва болалар ўлими ҳамон учраб турибди. Бу эса, соғлом авлодни тарбиялаб вояга етказиш учун аввало, оилаларда тиббий маданиятни ошириш, соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш зарурлигини кўрсатмоқда. Барча оналар фарзандининг бекаму кўст улғайишини хоҳлайди. Агар оилада репродуктив саломатлик қоидаларига мунтазам амал қилинса, албатта, соғлом фарзандлар дунёга келади.

Юртимизда мустақиллик йилларида оналар ва болалар саломатлигига берилаётган эътибор аҳоли репродуктив саломатлигини мустаҳкамлаш, соғлом бола туғилиши, жисмоний ва маънавий баркамол авлодни вояга етказишда муҳим омил бўлмоқда. Чунки, соғлом онадан соғлом бола дунёга келиши айтиш ҳақиқат. Зеро, аёл жамият кўркидир.

ФИО автора: Ro'zmatova Gulasal

Talaba, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika instituti, Toshkent, O'zbekiston

Название публикации: «ABDULLA AVLONIY HAYOTI VA IJODI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning taniqli shoiri, yurti uchun jonini fido qilgan ma'rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy haqida so'z yuritamiz. Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug' kishilarning nomlari mangulikka daxldor bo'ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari ko'z-ko'z qilinaveradi. Ana shunday ulug' zotlardan biri, mashhur muallim, tashkilotchi, shoir Abdulla Avloniydir. Ul zotning o'z davrida qanday mashaqqat bilan shunday darajaga erishishlari, qanday qiyinchiliklar bilan el ardog'iga tushishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ma'rifatparvar, jurnalist, muallifning hayot yo'llari, jadidlarning faol ishtirokchisi, el-yurt ardog'i, mashaqqat, yaxshi xulq, muzey, buyuk xizmatlari uchun order.

Asosiy qism

Yurtimizning taniqli shoiri, yurti uchun jonini fido qilgan ma'rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniydir. Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug' kishilarning nomlari mangulikka daxldor bo'ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari ko'z-ko'z qilinaveradi. Ana shunday ulug' zotlardan biri, mashhur muallim, tashkilotchi, shoir Abdulla Avloniydir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qachon ta'lim-tarbiya haqida gapiradigan bo'lsa, albatta, Abdulla Avloniy haqida to'xtaladi. Uning ibratomuz so'zi va ishini misol qilib aytadi: "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman," – deb, bu muallimning bosib o'tgan hayot yo'lini yoshlarga ibrat qilib ko'rsatadi.³ Ana shunday maqtovga loyiq inson, o'zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri, pedagog, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1878yilda Toshkent shahrida to'quvchi oilasida dunyoga

³ Sh.M.Mirziyoyev, 1-oktabr-O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan yo'llagan tabrigidan.

keldi. Eski maktabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi. Oiladagi moddiy qiyinchiliklar tufayli bolaligidan odamlar eshigida mehnat qildi, g'isht quyish, suvoqchilik, pechkachilik, duradgorlik, binokorlik kabi kasblar bilan shug'ullandi, "Imoratchi usta degan nom oladi. Abdulla Avloniy she'rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko'rina boshladi. XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o'zgarishlardan biri maktab o'quv ishlarida o'zgarish bo'ldi. Avloniy bu davrda jadidchilik harakatiga qo'shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo'lib tanildi. Avloniy 1904 yilda Mirobodda, so'ngroq Degrezliqda (1903–14) xuddi shunday yangi usulda, yangicha maktab ochib, dars berdi va darsliklar yozdi. 1909-yilda maktab maorif ishlariga yordam beruvchi "Jamiyati xayriya" ochib, yetim bolalarni o'qitdi. "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" nomli to'rt qismdan iborat she'riy to'plamining birinchi juz'ini nashr qildirdi. Munavvarqori, Muhammadjon Podshoxo'jayev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov, Nizomiddin Xo'jayev, Shokirjon Rahimiy kabi taraqqiychilar bilan sheriklikda "Nashriyot" (1914), "Maktab" (1916) shirkatlarini tuzdi. "Taraqqiy", "Shuhrat" (1907), "Osiyo" (1908), "Turon" (1917) gazetalarini chiqardi. 1918 yilda Turkiston Shurolar hukumatining birinchi gazetasi "Ishtirokiyun"ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo'ldi. U sovet davrida turli mas'uliyatli lavozimlarda xizmat qildi, qaysi vazifada ishlamasin ilm-ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya masalalari bilan shug'ullanib keldi, bilim yurtlarida, oliy maktablarda o'qituvchilik qildi. 1930–34 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida (hozirgi ToshDU) kafedrani boshqardi. Avloniy 1927 yilda Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Avloniy 30 yildan ortiqroq ijod qildi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarining, so'ng inqilobiy talotumlaru milliy-ozodlik kurashlarining guvohi bo'ldi. O'tgan davr ichida, o'zi ta'kidlaganidek, "o'nlab she'r va maktab kitoblari, to'rt teatr kitobi" qoldirdi⁴. Uning madaniyatimiz tarixidagi o'rni haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilikning

⁴ "Ma'anaviyat yulduzlari", Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T., 1999.

xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardandir. Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg'or ilm-fanni bolalarga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo'ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun "Birinci muallim"i (1911) Oktyabr o'zgarishigacha 4 marta, "Alifbedan so'nggi o'quv kitobi" – "Ikkinchi muallim" (1912) 3 marta kayta nashr etilgan. Axloqiy didaktik mazmundagi "Turkiy Guliston yoxud axloq" darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiypedagogik fikr taraqqiyotida alohida o'rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an'anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa'diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmok, yashartmok kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan muhabbatidir: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".⁵ Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan she'r, hikoyalar va maqolalar yozgan. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. U adabiyotga g'oyaviy kurashlar g'oyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkilanmasdan ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashishini maslak etib qabul qildi. Shoir she'riyati bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy she'r yo'q. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g'amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. O'z onadiyorini bamisoli "yor kabi sevadi". Butun mehrini shunga bag'ishlaydi. Asrimiz boshlari Turkiston takdirida g'oyat mas'uliyatli bo'lgan, uning hayot mamot

⁵ "Ma'anaviyat yulduzlari", Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.,1999.

masalasi hal qilinayotgan bir payt edi. Buni Avloniy davrning peshqadam ziyolisi, yirik ma'rifatparvar, jadidlar ta'limotining faol tarafdori sifatida tezda ilg'ab oldi. Dastlabki poetik asarlari "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" (I, II, III, GUjuzlar), "Maktab gulistoni" (1916), "Mardikorlar ashulasi" (1917) kitoblarida va "Sabzavor" tazkirasi (1914) hamda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan asarlaridir. Ularda ilm-ma'rifat targ'ib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi she'rlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdoshdir. Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qo'llagan. Milliy kuylarga moslab she'rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi muhim xizmatlaridan biri shu bo'ldiki, u mardikorlik she'riyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan bo'ldi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi "Bir mardikorning otasi o'g'liga aytgan so'zlari", "Onasining o'g'liga aytgan so'zlari", "Afsus" kabi she'rlar yozdi. Ona yurtdan uzoq shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritdi. Bu she'rlarning ohang va uslubi xalq qo'shiqlariga g'oyat yaqin bo'lib, ular xalqimizning milliy uyg'onishida muhim o'rin tutdi.

Avloniy 1917 yil fevral inqilobini xursandchilik bilan kutib oldi ("Qutuldik", "Yotma" she'rlari). Oktyabrga bag'ishlab "Hurriyat marshi" (1919), "Ishchilar qulog'iga" kabi she'rlar yozdi, yangi sotsialistik tuzumni ulug'ladi. Lekin ko'p o'tmay, rus sovet tuzumi eski chor tuzumining oldingidan battarroq shakli ekanligini, sovet siyosati riyokorlik asosiga qurilganligini anglay boshladi. Jumladan, tantanavor va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida g'amgin tushkun ohanglarning paydo bo'lishiga olib keldi ("Haftalik soatda" 1919). Shularga qaramasdan Avloniy turli mavzularda she'rlar yozdi. 1919–20 yilgi Afg'oniston safariga doir "Afg'on sayohati" kundaliklari esa mamlakatimizning yon qo'shnimiz bilan o'zaro do'stlik, totuvlik aloqalarining o'rnatilishi tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Avloniy o'zbek teatrining asoschilaridan edi. U 1913 yilda "Turkiston" teatr truppasini tuzdi. "Turkiston" o'zining qat'iy nizomini ham e'lon qilgan edi. Uning

tashkilotchisi ham, g'oyaviy-badiiy rahbari ham Avloniy edi. Truppa "Zaharli hayot" (Hamza), "Baxtsiz kuyov (A. Qodiriy) kabi XX asr boshlari o'zbek dramaturgiyasining eng yaxshi namunalarini sahnalashtirgan, teatr ozarbayjon dramaturglari asarlari ("Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "Uliklar", "Joy ijaraga olgan kishi", "Man o'lmisham", "Layli va Majnun", "Asli va Qaram") ni o'zbekchaga tarjima qilib sahnaga qo'ygan. Avloniyning o'zi Mallu ("Layli va Majnun"), Fayziboy ("Baxtsiz kuyov"), Aliboy ("To'y"), Boy ("Padarkush") rollarini ijro etgan. Avloniy "Advokatlik osonmi?" (1914), "Pinak" (1915) komediyalari, 1914–17 yillarda yozgan "Biz va Siz", "Portugaliya inkilobi", "Ikki sevgi" kabi fojeaviy asarlari bilan o'zbek dramaturgiyasining maydonga kelishi va teatrchilikning xalq orasigatomir otishiga muhim hissa qo'shdi. Advokat Davronbek orqali Turkistondagi huquqsizlik, dunyodan xabarsizlikni fosh etdi. "Advokatlik osonmi?" degan asarida bir qator ko'knori va qimorbozlar obrazini yaratib, ma'naviy turmushning tuban bir holga kelib qolganlini ko'rsatdi. Monarxiyaga qarshi kurash, bayrog'i ostida kechgan 1910 yilgi Portugaliya inqilobi, 1909 yili Turkiyada yuz bergan "Yosh turklar" inqilobi ("Ikki sevgi") haqida yozib, adabiyotimizda mavzu va g'oyalar ko'lamini kengaytirdi. "Biz va Siz"da esa XX asr boshidagi Turkistonning eskilik va yangilik borasidagi kurashini aniq taqdiralar misolida yoritib berdi. Avloniy asosiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul yillari 1917 yildagi Oktyabr to'ntarishiga kadar bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Avloniy ijodi 60-yillarning oxiridan o'rganila boshlandi. Hozirda uning turli janrlardagi asarlaridan namunalar alohida kitoblar holida chop etilgan. U Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, xandasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi, ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi, ta'lim tizimining dunyoviy yo'nalishini kuchaytirishiga alohida e'tibor berdi. Avloniyning she'riy to'plamlari, dramatik asarlari nashr etilgan. U tanqidiy va ilmiy maqolalar, 4000 misradan ortiq she'r ijod qilgan. Botkin ko'chasidagi qabristonga dafn etilgan. Toshkentdagi ko'chalardan biri, Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti Avloniy nomi bilan ataladi. Avloniy yodgorlik muzeyi ochilgan.

AVLONIY YODGORLIK MUZEYI (Ziyo ko'chasi, 6) – dastlab 1968-yil tashkil etilgan. Bu uyda 1910–34 yillarda A. Avloniy yashagan. O'zbekiston kitobsevarlar jamiyati tashabbusi bilan 1988-yil dekabrda Avloniy uy-muzeyi nomi bilan rasmiy ravishda ochilgan. Keyinchalik muzey A.Avloniy nomidagi xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti binosiga ko'chirilgan va 1993 yil 26 dekabrda Avloniy yodgorlik muzeyi nomi bilan ochilgan. Muzeyda jami 682 ta eksponat bor. Muzey yodgorlik va adabiy bo'limlardan iborat. Yodgorlik bo'limida Avloniy yashagan turmush sharoiti, shaxsiy buyumlari, o'zbek hamda rus tillaridagi kitoblar saqlanmoqda. Adabiy bo'limda Avloniyning pedagogik, ma'rifatparvarlik, jurnalistik, t-r va adabiyot sohasidagi hamda ijtimoiy faoliyati bilan bog'liq fotosurat, hujjatlar, kitob va jurnallar mavjud.⁶

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy (1874 — 1934) pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analarini, muammoli jihatlarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarini aks ettirgan pedagog, olimdir. U jadidchilik harakatining yetakchilaridan bo'lib, birinchilar qatorida o'zbek bolalari uchun yangi uslubdagi maktablarga asos slogan. Uning ta'lim va tarbiya haqida juda ko'p fikrlarni bildirgan. Masalan, Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir

Tarbiya-pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir. Bolaning salomat va saodati uchun yaxshi tarbiya, tanni pok tutmoq, yosh vaqtida maslakni tuzatmoq, yaxshi xulqlarni o'rgatmoq tabiblardek kabi durki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilg'oni kabi tarbiyachi bolaning vujudidagi jahl markaziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berib katta qilmog'i lozimdir.⁷

Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, axloqimizni kuchlantirmoq, zehnimizni rivojlantirmoq lozim. Abdulla Avloniy o'zbek adabiyotida drama janrining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shdi. Uning “Advokatlik osonmi?”, “Pinak”, “Biz va siz” pesalari adabiyotimiz tarixida o'chmas iz qoldirdi.

⁶ Toshkent ensiklopediyasi. T., 2009.

⁷ Abdulla Avloniyning tarbiyaga bildirgan fikrlari

Abdulla Avloniy 1934yilda vafot etdi. U ma’rifatchi, shoir, dramaturg, jurnalist, rejissor, tarjimon, aktyor, jamoatchi, muallif sifatida xalqimiz qalbida mangu saqlanib qoldi. Davlatimiz rahbari Abdulla Avloniyni milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo’shgani uchun “Buyuk xizmatlari orderi” bilan taqdirladi.

Ushbu maqolada yurtimizning taniqli shoiri, yurti uchun jonini fido qilgan ma’rifatparvar, jurnalist, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy haqida yozilgan. Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug’ kishilarning nomlari mangu bo’ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari ko’z-ko’z qilinaveradi. Ana shunday ulug’ zotlardan biri, mashhur muallim, tashkilotchi, shoir Abdulla Avloniydir. Ul zotning o’z davrida qanday mashaqqat bilan shunday darajaga erishishlari, qanday qiyinchiliklar bilan el ardog’iga tushishlari haqida so’z yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ma’anaviyat yulduzlari”, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T., 1999.
2. Toshkent ensiklopediyasi. T., 2009.
3. Abdulla Avloniyning pedagogika haqida tarbiya haqida bildirgan fikrlari.
4. Ziyouz.com ta’lim portali.

ФИО автора: Баратов Бахтиёр, магистрант,
Фарғона давлат университети,
Ўзбекистон, Фарғона ш.

Название публикации: «ЮҚОРИ МАЛАКАЛИ МУТАХАССИСЛАРНИ
УЗЛУКСИЗ МАЪНАВИЙ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАЙЁРЛАШДА
ИЖТИМОЙ СИФАТЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ»

***Аннотация:** Таълимнинг кафолатланганлик натижаси самарадорликни ва мақсадга эришишни белгилайди. Бундан кўринадикки натижа мақсадга қанча яқин бўлса, ўқув-тарбия жараёни шунча самарадор ҳисобланади. Замонавий ўқитиш технологиялари - мажмуавий интеграл (бутун, узвий боғлиқ) тизим бўлиб, унда таълим мақсадлари асосида белгиланган кўникма ва малакалар ўқувчилар томонидан назарий билимларни ўзлаштириш, уларда муайян маънавий-ахлоқий сифатларни тарбиялашга йўналтирилган педагогик фаолият элементларининг маълум тартибга солинган тўплами сифатида акс этади.*

Мақолада бошланғич таълим самарадорлигини оширишда педагогик фаолиятнинг муҳим жиҳатлари педагогик жиҳатдан тадқиқ этилган.

***Калит сўзлар:** педагогика, фаолият, педагогик фаолият, бошланғич таълим, қобилият, тарбия, таълим самарадорлиги, инновация, таълим сифати, узлуксиз таълим, маънавий тарбия.*

Кириш.

Илм-фан ва замонавий технологияларни ривожлантириш Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини амалга ошириш борасида ҳал этиш лозим бўлган устивор вазифалардан бири саналади. Ўзбекистон Республикасининг жаҳон бозорларига чиқиши ва у ерда ўзига муносиб ўринни эгаллаши учун илм-фан ютуқларидан кенг кўламда фойдаланиладиган, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқара оладиган иқтисодий тизимни шакллантириш шарт. Бундай масъулиятли вазифани

мукаммал даражада бажариш учун эса миллий илм-фанни ҳамда кадрлар тайёрлаш тизимини жадал ривожлантиришга катта аҳамият бериб келинмоқда.

Таълим жараёнидаги инновацион ўзгаришлар, таълим тизимига ҳар қандай янгиликнинг киритилиши бевосита педагог-тарбиячи фаолиятини янгилаш ва ўзгартириш орқали амалга оширилиши бугунги кун талабининг долзарб масаласидир. Чунки, “республикамызда таълим-тарбия соҳасини ислоҳ қилишнинг асосий омилларидан бири шахс манфаати ва таълим устиворлигидир. Бу омил давлатимизнинг ижтимоий сиёсатини белгилаб берганлиги туфайли таълимнинг янги модели яратилди”[1, 268].

Илм-фан ва замонавий технологияларни ривожлантириш Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий-иқтисодий тараққиётини амалга ошириш борасида ҳал этиш лозим бўлган устувор вазифалардан бири саналади, Ўзбекистон Республикасининг жаҳон бозорларига чиқиши ва уерда ўзига муносиб ўринни эгаллаши учун илм-фан ютуқларидан кенг кўламда фойдаланиладиган, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқара оладиган иқтисодий тизимни шакллантириш шарт. Бундай масъулиятли вазифани мукаммал даражада бажариш учун эса миллий илм-фанни ҳамда кадрлар тайёрлаш тизимини жадал ривожлантиришга катта аҳамият бериб келинмоқда.

Асосий қисм.

Инсоннинг ижтимоий моҳиятини жамият талабига мос равишда шакллантирувчи соҳа халқ таълими тизими деб аталиб, уни амалга оширувчи шахс ўқитувчи ёки муаллим дейилади. Ўқитувчи-муаллимларнинг шахсий ижтимоий сифатларига азал-азалдан эътибор қаратиб келинган ва ҳар бир замон талабидан келиб чиқиб, педагогга қўйиладиган талаблар такомиллашиб, мураккаблашиб бораверган.

Талабаларга билим бериш ўқитувчининг масъулиятли бурчидир, деб Ибн Сино ўқитувчининг шахсияти қандай бўлиши кераклиги ҳақида қуйидаги фикрларни билдирган:

- болалар билан муомалада босиқ, жиддий бўлиш;
- бериладиган билимни талабалар қандай ўзлаштириб олаётганига эътибор

бериш;

- таълимда турли усул ва шакллардан фойдаланиш;

- талабанинг хотираси, билимларни эгаллаш қобилияти, шахсий хусусиятларини билиш;

- фанга қизиқтира олиш;

- берилган билимларнинг энг муҳимини ажратиб ўқитиш;

- билимларни талабаларнинг ёши, ақлий даражасига мос равишда бериш;

- ҳар бир сўзнинг болалар ҳиссиётини уйғотиш даражасида бўлишига эришиш зарур.

Ҳозирги замон педагогика фани олдида турган муҳим муаммолардан бири - ўқитувчи ва педагогик меҳнат шароити муаммоси ҳисобланади. Чунки, ўқитувчида барча педагогик ғоялар мужассамланган бўлиб, унинг фаолияти орқали бу педагогик ғоялар амалга оширилади ва ҳаётга татбиқ этилади.

Ўқитувчининг кўпқиррали ва мураккаб фаолият заминиде ёш авлодни одобли, эътиборли қилиб тарбиялаш, уларни илмий билимлар билан қуроллантириш каби муҳим вазифалар ётади. Буларни амалга ошириш эса ўқитувчининг хилма-хил фаолиятига боғлиқ: болаларни ўқитиш, мактабдан ва синфдан ташқари тарбиявий ишларни ташкил эта билиш ва ўтказиш, ота-оналар ўртасида педагогик тарғибот ишларини олиб бориш ва ҳоказо. Буларнинг ҳаммаси ўқитувчидан чуқур билимларга эга бўлишни, ўз соҳасини, болаларни севишни талаб этади.

Таълим-тарбиянинг янгича модели янги, яъни ҳозирги замонда таълим-тарбия соҳасида дунёда эришилган ютуқларга, ахборот коммуникация тизими, педагогик технологияларни жорий этган ҳолда таълимни амалга оширишга, таълим соҳасига янги инновацияларни жорий этиш давлат сиёсати даражасида эътибор берилмокда. Унинг ютуқларини эса дунё эътироф этмокда. Тараққиётимизнинг янги босқичида таълим тизимида эътибор давлат сиёсати даражасига кўтарилди.

Замонавий таълимнинг энг муҳим унсурлари қадимдан шаклланиб келган. таълим мақсади, мазмуни, шакл, услуб ва воситалари таълим жараёнлари

мазмунини таҳлил қилиш учун қўлланиладиган анъанавий категориялар бўлиб ҳисобланади. Айнан шу категориялар маълум предмет, мутахассислик ёки ихтисослик бўйича ўқув-тарбиявий жараёни ташкил қилувчи педагог фаолиятининг предмети сифатида юзага чиқади.

Ўқитувчи педагогик мулоқот жараёнининг фаол иштирокчиси сифатида ўзида бир қатор сифатларнинг таркиб топишига эришиши зарур. Чунончи, у энг аввало, мулоҳазали, босиқ, вазиятни тўғри баҳолай оладиган, мавжуд зиддиятларни баратараф этишнинг уддасидан чиқа олиши зарур.

Маълумки, бошланғич таълим педагогикаси – муҳим фанлардан бири бўлиб, бошланғич синф ўқувчиларининг ёш, психологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда уларни ўқитиш ва тарбиялаш жараёнини ўрганади[2, 36]. Ўқувчининг фаолият мазмунини тўлақонли ёритилишида таълим шакли, метод ва воситаларининг аҳамияти катта. Зеро, улар ўқувчининг имкониятларини юзага чиқариш, билим, кўникма ва малакаларини аслидек, мавжуд даражасида ёритиб бериш учун қулай шарт-шароит яратиб беради.

Ўз навбатида ўқувчиларнинг ёш, психологик, физиологик хусусиятлари, билим даражаси, дунёқарашининг қўлами ҳамда уларнинг фаоллиги самарали, илғор, ноанъанавий таълим шакл, метод ва воситаларини танлаш, улардан мақсадга мувофиқ фойдаланиш учун туртки бўлади.

Фаолият – қандайдир шахсий, гуруҳий, миллий ёки умуминсоний эҳтиёжларга жавоб берувчи мақсад сари йўналтирилган ҳаракатдир. Педагогик фаолият эса жамиятнинг таълим-тарбияга бўлган эҳтиёжини қондириш мақсадида умуминсоний сифатлар ва миллий фазилатларни шакллантиришни илмий асосланган режа-дастурга мувофиқ амалга ошириш, яъни авлодни ҳаётга тайёрлайдиган ижтимоий зарур фаолият тури ҳисобланади[2, 56]. Самарадорлик эса замонавий педагогик технологиялар аниқ шароитларда мавжуд бўлади ва маълум ўқитиш стандартларига эришишни кафолатлайди, натижа бўйича самарадор, ҳаражатлар бўйича оптимал бўлади.

Замонавий бошланғич таълим ўқитувчиси шахсида намоён бўлиши зарур бўлган сифатларни қуйидагича туркумлаштириш мумкин:

- 1) касбий сифатлар;
- 2) ташкилотчилик сифатлари;
- 3) ўқувчилар жамоасига раҳбарлик сифатлари;
- 4) иш юрита олиш сифатлари;
- 5) ижодий фаолиятни ташкил эта олиш сифатлари;
- 6) тадқиқотчилик сифатлари.

Замонавий ўқитувчи бошланғич таълим (педагог) куйидаги ижодий-амалий (конструктив) малакаларни ўзлаштира олиши зарур:

- алоҳида-алоҳида маълумотлардан фойдаланган ҳолда яхлит ўқув ва тарбиявий характердаги материални шакллантириш;

- ўқув материални турли расм, сурат, жадвал, диаграмма, модел ва бошқалар билан бойитиш;

- ўзига хос, оригинал ўқув материални тайёрлаш;

- мустақил равишда янги методни асослаш;

- ўқув машғулот (дарс) ва тарбия тадбир учун кўрсатмали қуроолар тўпламини яратиш;

- дарс ёки тарбиявий тадбирнинг технологик паспорти, харитасини яратиш;

Болага билим, кўникма ва кўникмаларни бериш, унинг хилма-хил ва хилма-хил фаолиятини ташкил қилиш табиий равишда унинг асосий кучлари, эҳтиёжлари, қобилиятлари ва истеъдодларини ривожлантиришни талаб қилади.

Ўқув жараёнидаги педагогик фаолиятнинг самарадорлиги паст натижаларни белгилашни, жараён ва унинг натижалари тўғрисида маълумотларни мунтазам равишда олишни талаб қилади. Педагогик диагностика ўқитувчига нимага ва ҳақиқатан ҳам таълимга, билимли шахснинг шахсий фазилатларини шакллантиришга қандай таъсир қилишини билиб олишга имкон беради. Бу педагогик таъсирлар натижаларининг таълим мақсадларига мувофиқлигини текшириш ва ўқув жараёнининг мазмуни ва методологиясига керакли қўшимчалар, тузатишлар киритиш имконини беради.

Педагогик фаолиятнинг ҳар хил турлари мавжуд: ўқитиш, тарбиявий, ташкилий, тарғибот, бошқарув, консалтинг ва диагностика, ўз-ўзини тарбиялаш

фаолияти. Ушбу фаолият турларининг барчаси умумий тузилишга ва шу билан бирга ўзига хосликка эга.

Педагогик фаолият болада инсон шахсиятини ривожлантириш вазифаларини ҳал қилишга ҳам қаратилган.

Маълумки, педагогнинг педагогик фаолиятида нутқ техникасини мукаммал эгаллаши муҳим аҳамиятга эга. Зеро, бошланғич таълим педагог-ўқитувчиларида нутқ асосий ўринни эгаллайди. Чунки, нутқ воситасида педагог боланинг ҳис-туйғуларини уйғотади, тарбияланувчилар билан онгли мулоқотни таъминлайди, таълим-тарбияга оид маълумотларни таҳлилий идрок этади. Бунинг учун бўлажак педагог аввало нутқ сирларини, унинг тарбияланувчилар билан бўладиган мулоқотда таъсир кучини пухта билиши керак.

Нутқнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш учун, нутқ техникасига оид талабларни билиш лозим. Бу талаблар нутқнинг мантиқ жиҳатдан тўғри, аниқ, чиройли, ёрқин ва мақсадга мувофиқ бўлишидир. Нутқнинг асосий хусусиятлари ушбу талаблардан келиб чиқади:

1. Нутқнинг тўғрилиги ва равонлиги.
2. Нутқнинг аниқлиги ва таъсирчанлиги.
3. Нутқнинг мантиқийлиги.
4. Нутқнинг тозаллиги ва ифодалилиги.

Нутқнинг тўғрилиги ва равонлиги унинг адабий тил нормаларига тўғри келишидир. Бунда иккита жиҳатга эътибор берилади: урғу ва грамматик нормаларга амал қилиниши. Урғу – сўзларнинг тўғри талаффуз этилишини таъминлайди.

Ўқитувчининг асл фазилатларидан яна бири, у кимни, қандай одамни шакллантираётганлигини тўлиқ билибгина қолмай, ўқитаётган ўқувчиси шундай ижтимоий сифатларга албатта эга бўлишига чин дилдан ишониши керак. Шу билан бир қаторда, болаларни халқ педагогикаси дурдоналари билан таништириб миллий қадриятларимиз асосида тарбиялаши, нутқи равон, тили бой бўлиши, ифода усули ва тасвир воситаларининг адабий тил услуби ва меъёрини тўла эгаллаган бўлиши зарур[3, 66].

Хулоса.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар қандай ўқитувчи педагогик фаолиятининг яқуний мақсади – ўқувчиларга замонавий жамиятда талаб этиладиган ижодий тафаккурга эга етук шахс бўлиб шаклланишларига ёрдам беришдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Н.Боймуродов. Амалий психология. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2008й., 268-бет
2. М.Жумаев ва бошқ. Бошланғич таълимни ўқитишда замонавий ёндашувлар ва инновациялар модул бўйича ЎУМ. Тошкент, 2018 й.
3. Б.Зиёмухаммадов. Педагогика. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2006 й.
4. Мусурмонова О. Маънавий қўчқрияглар ва ёшлар тарбияси. Тошкент, 1996 й .
5. Методика и технология социально-педагогической деятельности. - М.: 2003.
6. М.Очилов, Н.Очилова. Олий мактаб педагогикаси. Дарслик. Т., 2008 й.
7. З.Т. Нишанова. Психологик хизмат. Тошкент, 2007 й.
8. О.Хасанбоева. Оила педагогикаси. Тошкент, 2007 й.
9. Karimov U. et al. USING NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN DISTANCE LEARNING SYSTEM //НОВАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ В ЗЕРКАЛЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. – 2018. – С. 9-11.
10. А.Зунунов, М.Хайруллаев, Б.Тўхлиев, Н.Хотамов. Педагогика тарихи. Тошкент, 2000 й.
11. Р.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холиқбердиев. Педагогика. Тошкент, 2001 й.
12. Karimov U., Abdurakhmon A. INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION //Форум молодых ученых. – 2017. – №. 5. – С. 9-12.
13. Karimov U., Ergasheva D. EDUCATIONAL ISSUES IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS //Теория и практика современной науки. – 2020. – №. 5. – С. 18-20.

14. Karimov U., Kasimov I. THE IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF DISTANCE EDUCATION //Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018). – 2018. – С. 1186-1187.

15. Abdurakhmonova M., Azamjonova Z. THE IMPORTANCE OF RAISING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY //Экономика и социум. – 2020. – №. 3. – С. 3-5.

16. Normatova D. E. THE SOCIAL AND MORAL VIEWS OF MICHELLE ECKEM DE MONTEN //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 10. – С. 184-187.

17. Normatova D. E. PECULIARITIES OF ANTHROPOCENTRISM AND HUMANISM OF THE SOCIO-PHILOSOPHICAL THOUGHT OF WESTERN EUROPE IN THE ERA OF RENAISSANCE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 5. – С. 168-173.

ФИО автора: I.Xolbekov, senior teacher,

Fergana State University, Uzbekistan, Fergana city

Название публикации: «AMIR TEMUR'S ARMY STRUCTURE, WEAPONS OF WAR, METHODS OF USE»

AMIR TEMUR QO'SHIN TUZULISHI, JANG QUROLLARI, FOYDALANISH USULLARI

Annotatsiya: Xalqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirishga e'tibor berilayotgan ayni damlarda ma'naviy barkamollik bo'lgan ajdodlarimizning qoldirgan boy, ma'naviy meroslaridan bahramand bo'lish juda muhimdir. Ular duru-gavharlar konlaridan-da a'loroq, noyobroq, bebahoroq va beqiyosroq – konlardir.

Temuriylar davri ma'naviyati yurtimiz tarixidagi zarhal harflar bilan bitilgan ulkan xazinadir. Ushbu maqolada Amir Temur qo'shin tuzulishi, jang qurollari, foydalanish usullari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: temuriylar davri, temuriylar davri ma'naviyati, "Temur tuzuklari",

Amir Temur tuzgan qo'shin o'zining tashkiliy-shtat tizimi bo'yicha Chingizxonning qo'shini tizimiga yaqin bo'lsada, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

Amir Temur armiyasi xalq lashkarlari hisoblansa ham, Chingizxon davrida bo'lgani kabi umumiy xarakterga ega bo'lmagan.

Chingizxon davrida qo'shinning asosini ko'chmanchilar tashkil etgan. Amir Temur davrida ko'chmanchilar otliqlar va kamonchilarni etkazib bergan. Lekin shu bilan birga o'troq aholi ham qo'shinning katta qismini tashkil etgan. Shunday qilib, harbiy xizmatga chorvadorlar bilan birga, urushlarning tez-tez bo'lib turishi va ko'lamining oshganligi munosabati bilan dehqonlar, hunarmandlar va o'troq aholining boshqa toifalari ham chaqirilgan[1].

Amir Temur qo'shinida armiyaning asosini tashkil etgan otliqlar bilan birga piyodalar ham katta rol o'ynagan. Chingizxon davrida to'laqonli piyodalar bo'lmagan.

“Amir Temur Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyasiga artilleriya qurolini (ra’d) kiritdi. Yangi turdagi o‘q otar qurolining joriy etilishi artilleriya bo‘linmalarini yaratishga imkon berdi. To‘pchilar (ra’dandozlar) soni bir necha ming kishiga etdi”[2]. Artilleriya orudiyalari dushmanning tirik kuchlari va texnikasini tor-mor etish hamda qal’alar va sitadellarni qamal qilish uchun mo‘ljallangan. Ular qamal chizig‘ining o‘ta muhim uchastkalarida o‘rnatilgan.

Tog‘li joylarda mohirlik bilan harakatlanuvchi maxsus piyoda qo‘shinlar tashkil etilgan.

Amir Temur jangovar tartibini mohirlik bilan tuzgan va ularni chaqqonlik bilan manyovr qilgan, dushman qanotlariga va front ortiga otliqlar bilan kutilmagan zarbalarni bergan, vaziyatdan kelib chiqib o‘z qo‘shinini to‘qqiz va etti qismlarga (*qo‘lga*) bo‘lgan.

Armiyada ayollardan tashkil etilgan qismlar joriy etilgan bo‘lib, ular jang paytida erkaklar bilan bir safda turganlar va shon-shuhrat va jasorat namunalarini ko‘rsatganlar.

Amir Temur armiyasi safiga Movarounnahrda, Dashti-Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo‘g‘uliston, Mazandaron va Jetedan olib kelingan jangchilar kirganlar.

Amir Temur qo‘shinida to‘xtovsiz takkomillashib borayotgan muntazam armiyaning ko‘pgina xususiyatlari mujassamdir: qo‘shinning aniq soni, jangovar tartib (*yosol*) belgilangan.

Kavaleriya qismlari ko‘p hollarda bir birlaridan nafaqat kiyim-boshlari, bayroqlari va anjomlarining ranglari bilan, balki otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Bunday farq qilishlik jang paytida qo‘shinni boshqarishda katta rol o‘ynagan. Dushmanga nisbatan ustunlik, otliqlarning yuqori harakatchanligi va Amir Temur tomonidan ularni mohir manyovr qilinishi bilan ta’minlandi.

Turli usullar bilan dushmanning mudofaa tizimini yakson etish, g‘animning yirik va yaxshi mustahkamlangan ob’ektlariga to‘satdan hujum qilish, dushman tomonining hukmdorlari va taniqli harbiy boshliqlarini asirga olish, qurshab olingan shahar-qal’alarni uzoq vaqt qamal qilish, birma-bir qishloqlar, tumanlar, shaharlar va viloyatlarni zabt etish, dushmanni to‘liq tor-mor etilgunigacha ta’qib etish, zabt etilgan

hududlarni boshqarish uchun o'zining sodiq kishilarini tayinlashdek strategik maqsadlarni ketma-ket amalga oshirish Amir Temurga ko'plab g'alabalar keltirdi.

Harbiy ishni rivojlantirishdagi uning qo'shgan katta hissasi, butkul yangi ko'rinishdagi kavaleriya qismlarini (*kunbul*, *kumbul*) joriy etgani bo'lib, u nafaqat o'z qanotlarini himoya qilish uchun, balki dushman qanotlarini aylanib o'tish va front ortiga zarba berish uchun ham belgilandi[3].

Otliq qo'shin armiyaning zarbdor qismini tashkil etgan va engil va og'ir otliqlarga bo'lingan. Yoylar, o'qdonlar, qilichlar bilan qurollangan engil otliqlar razvedka bilan shug'ullanganlar, qo'riqlov xizmatini olib borganlar va kerak bo'lgan hollarda dushmanning ilg'or otryadlariga qarshi jangga kirganlar.

Saralangan jangchilar va zodagonlardan tuzilgan og'ir otliqlar dushmanning asosiy zarbdor kuchlariga qarshi jang olib borgan. Chavandozlar nayza, dubulg'a, zirh, qilich, yoy, o'qlar solingan sadoq bilan qurollanganlar.

Harbiy yurishdan oldin Amir Temur odatda harbiy kengash (*mashvarat*) chaqirgan, unda harbiy boshliqlar, beklar va amirlar ishtirok etganlar. Davlatning turli qismlaridan, Oliy Bosh Qo'mondonning ad'yutanti (*tavochi*) yetkazgan maxsus buyruqqa (*muchalkaga*) binoan qo'shin yig'ilgan. Jangchilarni yig'ishdan tashqari tavochilarning majuriyatlariga qo'shinni joylashtirilishini, uning harakatlanishi va jangovar tartibini nazorat qilish ham kirgan.

Amir Temur o'z qo'shinini, jangni olib borish uchun hamma kerakli narsalar bilan ta'minlanishiga, lagerlarda joylashishiga alohida e'tibor bergan.

Sohibqironning buyrug'iga binoan viloyatlar hukmdorlari, tumanlar va shaharlar beklari, qal'alar boshliqlari (*darug'a*) ro'yxat bo'yicha ko'rsatilgan muddatda o'z qo'shinlari, anjomlari, oziq-ovqatlari bilan oldindan ko'rsatilgan yerga (*miod yeri*) yetib kelganlar.

To'xtamishga qarshi Dashti-Qipchoqqa harbiy yurishni uyushtirishdan oldin (1390–1391) Amir Temur o'zining o'rinbosarlariga qo'shinni uzoq davrga etadigan oziq-ovqat, qurol-yarog' va boshqa kerakli narsalar bilan ta'minlashga buyruq bergan. Har bir jangchi bitta yoyga, o'ttizta o'qqa, bitta kamondonga, bitta qalqon va bitta

zaxira otga ega bo'lgan. Safar chog'ida har o'nta jangchiga bitta chodir, ikkita belkurak, kirka, o'roq, arra, bolta va yuzta igna berilgan.

Har bir jangchi bundan tashqari o'zi bilan arqon, teri va qozon olib yurgan. Oddiy jangchilar safar chog'ida o'n sakkiz kishiga bitta chodir olib yurganlar. Ularning har biri yonida ikkita otni yetaklab yurgan, o'zi bilan yoy, zirh, qilich, o'qdon, qop, o'nta igna, bolta, arra va teridan tikilgan qop olib yurishi kerak bo'lgan.

Jangchilar chodirlarda beshtadan bo'lib joylashganlar. Ko'zda tutilgan ta'minot bo'yicha ularning har biri dubulg'a, zirh, qilich, yoy, o'qdon va ot bilan ta'minlangan. O'n begi alohida chodirga joylashgan. U zirh, qilich, yoy, kamondon bilan qurollangan. U o'zi bilan beshta qo'shimcha otni olib yurish huquqiga ega bo'lgan.

Yuz begiga ham alohida chodir berilgan. Uning qurol-yarog'larini qilich, yoy, zirh, o'qdon, gurzi, to'qmoq va kolchugalar (simdan tayyorlangan halqachalarni bir biriga o'tkazib to'qilgan ko'ylak) tashkil etgan. Yuz begiga qo'shimcha o'nta ot berilgan.

Ming begi chodirdan tashqari soyabonga ega bo'lib, qurol-yarog'lari nayza, qilich, o'q-yoy, dubulg'a, zirh (*chax, oroyna*), kolchugalardan iborat bo'lgan.

Piyodalar harbiy yurishlar paytida qilich, yoy va kerakli sondagi yoyning o'qlari bilan qurollanib harakatlanganlar.

Qo'shin bilan birgalikda bir joydan ikkinchi joyga qassoblar, oshpazlar, qovurilgan va qaynatilgan go'sht sotuvchilar, novvoylar, arpa, meva sotuvchilar ko'chib yurganlar. Jangchilarga ko'chma hammomlar xizmat ko'rsatgan. Yurishlarda nafaqat jangchilar, balki qo'shinga xizmat qiluvchi ko'psonli ma'muriyat ham ishtirok etgan. Bu erda temirchilar, qurolsozlar, duradgorlar, teriga ishlov beruvchilar, er qazuvchilar, xo'jalik ishlarini bajaruvchilar va boshqalar bo'lgan. Amir Temur qo'shini safarlarida harakatlanayotgan jangovar qo'shin korpusi ortidan yirik qurolsiz omma harkat qilgan.

Qo'shinni yig'ish to'g'risidagi qaror chiqqanidan keyin, jangchilar o'z oilalari, anjomlari, oziq-ovqatlari bilan birgalikda belgilangan joyga etib kelganlar. Lagerning (*o'rdagohning*) markazida Oliy Bosh Qo'mondonning stavkasi joylashgan bo'lib, turli-tuman qismlar va birlashmalarning chodirlari—oddiy jangchilarning chodirlaridan

tortib yirik harbiy boshliqning chodirigacha bo'lgan, har bir kishi o'zining joylashgan joyini juda yaxshi bilgan.

Lagerda Oliy Bosh Qo'mondonning rang-barang bayroqlar bilan bezatilgan chodiri (*bargoh*) o'rnatilgan. Ko'rsatilgan vaqtda (*miod vaqti*) lagerga etib kelgan jangchilar, joriy etilgan tartibga ko'ra o'z joylarini egallaganlar va qo'shinning ko'rigiga tayyorgarlik ko'rganlar.

Kerakli sondagi jangchilar yig'ilganidan keyin, harbiy lagerda kamonchilar, arbaletchilar, tosh uloqtiruvchilar, nayzachilar, to'pchilar va boshqalardan tashkil topgan ulkan qo'shinning ko'rigi bo'lgan. Qo'shinda yonuvchi aralashma (*naft*) solingan xurmachalarni uloqtirish uchun maxsus askarlar bo'lib, ular o't otuvchi orudiyalarning to'xtovsiz ishlashlarini ta'minlaganlar.

Oliy Bosh Qo'mondonning buyrug'iga ko'ra jangchilar himoya sovutlarida, to'liq qurol-yarog'lari bilan saflanganlar. Parad o'tkaziladigan maydonda turli qismlarga tegishli bo'lgan yashil, qizil, sariq, binafsha, qora, ko'k bayroqlar hilpirab turgan. harbiy orkestr sadosi ostida Amir Temur navbatma-navbat jangchilar sherengalari oldidan o'tgan. Jangchilar nayzalarini baland ko'tarib, bo'lajak jangga tayyor ekanliklarini namoyon etib baland ovozda na'ra (*suron*) tortganlar.

Jangchilarning jangovar ruhi va tayyorgarligini aniqlash uchun yurishlar va janglardan oldin harbiy paradning o'tkazilishi Temuriylar davrida ham an'ana bo'lib qoldi. Ko'rikda nafaqat qo'shin birlashmalari, balki asosiy kuchlarning ortidan harakatlanadigan ta'minot aravalari ham ishtirok etgan.

Lagerning atrofi chuqur xandaqlar bilan o'ralgan va qo'riqlov zastavalari va postlari bilan puxta qo'riqlangan. Lagerda o'rnatilgan paytlarda qo'shin qo'riqlov xizmatini olib borgan. Qo'riqlov qismlari lagerdan 5–6 km oldinga chiqqan, undan postlar, postlardan soqchilar ajratilgan va oldinga yuborilgan[4].

Amir Temur qo'shinni boshqarishga katta ahamiyat bergan. Sohibqironning buyrug'i bo'yicha dongdor komandirlardan to'rttasi birinchi darajali qo'mondon – *beglarbegi* lavozimiga tayinlangan. Bitta harbiy boshliq bosh qo'mondon *amir - ul - ulamo* vazifasiga tayinlanib, u bevosita Oliy Bosh Qo'mondonga bo'ysungan.

Harbiy qismlarni boshqarish uchun yana o‘n ikkita harbiy boshliqlar tayinlangan. Birinchi bek mingta chavandozlardan tashkil topgan birinchi guruhga, ikkinchi bek–ikki ming kavaleriyachilardan iborat ikkinchi guruhga qo‘mondonlik qilgan, uchinchi bek uch minglik kavaleriyachilarga boshchilik qilgan. Xuddi shu tartibda o‘n ikkinchi bek o‘n ikki minglik otryadning tepasida turgan.

Quyi toifadagi harbiy boshliq, toifasi bo‘yicha yuqori bo‘lgan harbiy boshliqqa so‘zsiz bo‘ysungan.

Amir Temur qo‘shinining turli qismlari va bo‘linmalariga uch yuz o‘n uchta beklar qo‘mondonlik qilgan, ulardan yuztasi – o‘n begilar, yuztasi – yuz begilar va yuztasi – ming begilarni tashkil etgan. Yirik qo‘shin birlashmalari Amir Temurning o‘g‘illari, nabirali va Shayx Nuriddin, Xo‘ja Sayfuddin, Shohmalik, Ollohdod, Jahonshohdek mashhur sarkardalar tomonidan boshqarilgan[5].

Rag‘batlantirishni qo‘llash keng qo‘llanildi: maqto‘v, maoshga qo‘shimchalar, sovg‘alar, lavozimlar, unvonlar (botir, bahodir va boshqalar), qismlar uchun bayroqlar.

Uddaburonliklari va jasoratlari bilan o‘zlarini ko‘rsatgan saralangan jangchilar munosib taqdirlanganlar va o‘n begi darajasiga ko‘tarilganlar, keyingi jasoratlari uchun yuz begi, undan keyin esa ming begi lavozimini egallaganlar.

Jasur jangchilar va bahodirlar jangda ko‘rsatgan jasoratlari uchun yuqori lavozimlarni egallaganlar va jamiyatning e‘tiborli kishilari toifasiga kirganlar. Ular gurzi, chodir, maxsus belbog‘, qilich va jangovar nayzalar bilan taqdirlanganlar.

G‘animning otryadini qirib tashlagan ming begi I-darajali amir unvonini olgan. Dushmanning yirik otryadini mag‘lub etgan I-darajali amir II-darajali amir unvoniga sazovor bo‘lgan. Jang maydonida mardlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan oddiy jangchining oylik maoshi oshirilgan. Jang maydonidan qochgan jangchilar o‘ljani taqsimlash marosimiga qatnashish huquqidan mahrum etilganlar, janglarda ko‘plab yarador bo‘lgan jangchilarga g‘amxo‘rlik va katta ehtirom ko‘rsatilgan.

Biror bir davlatni zabt etgan yoki dushman qo‘shinini tor-mor etgan harbiy boshliq bahodir faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan va unga burg‘u va nog‘ora berilgan. Biror bir g‘anim shahzodasining yirik qo‘shini ustidan qozongan g‘alabasi uchun beklar ham xuddi shunday hurmat-e‘tiborga sazovor bo‘lganlar.

Dushman qo'shinini qochishga majbur etgan o'n begi shahar garnizonining boshlig'i (*dorug'a*) etib tayinlangan, xuddi shunday qahramonligi uchun yuzbegi–viloyat hokimi, ming begi–viloyat amiri (*vali*) lavozimiga ega bo'lgan.

U yoki bu davlatni zabt etgan amirga ushbu davlatning eri imtiyozli asosda boshqarish uchun *suyurg'ol* (*sovg'a*) sifatida berilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida *suyurg'ol* erni boshqarishning ommabop usuli bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelgan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan 12 amir nog'ora va jangovar bayroq olgan. Bosh qo'mondon nog'ora va jangovar bayroqdan tashqari *burg'u* va ikkita shtandartga (*tumantug'ga*, *chortug'ga*) ega bo'lgan[6].

Mingbegi bayroq va karnay (*ko'raga*) olgan, yuzbegi va o'nbegiga nog'ora berilgan. Qo'shin qo'mondonining bayrog'i, nog'orasi va burg'usi bo'lgan. Kastiliya qirolligining elchisi – Klavixoning guvohlik berishicha, harbiy boshliq tinchlik davrida ko'k rangdagi, zardan tikilgan ko'ylak kiyib yurgan. Ular boshlariga telpak (*burk*) kiyib yurganlar. Bosh kiyimlarining ostidan uch qator kokillari ko'rinib turgan bo'lib, bu belgi Amir Temur armiyasining jangchilari ekanliklarini bildirib turgan.

Dushmanning harbiy kuchlari va uning mudofaa inshootlari to'g'risida, g'anim davlatining ichki ahvoli haqida aniq ma'lumotlarni olish uchun Amir Temur o'zining eng yaxshi razvedkachilarini (*josuslarni*) jo'natgan. Faqatgina kerakli ma'lumotlarni olgandan keyingina qo'shin harbiy yurishni boshlagan. U mahalliy aholi vakillaridan yo'l boshchilarni (*kajarchi*, *kacharchi*) tanlashga ham jiddiy e'tibor bergan.

Amir Temur o'zining to'satdan beradigan zarbalari bilan mashhur bo'lgan. Dushman qo'shinining soni ma'lum bo'lganidan keyin uning armiyasi tun qorong'isida dushmanning lageriga yashirincha yaqinlashgan va tongda hujumga tashlangan. Uning qo'shini qattiq intizomi, yuqori harakatchanligi, chidamliligi va janglarda jasorati bilan ajralib turgan.

Jang arafasida shakllanadigan jangovar tartibga katta ahamiyat berilgan. Qo'shin hech tomonga burilmasdan va ko'rsatilgan yo'ldan og'ishmasdan olg'a harakatlangan.

Tinchlik davrida ov (*charg'a*) asosiy mashg'ulotlardan biri bo'lgan, ovga urushga tayyorlovchi maktab singari ahamiyat berilgan va u ko'plab uyushtirilgan. Uning

qo'shini nafaqat tekisliklarda jang olib borish san'atiga ega bo'lgan, balki tog'larda ham mohirlik bilan harakatlangan.

Sohibqironning qo'shini harbiy yurishlarni bahorda, yozda va kuzda amalga oshirgan. Qishni o'z o'tovlarida o'tkazishni afzal ko'rganlar. harbiy yurishga o'tlanish muddati yaqinlashuvi bilan jangchilar hamma kerakli qurol-yarog'lari va anjomlarini tartibga keltirganlar. Belgilangan vaqtda qo'shin saf tortib yo'lga tushgan. Uning ortidan hamma kerakli narsalar ortilgan aravalar (*ug'ruq*) harakatlangan.

Sharofuddin Ali Yazdiyning ma'lumot berishicha, belgilangan safar tartibida (*murchil*) har bir o'nbegi, yuzbegi, mingbegi va tuman begi (*10 minglik qo'shin qo'mondoni*) o'z mavqesi va darajasiga ko'ra, intizomga qattiq rioya qilgan holda harakatlangan. Tartibni buzganlar qattiq jazolangan, ularga hatto o'lim jazosi ham berilgan.

Dam olish uchun to'xtalganda, odatda zanjirlar va arqonlar bilan bog'langan aravalar bilan qo'shin o'rab olingan. Transheyalar qazilib, brustverlarning oldida to'siqlar o'rnatilgan. G'anim qo'shinining paydo bo'lishi bilan jangchilar o'z pozitsiyalaridan chiqqanlar va jangovar tartibga yoyilib dushmanga qarshi harakatlanganlar.

Amir Temur qo'shini safar paytida quyidagi tartibda harakatlangan: bosh kuchlardan ancha oldinda avanpost (*qaravul*), uning ortidan avangard (*xiravul*), o'ng qanot (*barang'or*), chap qanot (*jarang'or*), markaz (*qo'l*), arergard (*chag'dovul*) harakatlangan. Ularning ortidan kerakli narsalar ortilgan aravalar harakatlangan.

Asosiy joylarning birida suvdan kechib o'tish uchun joy hozirlangan. Kechuv qo'riqlov postlari bilan qo'riqlangan. Qo'shin daryodan qismlar va bo'linmalar tarkibida kechib o'tgan. Kechuv paytida jangchilar qayiqlardan, meshlardan foydalanganlar yoki ponton ko'priklari yasaganlar.

Amir Temur armiyasida o'ljani taqsimlash davrida mobado kimdir o'zboshimchalik qilsa u qattiq jazolangan, hatto u Sohobqironning yaqin kishisi bo'lsa ham. Uning butun mol-mulki musodara qilinib, o'zi esa qatl etilgan. Faqat ruxsat berilganidan keyin yurishning har bir ishtirokchisi, uning toifasi va darajasiga qaramasdan o'ljaning teng taqsimlangan qismini olish huquqiga ega bo'lgan.

Amir Temurning sarkardalik iste'dodi uning To'xtamishga qarshi va Hindistondagi yurishlari chog'ida, hamda turk sultoni Boyazid Yildirimga qarshi kurashlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994. – 432 b.
2. Zamonov A. Boxoro xonligining qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi (Shayboniylar sulolasi davri). –Toshken.: BAYOZ, 2018
3. Zamonov A. Boxoro xonligining qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi (Shayboniylar sulolasi davri). –Toshken.: BAYOZ, 2018
4. Maxmudov V.N. Amir Temurning harbiy sarkardalik mahorati "Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro konferensiya tezislar. T.: 1996.
5. Temur tuzuklari.-T.: 1991, 1996.
6. Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. T.: Universitet, 2008. – 232 b.
7. Ziyaeva D.X. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan. – T.: SHarq, 2012.
8. Zamonov A. Boxoro xonligining qo'shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi (Shayboniylar sulolasi davri). –Toshken.: BAYOZ, 2018
9. Ahmedov B.A. O'zbek ulusi. – T.: Nur, 1992. – 130 b.
10. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – T.: O'qituvchi, 1994. – 432 b.
11. Belenitskiy A.M. Opoyavlenii ognestalnogo orujiya v Sredney Azii i Irane v XIV-XVI vv. // «Izv. Tadj.fil. SSSR», 1949, №15, – s. 21-35.
12. Bobur Zahridin Muhammad. Boburnoma. T.: "O'qituvchi" 1989.
13. Dadaboev X. Amir Temurning harbiy mahorati. T.: 1996.
14. Dadaboev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. T.: Universitet, 2008. – 232 b.
15. Dadaboev H. Ajdodlarimizning harbiy mahorati. T.: Akademnashr, 2016. – 176 b.
16. Maxmudov V.N. Amir Temurning harbiy sarkardalik mahorati "Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni" mavzusidagi xalqaro konferensiya tezislar. T.: 1996.
17. Karimov U., Ergasheva D. EDUCATIONAL ISSUES IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS //Теория и практика современной науки. – 2020. – №. 5. – С. 18-20.

ФИО автора: Фозилжон Мамарозиқов, ўқитувчи,

Ўзбекистон Республикаси Жисмоний тарбия ва спорт вазирлиги ҳузуридаги жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларини илмий-методик таъминлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш маркази Фарғона филиали

Название публикации: «БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯЛАШДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ»

АННОТАЦИЯ: Мамлакатни жаҳонга танитадиган, унинг нуфузини оширадиган омиллардан бири – жисмоний тарбия ва спортни ривожлантиришга қаратилган эътибор ҳисобланади. Ҳалқимизнинг бебаҳо маданий мероси, қадриятлари, урф-одатлари, анъаналарининг ўзига хослиги дунё миқёсида юксак эътироф этилаётгани, спортда улкан ютуқлар қўлга киритилаётгани юртимизда бу борада кенг кўламли саъй-ҳаракатлар тизими равишида амалга оширилаётгани натижасидир.

Ушбу мақолада баркамол авлод тарбиялашда жисмоний тарбия ва соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг аҳамияти илмий жиҳатдан тадқиқ этилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: жисмоний тарбия, соғломлаштириш, соғлом турмуш тарзи, спорт, инновация, таълим сифати, хотин-қизлар спорти, баркамол авлод, жисмоний тарбия тизими, спорт педагогикаси, спорт тренировкаси, спорт психологияси, жисмоний тайёргарлик.

Кириш

Мамлакатимизда чуқур ўзгаришлар, сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳаётнинг барча томонларини изчил ислоҳ этиш ва либераллаштириш, жамиятимизни демократик янгилаш ва модернизация қилиш жараёнлари жадал суръатлар билан ривожланиб бормоқда. Бунда кучли фуқаролик жамиятини шакллантириш йўлида белгилаб олинган ва изчил равишда амалга оширилаётган улкан вазифалар мустаҳкам замин яратмоқда.

Асосий қисм

Тарихимизга кириб келаётган буюк марра муносабати билан ўтган давр мобайнида ҳаётимиз сифати, мамлакатимиз қиёфаси қандай ўзгариб бораётгани, қандай ютуқ ва натижаларга эришганимиз, ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига асосланган очиқ демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этиш йўлида қандай суръатлар билан ривожланиб бораётганимизни баҳолаш эҳтиёжи туғилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёев таъкидлаганидек: “Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга эга бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамот масаласига айланиб бормоқда. “Тарбия қанча мукаммал бўлса, халқ шунча бахтли яшайди”, дейди донишмандлар. Тарбия мукаммал бўлиши учун эса бу масалада бўшлиқ пайдо бўлишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди”[1, 504-505]. “Энг асосийси, мамлакатимизда баркамол авлод таълим-тарбиясини кафолатловчи миллий модел яратилди. Бугун мамлакатимиз аҳолисининг 60 фоизига яқинини талаба-ёшлар ташкил этади. Улар учун республикаимизда спорт ва барча соҳада шароитлар яратилмоқда. Президентимиз ташаббуслари билан бугунги ва эртанги ҳаётимизни белгилаб берадиган, барча эзгу ишларимизни амалий ҳаёт жабҳасида рўёбга чиқарадиган ҳар томонлама етук кадрлар тайёрлаш, интеллектуал салоҳиятли, жаҳон андозаларига жавоб берадиган ёшларни тарбиялаш масаласида қилинаётган ишларнинг миқёси беқиёс. Бу ҳам интеллектуал салоҳиятли жисмонан соғлом бўлган авлодни тарбиялашга бўлган эътиборнинг омилий бир кўриниши эканлиги шубҳасиздир”[2]. Қисқача айтганда, биз ўз олдимизга қўйган узоқ муддатли стратегик мақсадлар, яъни замонавий ривожланган демократик давлатлар қаторига кириш, иқтисодиётимизнинг барқарор ўсишини таъминлаш, ҳаёт сифатини яхшилаш ва жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаш борасидаги саъй-ҳаракатларимизга бугунги кун нуқтаи назаридан ҳолисона баҳо беришимиз табиийдир.

Бугунги кунда иқтисодий жиҳатдан ривожланган мамлакатларда жисмоний тарбия ва спорт нафақат миллат саломатлигини мустаҳкамлаш ҳамда мамлакатни бутун дунёга танитиш воситаси бўлибгина қолмай, балки иқтисодиётнинг салмоқли фойда келтирувчи тармоғига ва шу билан бир қаторда спорт индустриясига айланган.

Мамлакатимизда соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, ёшларнинг ўз ижодий-интеллектуал салоҳиятини рўёбга чиқариши, мамлакатимиз йигит-қизларини ХХІ аср талабаларга тўлиқ жавоб берадиган, ҳар томонлама ривожланган шахслар этиб вояга етказиш учун зарур шарт-шароитлар, имкониятларни яратиш бўйича кенг қўламли аниқ йўналтирилган чоратадбирларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикасида 2010 йил “Баркамол авлод йили” деб эълон қилинди.

Юртимизда жисмоний тарбия ва спортни оммалаштириш, аҳоли, айниқса, ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш учун зарур шарт-шароитлар ва инфратузилмани яратиш, мамлакатнинг халқаро спорт майдонларида муносиб иштирок этишини таъминлаш борасида изчил чоратадбирлар амалга оширилмоқда.

Жисмоний тарбия Ўзбекистон Республикаси халқлари миллий маданиятининг ажралмас қисми, жисмоний ва маънавий камолотнинг муҳим воситаси бўлиб хизмат қилади. Жисмоний тарбия аниқ бир тизимга таянсагина, олдиндан кўзланган натижага эришилади. Жисмоний тарбия тизими деганда, жисмоний тарбиянинг принциплари, воситалари, методлари ва уни ташкиллаш шакллариининг шундай умумийлиги тушуниладики, у жамият аъзосини ҳар томонлама гармоник ривожлантиришнинг мақсад ва вазифаларига мос бўлсин.

Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси, “Бола ҳуқуқлари тўғрисида” ги Конвенция, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев асарлари, нутқ ва маърузаларида баён қилинган соғлом турмуш тарзини шакллантиришга оид фикрлар, Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни, “Кадрлар тайёрлаш бўйича миллий дастур”, “Жисмоний тарбия ва спорт

тўғрисида” ги Қонун, Шарқ ҳамда Европа олимлари ва мутафаккирларининг соғлом турмуш тарзини шакллантиришга оид фикр ва қарашлари моҳиятида ўз ифодасини топган.

Ҳар бир шахснинг турмуш тарзи кун сайин рўй бераётган воқеа-ҳодиса ва турли ўзгаришларнинг таъсири остида шаклланмоқда. Ўзаро муносабатларнинг ўзгараётгани ўқувчилар руҳиятига таъсир этмоқда. Натижада уларда ўз тақдири, оиласи, жамоаси учун зарур бўлган ақлий, ҳиссий ва эркига оид хатти-ҳаракатлар танлаш масъулиятини оширмоқда. Улар натижасида юзага келадиган асаб касалликларининг олдини олиш зарур. Бунинг учун эса энг аввало шахсий ва ижтимоий миқёсда соғлом турмушни ташкил этиш талаб этилади ва соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг асосий йўналишлари ва амалга ошириш йўллари билиши керак. Соғлом турмуш тарзи инсоннинг маданий, жисмоний ривожланиши, меҳнат унумдорлиги ва ижодий фаолиятини оширишни ўз ичига олади.

Соғлом турмуш тарзининг асосий таркибий қисмлари – самарали иш фаолияти, шахсий гигиена, гигиена талабларига қатъиян риоя қилиш, зарарли одатлардан воз кечиш, белгиланган бир вақтда тўғри овқатланиш, жисмонан ва руҳан чиниқиш, жисмоний тарбия билан мунтазам шуғулланиб туриш. “Соғлом турмуш тарзи инсоннинг маданий, жисмоний ривожланиши, меҳнат унумдорлиги ва ижодий фаолиятини оширишни ўз ичига олади. Соғлом турмуш тарзи – касалликларнинг олдини олишда асосий тадбирлардандир. Соғлом турмуш тарзи маълум миқдорда руҳий ва жисмоний талабларни қониқарли даражада амалга оширишга имкон беради”[3, 85].

Соғлом турмуш тарзининг шаклланиши инсон ҳаётининг фаолияти шароитларини унинг валеологик саводхонлиги, гигиеник малакаларига ўргатилиши, унинг саломатлигини ёмонлаштиридиган асосий омилларни билиши асосида такомиллаштиришни мақсад қилиб қўяди. Соғлиқни сақлаш кўп жihatдан инсоннинг яшаш муҳитига боғлиқ.

Инсон саломатлиги бу - энг аввало, унинг руҳий ва физиологик сифатларини ривожлантириш, умрининг максимал давомийлигида мақбул даражадаги

ишчанлик қобилияти ва ижтимоий фаоллигини сақлаб қолишдан иборатдир. Кўпгина олимларнинг фикрича, инсон организмнинг функционал имкониятлари ва унинг ташқи муҳитдан бўладиган нохуш омилларга барқарорлиги бутун умри давомида ўзгариб туради, негаки, саломатликни сақлаш, жўшқин жараён бўлиб, у ёш, жинс, касбий фаолият, яшаш муҳитига боғлиқ ҳолда яхшиланиб (саломатлик бўшашиб ёки мустаҳкамлашиб) боради.

Оммавий соғломлаштириш, жисмоний тарбия ва спорт ишлари олий ўқув муассасаларида ўқиш даврида, ўқишдан ташқари вақтларда, байрам ва дам олиш кунларида, амалий ишда, талабалар турар жойида таътил кунлари, талабаларни ёздаги иш фаолиятида ҳам мунтазам олиб борилади. Улар гигиеник, умумий тайёргарлик, спорт ва даволаш каби йўналишлар бўйича олиб бориши мумкин. Шунинг учун унутмаслигимиз керакки, болалар спорт билан фақат ўзининг жисмоний қувватини тиклаш ва бўш вақтини мароқли ўтказиш учун эмас, балки у орқали соғлом турмуш тарзига амал қилиш, маънавий ва жисмоний камолга интилиш турли салбий таъсирлар ва зарарли одатлардан халос бўлиш кучли ирода ва характерни шакллантириш учун шуғулланишлари кераклигини онгли равишда тушуниб етишлари керак. Шундай экан, соғлом ва баркамол бўлиш учун соғлом турмуш тарзига риоя қилиш, жисмоний фаолликни янада ошириш ва бу ҳаракатларни бугундан бошлашимиз ҳар бир инсон учун фойдалидир. Бу эса нафақат бугунги кун, айтиш пайтида эртанги авлодларимизнинг ҳам маънавий бойлигига айланиб, халқимизга ҳеч нарса билан ўлчаб, қийинлаб бўлмайдиган руҳий куч-қувват ва мадад бериши муқаррар.

Хулоса.

Хулоса қилиб шуни айтиш керакки, ўқувчи-ёшларни тўғрилиқка, ҳалолликка, покликка, ватанпарварлик ва инсонпарварлик ва юксак ахлоқилиқка йўллаш бу тушунчаларнинг моҳияти ва мазмунини спорт машғулоти орқали тушунтириш керак бўлади. Ҳозирги кунда бу масалаларга биринчи даражали аҳамият беришимизнинг боиси иймони, эътиқоди ва ахлоқий фазилатлари, маънавияти кучли, миллий масъулият туйғуси қалбида чуқур илдиз отган, маънавий баркамол фуқароларга эга мамлакатгина мустақил ва барқарор

ривожлана олади. Буюк келажак маънавий баркамол инсонларга таянгандагина яратилади, қад кўтаради.

Адабиётлар:

1. Ш.М.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. «Ўзбекистон», НМИУ, 2017 й.
2. Р.Рахмонов. Жисмоний тарбия ва спорт ёшларнинг саломатлигини мустаҳкамлашда энг муҳим омил сифатида. “Ўсиб келаётган ёш авлод жисмоний тарбияси ва спортда инновацион технологиялар” мавзусида Халқаро иштирокчилар ҳамкорлигида республика илмий-амалий анжумани материаллари. Чирчиқ, 2019 йил 7 июнь.
3. А.Нормуродов. Жисмоний тарбия. Тошкент, “Тафаккур-бўстони”. 2011 й.
4. А.Абдуллаев, Ш.Х.Хонкелдиев. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Фарғона, 2001 й.
5. У.Турсунов. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Ўқув қўлланма. Қўқон, 1992.
6. Талабаларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш. Д.Ж.Шарипова, Г.С.Фузаилова, М. Туркменова, Д. Зуфарова. Фарғона, 2010.
7. Соғлом турмуш тарзининг жисмоний маданияти Ш. Хонкелдиев, А.Абдуллаев, Ю. М. Касач, А. Т. Хасанов, М. М. Юлдашев. Фарғона, 2010.
8. И.Азимов. Спорт физиологияси. Тошкент, 1993 й.
9. Дубровский В.И. Спорт тиббиёти.- М.: Владас, 1998 й.
10. Дубровский В.И. Соғлом турмуш тарзи. -М.: 1999 й.
11. Л.П. Матвеев Теория и методика физической культуры. Учебник . М.: 1991 г.
12. Karimov U. et al. USING NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN DISTANCE LEARNING SYSTEM //НОВАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ В ЗЕРКАЛЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ. – 2018. – С. 9-11.

13. Karimov U., Abdurakhmon A. INNOVATIVE INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION //Форум молодых ученых. – 2017. – №. 5. – С. 9-12.
14. Karimov U., Ergasheva D. EDUCATIONAL ISSUES IN THE PERIOD OF AMIR TEMUR AND TEMURIDS //Теория и практика современной науки. – 2020. – №. 5. – С. 18-20.
15. Karimov U., Kasimov I. THE IMPORTANCE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF DISTANCE EDUCATION //Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018). – 2018. – С. 1186-1187.
16. Abdurakhmonova M., Azamjonova Z. THE IMPORTANCE OF RAISING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY //Экономика и социум. – 2020. – №. 3. – С. 3-5.

ФИО авторов: Худоёрова Нигора Нуриддинона

Ислом Каримов номидаги ТДТУ Термиз филиали ўқитувчиси

Эминжонов Моҳирбек Муқимжон ўғли.

Ислом Каримов номидаги ТДТУ Термиз филиали Енгил саноат ва кимё технологиялари факультети талабаси

Название публикации: «АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АСАРЛАРИДА МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАРИМИЗНИНГ АКС ЭТТИРИЛИШИ»

Аннотация: Абдулла Қодирий ижод масъулиятини чуқур англаган ёзувчидир. Адиб ўта даражада синчков ва ҳақиқатни илоҳий даражада англаган шахс эди. У Қўқон ва Марғилонга борган пайтида асарда тасвирланиши зарур бўлган жойлар, кўчалар ва уйларнинг қурилиш шаклини ўз кўзи билан кўрди, аниқлик учун зарур ўринларда масофасини ўзи одимлаб ўлчаб чиқди. Ҳаётини далилларни шахсан ўзи гувоҳлар иштирокида текшириб, ростлигига амин бўлганидан сўнггина ундан фойдаланган.

Таянч сўзлар: Абдулла Қодирий ижоди, қардош ва хорижий тиллар, таржима

THE REFLECTION OF OUR NATIONAL TRADITIONS IN THE WORKS OF ABDULLAH QADIRI.

Khudoyorova Nigora Nuriddinona

Teacher of Termez branch of TSU named after Islam Karimov

Eminjonov Mohirbek Muqimjon ogli.

Student, Termez branch of TSTU named after Islam Karimov,

Faculty of Light Industry and Chemical Technology

Annotation: Abdullah Qadiri is a writer with a deep understanding of creative responsibility. The writer was extremely meticulous and a person who understood the truth on a divine level. During his visits to Kokand and Margilan, he saw with his own eyes the construction of places, streets and houses to be depicted in the play, and

measured the distance himself in the places necessary for clarity. He used it only after he personally examined the evidence in the presence of witnesses and was convinced of its veracity.

Keywords: Abdullah Qadiri's work, sister and foreign languages, translation

ОТРАЖЕНИЕ НАШИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ КАДИРИ.

Худоёрова Нигора Нуриддинона

Преподаватель Термезского филиала ТГУ имени Ислама Каримова

Эминжонов Мохирбек Мукимжон оглы

Студент, Термезский филиал ТГТУ им. Ислама Каримова
факультет легкой промышленности и химической технологии

Аннотация: Абдулла Кадири - писатель с глубоким пониманием творческой ответственности. Писатель был чрезвычайно дотошным и понимал истину на божественном уровне. Во время своих визитов в Коканд и Маргилан он собственными глазами видел строительство мест, улиц и домов, которые будут изображены в пьесе, и сам измерил расстояние в местах, необходимых для наглядности. Он использовал его только после того, как лично изучил доказательства в присутствии свидетелей и убедился в их достоверности.

Ключевые слова: Работа Абдуллы Кадири, родственные и иностранные языки, перевод

Ёзувчи халқ оғзаки ижоди, мумтоз адабиётимиз ва жаҳон адабиётини яхши ўргангани боис образ яратишда ўзбекона услубни топди. Энг муҳими ўзбекни ўзбек қилиб кўрсатди (Қўшжонов, 1994: 115). Адиб ўз асарлари қаҳрамонларига ном танлар экан, уларнинг исми жисмига мос шаклда воқеалар тизимига сингдириб юборди. Уларнинг сурат ва сийратида миллий маданият барқ уриб

туради. Бу ҳолат ота-она ва фарзандлар ўртасидаги маданиятли муносабатида ёрқин намоён бўлган. Бу билан Абдулла Қодирий мустамлакачиларнинг ҳар хил асоссиз ва сохта даъволарига қаҳшатқич зарба берди. Бундан эсанкираган М.Швердин “За партию” журналининг 3-сониди “Первый узбекский роман” (Қўшжонов, 1994: 116) мақоласини эълон қилди. Шундан сўнг Абдулла Қодирийни қораловчи ғаламисларга йўл очилиб, турли тухмат ва бўҳтонлардан иборат мақола ҳамда китоблар пайдо бўлди. Халқимиз таъбири билан айтганда меваги дарахтга ҳар доим тош отилаверади. Шу боис улар қанча чирансалар ҳам адибнинг номини ва асарларини бадном қила олмадилар. Ёзувчининг асарларида драматик ўринлар бисёрдир. Қодирий асарларида воқеаларнинг янада ёрқинроқ тус олишига мактублар катта ёрдам бергандир. Мактубларнинг ўзига хос хусусиятлари бўйича ўзбек тилшунослигида номзодлик диссертацияси (Чориева, 2006) ҳимоя қилинди. Мазкур хатлар эса ўша даврдаги зиёлиларнинг савияси ва билим даражасини тасдиқловчи асос бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. LAFASOV U., (2013), “Kora” suzi Abdulla Kodiriy talkinida. Şark maşvali jurnali, 1-son. 24-26-betlar. Toşkent.
2. MİRZAEV İ., (1977), Abdulla Kodiriyning ijodiy evolüciasi. “Fan”, – 158 b., Toşkent. SULTON İ., (1956),
3. Özüvçi Abdulla Kodiriy hakida. “Kizil Uzbekiston” gazetasi, 28 oktabrı soni, Toşkent.

ФИО авторов: Юлдашев Сардорбек Адилбекович

АДУ Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси мудири, доцент
Исаков Шухратбек Мўйдинович

АДУ Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси катта
ўқитувчиси

Ахмедов Гайратбек Қосимович

АДУ жисмоний маданият факультети ўқитувчиси

Название публикации: «ЁШЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА ОММАВИЙ
СПОРТГА ЖАЛБ ҚИЛИШ ОРҚАЛИ УЛАРНИНГ ЖИСМОНИЙ КЎНИКМА
ВА МАЛАКАЛАРИНИ САМАРАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ»

Аннотация: Ушбу мақолада ёшларни жисмоний тарбия ва оммавий спортга
жалб қилиш ҳамда жисмоний кўникма ва малакаларини самарали
ривожлантириш ҳамда бошқа ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорликлари ёритиб
берилган.

Калит сўзлар: Ёшлар, жисмоний маданият, жисмоний тарбия, спорт,
компетенция, мотивациялаш, маҳалла, соғлом турмуш тарзи.

Ҳар қандай мамлакатнинг тараққий этиши ва янада ривожланиши, қисқа
қилиб айтганда эртанги куни бевосита улғайиб келаётган ёшларга боғлиқ. Айни
патда ёшлар дунё аҳолисининг тез кўпайиб бораётган қисмини ташкил этади.
Ёшлар мамлакат миқёсида ривожланиш жараёнини жадаллаштириш учун
инновацион ғояларни яратишга қодир қудратли ресурс, жамиятнинг ғайрат-
шижоатга тўлиб-тошган фаол қатлами, ижтимоий ўзгаришларга сабаб
бўладиган, бунёдкорлик ғояларини ҳаётга татбиқ этадиган катта кучдир.

Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.Мирзиёев ташаббусига кўра қабул
қилинган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича 2017-
2021–йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги
фармоннинг бешта устувор йўналишидан тўртинчиси ижтимоий соҳанинг
ривожлантирилишига қаратилган.

Унга кўра аҳоли ва айниқса республикамиздаги ёшлар қатлами бандлигини таъминлаш, ёшларнинг соғлом вояга етишишлари ҳамда спорт ва жисмоний тарбия масалалари билан боғлиқ чора-тадбирлар ҳам қамраб олинган ва уларни жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш ҳақидаги долзарб масалалар алоҳида таъкидлаб ўтилган.

Ўзбек халқининг қаҳрамонлик эпоси “Алпомиш” достонида эса кураш, мерганлик ва чавондозлик мусобақаларига катта эътибор берилган. Достонда ёзилишича, қизлар Алпомишдек олдиларига қўйилган шартларни бажарган йигитларнигина куёвликка лойиқ кўришган.

Жисмоний тарбия ва спорт орқали соғлом ёшларни тарбиялаш бутун бир жамиятнинг вазифаси бўлмоғи керак. Ҳар бир инсон, оила, маҳалла, ота-она жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишни одат даражасига чиқариши билан бирга, қадрият сифатида эъзозлаши жамиятнинг узлуксиз равишда жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланишига олиб келади.

Шундай экан жисмоний тарбия ва спорт билан шуғулланиш инсонга жисмоний жиҳатдан янги имкониятларни яратиб беради. Шу нуқтаи назардан н ёшлардаги маълум бир хусусиятлар ҳамда жисмоний тарбия ва спорт ўртасидаги алоқадорликни ўрганиш зарур ҳисобланади.

Жисмоний тарбия ва спорт инсонни жисмоний, ахлоқий баркамолликка эришишнинг муҳим омилidir. Спорт иродани, одамнинг мақсадга эришишга интилишини мустаҳкамлайди, қийинчиликларга сабр-тоқат билан чидашга ўргатади, одамда ғалабага ишонч, Ватанимиз, халқимиз шон-шухратини жаҳон ҳамжамияти олдида улуғлайдиган ютуқлардан фахрланиш ҳиссини тарбиялайди.

Бундан кўриниб турибдики ёшлар онги ва қалбида мустақиллик ғоясига юқори маънавият ва инсонпарварлик анъаналарига садоқат туйғулари янада чуқур илдиз отиши, радикализм ҳамда экстремизмдек ёт ғояларга қарши иммунитетини мустаҳкамлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларни олдини олишга қаратилган мақсадли ва тизмли равишда жисмоний тарбия ва спорт мусобақаларини ҳамда тадбирларни ўтказиб боришни йўлга қўйишимиз, жисмоний тарбия ва спорт орқали ёшларни жамиятда ўз ўринларини топиб

олишларига имкониятлар яратишимизда ҳамкорлик тизимини йўлга қўйишимиз зарур.

Бунинг учун ёшлар орасида жисмоний тарбия ва оммавий спортга оид амалий компетенцияларни ҳамкорликда ривожлантириш бўйича ҳамкор ташкилот ва бошқармалар рўйхатини шакллантириш (оила, маҳалла, ҳар бир тумандаги сектор раҳбарлари, ёшлар иттифоқи, ички ишлар, соғлиқни сақлаш, халқ таълими, жисмоний тарбия ва спорт бошқармалари, муҳофаза бўлимлари, спорт федерация ва клублари, сиёсий партиялар, диний ташкилотлар ва бошқалар) улар ўртасида ҳамкорлик бўйича ўзаро низом ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш долзарб масалалардан бўлиб турибди.

Бундан ташқари қуйида келтирилган вазифаларни ҳамкор ташкилот ва бошқармалар билан биргаликда узлуксиз амалга ошириш глобаллашув даврининг устувор вазифаларидан:

- барча туманлардаги тўртта сектор раҳбарлари ушмаган ёшлар бўйича қуйидаги вазифаларни бажарилишини ўз назоратига олишлари,

- маҳалла фуқаролар йиғинлари (МФЙ) аъзолари штат таркибида маҳаллалар ёшларининг қатламини жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш учун олий маълумотга эга жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларини ишлашини таъминлаш,(Маҳалла спорти етакчиси)

- маҳаллаларда ёшлар қатлами орасида жисмоний тайёргарлиги ҳамда саломатлиги даражасини белгиловчи «Алпомиш» ва «Барчиной» махсус тестларини қабул қилиб бориш,

- маҳаллалар ҳудудларида маҳаллий хомийларни жалб этган ҳолда бир нечта спорт турларига ихтисослаштирилган универсал спорт майдонларини қуриш, ушбу майдонлардан мақсадли фойдаланишни ташкиллаштириш, ёшлар билан ўтказиладиган машғулотларга спорт федерациялар ва клублар билан ҳамкорликда тажрибали мураббийларни жалб этиш,

- тўй ва давлат байрамларида оммалашган спорт турлари бўйича мусобақалар ташкил этишни ва ўтказишни янада оммалаштириш, уюлмаган

ёшлар ўртасида оммавий спорт турлари бўйича маҳаллалар, туман секторлари, туманлараро ва вилоят босқичи мусобақаларини узлуксиз ўтказиб бориш;

- Осиё, жаҳон миқёсидаги ҳамда олимпиада ўйинларида фахрли ўринларни эгаллаган таниқли ўзбек спортчилари билан учрашувлар, семинар тренинглар ва маҳорат дарсларини ташкил этиш ва ўтказиш орқали ёшларни жисмоний тарбия ва оммавий спортга мотивациялаш,

- маҳалла фуқаролар йиғинлари бинолари олдида “Маҳалламиз ифтихорлари” номли тасвирий ойна ташкил этиб у ерда маҳалладаги иқтидорли спортчи ёшларни фотосурафтларини ўрнатиб сифатида олиб қўйиш,

- ёшлар агентлиги раҳнамолигида вилоят босқичи мусобақаларида совриндор бўлган ва саралаб олинган иқтидорли спортчи ёшларни олий таълим муассасаларининг жисмоний тарбия йўналишига имтиёзли равишда таълим олишларини таъминлаш,

- ёшлар билан соғлом турмуш тарзи, диний экстримизм ва терроризм, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликлар, одам савдоси ҳамда ватанпарварлик мавзуларида шу соҳа вакиллари ҳамкорлигида семинар тренинглар, учрашувлар ташкил этиш,

- болалар ва ўсмирлар спорт мактаби мураббийлари, мактаб, коллеж жисмоний тарбия фани ўқитувчилари, спорт клуб ва федерацияларни маҳалла спортга қўмаклашишини ташкил этиш,

- ҳафтанинг бир кунини “Маҳаллада спорт” шиори остида турли тадбирларни узлуксиз ўтказиб бориш,

- олий таълим муассасалари жисмоний тарбия факултетининг битирувчи талабаларини маҳаллада ёшларни жисмоний тарбия ва спортга жалб этиш учун амалиётларга йўналтириш,

- умумий ўрта мактабларнинг ўқувчиларини мактабдан ташқари маҳалла спорти машғулотларига қамраб олиш ва улар орасидан иқтидорли спортчиларни саралаб олиш.

Ўзбекистон аҳолисининг 60 % дан ортиғи ёшлар ташкил қилишини инобатга оладиган бўлсак бу масалага умуммиллий масала сифатида қараш соҳа вакиллари билан ишлашни талаб этади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, маҳаллаларда ёшлар онги ва қалбида мустақиллик ғоясига юқори маънавият ва инсонпарварлик анъаналарига садоқат туйғулари янада чуқур илдиз отиши, радикализм ҳамда экстремизмдек ёт ғояларга қарши иммунитетини мустаҳкамлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларни олдини олишга қаратилган мақсадли ва тизмливаришда жисмоний тарбия ва спорт мусобақаларини ҳамда тадбирларни ўтказиб боришни йўлга қўйишимиз, жисмоний тарбия ва оммавий спортга оид амалий компетенцияларини узлуксиз ривожлантириш орқали ёшларни жамиятда ўз ўринларини топиб олишларига имкониятлар яратилиши шубҳасиз.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Шавкат Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. 7 феврал 2017 йил. Лех.уз.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “ Оммавий спортни ривожлантириш ва соғлом турмуш тарзини ҳар бир фуқаронинг ҳаётига киритишга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚЛ-1211/20 Қарори
3. <https://olamsport.com/uz/news/10793> 2020.11.01
4. Ahatov. L.K, Rasulov.A.G “Jismoniy tarbiya va sportda faol tadbirkorlik, innovatsion g’oyalar va texnologiyalardan foydalanish”. Qarshi 2018.

ФИО авторов: Azizova Nafruza Esanboyevna

Sam.D.Ch.T.I, Trajima nazariyasi va amaliyoti fakulteti o'qituvchisi

Abdurazakov Xurshed Jamshidovich

Sam.D.Ch.T.I, Trajima nazariyasi va amaliyoti fakulteti I bosqich talabasi

Название публикации: «XORIJIY TILLARNI YANGI O'RGANISHGA KIRISHGAN YOSHLAR YO'L QO'YADIGAN BA'ZI XATOLAR, MUAMMOLI VAZIYATLAR VA ULARNING TAHLILI»

Annotatsiya: Bugungi tez rivojlanib borayotgan globallashuv zamonida xorijiy tillarni puxta egalagan yosh kadrlarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Bu esa yoshlar orasida xorijiy tillarga qiziquvchilarning ortishiga va chet tillarini o'rganishning keng ommalashuviga zamin bo'lmoqda. Ammo o'quvchi yoshlar tomonidan xorijiy tillarni o'rganish jarayonida bir qator xatolarga yo'l qo'yilishi yohud ba'zi muammoli vaziyatlarga duch kelinishi sababli ularning yangi o'rganilayotgan tillarga bo'lgan ishtiyoqining tezda yo'qolib qolishi holati ham uchraydi. Mazkur maqolada xorijiy tillarni yangi o'rganishga kirishgan yoshlar yo'l qo'yadigan ba'zi xatolar, muammoli vaziyatlar va ularning tahlilini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: bir tomonlama maqsad; gapirshdan qo'rqish; o'rganish uslublari; o'qituvchiga bog'lanib qolish; til muhiti.

Albatta har bir inson biror ishga qo'l urish orqali ma'lum maqsadga erishishni ko'zlaydi. Shu qatorda ingliz, fransuz, nemis yoki biror sharq tillarini o'rganishga kirishgan yangi til o'rganuvchilar ham mazkur tillarni o'rganish orqali ma'lum bir maqsadga, natijaga erishishni ko'zlaydi. Afsuski ba'zi til o'rganuvchilar shu qadamdayoq xatoga yo'l qo'yadilar va keyinchalik til o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelishadi. Gap shundaki hozirgi kunda aksariyat xorijiy tillarni o'rganuvchi yoshlar mazkur tilni o'rganish orqali bir tomonlama natijaga erishishni ko'lashadi, ya'ni ular yangi xorijiy til o'rganish orqali faqat kirish testlarida yaxshi natijaga erishish, o'zlari o'rganayotgan til bo'yicha til bilish sertifikatini qo'lga kiritish yoki mazkur tilda shunchaki so'zlashuv ko'nikmasini shakllantirishni maqsad

qilishadi. Bu esa o'rganilayotgan tilga yuzaki munosabatni shaklanishiga sabab bo'ladi. O'z o'rnida o'rganilayotgan tilga nisbatan bunday yuzaki munosabat ularning mazkur tilni, undagi o'ziga xos ibora va murakkabliklarni to'liq anglab yetishlariga xalaqit beradi va oqibatda ular ushbu tilni o'rganishdan o'zlari kutganday muvaffaqiyatga erisha olishmaydi. Bu ularning xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ular «bu mening ona tiliim emas, bu tilni to'liq bilishim shart emas» degan xulosaga kelishadi. Aslida esa til o'rganish jarayoniga nisbatan bunday qarash mutlaqo xato. Xorijiy tillarni o'rganish va o'rganilayotgan tilda ravon gapira olish ushbu tilni o'rganishga jiddiy kirishishni talab etadi. Til o'rganishga yuzaki emas balki jiddiy yondashishgina ushbu tilni, undagi murakkabliklarni to'liq tushunishga va kelajakda ushbu tilda qiyinchiliklarsiz muloqot qilishga yo'l ochadi.

Xoriliy tillarni endi o'rganishga kirishgan o'rganuvchi yoshlarninglar oldidagi muammoli vaziyatlardan yana biri bu ularning mazkur tilni o'zlashtirish va qo'llash davomida xato gapirib qo'yishdan qo'rqishlaridir. Albatta til o'rganish jarayonida xato qilishdan qochish til o'rganuvchilarda tilga nisbatan masuliyatli bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi, biroq bu jarayon til o'rganishni sustlashishiga va o'rganuvchi o'quvchining bora-bora bu tilda gapirish ko'nikmasining to'liq rivojlantirishida qiyinchiliklarga uchrashiga olib kelishi mumkin. Odatda til o'rganuvchi o'rganayotgan tillarida suhbatlashish jarayonida grammatik me'yorlarda xato qilishdan qochishga urinishi bilan chalg'ib gapirilayotgan fikrning mazmunini majhullashishiga sabab bo'ladi. Bu esa tinglovchining fikrni to'liq anglab yetolmasligiga olib keladi. Shuni unutmaslik kerakki har qanday yangi boshlangan ishda xato va kamchiliklar bo'lishi bu tabiiy hol. Yangi til o'rganuvchilarning nutqidagi talafuz buzilishlari va grammatik xatoliklar doimiy o'z ustida ishlash va mazkur tilda gapirish amaliyotini oshirish orqali o'z yechimini topadi.

Chet tillarini o'rganishga kirishayotgan yangi o'rganuvchilar yo'l qo'yadigan yana bir xatolardan biri bu o'rganuvchilarning o'qituvchi ko'magiga haddan ortiq bog'lanib qolishi va o'z ustida ishlashdan qochishlaridir. Albatta til o'rganish jarayonida o'qituvchining tushuntirish va yordamlariga tayanish optimal holat, ammo o'ranuvchilarning o'z ustida ishlashdan qochishi yohud o'z ustida kam ishlashi,

mustaqil ishlash jarayonida yuzaga keladigan til o'rganish bilan bog'liq kichik murakkabliklarga yechim topishga urunmasliklari bora-bora o'rganuvchilarning til o'rganish ko'nikmalarining sekinlashishiga va kam natija berishiga olib keladi. Shuni unutmaslik kerakki xorijiy tilga doir ko'nikmalarni aynan bir shaxsning nutqiga tayanib qurib bo'lmaydi, chunki odatda o'qituvchilarning o'sha xorijiy tildagi nutqi o'sha xorijiy tilda so'zlashuvchi tub aholi nutqi bilan ancha farqqa ega bo'ladi. Bunday muammolarga duch kelmaslikning eng to'g'ri yo'llaridan biri bu o'sha tildagi kinolarni ko'rish va podkast va radio eshtirishlarni tinglashdir.

Xorijiy tillarni yangi o'rganuvchilarga bog'liq muammoli vaziyatlardan biri bu xorijiy tillarni o'rganishga mo'ljallangan o'quv dasturlarining haddan ortiq ko'pligi va yoshlarning odatda o'qitish dasturlarining o'ziga mosini tanlash va keyinchalik o'qitish dasturlariga ko'nikib ketolmaslikdir. Ba'zida xorijiy tillarni o'rganishda qaysi usul samaraliroq? o'qituvchi bilan yuzma-yuz holda alohida o'rganish yoki guruhlariga birikkan holda? degan savol til o'rganishga endi kirishgan yoshlar oldida paydo bo'ladi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki xorijiy tillarni o'rganishga qaratilgan yuqoridagi ikki usul ham o'ziga xos ustunlik va kamchiliklarga ega. Misol uchun xorijiy tillarni guruhlariga birikkan holda o'rganish orqali xorijiy tilda gapirish ko'nikmasining tez shakllanishiga, darsda o'tilgan ma'lumotlarni o'zaro savol-javoblar orqali yanada mustahkamlab olishiga erishish mumkin. Biroq xorijiy tillarni guruhlarda o'rganish davomida ajratilgan vaqtning ba'zida barcha o'quvchilar bilan ham ishlashga yetmasligi, dars yuzasidan berilgan axborotlarning barchaga birday tushunarli bo'lmasligi kabi muammolarga duch kelishi ham mumkin[1, 2-bet]. Xorijiy tillarni o'qituvchi bilan yakka holda o'rganish jarayonida esa o'rganuvchi til yuzasidan o'zida paydo bo'layotgan barcha savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'lishi, mavzuning nisbatan tushunarli bo'lishi va dars jarayonida ortiqcha narsalarga chalg'imasligi kabi qulayliklarga ega bo'ladi. Lekin til o'rganishning bu ushbu tilda gaplashish ko'nikmasining rivojlashiga to'sqinlik qiladi. Bu muammo borasida Toni Robins «Eng yaxshi usul va qoidalar ham muvaffaqiyatning atiga 20 foizini tashkil etadi, qolgan 80 foizi inson psixologiyasiga bog'liqdir»[2, 73-bet] deb takidlaydi. Shuni unutmaslik kerakki muvaffaqiyatning asosiy garovi bu tinimsiz mehnat va

harakatdir. Til o'rganish jarayonida vujudga keldigan muammoli vaziyatlardan yana biri bu yangi til muhitiga moslasha olmaslik, o'sha tilni his qilishda qiynalishdir. Odatda bunday muammo ushbu tilda so'zlashuvchilarning yoki ushbu tilni biluvchilarning til o'rganuvchi atrofida yo'qligidir. Bu muammo ortidan til o'rganuchi yangi o'gan so'zlar va ma'lumotlarini tezda yodidan chiqarib yuborishiga olib kelishi mumkin. Bu muammoni hal qilishning maqbul usuli bu o'rganilayotgan til muhitini o'rganuvchi tomonidan yaratilishidir. Bu borada til o'rganuvchi eng avvalo kuundalik hayotda eng ko'p foydalanadigan buyumlarning nomini eslab qolishga harakat qilishi va iloji bo'lsa bu buyyumlarni yangi o'ranilayotgan tildagi nomini ularning o'ziga yozib qo'yishi anchayin foydali. Bu usul xorijiy tildagi predmetlar nomini oson o'zlashtirilishi va xotirada uzoq saqlashiga yordamlashadi. Bundan tashqari xorijiy tildagi musiqalarni tinglash va ushbu musiqa matnini olgan holda musiqa eshtish davomida so'zlar talafuzini kuzatish eshtish va talafuz ko'nikmasini anchayin muvaffaqiyatli shaklanishiga ko'maklashadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida xatolarga yo'l qo'ymaslik va muammolarga duch kelmaslik uchun til o'rganishga nisbatan masuliyatliroq bo'lish, muntazam o'z ustida ishlab borish lozim. Nafaqat til o'rganish, balki har qanday vazifada muvaffaqiyatga erishish uchun doimiylikka amal qilish lozim. Shundagina o'rganilayotgan tilni to'liq egallashga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.F.M.Muhammadjonov. «O'rta maktab o'quvchilarining ingliz tilini o'rganishda duch keladigan qiyinchiliklar». Maqola.
- 2.T. Robins «Maqsadga qanday erishiladi» 2013.
- 3.Z.Po'latova. «Xorijiy tillarni o'rganishdagi muammolar». Maqola.

ФИО авторов: Farxodova Maftuna Qudrat qizi, Sapayeva Maxliyo Yusupboy qizi
Urganch Davlat Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti

Название публикации: «O'ZBEK VA NEMIS TILIDA IBORALARNING QO'LLANISHI»

Аннотация: В статье рассматриваются синонимичные особенности фразеологических сочетаний с названиями частей тела человека на узбекском и немецком языках.

Annotation: This article discusses the synonymous features of phraseological combinations involving the names of human body parts in uzbek and german. .

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va nemis tilidagi inson tana a'zolari nomlari qatnashgan frazeologik birikmalarning o'zaro sinonimik xususiyatlari haqida muhokama qilinadi.

Ключевые слова: лингвистика, фразеология, устойчивое спряжение, синонимия выражений, классификация

Key words: linguistics, phraseology, stable connection, synonymy of expressions, classification

Kalit so'zlar: tilshunoslik, frazeologiya, turg'un birikma, iboralar sinonimiyasi, qardosh tillar, so'z birikmalari.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologiya fanning asosiy bo'limlaridan biri hisoblanadi. Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi¹. Chet tillarini o'rganishda ham har bir o'quvchi o'rganilayotgan tilning turg'un birikmalarini o'rganmasdan uni chetlab o'tib keta olmaydi. Chunki bu soha, ya'ni frazeologiya har bir tilning eng muhim qismidir.

O'zbek tilida bo'lgani kabi nemis tilida ham frazeologik birliklar turli ma'no nozikliklariga ega. Xo'sh bu ikki til ibora qatlami bir-biriga o'xshashmi yo o'zaro

tavofudlar mavjudmi? Ushbu tadqiqot inson tana a'zolari nomlari qatnashgan iboralar misolida olib boriladi.

Inson tana a'zolari nomlarining frazeologik birlikda qo'llanilishi bu sohaning butun dunyo tillari tarkibida muqim va muhim o'rin egallashidan dalolat beradi. Quyida nemis va o'zbek tillaridagi inson tana a'zolari nomlari qatnashgan iboralarni o'zaro semantik jihatdan taqqoslab keltiramiz. Bu orqali ikki til iboralarining qiyosiy tahlili va o'zaro sinonimiyasi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Seine Nase in etwas stecken

Burini tiqmoq, burnini suqmoq²

Yuqorida keltirilgan bu iboralarining har ikkalasi ham qiziquvchan bo'lmoq ma'nosini ifodalaydi. Bu kabi har ikkala tilda ham bir ma'noni beruvchi iboralar soni yetarlicha ko'p.

Misol uchun:

etwas auf der Zunge haben

til uchida turmoq

Quyida nemis tilida keltirilgan turg'un birikmani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak "til uchida nimadir bo'lmoq" ma'nosini beradi. Xuddi shu ibora oz'bek tilida ham mavjud bo'lib, u o'zbek tilining frazeologik lug'atida keltirib o'tilgan.

Die Beine in die Hand nehmen

Oyog'ini qo'liga olmoq

Von Kopf bis Fuß

Boshdan oyoq³

In allen Mund sein

Og'ziga tushmoq

Bu ikkala ibora ham "ko'pchilik orasida gap-so'z bo'lmoq" ma'nosini beradi. Ammo nemis tilida keltirilgan iborani so'zma-so'z tarjima qiladigan bo'lsak u "hamma og'zida bo'lmoq" ma'nosini nozikligini beradi. Bu kabi faqat ayrim so'zlar bilan

farqlanuvchi ammo ma'no jihatdan bir xil hisoblanadigan frazeologik birliklar qatoriga quyidagilar ham mansub.

Jemandem unter die Arme greifen

Kimnidir qanoti ostiga olmoq.

Yuqoridagi iboralarning har ikkalasi ham "kimgadir yordam bermoq", "kimnidir himoya qilmoq" ma'nosiga ega. Nemis tilida keltirilgan frazeologik birikmani aynan tarjima qilsak, "kimnidir qo'l ostiga olmoq" kelib chiqadi. O'zbek tilidagi xuddi shu ma'noni beruvchi iborada esa qo'l so'zi o'rniga qanot so'zi qo'llanilgan. Ammo bu ikkala so'z ham bir xil mazmunga ega.

Har ikkala tildagi bu kabi iboralar faqat tarkibidagi ayrim so'zlar bilangina bir-biridan farq qilishi mumkin. Lekn ulardan kelib chiqadigan xulosa va mazmun aynan bir xildir.

Xulosa sifatida ayta olamizki, ko'pchilik tillardagi frazeologik birikmalat aynan bir xil, faqat ayrimlari shakl tarafdin qisman farq qiladi, ammo semantik jihatdan juda o'xshash va yaqin. Dunyo tillari turlicha bo'lishi mumkin, biroq ularning xalq og'zaki ijodlari, maqol-matallari, ibora va shu kabi ma'no nozikliklari mazmunan bir biriga yaqin. Bu esa ularning yaralish tarixi borib-borib bir-biriga tarqalishining aynan isbotidir. Shu qatorda nemis va o'zbek tillari tarixan bir biriga qardosh tillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 1-jild, Toshkent, 2006-2008
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 2-jild, Toshkent, 2006-2008
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 3-jild, Toshkent, 2006-2008
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 4-jild, Toshkent, 2006-2008
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, 5-jild, Toshkent, 2006-2008

ФИО автора: Абдуллаев Наврўзбек Абдуназар ўгли

Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги академияси курсанти

Название публикации: «ЖАМОАТ ЖОЙЛАРИДА БЕЗОРИЛИКНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ВА ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИНИНГ ХАМКОРЛИГИ»

Аннотация: ушбу мақолада жамоат жойларида безориликни олдини олишда ички ишлар органлари ва таълим муассасаларининг ҳамкорлигини ошириш ҳамда аҳоли орасида, жамоат жойларида ижтимоий, сиёсий, ҳуқуқий мазмундаги тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориш ва уларнинг аҳамияти ҳақида сўз боради

Калит сўз: ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, безорилик, профилактика инспекторлари,

Мустақиллик йилларида республикамизда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш борасида комплекс чоратadbирлар амалга оширилиб, мамлакатда ҳуқуқ-тартиботни таъминлашда ижобий натижаларга ҳамда криминоген вазиятни сезиларли даражада яхшилашга эришилди.

Энг аҳамиятлиси, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини фақатгина ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг вазифаси сифатида баҳолаб, ушбу фаолиятга лозим даражада эътибор қаратмасликдек эскича ёндашувга буткул барҳам берилди. Ҳуқуқбузарликларнинг самарали профилактикасини амалга ошириш давлат органлари, шу жумладан, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, бошқа давлат ташкилотлари, шунингдек, хўжалик бошқаруви органларининг ҳамда фуқароларнинг устувор вазифаси этиб белгиланди.

Безорилик ҳуқуқбузарликлари жамоат тартибини бўзиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар субъекти сифатида кўпроқ даражада ёшлар намоён бўлади. Шахснинг ёшига доир жиҳатини унинг атрофдагилар билан муносабатига ички дунёсига ўз таъсирини ўтказиб уларнинг хулқ-атвори ўзгарувчан бўлади. Шу боис безорилик ҳуқуқбузарлигини содир этган 16-30ёшлардаги безориликнинг

субъекти сифатида жавобгарликка тортилганлар. Бу ёшдагилар ўрганилган умумий ҳуқуқбузарликларининг ишларининг 62%ни ташкил этган. 30-40 ёшдагилар безориликнинг 17%ни ташкил қилган 40-50 ёшдагилар 11%ни ташкил этган. Ўрганилган ҳуқуқбузарликлар ишлари бўйича бирорта ҳам 60 ёшдан ошган шахслар безорилик ҳуқуқбузарлигини содир этмаганлар. Бундан кўриниб турибдики, профилактика инспекторлари асосан бу турдаги ҳуқуқбузарликларни олдини олишда энг аввало ёшлар томонидан содир этилаётган ҳуқуқбузарликларга эътиборини қаратиши лозим.

Бунда биринчи навбатда мактабларда ва коллежларда ушбу турдаги ҳуқуқбузарликларни ёшларга унинг оқибатлари ва жавобгарлик масалалари тўғрисида тушинтириш ишларини олиб боришлари лозим. Бундан ташқари, ушбу турдаги ҳуқуқбузарликларни содир этишга мойил ёшлар билан якка тартибдаги профилактик тадбирларни ўтказиш ва ота-оналари билан тушинтириш ишларни олиб бориш ҳамда расмий огохлантиришлар ва тилхатлар олиш мақсадга мувофиқ. Яна ушбу турдаги ҳуқуқбузарликларни олдини олишдаги чора-тадбирлардан бири бу турдаги ҳуқуқбузарликларнинг келиб чиқиши сабаблари ва унга имкон бераётган шарт шароитларни бартараф этиш тўғрисида корхона, муассаса ва ташкилотларга тақдимномалар киритиш лозим.

Профилактика инспекторлари умумий тартибдаги профилактикани қуйидаги усулларда амалга ошириш бўйича такомиллаштириб бориш мақсадга мувофиқ булади:

– аҳоли орасида, жамоаларда ижтимоий, сиёсий, ҳуқуқий мазмундаги тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориш (маҳалла фуқаролар йиғини, яраштириш комиссиялари, диний-маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчилар билан ҳамкорликда);

– оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиб, яъни газета ва журналларда мақолалар эълон қилиш, радиоэшиттиришлар ташкил этиш, телевидениеларда турли кўрсатувлар тайёрлаш;

– маърузалар ўқиш, суҳбатлар уюштириш ва учрашувлар ташкил этиш.

Сохибқирон бобомиз Амир Темур ўзининг Темур тузуклари китобида: „Лоқайд инсонни енг хавфли душман”- деб ҳисоблашини қайд қилган. Бундан қуришиб турибдики шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш, инсон ҳуқуқлари, еркинликлари ва қонуний маанфатларини ишончли ҳимоя қилишда барчамиз бирдек маъсул эканлигимизни асло унутмаслигимиз лозим...

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

- 1.Биринчи президентимиз И.А.Каримов. Юксакмаънавият – енгилмас куч. Т. 2008 й. 56 б
2. Биринчи президентимиз И.А.Каримов. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолати.
3. Биринчи президентимиз И.А.Каримов. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т 2002 б 25
4. Биринчи президентимиз И.А.Каримов. Истиқлол имкониятларидан оқилона фойдаланайлик // Бунёдкорлик йўлидан. б 349
5. Президент Ш.Мирзиёев. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши лозим. Т 2017 й
6. Президент Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурложатномаси. Т 2018 й
7. Президент Ш.Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатият билан даволат эттириб .ксак марраларга эришамиз. Т 2018 й.

ФИО автора: Бекзод Танбаев

Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги академияси курсанти

Название публикации: «ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ АДЛИЯ ОРГАНЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИК ТАРТИБИ»

Аннотация: Агарда адлия органлари нафақат профилактика инспекторлари ИИО нинг бошқа соҳавий хизматлари билан электрон ҳамкорликни амалга оширса ва сўров 1 сутка ичида қондирилса ИИО ходимларининг ҳуқуқбузарликларини олдини олиш, келиб чиқиш сабаб ва шарт-шароитларини ўрганишга ҳар қачонгиданда кўпроқ вақт ажратган бўлар эди.

Калит сўз: ФХДЁ, ҲМҚО, расмий сўров, давлат бошқуруви органлари

Хозирги кунда Ички ишлар оргонларининг профилактика хизматлари томонидан кенг жамоатчилик ёрдамига таянган ҳолда маҳалларда аҳолининг тинчлигини таъминлаш, жамоат тартибини сақлаш ва ҳар қандай турдаги ҳуқуқбузарликларни олдини олишга эришилмоқда. Биринчи президентимиз И.А.Каримов Ички ишлар оргонлари ходимларининг касбий байрами муносабати билан йўллаган табригида "Профилактика инспекторларининг малакаси ва профессионал маҳоратини ошириш ғоят муҳим вазифалардан биридир. Юқсак профессионализм, ҳушмуомалалик одамлар орасига кириб бориш, ёшлар қалбига йўл топа билиш, оила ва мактаб ўртасида мустаҳкам алоқа ўрнатиш – ҳар бир профилактика инспекторининг асосий хусусиятлари бўлмоғи даркорлигини таъкидлади."

Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятида Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларининг бузилиши, шу жумладан, нодавлат нотижорат ташкилотлари томонидан пул маблағларининг мақсадли сарфланиши бўйича талабларга риоя этмаслиги ва улар томонидан пул маблағларидан ва бошқа мол-мулкдан, уларни молиялаштиришнинг ноқонуний манбааларидан фойдаланилганлиги тўғрисида адлия органларини хабардор қилади. Адлия органларининг сўровлари бўйича нодавлат нотижорат ташкилотларини белгиланган тартибда тугатиш учун зарур бўлган маълумотларни тақдим этади,

Профилактика иши ахоли, фуқороларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ва фуқоролик аҳамиятининг бошқа инситутлари билан яқин ҳамкорликда ташкил этилмоқда. Бу борадаги ишлар, энг аввало, ҳуқуқбузарликларни барвақт олдини олишни таъминлашга, жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтиришга, фуқороларга қонунга ҳурмат ва қонун бузилишининг ҳар қандай кўринишига мурасасизлк муносабатини сингдиришга қаратилмоқда ва бу борада профилактика инспекторлари бошқа ХМҚО лар билан узлуксиз ҳамкорликни амалга ошириб келмоқда. Жумладан адлия органининг ФХДЁ бўлими билан фуқороларнинг қонунларни ҳурмат қилиш, уларга риоя этиш, ҳуқуқий онги ва ҳуқуқий маданиятини ошириш масалалари бўйича чора тадбирларни амалга ошириб келаётган бўлсада, профилактика инспекторининг содир этилган қилмиш бўйича йиғилган иш жужжати учун фуқоронинг туғилганлиги, никоҳ, вафот этганлик тўғрисидаги ҳужжатлари керак бўлиб ушбу ҳужжатларини фуқаро ҳозир қилиб бера олмай қолган тақдирда, профилактика инспекторининг ФХДЁ га расмий сўрови 10 кун ичида қондирилмоқда. Агарда адлия органлари нафақат профилактика инспекторлари ИИО нинг бошқа соҳавий хизматлари билан электрон ҳамкорликни амалга оширса ва сўров 1 сутка ичида қондирилса ИИО ходимларининг ҳуқуқбузарликларини олдини олиш, келиб чиқиш сабаб ва шарт-шароитларини ўрганишга ҳар қачонгиданда кўпроқ вақт ажратган бўлар эди.

Адлия органларининг сўровлари бўйича нодавлат нотижорат ташкилотларини белгиланган тартибда тугатиш учун зарур бўлган маълумотларни тақдим этади,

Акредитация қилинган чет ел фуқоролари бўлган нодавлат нотижорат ташкилотларининг ходимлари, шунингдек, уларнинг қарамоғида бўлган оила аъзолари томонидан содир этилган Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатларининг бузилилиши, “паспорт-режим” тадбирида аниқланган ҳолатлар юзасидан профилактика инспектори берган ва аниқлаган маълумотлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигини хабардор этади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ.

1. Ш.Мирзиёев. Президент ИИОлари вакиллари билан соҳа ислохотларини муҳокамаси. Ўз TV. lex.uz.
2. Қ.А.Саидкулов. Ички ишлар ораганлари профилактика хизматларининг фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорликни ташкил этиш. Т 2015й
3. М.Ш.Юлдашев. Маҳкумлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқ стандартларининг миллий қонунчиликка имплементация қилиниши. Ўқув қўлланма.
4. Ч.А.Сатторов. Ижтимоий мослашув марказларининг рецидив жиноятларнинг олдини олишдаги ўрни. Илмий-амалий конференция материаллари.
5. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти. Дарслик. ИИВ Академия. Т 2012
6. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти психологияси. Дарслик. ИИВ Академия.

ФИО автора: Meyliyeva Surayyo

Talaba, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

ФИО научного руководителя: Abrorxonova Kamola

(PhD), Toshkent davlat pedagogika universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Название публикации: «ABDULLA AVLONIYNING O'ZBEK TILIGA QO'SHGAN HISSASI VA ROLI»

Annotatsiya: ushbu maqolada yetuk o'zbek ma'rifatparvar namoyondalaridan biri Abdulla Avloniyning shaxs savodxonligi haqidagi fikrlari va o'zbek tiliga qo'shgan hissasi va roli haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Til, millat, savodxonlik, jamiyat, taraqqiyot.

ВКЛАД И РОЛЬ АБДУЛЛЫ АВЛОНИ В УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Научный руководитель: Аброрхонова Камола

(PhD), *Ташкентский государственный педагогический университет,*

Ташкент, Узбекистан

Мейлиева Сурайё

Студентка, Ташкентский Государственный Педагогический

Университет, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В этой статье обсуждается мнение Абдуллы Авлони, одного из ведущих узбекских просветителей, о личной грамотности, его вкладе и роли в узбекском языке.

Ключевые слова: язык, нация, грамотность, общество, развитие.

Asosiy qism

Til – har bir millatning qalbi, g'ururi, mustaqillik belgisi, kelajagi. Tilsiz hech bir millat to'laqonli xalq bo'la olmaydi. U siz Vatanning erki yo'q. Tilning shakllanishi, vujudga kelishi mingming yillik tarixiga borib taqaladi, tilsiz millatni, uning o'tmishini yoki kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi. Tilning taqdiri, uning

yashashi va rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liqdir. Ma'rifatparvar shoir Abdulla Avloniy: "Milliy tilni yo'qotmak-millatning ruhini yo'qotmak deb bejiz aytmagan. Olimlar til yashab qolishi uchun unda kamida bir million kishi so'zlashishi kerak, deb hisoblashadi. Bunday tillar dunyoda 250 ta ekan. Quvonchlisi, ular ichida o'zbek tili ham bor. O'zbek tili millatimizning faxri, dunyo tan olishiga hissa qo'shgan aloqa vositasidir.

Sobiq ittifoq davrida ardoqlangan ana shu muqaddas tilimiz qog'ozda bor bo'lsada, amalda yo'q edi. Biz ko'p yillar buyuk ajdodlarimiz muloqot qilgan, olamshumul tarixiy asarlar yaratgan tilimizdan mosuvo yashadik. 1989-yil 21-oktabr. Bu qutlug' kun O'zbekiston tarixiga, o'zbek millati yilnomasiga zarhar harflar bilan bitildi." Davlat tili haqida" gi Qonun qabul qilindi. Mustabid tuzum davrida bunday qonunning qabul qilinishi chindan ham jasorat edi, o'ziga xos ma'naviy inqilob edi. Avlodlarimiz asrlar bo'yi orzu qilgan, ammo orzulari sarobga aylanib qolgan davrlarda momaqaldiraqdek guldirab, chaqmoq chaqib, yuzaga keldi bu qonun. U Mustaqilligimiz sari qo'yilgan eng dadil qadam edi. Mustaqillikka erishgandan so'ng davlat tili iqtisodiyot sohasida faol ishlatila boshlandi, jiddiy va salmoqli ishlar amalga oshirildi: avvalo, qonunlar o'zbek tilida yaratiladigan, idoraviy hujjatlar ona tilimizda yuritiladigan bo'ldi. Nodir ilmiy, badiiy asarlar tarjima qilindi. Gazeta va jurnallar, iqtisodga tegishli darsliklar, o'quv uslubiy qo'llanmalar, lug'atlar o'zbek tilida chop etildi. Bu yutuqlar davlat tilining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Demak, har bir shaxs savodxon bo'lishi bilan birga ilmiy atama va terminlarni ishlatishda qonun moddalariga qat'iy rioya qilishi lozim. O'zbek tili dunyodagi qadimiy va boy tillardan biridir. Uning sofligi, purma'noligi, ta'sirchanligi, go'zalligi, boyligiga o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Bolaligidanoq, qiziquvchan, izlanuvchan aql va ulkan bilimga bo'lgan ishtiyoq namoyon bo'ldi, bola madrasada va kechki rus-rus maktabida ta'lim ishini davom ettiradi. Faqat o'zining qat'iyatliligi va iste'dodi tufayli u ko'p qirrali o'qimishli odamni maqomiga erishdi, fors, arab va rus tillarini yaxshi bildi.

Avloniy ilmga qoyil qoldi, uning ilg'or kuchiga ishondi. U o'zining hamfikir odamlari Maksrudxo'ja Beksbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Chulpan va boshqalar bilan

birgalikda munosabatlarni jamoatchilik tomonidan demokratlashtirish, jamiyatni ma'rifatlash, o'zgartirish, jamiyatni ma'rifatlash tarafdori.

Jamiyatning fikrlovchi qismiga yetkazilgan ushbu g'oyalar va shiorlar zamondoshlarning taraqqiyoti va ma'naviy rivojlanishiga katta hissa qo'shish uchun yetarli edi. Abdulla Avloniy uchun og'zaki so'z hamma narsani anglatardi. 1908-1909 yillarda u Toshkentda zamonaviy meteorologik maktablarning ikkita maktabini ochdi va partiyaning talabalari uchun va doskalarda o'z jihozlarini o'rnatdi...

Ushbu maktablarda ular ona tilidan tashqari arifmetika, tarix, geografiya, geometriya, adabiyot va musiqa fanlarini o'rgatgan. Eski maktabdan farqli o'laroq, bu yerda barcha darslar arab tilida emas, balki o'zbek tilida olib borilgan. Avloniy o'zi darsliklar va qo'llanmalar yozgan, chunki u maktabni to'g'ri tashkil etish uchun ona tilida yaxshi o'quv yurtlarini yaratishni zaruriy sharti deb bilgan, ulardan o'quvchi mantiqiy izchil ixtirochilik asosida o'rganishi mumkin edi.

Uning o'quvchilari kambag'al oilaning farzandlari ekanligini hisobga olib, Avloniy do'stlarini yordami bilan ixni oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta'minlash uchun "Jamiyati xayriya" xayriya jamiyatini tashkil qiladi (1909). Nashriyat nashriyoti va Maktab kutubxonasi kitob do'koni ochildi. 1913 yilda u Toshkent jadidlarining yagona ma'rifat birlashmasida "Turon" Toshkent viloyat ilmiy universal kutubxonasini yaratishda faol ishtirok etdi. Kutubxonalarning kitob fondi shaxsiy kutubxonalardan tashkil topgan va Munavvar Qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Cho'lpan, G'ulom Zafari, Shakirdjan Rahimiy, Yusuf Ali va boshqalar kabi mashhur o'zbek o'qituvchilari tomonidan yuqori baholangan. 1918 yilda u alohida ommaviy kutubxona sifatida ochildi.

Avloniy birinchi bo'lib Turkiston maktabida geografiya, kimyo, astronomiya va fizikani taklif qildi, shuningdek darslar oralig'ida o'qitish tizimini taklif qildi, shuningdek, bitta sinf o'quvchilari uchun bitta sinf o'quvchilari uchun imtihonlarni taqdim etdi. Uning rahbarligida musulmonlar maktabi tashkil etildi, u yerda 50 nafar o'zbek qizlari o'qishni boshladilar; savodxonlikni yo'q qilish bo'yicha kurslar ochildi. Xalqimizning o'z tiliga, eliga bo'lgan muhabbati, ijodkorlik qudrati til masalalariga

milliylik nuqtai nazari bilan yondashishda namoyon bo‘ladi. Hazrati Navoiyning "Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz" degan xikmati necha asr o'tsa ham o'zining ma'nomohiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha tarixiy jarayonlar bu xizmatning naqadar haqqoniyligini isbotlab kelmoqda. Ona tilimizni asrab-avaylash, uni e'zozlash har birimizning burchimiz hisoblanadi.⁸ Binobarin, millatimizning bebaho boyligi, hurligimiz timsollaridan biri bo'lgan tilini buzib qo'llashga, tilimizdagi iboralar ma'nosini anglamasdan ishlatishga hech kimning haqqi yo'q. Til-millatimiz faxri, jamiyatimiz ko'zgusidir. Ayni chog'da qalbimiz oynasi hamdir. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmat va e'tiborda bo'lib, uning jamiyatimizdagi mavqe'ini yuksaltirishga har birimiz o'z hissamizni qo'shaylik. Zero, til bor ekan, millat barhayot. Til bor ekan, yurtning istiqboli nurli va charog'on bo'ladi.

U Toshkentning Mergancha mahallasida to'quvchi Miravlon aka oilasida tavallud topdi. Avval O'qchidagi boshlang'ich maktabda, so'ng shahar madrasalaridan birida tahsil oldi. Biroq ko'proq mustaqil o'qib-o'rgandi, tez orada o'z davrining savodxon, ma'rifatparvar kishisiga aylandi.⁹ Avloniy asrimiz boshlarida o'lkamizda avj olgan jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodli qilish, ulardan yetuk olimlar, mutaxassislar tayyorlash, Vatanni ozod ko'rish, farovon etish yo'lida fidoyilik bilan mehnat qildi. Ana shu maqsadda juda ko'p sohalarda faol ish olib bordi. 1907-yilda o'z uyida «Shuhrat» nomli gazeta nashr qildi. U mahallasida yangi usuldagi maktab ochdi. «Usulijadid» maktablari uchun to'rt qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darslik va o'qish kitoblari tuzdi. Maktab-maorif ishlariga yordam ko'rsatish maqsadida xayriya jamiyati tashkil qildi. «Nashriyot» shirkati tuzib, Xadrada «Maktab kutubxonasi» kitob do'konini ochdi.¹⁰

Avloniy 30 yildan ortiqroq ijod qildi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarining, so'ng inqilobiy talotumlaru milliy-ozodlik kurashlarining guvohi bo'ldi. O'tgan davr ichida, o'zi ta'kidlaganidek, "o'nlab she'r va maktab kitoblari, to'rt teatr kitobi" qoldirdi.

⁸ Qosimov B. Abdulla Avloniy. T., 1979.

⁹ Qosimov B. Inqilobiy she'riyat sahifalari. T., 1977.

¹⁰ Oripov Q. Alangali yillar adabiyoti., T., 1972.

Uning madaniyatimiz tarixidagi o'rnini haqida gap ketganda, ikki jihatini alohida ta'kidlash zarur: pedagogik faoliyati va adabiy badiiy ijodi. Uning pedagogik faoliyati, ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari XX asrning boshlarida yangi bosqichga ko'tarilgan ma'rifatchilikning xususiyatlarini belgilashda muhim manbalardandir.

Avloniy maktabi gumanistik va erkin tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy va ilg'or ilm-fanni bolalarga o'rgatishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ygan, yoshlarni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha olish qobiliyatiga ega bo'lishini ta'minlaydigan haqiqiy xalq maktabi bo'ldi. Adib bu maktablar uchun darsliklar tuzdi. Uning avvalgi sinf shogirdlari uchun "Birinchi muallim"i (1911) Oktyabr o'zgarishigacha 4 marta, "Alifbedan so'nggi o'quv kitobi" – "Ikkinchi muallim" (1912) 3 marta kayta nashr etilgan. Axloqiy didaktik mazmundagi "Turkiy Guliston yoxud axloq" darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiypedagogik fikr taraqqiyotida alohida o'rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an'anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa'diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. Adib Vatan muhabbatini uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan hisobladi. Vatan – bu har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmok, yashartmok kerak. Shoir Vatan va unga muhabbat deganda shuni tushungan edi. Tilga, madaniyatga muhabbat esa, har bir kishining o'z xalqiga bo'lgan muhabbatidir: "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgon o'ynai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur".

Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan she'r, hikoyalar va maqolalar yozgan. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yo'lini bosib o'tdi. U adabiyotga g'oyaviy kurashlar g'oyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkilanmasdan ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashishini maslak etib qabul qildi. Shoir she'riyati bilan tanishar ekansiz, qiziq bir holga duch kelasiz. Unda birorta ishqiy she'r yo'q. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g'amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad etadi. O'z onadiyorini bamisoli "yor kabi sevadi". Butun

mehrini shunga bag‘ishlaydi. Asrimiz boshlari Turkiston takdirida g‘oyat mas‘uliyatli bo‘lgan, uning hayot mamot masalasi hal qilinayotgan bir payt edi. Buni Avloniy davrning peshqadam ziyolisi, yirik ma‘rifatparvar, jadidlar ta‘limotining faol tarafdori sifatida tezda ilg‘ab oldi.

Dastlabki poetik asarlari “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” (I, II, III, GUjuzlar), “Maktab gulistoni” (1916), “Mardikorlar ashulasi” (1917) kitoblarida va “Sabzavor” tazkisasi (1914) hamda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan asarlaridir. Ularda ilm-ma‘rifat targ‘ib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi she‘rlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdoshdir. Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qo‘llagan. Milliy kuylarga moslab she‘rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi muhim xizmatlaridan biri shu bo‘ldiki, u mardikorlik she‘riyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan bo‘ldi. 1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi “Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Afsus” kabi she‘rlar yozdi. Ona yurtdan uzoq shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritdi. Bu she‘rlarning ohang va uslubi xalq qo‘shiqclariga g‘oyat yaqin bo‘lib, ular xalqimizning milliy uyg‘onishida muhim o‘rin tutdi.

Avloniy 1917 yil fevral inqilobini xursandchilik bilan kutib oldi (“Qutuldik”, “Yotma” she‘rlari). Oktyabrga bag‘ishlab “Hurriyat marshi” (1919), “Ishchilar qulog‘iga” kabi she‘rlar yozdi, yangi sotsialistik tuzumni ulug‘ladi. Lekin ko‘p o‘tmay, rus sovet tuzumi eski chor tuzumining oldingidan battarroq shakli ekanligini, sovet siyosati riyokorlik asosiga qurilganligini anglay boshladi. Jumladan, tantanavor va‘da qilingan erkinlikning berilmaganligi shoir ijodida g‘amgin tushkun ohanglarning paydo bo‘lishiga olib keldi (“Haftalik soatda” 1919). Shularga qaramasdan Avloniy turli mavzularda she‘rlar yozdi. 1919–20 yilgi Afg‘oniston safariga doir “Afg‘on sayohati” kundaliklari esa mamlakatimizning yon qo‘shnimiz bilan o‘zaro do‘stlik, totuvlik aloqalarining o‘rnatilishi tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Avloniy asosiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul yillari 1917 yildagi Oktyabr to'ntarishiga kadar bo'lgan davrga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Inqilobiy she'riyat sahifalari.- 1977y Oripov Q. Alangali yillar adabiyoti
2. Abdulla Avloniy „Turkiy guliston yoxud axloq“-1913y
3. Abdulla Avloniy - tanlangan_asarlar- 2009 Toshkent „Ma'naviyat“

ФИО авторов: Игамбердиев Холмурад Хайдарович

Канд. Наук, доцент Джизакский Политехнический институт,

Узбекистан, г. Джизак

Пармонов Нейматилло Нурмухаммадович

Ассистент. Джизакский Политехнический институт,

Узбекистан, г. Джизак

Название публикации: «РАСЧЕТ ДВИЖЕНИЯ АВТОТРАНСПОРТА ПО НАКЛОННОЙ ПЛОСКОСТИ»

Calculation of the movement of vehicles on an inclined plane

Igamberdiev Xolmurod

Candidate of Sciences, Associate Professor, Jizzakh Polytechnic Institute,

Uzbekistan, Jizzakh

Parmonov Nematillo

Assistant, Jizzakh Polytechnic Institute Uzbekistan, Jizzakh

Аннотация: В статье изложения к численному методу расчета движения автотранспорта по наклонной плоскости.


Abstract: The article presents a numerical method for calculating the movement of vehicles on an inclined plane.

Ключевые слова: Движения, наклонной плоскость, скорость тела, проекция, ускорения, траектория.

Key words: Movement, inclined plane, body speed, projection, acceleration, trajectory.

Одна из основных задач в механике – определение координат тела и его скорости в любой момент времени по известным начальным условиям. Эту задачу называют прямой задачей механики. Для ее решения необходимо знать

координаты и скорость тела в некоторый начальный момент времени и силу, действующую на тело в любой последующий момент времени.



Последовательность этапа решения прямой задачи можно условно записать в следующем виде

(рис. 1): Решение прямой задачи механики легко получить для расчета движения тел под действием Постоянной силы. В случае действия сил, зависящих от координат, точный расчет движения тел элементарными методами оказывается невозможным.

**Рис.1. Схема
Последовательность
Этапа решения задачи**

(рис. 1): Решение прямой задачи механики легко получить для расчета движения тел под действием

Постоянной силы. В случае действия сил, зависящих от координат, точный расчет движения тел элементарными методами оказывается невозможным.

Именно невозможность решения методами элементарной математики задачи о движении тел под действием сил, зависящих от координат тела, привела Ньютона к открытию нового математического метода, называемого методом математического анализа.

Однако многие задачи о движении тел под действием переменных сил могут быть решены приближенно с достаточно высокой точностью численным



Рис.2.

Схема

Последовательность этапы
Численного метода
решения




Рис. 3.Схема движения

Автомобильного

транспорта на наклонной

плоскости

методом, без привлечения специальных математических методов. Более того, численным методом можно решить многие задачи с высокой степенью точности и в таких случаях, когда применение строгих методов математического анализа оказывается невозможным. Последовательность этапы численного метода решения задачи можно схематически изобразить в виде рисунка 2.

Из схемы (рис.2) следует, что по известным значениям координат тела (x_0, y_0, z_0) в начальный моменты времени можно определить проекции силы F_{ox}, F_{oy}, F_{oz} , а следовательно, и проекции ускорения $a_{ox} = \frac{F_{ox}}{m}$, $a_{oy} = \frac{F_{oy}}{m}$, $a_{oz} = \frac{F_{oz}}{m}$

Зная проекции ускорения и начальной скорости, можно найти проекции скорости в последующий момент времени $t=t_0 + \Delta t$. Проекция скорости позволяет определить новые координаты тела, которые в свою очередь дают возможность найти проекции силы и ускорения в последующие моменты времени. Численные методы решения прямой задачи механики широко применяют в практике расчета инженерам, задав начальные условия из уравнений Ньютона. При этом можно рассчитать все значения ускорений, новых координат через малый промежуток времени Δt и так шаг за шагом найти всю траекторию. Рассмотрим в качестве примера численный способ решения

Решения задачи о движении автомобильного транспорта на наклонной плоскости удерживаемая силой трения покоя (рис.3.). Если автомобиль сообщить скорость $\vec{V}_0$ направленную параллельно основанию наклонной плоскости, то движение автотранспорта, казалось бы, должны быть прямолинейным основанию плоскости, так, как сила трения движения больше или равна силе трения покоя. Однако опыт опровергает это предположения: автомобиль при резком торможении движется по криволинейной траектории и соскальзывает с плоскости в сторону обочины дороги при малейшем ее уклоне. Сила тяжести автомобиля $\vec{F}_t$ и равнодействующие силы реакции $\vec{N}$ ($N=N_1 + N_2$) приложены. Равнодействующая этих сил $\vec{F}$ направлена к основанию наклонной плоскости. Под действием силы $\vec{F}$ автомобиль движется с ускорением $\vec{a}$ и приобретает составляющую скорости $\vec{v}_1$ перпендикулярную скорости $\vec{V}_0$ (Рис.4). Сила трения, равная $\mu\vec{N}$, направлена в сторону, противоположную скорости $\vec{V}_2$, Равной геометрической сумме скоростей $\vec{V}_1$ и $\vec{V}_0$. Проекция силы трения на




Рис.4. схема приложения сил и ускорения на наклонной плоскости.

направление, перпендикулярное основанию наклонной плоскости, равна $F_1 = \mu N \sin a$, где a –уголь между векторами $\vec{V}_2$ и $\vec{V}_0$. В начале движения $\vec{V}_1 \ll \vec{V}_0$, поэтому угол мал и у синус угла a можно заменить его тангенсом $\sin a = \tan a \frac{v_1}{v_0}$. Таким образом, мы получили,

что сила трения, в направлении, перпендикулярном основанию наклонной плоскости, в начале движение автомобиля, когда

$V \rightarrow 0$, может быть во сколько угодно раз меньше сила трения покоя.

Поэтому сколько угодно малая составляющая сила тяжести может вызвать движения автомобиля в этом направлении. Анализируя результаты данного объяснение явлений, приведенный в формуле, можно прийти к следующим

выводам: скольжение автомобиля в сторону обочины дороги при малейшем ее уклоне, возникает в момент резкого торможение; данное методическое объяснение имеют большое практическое значение при сравнение результатов выполненных расчетов с данными, полученными экспериментальным путём; также соответствие результатов приближенных вычислений, выполненных численными методами, с результатами точных расчетов, проведенных с использованием методов высшей математики: Для повышения скорости расчетов в настоящее время применяют электронные вычислительные машины, совершающие десятки миллионов арифметических операции в 1 секунду.

Литература.

1. А.С.Иванов, А.Т. Проказа. Мир Механики и техники. Москва << Просвещение >>1993.
2. А.А. Яблонский, Сборник заданий для курсовых работ по теоретической механике. Под общей редакцией. << Высшая школа >>1985
3. Х.Тагаев Х.Х.Игамбердиев “Формирование у студентов изобретательских умений в политехническом образовании” Науч Журнал “Проблема архитектуры и строительства» 2019г
4. Х.Х. Игамбердиев Б.Н. Гаппаров Б.И. Ахмедов “Организация работы студентов по изобразительному творчеству”

ФИО авторов: To'ychiyeva Dilduza Sidikjanovna

Biologiya fanlari nomzodi, Dotsent

Sodiqova Saida Nodirbek qizi, Kurbonov Abdunosir Anvarjon o'g'li, Sodiqova Iroda Jaloliddin qizi

Andijon Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti, Biologiya ta'lim yo'nalishi, 1-kurs talabalari

Название публикации: «LEYKOZNI KELIB CHIQISHI SABABLARI HAQIDA»

Аnotatsiya: Leykoz qonning xavfli o'sma kasalligi hisoblanadi. Bu kasallik hozirgi zamonda aksariyat ko'pchilikda uchrab, ularning hayotini to'xtashiga olib kelmoqda. Bu kasallik tibbiyot oldidagi jiddiy muammolardan biri hisoblanib, hozirda uning kelib chiqish sababi va davolanish usuli dunyo bo'yicha noma'lum. Ushbu maqolada biz so'z yuritmoqchi bo'lgan mavzu qonning davosi yo'q kasalligini kelib chiqishini o'rgangan olimlar tomonidan taklif qilingan nazariyalar va dunyo gemotologlari tomonidan aniqlangan turlaridir.

Kalit so'zlar: mieloleykoz, subleykemik mieloz, eritremya, surunkali eritromieloz, monotsitar, megakariotsitar, surunkali limfoleykoz, paraproteinemik gemoblastozlar, noleykemik gemoblastozlar, limfotsitoma, limfosarkoma.

Ключевые слова: миелоликоз, сублицерический миелоз, эритремия, хронический эритромиелоз, моноцитарный, мегакариоцитарный, хронический лимфоликоз, парапротеинемические гемобластозы, ноликемические гемобластозы, лимфоцитомы, лимфосаркома.


Key words: mieloleycosis, subleucemic myelosis, erythremia, chronic erythromyelosis, monocytic, megakariotsitar, chronic lympholeycosis, paraproteinemic hemoblastoses, noleic hemoblastoses, lymphocytoma, lymphosarcoma.

Leykoz kasalligining kelib chiqish sabablari hali ham noma'lum. Ba'zan kasallikni ionlashgan nurlanish keltirib chiqishi mumkin. Fikrimizning nechog'lik to'g'ri ekanligini ikkinchi jahon urushi davrida atom bombasi portlashidan jabr -sitam ko'rgan Yaponiyaning Xirosima shahri aholisi tasdiqlaydi[5]. Chunki mazkur aholi o'rtasida

leykoz bilan kasallanganlar soni ko'pchilikni tashkil etadi [1]. Tekshirishlar shuni ko'rsatganki, nurlanish ta'siriga qanchalik ko'p yoki qanchalik yaqin yurgan bo'lsa bunday odamlarda shunchalik leykoz kasalligi, shu ta'sir ostida yurmagan odamlarga nisbatan ko'p uchragan. Yaponiyaning Xirosima va Nagasoki shaxrida atom bombasi portlashda markazga qanchalik yaqin turgan bo'lsa, shunchalik ko'p uchrashi kuzatilgan. O'smalarning rivojlanishida zararlangan xromasomaning bevosita ishtirok etishi aniqlangan [2]. Bu nazariya tarafdorlari ionlashtiruvchi nurlarning ta'siri ostida xromassoma obberatsiyalari ro'y berishi mumkin deb hisoblaydi. Dalil sifatida nurlanish natijasida leykoz paydo bo'lishini keltiradilar. Haqiqatdan ham, nurlanish bilan leykoz hastaligining o'rtasida aloqadorlik mavjud. Buni hayot ham tajribalar ham tasdiqlaydi [3].

Ba'zi bir gematologlarning fikriga ko'ra, kasallikni leykozogen virusi keltirib chiqarar ekan [1]. Bunday fikr yuritish uchun leykoz kasalligiga uchragan hayvonlar jumladan sigir, tovuq va sichqonlar organizmidan oq qon kasalligining virusini topib ajratib olishgan [3]. Asosan qushlarda onkogen viruslar ajratilgan, bu viruslarning odam organizmiga uchraydigan viruslarga o'xshashligi va uchrashi bunga asos bo'ladi [2]. Bu kasallikni nasldan -naslga o'tadi, deydiganlar ham oz emas [1]. Azaldan olimlar leykozning nasldan naslga o'tishini kuzatib, bu kasallik haqidagi nasliylik nazariyasini yaratganlar. Leykoz kasalligiga yo'liqqan bemorning xromasomalarida o'ziga hos o'zgarishlar bo'lib, ular bemorning avlodlariga ham o'tishi taxmin qilinadi. Bu taxmin uchun asos bo'ladigan ko'pdan ko'p misollar bor. Shuni ta'kidlab aytishimiz lozimki, leykoz bilan kasallangan bemorlarning farzandlari faqatgina leykoz bilan emas, boshqa o'sma kasalliklari bilan ham xastalanishi mumkin. Demak, leykoz kasalligining virusi polipotent raklar chaqiruvchi viruslar turkumiga oid deb aytish mumkin. Nasldan naslga o'tgan leykoz har hil o'sma kasalliklariga aylanishi yoki aksincha o'smalarning leykoz kasalligiga aylanishi ko'p kuzatiladi. Bu masalaga doir ko'plab kuzatuvlar olib borgan professor I.A.Kassirskiy nasliylik nazariyasini isbotlovchi misollarni ko'plab keltirgan. Bir oilada bir tuhumdan tug'ilgan ikkita egizak o'g'il bolalar balog'atga yetay deb turganida bittasi kutilmaganda o'tkir leykozdan dunyodan ko'z yumgan. Egizaklarning ikkinchisi ham uzoq vaqt o'tmay

huddi ukasinikiga o'xshash leykozdan vafot etgan [3]. Boshqa bir xil gematologlar bu kasallikning kelib chiqishida atrof-muhit muhim omildir, degan fikrdalar. Shu bilan birga ana shu nazariyalardan birontasini hech kim isbot qilib bera olmaydi. Ish jarayonida muntazam ravishda ozmi - ko'pmi ionlashgan radiatsiya nuridan «bahramand» bo'lib turgan rentgenolog – shifokorlarni tekshirish ham hech qanday natija bermadi, chunki ulaning o'rtasida leykoz bilan kasallanish boshqa mutaxassislikda ishlayotgan shifokorlarda uchragan leykoz kasalligidan ortiq emas ekan. Kasallikni leykozogen virus keltirib chiqaradi, degan fakt ham inkor etiladi, chunki leykoz kasali bilan og'rigan onadan sog'lom bola tug'iladi. Agar leykozni virus keltirib chiqarsa, u holda virus yo'ldosh orqali homilaga albatta o'tadi, demak, bola ham leykoz bilan tug'ilar edi-ku?! Hamma gap mana shunda-da: olimlar leykoz virusi xuddi saraton singari yuqumli emas, deb hisoblaydilar. Leykoz bilan og'rigan kasallardan qon olib, sog'lom odamlarga quyish hollari ko'p uchragan. Lekin biron marta ham ana shunday holatlarda leykozning yuqib qolishi haqida hech qaysi manbada qayd etilmagan [1]. Leykoz yoki oq qon kasalligi deb odam iligining ayrim ildizlaridan o'sib chiqadigan o'smalarga aytiladi. Kasallikning nomi ilk bor bu o'smani ilikning leykotsitlar ildizidan ya'ni oq qon ishlab chiqaruvchi ildizdan topilishi bilan bog'liq. Leykozologiya fani rivojlangani sari bu o'sma faqatgina leykotsitlar ildizidan emas, ilikning eritrotsitlar ishlab chiqaradigan ildizidan ham, trombotsitlar ishlab chiqaradigan ildizdan ham paydo bo'lishi mumkinligi aniqlangan. Shu boisdan leykozning turlari juda ham ko'payib ketgan. Hozirda uning juda ham ko'p klassifikastiyalari yaratilgan. Misol uchun quyidagi klassifikastiya mavjud:



Leykozlar 2 guruxga bo'linadi:

O'tkir leykoz- o'sma asosini yosh blast hujayra tashkil qiladi. statistik ma'lumotlarga qaraganda , o'tkir leykemiya chastotasi yiliga 100000 aholiga o'rtacha 4-5 ta holatni tashkil qiladi [8]. afsski bu kasallik bolalarni ham chetlab o'tmadi. Ma'lumotlarga qaraganda, pediatrik onkolojiyaning uchdan bir qismi o'tkir leykemiya kasalligiga to'g'ri keladi [9].

Surunkali leykoz- o'sma asosini yetuk hujayralar yani patologik hujayralar tashkil qiladi

Surunkali leykoz:

1. Mieloproliferativ o'smalar

- ▲ Surunkali mieloleykoz
- ▲ Subleykemik mieloz
- ▲ Eritremiya (yana bir nomi politsitemiya vera)
- ▲ Surunkali eritromieloz
- ▲ Surunkali monotsitar leykoz
- ▲ Surunkali monotsitar leykoz
- ▲ Surunkali megakariotsitar leykoz
- ▲ Surunkali makrofagal leykoz
- ▲ Semiz hujayrali leykoz

2. Limfobroliferativ o'smalar

- ▲ Surunkali limfoleykoz

3. Paraproteinemik gemoblastozlar

- ▲ Mielom kasalligi
- ▲ Valdenstrem makroglobulinemiyasi
- ▲ Og'ir zanjir kasalligi
- ▲ Yengil zanjir kasalligi

4. Noleykemik gemoblastozlar

- ▲ Limfotsitoma

Limfosarkoma [4]

O'tkir leykoz

1875-yil Fransiya, AQSh va Buyuk Britaniya gematologlari tomonidan FAB klassifikatsiyasi tuzildi.

Bu klassifikatsiyaga asosan o'tkir leykozlar o'tkir limfoblast (O'LL) va o'tkir nolimfoblast (mieloid) (UNLL, UML) turlarga bo'linadi [2].

O'tkir limfoblast leykoz o'sma hujayralari morfositologik xususiyatlariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- ▲ L1 (kichik limfoblast)
- ▲ L2 (katta polilimfolast)
- ▲ L3 (katta polilimfoblast(sitoplazma vakuolga aylanadigan))

O'tkir miyeloid leykemiya bilan kasallanish yiliga 10000 aholiga 2.5-3 ta, o'tkir limfoblast leykoz yiliga 100000 aholiga 1.5-2 ta holatni tashkil qiladi [7].

O'tkir mieloid leykoz quyidagi variantlarga bo'linadi:

- ▲ M0- o'tkir nodifferensial mieloblast leykoz
- ▲ M1- Shakllanmagan o'tkir mieloblast leykoz
- ▲ M2- shakllangan o'tkir mieloblast leykoz
- ▲ M3- o'tkir promielositar leykoz
- ▲ M4- o'tkir mielomonoblast leykoz
- ▲ M5- o'tkir monoblast leykoz

M5a- o'tkir shakllanmagan monoblast leykoz

M5b- o'tkir shakllangan mieloblast leykoz

▲ M6- o'tkir eritroblast leykoz

▲ M7- o'tkir megakarioblast leykoz

Xozirgi paytda klinistlar o'tkir limfoblast leykozni:

➤ T- limfotsitlar liniyaidan rivojlangan o'tkir limfoblast leykoz

➤ V- limfotsitlar liniyaidan rivojlangan o'tkir limfoblast leykoz

➤ Nodifferensial o'tkir limfoblastik leykoz kabi turlarga bo'lishadi.(2)

Yana bir adabiyotda leykoz quyidagicha klassifikatsiya qilingan:

I. O'tkir leykoz quyidagi turlarga bo'linadi:

➤ Retikulyar hujayralardan chiquvchi saralanmagan (nodifferensial) hujayralar leykozi;

➤ Gemotsitoblast leykoz

➤ Mieloblast leykoz

➤ Monoblast leykoz

➤ Limfoblast leykoz

➤ Eritroblast leykoz (DiGulmo kasalligi)

➤ Megaloblast leykoz

➤ Plazmoblast leykoz

II. Surunkali leykoz turlari:

➤ Surunkali mieloleykoz

➤ Surunkali limfoleykoz

➤ Myeloma yoki Rustitskiy-Kaler kasalligi (plazmositoma)

➤ Eritremiya yoki Vakez kasalligi

➤ Osteomieloskleroz

➤ Surunkali megakariotsitlar leykozi

➤ Limfogranulematoz, Xodjkin kasalligi

➤ Makromolekular retikuloz yoki Valdenshtrom kasalligi [3].

Moskvalik gemotologlarning klassifikatsiyasiga ko'ra leykemiya quyidagi guruxlarga bo'linadi:

1. O'tkir miyeloid leykemiya:

- ▲ Miyeloid leykoz- granulotsitlarning nazoratsiz ko'payishi
- ▲ Miyeloblastik leykemiya- monoblastlarning nazoratsiz ko'payishi
- ▲ Megakarioblastik leykemiya- megakariotsitlar, ya'ni trombotsitlarning

to'xtovsiz ko'payishi

Eritroblast leykoz – eritroblastlarning ko'payishi tufayli paydo bo'ladi [6].

Xulosa: Dunyo olimlarining tadqiqotlariga qaramasdan hozirgi kunda leykoz ya'ni qon saratoni kasalligining asl kelib chiqish sababi mavhum qolmoqda. Mening fikrimcha bunga asosiy sabab bu kasallikning turlar soni ko'pligi tufayli o'rganish ancha qiyinchilik tug'diradi. Eng achinarlisi shundaki bu hastalikning turlari o'zaro bir-biriga aylanib turadi. Hozirgi kunda bu kasallikning to'liq davosi topilgan emas. Faqatgina ma'lum bir usullar orqali inson umrini bir oz bo'lsada uzaytirishga, azoblarini yengillashtirishga erishilayapti holos. O'zimni shaxsiy fikrimdan kelib chiqadigan bo'lsak men bu kasallikni asosan radiatsiya tufayli kelib chiqayapti deb o'ylayman. Sababi hozir XXI asr texnologiya asridir. Atrofimiz faqat radiatsiya tarqatuvchi telefon, televizor, kompyuter va boshqa turli xil o'zidan radiatsiya tarqatuvchi qurilmalar bilan to'lib ketgan. Tabiiyki bu holat o'z organizmimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Shunday ekan radiatsion qurilmalardan faqat kerakli paytda foydalanib ko'proq tabiat qo'ynida sayr qilinsa va eng muhimi sog'lom turmush tarziga to'g'ri rioya qilinsa nafaqat ushbu kasallik balki boshqa turli xil kasalliklarga ham duchor bo'lmasligi aniq.

Ming afsuski, bu kasallik bizning mamlakatimizda ham tez-tez uchrab turmoqda. Bu holat esa mamlakatimizda tibbiyot sohasining og'riqli nuqtalarini ko'rsatishga majbur qilyapti. Hozirgi kunda mamlakatimizda bu kasallikdan faqat Toshkent shahrida joylashgan "Respublika gematologiya ilmiy tekshirish instituti"da davolanish mumkin. Sababi Respublikamizni boshqa viloyatlarida ushbu kasallik bo'yicha yaxshi mutahassislar va kerakli shart-sharoitlar yo'q. Bu esa turli tabaqadagi insonlarga moddiy tomonlama qiyinchilik tug'dirayotgani aniq. Shuning uchun respublikamizni boshqa hududlarida gematologik shifoxonalar qurilishi va u yerga tibbiy oliygohlari o'z kasbini ustasi bo'lgan kadrlar yetishtirishini umid qilib qolaman.

O'ylaymanki ushbu maqolani o'qigan insonlar ushbu kasallikni davosiga qiziqib kelajakda shu sohaga o'z hissalarini qo'shadi degan umiddaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hayotning alvon yelkani yoxud qon sirlari: tibbiy hikoyalar V.Mixaylov; tarjimonlar: J.Hakimov, H.Shukurov. -Toshkent: Mehridaryo MChJ, 2013. 218 b.
2. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti davolash fakulteti gospital terapiya kafedrası 4-kurs talabalari uchun gematologiya fanidan o'quv uslubiy majmua.2019, 237 bet.
3. Наджимитдинов С. Т. Клиник гематология асослари: Тибиёт инстлари талабалари учун дарслик.Абу Али ибн Сино номидаги тибиёт нашр.1998, 296 бет.
4. Сурункали лейкозлар, Андижон давлат 3 курс даволаш факультети талабалари учун маъруза. Доцент Рустамова Х.М. 2019.
5. <https://www.google.com>.
6. <https://www.krasotaimedicina.ru/diseases/hematologic/acute-leukemia>
7. <https://www.nytimes.com>.
8. <https://meduniver.com/Medical/gemotalogia>.
9. <https://azyka.ru/zdrovie/detskaya-lejkemiya>.

ФИО авторов: Azizova Nafruza

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti o'qituvchisi

To'rayeva Maftuna

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti talabasi

Название публикации: «CHET TILLARINI O'RGANISHDA PSIXOLOGIYANING O'RNI»

Anotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'rganish jarayonida psixologik tomonlar ko'rib chiqiladi. Bu psixologiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni, ahamiyati va uning tilshunoslik bilan aloqalari o'rganiladi. Maqolada chet tilini o'rganishda psixologik nazariyalar, o'qituvchilarning psixologik qobiliyatlarining, o'quvchilarning individual xususiyatlari kiritilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, metodika, psixologiya, diqqat, idrok, xotira, tafakkur, verbalizatsiya, korrelatsiya.

Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'langan va ular bir-biri bilan uzluksiz aloqada rivojlanib boradi. Fanlar obyektiv voqeylikning in'ikosiligi tufayli ularni o'zaro ajratgan holda o'rganilmaydi. Hodisa va predmet hozirda ko'plab fanlarning tadqiqot manbayidir, masalan, "til" ijtimoiy hodisa o'z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ta'limshunoslik (didaktika) va ruhshunoslik (psixologiya) fanlari bilan o'zaro birgalikda o'rganiladi.

Ijtimoiy hodisa bo'lmish tilni o'qitish metodikasi boshqa fanlarning ijobiy tajribalarini va ularning yutuqlarini o'ziga singdirib boradi. Chet til metodikasi erishgan zamonaviy natijalardan pedagogika fanlarining boshqa sohalari ham foydalanadi.

Chet tilini o'qitish metodikasi psixologiya bilan ikki taraflama aloqa bog'laydi. Bular nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiyadir. Inson nutqi nutq fiziologiyasida va nutqning yuzaga kelishi va uni idrok etish psixolingvistikada ilmiy tadqiq qilinadi. Nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakkab ruhiy jarayondir. Miyaning analiz-sintez qila olishi zaminida birinchi va ikkinchi signal sistemalari faoliyat ko'rsatadi. Birinchi signal sistemasi eshituv, ko'ruv, hid va ta'm bilish va boshqa

sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib, bilishga imkon beradi. Ikkinchi signal sistemasi esa til belgilari orqali voqelikni umumlashtirish asosida ish ko‘radi. Birinchi signal sistemasi hayvonot dunyosiga ham taalluqli. Ikkinchi signal sistemasi esa birinchi signallar signali bo‘lib, so‘z bilan ifodalanadi.[1.335-336] Inson, hayvondan farqli o‘laroq, nutqni idrok etganida, uning mazmuniga e’tibor beradi.

Chet til o‘rganishda psixik jarayonlar — diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Ular haqidagi ma’lumotlar psixologiya kursida o‘rganilgan. Diqqat — ongning muayyan obyektga yo‘naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shakli. Narsa va hodisalar tashqi belgilarining inson ongida aks etish jarayoni idrok deyiladi. Shaxsning to‘plagan tajribasi bilan idrok bevosita bog‘liq bo‘ladi, bu hodisa ruhshunoslar tilida appersepsiya deyiladi. Ushbu hodisa tufayli chet til o‘rganishda til tajribasiga alohida e’tibor beriladi. Inson hayotida yig‘ilgan tajribaning in’ikosi, o‘rin olishi va saqlanishi psixik jarayon sifatida xotira nomini olgan. Xotiraning ko‘ruv, eshitish, harakat va verbal turlari mavjud. Verbal xotira so‘z bilan bogliq bo‘lib, boshqa turlari unga qo‘shilgandagina chet til o‘rganishda samaradorlikka erishiladi. Fikir yuritish chog‘ida taqqoslash, tillararo va til ichki munosabatlarini aniqlash, shuningdek, til hodisasining obyektiv borliqqa bog‘lanishini ochish kabilar tafakkur zimmasida turadi. Tafakkurning mavjud ilk shakllaridan birlamchisi — amaliyot. Shunga ko‘ra tilga oid bilimlarni o‘zlashtirish tilni o‘rganishga qo‘yiladigan dastlabki qadamdir, asosiy masala nutq amaliyotini egallashga borib taqaladi. [2.27-28]

Til o‘rganish aqliy faoliyat hisoblanganligi uchun uning psixologik asoslari mavjud va ruhshunoslikda ilmiy tekshiriladi. Ilmiy manbalarda chet til o‘qitishning ikkita psixologik prinsipi ishlab chiqilgan. Psixologik prinsiplar „verbalizatsiya“ va „korrelatsiya“ nomlarini olgan. [3.26-32]

Psixologik prinsiplardan biri verbalizatsiya - bu boshqa tillar amalda og‘zaki nutq orqali o‘rganiladi. Ikkinchi psixologik prinsip korrelatsiya - chet tili materiali (leksika, grammatika, talaffuz)ning muayyan chegarasi aniqlanadi. Chet tillarini o‘rganishda og‘zaki nutq yetakchi faoliyat yuritadi. Og‘zaki nutq mavzulari o‘qish va yozish uchun asos hisoblanadi. Og‘zaki nutq ta’lim maqsadi bo‘lgandagina boshqa tillarni o‘zlashtirish oson bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И. П. Павлов. Лекции о работе больших полушарий головного мозга (лекции 3, 11). — Полное собрание трудов, т. IV. — М. — Л., 1947. - 335-336- betlar.
2. Jamol Jalilov. Chet tilini o'qitish metodikasi. - T.: O'qituvchi, 2012. 27-28-betlar.
3. Г. Е. Ведель. Психология и основы методики преподавания иностранных языков (на материале немецкого языка). — Воронеж: Изд-во Воронеж, ун-та, 1974. — 26—32-betlar.

ФИО автора: Абдакимов Ўткирбек Абдураупович

Samarqanddavlat universiteti magistranti

Название публикации: «SPORT TURLARI MUSOBAQASI PSIXOLOGIYASINING TAVSIFI VA TAHLILI»

Annotasiya: Sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo'ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o'rganishhamda Sportchini musobaqa boshlanishda ruhiy ko'tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish hamda musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga, yuqori natijaga erishishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: sportchi shaxsi, jismoniy-ruxiy, sportchilarni psixologik muxofazalash, sport faoliyati jarayoni, sport musobaqalari .

ОПИСАНИЕ И АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИИ СПОРТИВНЫХ СОРЕВНОВАНИЙ

Аннотация: Цель состоит в том, чтобы научить спортсмена использовать приемы управления внутренним настроением, возникающие во время соревнований, и приучить спортсмена к приподнятому настроению, управлению нервной системой, умственному утомлению в начале соревнований и большей активности во время соревнований. .

Ключевые слова: личность спортсмена, физическая и психическая, психологическая защита спортсменов, процесс спортивной деятельности, спортивные соревнования.

DESCRIPTION AND ANALYSIS OF PSYCHOLOGY SPORTIVNYX SOREVNOVANIY

Abstract: The goal is to teach the athlete to use the mood management techniques that arise during the competition, and to train the athlete to be in high spirits, control of the nervous system, mental fatigue at the beginning of the competition and more activity during the competition. ...

Key words: personality of an athlete, physical and mental, psychological protection of athletes, the process of sports activity, sports competitions.

O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlanish bo'yicha harakatlar strategiyasining "ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarda ko'rsatilgan vazifalarida yosh avlodni tarbiyalash, uning jismonan sog'lom, ma'daniyatini va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlar samaradorligini oshirish" vazifalari belgilangan. Shu nuqtai nazardan, sportchi shaxsini shakllantirish masalasi psixologiyaning, ayniqsa sport psixologiyasining dolzarb mumolaridan biri ekanligini ko'rsatadi (1, 2).

Shu bois mamlakatimizda sportchi yoshlarning jismoniy-ruhiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Alohida ta'kidlash joizki, sportchilar o'zlarining psixologik imkoniyatlari, yutuqlari, kamchiliklari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lsalar, bu ularning musobaqalarga tayyorgallik ko'rish va musobaqalar jarayonida uchraydigan har qanday muvaffaqatsizliklarni bartaraf etishga, o'z imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish imkoniyatini beradi. Mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi psixologik muxofaza metodologiyasiga taalluqli ayrim umumiy jihatlarni ijtimoiy – psixologik nuqtayi nazardan tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi (2, 4).

Psixologik muxofaza fenomeni sportchilarning aqliy jarayonining shunday shakliki uning ko'p bosqichli va tabiatdan ko'p funksional, o'ziga xos tarkibiy dinamikaga ega bo'lgan xususiyatdir. Turli omillarga qarab, psixologik muxofaza sportchining hayotida turli funksiyalarni bajarishi mumkun. Masalan: sportchining shart sharoitiga salbiy yoki ijobiy moslashishi mumkun. Psixologik muxofaza sportchini noqulayliklardan xalos qiladi. Psixologik muxofazaning rivojlanishi sportchilarning muommolarini hal qilish uchun yetarli va konstruktiv usulni topishning iloji bo'lmaganda yuzaga keladigan jarayondir. Zamonaviy profissional sportchilarni psixologik muxofazalash ruhiy zo'riqish sharoitida olingan stresslardan chiqishning samarali usullaridan biridir. Bugungi sharoitda sport faoliyati sog'lom odam uchun jiddiy jismoniy va ruhiy-emotsional stressga ega bo'lgan ekstrimal sharoitlarda tananing moslashish qobiliyatini rivojlantirish uchun imkoniyatdir (2, 3, 4).

Sportchilarning mahoratini, ularning sport musobaqalarida yaxshi qatnashish imkoniyatlarini vujudga keltirish, kengaytirish uslublarini ishlab chiqish muammolarini hal qiladi. Bu maqsadlari quyidagilardan iborat:

- 1.Sportchilar ruhiyatiga sport faoliyatining ta'sirini o'rganish.
- 2.Sportchilarda yuqori ishchanlikni vujudga keltirish hamda musobaqa jarayonida o'zini - o'zi boshqarish, chidamlilikni oshirish uslublarini ishlab chiqish.
- 3.Sportchining musobaqadan oldingi va musobaqa jarayonidagi ruhiy holatini o'rganish.
- 4.Noqulay ruhiy holatdan, vahimadan chiqib ketish uslublaridan foydalanishga odatlantirish.
- 5.Sportchilarni o'zaro munosabatlarini va tashkilotchilik qobiliyatlarini jamoada tajriba yordamida shakllantirish.

Ba'zi bir sportchilar yuqori jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lsa-da, sport musobaqalarida tajovuzkor harakatlar ko'rsata olmaydi. Biroq shu komandadagi do'sti o'rtacha jismoniy tayyorgarligi bilan musobaqada tajovuzkor harakatlar ko'rsata oladi va g'alabaga erishadi. Ba'zan yosh sportchilarning sport faoliyati jarayonida kattalar yoki murabbiylaridan yetarli darajada tarbiya olmaganligi ulardagi vijdotsizlik va beodoblik xislatlarini tez shakllanishiga sabab bo'ladi. Bunday sportchilar yoshining o'tishi va sportda ketma-ket mag'lubiyatlarga uchrayverishi natijasida sport bilan tamoman xayrlashadilar. Biroq shundan keyin o'zining tajovuzkorlik harakatlarini to'xtata olmagan uchun ruhiy qiyinchiliklarga ko'p uchraydilar.Ular o'zining xulq-atvorini o'zgartira olmaganidan boshqa odamlardek osoyishta hayot kechirishda juda qiynalishadi.Shuning uchun murabbiy sportchilarni tajovuzkor harakatlarini faqat raqibiga qarshi sport musobaqasi qoidolari asosida qo'llashga odatlantirishi lozim. Sportchi musobaqada o'zining tajovuzkor harakatlaridan kuchli xayojonlanadi yoki o'zida sportchi uchun nuqson hisoblangan quyidagi xulq-atvor vujudga kelganini yaqqol sezadi: o'zining musobaqadagi xulq-atvoridan shubhalanish, o'zini-o'zi ayblash, o'ziga ishonmaslik, murabbiydan arazlash, unga keskin ziddiyatli munosabatda bo'lish kabilar. Sportchida bunday xususiyatlarning paydo bo'lishi, birinchidan, sportchi mashq qilayotgan muhit ta'siriga, ikkinchidan, ota-ona

tomonidan bolani tarbiyalashda qo'llanilayotgan uslublarning noto'g'riligiga bog'liq. Tajovuzkorlik va boshqa salbiy holatlarning sportchi hayotida tez-tez takrorlanaverishi tufayli, bular bolaning xarakteriga aylanib qoladi. Agar o'smirda murabbiy bilan uchrashmasdan oldin tajovuzkor harakatlar shakllanmagan bo'lsa, murabbiyning musobaqada qattiq g'azab bilan "ur", "yiqit", "bos" degan baqiriqlari sportchida tajovuzkor harakatlarni vujudga keltirmaydi. Bunday sharoitda murabbiy sportchining xarakterini tushunib, unga o'z munosabatini moslashtirishi maqsadga muvofiqdir(2, 3, 4).

Sportchilar og'ir sharoitlarda o'zini - o'zi boshqarish, aqliy, ruhiy va jismoniy, imkoniyatlarini oshirish uslublaridan to'la foydalana bilishi, ularni amaliy faoliyatda qo'llay bilishga yoshlik davridan boshlab odatlanishi lozim. Buning uchun sportchilar o'z a'zolari faoliyat funksiyalarining xilma - xil qonunlarini bilishi asosida o'zini - o'zi boshqarish, aqliy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlarini oshirish uslublarini amaliy sport faoliyatining eng muhim sharoitlarida qo'llay bilishi kerak. Bu uslublarni bilish aqliy mehnat unumdorligini oshirishda, ruhiy va jismoniy faollik darajasini o'stirishda, insonni kamolotga yetishida muhim ahamiyatga egadir. Bizga ma'lum bo'lishicha, sportchilar hozirgi sportda "autogencha" mashq qilish orqali ruhiy ichki imkoniyatlardan to'la foydalanishga erishmog'i lozim.

So'nggi yillarda respublikamiz sportchilari erishilgan natijalar yuqorilab bormoqda. Shundan ko'rinib turibdiki, inson imkoniyatlari cheksiz. Sportchi faqat ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'zining ruhiy, jismoniy imkoniyatlarini safarbar qilish yo'llarini bilish lozim.

Xulosa shundan iboratki, biz sportchilarning ruhiy, jismoniy, aqliy ma'naviy va irodaviy sifatlarining rivojlanish imkoniyatlarini o'stirish uslublaridan foydalanish bilan birga sportchi o'z oldiga aniq maqsad qo'yishga o'rgatish, o'zining kuchiga ishonch hosil qilish, sportchilar psixologik to'g'ri rejalashtirish uchun sportchining musobaqadan oldin paydo bo'ladigan qaltirash va jonsizlik holatini bartaraf qilish maqsadida maxsus mashg'ulotlar tashkil etish, ijobiy hissiyotlarni hosil qilish, dunyo qarashini o'stirish hamda sportchilarni butun jahondagi yangiliklarni, o'zgarishlarni bilib borishga o'rgatish lozim. Albatta, to'g'ri yo'lga qo'yilgan jismoniy mashg'uloti

va sport ishlarining o'ziyoq sportchilarda sportga bo'lgan qiziqishni tarbiyalaydi. Harqanday sport mashg'uloti va har qanday sport musobaqasi sportchi uchun qiziqarlidir. Sportchilarda sport turlariga qiziqish paydo qilish va uni barqaror qilish jismoniy madaniyat o'qituvchilariga ham ko'p jihatdan bog'liq. O'quvchi va sportchilarda sport ishlariga qiziqishini vujudga keltirish uchun avvalo, sport mashqlarining emotsional, yorqin va jonli bo'lishi, tashkil etilgan sport musobaqalari kelgusida kasb egallash, ma'lumotini oshirish uchun zarurligini, jismoniy mashqlarni bajarishda sportchining bor kuchini sarf qilish asosida o'z-o'zini irodaviy majburlashga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi, 2021 yilni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb belgilashi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 30 dekabr № 276(7778), 4-bet.
2. Y.Masharipov. Umumiy va sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Ilm ziyo". 2017 yil. 2011-2014 betlar.
3. M.A.Tursunov, Z.G.G'afforov. Sport psixologiyasi (laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanma). T.: 2017 y. 18-22-betlar.
4. J.E.Eshnazarov. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. Darslik. T.: Fan va texnologiya. 2008 y. 45-48-betlar.

ФИО авторов: Ашуралиев Алишер Бозорбоевич

Андижон Давлат Университети жисмоний маданият факультети катта ўқитувчиси

Саитжонов Шахобиддин Гозиевич

Андижон Давлат Университети жисмоний маданият факультети катта ўқитувчиси

Ашуров Асадилло

Андижон Давлат Университети жисмоний маданият факультети катта ўқитувчиси

Название публикации: «ЎҚУВЧИЛАРНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҒЛОМЛАШТИРИШ ЖАРАЁНЛАРИГА ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ»

Аннотация: Мақолада ёшларга доир давлат сиёсатининг замонавий ривожланиш йўналишлари, ёшлар саломатлиги , ўқувчиларни жисмоний тарбия, спорт соғломлаштириш жараёнларида маънавий ахлоқий тарбиялаш бўйича мулохазалар келтирилган.

Калит сўзлар: Маънавий ахлоқий тарбия, жисмоний маданият, компетенция, соғлом турмуш тарзи, мотивациялаш, жисмоний тарбия, спорт, маънавият.

Муқаддас Ватанимиз мустақилликка эришганидан кейин жисмоний маданият ва спортни ривожлантириш давлат сиёсати даражасига кўтарилиб, устивор йўналишга айланди. Ўзбекистоннинг жаҳон сахнасига чиқишида, уни дунё танишида спорт асосий воситалардан бири бўлиб хизмат қилмоқда. Жаҳон миқёсида ўтказилаётган турли халқаро мусобақаларда спортчиларимиз эришаётган муваффақиятлар дунё халқларининг нигоҳини Ўзбекистонга қаратаётгани ҳеч кимга сир эмас.

Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.Мирзиёев ташаббусига кўра қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича 2017-2021 – йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” даги

фармоннинг бешта устувор йўналишидан тўртинчиси ижтимоий соҳанинг ривожлантирилишига қаратилган. Унга кўра аҳоли ва айниқса республикамиздаги ёшлар қатлами бандлигини таъминлаш, ёшларнинг соғлом вояга етишишлари ҳамда спорт ва жисмоний тарбия масалалари билан боғлиқ чора-тадбирлар ҳам қамраб олинган ва улар орасида ёшларни жимоний тарбия ва спортга жалб қилиш ҳақидаги долзарб масалалар алоҳида таъкидлаб ўтилган.

Мазкур қонунда Ўзбекистон Хукуматининг жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш ҳуқуқий – меъёрий асослари Конституция ва ҳалқаро ҳуқуқ нормаларига мос равишда яратилди.

Бундан ташқари юртимизда ёшларга оид сиёсатни янада такомиллаштириш ва уларни жисмоний тарбия ва спорт билан мунтазам шуғулланишларига шарт-шароитлар яратиб бериш борасида 2017 йил 5-июль кунги “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб қувватлаш тўғрисида”ги фармони, 2017 йил 3 июндаги ПҚ 3031-сонли “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш тўғрисида”ги Қарори, ёшлар маънавиятини юксалтириш ва уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича 5 та муҳим ташаббусни илгари сурди.

Бу ташаббуснинг иккинчиси ёшларни жисмоний чиниқтириш уларнинг спорт соҳасида қобилиятини намоён қилишлари учун шарт шароитлар яратишга йўналтирилганлиги жисмоний тарбия ва спорт ёшлар учун нақадар муҳим омил эканлигини яна бир бор исботлаб турибди.

Инсон аввало етук интеллектуал ва баркамол шахс бўлиб шаклланиши учун у жисмоний жихатдан чиниққан, соғлом, онг ва тафаккури шаклланган маънавий етук, дунёқараши кенг, жамият тараққиётида фаол қатнашадиган, инсон ҳаётида учрайдиган баъзи ноахлоқий хатти-харакатлардан холи (турли хил спиртли ичимликлар ва тамаки махсулотларига ружу қўйиш, турли хил гиёҳванд моддалар таъсирига тушиб қолиш, психотроп таблеткалар ҳамда айни кунларда ёшлар орасида айниқса, юқори синф ўқувчиларида оз бўлсада учраб тураётган чилим, электрон сигареталарни истемол қилиш, жиноятчилик ва

хуқуқбузарликларни содир этиш каби ва х к) иллатларига нисбатан муросазиз ҳамда соғлом фикр эгаси бўлмоғи лозим.

Таълим муассасаларидаги ўқувчиларни жисмоний тарбия ва спорт соғломлаштириш жараёнлари ҳамда жисмоний тарбия ва спортга жалб қилиш ва жисмоний кўникма ва малакаларини ривожлантиришга қаратилган, оммавий спорт тадбирлари ёшларни маънавиятида мужассамлашган бўлиб, ундаги туйғуларни ривожлантиришда жисмоний тарбия ва спортнинг ўрни жуда муҳимдир.

Таълим муассасаларидаги ўқувчиларни жисмоний тарбия ва спорт соғломлаштириш жараёнларига жалб қилиш ва жисмоний кўникма ва малакаларини ривожлантиришда ҳамда жисмоний тарбия ва спорт ёшларнинг ички дунёсининг бойишида ҳам катта аҳамият касб этади. Юқори синф ўқувчиларини ички дунёси маънавият ва маърифат билан бойиб боради. маънавиятли ва маърифатли бўлиш асосида ҳам машаққат ётади. Машаққатнинг моҳиятини жисмоний жиҳатдан чиниққан инсонгина тўлиқ англаб ета олади. Замон тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки давлатнинг эртаси мазкур жамиятда яшаётган ёшларнинг қандай камол топаётгани билан чамбарчас боғлиқ.

Биз қуйидагиларни тавсия қиламиз: Ёшлар онги ва қалбида мустақиллик ғоясига юқори маънавият ва инсонпарварлик анъаналарига садоқат туйғулари янада чуқур илдиз отиши, радикализм ҳамда экстремизмдек ёт ғояларга қарши иммунитетини мустаҳкамлаш, жиноятчилик ва хуқуқбузарликларни олдини олишга қаратилган мақсадли ва тизимли равишда жисмоний тарбия ва спорт мусобақаларини ҳамда тадбирларни ўтказиб боришни йўлга қўйишимиз, жисмоний тарбия ва спорт орқали ёшларни жамиятда ўз ўринларини топиб олишларига имкониятлар яратишимиз лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича 2017-2021 – йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” даги фармони
2. 20175-июль кунги “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини

ошириш ва Ўзбекистон ёшлар иттифоқи фаолиятини қўллаб қувватлаш тўғрисида”ги фармони

3. 2017 йил 3 июндаги ПҚ 3031-сонли “Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш тўғрисида”ги Қарори

4.Аҳатов Л.К, Расулов.А.Г “Мутафаккирларнинг спортга оид қарашлари муҳим манбаа кашфиёти сифатида” Жисмоний тарбия ва спортда фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологиялардан фойдаланиш. Қарши 2018.

ФИО авторов: Хайитбоев Набижон Шералиевич

Андижон давлат университети мактабгача таълим методика кафедраси ўқитувчиси

Ниязов Валижон Алиевич

Андижон Олимпия ва миллий спорт турлари бўйича давлат ихтисослаштирилган мактаб интернати спорт психологи

Название публикации: «ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР БОЛАНИНГ ЖИСМОНИЙ ВА РУҲИЙ РИВОЖЛАНИШИДАГИ АҲАМИЯТИ»

Аннотация: Ҳаракатли ўйинлар болаларнинг ҳаракат фаолияти жисмоний ва руҳий ривожланишига, ҳаракат кўникмалари ва жисмоний сифатларнинг шаклланишида юқори самара бериши бўйича маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Ҳаракатли ўйинлар, жисмоний чиниқтириш, руҳий, кўзғалиш ва тормозланиш, кузатувчанлик, топқирлик, атроф-муҳитда мўлжал олиш қобилияти, ботирлик, чаққонлик.

Кундалик ҳаётда ишлатиладиган барча ҳаракатлар, масалан, юриш, югуриш, сакраш каби кўникмалар, шунингдек, вазни бошқариш ҳамда тезлик ва йўналиш ўзгариши билан ҳаракатланиш қобилиятлари ва тушунчалари фойдали жисмоний кўникмалардир. Ушбу кўникмаларнинг баъзилари болаларга жиҳоз, ускуналар устида ёки фазода муаллақ ҳаракатланаётганда ўз таналарини бошқаришда ёрдам бериш учун ишлатилади. Бошқа хил кўникмалар эса, гимнастика, енгил атлетика, спорт ўйинлари каби спорт ва рақс машғулотларида қатнашадиган мураккаб машқ ва ҳаракат шакллари шакллантириш учун бир ёки бир нечта локомотор ва ҳаракат қобилиятлари билан биргаликда қўлланилади.

Ўзлаштириладиган кўникма ва маҳоратнинг моҳияти ва туридан қатъий назар, улар одатда тизимли ўқув дастури орқали ўргатилади.

Кординацион ҳаракатлар, мувозанат ва бармоқларнинг тезкорлиги каби суст ривожланган восита қобилиятлари жисмоний машқлар билан боғлиқ

муваффақиятни жиддий равишда чеклайди. Болалар ўзларининг жисмоний сифатларини имкон қадар кўпроқ ривожлантиришлари керак.

Мактабгача таълим ташкилоти ва бошланғич синф жисмоний тарбиясининг асосий мақсадларидан бири бу болалар ўзларининг фаол ҳаёт тарзини ривожлантиришларига ўргатишдир.

Болалар (Армстронг 1989) "Фаолиятнинг мустақиллиги" ўз рухий ва жисмоний фаолиятининг мустақиллиги деган тушунчага эга бўлиши керак. Яъни, улар ўқитувчи дарс бергандан кейингина эмас, балки одатдаги ҳаёт тарзининг бир қисми сифатида қабул қилиб фаол бўлишлари керак. Машғулотларда жисмоний тарбия (инструктори) ўқитувчиси болага осон вазифани бериши керак.

Ғайратли ва серҳаракат кўпчилик болалар жисмоний тайёргарликнинг юқори даражасига эга бўлишмайди, улар мактабгача таълим муассасасига борганларида жисмоний тарбия машғулотлари билан фаол қизиқиш билан шуғулланишади. Бола мактабгача таълим муассасада ҳар томонлама ўсиб бориши билан бирга табиий қизиқиш ва ташқи таъсирларга берилувчан бўлади.

Бу ўғил болаларга қараганда қиз болаларда кўпроқ кузатилади. Шубҳасиз, телевизор томоша қилиш, уяли телефон, компьютер ўйинларини ўйнаш, овқатланиш, ҳаракатсизлик ва таълимдан ташқарида спорт билан шуғулланмасликлари таъсир кўрсатади.

Мактаблардаги барча жисмоний тарбия дарслари болани фаол ҳаёт тарзи учун зарур шарт-шароитларни яратадиган муҳит билан таъминлай олмайди. Жисмоний машғулотларда иштирок этиш учун болалар маълум кўникмаларни эгаллашлари керак. Кўникма ва маҳоратсиз муваффақият кам бўлади. Муваффақиятсиз, мотивация кам бўлади. Ҳеч қандай мотивациясиз, қизиқиш бўлмайди ва ҳаракатсизликка мойил муносабат ривожланади. Фаол турмуш тарзини олиб бориш учун фақат ўрганиш етарли эмас.

Ўзлаштириш учун зарурий даражадаги жисмоний сифатларни ривожлантириш ва унга эришиш истаги зарур бўлади. Фаол турмуш тарзини қўллаб-қувватлаш учун болани жисмоний жиҳатдан ўргатиш керак. Бундан

ташқари, мактабдан ташқаридаги турли таъсирлар мактаб тизими таълимни кучайтириши ва кўллаб-қувватлаши керак. Демак, ота-оналар ва жамоатчиликнинг иштироки, боланинг фаолияти ва ўзлаштиришини рағбатлантиради ҳамда ижобий таъсир қилади.

Мактабгача ёшдаги болаларни ривожлантириш ва мактабга тайёрлаш жараёни олдига кўйилган мақсад ва вазифаларнинг бажарилиши ушбу мактабгача ёшдаги болалар таълим-тарбиясига кўйиладиган давлат талаблари орқали назорат қилинади. Таълим-тарбия мазмунининг асосий йўналишларида болаларни жисмоний ривожлантиришга катта аҳамият берилган. Болаларни мактабга тайёрлашни белгиловчи муҳим кўрсаткичлардан бири уларнинг жисмоний жихатдан ривожланганлик даражасидир.

Ҳаракатли ўйинларни мунтазам ўтказиш болаларда ўз ҳаракатларини бошқаришни ривожлантиришга ёрдам беради, улар гавдасини тартибга солади, яъни турли зўриқишда ҳаракат қилишга ўргатади. Ўйинлар болани жуда чاقқонлик, муайян мақсад ва тезкорлик билан ҳаракат қилишга; қоидаларни бажариш, ўзини тутиш, ўртоқликни қадрлай олишга ўргатади.

Илк ёшли болалар оилаларда боланинг дастлабки ҳаракати билан боғлиқ овунмачоқлар, эрмак ўйинлар ёрдамида тарбияланганлар. Ундан каттароқ ёшдаги болалар ҳаётида ранг-баранг ҳаракат мазмунига эга булган (ўз ичига болаларни ром қилувчи ўйин бошланмалари, хиргойилари, санашмачоқларни олувчи) халқ ўйинлари катта ўрин олган. Ҳаракатли ўйинлар жисмоний тарбиянинг асосий воситасидир. Ҳаракатли ўйинлар болаларнинг ҳаракат фаолияти жисмоний ривожланишига, ҳаракат кўникмалари ва жисмоний сифатларнинг шаклланишига, организмнинг функционал фаолиятини оширган ва эмоционал қувноқлик туйғуларини кучайтирган ҳолда саломатликни мустаҳкамлашга ижодий таъсир этади.

Ҳаракатли ўйинларни ўтказишда эришиладиган соғломлаштириш самараси болаларнинг ўйин фаолияти жараёнида юзага келадиган ва бола руҳиятига яхши таъсир этадиган ижобий эмоциялар билан узвий боғлиқдир.

Эмоционал кўтаринкилик болаларда барча учун умумий бўлган мақсадга эришишга интилиш уйғотади ва у вазифаларни аниқ тушунишда, ҳаракатларнинг ўзаро мослигида, фазода ва ўйин шароитларида аниқ мўлжал олишда, топшириқларни тезлаштирилган суръатда бажарилиши лозим.

Болаларнинг мақсадга эришишга нисбатан кучли иштиёқи ва завқли интилиши асосида турли тўсиқларни енгиб ўтишга ёрдам берувчи ироданинг роли ошади. Ҳаракатли ўйинлар болалар томонидан аввал эгалланган ҳаракат кўникмаларини такомиллаштириш ва жисмоний сифатларни тарбиялаш методи бўлиб хизмат қилади. Ўйин жараёнида бола ўз эътиборини ҳаракатни бажариш усулига эмас, балки мақсадга эришишга қаратади. У ўйин шартларига мувофиқ ҳаракат қилади, бунда чаққонлик кўрсатади ва шу аснода ҳаракатларни такомиллаштиради.

Ҳаракат фаолияти сифатида ҳаракатли ўйин муайян ўзига хос хусусиятларга эга: у боладан сигнал ва ўйинда тўсатдан бўладиган ўзгаришларга тезда жавоб беришни талаб қилади. Деярли ҳар бир ҳаракатли ўйинда ҳаракатлар ва болалар ҳаракатига оид сигналлар мавжуд. Масалан «чумчуқлар ва автомобиль», «самолётлар».

Ўйиндаги фаол ҳаракат фаолияти бола қўзғалиш ва тормозланиш жараёнларини такомиллаштирган ҳолда нерв тизимини машқ қилдиради, кузатувчанлик, топқирлик, атроф-мухитда мўлжал олиш қобилиятини, ботирлик, чаққонлик ташаббус кўрсатиш, мақсадга эришишнинг мустақил усулини танлашни тарбиялайди.

Биз қуйидагиларни тавсия қиламиз: Ҳаракатли ўйинлар жисмоний тарбия ва спорт тизимида асосий восита сифатида, спорт турларининг турли хил машқларидан фойдаланиш билан бир қаторда, ҳаракатли ўйинларни кенг қўлланиши, энг аввало ёшларни ҳар томонлама жисмонан ва руҳан соғлом бўлиб вояга етишига ёрдам берса, иккинчи томондан у ёшларни тарбиялашдаги асосий воситаларидан бири бўлиб хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Усмонхўжаев Г.С. “1001 ўйин” Т.Медицина 1999 й.

2. Усмонхўжаев Г.С. “Ҳаракатли ўйинлар” Т.Медицина 1999 й.
3. Қорабоев У. “Ўзбек халқ ўйинлари” Тошкент 2001й
- 4.Азизходжаева Н.Н.Педагогические технологии педагогическое мастерство-Т. Фан ва ахборот технологиялари, 2006.

ФИО автора: То'rayev X.B.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Название публикации: «THE IMPORTANCE OF DIGITAL ECONOMICS IN VIRTUAL ENTERPRISES»

Аннотация: Raqamli texnologiyalar hayotimizda, ta'lim olishimizda, ishimizda tub o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, rejalashtirish va qarorlar qabul qilishda yangicha fikr yuritishimizga sababchi bo'ladi, davlat va jamiyat shakllanishida yangi imkoniyatlarni ochib beradi, lekin shu bilan birga mavjud bo'lgan biznes modellar uchun xavf-xatarlarni yaralishiga ham sababchi bo'ladi. Turli organlar yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida bir-biridan farq qiladigan boshqarish usullarini doimiy ravishda izlashlari kerak. Bularning yuqori darajada moslashuvchanligi tufayli bunday biznes tuzilmalari bozorda mahsulot yoki xizmatlarga bo'lgan talabga qarab o'zgarishlarga moslasha oladi.

Тayanch so'zlar: Raqamlashtirish, axborotlashtirish, biznes modeli, biznes tuzilmalar, virtual kompaniyalar, ustuvor yo'nalish, ilmiy tadqiqot, raqamli transformatsiya, AKT, tarmoq.

Аннотация: Цифровые технологии вызывают кардинальные перемены в нашей жизни, учёбе, работе и досуге, позволяют по-новому думать, планировать и принимать решения, открывают новые возможности на всех уровнях государственного и общественного развития, но вместе с тем увеличивают риски и угрозы для существующих бизнес-моделей. Директивным органам приходится постоянно искать способы управления экономическими и социальными изменениями, вызванными цифровой трансформацией. Такие бизнес-структуры за счет более высокой гибкости могут быстро адаптироваться к изменениям рынка и трансформироваться в новые структуры, формируя при этом тот уровень компетенции, который необходим для организации производства товаров и услуг в зависимости от потребностей рынка.

Ключевые слова: Цифровизация, информатизация, бизнес-модель, бизнес-структуры, виртуальные компании, приоритизация, НИОКР, цифровая трансформация, ИКТ, сеть.

Annotation: Digital technologies cause fundamental changes in our life, study, work and leisure, allow to think in new ways, plan and make decisions, open up new opportunities at all levels of state and social development, but at the same time increase risks and threats to existing business models... Policymakers have to constantly look for ways to manage the economic and social change brought about by digital transformation. Due to their higher flexibility, such business structures can quickly adapt to market changes and transform into new structures, while forming the level of competence that is necessary to organize the production of goods and services depending on the needs of the market.

Key words. Digitalization, informatization, business model, business structures, virtual companies, prioritization, R&D, digital transformation, ICT, network.

Ergänzende Aufgaben könnten darin bestehen, Goethes Satzzeichen zu betrachten und zu überlegen, ob sie mit der eigenen Erwartung übereinstimmen. Die beiden Ausrufungszeichen nach den Ellipsen im fünften und sechsten Vers und der bloße Punkt am Schluß des Gedichts führen dann zu vertieftem Verständnis. Auch die zunächst oberflächlich wirkende Frage nach der Silbenzahl trägt dazu bei: Die Kinder sehen, daß ohne den Kontext allein die vier mehrsilbigen Wörter Schrecken hervorrufen — «bekümmert», «Todesstille», «fürchterlich», «ungeheuer» —, daß also auch unter diesem Aspekt der sechste Vers, nur aus zweien dieser Wörter bestehend, den Kern des ganzen Gedichts bildet: «Todesstille fürchterlich!» Die parataktischen Satzkonstruktionen und die Ellipsen sind ebenfalls erst ganz zu erfassen, wenn der Text von den Schülern eingesehen werden kann. Auch wenn das Sprechen des Gedichts den Anfang der Erschließung bildet, sollte ein guter Vortrag die folgende Arbeit am gedruckten Text abschließen. 2. Der zweite Weg könnte ebenfalls von einer Betrachtung der Überschrift ausgehen. Danach ließe sich das Druckbild ins Auge fassen. Die acht Verse wirken fast quadratisch, ein lastender Block, der sich deutlich von dem folgenden Gedicht Glückliche Fahrt abhebt. Nach dem stillen Lesen ergäbe sich dann zwangsläufig die Frage, ob die Erwartung, die durch Überschrift und Druckbild erzeugt wurde, eine Bestätigung gefunden habe. Von da aus wären dann Wortwahl, Satzbau, Metrum und Reim zu untersuchen. Das sinnerfassende laute Lesen

würde ebenfalls wieder den Schluß der Erarbeitung bilden. Am Ende möchte ich meine Übersetzung dieses Gedichtes vorlesen:

Сукунат.

Денгиз узра чукур сукунат,
Ҳадсиз сувлик мисли ўлик жон.
Ташвиш ила боқар қайиқчи ,
Теграсида теп-текис уммон.
Чор атрофдан эсмас шаббода,
Қабристон сукути ҳукмрон беун,
Кўз илғамас чексиз денгизда,
Мавж урмайди заррача тўлқин.

Literaturverzeichnis

1. J.Bork u.a. Epochen der deutschen Literatur. Gesamtausgabe.-Ernst Klett Schulbuchverlag. Stuttgart,1993
- 2.J.Bork u.a. Epochen der deutschen Literatur. Gesamtausgabe.-Ernst Klett Schulbuchverlag. Stuttgart,1993
3. W.Wucherpennig. Geschichte der deutschen Literatur. Von den Anfängen bis zur Gegenwart. Klett-Verlag, 1993
4. Leipert, Reinhard. Friedrich Schiller, Maria Stuart: Interpretation 2., Überarb. Aufl. – München 2000
5. Oldenbourg, Deutsche Literaturgeschichte. Verlag J.B.Metzler, 1996;
6. Deutsche Literaturgeschichte. Verlag J.B.Metzler, 1996;
7. Hamburger Goethe-Ausgabe (2. Aufl. 1952, zit. HA).

ФИО авторов: Ungarov Azizbek Abdumo'min o'g'li

Guliston davlat universiteti 1-kurs magistranti

Maxmudov Islom Rustam o'g'li

Guliston davlat universiteti 1-kurs magistranti

Название публикации: «POLIZ EKINLARI (QOVUN,QOVOQ) NI SIRDARYO VILOYATI SHAROITIDA SAQLASH VA QAYTA ISHLASH TEXNALOGIYASINI ISHLAB CHIQISH»

Annotatsiya: Ushbu maqola Sirdaryo viloyatida poliz ekinlarini yetishtirish saqlash va qayta ishlashning ahamiyati haqida.

Kalit so'zlar: ateroskleroz, atilla, sipermetrin, mospilan, ponaktin, fundazol, mospilan

Qishloq xo'jaligi — mamlakatimiz iktisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq yurtimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xom ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq- ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi mamlakatimizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xom ashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi barcha sohalar kabi qishloq xo'jaligida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar samarasini Sirdaryo viloyati misolida ko'rish mumkin. Sirdaryo zaminida yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari nafaqat ichki bozorga, balki, eksportga ham katta miqdorda yo'naltirilayotganini raqamlarda yanada yorqinroq ko'rishimiz mumkin. Jumladan, joriy yilning o'tgan 6 oyi davomida viloyat mirishkorlari 124 ming 171 tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xorij bozorlariga eksport qildi. Eksport qilingan mahsulotlarning 102 ming 944 tonnasini poliz va sabzavot, 3 ming 565 tonnasini ho'l meva va uzum tashkil etgan bo'lsa, qolgani, sanoat mahsulotlari hissasiga to'g'ri keladi, – deydi o'simliklar karantini hududiy inspeksiyasi agronom-inspektori Sherzod Rustamov. – E'tiborli tomoni

bugungi kunda Yevropa bozorlarida Sirdaryo qovunlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Talab va ehtiyojdan kelib chiqqan holda olti oy davomida eksportyor korxonalar tomonidan Germaniya, Latviya, Rossiya davlatlariga 169 tonna qovun eksport qilindi. Aytish joizki, sirdaryolik bobodehqonlar tomonidan yetishtirilgan, mazasi tilni yorar qovunlar asosan Mirzaobod tumanida joylashgan "Redpak" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan xorijiy davlatlarga eksport qilinayotir. Ushbu korxona tomonidan o'tgan yili 2 ming tonna qovun va tarvuz mahsulotlari Rossiya, Latviya va boshqa Yevropa davlatlariga eksport qilingan bo'lsa, bu yil 3 ming tonna mahsulot nafaqat Yevropa, balki Osiyo davlatlariga ham katta miqdorda eksport qilinmoqda.

Qovun mevasi, odatda, poliz ekinlari ichida eng ko'p miqdorda qand moddasini saqlaydi, , asosan saxaroza holida uchraydi . Qovun mevasidan asal (shinni), qovun qoqi tayyorlanadi. Qovun urug'ning tarkibida ko'p miqdorda 25-30% gacha moy saqlanadi. Qovun mevasidan sil va bronxit, kamqonlik va bodni, yurak, nerv, ateroskleroz va jigar kasalliklarini davolashda foydali. Ekish uchun tavsiya etiladigan navlar. Qovunni ertapishar – Rohat, o'rtapishar – Suyunchi–2, Oltin vodi, Lazzatli, Oltintepa, Obi novvot, Gurlan, Bo'rikalla, kechpishar – To'yona, Gurlan, Amudaryo, Gulobi Xorazmiy, Zar gulobi, Saxovat, Umrboqiy, Beshak kabi navlari ekiladi. Urug' tanlash. Qovun urug'i naviga xos rangli, yuqori unuvchan, kasalliklardan xoli, o'rtacha kattalikda, butun va to'la bo'lishi zarur. Urug'lar boshqa o'simliklar urug'lari va aralashmalaridan tozalanadi. Urug'lar ekish uchun 12-18 soat davomida oddiy suv yoki o'stiruvchi moddalar bilan ivitib qo'yilsa unuvchanligi yuqori bo'ladi.

Yer tayyorlash. Yerni shudgorlashdan oldidan mineral va organik o'g'itlar solinadi. Yer kuzda 35 sm chuqurlikkacha shudgor qilinadi. Bahorda tuproqda namni saqlab qolish uchun yerga uzun tishli xaskash yordamida ishlov beriladi. Qovun erta muddatlarda ekilganda yerni bahorda qayta shudgorlashning hojati yo'q. Ekinlar kechki muddatlarda ekilganda yerni qayta shudgorlash zarur. Bunda tuproqni ag'darmasdan turib, 22 sm chuqurlikda yumshatib chiqish tavsiya etiladi.

Ekish muddati va sxemasi. Markaziy mintaqada joylashgan viloyatlarda qovunning ertagi navlari 15 aprelgacha, o'rtagisi 20 apreldan 10 maygacha, kechkisi

15 maydan 10 iyungacha; janubiy viloyatlarda ertagi navlar 10 aprelgacha, o'rtagisi 10–20 aprelda, kechkilari esa 10–20 iyunda ekiladi. Shimoliy mintaqalarda ertagi qovunni 20 aprelgacha, o'rtagisini 25 apreldan 10 maygacha, kechkisini 20–30 mayda tuproq harorati 14–15 °S ga etganda ekish tavsiya etiladi. Qovun qo'sh qator lentasimon ekish usulida ekiladi. Bunda qatorlar orasi 70 yoki 90 sm lentalar yani pushtalar orasi 210–280 sm xamda o'simliklar orasi 50-60 sm qilib ekiladi. Urug'lar qo'lda 3–6 sm chuqurlikka ekiladi. Mayda urug'li qovun ekish uchun 1 sotixga 40 g, yirik urug'lilarini ekish uchun 50 g urug' sarflanadi. Parvarishlash. Qovun urug'i sug'orilgan nam tuproqqa ekilsa nihollar unib chiqishi tezlashadi va sug'orish talab etilmaydi. Qovunni asosiy parvarishlash ishlari o'simlikni yaganalash, tuproqni yumshatish, ekinni oziqlantirish, chopiq qilish, sug'orish, palaklarni to'g'rilash, begona o'tlar va zararkunandalarga qarshi kurashishni o'z ichiga oladi. Yaganalash ikki bosqichda yani birinchisi o'simlik chinbarg chiqarganda, ikkinchisi gullashdan oldin o'tkaziladi. Nihollar yalpi unib chiqishi bilan ekin qator oralarini engil chopiq qilinadi. So'ng oradan 20–25 kun o'tgach, ikkita-uchta chinbarg paydo bo'lganidan keyin chopiq qilinib, dastlabkioziqlantirish va suv beriladi. O'suv davrida qator oralari 3–4 marta chopiq qilinib 1-2 marta palaklar to'g'rilanadi va 4-5 marta sug'oriladi.

O'g'itlash. Qovun uchun 10 sotix maydonga 15 kg ammiakli selitra, 17 kg ammofos va 7,5 kg kaliy xlor o'g'iti xamda 3–3,5 tonna organik o'g'itlardan solinadi. Kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashish. Urug'larni ekishdan oldin Fundazol preparati (1 kg uruqqa 4–8 g) bilan yoki Ponaktin (1 kg uruqqa 4 g) bilan namlab ekish tavsiya etiladi. Kasalliklardan zararsizlantirish maqsadida urug'lar ekishdan oldin birorta mikroelementlarga solib bo'ktirib qo'yiladi. Zararkunandalardan poliz biti (shirasi), o'rgimchakkana, oqqanot, kuzgi tunlam, poliz qo'ng'izi, qovun pashshasi zararlaydi. Ularga qarshi kurashishda almashlab ekishga rioya qilish, biologik usulda poliz bitiga va o'rgimchakkanaga qarshi oltinko'z kushandasini, oqqanotga qarshi enkarziya parazitini qo'llash tavsiya etiladi. Kimyoviy usulda 10 sotixga oqqanot, shiralarga qarshi Mospilan 20% (25–30 ml), Sipermetrin 25% (30 ml) va boshqa preparatlar qo'llaniladi. Qovun maysa pashshasi va qovun pashshasiga qarshi Atilla 5% em.k. (200 ml), Sumi-Alfa 5% em.k. (300 g) preparatlari qo'llaniladi. Ildiz chirish,

fuzarioz so'lish, unshudringga qarshi o'simlik qoldiqlarini yo'qotish, fungisidlardan Topaz 10% (200–250 ml), Kurzat R n.kuk. (200–250 g), Foliar BT 22,5% (50 ml) preparatlarini 60–70 litr suvga aralashtirib purkash tavsiya etiladi.

Hosilni yig'ishtirish. Qovun hosili pishib etilganlarini tanlab-tanlab olish yo'li bilan uch-besh marta yig'ib olinadi. Kechki muddatda ekilgan navlar hosili esa bir marta yig'ishtirib olinadi. Pishgan qovunlar polizda uzoq muddat tursa nobud bo'ladi.

Poliz ekinlaridan qovoq yetishtirish va uni qayta ishlash xalq orasida unchalik ommabop tusga aylanmagan. Hozirgacha mahsulotlarni qayta ishlash

masalalari ilmiy asosda yetarlicha o'rganilmagan. Qolaversa, bu borada fan-texnika va ilg'or tajriba yutuqlari ishlab chiqarishga keng joriy etilmayapti. Shundan kelib chiqib, Respublikamizda yetishtirilayotgan poliz mahsulotlari, xususan, qovoqni yetishtirish hajmini oshirish va mevalarini qayta ishlash texnologiyalarini o'rganish, bilish va qo'llay olish talab etiladi. Shu yo'l bilan aholini yil bo'yi turli vitaminlar, uglevodlar, mineral tuzlar va boshqa zarur moddalar bilan ta'minlash mumkin bo'ladi.

Qovoq ekinlari yer sharining tropik, subtropik va mo'tadil iqlimli mintaqalarida ekilib, yetishtiriladi. Poliz mahsulotlarini yetishtiruvchi davlatlar – Xitoy, Turkiya, Hindiston, AQSh, Eron, Misr, Ispaniya kabilar hisoblanadi. Tuproq arxeologik qazilmalarida topilgan qovoq qoldiqlari (mil. av. 7—8-asrlar) buni tasdiqlaydi. O'zbekistonning tuproq-iqlim sharoiti bu ekinlar yetishtirish uchun qulay bo'lgani uchun, qadimdan o'stirilgan.

Qovoq turlari Qovoqdoshlar oilasiga mansub qirrali, gajaklari yordamida osilib yoki yotib o'suvchi, dag'al tukli poyali, uzunligi 4-6 m ga yetadigan bir yillik o't o'simlik. Qovoqda barglari yirik, yuraksimon yoki chuqur besh bo'lakli, dag'al tukli bo'lib, bandlari uzun bo'lib, tur va navlariga qarab shakli, rangi va tuklanishi har xil bo'ladi. Uzun bandi yordamida poya va shohlarida ketma-ket o'rnashgan. Ko'pchilik navlarida erkak va germafrodit gullar uchraydi, ayrim navlarida esa erkak va urg'ochi gullar uchraydi. Bunday gulli o'simliklar bir uyli, ayrim jisli deyiladi. Yirik, sariq rangli, bir jinsli (ba'zan ikki jinsli) gullari to'p to'p bo'lib (erkak gullari) yoki yakka-yakka (urg'ochi gullari) holda barg qo'ltig'iga joylashgan. Qovoqda asosan ayrim jinsli gullar uchraydi, faqat ayrim hollarda ikki jinsli gullar uchrab, ular

meva bermaydi yoki meva bergan taqdirda ham ular urug'siz bo'ladi. Qovoq mevasining ichida bo'shliq (uya) bo'lib, u yerdagi urug'lar ipchalar (platsentalar) yordamida urug'donga birikadi. Qovoqning platsentalari quruq, qovunniki nam yoki quruq bo'ladi. Tarvuzning platsentalari birikib ketgan, suvli, etli bo'ladi va mevaning devori bilan qo'shilib o'sadi. Binobarin, qovun va qovoqning meva eti, tarvuzning qo'shilib o'sgan seret platsentlari yeyiladi. Mevasi – turli shakilli, rangli va katta-kichiklikdagi (odatda yirik), ko'p urug'li, ser et va shirali xo'l meva. Iyun-sentyabr oylarida gullaydi, mevasi avgust- oktyabrda pishadi.

Qovoq hosili to'la yetilgan davrida yig'ib olinadi. Uning po'stiga tirnoq botirilganda unga hech qanday iz tushmasa u yetilgan bo'ladi. Qovoq palagidan meva bandi bilan kesib olinadi. Qovoq yaxshi yetilsa 10-15 kun uzilgandan so'ng dalalda qoldiriladi. Qovoq berk quruq binolarda yoki kichikroq uyumlarda saqlanadi. Qovoqning saqlanadigan navlari juda qattiq bo'lib, ular uncha katta bo'lmay, og'irroq bo'ladi. Saqlanishning dastlabki davrida unda kraxmal moddasi ko'p bo'ladi, 2-3 oydan so'ng kraxmal eruvchan qand moddalariga aylanadi va natijada uning ta'mi va oziqaviylik qimmati oshadi. Pishgan qovoq qattiq bo'lib, navga xos rangga kiradi va meva bandi qurib burishib qoladi.

Saqlashga yaxshi pishgan, shikastlanmagan, kasallik hamda zararkunandalar bilan zararlanmaganlari saralanadi. Qovoqni vaqtincha ayvon tagiga somon yoki boshqa to'shama to'shab, 2-3 qavat qilib, har qavatga somon, xas to'shalib uning shikastlanishini oldini olib joylashtiriladi va ustiga somon, xas tashlab qo'yiladi. Qovoq, somon makkajo'xori poyasi bilan yaxshi saqlanadi. Uzoq vaqtga saqlanadigan qovoq quyoshda 5-7 kun qoldiriladi.

Qovoq tarkibida suv miqdori ko'p bo'lganligi sababli, uni saqlashda suvni ko'p yo'qotilishi sifatining pasayishiga olib keladi. Saqlashga qo'yilganda qovoq saqlanadigan xonani yoki omborxonalarida havoning harorati 1-14°C va namligi 70 % ga yaqin bo'lishi lozim. Qovoqni saqlash uchun sovuq va nam xonalardan foydalanish tavsiya qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1-O'zbekistonda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish dasturi (1998-2000 yillar) T.; O'zbekiston 1998

2-Balashev N.N., Zeman G.O. "Sabzavotchilik" T., "O'qituvchi", 1977.

3-Bo'riev X.Ch., Zuev V.I., Qodirxo'jaev O. Muxamedov M.M. "Ochiq yerda sabzavot ekinlar yetishtirishning progressiv texnologiyalari" T., "O'zMEDIN", 2002.

4- www.gov.uz

5-<https://ru.wikipedia.org/wiki/>

ФИО автора: Qilicheva Zilola Sobirovna

Navoiy viloyati Navoiy shahri 16-AFChO'IM informatika fani o'qituvchisi

Название публикации: «“INFORMATIKA” FANINING TA'RIFI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI»

*«Men XXI asr ma'naviyat asri,
ma'rifat asri, ilm-fan va madaniyat
va axborot asri bo'lishiga qat'iyon
aminman»*

Islom Karimov

Informatsiya haqida tushuncha

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, rivojlanishning eng yuqori bosqichiga ko'tarildi. Shu borada zamonaviy kompyuter texnologiyalarining ishlab chiqarishga, Iqtisodga, biznesga, va o'qitish jarayoniga tadbiri tobora kengaymoqda. Har bir inson mehnat faoliyatida kompyuterlardan unumli foydalana bilishi zarur bo'lib qoldi. Zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotini takomillashtirishsiz tasavvur etish qiyin. Birinchi hisoblash mashinasi ENIACdan boshlab kompyuterlashtirish besh bosqichni bosib o'tdi. Informatika 60-yillarda Frantsiyada elektron hisoblash mashinalari yordamida axborotni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi sohani ifodalovchi atama sifatida yuzaga keldi. Informatika atamasi lotincha informatic so'zidan kelib chiqib, tushuntirish, xabar qilish, bayon qilish ma'nolarini anglatadi. Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda bu atamaga COMPUTER science (kompyuter texnikasi haqidagi fan) sinonimi mos keladi. O'zbekiston Respublikasi informatika va hisoblash texnikasi yo'nalishida jahon darajasidagi ilmiy maktablar yaratgani, tadqiqotlar muvaffaqiyatli olib borilayotganligi bilan shartli ravishda faxrlana oladi.

«Matematika fanining ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, differentsial tenglamalar va matematik fizika, funktsional tahlil sohasidagi yutuqlari respublikadan

ancha uzoqda ham mashhur» deb yozadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

Informatika axborotni qayta ishlash, ularni qo'llash va ijtimoiy amaliyotning turli sohalariga ta'sirini EHM tizimlariga asoslangan holda ishlab chiqish, loyihalash, yaratish, baholash, ishlashning turli jihatlarini o'rganuvchi kompleks ilmiy va muxandislik fani sohasidir. Informatika - kompyuterlar yordamida va ularni qo'llash muhiti vositasida axborotni yangilash jarayonlari bilan bog'liq inson faoliyati sohasidir.

Informatika yangi axborotlarni ancha keng, kibernetika kabi turli ob'ektlarni boshqarish vazifalarini amaliy hal etmay, o'zgartirish va barpo etish jarayonlarini o'rganadi. Informatika kompyuter texnikasi rivojlanishi tufayli yuzaga keladi, unga asoslanadi va usiz mavjud bo'la olmaydi.

Informatika xalq xo'jaligi tarmog'i sifatida kompyuter texnikasi, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqarish va axborotni qayta ishlash zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan xo'jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalarning bir turda jamlanishidan iborat bo'ladi.

Informatikaning ishlab chiqarish tarmog'i sifatidagi o'ziga xosligi va ahamiyati shundaki, xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari mehnat samaradorligi ko'p jihatdan unga bog'liq dir.

Informatika amaliy fan sohasi sifatida quyidagilar bilan shug'ullanadi:

- Axborot jarayonlaridagi qonuniyatlarni o'rganish (axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tarqatish);
- Inson faoliyatining turli sohalarida kommunikatsion-axborot modellarini yaratish;
- aniq bir sohalarda axborot tizimi va texnologiyalarini ishlab chiqarish va ularning hayotiy bosqichini, ularni ishlab chiqarish, ishlashni va hokazolarni loyihalash, ishlab chiqarish bosqichlari uchun tavsiyalar tayyorlash.

Informatsiya so'zi lotincha informatio so'zidan olingan bo'lib, «tushuntirish», «tavsiyalash» degan ma'noni anglatadi. Informatsiya uchta muhim sifatga ega bo'lishi lozim: to'liqlik, qimmatlilik va ishonchlilik. Informatsiyaning eng kichik o'lchov

birligi sifatida BIT qabul qilingan. Bitdan kattaroq o`lchov birligi sifatida BAYT qabul qilingan.

1 BAYT = 8 BIT.

BAYTdan katta o`lchov birligi KILOBAYT deb nomlanadi.

1 KBT=1024 BAYT

KILOBAYT dan katta o`lchov birligi MEGABAYTdir.

1 MBT=1024 KBT

MEGABAYTdan ham katta o`lchov GEGABAYT deb nomlanadi.

1 GBT=1024 MBT

MEGABAYTdan katta o`lchov birligi EKSOBYTDIR.

1 EKSOBAYT 1milliard GEGABAYTdan kattaroq ulchov birligidir.

Butun dunyo o`rgimchak uyasi (world wide web)



World Wide Web (WWW) — butun dunyo O`rgimchak

uyasi — Internetning eng ommaviy axborot xizmatlaridan biri hisoblanadi.

Internet uzoq, vaqtlar mobaynida turli xil kompyuter tarmoqlarining chigal tizimi bo`lib, ular bo`yicha asosan elektron axborot uzatilgan. Kompyuter buyruq va dasturlarni ishlatishning nozik tomonlarini boshidan kechirmagan yangi odam bu chigal tizimda o`zini ishonchsiz va bug`iq his qiladi. Oddiy va ko`rgazmali shaklda, «ko`rsat — bos» tamoyili bo`yicha yaratilgan yangi texnologiya foydalanuvchiga tarmoqqa punktlar so`rovlarini aniq berish va unga kerak bo`lgan ayni narsani tanlashni o`rgatdi. Bu texnologiya World Wide Web dasturi bilan amalga oshiriladi.

Ko`pchilik foydalanuvchilarning haqiqiy vaqt oralig`ida ma`lumotlarni uzatish vositalariga faol qiziqishi aynan shu texnologiyani paydo bo`lishi bilan kelib chiqdi. Qisqa vaqt ichida **WWW** Internetni axborot supermagistraliga yoki «dunyodagi axborot O`rgimchak uyasiga» aylantirdi. **WWW** millionlab odamlarga bir birlari bilan to`g`ridan-to`g`ri murojaat qilish rejimida muloqat qilishga imkon beradigan yangi va nisbatan arzon texnologiyadir. Tarmoq bo`yicha faqat matnli fayllargina emas, balki

tovush, grafika va videotasvirlar ham muvaffaqiyatli uzatila boshlandi. Kompyuterdagi ma'lumotlar bazasiga va tijorat tarmoqlariga ega bo'lgan Internetda cheksiz iste'mol bozorini va ishbilarmonlik ma'lumotlarini tarqatish uchun asosiy kanalni qurdilar, bular ularga tarmoqning virtual kengligida punktlar biznesini samarali qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.S.G'ulomov, A.T.Shermuxammedov, B.A.Begalov. Iqtisodiy informatika. Toshkent "O'zbekiston" 1999 y.
2. С.Симонович,Г.Евсеев,А.Алексеев «Специальная информатика» М-1999г
3. Брябрин В.М.«Программное обеспечение Персональных ЭВМ» М. Наука 1989г.
4. Фигурнов В.Э.«IBM PC для пользователя» М:Финансыи статистика 1991 г.
5. A.Ortiqov, A.Mamatqulov "IBM PC kompyuteridan foydalanish" T. 1992 y.
6. A.Sattorov, B.Qurbonboev "Informatika va hisoblash texnikasi asoslari".
7. A.A'zamov, A.Yo'ldoshev "Beysik MSX-haqida qisqacha ma'lumot".

ФИО автора: Қодиралиев Сардорбек Дамирбек ўғли

Андижон давлат университети Филология факультети 2-босқич талабаси.

Ўзбекистон республикаси

Андижон вилояти Қўрғонтепа тумани.

Название публикации: «ТУРКИСТОНДА ТАТАР МАЪРИФАТПАРВАРЛАРИ ТОМОНИДАН ОЧИЛГАН ЯНГИ УСУЛ МАКТАБЛАРИНИ ЧОР ҲУКУМАТИ ТОМОНИДАН ТАЪҚИБ ҚИЛИНИШИ»

Аннотация: Ушбу мақолада татар маърифатчилари очган мактабларнинг чор ҳукумати томонидан кескин тақиб қилиниши, турли хил чекловлар қўйилиши билан бир қаторда унинг рус-тузем ва эски маҳаллий мактабларидан устунлиги ҳам ёритилган. Қолаверса бу мактаблар қачон ва қаерларда очилганлиги ҳам баён қилинган.

Калит сўзлар: Чор ҳукумати, маърифатпарварлар, янги усул мактаблари, нўғойча ўқиш, галия, давлатга қарши руҳдаги нашрлар.

Туркистон ўлкасида XX аср бошларида чеклаш ва тазйиқларга қарамай татар муаллимлар фаолияти янада кучаяди. Улар асосан янги усул мактабларини очиш ва ерли халқни саводли қилиш билан шуғулланадилар. Бироқ, чор ҳукуматининг мустамлакачи маъмурияти улар фаолиятини чеклаш бўйича чоратадбирларни кучайтириб борди. Шунга қарамай 1900 йилда Андижонда Ш. Қодиров ва шу йили март ойида Тошкентнинг Қўшмазор даҳаси, Тўқли жаллоб маҳалласида Наби домла биринчилардан бўлиб, янги усул мактабини очганлар. У пайтларда янги усул кўпчиликка маълум бўлмаганлиги сабабли “нўғойча ўқиш” деб аталган.¹¹

Стасс-маслаҳатчи Миллер ўзининг Туркистон ўлкасида олиб борган 5 йиллик фаолияти давомида татар муаллимларининг фаолиятини ҳам ўрганиб таҳлил этган. У ўқитиш масаласида татарлар катта устунлик эга бўлиб, маҳаллий

¹¹ Долимов.У. Туркистонда жадид мактаблари... Т.: 1992. –Б.18.

муллалар 3 йилда ҳам эриша олмаган натижани, янги усулда дарс беришлари орқали 3-4 ойда амалга оширганликларини таъкидлаган.

Бу даврга келиб янги усул мактаблари нафақат рус-тузем, балки маҳаллий эски мактаблар билан ҳам рақобат қила бошлаган эди. Масалан, Қўқоннинг Бешбашоқ даҳасидаги 2 та рус-тузем мактаби ўқувчилари сони 150 нафардан ошмагани ҳолда, шу маҳалладаги биргина С. Мазитовнинг мактабида 200га яқин ўқувчи таҳсил олган. Мазкур мактабларда саводхонлик шу даражада етганки, уни тўла тамомлаган айрим ўқувчилар ўз мактабларини ҳам оча бошлаганлар. Ана шундай мактаблардан бири қўқонлик Аҳмаджон қори Мамажон ўғли томонидан ташкил этилган.

1909 йил 10 июньга келиб татарлар томонидан ташкил этилган янги усул мактаблари сони Наманганда 3, Андижонда 5, Қўқонда 12 тага етган. Янги усул мактабларидаги ўқув дастурига “Муаллими аввал”, “Муалими соний”, “Қуръон”, “Мубтаҳали жунон”, “Махрумот уд-дин”, “Забур”, “Жуғрофия”, “Ибодати исломия” ва айрим мактабларда буларга қўшимча “Мухаммадия”, “Қомус” дарсликлари ҳам киритилган эди. Мактабларда Осиё харитаси, глобус, парталар, доска, қирим-чиқим ҳисоби жадвали, император Николай II нинг портрети бор эди. Ўқиш учун тўлов ота-оналарнинг моддий ҳолатларига қараб, ойига 50 копеекдан 3 рублгача олинган. Айрим ночор оилаларнинг фарзандлари умуман бепул ўқитилган.¹²

Балхаш бўйида яшовчи қозоқлар овулида ҳам татар муаллимлари маҳаллий болаларни ўқитиш билан бирга аҳолини ислом динига ўтказиш тарғиботи билан шуғулланганлар.

Туркистон ўлкасида татарлар самарали фаолиятининг яна бир омили сифатида Қозон, Уфа, Оренбург нашриётларида чоп этилган маърифатпарварлик ғоялари билан суғорилган адабиёт ва дарсликлар савдоси ташкил этганликларини ҳам кўрсатиш мумкин. 1912 йил 16 апрелда Туркистон район муҳофаза бўлими (ТРМБ)нинг “Низом” номли жосуси берган маълумотга кўра,

¹² Долимов.У. Туркистонда жадид мактаблари... Т.: 1992. –Б.19.

Тошкентнинг Якшанба бозоридаги татар мактаби қошида Карим Хусайн томонидан очилган китоб дўконида фақатгина татар тилидаги дарслик ва адабиётлар билан савдо қилинган.¹³

1912 йилнинг ёзида уфадаги “Галия” мадрасасининг 40 дан ортиқ ёш татар муаллимлари Сарасув дарёси ва Қоратоғдаги яйловлардаги овулларга келиб, қозоқ болаларга ёзув, ҳисоб, тарих, география, араб тили, қироат ва татар тилида шариат қонунларини ўргатганлар.¹⁴

Туркистон шаҳридан 22 верст¹⁵ узоқликдаги Қарноқ қишлоғида 5 та мадраса бўлиб, уларда Сирдарё, Оқмола ва Тўрғай вилоятларидан келган 5 мингга яқин талаба таҳсил олган. Мадрасаларда ҳукумат назорати кучли эмаслиги туфайли бу ерда ҳам татар мударрислари фаолият кўрсатганлар.

Қозондаги “Муҳаммадия”, Уфадаги “Галия” ва Оренбургдаги “Хусайния” мадрасаларида ўқитиш янги усулга ўтказилган, уларнинг мавқеи кучайган ва натижада бу ерлардан Бухоро мадрасаларига ўқишга келувчилар сони камайган. Қозон, Уфа, Оренбург мадрасаларининг аҳамияти кучайганлигини Маҳмудхўжа Бехбудийнинг “Замонавий одамлар етуштирмак учун Ўрунбурғ, Қазон [га]... талаба юбормоқ керакдур”,-деган сўзларидан ҳам кўриш мумкин.¹⁶

Туркистондаги мустамлака маъмурлари янги усул мактабларининг ривожини империф манфаатлари учун хавфли эканлигидан ташвишланган ҳолда уларни тақиқлаш, ҳеч бўлмаганда кенг ёйилишига тўсқинлик қилиш чора-тадбирларини кўрганлар. Шу мақсадда 1907, 1909, 1911 йилларда Туркистон генерал-губернаторлиги татар муаллимлари фаолиятини чеклаш бўйича махсус кўрсатмалар берган. Жумладан, 1909 йилдаги Туркистон ўлкаси ўқув юртлари инспекцияси қошидаги махсус комиссия ишлаб чиққан янги усул мактабларига доир кўрсатмада маҳаллий мактаб қайси миллат болалари учун очиладиган

¹³ Ўз МДА И. 461-фонд, 1-рўйхат, 1168-иш, 136-варақ орқаси.

¹⁴ Ўз МДА И. 461-фонд, 1-рўйхат, 1260-иш, 157-варақ.

¹⁵ Верст қадимги рус ўлчов бирликларидан бири бўлиб, 500 саженга, яъни 1, 0668 км га тенг бўлган. Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд.-Т.: Давлат илмий нашриёти, 2001.-Б.435.

¹⁶ Ўз МДА И. 461-фонд, 1-рўйхат, 1315-иш, 337-варақ орқаси.

бўлса, унинг ўқитувчилари ҳам ўша миллатга мансуб бўлиши шартлиги кўрсатиб ўтилган эди.

Татарлар томонидан очилган янги усул мактаблари фаолиятининг тақиқланиши маҳаллий аҳолининг жиддий норозилигига сабаб бўлган. Жумладан, Қўқон уездида ўқувчиларнинг ота-оналари дастлаб Фарғона вилояти ҳарбий губернаторига, сўнгра Туркистон генерал-губернаторининг шахсан ўзига жами 351 киши имзо чеккан, мактабни қайта ташкил этиш ҳақидаги хатни юборганлар. Бироқ уларнинг илтимослари қондирилмаган.¹⁷

Туркистондаги мустамлака маъмурлари ўлка маорифида татар муаллимларини жиддий муҳолифлар сифатида кўрганлар. Шу боисдан ҳам уларга қарши барча усул ва воситаларни қўллаб, қабъий чоралар қўллаганлар. Натижада Туркистон ўлкасида татар муаллимлари томонидан янги усулда мактаб очиш ва маҳаллий аҳоли болаларини ўқитишга маълум даражада чек қўйишга эришилган. Аини пайтда Қозон, Уфа, Оренбург шаҳарларида чоп этилган дарслик ва адабиётларни ҳам “давлатга қарши руҳдаги” нашрлар қаторида эркин савдога чиқариш тақиқланган. Лекин, кўрилган чоратадбирларга қарамай, татар-бошқирд маърифатпарварлари фаолиятини бутунлай чеклаб қўйишнинг имкони бўлмаган. Улар Туркистон ўлкасининг шаҳар, уезд, қишлоқ ва овулларида яширин тарзда ўз фаолиятларини давом эттирганлар.

¹ Долимов.У. Туркистонда жаид мактаблари... Т.: 1992. –Б.18.

¹ Долимов.У. Туркистонда жаид мактаблари... Т.: 1992. –Б.19.

¹ Ўз МДА И. 461-фонд, 1-рўйхат, 1168-иш, 136-варақ орқаси.

¹ Ўз МДА И. 461-фонд, 1-рўйхат, 1260-иш, 157-варақ.

¹ Верст қадимги рус ўлчов бирликларидан бири бўлиб, 500 саженга, яъни 1, 0668 км га тенг бўлган. Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2-жилд.-Т.: Давлат илмий нашриёти, 2001.-Б.435.

¹ Ўз МДА И. 461-фонд, 1-рўйхат, 1315-иш, 337-варақ орқаси.

¹ Долимов. У. Туркистонда жаид мактаблари... –Б.21.

¹⁷ Долимов. У. Туркистонда жаид мактаблари... –Б.21

ФИО автора: Сотиболдиева Султонпошшо Алишеровна

Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети

“Халқаро журналистика” йўналиши

Магистратура бўлими 2-босқич магистранти

Название публикации: «“ЮМШОҚ КУЧ” МАМЛАКАТ ИМИЖИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ИНСТРУМЕНТИ СИФАТИДА»

Аннотация: Ушбу мақолада халқаро майдонда мамлакат имижини шакллантиришда қўллаш мумкин бўлган инструментлардан бири “юмшоқ куч” ҳақида сўз боради. Бугунги кунда бошқа давлатлар билан яхши алоқани йўлга қўйиш учун, биринчи навбатда уларда ижобий таассурот қолдириш лозим. Шунингдек, куч ишлатмасдан омманинг онгига таъсир қилиш, фикрини ўзгартиришда “юмшоқ куч” нинг роли, унинг типлари, ушбу инструментдан самарали фойдаланиб, бугунги кунда халқаро муносабатларда муваффақиятга еришган давлатлар ҳам санаб ўтилган.

Калит сўзлар: “юмшоқ куч”, маданият, Soft Power, Америка

Аннотация: В этой статье разговор пойдет о том как сформировать имидж страны с помощью " мягкой силы". На сегодняшний день чтобы установить хорошие отношения между государствами мы в первую очередь должны оставить хорошие впечатление о себе. А также не применяя силы влиять на ум народа, использовать для этого " мягкой силы", какого его роль в этом, какие типы бывают "мягкой силы", в этой статье перечисляется список стран которые с помощью "мягкой силы" на сегодняшний день достигли успехов в межгосударственных отношениях.

Ключевые слова: «мягкая сила», культура, Soft Power, Америка.

Annotation: This article is dedicated to “soft power”, one of the tools that can be used to shape the country’s image on the international arena. To date the key to establishing good relations with other countries is making a positive impression on them. It also affects minds of the public without use of force. In this article we defined

role of "soft power" in changing the minds, listed its types, ways of effective usage of the instrument and states that have succeeded by "soft power".

Keywords: "soft power", culture, Soft Power, America

Ўтган асрнинг 90-йилларида сиёсатчилар стратегик мақсадларга куч билан эмас, балки маданий ҳамда мафкуравий механизмлар ёрдамида эришиш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблашди ва бу куч "юмшоқ куч" деб атала бошланди. Америкалик сиёсатчи Жозеф Нйенинг фикрича, "...мамлакатнинг жозибали қиёфаси бошқа давлатларнинг жамоатчилик фикрини ўз фойдасига ўзгартириши мумкин. Аммо бу мамлакатнинг ижобий қиёфаси бошқа мамлакатларнинг маданиятини инкор этишини англатмайди"¹⁸. "Куч, – дейди Нйе, – худди об-ҳавога ўхшайди. Ҳамма ҳам у ҳақида гапираверади, лекин ҳамма ҳам тушунавермайди. Фақат шу соҳа мутахассислари об-ҳавони яхши изоҳлаб берганидек, сиёсий кучни ҳам сиёсий арбоблар ва раҳбарлар яхши тушунади ва олдиндан кутилажак натижалар ҳақида тахмин қила олади. Куч яна муҳаббатга ҳам ўхшайди, яъни реал ҳаётдаги шаклини тасвирлашдан кўра уни тасаввур қилиш осонроқ"¹⁹. Айни фикрлардан келиб чиқадиган бўлсак, мамлакатлар имижини шакллантиришга бўлган ёндошув, яъни об-ҳавони билиш, ҳосилнинг яхши бўлишига хизмат қилганидек, натижанинг ижобий бўлишига хизмат қилади.

Бирор бир мамлакат ҳақида бошқа ҳудуд аҳолисида яхши ва ижобий таассурот қолдира олиш, ўша мамлакат имижини шакллантиришга таъсир қилади. Бунда кўплаб жиҳатларга: хизмат кўрсатишдан тортиб мамлакат ички ва ташқи қиёфасигача алоҳида эътибор бериш талаб этилади. Сиёсий фанлар номзоди, Ломоносов номидаги Москва Давлат университети доценти А.Фененко шартли равишда "юмшоқ куч"нинг бир неча типларини келтириб ўтади:

- Онг остига ҳиссий таъсир этиш орқали ижобий таассурот уйғотиш;

- Онг остида антипатия яъни салбий таъсир этиш;
- Ўзаро бeфapқлик ҳисси;
- Ассиметрик, яъни ўзаро таъсир иштирокчиларидан фақат биттаси бошқасида ижобий таассурот уйғотиши кабилар.

“Юмшоқ куч” бу душманларни ишонтириш эмас, балки иккиланувчиларни ўз томонингизга олиш ҳаракатидир”²⁰. Яъни, асосан, мамлакатлар ўртасидаги ўзаро сиёсий майдонларда юзага келувчи “жанг”да айна инструмент(“юмшоқ куч”) мамлакатлар статусини белгилаб беради. Мамлакатнинг имижини салбийдан ижобийга ўзгартиришда унинг маданияти, тарихидаги ёрқин шахслар ёки саҳналарни, турмуш тарзидаги ўзига хосликни намоён этиши лозимдир. Бу ўз навбатида куч ишлатмасдан таъсир қилиш деганидир. Бунда уч жиҳат устунлик қилади: *маданият, сиёсий қадр-қиммат ва халқаро имиж*.

Америка билан боғлиқ бир ҳолатни таҳлил қилсак. Нега Америкага қизиқувчилар, яъни у ерда яшаш ёки ўқишни истовчилар жуда кўп?

Чунки Америка айна шу биринчи жиҳатни ривожлантиришга катта эътибор қаратади. Масалан, фильмлар, телевизион дастурлар, илмий китоблар ва мусиқалар орқали мигрантлар учун ниҳоятда жозибалидир. АҚШда “юмшоқ куч”нинг дастлабки куртакларини Hollywood, Harvard ва Microsoftнинг қанчалик оммалашгани билан белгилашнинг ўзиёқ етарли бўлса керак. Демак, куч ишлатмасдан туриб, кучини намоён қилиб улгурган, дейиш мумкин.

“Юмшоқ куч”да қўрқитиш асло бўлмайди, аксинча танлаш ҳуқуқини бериш орқали таъсир этилади. Жозеф Нйе бунга нисбатан: “бир мамлакатни бошқа мамлакатга хоҳлаган нарсасини буюриш орқали куч ишлатиш эмас, балки “юмшоқ” таъсир этишдир”, деган фикрни билдиради.

2017 йилда “юмшоқ куч” суверенлиги бўйича АҚШ биринчи ўринга лойиқ, деб топилган бўлса, 2018 йилдаги статистика Буюк Британияни бу ўринга лойиқ кўрди. Шунингдек, “юмшоқ куч”ни самарали қўллай олган давлатлар қаторига

Франсия, Германия, АҚШ, Япония, Канада, Швеция Голландия ва Дания ҳам киритилган эди.

Жозеф Нйе “Soft Power: The means to success in world politics” (“Юмшоқ куч”: дунё сиёсатида муваффақиятга эришиш моҳияти”) китобида “юмшоқ куч” бу сиз истаган натижага эришиш учун бошқаларга таъсир ўтказиш қобилиятидир, дея таъриф беради. Агар мазкур ҳолатга мамлакатлар миқёсида олиб қаралса, сиёсий майдонда бирор давлатнинг имижини шакллантиришга хизмат қилади. Бунда уларнинг истаги билан ўз хоҳишингизни бирлаштириб ёки ниманидир таклиф қилиш орқали эришиш мумкин. Яъни, “юмшоқ куч” ўз номи билан куч ишлатмасдан, мажбурламасдан ҳамкорлик қилиш деганидир. Бу ҳамкорликдан нафақат давлатлар, балки халқаро сиёсатдаги барча субектлар, масалан, халқаро ва нодавлат ташкилотлар ҳам фойдаланиши мумкин.

“Мамлакат имижининг юмшоқ кучи уч тамойилга асосланади: унинг маданияти (масалан, жозибадор масканлари), сиёсий қадриятлари (ҳам ички ҳам ташқи томонлама мос келганда), ташқи сиёсати (қачонки, бошқа давлатлар томонидан ҳам қонуний, ҳам ахлоқий ҳомикиятга эга, деб тан олинса)”²¹.

Бирор бир мамлакат жаҳон майдонида истаганича имиж яратиши мумкин, қачонки:

- ☐ бошқа мамлакатлар унинг қадриятларига қойил қолса;
- ☐ маданиятига тақлид қилса ва эргашса;
- ☐ унинг фаравон ва ёркин ҳаётига ҳавас қилса.

“Юмшоқ куч”дан фойдаланиб муваффақиятга эришиш ва ижобий имиж яратишда кўплаб давлатлар ўзига хос тажрибага эга. “...бизнинг сиёсатимиз бошқалар назарида ҳам қонуний тус олса, “юмшоқ куч”имиз янада кучаяди. Америка бу орқали жуда кўп муваффақиятга эришди”²².

Хулоса қиладиган бўлсак, “юмшоқ куч” бу мамлакатнинг маданий ресурсларига асосланган ҳокимият шакли, дейиш мумкин. Яъни, бу шунчаки таъсир қилиш дегани эмас, балки бу таъсир куч ишлатмай туриб, омманинг танловини ўзгартиришга ва шакллантиришга хизмат қилиши ҳамдир. Унинг асосий хусусияти ҳам мана шунда.

Адабиётлар рўйхати:

1. <https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/realnost-i-mify-myagkoy-sily/>
2. <https://www.amazon.com/Soft-Power-Means-Success-Politics/dp/1586483064>”
3. Nye J. Bound to Lead: The Changing Nature of American Power. N.Y.: Basic Books, 1990
4. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Soft_power
5. <https://youtu.be/N9-kWsXGzQ8>

ФИО автора: Jalilov Jonibek Ma'ruf o'g'li

Samarqand Davlat Universiteti Muhandislik grafikasi kafedrası Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Название публикации: «‘QUVCHILARNING CHIZMACHILIK DARSLARIDA BILISH FAOLIYATINI POWERPOINT DASTURI ORQALI FAOLLASHTIRISH YO`LLARI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarning chizmachilik darslaridagi bilish faoliyatini rivojlantirishda grafik tasvirlashning o'rni, zamonaviy AKT dasturlarining o'quvchi-talabalarning fazaoviy tasavvurni o'stirishdagi ahamiyati to'g'risida tushunchalar berilgan. Shuningdek, maqolada PowerPoint dasturi orqali chizmalarni chizishga o'rgatish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: power point, bilish faoliyati, fazoviy tasavvur, geometrik shakl.

Ways to activate students' learning activities in drawing lessons using PowerPoint

Samarkand State University Department of engineering graphics direction of engineering graphics and design theory master's degree Jalilov Jonibek Ma'ruf oghlu

Annotation: *this article provides insights into the role of graphic illustration in the development of students' cognitive activities in drawing lessons, the role of modern ICT programmes in the development of students' spatial imagination. Also in the article there are instructions on how to teach how to draw drawings through the PowerPoint program.*

Keywords: *power point, cognition activity, spatial imagination, geometric figure.*

Jahondagi ko'pgina mamlakatlarning taraqqiyot darajasi ta'limning qanchalik rivojlanganligi, yangi innovatsion texnologiyalarni ta'lim olish jarayonida qo'llanilishi bilan o'lchanadi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etishning muhim shartlaridan biri ham ularning zamonaviy ta'lim tizimini qanchalik rivojlantira olganligiga bog'liq. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning bosh omili, obrazli va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish bo'lib, bu o'z navbatida o'quvchi shaxsining quyidagi sifatlari bilan uyg'unlashishi kerak:

1) ziyraklik , 2) faollik , 3) mustaqillik , 4) tashabbuskorlik , 5) ishga ijodiy yondashish , 6) qiziquvchanlik , 7) mustaqil bilim egallash .

O'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish jarayoniga grafik ishlar va Power Point dasturidan foydalanish orqali ta'sir ko'rsatish mumkin. Bir tomondan, chizmachilik darslarida PowerPoint dasturidan foydalanish o'quvchilarning tasviriy tafakkurining rivojlanishiga , ikkinchi tomondan esa ijodiy qobiliyatini va mantiqiy tafakkurning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qitish jarayonida o'quvchilarning chizmachilik darslarida PowerPoint dasturi asosida ijodiy qobiliyatlarini, fazoviy tasavvurini, tafakkurini rivojlantirish sohasida bajariladigan ishlarni yanada takomillashtirishda o'quvchilarning o'quv ishlarini ratsional tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Bu o'quvchilarni faqat bilimlar sistemasi bilan ta'minlabgina qolmay, balki ularda fikrlash orqali PowerPoint dasturi asosida turli grafik masalalarni yechish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarni murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarish, o'qish va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o'rgatishdan iboratdir. Chizmachilik darslarida o'quvchilarni fazoviy tasavvurni rivojlantirish va ijodiy jarayonga yo'naltirish yo'llari quyidagi mazmunda bo'ladi:

Birinchidan, PowerPoint dasturi asosida taqdimot tayyorlanib, biror detalning chizmasini yasash va uning berilgan chizmasini o'qishga doir topshiriqni bajarishda ularga tanish bo'lgan detalning geometrik shaklini fikran aniq tasavvur qila bilish qobiliyatini rivojlantirish ;

Ikkinchidan, PowerPoint dasturi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvur bazasini kengaytirish. Chizmachilik fanidan o'quv topshiriqlarni bajarish jarayonida fazoviy tasavvurlarning to'plangan zaxiralari asosida PowerPoint dasturda animatsiyalardan foydalanib, ijodiy masalalar tuzush va uning yechilish yo'lini ketma ketlikda bajarishga asoslanadi.

Ta'limdagi faollik o'quvchilarda o'rganilayotgan mavzuga, yuzaga kelgan muammoga qiziqishi barqaror bo'lishi , butun diqqat e'tibori ularga qaratilgan bo'lishi bilan ajralib turadi . PowerPoint dasturi asosida chizmachilik fanini o'qitishda ularning quyidagi turlari ishlatiladi :

1. O'quv materialini darslik bilan ishlash asosida Power Point dasturida (animatsiya)dan foydalanib elektron shaklidan foydalanish. Masalan, tutashma, aylanani teng bo'laklarga bo'lish singari mavzularni mustaqil o'rganish ijobiy natijalar beradi;
2. Yangi materialda o'qituvchi tuzgan savolga javob topish. Bunday vazifalarda o'quvchilar matnlarni boshqachma-bosqich chizishga harakat qiladi;

3. Biror paragrafni o'qib undan asosiy vazifani, bajargan ishning rejasini tuzish bunday ishni ba'zi masalalarni yaxshi tushunmaydigan o'quvchilarga berish maqsadga muvofiqdir.

4. Darslikning elektron shaklida Power Point dasturidan foydalanib rasmlar bilan ishlash. Masalan, berilgan rasmdagi chizmalar bo'yicha qator savollar tuzish mumkin.

O'quvchilarning mustaqil faolligi, fanga bo'lgan qiziqishini oshirishda grafik vazifalar katta rol o'ynaydi. Power Point dasturida chizmachilik fanini o'qitishda grafik tasvir bilan bog'liq bo'lgan masalalarning hammasi grafik masalalar deyiladi. Grafik vazifalar mavzular bo'yicha optimal darajada ishlab chiqilgan sistemadan iborat bo'ladi. O'quv dasturida ko'rsatilgan umumiy xarakterdagi grafik vazifalarni murakkabligiga qarab aniqlashtirish lozim.


Grafik vazifalarni tuzishda quyidagi ba'zi metodik va didaktik talablarga amal qilish zarur:

- grafik vazifalar o'qitishning hamma bosqichlarida qo'llanilishi shart ;
- oddiydan murakkabga qarab qat'iy ketma-ketlikka ega bo'lishi zarur ;
- har bir masala darsning ta'lim - tarbiyaviy vazifalariga javob berib, o'quv materialini o'zlashtirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi shart ;
- masalalarni bajarish jarayonida o'qituvchi zarur metodik yordam va maslahatlarini berib, o'quvchilar tomonidan bajarilgan hamma vazifalar tekshirilishi va baholanishi zarur ;
- vazifalarni bajarishda yo'l qo'yilgan xatolar o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinishi shart .

Chizmachilik fanlarini o'qitishda Power Point dasturidan foydalanib proektsiyalash asoslari grafik faoliyatning xarakteriga qarab quyidagi guruhlariga ajratiladi.

1. Tasvirning yoki nuqtaning yetishmovchi proyeksiyasini topish.
2. Berilgan koordinatalar bo'yicha nuqtaning tasvirlar yasash masalalari .
3. Chizmani o'qishga doir masalalar.
4. Nuqtaning yoki tasvirning koordinatalarini o'zgartirishga doir masalalar .

8- sinf uchun chizmachilikdan " Proektsiyalash asoslari ", 9- sinf uchun "Kesim va qirgim" boblari bo'yicha Power Point dasturida elektron qo'llanmaning tarkibiy qismi bo'lgan animatsiyali ko'rinishlarni quyidagi tartibda tayyorlash va chizmachilik darsi jarayonida qo'llash mumkin. Chizmachilik darsi jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish va PowerPoint dasturida ishlash nafaqat proektsiyalash mohiyatini ochib beradi , balki o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiradi.




Chizmachilik darslarida PowerPoint dasturidan foydalanib ijodkorlikka yo'naltiruvchi masalalarga misollar va testlarni ko'rsatish mumkin.

Jadvalda berilgan modelga to'ri ko'rsatilgan proyeksiyalarini toping test-1

Kurinish	A	B	V	G	D
H-gorizantal	6				
V-frontal	12				
W-profil	3				

1-jadvalda berilgan modelning yaqqol tasviri asosida 3-ta (H-gorizantal, V-frontal, W-profil) ko'rinishlarini Power point dasturidan foydalanib o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda turli xil ranglar bilan animatsiya bo'limidan foydalanib ishlab chiqiladi.



Y.A.Komenskiy –“Buyuk didaktika” asarida - oltin qoidani ifodalagan holda ko'rsatmalilik prinsipining 3 ta asosini ifodalagan: birinchidan, avval sezmagani narsasi haqida kishida bilim ham bo'lmashligi, ikkinchidan, bilimning to'g'ri va aniqligi ham sezgilarning guvohligiga bog'liq, uchinchidan, sezgilar - xotiraning eng ishonchli vositasi. Y.A.Komenskiy o'z taklifini Plavtning qo'yidagi “Eshitganini aytib beradigan 10 ta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan 1 ta guvoh afzal” fikri bilan mustahkamlaydi.


Biz chizmachilik darslarida qo'llash mumkin bo'lgan ba'zi o'yinli texnologiyalar asosida o'quvchilarni shu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiramiz. Quyida o'quvchilarning fazoviy qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin bo'lgan o'yinli texnologiyalardan birini keltirib o'tamiz.

Kim tez yasaydi


O'yinning sharti. Har xil geometrik sirtlardan iborat detalning ko'rinishlariga qarab uning modelini yasash. Buni ijodiy loyihalash o'yini deyish ham mumkin.

Maqsad. O'quvchilarning ijodiy loyihalashga doir ko'nikmalarini fazoviy tafakkurlarini takomillashtirish, chizmalarni o'qish bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash ularga detallarni tahlil qilishni o'rgatish.

Bizga kerakli bo'lgan jihozlar. Har xil geometrik sirtlarning bir nechtdan, aksariyati parallelepiped tipidagi modellari (3-chizma), mazkur sirtlardan tuzilgan modelning ko'rinishlari (4-chizma).



3-chizma. Har xil geometrik sirtlarning bir nechtdan, aksariyati parallelepiped tipidagi modellari.



4-chizma. Mazkur sirtlardan tuzilgan modelning ko'rinishlari.

Chizmachilik darslarida o'yinli texnologiyalardan to'g'ri va oqilona foydalanish o'quvchilarda bu fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va dars samaradorligiga ham katta ta'sir qiladi. Xulosa qilib aytganda O'quvchilarning chizmachilik darslarida bilish faoliyatini Power Point dasturi orqali faollashtirish muhim bo'lib ularning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga amaliy yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.I.Ro'ziyev, A.O. Ashirboev, Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. Toshkent-Yangi asr avlodi. 2010.

2. Ruziyev E.I., Ashirboyev A.O. Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. T.Fan va texnologiya. 2010.
3. I.Rahmonov, A.Valiyev. Chizmachilik, "Voriz-nashriyot" Toshkent-2011.
4. Adilov P, Tashimov N va Xoshimova X. Chizma geometriyada murakkab va qiyin masalalarni berish talabalarda fazoviy tafakkurni oshirish vositasi sifatida - T. Pedagogik ta'lim , 2005 y
5. Xolimov M. "Fazoviy tasavvurlash va mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishning tezkor usuli". Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU , Respublika IAK materiallari, 2005 y.
6. S.I.Dembinskiy, N.O.Sevastopolskiy «O'rta maktab chizmachilik darslari» « O'qituvchi » 1978 y.
7. Botvinnikov A.D. va boshqalar . « CHizmachilik » Toshkent "O'qituvchi", 1989 y.

ФИО автора: Tashkentboyeva Irodaxon Narimanovna

Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Название публикации: «NAVOIY QIT’ALARINING MA’NAVIY-AXLOQIY MASALALARI HAQIDA»

Qit’a Navoiy lirikasida alohida mavqega ega bo‘lgan janrlardan biridir. U shakliga ko‘ra g‘azalga yaqin turadi. Undan faqat dastlabki bayt qofiyasining erkinligi bilan farqlanadi. U ko‘proq falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ma’naviy masalalarni tilga olishi bilan ajralib turadi. Qit’a aruzning istalgan vaznida yaratilishi mumkin.

Haq taolo xoni in’omi-yu karami omi borida o‘zgin nima tilaginning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi

Tengri xonin ochuq aqida qilib,

Xalqdin ro‘ziy istagan gumroh

Uyladurkim tengiz qirog‘inda

Ro‘za ochmoqqa kimsa qozg‘oy choh.

Eng avval sarlavha mohiyatini anglab olishga harakat qilamiz. Uni “yaratganning dasturxonini tuhfalari-yu umumiy, barchaga barobar karami bo‘la turib, boshqa (kishi)lardan biror narsa tilagan (kishi)ning xom tamasi-yu oxiri yaxshilik bilan tugamagan zoti” haqida deb tabdil qilishimiz mumkin. Demak, qit’a ayrim bandalarning noshukurligi hamda behuda ta’magirligi haqida.

Qit’a mazmunini aniqroq tasavvur etish uchun har bir misra, har bir so‘z ustida bosh qotirishga to‘g‘ri keladi. Bir qarashda unda begona, notanish va tushunarsiz so‘z yo‘qqa o‘xshaydi. Ammo Navoiy qo‘llagan so‘zlarning barchasi ham lug‘atlardagi izohlar doirasiga sig‘avermasligini, qolaversa, she’riyatda so‘zlarning o‘z lug‘aviy ma’nolaridan ko‘ra ancha kengroq mazmun qamroviga ega bo‘lishini ham nazarda tutish lozim bo‘ladi.

Haqning marhamatiga emas, balki o‘z rizq-u ro‘zi o‘rniga xalq (boshqa bir inson)ning qo‘li bilan beradigan narsalariga umidvor bo‘lgan, ta’magir, yo‘lini yo‘qotgan odam (“gumroh”) obrazini tasavvur qilish qiyin kechmaydi.

Ana shunday yaramas qiyofali kimsani kitobxonning ko‘z oldiga yanada aniqroq keltirishi uchun bir qiyos tavsiya etiladi, uning o‘xshashi ko‘rsatiladi: dengizning qirg‘og‘ida bo‘la turib, og‘iz ochish uchun lozim bo‘ladigan suvni topishga intilayotgan, shu miqdordagi suvni topish ilinjida ayni mana shu yerdan quduq qaziyotgan odam timsoli shu vazifani ado etadi.

Qit‘aning go‘zal shakli, teran ma‘nosi, mutafakkir adib qalamidan chiqqan ifoda yo‘sini kishini o‘y va mushohadaga chorlaydi. Bu o‘y va mushohadalarning esa yanada yangi va munosib kuzatish va xulosalar sari yetaklashi shubhasizdir.

Navoiy qit‘alari mavzu va shakliga ko‘ra rang-barang. Quyidagi qit‘a komil inson haqidagi tasavvurlarga aniqlik kiritishi bilan e‘tiborlidir:

Tavozu’ yaxshi, ammo yaxshiroqdur
Agar da’b etsa ani ahli davlat.
Erur ham afv xo‘b-u, xo‘broq ul –
Ki, zohir bo‘lg‘ay el topqonda qudrat.
Ato ham turfa ishdur, turfaroq bil,
Agar yo‘qdur aning yonida minnat.
Hakim insoni komil debtur ani
Ki, bo‘lg‘ay zotida bu necha xislat.

Tavozu’ – adablilik, o‘zini past va kamtar tutish degani. U, Navoiy talqinicha, hamma uchun ham yaxshi, ammo “ahli davlat”, ya‘ni qo‘li uzun kishilarning bu xususiyatni o‘zlarining doimiy fazilatiga aylantirishi yanada “yaxshiroqdur” (“da‘b”ning ma‘nosi “odat”, “qiliq”, “xislat” demakdir).

Ikkinchi xislat kechirimlilik. Navoiy uni “afv” so‘zi bilan ifodalaydi. Bu xislat ham barchaga birdek taalluqli. Ammo kishining mavqei baland, imkoni ko‘p bo‘lganda (“qudrat topqonda”) shu xislatni ko‘rsata olsa yanada yaxshiroq (“xo‘broq”) bo‘ladi.

Boshqalarga xayr-ehson, tuhfaralar qilish ham inson kamolotidan nishona bo‘la oladi. Ammo himmat qilgandan keyin uni yuzga solmaslik, minnat qilmaslik lozim. Beruniy aytganidek, “minnat himmatni yo‘q qiladi”.

Alisher Navoiyning xulosasi shu: kimda mazkur xislatlar mavjud bo‘lsa, u “insoni komil”dir!

Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi (xavfi, vahimasi) ham

“Jahon ganjig‘a shoh erur ajdaho”

Ki, o‘tlar sochar qahri hangomida.

Aning komi birla tirilmak erur,

Maosh aylamak ajdaho komida.

Afsonalarga ko‘ra katta boylik va xazinalarni ajdaholar qo‘riqlar ekan. Xazina ilinjidagi odam, albatta, ajdahoga ro‘para keladi. Navoiy shu asosga tayanib, ajdahoni qahrga kirgan paytida og‘zidan o‘t sochishini, ya‘ni vahshatga aylanishini tasvirlaydi. Xulosa shuki, kimdakim ajdahoning yaqinida bo‘lsa, uning tirikchiligi ajdaho sochgan o‘tlar, olovlar ichida yashashdan iborat bo‘ladi. Albatta, bu ramziy tasvirdir. Uning kaliti esa qit‘aga qo‘yilgan sarlavhada berilgan: “Shohni ajdahoga nisbat qilib tururkim, ganj umidi ham andin boru ranj biymi (xavfi, vahimasi) ham”.

Yozuv taxtasi ustida(gi qog‘ozda) yurayotgan qalam shu yashirin sirlardan xabar beradi. Demak, shoirning ko‘plab g‘azallari to‘qqiz, o‘n bir va o‘n uch baytdan iborat. Ammo ular yetti baytdan kam (“o‘ksuk”) emas. Buni shoir boshqa bir hodisa bilan qiyoslaydi. Modomiki, osmon (gardun) yetti qavatdan iborat ekan, ularning har bir qavati uchun shoirning g‘azallari o‘sha martabaga mos va munosibdir. Zero, ularning hozirgacha ham butun insoniyatni maftun etib kelayotgani buning isbotidir.

Alisher Navoiy qit‘alari o‘quvchini ma‘naviy jhatdan yuksalishga, axloqiy jihatdan komil inson bo‘lishga undaydi. Shunday ekan, ularning ta‘lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni beqiyosdir.

Adabiyotlar:

1. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. – Toshkent: Fan, 2007.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 1-jild. – Тошкент, 1987.

ФИО автора: Хасанбоева Гулхаё Химмат қизи,

Ўзбекистон тарихи мутахассислиги 2-курс магистранти,

Фарғона давлат университети

Название публикации: «СОВЕТ ҲОКИМИЯТИ ЙИЛЛАРИДА МАРКАЗИЙ
ФАРҒОНА ЕРЛАРИНИНГ ЎЗЛАШТИРИЛИШИ ТАРИХИГА ДОИР АЙРИМ
ФИКР-МУЛОҲАЗАЛАР»

Иккинчи жаҳон урушидан кейинги йилларда Ўзбекистон ССР иқтисодиёти фақат бир томонлама ривожлантирилди. Ушбу сиёсатдан кўзланган мақсад – хомашё ишлаб чиқаришни янада кўпайтириш, ўлкани пахтачилик базасига айлантириш эди. Аини мақсадлардан келиб чиққан ҳолда, марказ ҳукумати янги ерларни ўзлаштиришга эътиборини қаратди.

XX аср 50-йилларининг иккинчи ярмидан бошлаб Ўзбекистон ССРда кенг кўламли кўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш ишлари олиб борилди. Шу даврдан бошлаб қишлоқ хўжалигида пахта яккаҳокимлиги сиёсати янада кучайди. Ҳамда, марказ буйруғи билан пахта экин майдонлари ҳажми йилдан-йилга кенгайтириб борилди. Ўзбекистоннинг биринчи Президенти И.А.Каримов ушбу ҳолатга қуйидагича баҳо берган эди: “Экин майдонлари таркибида сўнгги вақтларга (1990-йилга) қадар пахта деярли 75 фоиз майдонни эгаллаган эди. Дунёнинг бирорта ҳам мамлакатада пахта монополияси бу қадар юқори даражага кўтарилмаганди. Бу ҳол ернинг кучсизланишига тупроқ унумдорлиги пасайишига, тупроқнинг бузилиши ва нураши жараёнлари ортишига олиб келди”²³.

Дарҳақиқат, совет ҳукумати пахта монополиясидан манфаатдор эди. Шу сабабли ҳам Ўзбекистон ССРнинг барча ҳудудларида кенг кўламли янги ерларни ўзлаштириш ишларини олиб борди. Марказ ҳукумати пахта етиштириш учун қулай табиий шароит ва имкониятга эга Фарғона водийсига айрича эътибор қаратди. Хусусан, собиқ ССР Министрлар Советининг 1952 йил 2 сентябрдаги

²³Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: “Ўзбекистон”, 1998. – 511 бет.

“Пахтачиликни келгусида ривожлантириш учун Ўзбекистон ССРнинг Андижон, Наманган ва Фарғона вилоятларидаги ерларни суғориш ва ўзлаштириш тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Қарорда яқин 4-5 йил ичида, яъни 1953 йилдан бошлаб Марказий Фарғонада 65 минг га кўриқ ерни ўзлаштириш масаласи кўриб чиқилди. Айни тadbир советларнинг асосий вазифалари жумласига кирди. Шу боис 1951-1955 йилларда ҳамда 1952 йил бўлиб ўтган ЎзКП(б)нинг IX сезди резолюцияларида пахтачиликни янада юксалтириш жумладан, Фарғона водийсидаги суғориладиган ерлар ҳажмини кенгайтириш ва кўриқ ерларни ўзлаштириш долзарб вазифалар эканлиги таъкидлаб ўтилди.

Шу билан бир қаторда совет ҳукуматининг кўчириш сиёсатига мувофиқ чўл (ўзлаштириш кўзда тутилган) ҳудудларига турли аҳоли турур жойларидан оилалар кўчириб келтирилди. Ҳамда кўчириб келтирилаётган аҳоли вакиллариининг меҳнатлари билан чўл ҳудудларини ўзлаштириш учун сув иншоотлари барпо этилди. Хусусан, 1951-йилда Марказий Фарғонанинг йирик жамоа хўжаликлари (колхоз) ташаббуси билан бир қанча хўжаликлараро каналлар қазилди.

Марказий Фарғонанинг янги ерларига 1952-йил Андижон, Фарғона ва Наманган вилоятларидан 2060 нафар деҳқон оиласи кўчириб келтирилган. Ҳукумат томонидан белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида, ЎзКП МҚси 1952-йил 16-сентябрда қабул қилган қарорда Марказий Фарғона ерлари ўзлаштириш ҳамда, суғориш бўйича амалий вазифалар белгиланди. Шунингдек, 1953-йилдан 1958-йилга қадар чўл ерларидан 36 минг га ҳажмида ўзлаштирилиши қайд этилди.

Ўзлаштирилган кўриқ ва бўз ерлар умумий майдони (1953 йил 1 январгача) 173,2 минг га ни ташкил қилди. Шундан Фарғона вилояти бўйича 89,6 минг га майдон тайёрланиб жамоа ва давлат хўжаликлари ихтиёрига (ўзлаштирувчиларига) берилди. Марказий Фарғонанинг Фарғона вилояти ҳудудидаги ерларни ўзлаштиришга 11 та кўчма жамоа хўжалиги ва 10 та давлат хўжалиги ҳамда 64 та кўчма бригада қабул қилинди.

Марказ ҳукуматининг чўлга “хужум” - ўзлаштириш тadbирлари аста-секин оммалашиб борди. Хусусан, 1952-йил 16-ноябрдаги ЎзКП МҚ ва ЎзССР

Министрлар Советининг қарорига асосан Марказий Фарғонанинг 65 минг гектар янги ва қўриқ ерларини суғориш ишлари кўриб чиқилди. Жумладан, ушбу рўйхатга кўра, Ёзёвон ва Қизилтигин чўллари 30 минг гектар, Улуғнор канали тизими 6 минг га, Охунбобоев номли канал тизими бўйича эса 14 минг га ерларни ташкил этди. Бундан ташқари, водий вилоятларидаги мавжуд 15 минг га майдонни эгаллаган қўриқ ва қаровсиз ётган ерлар ҳам киритилди.

Марказ томонидан кўплаб ерлар ўзлаштирилиб, пахта майдонлари ҳажми ортиб борганига қарамай, давлатнинг режаси тўлиқ бажарилмас эди. Масалан, 1957 йилда Фарғона вилоятининг 17 дан фақат 4 та райони, жумладан Охунбобоев, Қувасой, Тошлоқ ва Қувадаги 180 дан атиги 60 та колхоз давлат пахта териш режасини бажарган²⁴. Кейинчалик 1958 йил 10-февралда Ўзбекистон ССР Министрлар Совети ва Ўзбекистон КП МҚ “Янги ўзлаштирилаётган қўриқ ва бўз ерлардаги пахта ҳосилини контракция қилиш шартлари тўғрисида”ги қарорни қабул қилди²⁵.

Ҳамда, 1958 йил 21 апрелда Ўзбекистон КП МҚ ва Ўз ССР Министрлар Совети “Марказий Фарғонадаги янги ва қўриқ ерларни суғориш ва ўзлаштириш бўйича ишларни кучайтириш тўғрисида”ги қарорни қабул қилди²⁶. Бироқ, ушбу қарор ижросига кўра, Наманган вилоятидаги Охунбобоев номли канал тизими бўйича экиш учун тайёрланган 5000 га ердан фойдаланилмагани аниқланди. Шунингдек, Фарғона вилояти Оқолтин массивида тайёрланган 3,5 минг га ердан фақат 1,2 минг га пахта экилгани ҳам эътироф этилди.

Фарғона вилоятидаги ўзлаштирилиши лозим бўлган ерлар майдони 89,6 минг гани ташкил қилиб, вилоят бўйича 1953 йилдан 1962 йилнинг 1 декабрига қадар 26 630 га янги ва қўриқ ерлар ўзлаштирилди. 1963 йилгача эса Марказий Фарғонада умумий 60 минг га қўриқ ер ўзлаштирилган эди. Ўзлаштирилган ерларда пахтачиликка ихтисослашган Бўз, Ёзёвон ва Задарё (Мингбулоқ) туманлари ташкил этилди. Азалдан суғориб келинган ерларда ҳосилдорликни

²⁴ ФВДА, 1126- фонд, 2-рўйхат, 278-йиғма жилд, 2-варақ.

²⁵ Ўзбекистон ССР тарихи. IV том – Тошкент, 1971. – 67 бет.

²⁶ Комилов А. Ўзбекистонда суғориш тизими, ривожланиши: ютуқ, муаммо ва оқибатлар. –Т.: Академнашр, 2016.– 190 бет.

кўрсаткичларини кўтаришда Катта Фарғона канали улкан роль ўйнади. Натижада, 1963 йил ҳосилдорлик га. дан 24 центнерни ташкил этди. Совет ҳукуматининг ўзлаштиришга жиддий эътибор қаратиши натижасида, пахта ва суғориладиган ер майдонлари ҳажми кенгайди. Фарғона вилоятида 1953-1955 йилларда ер ўзлаштирилиши жараёнлари жадаллашганлиги туфайли ҳар йили 4000-4500 га янги ер очилиб, экин майдонларига айлантирилди. Бунинг натижасида пахта етиштириш ҳажми кўрсаткичлари ортди.

Қўриқ ва бўз ерларни ўзлаштириш ишларига Ўзбекистон ҳудудидаги бошқа миллат вакиллари ҳам жалб қилинди. Хусусан, ҳукумат буйруғига асосан Марказий Фарғона ерларини ўзлаштириш ишларида корейс миллатига мансуб аҳоли ҳам иштирок этди. Жумладан, Бўз туманида 249 нафардан иборат корейс миллатига мансуб 76 оила яшаган. Уларнинг барчаси собиқ иттифоқ даврида, яъни XX асрнинг 40-50 йилларида Узоқ Шарқдан Ўрта Осиёга депортация қилинган корейслар авлодлари эди. Ўша даврда фақатгина туманда 2 нафар корейс жамоа хўжаликлари мавжуд бўлиб, улар Марказий Фарғонанинг қўриқ ва бўз ерларини ўзлаштиришда фаол иштирок этган.

Фарғона вилояти ҳудудида ҳам янги ерларни ўзлаштиришга катта эътибор қаратилди. Фарғона вилоятида 15 йил (1966-1980) мобайнида бу борада кўплаб ишлар амалга оширилди. Шунингдек, Марказий Фарғонанинг 42,2 минг га дан зиёд ери ўзлаштирилди. Экин майдонлари қарийб 300 минг га етди. Ҳар бир ҳудуд учун алоҳида ҳосил режаси белгиланди. Бунга мисол қилиб, 1957 йилда Олтиариқ районида 22,5 центнер, Куйбишев районида 21,7 центнер ҳосил режаси берилганини кўриш мумкин²⁷.

1953-1972 йиллар давомида Каркидон, Қўрғонтепа сувомборлари қурилди²⁸. Фарғона водийсидаги қўриқ ерларни ўзлаштириш мақсадида ташкил этилган “Ферганаводстрой”, “Андижанводстрой” ва “Наманганводстрой” трестлари ҳамда

²⁷ ФВДА, 1126- фонд, 2-рўйхат, 278-йиғма жилд, 9-варақ.

²⁸ Гафуров А. Фарғона мелиораторларининг вазибалари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Т, 1981. №10. – 55 бет.

вилоятларнинг суғориш бошқармалари билан биргаликда 19 йил мобайнида 1634039 метр ҳажмда ер қазилди, бетон ва темир-бетон ишларини амалга оширди.

Шунингдек, Ўзбекистон КП МҚнинг 1964 йил 21 сентабрдаги 1965 йилда янги ва бўз ерларни экишга тайёрлаш тўғрисидаги қарори ҳам ушбу жараёнларнинг ривожига таъсир кўрсатди. Жумладан, Фарғона вилоят қишлоқ ижроия қўмитаси томонидан 1965 йил вилоятда янги ерлар ҳажмининг мавсумда ошиб борди, 6093 га ни ташкил этди. Ҳамда, 1964 йил 20-октябр ҳолатига кўра, 279,3 га майдон 1965 йилдаги янги ва бўз ерлардаги экинлар экиш учун тайёрланди.

Марказий Фарғона ерларини ўзлаштириш 1970-йилларда янада жадаллашди. Чунки, пахта хомашёсини кўпроқ етиштириш учун янги, бўз ерлар зарур эди. Масалан, кўрик ўрнида барпо этилган Бўз туманида 1978 йилнинг ўн бир ойи давомида 40 га ер ўзлаштирилди. Ҳудуддаги 1442 га ернинг мелиоратив ҳолати яхшиланди. Ҳамда, 1100 га ердаги суғориш тармоқлари реконструкция қилинди. Бундан ташқари 14 км. йўл қурилиб шағал тўқилди, 16,5 км. ёпиқ зовур қуриб фойдаланишга топширилди. Буларнинг барчаси ушбу ҳудудда яшаётган аҳолининг меҳнатлари эвазига амалга оширилди.

Хулоса қилиб айтганда, XX асрнинг 50-70 йилларида Марказий Фарғона ерларида ўзлаштириш ишлари жадал, экологик мувозанат ҳисобга олинмай, марказ манфаатлари асосида олиб борилди. Фарғона водийсидаги янги ерларни ўзлаштириш ишлари айнан 1953 йилдан авж олди. Ҳамда, кўрик ва бўз ерларни ўзлаштириш учун давлат бюджетидан ва жамоа хўжаликларининг бўлинмас жамғармасидан маблағлар (капитал) ажратиш ҳажми йилдан-йилга ортиб борди. Ўзлаштирилган ҳудудлардаги кўрик ва бўз ерлар ўрнида йирик пахта майдонлари барпо этилди. Кейинги йилларда эса, янада пахта ҳосили кўрсаткичларини ортиб бориши учун ҳисобсиз равишда захарли кимёвий моддалардан (пестицид) фойдаланилди. Айтиш ҳолатларнинг барчаси ўлкамиз экология ва атроф-муҳитини бузилишига, издан чиқишига олиб келди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.

2. Комилов А. Ўзбекистонда суғориш тизими, ривожланиши: ютуқ, муаммо ва оқибатлар. – Тошкент: Академнашр, 2016.
3. Ўзбекистон ССР тарихи. IV том. – Тошкент, 1971.
4. Ғафуров А. Фарғона мелиораторларининг вазифалари // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. – Тошкент, 1981. №10.
5. www.google.uz
6. www.arxiv.uz

ФИО авторов: TULAGANOV GULOM MINGBAYEVICH, KURBONOV FARRUKH FARMON O'G'LI

Samarkand State University "Music education and art" 1st year masters

Название публикации: «THE IMPORTANCE OF UZBEK PEOPLE'S ORAL CREATION AND SURKHANDARYO - KASHKADARYA FRIENDSHIP ROADS IN LESSONS OF MUSIC CULTURE»

Annotation: This article is about the importance of folklore and **epic** traditions in the lessons of music culture, the positive impact on the education of students, the appreciation of our classical and folk music, the importance of it in our country. 'tabor is thought of.

Keywords: classical, musical culture, folklore, epic, local style, tradition, musical heritage.

The musical culture of the Uzbek people has a very long history. During the course of historical development, folk classical music, traditional professional music, ways of folk composition, as well as folklore and amateur musical heritage have complemented each other in similar forms and styles of performance. This musical heritage of ours is still a part of our spiritual culture. Thanks to independence, attention to our national and spiritual values, traditions, forgotten and historically valuable traditions, the process of their redevelopment has become a priority. Attention to our national values, traditions and spiritual wealth has risen to the national level. From the first years of independence, a lot of work has been done to carefully preserve and restore the spiritual riches of our ancestors, including musical culture, as well as to keep pace with the times. In this regard, the main factor is the great spiritual wealth inherited from our ancestors.

It is known from history that our musical culture, which is the main link of our spirituality, our traditional songs, maqom performances have always been recognized as spiritual food in the daily life of our people. The people sought salvation in music in difficult times, and songs and music accompanied them in happy days. After all, in today's blessed Independence Day, at a time when we are realizing our identity, it is natural to rely on our national musical culture, which is part of our great spirituality, inherited from our ancestors, to address our traditional songs. holdir. All this plays an

important role in the upbringing of a harmoniously developed generation, in the formation of the spiritual worldview of young people.

Our traditional music and songs have always called people to faith, kindness and humanity. Even today, without losing its relevance, it remains a key factor in the formation of the consciousness of the working people, as a tool for the education of a harmoniously developed generation. The art of singing, music, dance, folklore performance is one of the ancient arts, which appeared and developed in close connection with the life and work of the people of national music. Our country has started a completely new society , a new life and a new life. There have been changes in the hearts, minds and imaginations of our people.

As noted by the First President of the Republic of Uzbekistan, the issue of spirituality has many factors, such as the history of the nation, moral and religious values, cultural heritage, traditions, national ideology, patriotism and humanism, national identity. and ultimately serves as a key criterion in determining a person's identity. "The future of our people," writes the First President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov, "depends, first of all, on itself, its spiritual power and the creative power of the national consciousness. The natural pursuit of material well-being should not impede the nation's need for spiritual and intellectual growth. Spirituality and enlightenment have always been the strongest feature of our people for centuries. "

Musical culture is distinguished by its diversity. In particular, the rich musical heritage of the Uzbek people, whose deep roots go back to ancient times, has not disappeared from our daily lives. It includes high samples of folk art, folklore performance, melody structure, content-rich instruments and songs, performance of epics and a series of complex performances of so-called maqom music. In addition, the works of folk composers, who have made a significant contribution to the folk music culture at all times, also play an important role. At the end of the XIX century began a period of change in the Uzbek musical culture. This, of course, is due to the Russian occupation of Turkestan. It is necessary to study this issue from two perspectives. Because in some cases, if we observe the negative impact of national music on our culture, on the other hand, it is necessary to recognize that it was a period of development. Because the note into the record, o`lkamizda national scientific study

of folk music - the curds and a significant impact on the development in the field of ethnography.

Folk art - artistic, creative-practical and amateur activity of the people; The traditional material and non-material culture, folklore, art works , folk music, folk music (folk), National Theater (Performing Arts), folk dance (the gallows), puppets, and wooden leg Games (Circus), fine and applied decorative arts and technical and artistic hobbies. The types of folk art that are involved in the creation and creative process are shaped by the people's way of life, living conditions, level of social work, passed down from generation to generation, from teacher to student, are constantly improved, polished, become more traditional and finally professional. live performance conditions and has reached us in daily practice.

Examples of folk art reflect the people's way of life, social and domestic life, labor, nature and society, beliefs and religious beliefs, feelings about man and the world, the world of art, education, happy and just times. Folk art has been developing since ancient times . With the development of society and the strengthening of the division of labor, the specialization of some talented people in the genres of folk art increased. Thus were born the art of bakhshis, clowns, amateurs, puppets, dancers, mashkas, and the arts .

Folk art plays an important role in the emergence and development of professional art. In turn, professional art has influenced and enriched the development of folk art. The need to preserve and develop folk art in society, to restore the lost, stems from the desire to meet their aesthetic needs, to live well and improve their lives. Today, great opportunities and conditions have been created for the preservation and development of folk art. This is evidenced by the existence of museums and nature reserves nationwide, the scientific study and publication of folk art, the existence of many folklore and ethnographic ensembles, and the promotion of artistic interests. Art nson speech with the formation of folk art built ixodining coordination of types and styles also began to appear.

Myths, legends, fables, anecdotes, proverbs, riddles, fairy tales, epics, songs, assistants, oral dramas, etc. are the main genres of folk art, and they are not only examples of word art, but also perform certain social functions. Mas dead: Okay fine, ho'shho'sh, tureyturey, chureychurey types of songs, such as the labor involved in the

process, Yory, herbs and teachers greet the bride, yig'iy'o'qlov, artistic, Süyel Korea as various ceremonies connected with the couple. Folklore genres differ not only in their ideological features, but also in their methods of performance (solo performance, group performance, sozli, sozeiz). One is for singing, the other is for narration, the other is for demonstration, or the other is for singing, playing, and telling. Despite the diversity of folklore genres, sometimes highly functional and rigorous, they form a coherent artistic system.

See the folk styles of social and economic development are closely related. According to the historical changes in the life of the people, they also changed. Some genres or patterns have completely disappeared and new ones have emerged. Therefore, they are multi-layered and have left their mark on several periods of long performance. Genres step taraqqiyoti and tarixiytipologik point of view, the most ancient times, the majority of international q pm, myths, and the families of seeds to find out about the legends and myths and folklore articles, applause and curses, mavsummarosim work samples, qo'shikdari common.

Folk music at the regional, national and local methods will be allocated for example dead: Uzbek folk music style of music Bukhara-Samarkand, Surkhandarya and Kashkadarya Music See a style and others. Consistent development of epic traditions in Surkhandarya and Kashkadarya continues today. That is why the epics written by the representatives of this school in the 1940s contain relatively low-level elements of epic poetry, less developed forms of artistic thinking. From the 1960s onwards, however, traditions became more defined and, in a sense, more biblical. The services of the talented national poet Kadyr Rahim o'g'lu (1936-1985) were great. Sherobod Poems school Qosimko'r, Shernazar Beknazar son, the son of Mardonaqul Avliyoqul, the UK, the son of the trip, Normurod bard, Ahmad bard, the son of Kevin Boymat Mamadrayim bard, the son of Joseph, Eshqobil bard, Boribay son Ahmad, the son of the Almighty Rahim dozens of poets such as prepared. Today Xushboq Mardonaqulov, Shoberdi Boltaev, Bobrahim Mamatmurodov, black and Chori Umirova, the One, the Absolute, the son of Abdunazar ended just a few of the continuing tradition of art and poems. A number of epics written by the representatives of this school, such as "Golden Pumpkin", "Malla Savdogar", "Zayidqul", "Ollonazar Olchinbek", "Oychinor",

"Sherali", "Kelinoy", are not found in the repertoire of bakhshis living in other parts of Uzbekistan .

References and sources used:

1. Qahhorov A., New epics, T., 1988;
2. Ergashev A., Khalilov D., "Summer and Zebo" - Ishqdostoni, Karshi, 2000;
3. Karomatov F., Uzbek folk music heritage, 1-2 books, T., 197883;
4. Abdullayev R., Obryadovaya muzika Sentralnoy Azii, T., 1994;
5. Ibragimov O., Uzbek folk music, T., 1994; Alpomish, T., 1999;
6. www.natlib.uz
7. www.ziyonet.uz

ФИО автора: Юсупова Исмигул Фурқат қизи

Ўзбекистон Журналистика ва оммавий

коммуникациялар университети

“Босма ОАВ” йўналиши

магистратура бўлими 2-босқич магистранти

Название публикации: «ИНТЕРНЕТ ЖУРНАЛИСТИКАСИДА
МЕДИАМАТНЛАРНИНГ КЎРИНИШЛАРИ»

Аннотация: Глобаллашув жараёнининг энг муҳим муаммоларидан бири аудиторияни жалб қилишдир. Ҳар қандай долзарб мавзу ҳозирги кунда ишлов берилмаса, одамлар эътиборидан четда қолиши, ва аксинча, ҳар қандай оддий нарсалар глобал тусга кириши мумкин. Ахборотнинг бу тарзда аудиторияга мослашуви “механизм” лари ушбу мақолада илмий асосда мисоллар орқали ёритиб берилган.

Калит сўзлар: Интернет журналистикаси, Мультимедиа, Глобал аудитория

Замон кишидан маълумотлар билан эҳтиёткорлик билан ишлашни талаб этмоқда. Бугун ривожланаётган мамлакатларда кунига маълум соатларда чоп этилаётган матбуот нашри ёки телевизор ва радиода янги соат бошида берилаётган ахборот бир-бирини тўлдириб воқеалар ривожини билан оммани таништириб бормоқда. Интернет тармоғидаги материал билан танишиш эса жой ва вақт масаласида имкони кенглиги сабаб жамоатчиликнинг асосий кузатувчи ахборот маконига айланиб улгурди.

Журналистикага интернетнинг таъсири кучли. Чунки маълумотлар интернет тизими орқали маълум бўлади, танлаш имкони, солиштириш жараёнлари ҳам у билан кечади. Интернет журналистикаси эса аудиторияга асосли манба билан танишиш имконини беради.

Интернет журналистикасида босма нашрларнинг электрон версияси ўрганилар экан, у босма нашр вазифаларини тўлиқ намоён этади, деган хулоса ўринли. Шу билан бирга веб-сайт қоғоз шаклдан ҳам кўпгина имкониятлари

билан фарқланади. Ҳар куни янгилаб бориладиган веб-сайт умум эътироф этилган афзалликларга эга бўлади:

Жамоатчилик билан кенг доимий алоқада бўлиш имконияти. Интернет одамлар билан кунига 24 соат, ҳафтасига 7 кун, йилига 365 кун алоқада бўлиш имкониятини беради.

Кечикмай жавоб олиш. Интернет юзага келаётган масалалар бўйича ечимни топишда зудлик билан ишга киришишга ёрдам беради.

Глобал аудитория. Онлайн режимида ҳеч қандай географик тўсиқнинг ўзи йўқ.

Аудиторияни билиш. Интернет интерактив бўлгани туфайли ташкилот ва жамоатчилик ўртасида доимий равишда ўзаро алоқа ўрнатилади. Бунда қандайдир тахминларга ҳожат қолмайди, чунки у аудиторияга нима кераклигини тушунишга ёрдам беради.

Иккиёқлама алоқа. Анъанавий оммавий ахборот воситалари пассив кузатувчилик ролини таклиф этиб, жамоатчилик иштирокини ўқувчи ва мухлисларга чеклаб қўяди. Интернет орқали эса аудитория веб-сайт орқали ташкилот ходимлари билан эркин мулоқот қилиши, яъни фаол ўзаро алоқа ўрнатилиши мумкин.

Рентабеллик. Интернетдан фойдаланиш учун ҳақ борган сари арзонлашиб бормоқда, демак, интернет орқали мулоқот қилишнинг иқтисодий самарадорлиги ортади. Канцелярия буюмларига, материални қоғозда босиб чиқаришга эҳтиёж қолмайди. Аммо ютуқ, аввало, иқтисодий эмас, коммуникация соҳасида рўй беради²⁹. Албатта, буларнинг барчаси ўз ишини мукамал бажарувчи веб саҳифаларга тааллуқли.

Интернет фақат профессионал даражага кўтарилиш, балки дунёнинг турли бурчакларидаги ўқувчиларга етиб бориш имконияти ҳамдир. Интернет журналистиканинг ривожини биргина Ўзбекистон Республикаси миқёсида оладиган бўлсак, йилдан йилга кўпаяётган босма ОАВларнинг веб-

²⁹ Қосимова Н., Бобожонова Г., Исламова Л. Ахборот хизмати: жамоатчилик билан самарали мулоқот. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Тараққиёт дастури (БМТТД), -Т.: 2012 й. 90 б.

саҳифаларида ҳам кўришимиз мумкин. Бугунга келиб Ўзбекистон босма ОАВ ва ахборот–агентликларини қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш жамоат фондининг ёрдами билан мамлакатимизда 93 та газета ва журналларнинг веб-кўриниши³⁰, Интернет тармоғининг .uz доменида эса 4203 та турли хил йўналишдаги сайт ва порталлар фаолият юритмоқда³¹. Албатта, Интернет тизимида ва у орқали ахборот тақдим этаётган ОАВда мультимедиалик, интерактивлик ва тезкорлик биринчи даражага кўтарилади, шунингдек, мазкур веб-саҳифаларнинг ўзига хос дизайни, босма матбуот қамраб ололмаган янгиликларнинг берилиши ҳам ўқувчиларни уларга жалб этишда муҳим аҳамият касб этади.

Соҳага оид манбалар билан танишишда интернет (онлайн) журналистика тушунчасига мультимедиавий журналистика назари билан ҳам қарашлар кузатилади. Н.Қосимова ишларида айтилиши бу борада назарий асос берилади.

Мультимедиа – инглиз тилидаги “multi” ва “media” сўзларидан олинган бўлиб “кўп”, “бир неча” ва “ахборот узатувчи воситалар” маъноларини билдиради. “Мультимедиа” термини илк марта 1965 йили Боб Гольдштейн томонидан ўз ичига ёруғлик, мусиқа, кинони олган тадбирни тасвирлаш учун қўллаган. Албатта, мультимедиавий журналистика ўқувчига ахборот билан танишишда турли хил элементларни танлаш имконини беради. У фақатгина матнни ўқиши ёки суратларни кўриб ахборот олиши мумкин. Мультимедиадан фойдаланувчи доимо фаол бўлиб, материални фақатгина пассив ўзлаштирмай, уларни мантикий боғлашга ҳам ҳаракат қилади.

Интернет журналистикасида аудиторияга ахборотни замонавий мультимедиа технологияларидан фойдаланиб узатилиши медиаматн тушунчасини юзага келтиради ва у ахборотни тақдим этишда янги терминларни пайдо қилади. Таъкидланганидек, матн ахборотни ифодалайди, таҳлил этилаётган янги тушунчалар медиаматн кўринишлари сифатида баҳоланади.

³⁰ ОАВларни шакллантириш йўлида. www.mmf.uz. 4.04.2008

³¹ www.uz. 11.11. 2010 йил.

Демак, интернет журналистикасида янги тушунча ҳасобланувчи лонгрид усули медиаматннинг асосий кўринишидир.

Лонгрид – маълумотлар журналистиканинг ажралмас қисми сифатида бугунги кунда жаҳон журналистикасида тан олинган йўналишлардан бири. Мазкур ахборот узатиш технологияси долзарб мавзуларни ёритишнинг энг қулай ва таъсирчан шаклларида биридир. Лонгрид (инг. “long read” – узоқ ўқиш) – бу ҳажмли ахборотни интернетда узатишнинг қулай усули.

Аудитория кўпсонли маълумотлар ичидан биринчи бўлиб ўзига қулай, ихчам материалга кўз югуртиради. Лонгрид матн билан биргаликда айнан шу мавзудаги видеоролик, инфографика, такдимот, фон берувчи мусика, суратлар, иқтибослар жамланган материал ҳисобланади. Лонгридда мантиқий боғлиқлик, қисмларининг (видео, аудио, инфографика ва ҳоказо) уйғунлиги – иллюстратив қатор, шрифт, рангларнинг ҳажми ва сонининг бир хиллиги муҳим. Лонгрид бир бутун ҳикоя сифатида қабул қилиниши лозим. Бунда материалнингизни очган фойдаланувчи ёритилаётган мавзунинг ичига кириши лозим. Лонгриднинг яна бир хусусияти бор. Бу ахборотни хилма хил тарзда намоиш этиш билан биргаликда, кўтарилаётган масалани ҳар томонлама таҳлил этишдир. Бу ҳақиқий янги кўринишдаги таҳлилий материалдир. Лонгрид муаллифининг мақсади – глобал иқлим ўзгариши ҳақида умумий тушунча бериш билан биргаликда, фойдаланувчи ҳудудида бевосита ҳаво исиши, ифлосланиши, унинг оқибатлари, аҳолининг мослашуви хусусида қизиқарли ҳикоя қилиш, бир хил тарзда чайналган, аммо долзарб мавзунини мутлақо ўзгача нуқтаи назардан узатишдир.

Мазкур тушунча ҳам бир неча турга ажратиб ўрганилади ва унинг биринчиси репортаж лонгриддир.

Репортаж ўзининг белгилари билан ахборот жанрларнинг барчасига (ахборот бериш, ҳикоя қилиш, тўғри нутқ, бўёқли чекиниш, персонажларни таснифлаш, тарихий чекиниш ва бошқалар) мос келади. Репортаж жанрига қуйидагича таъриф бериш мумкин. Репортаж – журналистиканинг муҳим жанрларидан бири ҳисобланиб, содир бўлган муайян воқеа, ҳодиса, вазият,

жараённинг бевосита журналист иштироки ва кузатуви орқали тасвирлаб бериш, оммани шу воқеликдан кенгроқ хабардор қилишдир. Репортажнинг предмети – содир бўлган воқеа-ҳодисадир. Репортажнинг асосий хусусияти воқеа, ҳодиса, жараён, вазиятни репортёрнинг шахсан иштирокида аниқлик, ҳужжатлилик, воқеликни қандай бўлса, шундайлигича ёритилиши билан белгиланади. Репортажнинг методлари инфор­мацион жанрларга тааллуқли (маълумотларни йиғиш, кузатиш, фактларни қиёслаш, таҳлил, саволлар бериш, қисқа диалог, иштирокчилар гувоҳлигида содир бўлган воқеа ривожини баён қилиш каби) барча усуллар киради. Бу усулларнинг ичида кузатиш услуби етакчилик қилади. Репортажнинг турлари. Репортаж воқеликнинг ривожини ва унинг натижаларини кетма-кетликда ҳикоя қилиниши, содир бўлган ҳодисанинг долзарблиги, жамият учун қанчалик аҳамиятга моликлиги, мавзунинг ранг-баранглигига қараб воқебанд, мавзули ва муаммоли турларга бўлинади³². Репортажли лонгрид тайёрлашда жанр хусусиятларидан фарқли ўларок, муаллиф “мен”ига урғу бермаслиги лозим. Чунки муаллиф воқеа қаҳрамони эмас, балки ҳикоя қилувчи холос. Унинг асосий вазифаси кўрганларини шундай тасвирлаб бериши керакки, ўқувчи уларни ўз кўзи билан кўргандек ҳис қилиши лозим.

Лонгриднинг яна тури реконструктор лонгридидир. Бундай материал маълум бир воқеяликни қайта қуриш, глобал иқлим ўзгариш билан боғлиқ мавзуларни таҳлил этиш, унинг сабаблари ва оқибатларини аниқлашдан иборат. Лонгриднинг бу турида фон мусиқаси, видеоқўшимчалар муҳим роль ўйнаб, материал ўқувчисининг кайфиятини шакллантиради.

Учинчи тур портрет лонгриди (people stories) ҳисобланади. Мазкур турга интервьюлар, очерклар, биографик лавҳалар киради. Мазкур турдаги лонгриднинг асосий вазифаси глобал иқлим ўзгаришидан жабрланган қаҳрамонни кўрсатиш, муаммо оқибатларига мослашаётган шахснинг ҳаётини тамойиллари, масалага қарашларини таҳлил этиб беришдан иборат. Бундай

³² <https://www.overclockers.ru/softnews/52650/Mini>

материалнинг асосий жиҳатларидан бири юқори сифатли, бир бирига мантиқан боғлиқ бўлган иллюстратив қаторнинг мавжудлигидир.

Лонгрид яратиш ҳақида Н.Қосимова тадқиқотида қуйидагича тавсиялар берилади: агарда сиз эндигина журналистика соҳасига қадам қўяётган бўлсангиз, лонгрид сиз учун эмас. Чунки унинг матни оддий журналистик матндан бироз фарқ қилади. Матн ўз таркиби бўйича мураккабдир. Агарда матнинг бошида мақола сингари лид бўлса, унинг давоми бевосита аудио ёки видео лавҳа ёхуд интервью билан давом этади. Кейинги қисмда матн видеолавҳанинг узлуксиз давоми бўлиши лозим. Факт ва далиллар таҳлили, статистик маълумотларнинг қўплиги, қаҳрамонларнинг видеоинтервьюси ва ҳоказо. Демак, сиз лонгрид тайёрлашга аҳд қилдингиз. Материални тайёрлашдан олдин мавзу билан яхшилаб танишинг. Танлаган бир неча қаҳрамонларингизнинг мавзу юзасидан фикрини ўрганинг. Иложи борица бир-бирига қарама қарши фикрларни йиғишга ҳаракат қилинг. Турли ахборот манбаларидан фойдаланинг. Лонгрид фақатгина қизиқарли фактлар, ёрқин иқтибослар, мавзу юзасидан илгари маълум бўлмаган деталлар билан бойисагина қизиқ бўлади.

Матнни ёзишдан олдин мақсадни аниқлаб олинг. Бирор бир масала хусусида ёзмоқчисиз. У маълум бир соҳага тегишли. Масалан глобал иқлим ўзгариши мавзуси. Бу муаммо умумий мавзу бўлса, унинг атроф-муҳитга, аҳоли соғлиғига салбий таъсири, ҳудудда юз бераётган ўзгаришлар ва ҳоказолар асосий мавзулар бўлиши мумкин. Айнан сизни қайси мавзу қизиқтираётганини аниқланг. Материал ғоясидан сўнг унинг кўриниши юзасидан режа тузиб олинг, яъни унинг умумий кўриниши қандай бўлади, материалингизга инфографика, иқтибос, видео керакми? Режани тузиб олгач, материалнинг таркибий қисмларни тайёрлашга киришинг. Замонавий журналист мультимедиа технологиялардан хабардор бўлиши муҳим. Лонгрид учун материал тайёрлашда мобил қурилма ҳамда монтаж дастури юкланган ноутбуклардан фойдаланиш кифоя. Бунда сиз энг оддий Windows Movie Maker 2012 ёки Kate's Video Toolkit видеодастурларидан фойдаланишингиз мумкин. Windows Movie Maker 2012 дастуридан фойдаланиш жуда ҳам осон. Видео тасвирларингизни дастур

ойнасига тортиб киритиш кифоя, улар дарҳол сиз киритган тартибда бир чизикқа тизилади. Тасвирдан тасвирга ўтиш, махсус эффектлардан фойдаланиш клик орқали амалга оширилади. Шунингдек, дастур орқали видеолавҳангизга титрлар ёзиш, мусиқа қўйиш мумкин. Олинган натижани ягона видеофайл сифатида сақлашингиз ёки танлаган сайтингизга дарҳол юклашингиз мумкин.

Kate's Video Toolkit видеодастури қўшимча равишда видеони таҳрир қилиш имкониятини ҳам беради. Сиз ўз видеолавҳангиздан ортиқча нарсаларни олиб ташлашингиз ёки етишмаётганини қўшишингиз мумкин. Шунингдек видеони турли форматларга конвертация қилиш имконияти ҳам мавжуд. Ягона камчилиги, дастур ойнасини бутун экранга катталаштира олмайсиз. Қолганида эса мазкур дастур ўзининг соддалиги билан қўплаб мухлисларига эга.³³

Лонгриднинг яна бир асосий қисми инфографикадир. Биз аввалги фаслда бу тушунчага бироз тўхталиб ўтгандик. Биринчи бўлиб журналистикада матн ва графика орқали ахборот узатишдан 1982 йили “USA Today” газетасининг муҳаррирлари фойдалана бошлашди. Қисқа муддат ичида газетанинг адади ўсиб, аудиторияси кенгайди. Америкалик ўқувчилар тез орада инфографиканинг афзаллигини тушуниб етишди. Инфографика газета саҳифасида камроқ жой эгаллаб, ахборотни матнга нисбатан тезроқ узатар эди. Фотосуратдан фарқли равишда инфографика тезис шаклдаги шарҳларни ҳам ўз ичига жамланиши билан бошқа ахборотлардан фарқ қиларди. Тезкор, долзарб фактларга, рақамларга қизиқиш, одамларда кичик ҳажмдаги катта ахборотни қабул қилишга интилишнинг кучайиши натижасида инфографика ахборот узатишда биринчи ўринларга чиқмоқда. Ҳозирги замонда инфографика диаграмма ва графикаларда соатлаб чизилиб эмас, балки зарур фактларни кенг миқёсда кўрсатиш учун қулай ва осон бўлган усул - диаграмма кўрсаткичларини интерактив равишда бошқариш имкони бўлган интерфейсларда яратилади.

Интернет журналистикасида лонгридлар ҳақида гап кетганда яна бир янги тушунча, яъни *Story map* ҳақида тўхталиш лозим.

³³ Қосимова Н. Интернет журналистика асослари. <http://nargis.uz/?p=666>. 2017. Б.108.

Story map – ҳикоя қилинадиган бирор бир воқеа харитаси. Журналист Story map технологиясидан фойдаланган ҳолда мавзунинг жуғрофий харитасини чизиб, ҳар бир нуқтада содир бўлаётган воқеа-ҳодисанинг жойи, ривожланиш тенденцияларини кўрсатиб бера олади.³⁴

Интерактив хариталар матн, расм, видео, аудио қўшимчалар билан тўлдирилиши мумкин. Аксарият ҳолатларда ахборотни мазкур кўринишда узатиш ўз олдига аналитик вазифаларни қўяди ва мавзунинг харита орқали тўлиқ очиб беришга имкон яратади. Воқеалар харитаси қандай яратилади? Масалан, глобал иқлим ўзгариши мавзусида материал тайёрлашда, аввало фаолиятининг асосий қадамларини бирма бир аниқлаб олиш лозим. Сўнгра <https://storymap.knightlab.com> сайтига кириб, у ердаги тайёр шаблондан фойдаланилади. Мазкур харитага расм, видео, аудио, матн киритган ҳолда уларни жуғрофий чизикда осонгина жойлаштириб олиш мумкин. Бунинг учун кўрсатилган гаджетлардан фойдаланиш кифоя.

Кўриниб турибдики, мультимедиа воситаларидан фойдаланган ҳолда материал тайёрлаш ва улардан самарали фойдаланиш бугунги куннинг талаби бўлиб, журналистга мавзунинг ҳар томонлама очиб беришга ҳамда ўқувчи эътиборини танланган мавзуга жалб этишга ёрдам беради.

Интернет журналистикасида медиавий матнларнинг узатилишида яна бир янги тушунча мавжуд. Бу - сторителлингдир. Ҳозирда ёзувчи ва журналистлар ўртасида урф бўлаётган мазкур атама инглиз тилидан кириб келган бўлиб, “ҳикоя қилиш” маъносини англатади. Аммо ҳикоя қилиш оддий бирор воқеани сўзлаб бериш эмас, балки ўз ўқувчиларингизни айнан сиз билан биргаликда ана шу воқеа ичида бўлишга эришиш демакдир. Чунки қачонки воқеа сизнинг ҳиссиётларингизга таъсир этса, сизга “тегиб кетса”гина воқеага муносабат билдирасиз, муаммо ечимига ҳисса қўшасиз.

³⁴ Кўрсатилган манба. Б. 112.

Сторителлингнинг асосчиси Дэвид Армстронг ўзининг “Managing by Storying Around: A New Method of Leadership” китобида аудитория ва ходимларга жонли воқеалар орқали таъсир этиш усулларини санаб ўтади³⁵.

Демак, сторителлинг, аудиторияга ахборотни тўлиқ, содда ва тушунарли тилда етказишдир. Бугунги кунда ривожланиб бораётган мультимедиа воситалари сторителлинг аҳамиятини янада кучайтирди.

Сторителлингдан фойдаланган инсон ўқувчи, тингловчи, томошабиннинг онгостига таъсир кўрсата олади; зарур ахборотни биринчи уринишдаёқ етказди; ўқувчи “Муаллиф ўзи нима демоқчи?” деган савол билан қийналмайди; фуқароларда ватанпарварлик ҳиссини кучайтиришга хизмат қилади; реклама материалида товарнинг сотилишига эришишда қўл келади. Энг асосийси ҳикоя структураси тўғри тузилган ва оддий ўқувчига яқин бўлиши лозим.

Мазкур замонавий тушунчани ўрганишга қаратилган адабиётларда сторителлинг бир нечта қоидаларга асосланса муваффақиятли чиқади, деб таъкидланади. Демак, улар қисқалик, ҳикояга ёрқин қаҳрамон танланиши; воқеанинг тугалланганлиги; матннинг қизиқарлилиги; фикрнинг яширин ифодаси орқали яқунда ўқувчини ҳаракатга келтириш ва аудиторияга психологик таъсир ўтказишдир³⁶. Сторителлингда матн аниқ мақсадли аудиторияга йўналтирилган бўлиши лозим.

Мультимедиавий сторителлинг бугун жаҳон журналистикасининг етакчи жанрига айланиб улгурди. Хаттоки АҚШнинг Беркли шаҳридаги Калифорния университети журналистика факультетида Digital Storytelling, яъни рақамли сторителлинг асосий фанлар сирасига киради. Мультимедиавий сторителлинг ўз ичига видео-, фото-, графика ва аудиоинформацияни олади. Албатта уларни бир жойга жамлаш ва бир мантикий чизиқ бўйлаб ҳикояни тузиш орқали ўқувчи ҳиссиётига сезиларли равишда таъсир кўрсатиш мумкин. Сторителлинг оддий

³⁵ David Armstrong, Managing by Storying Around: A New Method of Leadership. New York: Doubleday Currency, 1992, -р. 246

³⁶ Сторителлинг – самый эффективный метод донесения нужной информации.
<http://www.publicsuccess.ru/info/articles/storitelling>

лонгриддан фаркли ўлароқ чизиксиз форматга эга, яъни ўқувчи ҳикоядан ўзига қизиқарли бўлган қисмини кўриш, ўқиш ва эшитиш имконига эга бўлади. Шунинг учун ҳар бир қисм унга тугалланган ахборотни бера олиши лозим. Бундай журналистик сторителлинг ўз ичига нафақат асосий маълумотларни, балки мавзуга оид статистик маълумотлар, бошқа ресурсларга ҳаволаларни ҳам қамраб олиб, ўқувчига мавзуга янада чуқурроқ кириб бориш имконини беради. Қанчалик чуқур киришни ҳар бир ўқувчи ўзи танлайди.

Ҳар қандай интернетдаги веб-саҳифа мультимедиавий сайтлардир. Уларга матн, аудио, видеони жойлаштириш мумкин. Улар аксарият ҳолатларда интерактив графика ҳам акс этади. Аммо мазкур сайтларга жойлаштириладиган воқеалар, янгиликлар аксарият фақат графика ёки фотосурат билан безатилади. Ҳар бир матн, аудио ёки видео сайтда мустақил мазмун касб этади. Мультимедиавий сторителлингда эса ҳар бир кўриниш, яъни видео, матн, фотосурат, аудио ва графика битта ҳикояга интеграллашган бўлади.

Мультимедиавий сторителлинг журналистдан универсаллик ва замонавий техника воситаларини яхши тушунишни талаб этади. Агарда сиз видеога тушириб, уни монтаж қила олсангиз, аудиороликлар ёзсангиз, яхшигина матн ёзиб, суратга туширсангиз, демак сиз конвергент журналистикада ишлай оласиз.

Мультимедиавий сторителлингни яратиш асосларини ўрганиш журналистларга нафақат янги технологияларни ўрганиш, балки ўз материалига глобал тармоқ орқали бутун жаҳондаги барча қизиқувчилар имконини жалб этиш имкони ҳамдир.

Умуман олганда, глобаллашув жараёнида ахборот оқими кучайгани сари аудиторияни жалб этиш масаласи қийинлашиб бормоқда. Бугун интернет журналистикада янги тушунчаларнинг пайдо бўлишига ҳам айна шу сабаб кўрсатилади. Медиавий матнлар билан ишлашда лонгрид ва строителлингдан фойдаланилади. Лонгрид матн билан биргаликда айнан шу мавзудаги видеоролик, инфографика, тақдимот, фон берувчи мусиқа, суратлар, иқтибослар жамланган материал ҳисобланса, строителлинг- ҳикоя қилиш, яъни ўқувчиларини ўзи билан биргаликда ана шу воқеа ичида бўлишга

эришиш демакдир. Албатта, ана шундагина медиаматнлар кузатувчилари томонидан юқори баҳоланади. Уни тайёрлаб узатувчилар эса мақсадларига эришадилар.

Адабиётлар рўйхати:

1. Қосимова Н., Бобожонова Г., Исламова Л. Ахборот хизмати: жамоатчилик билан самарали мулоқот. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Тараққиёт дастури (БМТТД),-Т.
2. <https://www.mmf.uz/>.
3. <http://www.publicsuccess.ru/info/articles/storitelling>
4. David Armstrong, Managing by Storying Around: A New Method of Leadership. New York: Doubleday Currency, 1992.
5. <https://www.overclockers.ru/softnews/52650/Mini>
6. Қосимова Н. Интернет журналистика асослари. 2017.

ФИО авторов: Xudoyberdiyeva Sevara Nurxonovna

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, magistranti
Beknazarova Saida Safibullayevna, t.f.d., prof

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti dotsenti

Название публикации: «BLOGSOHANING AXBOROT VOSITASI HAMDA
SIYOSIY PLATFORMA SIFATIDAGI VAZIFALARINING TAHLILI: AQSH, RF
VA O'ZBEKISTON MISOLIDA»

This article Not only gives information about the role of the Blog in the quality of the sphere of information and analysis of its functions as a political platform, but also expresses its comparison with the example of the USA, Russia and Uzbekistan. Therefore, along with blogs and media, civil and traditional journalism: a word brogan about the interaction of concepts. This article, which is written as a useful guide for all students of the course in the field of journalism, emphasizes reliable statistics and research results. The scientific part concludes with comparison of the role of the Blog in Uzbekistan as a political platform with the sphere in two more developed countries.

Blogsoha ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida hayotning turli jabhalarida o'z o'rnini topib ulgurdi. Biroq, turli davlatlarda an'anaviy bloglarning rivojlanish yo'llari va ulardan foydalanish usullari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud.

Shuni ta'kidlash kerakki, ommaviy axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari tushunchalari ko'pincha bir xil ma'noga ega, deb qaraladi. Ammo ommaviy kommunikatsiya vositalari tushunchasi an'anaviy ommaviy axborot vositalari, yangi media va boshqa aloqa kanallarini o'z ichiga oluvchi ancha keng tushuncha sanaladi.

Bloglar qanday vazifalarni bajarishini aniqlash uchun serqirra jurnalistika fanining istalgan ommaviy media imkoniyatlari doirasini tasniflab olish muhim ahamiyatga ega. «Jurnalistikaning funksiyalar doirasi», deydi E.P. Proxorov «mafkuraviy, madaniy-ma'rifiy, to'g'ridan-to'g'ri tashkiliy, reklama va [rekreativ](#)* ma'lumot vazifalarini o'z ichiga oladi».³⁷ Boshqa tadqiqotchilar (masalan, S.G. Korkonosenko) jurnalistikaning quyidagi ijtimoiy funksiyalarini aniqladi: iqtisodiy ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiya, tartibga solish va ma'naviy-mafkuraviy vazifalari.³⁸ I.Yu. Glinskayaning fikricha esa, ijtimoiy tizimdagi ma'lumotlar kommunikativ, aks ettiruvchi va boshqaruv vazifalariga ega.³⁹

³⁷ Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. М., 1998.-С. 44-45.

³⁸ Корконосенко С. Г. Основы журналистики. М.: Аспект Пресс, 2001.-С. 163.

³⁹ Глинская И.Ю. Средства массовой коммуникации и их действие на массовое сознание // Массовые информационные процессы в современной России. М., 2002.-С. 175.

OAV vazifalarini tasniflash bo'yicha ko'plab yondashuvlardan quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: U axborot, kommunikatsiya, g'oyaviy, madaniy-ma'rifiy, tashkiliy, rekreatsion vazifalarni o'z ichiga oladi.

Bu vazifalarni blogsohaning quyidagi oltita asosiy usuli o'rtasida bo'lish mumkin:

* blogsoha axborot vositasi sifatida (axborot, kommunikatsiya, g'oyaviy, madaniy va ma'rifiy funksiyalar);

* blogsoha siyosiy platforma sifatida (axborot, aloqa, g'oyaviy funksiyalar);

* bloglar faol internet usullari sifatida (aloqa, mafkuraviy, tashkiliy funksiyalar);

* bloglar ta'lim faoliyati vositasi sifatida (aloqa, madaniy-ma'rifiy funksiyalar);

* korporativ blogging (axborot, aloqa, tashkiliy funksiyalar);

* ko'ngilochar blogsoha (rekreatsion funksiya).

Biz bugungi ilmiy-tahliliy maqolamizda blogsohaning axborot vositasi hamda siyosiy platforma sifatidagi vazifalarini ko'rib chiqamiz.

Yangiliklar blogsohasi. Blogsohani yangiliklarni uzatish vositasi sifatida ko'rib chiqishda uning asosiy kalit so'zi axborotdir. Ammo jurnalistika va bloglar o'rtasidagi munosabatlar turli mamlakatlarda har xil tushuniladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida blogsoha odatda fuqarolik jurnalistikasini rivojlantirishning asosiy platformasi sifatida qaraladi. Fuqarolik jurnalistikasi «tinglovchilarning yangiliklar va ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va tarqatishda faol ishtiroki»dir.⁴⁰ Bundan tashqari, ushbu atamaning paydo bo'lishiga asosan blogsohaning rivojlanishi sabab bo'ldi. Rossiya ilmiy jamoatchiligida blogsoha yangi sifat turi (yoki hatto ommaviy kommunikatsiya vositasi sifatida) va an'anaviy ommaviy axborot vositalari uchun ma'lumot manbai sifatida tushunilgan va qabul qilingan. Rossiyalik tadqiqotchilarning katta qismi bloggerlarni fenomen sifatida tahlil qilar ekan, buni an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro aloqador sharoitida ko'rib chiqishadi. Ya'ni, axborotni auditoriyaga yetkazishda professional jurnalistik yondoshuvga asoslanishadi. Bunda fuqarolik jurnalistikasi o'rniga, (citizen journalism) professional jurnalistik qoidalarga asoslanib, auditoriya bilan kengaytirilgan o'zaro aloqa o'rnatishadi va bunda professional jurnalistika tamoyillariga amal qilishadi. Masalan, D.E. Kolezev o'zining «Jurnalistika va bloglar: o'zaro aloqa va o'zaro ta'sir» maqolasida «jurnalistika va blog yuritishni sintez qilish»ning quyidagi jihatlarini ko'rsatib beradi:

1. Jurnalistlarning blogsohadan axborot manbai sifatida foydalanishi;

2. Jurnalistik bloglarni yaratish va yuritish».⁴¹

⁴⁰ Гражданская журналистика // Академический URL: https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/877863#cite_ref-wemedia_3-0 (Контактная информация: 23.01.2018).

⁴¹ Колезев Д.Е. ЖУРНАЛИСТИКА И БЛОГ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ И ВЗАИМОВЛИЯ // Известия Уральского федерального университета. Серия 1: Проблемы образования, науки и культуры. Екатеринбург: Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б.Н. Ельцина, 2010. -С. 31-40.

O.G. Filatovning «Bloglar va ommaviy axborot vositalari, fuqarolik va an'anaviy jurnalistika: tushunchalarning o'zaro aloqasi» maqolasida OAVda blogsohadan foydalanishning uchta asosiy usulini ko'rsatib o'tadi:

1. Tahririyat materiallarini yaratish uchun bloglarda topilgan ma'lumotlardan foydalanish;

2. «Tahririyat bloglari», unda an'anaviy OAV saytidagi ma'lumotlarning bir qismi bloggerlarning mualliflik materiali ko'rinishida nashr etiladi;

3. Mustaqil bloglar platformalarida nashrni targ'ib qilish maqsadida tahririyat bloglarini yuritish.⁴²

O'zbekistonda ham blogsoha sekin-asta rivojlanish pog'onasidan odimlab bormoqda. Agar AQSH yoki Rossiyaning ushbu sohadagi yo'nalishini ikki xil deb oladigan bo'lsak, O'zbekistonda blogsohaning rivojlanish tendensiyalari Rossiya Federatsiyasiga ko'proq mos keladi. 2019 yil 22-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Mobicon-2019 konferensiyasida Troll.uz saytining blogeri Umid G'ofurovning O'zbekistonda blogsohaning rivojlanish bosqichiga bergan bahosini keltirishimiz mumkin: «Bugungi kundagi o'zbekistonlik blogger - bundan besh yil oldingi qozog'istonlik yoki 8-9 yil oldingi rossiyalik bloggerga qiyos. Biz blogsohaning rivojlanishi jihatidan biroz orqada qoldik, bu soha mutlaqo bo'sh qoldi. Ko'p yillar davomida bizga blogsoha uchun zarur bo'lgan foto va videolarni olishga ruxsat etilmadi. Umuman olganda, bizning mentalitetimiz va turmush tarzimiz kimnidir suratga olishga yo'l qo'ymaydi, yo'qsa mahalla yoki qo'ni -qo'shnilar nima deydi? Bundan tashqari, matbuot uzoq vaqt senzura uchragan va bosim ostida bo'lib kelgan bir paytda blogsoha haqida gapirishning hojati ham yo'q. Bizda agar blogger bo'lsang, unda adolat uchun kurashasan, biror muammoni hal qilish uchun yonib-kuyasan, degan tendentsiya shakllandi. Chet elda, bu bir oz boshqacha, blogger - bu [celebrity](#)*, o'z kontentini yaratish uchun turli qiziqarli eksperimentlar uyushtiradigan mashhur odam deb qaraladi. Bizda esa bu tushuncha hali odamlarga yovvoyi. Ular bu narsaga odatlanmagan».⁴³

Rossiya Federatsiyasi va Qo'shma Shtatlardagi axborot bloglari o'rtasidagi farqlarning yana bir misoli bloggerlik platformasini tanlashda ko'rinadi: «Chet ellik bloggerlardan, shu jumladan, amerikaliklardan farqli o'laroq, rus bloggerlari ijtimoiy tarmoq funktsiyalari (masalan, Facebook)ni o'z ichiga olgan platformalarni afzal

⁴² Филатова Ольга Георгиевна Блоги и СМИ, гражданская и традиционная журналистика: соотношение понятий // Вестник СПбГУ. Язык и литература. 2010. №4.-С. 281-287.

⁴³ Главные мобайл-тренды, итоги года и кейсы международных спикеров: как прошла последняя конференция Mobicon 2019 // Академический URL: [https:// kun.uz/ru/53615695](https://kun.uz/ru/53615695) (Контактная информация: 25.11.2019).

ko'rishadi. Rossiyadagi blog yuritishda bir nechta «ijtimoiy tarmoq duragaylari» ustunlik qilmoqda».⁴⁴

Tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistonda eng ko'p Telegram va Youtube ijtimoiy tarmog'idan [foydalaniladi](#).⁴⁵ HeadHunter kompaniyasi o'tkazgan ijtimoiy so'rovnomada 195 nafar inson qatnashib, 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan 63 foiz erkaklar va 37 foiz ayollar ovoz berishgan. 78 foiz respondentlar ijtimoiy tarmoqlardan har kuni foydalanishini bildirishgan. Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonda ham ijtimoiy tarmoq xilma-xilligi o'sib bormoqda. Boshqa bir ilmiy tadqiqot: [«Исследование IWPR: Социальные сети - важный источник новостей в Узбекистане»](#)da keltirilishicha, Tojikistonda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlar orasida Facebook, messenjerlar orasida esa Telegram birinchi o'rinda turadi, deydi Toshkentda o'tkazilgan tadqiqot natijalari taqdimotida IWPRning Markaziy Osiyo bo'yicha loyiha koordinatori Begaiym Adjikeev.⁴⁶ So'nggi vaqtlarda esa Tik Tok ijtimoiy tarmog'i mamlakatimizda 13-24 yoshli auditoriya orasida yashin tezligida ommalashib bormoqda. Spot.uz elektron nashrining ma'lum qilishicha, xizmat foydalanuvchilarning batafsil statistik ma'lumotlarini mamlakatlar bo'yicha oshkor qilmaydi, ammo «Uzbekistan» yorlig'i bo'lgan videolar allaqachon 125 million martadan ko'proq ko'rigan. Loveuzbekistan yorlig'i 1,1 million, uzbekistantiktok yorlig'i - 2,5 million tomoshabinni tashkil qildi. Foydalanuvchilar orasida allaqachon bir necha ming obunachiga ega bo'lgan o'zbek blogerlarini topish [mumkin](#).⁴⁷

Axborot olamida blogsohani tadqiq qilishning amerikanacha talqiniga ko'ra, uni fuqarolik jurnalistikasi vositasi sifatida qarash e'tiborlidir. Amerikalik mualliflar nuqtai nazaridan har qanday blogger o'zi ko'rgan voqeani tasvirlash yoki tahlil qilishda «jurnalistikani amalga oshirishi» mumkin.

Hamma bloglar ham jurnalistik yoki institutsional ommaviy axborot vositalari deb hisoblanmaydi. Ko'pgina bloglar asosan shaxsiy xususiyatga ega va muallifning his-tuyg'ulari va tajribalarini o'z ichiga oladi. PEW Internet tomonidan o'tkazilgan so'rovnomada (2006 yilda) qatnashgan amerikalik bloggerlarning atigi 34% o'z bloglarini jurnalistikaning bir shakli deb hisoblashgan.⁴⁸

⁴⁴ Eitling, B., Faris R., et al. Public Discourse in the Russian Blogosphere: Mapping RuNet Politics and Mobilization. // Berkman Center Research Publication. The Berkman Center for Internet & Society at Harvard University, 2010.-46 pp.

⁴⁵ Названы самые популярные среди узбекистанцев соцсети и сервисы// Академический URL: <https://repost.uz/socialochka> (Контактная информация: 13.08.2019).

⁴⁶ Исследование IWPR: Социальные сети – важный источник новостей в Узбекистане// Академический URL: <https://cabar.asia/ru/issledovanie-iwpr-sotsialnye-seti-vazhnyj-istochnik-novostej-v-uzbekistane> (Контактная информация: 16.03.2020).

⁴⁷ Популярность TikTok добралась до Узбекистана// Академический URL: <https://www.spot.uz/ru/2019/10/16/tiktok/> (Контактная информация: 16.10.2019).

⁴⁸ Lasica, J.D. Blogs and Journalism Need Each Other. // Nieman Reports. 2003.-pp. 70-74.

Bloglar institutsional ommaviy axborot vositalarida urfga aylangandan so'ng, mustaqil jurnalistlar ham o'z auditoriyasi bilan muloqot qilishda undan faol foydalana boshlashdi. Keyinchalik, media-kompaniyalar ushbu formatdagi imkoniyatlarni jurnalistik janr va veb-foydalanuvchilar bilan muloqot shaklining bir turi sifatida tadqiq qilib chiqishdi. Hatto hozirgi bloggerlarning ayrimlari o'z nashrlarini professional jurnalistika janrlari bilan taqqoslashni istashmasa-da ammo ular tarqatayotgan ma'lumotlarning yangiliklar blogsohasi bilan umumiy jihatlari ko'p. Garchi ular an'anaviy jurnalistika qoidalariga qat'iy amal qila olmasalar ham, bu «jurnalistik blog» atamasini oqlaydi: ushbu bloglar keng auditoriya uchun mavjud voqealarni to'plash, tahlil qilish, izohlash yoki sharhlash orqali an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan bir xil ijtimoiy funksiyalarni bajaradi.⁴⁹

Qo'shma Shtatlarda blogsohadan jurnalistik vosita sifatida foydalanishga oid misollarini S.Bouman va K.Uillisning «We Media: How audiences are shaping the future of news and information?» deb nomlangan ilmiy ishida ham kuzatishimiz mumkin. Pew Research Internet-bo'limi tomonidan olib borilgan izlanishlarga ko'ra, 2001 yil 11 sentabrdagi xurujlar natijasida ko'plab odamlar elektron pochta, blog va forumlarga «11 sentabr voqealari to'g'risida ma'lumot, izoh va tegishli harakatlarni uzatuvchi kanal sifatida» murojaat qilishganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Iroqdagi urushning dastlabki bir necha kunida Pew Research kompaniyasi amerikalik Internet foydalanuvchilarining 17 % urush haqidagi asosiy ma'lumot manbai sifatida internetga ishonganligini aniqladi. Hisobotda bloglar ham ma'lumot manbai sifatida qayd etilgan bo'lib, u amerikalik internet foydalanuvchilari orasida mashhurlikka erishmoqda, deb aytiladi.⁵⁰

Rossiyada ham, AQShda ham axborot olish manbai sifatida an'anaviy ommaviy axborot vositalari o'z o'rinini internetga bo'shatib bermoqda. 2017 yil avgust holatiga ko'ra, amerikaliklarning 43 % ko'pincha yangiliklarni internetdan olishi ma'lum bo'ldi. Bu televizor orqali yangiliklarni biladigan odamlardan atigi 7 %ga past ko'rsatkichni tashkil qilgan edi. Ikkala yangiliklar platformasi orasidagi farq 2016 yilning boshida 19% ni tashkil etgan bo'lsa, bir yil ichida bu farq ikki barobarga ko'pni tashkil qilmoqda.⁵¹

Rossiyaliklarning aksariyati hanuzgacha televideniye orqali yangiliklarni qabul qilishadi (2015 yilda 62%, 2017 yilda 52%).

Shu bilan birga, internet ommalashishi ham davom etmoqda (axborot saytlari, ijtimoiy tarmoqlar va bloglarni o'z ichiga olgan holda) – barcha respondentlarning 32%

⁴⁹ Domingo, D., Heinonen A. Weblogs and Journalism A Typology to Explore the Blurring Boundaries // Nordicom Review. 2008. №1 (29) .- pp. 3-15.

⁵⁰ Bowman S., Willis, C. We Media How audiences are shaping the future of news and information. The Media Center at The American Press Institute, 2003.-66 pp.

⁵¹ Key trends in social and digital news media // Pew Research Center URL: <http://www.pewresearch.org/fact-tank/2017/10/04/key-trends-in-social-and-digital-news-media/> (contact date: 17.01.2018).

undan yangiliklar materiallarini qidirishda foydalanishadi (2015 yilda 22 %). 18-24 yoshdagi yoshlarning 65% va 25-34 yoshlilarning 50% uchun internet allaqachon yangiliklarning asosiy manbai bo'lib ulgurgan.⁵²

O'zbekistonda esa internet yangiliklar manbai sifatida rivojlanish bosqichiga qadam qo'ydi, desak, xato qilmaymiz. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, an'anaviy OAVning o'rni ustunlik qilmoqda. Podrobno.uz elektron nashrining muxbiri kommunikatsiya mutaxassisi, PR-Adviser* Madina Ro'zmatova bilan bo'lgan suhbatida O'zbekistonda blogsohaning o'rni haqida suhbat borar ekan, mutaxassisning quyidagi fikrlaridan mamlakatimizda yangiliklar manbai sifatida internet platformasining rivojlanganlik darajasini bilib olish mumkin: «Afsuski, mamlakat miqyosida olsak, bloggerlar jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydilar. Men tushunaman, hozir aytadiganlarim oddiy ibora emas, lekin bu haqiqat. [Pool-Facebook](#)* yoxud bir qancha Telegram kanallari qamrovi darajasi 10% ni ham tashkil [etmaydi](#)». ⁵³

Yangilik manbalarining ishonchligi RF va AQShda ham farq qiladi. Masalan, amerikaliklarning atigi 3-6 foizi ijtimoiy tarmoqlardan olingan yangiliklarga ishonadi. Bundan farqli o'laroq, blogsoha va ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarga ishonadigan rossiyalik foydalanuvchilar soni ancha ko'p - 10%.⁵⁴

O'zbekistonda esa aksariyat foydalanuvchilar faqat rasmiy maqomga ega saytlardagi xabarlarga ishonishadi. Buning sababni tadqiqotchilar quyidagicha izohlashadi: «Media-kontentda noto'g'ri ma'lumotlar, shuningdek klikbait sarlavhalar ko'paygan. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda aholi va jurnalistlar o'rtasida ommaviy axborot vositalari va axborot savodxonligi darajasi to'g'risida xavotirlar tobora oshib bormoqda». ⁵⁵

Blog siyosiy platforma sifatida. Blogsohani har uch davlat uchun qo'llashning yana bir keng tarqalgan sohasi – bu siyosat. Masalan, AQShdagi saylov kompaniyalari paytida bloglardan keng foydalanilgan. ⁵⁶

2006 yilda o'tkazilgan Pew Internet & American Life tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, 39% amerikalik internet foydalanuvchilari bloglarni o'qiydi va 8% amerikalik internet foydalanuvchilari o'zlarining bloglariga ega. Internet tomonidan

⁵² Пресс-выпуск № 3367 // ВЦИОМ URL: <https://wciom.ru/index.php?id=236&uid=116190> (Контактная информация: 17.01.2018).

⁵³ «Меня пугает появившаяся в последнее время тенденции считать блогеров противостойкой стороной» - Мадина Рузматова// Академический URL: <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/menya-pugaet-royavivshayasya-v-poslednee-vremya-tendentsiya-schitat-bloggerov-protivostoyashchey-stor/> (Контактная информация: [19.06.2020](#)).

⁵⁴ Доверие к средствам массовой информации // URL исследовательского центра Pew: <http://www.journalism.org/2017/05/10/americans-attitude-about-the-news-media-deeply-divided-along-partisan-lines/> pj_2017-05-10_media-attitude_a-05 / (Контактная информация: 19.01.2018).

⁵⁵ Исследование IWPR: Социальные сети – важный источник новостей в Узбекистане// Академический URL: <https://cabar.asia/ru/issledovanie-iwpr-sotsialnye-seti-vazhnyj-istochnik-novostej-v-uzbekistane> (Контактная информация: 16.03.20120).

⁵⁶ Messner M. The blog election: An analysis of the source interaction between traditional news media and blogs in their coverage of the 2006 Congressional midterm elections // ProQuest Dissertations Publishing. University of Miami, 2009.-201 pp.

taqdim etilayotgan hamkorlik va o'zini namoyon qilishning yangi usullari ushbu stavkalarining ko'tarilishi bilan o'z o'rnini yanada mustahkamlab bormoqda.⁵⁷

Rossiyada bloglar siyosiy kurash uchun ham ishlatilgan, ammo ulardan siyosiy aloqa vositasi sifatida foydalanish AQShdan farq qiladi. Xususan, rossiyalik siyosiy bloggerlar o'zlarining muxoliflari bilan Amerikadan ko'ra ko'proq axborot almashinishadi. Rossiya bloglari doirasida bir xil fikrlaydigan odamlar guruhida o'zini takrorlash va o'zini ajratish hodisasi kam kuzatiladi. Siyosiy bloglar juda ko'p mavzular va pozitsiyalarni qamrab oladi va mustaqil nuqtai nazarni aks ettiruvchi munozaralar, shuningdek, tarmoqdan tashqari harakatlar bilan bog'liq munozaralar uchun platforma bo'lib xizmat qiladi.⁵⁸

O'zbekistonda ham blogsohaning siyosiy vazifalari sekin asta shakllanib bormoqda. So'nggi ikki yil ichida mamlakatning zamonaviy tarixida birinchi marta o'zbek ommaviy axborot vositalari o'zlarining o'tmishdagi rang-barang maqolalarini tanqidiy baholashdi, mamlakatning davlat sifatidagi kelajagiga nisbatan bugungi va hozirgi siyosatini skeptik* tahlil qilishdi. Diplomat.com nashrining [«A New Era for Press Freedom in a Changing Uzbekistan?»](#) deb nomlangan maqolasida mamlakatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga Prezident Shavkat Mirziyoev ijro etuvchi hokimiyat vakillari bilan ular bajargan ishlar bo'yicha videoselektor o'tkazishda kamera va jurnalistlar ishtirokini ta'minlash orqali turtki yaratib berdi.⁵⁹

Muallifning tahlilicha, Mamlakat tarixida birinchi marta o'zbek bloggerlari Prezident farmoni bilan e'tirof etildi. 27 iyun OAV xodimlari kunida Bosh vazir Abdulla Aripov mukofotlash marosimini o'tkazdi, unda bloggerlar @xushnudbek (Xushnudbek Xudayberdiev) va @davletov (Qobil Xidirov)lar faoliyati ilk bor an'anaviy OAV vakillari qatorida alohida e'tirof etildi. Bloggerlar o'z xabarlarini joylashtirish uchun Rossiyada ishlab chiqilgan Telegramning xabar almashinish dasturidan foydalanadilar. 6-iyul holatiga ko'ra, @xushnudbekning 117000, @davletovning esa 35000 ga yaqin kuzatuvchisi borligi qayd etilgan. Ikkala bloggerning auditoriyasi kundan kunga o'sib bormoqda.⁶⁰

Xulosa o'rnida, Rossiya Federatsiyasida, AQSh va O'zbekistonda bloglarni jurnalistik vosita sifatida qo'llashda o'zaro o'xshashliklar va farqlarni quyidagicha talqin qilish mumkin:

⁵⁷ Gil de Zuniga H, Veenstra A.S., Vraga E.K., et al. Online and Offline Activism: Communication Mediation and Political Messaging Among Blog Readers // Association for Education in Journalism and Mass Communication, At Washington, DC. 2007.-46 pp.

⁵⁸ Eitling, B., Faris R., et al. Public Discourse in the Russian Blogosphere: Mapping RuNet Politics and Mobilization. // Berkman Center Research Publication. The Berkman Center for Internet & Society at Harvard University, 2010.-46 pp.

⁵⁹ Узбекистане активизировалась блогосфера// Академический URL: <https://vestikavkaza.ru/analytics/V-Uzbekistane-aktivizirovalas-blogosfera.html> (Контактная информация: 09.07.2019).

⁶⁰ Узбекистане активизировалась блогосфера// Академический URL: <https://vestikavkaza.ru/analytics/V-Uzbekistane-aktivizirovalas-blogosfera.html> (Контактная информация: 09.07.2019).

Birinchidan, Rossiya fanida bloglar ko'proq fuqarolik jurnalistikasi platformasi sifatida emas, balki an'anaviy ommaviy axborot vositalari uchun manba yoki kanal sifatida qaraldi. Shu jumladan, O'zbekistonda ham.

Ikkinchidan, Qo'shma Shtatlarda onlayn-ommaviy axborot vositalarining mashhurligi Rossiyaga qaraganda ancha yuqori bo'lsa-da, ruslar bloglar va ijtimoiy tarmoqlardan olingan xabarlariga amerikaliklarga qaraganda ko'proq ishonishadi. O'zbekistonda esa bu sohada rivojlanish hali unchalik yuqori bo'lmaganidek, axborot olishda respondentlar aksariyat hollarda faqat rasmiy maqomdagi saytlarga ishonishadi.

Uchinchidan, bloglar Amerika Qo'shma Shtatlari va Rossiyada foydalanuvchilar tomonidan siyosiy muloqot uchun faol foydalanilayotganiga qaramay, asosiy farq Rossiya blogsohasi doirasida bloggerlar gugruhlari o'rtasida siyosiy fikr almashinuvi AQSHga qaraganda ancha shaffof.

O'zbekistonda esa hozircha bu borada dastlabki qadamlar qo'yilmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina Adliya vazirligining ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlashini tahlil qiladigan bo'lsak, o'rtadagi farqni ko'rish qiyin bo'lmaydi.

Adliya organlari va muassasalari faoliyatini keng jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishi, ular tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar to'g'risida darhol Adliya vazirligiga xabar berish maqsadida, «Facebook» ijtimoiy tarmog'ida «Adliya bilan muloqot/ Диалог с юстицией» guruhi tashkil etildi. 2019-yilda ushbu sahifa orqali 4,5 mingdan ziyod murojaatlar kelib tushgan va tegishli tartibda ko'rib chiqilib, huquqiy maslahatlar berilgan. Uning hozirgi kunda 11 mingdan ortiq a'zosi bor. Ushbu sahifada shu kunga qadar 6300 dan ortiq turli xil ma'lumotlar, munosabatlar va sharhlar berilgan.

Vazirlikning Twitter (700ga yaqin a'zosi) va Instagramdagi (7000dan oshiq a'zosi bor) sahifalarida esa shu kunga qadar mingdan ortiq turli ko'rinishdagi (rasm, infografika, video) ma'lumotlar joylashtirilgan. Ushbu sahifalar orqali vazirlik nafaqat o'z faoliyatiga oid yangiliklarni, balki tarmoq foydalanuvchilariga huquqiy axborotlarni ham yetkazadi. Ularning huquqiy ongi va bilimini oshirishga o'z hissasini qo'shadi.⁶¹

Mamlakatimizda aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda nafaqat jurnalistlar, balki bloggerlar ham faol harakat qilmoqda. Bu esa o'z-o'zidan blogsohaning siyosiy patforma sifatida rivojlanishida yangi bosqich bo'layotganligi shubhasiz. Endilikda kuchli huquqshunos bloggerlar davlat organlarining faoliyatini tahlil qilib, o'z fikr-mulohazalari orqali, ular ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishiga hissa qo'shmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina Qobil

⁶¹ S.O'rinboyeva. Globallashuv davrida PR va xalqaro kommunikatsiyalar: ananalar va innovation yondashuv// Ijtimoiy media bo'yicha maxsus PR-alloqalar. T.,2020.-27-bb.

Xodirovning t.me/davletovuz telegram kanalida yoritib borilayotgan mulohazalardan ham buning guvohi bo'lishimiz mumkin.

Unda 2021 yilning 2 fevral kuni «Суд ва прокуратура ҳаётидан» sarlavhali maqola e'lon qilinib, ortidan «Хаётни қонуний доирага қайтариш керак» sarlavhasi ostida bloggernig fikr-mulohazalari chop etildi. E'tibor berib qaralsa, blogger siyosiy institutlarning asl vazifasi va vakolati doirasidan tashqari ishlar o'rtasidagi tafovutga urg'u berib, «hamma o'ziga yuklatilgan ishni bajarsagina siyosiy yuksalish, demokratik jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shgan bo'ladi» degan g'oyani ilgari suradi. Uning talqinicha, «yoshlar bandligi bilan shug'ullanayotgan prokuror, ayollar muammolarini o'rganayotga sudya O'zbekistondagi muammolarning yechimi emas». «Xalq prokuror yoki suddan norozi bo'lishi mumkin, lekin hech qachon ishsizligi, svet-gazi yo'qligi uchun emas. Xalq ulardan o'z qonuniy vakolati doirasida bajarayotgan/bajarmayotgan ishlaridan norozi bo'lishi [mumkin](#)». ⁶²

Bulardan shunday xulosaga kelish mumkin: mamlakatimizda saylovoldi targ'ibot jarayonida faollashib borayotgan blogsoha, jamiyat qusurlarini, siyosiy elita madaniyatining parda ortidagi hayotini ommaga ochiq-oydin ko'rsata olayotgan jurnalist va bloggerlarning axborot erkinligi va siyosiy platformaning shaffofligini ta'minlashida to'siqlar hali talaygina. Ularni yengib o'tishda esa oldimizda qilnadiagn ishlar ko'p.

Izohlar*

*rekreativ – maroqli, ko'ngilochar omillarni o'z ichiga oluvchi ma'lumotlar majmui

*celebrity – mashhur shaxs

*adviser – maslahatchi

*pool facebook – bu jamoaviy investitsiyalarni tashkil etish shakli, shu jumladan, HYIP fondi bo'lib, unda bir guruh investorlar depozit uchun pulni bir kishiga - pool egasiga o'tkazishadi. U HYIP fondiga hissa qo'shadi, so'ngra daromadni investorlar o'rtasida taqsimlaydi.

* skeptik – bu skeptisizm atamasining bir ko'rinishi bo'lib, skeptisizm - bu shubhalarni fikrlash printsipli sifatida ilgari suradigan falsafiy yo'nalish, ayniqsa haqiqatning ishonchliligiga shubha bilan qarash.

⁶² <https://t.me/davletovuz>

Foydalanilgan manbaalar:

1. Радченко И. А. Стручок красный. Топильской Е. Е .. Учебный словарь терминов рекламы и паблик рилейшенз. Воронеж: ВФ МГЭИ, 2007.
2. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. М., 1998.
3. Корконосенко С. Г. Основы журналистики. М .: Аспект Пресс, 2001.
4. Глинская И.Ю. Средства массовой коммуникации и их действие на массовое сознание // Массовые информационные процессы в современной России. М., 2002.
5. Гражданская журналистика // Академический URL: https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/877863#cite_ref-wemedia_3-0
6. Колезев Д.Е. Журналистика и блог: взаимодействие и взаимовлия // Известия Уральского федерального университета. Серия 1: Проблемы образования, науки и культуры. Екатеринбург: Уральский федеральный университет имени первого Президента России Б.Н. Ельцина, 2010.
7. Филатова Ольга Георгиевна Блоги и СМИ, гражданская и традиционная журналистика: соотношение понятий // Вестник СПбГУ. Язык и литература. 2010. №4.
8. Главные мобайл-тренды, итоги года и кейсы международных спикеров: как прошла последняя конференция Mobicon 2019 // Академический URL: <https://kun.uz/ru/53615695>
9. Eitling, B., Faris R., et al. Public Discourse in the Russian Blogosphere: Mapping RuNet Politics and Mobilization. // Berkman Center Research Publication. The Berkman Center for Internet & Society at Harvard University, 2010.
10. Названы самые популярные среди узбекистанцев соцсети и сервисы// Академический URL: <https://repost.uz/socialochka>.
11. Исследование IWPR: Социальные сети – важный источник новостей в Узбекистане// Академический URL: <https://cabar.asia/ru/issledovanie-iwpr-sotsialnye-seti-vazhnyj-istochnik-novostej-v-uzbekistane>.
12. Популярность TikTok добралась до Узбекистана// Академический URL: <https://www.spot.uz/ru/2019/10/16/tiktok>.
13. Lasica, J.D. Blogs and Journalism Need Each Other. // Nieman Reports. 2003.
14. Domingo, D., Heinonen A. Weblogs and Journalism A Typology to Explore the Blurring Boundaries // Nordicom Review. 2008. №1 (29).
15. Bowman S., Willis, C. We Media How audiences are shaping the future of news and information. The Media Center at The American Press Institute, 2003.
16. Key trends in social and digital news media // Pew Research Center URL: <http://www.pewresearch.org/fact-tank/2017/10/04/key-trends-in-social-and-digital-news-media/>.
17. Пресс-выпуск № 3367 // ВЦИОМ URL: <https://wciom.ru/index.php?id=236&uid=116190>.

18. «Меня пугает появившаяся в последнее время тенденции считать блогеров противостойкой стороной» - Мадина Рузматова// Академический URL: <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/menya-pugaet-poyavivshayasya-v-poslednee-vremya-tendentsiya-schitat-bloggerov-protivostoyashchey-stor>.
19. Доверие к средствам массовой информации // URL исследовательского центра Pew: <http://www.journalism.org/2017/05/10/americans-attitude-about-the-news-media-deeply-divided-along-partisan-lines/> / pj_2017-05-10_media-attitude_a-05.
20. Исследование IWPR: Социальные сети – важный источник новостей в Узбекистане// Академический URL: <https://cabar.asia/ru/issledovanie-iwpr-sotsialnye-seti-vazhnyj-istochnik-novostej-v-uzbekistane>.
21. Messner M. The blog election: An analysis of the source interaction between traditional news media and blogs in their coverage of the 2006 Congressional midterm elections // ProQuest Dissertations Publishing. University of Miami, 2009.
22. Gil de Zuniga H, Veenstra A.S., Vraga E.K., et al. Online and Offline Activism: Communication Mediation and Political Messaging Among Blog Readers // Association for Education in Journalism and Mass Communication, At Washington, DC. 2007.
23. Eitling, B., Faris R., et al. Public Discourse in the Russian Blogosphere: Mapping RuNet Politics and Mobilization. // Berkman Center Research Publication. The Berkman Center for Internet & Society at Harvard University, 2010.
24. Узбекистане активизировалась блогосфера// Академический URL: <https://vestikavkaza.ru/analytics/V-Uzbekistane-aktivizirovalas-blogosfera.html>
25. Узбекистане активизировалась блогосфера// Академический URL: <https://vestikavkaza.ru/analytics/V-Uzbekistane-aktivizirovalas-blogosfera.html>
26. S.O'rinboyeva. Globallashuv davrida PR va xalgaro kommunikatsiyalar: ananalar va innovation yondashuv// Ijtimoiy media bo'yicha maxsus PR-aloqalar. T.,2020.

ФИО авторов: Rustamov Doston Komil o'g'li, Norbo'tayev Suxrob Muzaffar o'g'li
Guliston Davlat Universiteti

Название публикации: «O'ZBEKISTON AHOLISINI OZIQ - OVQAT BILAN
TAMINLASHDA ISSIQXONALARNING AHAMIYATINI OSHIRISH»

Annotasiya: Ushbu maqola O'zbekiston aholisining oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishda issiqxonalarning ahamiyatini oshirish hamda sabzavot va poliz mahsulotlarini yil davomida yetishtirish, nafaqat O'zbekiston bozorida balki dunyo bozorlariga olib chiqish yuzasida yozilgan.

Kalit so'zlar: Sabzavot, issiqxona xo'jaligi, oziq-ovqat mahsulotlari, investitsiya, agrosanoat tizimi, qishloq xo'jaligi, gidrotexnik, integratsiya, tomarqa xo'jaliklari, agrotexnik xususiylashtirish, samaradorlik.

Mamlakatimiz aholisining turmush darajasining o'sishi, oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga bo'lgan talabi, yil davomida ularni sabzavot va ko'katlarga, gularga, ko'chatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda issiqxonalarning roli tobora o'sib bormoqda. O'zbekistonda issiqxonalarda sabzavotlar, ko'chat va gullarni yetishtirishga xo'jaliklarning qo'shimcha manbayi sifatida qarab kelingan.

Ammo hozirgi kunda aholini yashash sifatini oshishi, yil davomida vitaminlarga boy sabzavotlarga va sitrus mevalariga bo'lgan talabning oshishi, bu sohada ilg'or xorij texnologiyalari va tajribalarini keng qo'lashni taqozo etmoqda. Shuning uchun bu soha uchun malakali mutaxassislarni o'qitish masalasi dolzarb hisoblanadi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi mutaxassisiga qo'yiladigan asosiy talablar: qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi nazariyasi va amaliyotini chuqur bilish; ishga yangicha va ijodiy yondashish yo'llarini izlash; tashabbuskorlik va tadbikorlikni rag'batlantirish; jamoa ishini oqilona tashkil etishni bilishdan iboratdir.

Mamlakatimizda agrar sohadagi islohotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, qishloqda aholining 63 % dan ko'prog'i istiqomat qiladi, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 30 % dan ortig'i qishloq xo'jalik sohasida ishlab chiqariladi, iqtisodiyotning 70 % dan ziyodi mazkur sohaga bog'liq.



Mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va eksport qilish hajmlarini ko'paytirish, qishloq xo'jaligiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunga qaramay meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda va xorijiy davlatlarga eksport qilishda issiqxona xo'jaliklarining salohiyatidan to'laonli foydalanishga to'sqinlik qilayotgan muammolar saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan ham mazkur maqolam mavzusi o'zining dolzarbligi bilan izohlanadi. Zamonaviy issiqxona komplekslarini tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning amaldagi mexanizmlari samaradorligining pastligi meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, mazkur sohaga investitsiyalar jalb qilish bo'yicha biznes-loyihalarni keng miqyosda amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Issiqxonalarning asosiy qulay va afzallik tomoni yil davomida sabzavot va poliz mahsulotlarini yetishtirish mumkin. Xonadonimizda kichik issiqxonalar tashkil etish orqali o'zimiz va oila a'zolarimizni ish bilan taminlab yaxshigina daromad olishimiz mumkin. Issiqxonada sabzavotlar yetishtirishning ochiq maydonda ekib hosil olishdan ko'ra ancha afzallikka ega, chunki issiqxonada yil davomida qulay sharoit yaratib bir necha marta mo'l hosil olishimiz mumkin. Sabzavotlar aholini oziq-ovqat bilan ta'minlanishida muhim o'rin tutadi. Ularning tarkibida uglevodlar, har xil tuzlar,

vitaminlar, qand, oqsil, organik kislotalar va boshqa qimmatli ozuqa moddalari mavjud. Tarkibida efir moylari bo'lgan (piyoz, sarimsoq, ukrop, petrushka, selderey) sabzavotlar ovqatni xushta'm, mazali qiladi va oshqozon shirasini ajratib chiqarishni yaxshilaydi. Bu esa ovqat hazm qilishni kuchaytiradi. Piyoz, sarimsoq tarkibidagi efir moylari juda kuchli fitonsid xossaga ega bo'lib, ular kasal tug'diruvchi mikroorganizmlarni o'ldiradi va kishilarni ko'pgina yuqumli kasalliklardan himoya qiladi. Ovqatda vitaminlar yetishmasligi moddalar almashinuvining buzilishi va avitaminoz bilan kasallanishga olib keladi. Katta yoshdagi kishilarning bir sutkali vitaminlarga bo'lgan ehtiyoji C-70-120, A-I-2, B-2-3, B-2,5-3,5, PP-15-25 milligrammni tashkil qiladi.



Turli xil sabzavotlar yetishtirish, shahar aholisini sabzavot bilan ta'minlash darajasi hali ancha past. Aholi jon boshiga o'rtacha talab qilinadigan sabzavot 99-153 kg ni tashkil qiladi, shundan karam 35-85 kg, pomidor 25-32 kg, bodring 10-13 kg, sabzi 6-10 kg, ko'k no'xat 6-8 kg, baqlajon 2-5 kg, chuchuk qalampir 1-3 kg va boshqa sabzavotlar 4-7 kg ni tashkil etadi. Agrotexnika jihatidan parniklarga ko'chat ekish uchun eng qulay muddat quyidagi paytlarga to'g'ri keladi: ertagi karam - 20 dekabr dan 15 yanvargacha; - pomidor -10 fevral dan 1 martgacha; - baqlajon - 15 fevral dan 1 martgacha; - garmdori -25 fevral dan 10 martgacha hisoblanadi.

Aholining meva-sabzavotlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda issiqxonalarning o'rni benihoya katta bo'lib masalan katta miqdordagi suvni ham tejab qolishimiz mumkin. Chunki issiqxonalar tomchilab sug'orish tizimiga ega hisoblanadi. Tomchilab sug'orish natijasida o'simlik ildiziga yaqin tuproqda namlik me'yorida saqlanishi natijasida o'simlik quyosh nuri, shamoldan va bug'lanishdan saqlanadi. Bugungi kunda dunyo va mamlakatimiz aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini taminlashda issiqxonalarning ahamiyatini taminlash yuzasidan maqsadli "O'zbekiston aholisini oziq-ovqat bilan taminlashda issiqxonalarning ahamiyati" mavzusidagi maqolamda keng doirada asoslab o'tdim.

O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo'yicha Davlat qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Agrosanoat kompleksi va oziq-ovqat ta'minoti sohasida loyihalarni amalga oshirish agentligining 2019-yilda zamonaviy issiqxona komplekslarini tashkil etish bo'yicha loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirish uchun Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi va xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlarining kredit liniyalari hisobiga 200 million AQSH dollaridan kam bo'lmagan hajmda mablag'lar jalb etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 26- fevraldagi 55-sonli qarori hamda 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu yozgan maqolam muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi:

Yurtimizda issiqxona va issiqxona xo'jaligi paydo bo'lganiga uncha ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada bir qator olimlarimiz bu sohaga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shib ulgurishdi. Jumladan G'.A.Samatov, J.Y.Yodgorov, Z.T.Siddiqovlar va yana bir qancha olimlarimiz bu sohaga o'z hissalarini qo'shishgan. Yosh olimlarimizdan Navoiy Davlat Konchilik instituti magistranti Abduhalil Samadov kashf etgan agroinnovatsiya issiqxonada yilning 4 faslida sutkaning istalgan vaqtida zarur bo'lgan mo'tadil haroratni taminlay oladi. Albatta bu kabi ixtirolar issiqxona xo'jaligining rivojlanishiga qo'yilgan muhim poydevor bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'.A.Samatov, J.Y.Yodgorov, Z.T.Siddiqov " Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati 2007- yil. 186 bet.
- 2.Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi -(darslik)- T.: TDIU, 2004. - 304 bet.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 yil. -288 bet.
4. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. - Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. - T.: T
5. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent 2000-2005 yil.

ФИО автора: Nargiza Aliyeva,

Namangan davlat universiteti talabasi

Название публикации: «HADISSHUNOSLAR SULTONI – IMOM AL-BUXORIY»

Anatatsiya: Ushbu maqolada, IX asrda hadis ilmida katta muvoffaqqiyatlar qozongan, musulmon dunyosida “amir al-mo’minin” nomiga sazovor bo’lgan Imom al-Buxoriy va uning “Al-Jome’ as-sahih” asari xaqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zi: Imom al- Buxoriy, Buxoro, hadis ilmi, “Sahihi-Buxoriy”, musofirlik, Hijoz, Makka, Madina, Samarqand, Xartang, yodgorlik, xalqaro markaz, axloq, oila.

Hadis⁶³ ilmida sahih⁶⁴ yo’nalishning asoschisi, yetuk va mashhur muhaddis Imom al-Buxoriy musulmon dunyosida “Amir ul mo’minin”, “Imom al muhaddisiy” deya ta’riflangan istedodli, ziyrak olim, ustozlari va do’stlari orasida ilmi orqali xurmat qozongan o’tkir zehin sohibi hisoblangan.

Imom al-Buxoriyning asl ismi Muhammad, kunyasi Abu Abdulloh, laqabi ba’zan imom al-Muhaddasiy (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba’zan amir ul-mo’miniyn fi-l-hadis (hadis ilmining amiri, sultoni) va nabasi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug’iyra ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdur.

Imom al-Buxoriy ilm-fan va madaniyat ravnaqida azaldan mashhur bo’lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Mana shu muhtasham shahar – Buxoroi sharifda 194-xijriy sana, shavval oyining 13-kunida saloyu-ul-jum’adan keyin (810-millodiy sana 21-iyul) jami muhaddislarning imomi, Payg’ambar (s.a.v)ning muborak hadislariga durdonasimon sayqal berib, ularni abadul abad barxayot qilgan zot imom al-Buxoriy dunyoga kelgan⁶⁵.

Imom al-Buxoriy 10 yoshidan boshlab hadislarini o’rgana boshlaydi. 11 yoshidan esa ba’zi ustozlarining xatolarini topa boshladi. Abu Ja’far Muhammad

⁶³ Hadis - arab tilida “xabar, xikoya” ma’nosini anglatadi. Bu so’zga sinonim tarzida “Sunnat” so’zini ham qo’llaydilar va u arabchada “yo’l, odat, xabar” ma’nolarini bildiradi.

⁶⁴ Sahih – ishonarli hadislar.

⁶⁵ Uvatov U. O’zbekiston- Buyuk allomalar yurti. – Toshkent: Ma’naviyat-Movaraunnahr, 2010. – B. 8.

ibn Abu Xotamal-Varroq shunday deb yozadi: “Al-Buxoriyning “Hadislarni yod olish ilhomi menga boshlang’ich maktabda o’qiyotganimda kelgan edi”, – deganini eshitganimda, “O’shanda necha yoshda edingiz?” – deb so’radim. U “10 yoshda, balki undan ham kichik edim”, – deb javob bergandi”⁶⁶. Bu misoldan ko’rinib turibdiki, Imom al-Buxoriy juda yoshligidan boshlab hadislarni yod olib, bu mashg’ulotga alohida zavq-shavq va qiziqish bilan qaragan.

Al-Buxoriy hadis ilmini dastlab Buxoroda o’rganishga kirishdi. Bu shaharda yashagan muhaddislar Muhammad ibn Sallom al-Poykandiy (777-839) va Abdulloh ibn Muhammad al-Masnadiy al-Ju’fiy (843-yili vafot etgan) dan hadis ilmini o’rganib, ko’p hadislarni yod oldi⁶⁷.

Manbalarda yozilishicha, al-Buxoriy balog’at yoshiga kirguncha o’z davrining barcha mashhur kitoblarini to’liq o’rganib chiqqan, 16 yoshida akasi Ahmad va onasi bilan xaj safariga yo’l olgan. U Balx, Basra, Kufa, Bog’dod, Xums, Damashq, Qohira, Makka va Madina kabi yirik shaharlarda mashhur olimlardan islom ta’limotini, ko’proq hadis ilmini o’rgandi.

Al-Buxoriy musofirlik hayotining ko’p qismini Makka va Madina shaharlarida o’tkazdi. Bu yerda ilm olish bilan bir vaqtda o’zining asarlari uchun ma’lumot to’play boshladi. Suriyalik olim Jamoliddin al-Damashqiy o’zining “Al-Buxoriy hayoti” asarida allomaning: “O’n sakkizga kirganimda “Saxobalar va tobeinlarning muammolari”ni keyinroq esa “Katta tarix”ni yozdim. O’sha vaqtda Madinai Munavvarada Payg’ambar alayhissalom qabrlariga yaqin joyda yashardim. Asosan oydin tunlarda yozuv bilan mashg’ul bo’lardim. Tarixda men bilmagan nom juda kam edi. Lekin kitob uzayib ketishini istamadim...”, degan so’zlarini keltiradi. Bu ma’lumot al-Buxoriyning ilm-fan yo’lidagi katta g’ayrat va shijoatidan darak beradi.

Al-Buxoriy qaysi shaharga bormasin, asosiy maqsadi ilm o’rganish bo’lib, o’sha yerdagi shayxlar, olimu fozillar xuzurida turgan. Masalan, al-Buxoriy arab xalifaligi poytaxti Bog’dodga sakkiz marotaba borgan va har safar fiqhshunos olim Imom Ahmad ibn Xanbal xuzurida mehmon bo’lib, hadis ilmidan saboq olgan. Imom al-

⁶⁶ Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 9.

⁶⁷ Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 25-26.

Buxoriy “Men hadislarini 1080 ta muhaddisidan yozib oldim” – deb xotirlaydi oʻz asarlarining birida.

Oradan yillar oʻtib, u oʻz yurti Buxoroga qaytgan. Buxoro xalqi ham buyuk muhaddisni mamnun kutib olgan. Bu yerda al-Buxoriy talabalarga hadis ilmidan dars bergan.

Buyuk muhaddisning soʻnggi kunlari xaqida Abu Toxirxoʻja Samarqandiy oʻzining “Samariya” asarida shunday yozadi: “.....u Xartangga (hozirga Poyariq tumani) kelib turdi. Shu yerda Haq rahmatiga vosil boʻldi... Imom Muhammad 256-yilda (milodiy 869-yil) Ramazon hayitining kechasi xufton namozidan keyin vafot etdi”⁶⁸.

Mustaqillik sharofati bilan Imom Buxoriyga yuksak ehtirom sifatida Samarqandning Chelak tumani Xartang qishlogʻida Imom al-Buxoriy yodgorligi majmui barpo etiladi. Ushbu yodgorlik Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 29-apreldagi “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim boʻyicha 1225-yilligini nishonlash toʻgʻrisida”gi Qaroriga muvofiq allomaning maqbarasi oʻrnida barpo etildi. Majmua 1998-yida ochilgan. Yodgorlik majmui avvalo ziyoratgoh, qadamjo, soʻng kundalik, juma, hayit namozlari oʻqiladigan joy vazifasini oʻtaydi. Umumiy maydoni 10 ga ni tashkil etadi. Majmuada maqbara, mamuriy bino, masjid, kutubxona, ilmiy xodimlar xonasi va boshqa yordachi honalar mavjud. Masjid va peshayvonida 1500 gacha kishi namoz oʻqishi mumkin. Masjid ichidagi mehrobning oʻng tomoniga Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovga Saudiya Arabistoni podshohi Faxd ibn Abdul Aziz tuxfa qilgan kisva – kabapush parchasi osib qoʻyilgan⁶⁹.

Shuningdek, Buxoriyning boy merosini chuqur oʻrganish va keng targʻib qilish maqsadida 1998-yil 4-noyabrda Imom Buxoriy xalqaro markazi tashkil etildi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga qimmatli va boy ilmiy meros qoldirgan boʻlib, u yozgan asarlarning soni 20 dan ortiqdir. Musulmonlar diniy idorasi kutubxonasida allomaning “Al-Jomʻ as-Sahih” (“Ishonchli toʻplam”), “At-Tarix al-Kabir” (“Katta

⁶⁸ Самарқандий Абу Тохирхўжа. Самария. – Т.: Мерос, 1991. – Б. 58.

⁶⁹ Ислон энциклопедияси. – Т.: ЎзМЭ, 2004. – Б. 110.

tarix”), “At-Tarix as-Sag’ir” (“Kichik tarix”), “Al-Qiroatu xalfa-l-Imom” (“Imom ortida turib o’qish”), “Raf’ul-yadani fis-Saloti” (“Namozda ikki qo’lni ko’tarish”) kabi asarlari qadimiy nusxalari mavjuddir.

Imom al-Buxoriyning “At-Tarix al-Avsat” (“O’rta tarix”), “At-Tavsir al-kabir” (“Katta tafsir”), “Al-Jome’ al-Kabir” (“Katta to’plam”), “Kitobul-Xiba” (“Hadiya kitobi”) kabi katta va kichik xajmlardagi bir qator kitoblar yozganligi tarix kitoblaridan ma’lum⁷⁰.

Imom al-Buxoriyning islom olamida mashhur qilgan va buyuklikka olib chiqqan asari shubxasiz, “Al-Jome’ as-Sahih” (“Ishonarli to’plam”) bo’lib, “Sahihi Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Ushbu asarni Buxoriy 16 yil davomida yozadi. Uning g’oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom Buxoriygacha o’tgan muhaddislar o’z to’plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o’tirmay kiritaverganlar. Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo’lib, ularni ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratgan. Al-Buxoriyning shogirdlari ta’kidlashicha, ul kishi yuz mingta sahih (ishonchli) va ikki yuz mingta nosahih (shubhali) hadisni yoddan bilgan hamda “Al-Jome’ as-Sahih” ni tahminan olti yuz mingta hadislar orasidan saralab olgan⁷¹.

Alloma Ibn Saloh (1245-yil vafot etgan) ta’kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo’lib, takrorlanmaydigan xolda esa 4000 hadisdan iborat⁷².

Al-Buxoriyning “Al-Jome’ as-Sahih” asari sunniylar tomonidan e’tirof etilgan “Sihohi sitta” (“Olti sahih kitob”) ning birinchisi hisoblanadi.

Islomshunoslarning yozishicha, “Al-Jomi’ as-Sahih” oldingi hadis to’plamlaridan ko’ra mohirona tuzilgan. Muallif zamondoshlarini juda qiziqtirgan qonunchilik va odatlarga tegishli bo’lgan hadislarinigina emas, balki Muhammad alayhissalom va sahobalar tarjimai xoliga, xattoki, payg’ambar yashagan davrning tarixiy va etnografik jihatlariga oid hadislarini ham jamlagan.

⁷⁰ Уватов У. Ҳадис илмининг султони. – Т.: Имом Бухорий халқаро маркази, 2009. – Б. 31.

⁷¹ Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydulayev O’. Vatan tarixi. – №1. — Toshkent: Sharq, 2010. – B. 187-189.

⁷² Носиров К. IX-X асрларда Ўрта Осиё мутафаккирларининг ахлоқий тарбия ҳақидаги ғоялари (Ал-Бухорий ва ал-Форобий асарларни мисолида). – Т.: Фан, 2000. – Б. 58-59.

“Al-Jome’ as-Sahih”da payg’abarimizning hadisi shariflari “Iymon”, “Tahorat”, “Namoz”, “Zakot”, “Haj”, “Nikoh”, “Taloq”, “Savdo-sotiq kitobi”, “Sulh kitobi”, “Vasiyat kitobi”, “Dastlabki yaratilish” (ya’ni “Olamning paydo bo’lishi”), “Jihad”, “Maloikalar haqida”, “Suv haqidagi hikmatlar” kabi 100 ta bobga bo’lingan. Har bir bobda mavzuga doir hadisi shariflar ishonchli roviylar manbai bilan keltiriladi.

Imom Buxoriy to’plamlariga kiritgan hadislar faqat islom ta’limotiga doir umumiy qoidalarini aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, sahiylik, ochiq ko’ngillilik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik va halollikga da’vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Ularda nima yaxshi, nima yomon, nima qilish kerak, nimadan o’zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimmiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega yo’l yo’riqlar, pand-nasihat va o’gitlar aks ettirilgan.

“Sahihi-Buxoriy”da oila masalasi – er va xotin, ota-ona va farzand, aka-uka va opa-singillar o’rtasidagi munosabatlar xaqida ko’plab ibratli hadislar keltirilgan. Xususan,

Adab kitobi, 2-bob. Yaxshi muomala qilinishiga kim haqliroq?

Abu Hurayra rivoyat qiladilar: “Bir odam Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib: Yo Rasululloh, mening yaxshi muomala qilishimga kim haqliroqdir?” – deb so’radilar. Janob Rasululloh “onang!” – deb aytdilar. U: “Yana kim?” – deb so’radilar. Janob Rasululloh: “Onang!” – dedilar. U “Yana kim?” – dedi, Janob Rasululloh (bu safar): “Otang!” – deb javob qildilar.

3-bob. Ota-onasi rozi bo’masa, jihad qilmaydi.

Abdullohibn Amr rivoyat qiladilar: “Birodam Nabi sallallohu alayhi va sallamga: Jihad qilmoqchiman”, – dedi. Janob Rasululloh: “Ota-onang bormi?” – dedilar. U “Ha” deb aytdi. Janob Rasululloh: “(Avval) ota onangning xizmatini qilib, rozi qilgin, so’ng jihad qilgin!” – dedilar”⁷³.

⁷³ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome’ as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg’ani Abdulloh tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh taxriyati, 1992. – B. 55. www. Ziyouz.com kutubxonasi.

11-bob. Qarindoshlariga beoqibat kishining gunohi haqida.

Jubayr Ibn Mut'im Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning "Qarindoshlariga oqibatsiz odam jannatga kirmaydi" deganlarini eshitgan ekanlar⁷⁴.

24-bob. Yetim boqqan odamning fazilati.

Sahl ibn Sa'd rivoyat qiladilar: "Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Men va yetimning kafilini olgan odam ikkimiz jannatda yonma-yon yashaymiz" – deb ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini juft qilib ko'rsatdilar"⁷⁵.

Buyuk mutafakkir va muhaddis Imom al-Buxoriy o'z asarlarida inson axloqi masalasini keng yoritib bergan. Olim insonni ahloqiy yetuklikka erishmog'i uchun zarur bo'lgan fazilatlarni birma-bir sanab o'tar ekan, har kim saqlanishi lozim bo'lgan va insonni tubanlik, tanazzul sari tortuvchi illatlarni ham yaqqol ko'rsatib beradi. Imom al-Buxoriy merosidagi inson ahloqiga oid fikrlarni faqatgina ibodat yoki diniy amallar, deyish xatodir, chunki u sanab o'tgan fazilatlar umuminsoniy qadriyatlardan bo'lib, ular butun bashariyat tomonidan tan olingan va har bir inson uchun zarurdir.

⁷⁴ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg'ani Abdulloh tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririya, 1992. – B. 58. [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com) kutubxonasi.

⁷⁵ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. 4-jild. Arabchadan Abdulg'ani Abdulloh tarjimasi. – Toshkent: Qomuslar bosh taxririya, 1992. – B. 61. [www. Ziyouz.com](http://www.Ziyouz.com) kutubxonasi.

ФИО автора: Тўхтаева Хадича

магистрант 2 курса УзГУМЯ, г. Ташкент, Узбекистан

Название публикации: «ХАРАКТЕРИСТИКА СИСТЕМЫ ЦЕННОСТЕЙ В АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЧНЫХ ДИАДАХ»

Аннотация. В данной статье исследуется уровневая характеристика системы ценностей в аксиологических пословичных диадах. Понятие ценности является предметом изучения различных наук, в частности философии, психологии, социологии, культурологии, аксиологии и др. социально-гуманитарных наук, в том числе и филологии.

Ключевые слова: пословицы, уровневая характеристика, система ценностей, ценность, антиценность, аксиологические пословичные диады.

Ценность как аксиологическая категория обозначает положительное или отрицательное отношение человека и общества к объектам, явлениям или событиям реального или воображаемого мира, которое базируется на таких их объективно-субъективных оценочных характеристиках, как их нормативность, значимость и полезность для индивида и социума, а также пригодность для удовлетворения человеческих потребностей.

Понятие ценности является предметом изучения различных наук, в частности философии, психологии, социологии, культурологии, аксиологии и др. социально-гуманитарных наук, в том числе и филологии. Это объясняется тем, что «все социальные явления объясняются при помощи понятий «ценность», «ценностные предпочтения», «ценностные ориентации». Это в равной мере относится и к социальной философии, и к частнонаучному знанию (социологии, культурологии, психологии). Все вещи, материальные и духовные объекты, окружающие человека, могут быть представлены как ценности, а те, в свою очередь, выстраиваются в систему. Система ценностей определяет систему действия, а отдельные ценности и ценностные конструкции становятся средой, в

которой оказывается человек действующий» [6]. Ценности не только влияют на выбор типа поведения и поступков человека, но и полностью обуславливают его.

С точки зрения психологии ценность есть мотивационное и когнитивное образование, так как она предопределяет процесс познания индивидом социальной действительности и вместе с тем производит психическую регуляцию его поведения в ней [5]. Она проявляется в виде устойчивого убеждения индивидом в предпочтительности определенного способа поведения, конечной цели существования противоположному способу поведения или конечной цели существования [3].

В социологии понятие ценности толкуется, соответственно, исходя из ее функции социальной регуляции. Социальные ценности в основном представлены нравственными ценностями, которые закрепляются в стереотипах, идеалах, нормах, что одновременно является объектом исследования и культурологии. Если социология изучает ценности с точки зрения их потенциала в формировании регулирующей общество идеологии, то культурология рассматривает их как элемент культуры.

В аксиологии ценность понимается как значимость объекта для человека или общества. Поскольку объект может быть оценен как положительно, так и отрицательно, признана биполярная структура ценности, предполагающая, что у каждой ценности есть противоположность – антиценность. «Ценности формируют ценностную картину мира, которая обусловлена особенностями культуры и связана с реконструкцией определенной ценностной подсистемы знаний человека и включает в себя как коллективные, так и индивидуальные ценности» [3]. В этом заключается основная природа понятия ценности с точки зрения аксиологии.

В лингвистике понятие ценности определяется в соответствии с тем, что «язык как феномен культуры фиксирует и отражает некоторым опосредованным образом как систему ценностей, настроения, оценки, существующие на данный момент в данном социуме, так и ценности, являющиеся вечными для данной культуры» [3]. В лингвистике ценность есть основной элемент моделирования

языковой аксиологической картины мира как отдельной личности, так и лингвокультурной общности.

Многочисленность разноплановых определений понятия ценности в научной литературе свидетельствует о том, что оно является очень важным в функционировании человека, поскольку позволяет ему распознать свою сущность и строить отношения с другими людьми, социальную и трудовую деятельность. Ценность – это величайшее культурное явление, которое выработало человечество за историю своего существования.

Понятие ценности закладывалось еще с древних времен античности. Так, в истории древнего и современного мира имеют место многочисленные выдающиеся личности: философы, ученые, деятели искусств и религии, писатели, поэты, в бессмертных произведениях которых утверждаются общечеловеческие ценности как цель души, для достижения которой человек развивает свои добродетели и формирует свое видение блага.

Пифагор соотносит нравственно-этические качества с числовым порядком, где каждое число означает определенную добродетель. Следует отметить, что Пифагор и его последователи поклонялись четверице: «у пифагорейцев почиталось число четыре, и что они приносили даже клятву Пифагору такого содержания: «Клянемся передающему нам учение о четверице – неиссякаемому источнику природы!». Древние пифагорейцы, а следом за ними и платоники, видели в этой четверке проекцию мироздания, от идеи до ее конечной парадигмы – образования трехмерного тела» [11].

Таким образом, учение Пифагора свидетельствует о том, что им высоко ценились мудрость, справедливость, мужество и др., так как именно эти добродетели, представленные у мыслителя абсолютизированными числами, как и все мироздание в целом, позволяют достичь высшего блага – порядка и гармонии, которые есть путь соединения с Богом.

Сократ глубоко ценил мудрость человека как проявление истинных добродетелей разумности, храбрости, сдержанности и справедливости.

Платон является философом, который пропагандировал освобождение души от зла и порочности. Его учение о благе и добродетели отличается от идей предшественников, хотя и формировалось под их влиянием.

К ценным Аристотель относит божественное благо, которое он определяет как самое лучшее, например: добродетель. Ценимые блага всегда почитаемы, в чести у всех людей. К хвалимым благам относятся добродетели, вызывающие у людей похвалу. Блага-возможности – это те блага, которые добродетельный человек может использовать для добра, а дурной – для зла. В качестве примера на сохраняющие блага Аристотель приводит гимнастику, способствующую сохранению здоровья [2].

Категорию ценности изучали и ученые, мыслители, поэты, писатели Востока, в частности Средней Азии: Ибн Сино (Авиценна), Омар Хайям, Абу Райхон Беруни, Абу Наср Фароби, Алишер Навои, Юсуф Хос Ходжиба и др. Следует признать, что немаловажное место в формировании мировоззрения мыслителей занимают философское и духовно-нравственное учение Заратуштры «Авеста» и религиозные ценности «Корана», в то время как источником развития философов послужило христианское учение «Библии».

О том, какую значимость имело для Ибн Сино понятие ценности, можно судить уже по одному названию его выдающихся трудов, в которых он подробно прописывает ценностные установки и правила поведения человека в обществе и в сфере своей профессиональной деятельности: «Каноны нравственности», «Книга справедливости», «Канон врачебной науки», «Канон о долге», «Управление телом и мыслью» и др. Ибн Сино в своих произведениях пропагандировал развивать в себе качества справедливой, смелой, терпеливой, чистоплотной, чуткой, благодушной личности, заниматься физической культурой тела с учетом своих физиологических особенностей, возраста, пола, правильно питаться и вести здоровый образ жизни, избегать негативно влияющих на энергетику и здоровье человека действий и поступков: нельзя быть жадным, скупым, воровать, мошенничать, лицемерить [1] и т.п.

этажей могут также опускаться на заранее подготовленные земляные подушки, по высоте сопоставимые с уровнем окружающей земной поверхности. При возникновении пожара в здании и поступлении команды с пульта управления раскладывающиеся стеновые секции трансформируются в эвакуационный спуск из здания. Последовательность трансформации секций первого и второго этажей (для двухпанельной секции). При использовании двухпанельной раскладывающейся секции второго этажа угол наклона эвакуационного спуска составит $\alpha=300$, а для уменьшения угла наклона количество панелей в секции должно быть увеличено. Предлагаемый способ проведения эвакуации маломобильных групп населения из малоэтажных зданий в случае пожара не только обеспечивает требуемое время эвакуации, но и беспрепятственный доступ для спасательных подразделений, проводящих тушение пожара, снижает тепловую нагрузку в горящем здании, способствует удалению продуктов горения.

Реализация предлагаемого технического решения, с учетом современных строительных технологий, для типовых проектов обеспечивает также сокращение до минимума сроков строительства, не снижая качества работ. Может также применяться для реализации предлагаемого метода повышения эффективности эвакуации маломобильных категорий граждан из маловысотных зданий социальной защиты населения при пожарах и других чрезвычайных ситуациях и технология быстровозводимых конструкций. Реализация предлагаемого способа для учреждений системы социальной защиты населения, а также здравоохранения и образования с круглосуточным пребыванием людей, в совокупности с другими системами противопожарной защиты этих зданий обеспечит новый уровень безопасности жизни этой части населения.

Литература

1. Свод правил СП 2.13130.2012 «Системы противопожарной защиты. Обеспечение огнестойкости объектов защиты».

2. Свод правил СП 1.13130.2009 «Системы противопожарной защиты. Эвакуационные пути и выходы».

3. Свод правил СП 5.13130.2009 «Системы противопожарной защиты. Установки пожарной сигнализации и пожаротушения автоматические. Нормы и правила проектирования».

4. Свод правил СП 3.13130.2009 «Системы противопожарной защиты. Система оповещения и управления эвакуацией людей при пожаре».

ФИО автора: Nabijanov Abduvokhid Abdugarim ugli

Magistrant, Toshkent kimyo-texnologiyalari instituti, Toshkent, O'zbekiston

Название публикации: «PROBIOTIKLAR VA ULARNING INSON ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada probiotiklar, ularning vazifasi, probiotiklarga boy kundalik mahsulotlar hamda probiotiklarning inson organizmidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Probiotiklar, bakteriya, prebiotik, oshqozon-ichak, ferment, mikroorganizm.

ПРОБИОТИКИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ТЕЛА ЧЕЛОВЕКА

Набиджанов Абдувохид Абдукарим угли

Магистр, Ташкентский химико-технологический институт, Ташкент,
Узбекистан

Аннотация: В этой статье обсуждаются пробиотики, их функции, ежедневные продукты, богатые пробиотиками, а также важность пробиотиков в организме человека.

Ключевые слова: пробиотики, бактерии, пребиотики, желудочно-кишечный тракт, ферменты, микроорганизмы.

Asosiy qism

Probiotiklar – tirik mikroorganizmlar bo'lib, yetarli darajada inson organizmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Probiotiklar qisqa muddat ichida ichaklardagi foydali bakteriyalar salmog'ini oshiradi va bu ayniqsa, antibiotiklar bilan davolangandan keyin muhim ahamiyatga ega. Biroq bu samara uzoq muddat saqlanmaydi va organizmdagi yot mikroorganizmlar tezda halok bo'ladi.

Tadqiqotlar organizmga kiritadigan bakteriyalar mikroflora tarkibini qisqa muddatga o'zgartiradi, ammo dastlabki holat tezda qayta tiklanadi. Shuningdek aytish joizki, ba'zi probiotiklar salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatdi. Probiotiklar tarkibiga kiruvchi har qanday yot mikroorganizmlarga qarshi immun reaksiya ham ijobiy, ham salbiy samara berishi mumkin. Shunday qilib probiotiklarning foydali ham, zararli ham tomonlari borligini unutmaslik kerak. Ularni qabul qilishdan oldin mutaxassis bilan maslahatlashish muhim.

Tirik mikroorganizm sifatida probiotiklar:

- Doim ham ichaklarda yashab qola olmaydi;
- Antibiotiklar ta'sirida halok bo'ladi;
- Organizmda qisqa muddat yashaydi (5-7 kungacha) va inson mikroflorasi ularni siqib chiqaradi;
- Inson mikroflorasi shtammlariga antibiotiklarga qarshilik qiluvchanlik xususiyatini yetkazishi mumkin.

Prebiotiklar – oshqozon-ichak tizimining yuqori qavatlarida hazm bo'lmaydigan va parchalanmaydigan ovqat komponentlari bo'lib, yo'g'on ichak mikroflorasida fermentatsiyalanadi va ularning yashovchanligi hamda rivojlanishini rag'batlantiradi.

Prebiotiklar mikrofloraga probiotiklarga qaraganda ko'proq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki:

- Oshqozon-ichak tizimida parchalanmaydi va antibiotiklar hamda oshqozon og'ir kislota muhitiga bardoshli;
- Insonning qator foydali bakteriyalari shtammining o'sishi va rivojlanishini rag'batlantiradi;
- Yot genlar saqlamagani bois organizmning ikkilamchi immun javobini chaqirmaydi;
- Antibiotiklarga qarshilik qilishni rag'batlantiruvchi genlar saqlamaydi.

Probiotiklar foydali bakteriyalardir, prebiotiklar bu bakteriyalar uchun oziq-ovqat hisoblanadi. Prebiotiklar ham, probiotiklar ham inson salomatligi uchun muhimdir. Biroq, ular turli xil rollarni o'ynaydilar:

• **Probiotiklar:** Bu ma'lum oziq-ovqat yoki qo'shimchalarda mavjud bo'lgan jonli bakteriyalar. Ular ko'plab sog'liqqa foyda keltirishi mumkin.

• **Prebiotiklar:** Ushbu moddalar inson hazm qila olmaydigan uglevodlar (asosan tola) turlaridan keladi. Sizning ichakdagi foydali bakteriyalar bu tolani iste'mol qiladi.

Birgalikda ichak florasida ataladigan ichak bakteriyalari tanadagi ko'plab muhim funksiyalarni bajaradi.

Probiotiklar va probiotiklarning muvozanatli miqdorini iste'mol qilish insonning bakteriyalarni to'g'ri muvozanatlanishiga yordam beradi, bu inson sog'ligini yaxshilaydi. Probiotiklar ba'zi oziq-ovqat yoki qo'shimchalarda mavjud bo'lgan foydali bakteriyalardir. Prebiyotiklar ovqat hazm qilish tizimidagi foydali bakteriyalarni oziqlantiruvchi tola turlari hisoblanadi.

Ichak bakteriyalari nima uchun foydali?

Ovqat hazm qilish tizimidagi foydali bakteriyalar insonni zararli bakteriyalar va zamburug'lardan himoya qiladi.

Shuningdek, ular inson immunitet tizimiga signal yuboradi va yallig'lanishni oldini olishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ba'zi ichak bakteriyalari K vitamini va qisqa zanjirli yog' kislotalarini hosil qiladi. Qisqa zanjirli yog' kislotalari yo'g'on ichakni himoya qiladigan hujayralarning asosiy ozuqaviy manbai hisoblanadi. Ular zararli moddalar, viruslar va bakteriyalarni chetlab o'tishga yordam beradigan kuchli ichak to'sig'ini hosil qiladi. Bu yallig'lanishni va saraton xavfini kamaytiradi.

Ichakdagi bakteriyalar turli xil biologik vazifalarni bajarishda yordam beradi. Shuningdek, ular inson ovqat hazm qilish tizimini himoyalaydigan hujayralarni muhim ozuqa bilan ta'minlaydi.

Oziq-ovqat ichakdagi mikrobiotaga qanday ta'sir qiladi?

Inson iste'mol qiladigan ovqat zararli va foydali ichak bakteriyalarining muvozanatida muhim rol o'ynaydi. Masalan, yuqori shakar va yog'li parhez ichakdagi bakteriyalarga salbiy ta'sir qiladi va bu zararli turlarning ko'payishiga imkon beradi.

Agar zararli bakteriyalar muntazam ravishda oziqlantirilsa, ular tez o'sishi va osonroq kolonizatsiyalanishi mumkin, bunda ularning oldini olish uchun foydali

bakteriyalar ko'p bo'lmaydi. Zararli bakteriyalar, inson ichaklaridagi bakteriyalarning sog'lom muvozanatiga zarar yetkazib, ehtiyojga qaraganda ko'proq kaloriyalarni olishingizga olib kelishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, antibiotiklar ba'zi bakteriyalar turlarining doimiy o'zgarishiga olib keladi, ayniqsa bolalik va o'smirlik davrida. Antibiotiklardan foydalanish juda keng tarqalganligi sababli, tadqiqotchilar antibiotiklar keyinchalik odamlarda sog'liqqa zarar yetkazishi mumkin bo'lgan omillarni o'rganmoqdalar.

Ichakdagi bakteriyalar iste'mol qilingan oziq-ovqatlarga ta'sir qiladi. Kimyoviy qoldiqlar va antibiotiklar ham ichakdagi bakteriyalar muvozanatini buzishi mumkin.

Qaysi ovqatlar prebiotik hisoblanadi?

Qo'shimcha prebiotik qo'shimchalarni sotib olishdan oldin, prebiotiklarni tabiiy ravishda ko'p kundalik oziq-ovqatlar o'z ichiga olganligini unutmaslik kerak. Sababi, prebiotiklar bu sabzavot, meva va dukkakliklarda mavjud bo'lgan tolalar turlaridir.

Ushbu turdagi tolalarni odamlar hazm qila olmaydi, ammo insonning foydali ichak bakteriyalari ularni hazm qilishi mumkin. Prebiotik tolaga boy oziq-ovqatlarga quyidagilar kiradi:

- Dukkaklilar, loviya va no'xat.
- Banan.
- Mevalar.
- Quddus artishoklari (oddiy artishoklar bilan bir xil emas).
- Sarsabil.
- ko'katlar.
- Sarimsoq piyoz.
- Piyoz.

Inson foydali ichak bakteriyalarining prebiotik tola bilan bajaradigan funksiyalaridan biri bu uni qisqa zanjirli yog' kislotasiga aylantirishdir.

Shuningdek, bu genlarning ifloslanishiga ta'sir qilishi, saraton hujayralarining o'sishini blokirovka qilishi va sog'lom hujayralarni normal o'sishi va bo'linishi uchun yoqilg'i bilan ta'minlashga yordam beradi.

Probiotiklar qaysi ovqatlar?

Tabiiyki, yogurt kabi foydali bakteriyalarni o'z ichiga oladigan ko'plab probiotik ovqatlar mavjud. Yuqori sifatli, oddiy tarkibli yogurt probiotiklarga boy hamda inson ovqatlanish ratsioniga ajoyib qo'shimcha bo'lishi mumkin. Fermentlangan ovqatlar ham yana bir ajoyib tanlovdir, chunki ular tarkibida foydali bakteriyalar mavjud bo'lib, ular tarkibida tabiiy ravishda hosil bo'ladigan probiotiklar mavjud.

Fermentlangan ovqatlarga misollar:

- Kimchi.
- Yogurt.
- Kombucha choyi.
- Kefir (sutli va sutsiz).
- Ba'zi tuzlamalar (pasterizatsiyalanmagan).
- Boshqa tuzlangan sabzavotlar (pasterizatsiya qilinmagan).

Agar siz ularning probiotik foydalari uchun fermentlangan taomlarni iste'mol qilmoqchi bo'lsangiz, ularning pasterizatsiya qilinmaganligiga ishonch hosil qiling, chunki bu jarayon bakteriyalarni o'ldiradi. Ushbu oziq-ovqat mahsulotlarining ba'zilari, shuningdek, sinbiotik deb hisoblanishi mumkin, chunki ular tarkibida mavjud ham foydali bakteriyalar va bakteriyalar oziqlanishi uchun prebiyotik tolalar mavjud. Sinbiotikli taomga misollardan biri – bu karam bo'lib tarkibida ham probiotik ham prebiotiklar mavjud. Probiyotik ovqatlar tabiiy ravishda foydali bakteriyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu oziq-ovqat mahsulotlarining aksariyati uyda tayyorlanishi yoki oziq-ovqat do'konida sotib olinishi mumkin.

Probiyotik qo'shimchalar haqida nima deyish mumkin?

Probiyotik qo'shimchalar – bu jonli foydali bakteriyalarni o'z ichiga olgan tabletkalar, kapsulalar yoki suyuqliklar. Ular keng tarqalgan va ularni topish oson, Ammo, ularning barchasi bir xil turdagi bakteriyalarga yoki bir xil konsentratsiyaga ega emas. Shuningdek, ular odatda bakteriyalar oziqlanishi uchun tolali oziq-ovqat manbalari bilan birga kelmaydi. Ba'zi probiotik qo'shimchalar bakteriyalarni yaxshi ta'sir qilish uchun ingichka ichakka olib borishga mo'ljallangan, boshqalari ba'zida oshqozon kislotasidan o'tib ketmaydi. Ba'zi odamlar probiotiklarni qabul qilmasliklari

kerak chunki, ularda probiotiklar salbiy alomatlarga olib kelishi mumkin, masalan, ingichka ichak bakterial o'sishi (SIBO) yoki qo'shimchadagi tarkibiy qismlarga sezgir odamlar ushbu qo'shimchalarni iste'mol qilmasliklari kerak bo'ladi.

Probiotik qo'shimchalar juda aniq miqdordagi bakteriyalar turlarini insonning ichaklariga yetkazish uchun mo'ljallangan. Biroq, barcha probiotik qo'shimchalar bir xil sifatga ega emas yoki bir xil miqdordagi bakteriyalarni o'z ichiga olmaydi. Inson ichak bakteriyalarini muvozanatli saqlash inson salomatligining ko'plab jihatlari uchun muhimdir. Buning uchun ko'p miqdordagi prebiotik va probiotik ovqatlar iste'mol qilish kerak, chunki ular foydali va zararli ichak bakteriyalari o'rtasida eng yaxshi muvozanatni saqlashga yordam beradi. Kun oxirida sizning ichak florangizni optimallashtirish sog'liq uchun katta foyda keltirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R. Walker, M. Buckley. Probiotic microbes: the scientific basis. A report from the American Academy of Microbiology, 2006.
2. Е.А. Корниенко, О.К. Нетребенко. ПРОБИОТИКИ: МЕХАНИЗМЫ ДЕЙСТВИЯ И ПОКАЗАНИЯ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ РЕКОМЕНДАЦИЯМИ В ПЕДИАТРИИ. Статья. Санкт-Петербург. 2015.
3. <https://gorzdrav.org/blog/probiotiki-dlja-kishechnika>.

ФИО автора: Saparova Dilnoza

Magistrant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Название публикации: «TA'LIM BOSQICHLARIDA GAP BO'LAKLARINI O'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim bosqichlarida gap bo'laklarini o'rganishning amaliy ahamiyati, gap bo'laklarini o'rgatishning pedagogik metodlari va ularning samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, o'qitish, metodika, amaliyot, tadqiqot

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЗНАЧЕНИЕ ЧАСТИ РЕЧИ В СТЕПЕНИ ОБУЧЕНИИ

Сапарова Дилноза

Магистрант, Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: В статье обсуждается практическое значение изучения частей речи на образовательных этапах, педагогические методы обучения частям речи и их эффективность.

Ключевые слова: образование, обучение, методика, практика, исследования.

Asosiy qism

Ona tilini davr talabi darajasida o'qitish-o'rgatish hozirgi kunda ta'lim sohasining dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Ona tili darslarini samarali tashkil etish masalasi har doim ham yuksak ahamiyat kasb etgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Respublikamizda ona tili o'qitish sohasida ish olib brogan metodist olimlar M. Asqarova, A. G'ulomov, Y. Abdullayev, M. Omilxonova, O. Roziqov, M. Abdurahimova, A. Sayfullayev, M. Sobirova, Sh.Yo'ldosheva, Sh. Yusupova, M. Qodirov, T. Yusupova, T. Ziyodova, A. Bobomurodova, O.

Oxunjonova, M. Saidov, M. Mirmaxsudovalar tomonidan yaratilgan ilmiy-metodik tadqiqotlarda, metodik qo'llanma va ilmiy maqolalarda ona tili darslarini samarali tashkil etish masalalari tilga olingan. Bu ishlarda ona tili darslarining mazmuni, uni samarali tashkil qilish yo'llari va usullari, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini oshirish masalalari, dars jarayoniga turli xil pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari atroflicha talqin etilgan. Maktabdagi ona tili va akademik litseydagi hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchi yoshlarda hamkorlikda ishlash hissini tarbiyalash masalalarini ona tili ta'limi mazmuniga tayangan holda samarali tashkil etish ta'lim sifati monitoring yuritilayotgan bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biriga aylandi⁷⁶. Shuningdek, umumta'lim maktablarida va akademik litseylarda o'quvchilarga tilshunoslikning "Sintaksis" bo'limi haqida xususan gap bo'laklari haqida ma'lumot berish va samarali dars tashkil qilishga harakat qilib kelinmoqda. Tilshunos olimlardan A. G'ulomov, M. Asqarova, G'. Abdurahmonov, R. Sayfullaeva, G'. Abdurahmonov, N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Ahmedov, M. Qurbonovalarning bu yo'nalishdagi tadqiqot ishlari o'zbek tili "Sintaksis"ining rivojlanishiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan.⁷⁷

Qayd etilgan tilshunos olimlarimizning tadqiqotlarida sintaktik birliklar – so'z birikmasi va gap (sodda va qo'shma gaplar)ning nazariy asoslari ishlab chiqildi, gap bo'laklari, gapning uyushiq va ikkinchi darajali bo'lakli, undalma, kirish qurilmalar haqidagi sintaktik nazariyalar umumlashtirildi, yangi bilimlar bilan boyitildi. Biroq bu yutuqlar asosidagi amaliy tavsiyalar, dastur va darsliklar ishlab chiqilmagani uchun ular ona tili ta'limida to'laqonli tatbiq etilmayotgan edi. Biroq respublikada "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi"⁷⁸ ishlab chiqilgach, unga

⁷⁶To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyadova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T-Yangi asr avlodi, 2006

⁷⁷A.G'ulomov. Sodda gap. -Toshkent, "O'zFA", 1955; A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Ahmedov, S.Solixojaeva. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -Toshkent, "Fan", 1992; N.Mahmudov, A.Nurmonov. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. -Toshkent. 1996; Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi. -Toshkent: O'qituvchi, 1996.

⁷⁸Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. // Ta'lim taraqqiyoti. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi axborotnomasi. "Sharq" nashriyoti, 1999.№ 1, 62-63-betlar.


muvofig “Ona tili”dan yaratilayotgan o‘quv dasturlari va darsliklarda tilshunoslikning keyingi yillarda qo‘lga kiritgan yutuqlari ham kiritildi.

Tatqiqotimiz mavzusi bilan bog‘liq ilmiy ishlardan yana biri M. Sobirovaning “O‘zbek maktablarida yuqori sinf o‘quvchilariga sodda gap sintaksisini munozara usulida o‘rgatish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasidir. Mazkur ishda qo‘shma gap sintaksisini o‘rganishda noan‘anaviy darslarning turli shakllari: seminar darsi, munozara darsi, konferensiya darsi, tahliliy dars, sinov darsi, musobaqa dars singarilaridan foydalanish tavsiya etiladi. Tadqiqotchi bu dars turlarining har biriga alohida-alohida to‘xtalib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan va shunday darslardan namunalar berilgan. Sintaksis haqidagi dastlabki bilimlar maktablarning 8-,9-sinf ona tili darsligidan boshlab beriladi va “Sintaksis” bo‘limiga doir mavzular kengroq tarzda o‘tiladi. Bunda asosiy e’tibor so‘z birikmasi, gap va uning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, uyushgan va ajratilgan bo‘laklar, gap bo‘lagi bilan aloqaga kirishmaydigan “bo‘laklar”, qo‘shma gap va uning turlari kabi mavzularni o‘rganishga qaratiladi.

8-sinfda “So‘z birikmasi” mavzusini o‘rganishda hokim so‘z va tobe so‘zni aniqlash, hokim so‘z bilan tobe so‘zning birikish turi va usullarini ko‘rsatish (boshqaruv, moslashuv, bitishuv), hokim so‘z va tobe so‘zni bog‘lovchi grammatik vositalarni (kelishk qo‘shimchalari, ko‘makchilar va ohang) aniqlash, hokim so‘z va tobe so‘zning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligini izohlash (ot+ot, ot+fel) kabilarga e’tibor qaratiladi.

Ma’lumki, maktab, kollej, litsey o‘quvchilari so‘z birikmasini so‘zlar qo‘shilmasidan, qo‘shma so‘zlardan, iboradan, ikki so‘zning birikuvidan tashkil topgan sodda gaplardan, tasviriyl ifodalardan farqlashda qiynaladilar. Shu bois bu masalalarning har biri (so‘z birikmasi va so‘zlar qo‘shilmasi, so‘z birikmasi va so‘z, so‘z birikmasi va turg‘un bog‘lama v.h.) alohida mavzu sifatida o‘rganilishi lozim bo‘ladi. So‘z birikmasining so‘zlar qo‘shilmasidan farqini tushuntirish uchun ularni o‘zaro qiyoslash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Do‘stimning

xati” so‘z birikmasini “Do‘stim va men” so‘zlari qo‘shilmasi bilan qiyoslash lozim.



“So‘z birikmalari zanjiri” mavzusini o‘tishda gap tarkibida bir so‘z birikmasidagi hokim so‘z boshqa bir so‘zga tobelanishi, bir hokim so‘z bir necha tobe so‘z yoki bitta tobe so‘z bir necha hokim so‘zga aloqador bo‘lishi kabilarga e‘tibor qaratilishi lozim. Masalan, “Bog‘imizda turli mevali ko‘chatlar bor” gapida quyidagi 3 ta so‘z birikmasi mavjud: 1) bog‘imizda bor; 2) turli ko‘chatlar; 3) mevali ko‘chatlar.

O‘quvchilar uchun ancha murakkablik tug‘diradigan mavzulardan biri egali gaplarni egasiz gaplardan ajratishdir. Bu esa o‘quvchilarda kelgusida qo‘shma gap turlarini farqlashda qiyinchilik tug‘diradi.

8-sinf darsligida biz avvallari bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplar deb o‘rganadigan mavzular hozirgi yangi darsliklarda quyidagi ko‘rinishda berilgan:

1. Egali va egasiz gaplar (shaxsi noma‘lum gap);
2. Egasi yashiringan gaplar (1. Egasi (shaxsi) ma‘lum gaplar; 2. Egasi (shaxsi) umumlashgan gaplar);
3. Atov gaplar;
4. So‘z gaplar.

“Sintaksis”ning markaziy masalalaridan biri gap bo‘laklari masalasidir. 8-sinf ona tili darsligi⁷⁹da gapning ikkinchi darajali bo‘laklari – hol, to‘ldiruvchi va aniqlovchi ustida alohida-alohida ish olib boriladi.

“Hol” mavzusi yuzasidan ijodiy-amaliy ishlar – ularning ma‘noviy turlarini aniqlash, sodda va murakkablarga ajratish, hollarning so‘z turkumlari, so‘z birikmasi, ibora va kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi kabilarga qaratilishi lozim.

⁷⁹ H.Ne‘matov, M.Qodirov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. 8-sinflar uchun ona tili darsligi. - Toshkent: Cho‘lpon, 2019

“To‘ldiruvchi” mavzusi yuzasidan quyidagi ishlarning bajarilishi maqsadga muvofiq:

- berilgan gaplardan to‘ldiruvchilarni ajratish;
- to‘ldiruvchi va uning ifodalanishini izohlash, uning so‘roqlarini belgilash;
- to‘ldiruvchining so‘z, so‘z birikmasi, kengaytirilgan birikma bilan ifodalanishi ustida amaliy ishlarni bajarish;
- vositali to‘ldiruvchilar, ularda kelishik shakllari va ko‘makchilar ma‘nodoshligi masalasini o‘rganish va hokazolar.

Hozirgi o‘zbek tilshunosligida aniqlovchi so‘z kengaytiruvchisi sifatida baholanmoqda. Shu sababli umumta’lim maktablarida aniqlovchi hol va to‘ldiruvchidan keyin o‘rganilmoqda.

Mazkur mavzuni o‘rganishda ijodiy-amaliy topshiriqlar orqali qaratqichli aniqlovchi va sifatlovchi aniqlovchilar haqida tushuncha hosil qilinadi. Ularning sifat, ot, son, olmosh va kengaygan birikmalar bilan ifodalanishi yuzasidan ma’lumotlar beriladi.

8-sinfda aniqlovchi bilan bir qatorda izohlovchi ham o‘rganiladi. Izohlovchilar shaxsning unvoni, kasbi, mashg‘uloti, yoshi, jinsi, taxallusi kabilarni anglatishi yuzasidan ham turli topshiriqlar bajariladi.

8-sinfda o‘quvchilarni, o‘quv dasturi talabiga ko‘ra, gap bo‘laklari tartibi, gap urg‘usi, to‘liq va to‘liqsiz gaplar, gapning uyushiq va ajratilgan bo‘laklari, gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan kiritmalar, undalma singari mavzular bilan ham tanishtirish ko‘zda tutilgan. Bu masalalarni o‘rganishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. Gap bo‘laklari tartibini o‘tishda o‘zgargan tartibga alohida e’tibor qaratiladi va uning uslubiyat bilan bog‘liq jihatlari tushuntiriladi. Gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi asosan og‘zaki va badiiy nutq uchun xosligi tushuntiriladi;

2. Gap urg‘usi (mantiqiy urg‘u) mavzusini o‘tishda bevosita so‘z urg‘usi (mantiqiy urg‘u) yodga olinadi;

3. To‘liqsiz gaplarning ham asosan og‘zaki nutqda va badiiy asarlardagi dialogda qo‘llanishi tushuntiriladi;

4. Uyushiq bo‘laklarni o‘tishda gapning qaysi bo‘laklari uyushayotganini hamda ularda umumlashtiruvchi so‘zning ishlatilishi, tinish belgilarining qo‘llanilishi, uyushmagan sifatlovchi aniqlovchilar haqida malumot berish ko‘zda tutiladi;

5. Ajratilgan bo‘laklar mavzusini o‘rganishda ularda tinish belgilarining ishlatilishi masalasiga e‘tibor beriladi. SHuningdek, uyushgan bo‘laklar bilan ajratilgan bo‘laklarning farqi masalasi yuzasidan savol-javob o‘tkazish mumkin;

6. Gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan kirish so‘z, kirish birikma, kirish gap va undalmalarni o‘tishda ular gap jarayonida qanday vazifa bajaryotganini aniqlash bilan birga, tinish belgilarining ishlatilishiga ham e‘tibor qaratiladi.

Ko‘rinadiki, ushbu mavzularning ko‘pi punktuatsiya va uslubiyat bilan bog‘liq holda o‘rganilishi lozim. Chunki uyushiq bo‘laklar va ularda umumlashtiruvchi so‘zning qo‘llanilishi, ajratilgan bo‘laklar, kiritma kabilarni o‘tishda vergul, ikki nuqta, qavslarning ishlatilish o‘rinlarini misollar asosida puxta tushuntirmoq kerakki, bu o‘quvchilarning umumiy savodxonligiga ham daxldordir.

“Sintaksis”ga doir mavzularni o‘tishda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan:

Aqliy hujum uchun savol va topshiriqlar.

1. So‘z birikmasidagi hokim va tobe so‘zlarni aniqlashda qanday yo‘l tutasiz?
2. Ot kesim va fel kesimlarni tushuntirishda qanday ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish mumkin?
3. To‘ldiruvchi, aniqlovchi va holni o‘rgatishda dastlab uning qaysi tomonlariga e‘tibor berasiz?

“Sintaksis”ga doir mavzularni o‘tishda “Tayanch tushunchalar ustida ishlash” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunonchi, mashg‘ulot davomida yozuv taxtasiga yozilgan quyidagi tayanch tushunchalar bilan ish ko‘rish mumkin:

Sintaksis – so‘zlarning bog‘lanishi, gap va uning turlarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi.

So‘z birikmasi - bir - biri bilan tobelanish asosida birikkan, mano va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan ikki yoki undan ortiq so‘zlar bog‘lanmasi.

Kesim - gapda fikr ifodalab keluvchi asosiy bo‘lak.

Ega - gaplarda fikrning kimga, nimaga qarashliekanini anglatuvchi, belgisi kesim tomonidan aniqlanadigan bo‘lak.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga tilshunoslikning “Sintaksis” bo‘limiga doir quyidagi masalalar yuzasidan bilim berish ko‘zda tutiladi: so‘z birikmasi, gap va uning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, uyushgan va ajratilgan bo‘laklar, gap bo‘lagi bilan aloqaga kirishmaydigan «bo‘laklar», qo‘shma gap va uning turlari va bu jarayonda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Mahmudov, A.Nurmonov. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent. 1996; Abdurahmonov G`. O‘zbek tili grammatikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
2. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturi. // Ta’lim taraqqiyoti. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi axborotnomasi. “Sharq” nashriyoti, 1999.№ 1, 62-63-betlar.
3. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyadova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. T-Yangi asr avlodi, 2006
4. H.Ne‘matov, M.Qodirov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. 8-sinflar uchun ona tili darsligi. - Toshkent: Cho‘lpon, 2019

ФИО автора: Мухтар Реймов

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти магистри, Тошкент,
Ўзбекистон

Название публикации: «ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА БОЛАЛАР ТЕАТРИНИНГ
ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИГА НАЗАР»

Аннотация: Бу мақолада санъатнинг бир қисми бўлган театр санъатининг, айниқса болалар театри санъатининг Қорақалпоғистонда ташкил этилиши ҳақида сўз боради. Шунингдек, болалар театрининг ривожланиш тарихи атрофлича баён этилган.

Калит сўзлар: болалар театри, санъат, масқарабоз, эртак, пьеса.

Abstract: This article discusses the organization of theatrical art, which is part of the arts, especially children's theater art in Karakalpakstan. The history of the development of children's theater is also described in detail.

Keywords: children's theater, art, clown, fairy tale, play.

Аннотация: В данной статье рассматривается организация театрального искусства в Каракалпакстане, которое является частью искусства, особенно детского театра. Подробно рассказывается история развития детского театра.

Ключевые слова: детский театр, искусства, клоун, сказка, спектакль.

Масқарабоз, кўғирчоқ театрлари. Масқарабоз ўйини, кўғирчоқ ўйинлари Қорақалпоғистоннинг Тўрткўл, Хўжайли, Чимбой шаҳарларида 1927 йилларгача Хоразмдан гастролга келиб ўйнаб, ўйин кўрсатиб юрди. Масқарабозлар, жонглёр, кўз бойлағичлар дарбоз гастроли билан бирга келди. Сўнгги йиллари масқарабоз, кўғирчоқ ўйинини кўрсатиш санъатини ўзлаштирган Чимбой, Тўрткўл шаҳарларида айрим масқарабоз, кўл кўғирчоқ ўйнатувчи касбини қилган Ирисбой масқарабоз, Сапар кўғирчоқ ўйнатувчи каби инсонлар бўлди. Аммо буларнинг ўйнатадиган репертуарларининг сюжети тор бўлганлиги учун олға силжиш бўлмади. Халқ театрининг масқарабоз, кўғирчоқ тури Хоразм ўзбеклари орқали Қорақалпоғистонга тарқалди.

Масқарабозларнинг репертуарларининг кўпчилиги: бадавлат, мулла-эшонларнинг ёмон хислатларини фош этадиган ҳаракатлар, сатирик тўртлик – шеърлардан иборат.

Қўғирчоқ театри репертуарларининг сўзлари ёзиб олинбаган. 1923 йиллардаги қўғирчоқ театрининг сахна чиқишида унинг сюжети: ўйнаб юрган ёш болани бургут келиб олиб кетишга ҳаракат қилаётганда, қатор сафдаги ҳарбийлар келиб бургутни отиб туширади. Бургутнинг тирноғидан соғ қолган бола қўғирчоқ ўйинининг бош персонажи – Атешбой. “Ўт сочади Атешбой” деб турли ҳаракатлар кўрсатиб, кулгули сўзлар айтишдан иборат эди. Қорақалпоғистондаги қўғирчоқ театрлари ҳақида матбуотда ёзилган материаллар мавжуд эмас.

Масқарабозларнинг юмор, сатирик сўзлари, қўғирчоқларнинг қисқа сюжетли кўрсатган сахна ўйинлари Қорақалпоғистондаги сўнгги XX асрнинг бошидаги пайдо бўлган халқ театри, сахна ўйинининг, драмманинг бошланғич манбаларининг бири сифатида эътироф этиш мумкин [1: 8-9-б].

Даврнинг, партиянинг перспективали талабларини амалга ошириш учун ЎзКП Марказий Комитетининг кўрсатмаси билан ЎзССР маданият вазирлиги 1978 йили июнь ойида Қорақалпоғистонда қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театрини ташкил этиш бўйича қарор қабул қилди.

Бу театр Қорақалпоғистонда ўша пайтда эмас, аллақачон 1935 йилдаёқ ташкил этилган эди. Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театри Улуғ Ватан уруши бошланишигача яшаб, унинг олдида – социализмнинг ғалабасини совет одамларининг онгида, психологиясида мустаҳкам тасдиқлаш ва уни етиштиришга ўхшаган социалистик-эстетик масалалар турса, ҳозирги янги, қайта ташкил топган ёш томошабинлар театри ривожланган социализмнинг идеологик, эстетик муаммоларини ҳал қилиш учун хизмат қилади. Бироқ, қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театрининг 1978 йили октябрь ойидаги биринчи парда очиш спектакли – «Кечиккан баҳор» («Егленген бэхар») бадиийлик жиҳатдан ҳозирги талабга жавоб бермайдиган бўлиб чиқди [2: 88-89-б.].

Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театри ўзининг иккинчи қадами таржима пьеса – хориж классиги Андерсеннинг эртаги бўйича ишлаган «Яланғоч қирол» (муаллифи Жўрабой Махмудов) инсценировкасидан бошланади (3: 91-92-б.).

Қўғирчоқ театрлари ер юзи бўйлаб бир неча асрлардан бери ўз томошабинларини уч ёшдан катта ёшдаги томошабинларга кўрсатиб келмоқда. Қўғирчоқ театри одамларнинг қувончини, қайғусини, бошига иш тушганда айта олмаган сўзларини тимсол, эртак, афсоналар орқали қўғирчоқлар ёрдамида кўрсатиб келган. Ҳар бир давлатнинг халқ севиб кўрадиган қаҳрамонлари бўлиб, улар ҳозиргача сахналардан тушмай, томошабинлар олқишини олиб келмоқда.

1990 йили Қорақалпоқ театр тарихида катта ўзгариш юз берди. Ўзбекистон Маданият ва спорт ишлари вазирлигининг 1990 йили 5 апрелдаги 115-сонли буйруғига ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгашининг 27 февралдаги 50/2-сонли қарорига асосан Қорақалпоқ давлат қўғирчоқ театри ташкил топди ва театр ўзининг ижодий ишларини Нукус шаҳрида жойлашган қарлар жамиятига тегишли иморатда бошлади.

Янгидан очилган театрга Кенгесбой Бердибаев директор сифатида тайинланди. 1990 йили Кенгесбой Каримовнинг «Ориқ мерган» спектакли Рейимбой Тўраниёзовнинг режиссёрлигида театр ўзининг биринчи пардасини очди. Мана ушбу йиллардан буён театр жамоаси томонидан театр сахнасида 70 дан зиёд спектакль ва қўғирчоқ шоу дастурлари тайёрланиб, республикамизнинг кичкина томошабинларига маданий хизмат кўрсатиб келмоқда. Ушбу йили болалар учун қизиқарли бўлган Қипчоқбой Матмуратовнинг “Оқ Текеш билан кўк Текеш” қўғирчоқ спектаклининг сахналаштирилиши томошабинлар учун улкан янгилик бўлди. Театрнинг биринчи директори Кенгесбой Бердибаев ўзининг ташкилотчилиги, меҳнатсеварлиги билан кўзга тушиб янги очилган театрга кўп меҳнатлари сингди. Театр жамоаси “янги ерга” келгандай ҳеч нарсаси йўқ ердан театрнинг директоридан бошлаб театр хизматкорларигача театр учун қаттиқ меҳнат қилди.

Ўша пайтлари театрда мутахассис режиссёрларнинг етишмаслиги сабабли

тажриба алмашиш мақсадида Қозоғистон Республикасидан таниқли кўғирчоқ театр режиссёри Бекполат Парманов чакирилиб, у Д.Хусайновнинг “Керак бўлганинг керак” пьесасини сахналаштирди. Бу спектаклнинг мазмуни, кўғирчоқлари ва мусикаси яхши ансамбль бўлиб яралди.

1995 йили театр актёрлари Мурат Бегимов, Айбек Есимбетовлар Тошкент давлат санъат институтининг режиссёрлик бўлимида сирттан ўқиб юриб “Кўғирчоқ театр режиссёри” мутахассислиги бўйича 1997 йили тамомлади ва театрда режиссёрлик ишларини бошлади.

1997 йили Мурат Бегимов Ўразбой Абдирахмановнинг “Гулдирсин” пьесасини сахналаштирди. Спектаклнинг муваффақиятли чиқишида художник Даврон Раджапов, композитор Қурбанбой Заретдиновлар, спектаклда эса ҳар бир образнинг жонли чиқишида Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театрининг актёрлари Омон Қудайназаров, Мирзабой Замаддинов, Жигарбой Абдимовлар ўз ҳиссаларини қўшди. Шунингдек, кичик ёшдаги болаларга бағишланган М.Г.Поливанованинг “Айиқнинг қувноқ болалари” пьесаси ҳам муваффақиятли сахналаштирди. Шунингдек, Айбек Есимбетов “Сехрланган қалъа”, “Сехрли қамчи” пьесаларини сахналаштирди.

Театр ёш бўлишига қарамай, ташкил топгандан кейин энг биринчи марта 1991 йили Самарқанд шаҳрида ўтказилган Ўзбекистон Республикаси кўғирчоқ театрлари фестивалига театр жамоаси К.Каримовнинг “Ориқ мерган”, “Оқ Текеш билан кўк Текеш” спектакли билан қатнашиб, Қўбланбек Қалилаев фестивалнинг “Энг яхши актёр” номинациясини олишга муяссар бўлди. Сўнг 1993 йили Андижон шаҳрида ўтказилган фестивалда Д.Хусайновнинг “Керак бўлганинг керак” спектакли билан қатнашиб қайтди. 1997 йили театр жамоаси биринчи бор Қозоғистон Республикасининг Жанаозен, Ақтау, Еттисой шаҳарларида маданий хизмат сафарларини амалга оширди.

1995 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган кўғирчоқ театрлари фестивалида М.Бегимовнинг “Бедана ва Тулки” спектакли билан, 2000 йили Самарқанд шаҳрида ўтказилган VI Республика Кўғирчоқ театрлари фестивалида М.Бегимовнинг “Айёр эшак”, 2003 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган Кўғирчоқ

театрлари фестивалида М.Бегимовнинг “Бедана ва Тулки” спектакли билан, 2005 йили 19-24 декабр кунлари Бухоро вилоятида ўтказилган Республика Қўғирчоқ театрларининг VII анъанавий кўрик-фестивалида П.Айтмуратовнинг “Бувам айтган ҳикоя”, 2009 йили 8-15 декабр кунлари Андижон шаҳрида ўтказилган Республика Қўғирчоқ театрларининг VIII анъанавий кўрик-фестивалида П.Айтмуратовнинг “Саҳродаги дўстлик” спектакллари билан қатнашиб, муносиб ўринларни эгаллайди ва қорақалпоқ маданиятини қўғирчоқ образлари билан янада бойитди.

Мустақиллигимизнинг 28 йиллиги муносабати билан театр бош режиссёри Мурат Бегимов “Дўстлик” ордени билан тақдирланди. Мурат Бегимов 2015 йили театрга бош режиссёр этиб тайинлангандан кейин қорақалпоқ қўғирчоқ театрининг саҳнасида теран мазмундаги асарлар яратилиш даври десак муболаға бўлмайди. Унинг қаламига мансуб “Ботир қуён”, “Меҳнат таги роҳат”, “Қирик қиз”, “Алдар кўса” ва бошқа спектакллари қўғирчоқ театр саҳнасининг гулдастасига айланди. М. Бегимов режиссёрлигидаги 2016 йили Республика Қўғирчоқ театрларининг X кўрик-фестивалида (муаллифи П. Айтмуратов) “Шарияр” спектакли билан қатнашди.

2018 йилда Ўзбекистон Республикаси қўғирчоқ театрларининг XI анъавий кўрик-фестивалида қорақалпоқ халқ достони асосида ёзилган “Қирик қиз” (муаллифи М. Бегимов) спектакли билан қатнашиб, биринчи маротаба фестивалда учинчи ўринга муносиб деб топилди ва қиммат баҳоли совға билан тақдирланди.

Қорақалпоқ халқ достони асосида саҳналаштирилган “Қирик қиз” спектакли халқимизнинг энг улкан достонларининг бири воқеяларини ўз ичига олган бу спектаклда ёшларни Она Ватанга, ота-онага, дўстларига меҳрли бўлишни ва уларни душманлардан ҳимоя қилишга ўргатади.

Бундан бошқа театрда жаҳон классик асарларидан Ш. Перронинг (М. Бегимов инсценировкаси) “Қизил қалпоқча” спектакли рус тилида биринчи марта театр ёш режиссёри Гўззал Далиева томонидан саҳналаштирилди. Жаҳон классик эртакларининг бири бўлган “Қизил қалпоқча” спектакли орқали, асосан

болалар онгида катталарга хурмат-иззатда, ҳайвонот оламига ишонч ва меҳр-муҳаббатни, оқ ва қорани ажратишни ўргатади. Бу спектакл билан театр ижодий жамоаси 2018 йили 15–20 ноябрь кунлари Тошкент шаҳрида ўтказилган ёш режиссёрларнинг “Дебют 2018” V Республика кўрик--фестивалида қатнашиб, муносиб диплом билан тақдирланди.

Қорақалпоқ кўғирчоқ театри жамоасининг ушбу давргача ишлаган меҳнатлари ва эришган ютуқлари инобатга олиниб, 2015 йили “Туркистон” кино театрининг эски иморати қайта реконструкция қилинди ва Қорақалпоқ давлат кўғирчоқ театрининг чиройли биносига айлантирилди.

Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театри 1978 йили ташкил топиб, ўзининг биринчи пардасини Қорақалпоғистон халқ шоири, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат қилган санъат арбоби, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати, таниқли драматург Кенгесбой Рахмоновнинг “Кечиккан баҳор” (“Егленген бэхэр”) спектакли билан очиб берди. Янгидан очилган театрда ҳозирги пайтда Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат академик мусиқали театридан Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артистлари, хизмат кўрсатган артистлар: С. Алламуратова, Х. Сапаров, М. Матчонов, С. Утепбергенов, Ғ. Дошумов, М. Халмуратова, Б. Қайиповлар тақлиф қилиниб, истеъдодли актёрлардан: Д. Кеунимжаев, А. Ангсатбаев, Н. Хўжамуратов, С. Даулетова, А. Науризова, Ж. Жуманов, Ж. Абиллаев, А. Ахмурзаевалар билан тўлдирилди.

Театрнинг биринчи директор лавозимида Ўзбекистон, Қорақалпоғистон ва Бошқирдистон халқ артисти, давлат мукофотларининг лауреати Б. Матчонов раҳбарлик қилди. Сўнг Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби Б. Шарипов, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби А. Жузимбетов, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ артисти, Қорақалпоғистон Республикаси Ёшлар мукофотининг лауреати Р. Сапарова, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистонга хизмат кўрсатган маданият ходими М. Ешжанов, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими Ж. Турдимуратов, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган

санъат арбоби Б. Утебаев, Ж. Ўтепбергеновлар ишлаб келган.

Улар билан биргаликта театрда ҳар бир сахналаштирилган турли жанрлардаги спектакллари томошабинларга кўтаринки руҳда етказиб беришда таниқли режиссёрлардан:

Театрнинг биринчи бош режиссёри, Ўзбекистон Республикаси халқ артисти, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган артист, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати, “Ел-юрт ҳурмати”, “Меҳнат шухрати” ордени ва “Меҳнат фахрийси” кўкирак нишони эгаси Н. Ангсатбаев, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган артист, Қорақалпоғистон халқ артисти, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати Р. Тўраниёзов, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби Б. Утебаев, А. Шарипов, А. Ефремов, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими И. Айбатовлар, таниқли драматурглардан Ўзбекистон Қаҳрамони, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ ёзувчиси, давлат мукофотларининг лауреати Т. Қайипбергенов, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби, Қорақалпоғистон халқ ёзувчиси, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати С. Хўжаниёзов, Қорақалпоғистон халқ шоири, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати К. Раҳманов, Қорақалпоғистон халқ шоири, “Эл-юрт ҳурмати” ордени соҳиби К. Каримов, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими Г. Турсунова, Қорақалпоғистон халқ ёзувчиси А. Султанов, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби П. Айтмуратов, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими А. Утепбергенов, С. Жумағулов, Ж. Хўжановлар ва таниқли рассомлардан: Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби Б. Нурибетов, Ўзбекистон ва Қорақалпоғистон халқ рассоми, Бердақ номидаги давлат мукофотининг лауреати И. Алибеков ва Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби Б. Айтмуратовлар, шунингдек, театрнинг биринчи адабий бўлими раҳбари, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими

Г. Турсуновалар фидойи меҳнатлари билан томошабинлар олқишига муяссар бўлди.

Театр ўзининг ижодий гуруҳининг тажрибасина орттиришда Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва Қорақалпоғистон Республикаси Маданият вазирлиги яқиндан ёрдам бериб, Ўзбекистон Республикаси ва жаҳон миқёсида ўтказилган театрлар фестивалларида қатнашди. 1990 йили театр жамоати Тошкент шаҳрида ўтказилган “I Ҳудудий Ўрта Осиё ва Қозоғистон ёш томошабинлар театрлари фестивали”да, 1998 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган I халқаро “ХУМО” фестивалида, 2007 йили 1–7 апрел кунлари Туркменистон Республикасининг Ашхобод шаҳрида ўтказилган “Фольклор ва миллий театрлар Халқаро фестивали”да, 2007 йили 1–11 сентябрда Мисрнинг Коҳира шаҳрида “XIX халқаро экспериментал театрлар фестивали”да, 2011 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган “ТеатрЎз” II халқаро театрлар фестивалларида, 2001 йил Урганч шаҳрида, 2003 йили Тошкент шаҳрида ўтказилган “Қорақалпоқ маданияти ва адабиёти кунлари”да, 2006 йили “Сени куйлаймиз, замондош!”, 2008 йили ёш режиссёрларнинг “Дебют-2008”, “Сарҳисоб”, “Наврўз арафасида” каби фестивалларида иштирок этишга муяссар бўлди.

2003 йилнинг 1 декабрида театрнинг 25 йиллик юбилейи тантанали равишда ўтказилган ва Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Президиумининг “Ҳурмат ёрлиғи” билан тақдирланган.

2018 йили 25 август куни театр ўзининг тоза биносининг очилиш салтанатини ўтказди. Бу кечада Ўзбекистон Республикаси Президенти аппарати, Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, Қорақалпоғистон Республикаси Маданият вазирлиги ва бошқа да ташкилотлардан меҳмонлар тантанали кечани олиб боришда фаол қатнашди ва театрға қимматли совғаларини топширди.

Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъат арбоби П. Айтмуратов бугунги кунда театрға раҳбар бўлиб келмоқда. Ўзбекистон

Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими И. Айбатов театрга бош режиссёрлик қилаётган бўлса, режиссёрлар А. Қудайназаров ва Ў. Бектурғановлар репертуарни бойитадиган энг яхши спектаклларни сахналаштириб келмоқда. Театрнинг ҳозирги ижодий гуруҳига устозлик этиб келаётган Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсаткен артист Л. Халқназарова, Қорақалпоғистон Республикасида хизмат кўрсатган санъаткорлар А. Науризова, Ж. Абдимовлар, Қорақалпоғистон ёшлар мукофотининг лауреати Р. Пиязова, истеъдодли актёр-актрисалардан: Р. Уразбаев, Қ. Кубесова, Ж. Абиллаев, М. Нуратдинов, Г. Юсупова, С. Арзиев, ёш истеъдод эгалари, Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус филиалини тамомлаб, ижодий ишларини олиб бораётган актёрлар: Б. Жапаров, Р. Тлемисов, П. Тўлаганов, П. Келимбетов, Ш. Даулетмуратов, И. Бегжанов, Р. Жаримбетов, актрисалар А. Утепбергенова, Г. Жайманова, Г. Жапарова, Г. Сейтимовалар, шулар билан бир қаторда Қ. Жапаров, М. Кулдасова, Ж. Айтназарова, А. Байимбетова, Н. Досназаров, А. Төремуратов, С. Атамуратова, З. Узақбергенова, С. Ангсатбаев, Г. Пирниязовалар бир неча йиллардан бери хизмат кўрсатиб келмоқда.

2019 йилнинг 10–15 июнь кунлари Қорақалпоғистон Республикасида биринчи марта «Сени куйлаймиз, замондош!» Ўзбекистон театрларининг V Республика кўрик фестивали кўтаринки руҳда ўтди. Фестивалга Қорақалпоқ давлат ёш томошабинлар театри Б. Айтмуратнинг “Мўйноқда бахтнинг тонглари отди” ва фестивалдан ташқари Дзюндзи Киноситани “Турна патлари” спектакллари билан қатнашди. Фестивал якунида театр Б. Айтмуратнинг “Мўйноқда бахтнинг тонглари отди” спектакли билан “Энг яхши драматургия” номинацияси билан тақдирланди.

Шунингдек, театр директори П. Айтмуратов ҳамда директор ўринбосари А. Сейтовга фестивалнинг ташкилотчилик ишларида фаоллик кўрсатгани учун Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги ва Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши томонидан “Миннатдорчилик хати” топширилди.

Қарақалпоғистон Республикаси Маданият вазирлиги томонидан театримизга фестивалда фаоллик кўрсатгани учун “Фахрий ёрлиғи” топширилди ва театр режиссёри Ў. Бектурганов “Ёш режиссёр” номинацияси билан тақдирланди.

Қарақалпоқ давлат Ёш томошабинлар театри бугунги кунгача 170 дан зиёд спектаклларни сахналаштирган бўлса, ҳозирги кунда театрда маҳаллий ва хорижий драматургларнинг мумтоз асарлари сахналаштирилмоқда ва театр репертуари бойиб бормоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Қ. Айымбетов. Қарақалпақ совет драматургиясының тарийхынан очерклер. «Қарақалпақ». Нөкис. 1963. 8-9-б.
2. Бектурған Турсынов. Драматургия ҳәм театрымыздың мәселелери. (Мақалалар жыйнағы). Нөкис. «Қарақалпақстан» 1988-жыл. 88-89-б.
3. Хориж классиги Андерсеннинг эртаги бўйича ишлаган «Яланғоч қирол» (муаллифи Жўрабой Махмудов) инсенировкасидан бошланади. 91-92-б.

ФИО автора: Mamasoliev Rustamjon, teacher,
Fergana State University, Uzbekistan, Fergana city

Название публикации: «EFFECTIVE ASPECTS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF SPECIALTY SUBJECTS»

Abstract: *The goal that is set in an educational system is to get the most out of the capital and effort spent on supporting innovations in the system. The difference between innovation and any novelty is that they must have a changing mechanism that allows to manage and control.*

The article highlights important aspects of the use of innovative technologies in teaching specialties.

Keywords: *information technology, modernization, innovation, efficiency in education, teaching ability, professional ethics, internet.*

Аннотация: *Таълим тизимида ёки ўқув фаолиятида инновацияларни қўллашда сарфланган маблағ ва кучдан имкон қадар энг юқори натижани олиш мақсади кўзланади. Инновацияларнинг ҳар қандай янгиликдан фарқи шундаки, у бошқариш ва назорат қилишга имкон берадиган ўзгарувчан механизмга эга бўлиши зарур.*

Ушбу мақолада мутахассислик фанларини ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланишнинг муҳим томонларни ёритиб берилган.

Калим сўзлар: *ахборот технологиялари, модернизация, инновация, таълим самарадорлиги, педагогик қобилият, касб этикаси, интернет.*

Introduction

As you know, the education system is a social mechanism for the constant transfer of accumulated knowledge to subsequent generations. With the help of this mechanism, the formation of the personality in society is ensured and predetermined, because without the transfer of accumulating and developing knowledge, neither society nor the individual can develop.

Educating young people in the spirit of patriotism and respect for our national values, protection from various ills and threats, increasing the effectiveness of propaganda work is one of the pressing problems of today.

The information sphere is a constantly expanding area of human activity associated with the production of new information products, services and technologies. Today, the information sphere includes not only research and information centers, networks, libraries and archives, but also office systems, mass media, educational, electoral and information technologies, which generally form the industry of creating, storing, processing and distributing information in all areas of human activity.

This is also confirmed by the trend of formation of the information society – a society whose members interact with each other and with the environment mainly through highly specialized communication channels, the purpose of which is data transmission.

In today's globalized world, the issue of upbringing a harmoniously developed spiritually enlightened person is becoming more and more urgent. In turn, the process of globalization affects human spirituality. The process of globalization is mainly characterized by the development of international economic relations, information technology and science and technology. Globalization imposes new requirements on the rapid development of production and the training of appropriate personnel. This is due to the fact that the development of the economy is inextricably linked with the training of qualified personnel.

The rapid development of Information Technology and globalization processes are setting new tasks in the areas of human factor, education, new pedagogical technology. In fact, more than a hundred years ago, the knowledge that a person received in the process of education was enough for his whole life. Because the exchange of Information, its update has been very slow. The development of Information Communication Technology has also led to the fact that educational programs become obsolete in the short term. Their creation should be in proportion to the newly formed professions and specialties. In conclusion, it is worth noting that the role of each parent in the integration of the idea of national independence into the

younger generation is also very important. It is necessary for parents to realize how important their children are in preschool education, their spiritual development, this period is an important stage of continuous education and upbringing. It will be desirable to achieve a consistent adaptation of the family to the system of educational institutions.

One of the culminating problem while creating the Democratic society is the change of human's education and thinking. The creation of new type of thinking, will become the principal factor of development which is based on the directions democratic society of the person's place and understanding the role in today's progress. Human is a main wealth in every nation. It can be concluded from this, the primary way of improving nation's wealth and power is to increase the each person's own creative skills. Nowadays the amount of money which are spent on education are just not simple expenses, probably they are considered as investments which bring economical income in a fast rate.

Innovation - is theoretically grounded, focused and practice - oriented innovation. The objectives of the innovative education are:

- Ensuring a high level of intellectual and personal and spiritual development of the student;
- Creation of conditions for mastering the skills they scientific way of thinking;
- Teaching methodology innovations in socio-economic and professional spheres.

Nowadays required to prepare a new professional quality, society needs not just a competent worker, and the expert, capable to self-oriented creative approach to business, with high culture of thinking, multilateral development people.

Many teachers of special subjects now ask, what should be a lesson for modern students with the knowledge of the maximum of what they are given.

We need to teach students how to learn for life, and for that the teacher must be capable of continuous updating of techniques to work with the new generation, to fit in a constantly changing environment, encourage students in their creative approach to the subject, using a variety of non-traditional forms and methods of teaching , innovative technologies.

Угол сдвига фаз между током и напряжением при холостом ходе двигателя близок к 90° , следовательно, $\cos \varphi$ крайне низок и не превышает 0,10-0,15.

Таким образом, при работе трансформатора в холостую между ним и источником питания будет колебаться энергия, которая никакой полезной работы совершать не будет, а коэффициент мощности системы электроснабжения будет понижен.

Недогрузка трансформаторов. Реактивная мощность, потребляемая загруженным трансформатором из сети, определяется реактивной мощностью намагничивания и реактивной мощностью рассеивания (см. выражение (1)). Мощность намагничивания обусловлена главным магнитным полем трансформатора и при изменении нагрузки в пределах от холостого хода до

номинального значения изменяется незначительно.

Чем больше недогрузка трансформатора до номинального значения, тем в большей степени сказывается величина I_{xx} на потребляемый из сети ток. Так, например, при токе холостого хода в 30% от номинального тока трансформатора и при нагрузке 50% силовой трансформатор потребляет из сети 55% номинального значения тока, причем с преобладанием намагничивающей составляющей. Следовательно, при недогрузке трансформатора величина тока холостого хода изменится незначительно, а нагрузочная составляющая перичного тока резко уменьшиться, что приведет к снижению коэффициента мощности. Незначительное уменьшение реактивной мощности происходит за счет более резкого снижения реактивной мощности рассеяния, которая изменяется примерно пропорционально квадрату коэффициента загрузки трансформатора при постоянном напряжении и частоте.

Перегрузка силовых трансформаторов. Коэффициент мощности трансформатора, характеризующий относительное потребление реактивной мощности, достигает максимального значения при нагрузке, несколько меньшей номинальной. При дальнейшем ее увеличении $\cos\varphi$ уменьшается, так как растут магнитные потоки рассеивания, и потребление реактивной мощности увеличивается.

Повышенным уровнем реактивной мощности характеризуется также работа силовых трансформаторов при тяжелых условиях пуска.

Влияние на $\cos\varphi$ напряжения и частоты. При эксплуатации электроустановок из-за невыполнения баланса мощностей могут наблюдаться отклонения напряжения и частоты. Потребление реактивной мощности холостого хода силовыми трансформаторами с частотой и напряжением связано соотношением:

$$Q = C - U^2/f \mu V, \quad (6)$$

где C - коэффициент, зависящий от числа пар полюсов, частоты f конструкции обмоток трансформатора; U - напряжение сети; μ - магнитная проницаемость магнита провода; V - объем магнита провода.

Из этого соотношения следует:

- реактивная мощность зависит от квадрата напряжения сети;
- реактивная мощность зависит от частоты: у двигателей повышенной частоты потребления реактивной мощности возрастает;
- реактивная мощность зависит от объема магнита провода: это объясняет рост потребления Q_0 при уменьшении номинальных нагрузок (у специально изготовленных при сохранении мощности объем магнита провода больше).

Влияние изменения напряжения. При увеличении напряжения увеличивается магнитный поток, создающий электродвижущую силу E_1 , уравнивающую почти полностью увеличенное напряжение сети U_1 . Увеличение магнитного потока связано с увеличением намагничивающего тока, что влечет за собой увеличение реактивной составляющей мощности, потребляемой трансформатором при холостом ходе. При насыщении магнита провода намагничивающей ток увеличивается не пропорционально напряжению, а в большей степени. При этом реактивная мощность рассеяния увеличивается пропорционально напряжению (поток рассеяния замыкается в основном по воздуху).

При снижении напряжения уменьшаются магнитный поток и намагничивающий ток. Если при этом нагрузка на вторичной обмотки не уменьшится, то возрастут активные составляющие токов первичных и вторичных обмотках (так как эти токи возрастут), вследствие чего возрастает составляющая реактивной мощности, определяемая потоками рассеяния. Общая реактивная мощность трансформатора в зависимости от соотношения Q_0 и Q_p несколько уменьшается. Следовательно, при снижении напряжения $\cos\varphi$ возрастает, однако снижение напряжения приводит к уменьшению момента намагничивания, что повышает потребление активного тока, вследствие чего начинает перегреваться обмотка трансформатора. Поэтому снижение напряжения в целях повышения $\cos\varphi$ наиболее эффективно при недогрузках трансформатора в пределах до 50%.

Изменение частоты. Уменьшение частоты питающего напряжения вызовет увеличение магнитного потока в трансформаторе и увеличение намагничивающего момента. Вследствие увеличения магнитного потока возрастает ток холостого хода. Ток вторичной обмотки изменится пропорционально частоте, а ток первичной обмотки при небольших значениях I_{xx} будет вначале уменьшаться, а затем увеличиваться, при больших значениях I_{xx} - все время возрастает.

Таким образом, при понижении частоты подводимого к трансформатору тока его коэффициент мощности снижается.

Уменьшения потребляемой силовым трансформатором мощности можно достичь путем одновременного и пропорционального изменения частоты и напряжения.

В эксплуатации систем электроснабжения необходимо учитывать, что снижение напряжения хотя и положительно отражается на $\cos\varphi$, но не допускается более чем на 5% номинального, так как возможен дополнительный нагрев вторичной обмотки и ее преждевременный износ. Поэтому при снижении напряжения более 5% номинального обязательно снижение нагрузки

трансформатора относительно номинальной. Таким образом, вопрос поддержания показателей качества напряжения и частоты имеет большое значение как для поддержания cosφ системы электроснабжения, так и для ее бесперебойной работы.

Проблемы, которые вызывает загрузка сетей и электрооборудования систем электроснабжения реактивной мощностью, обобщены. Приведенные негативные факторы вынуждают приближать источники покрытия реактивной мощности к местам ее потребления. Это разгружает оборудование от ее пере токов, что равносильно увеличению коэффициента мощности.

Существует два взаимодополняющих, это сопутствует пути снижения реактивных нагрузок сетей:

1. Установка на предприятии специальных компенсирующих устройств:
 - искусственная компенсация.
2. Снижение реактивной мощности самих приемников электроэнергии:
 - естественная компенсация.

Проблема компенсации реактивной мощности включает в себя целый ряд технико-экономических задач, к числу которых можно отнести:

- организацию мероприятий для реализации естественной компенсации;
- выбор видов и типов компенсирующих устройств;
- оптимизацию режимов работы компенсирующих устройств.

Выбор наиболее эффективного варианта компенсации, необходимой мощности и типа компенсирующего устройства должен опираться на анализ схемы сети электроснабжения промышленного предприятия.

ЛИТЕРАТУРА

1. Справочник по проектированию электрических сетей/Под редакцией Д.Л. Файбисовича.-М.: Изд-во НЦ ЭНАС, 2006.-320 с.
2. Железко Ю.С. Потери электроэнергии. Реактивная мощность. Качество электроэнергии: руководства для практических расчётов. –М.: Изд-во НЦ ЭНАС, 2009. – 459 с.
3. Понятовский В. Коэффициент мощности и факторы, влияющие на его значение в энергетических промышленных предприятиях и портов. –М.: Траслит, 2009. – 54 с.

ФИО автора: Харисова Зарина Дамировна

Узбекский государственный университет мировых языков, г.Ташкент,
Узбекистан

Название публикации: «ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗНОЙ СИСТЕМЫ В
ПОВЕСТИ ГОГОЛЯ «ШИНЕЛЬ»»

Аннотация: В статье предпринимается попытка описания «маленького человека» как особого психотипа. В повести «Шинель» обнаруживаются два слоя: первый, бытовой, слой представляет собой рассказ о мелком чиновнике и его трудах по приобретению новой шинели, в другом, бытийном, речь идет о литературных трудах и судьбе писателя. Сюжет повести разделяется на две части - создание шинели и утрата шинели, а переломным моментом стала вечеринка у помощника столоначальника. Обретение шинели привело к изменению статуса и сделало возможным расширение сферы существования.

Abstract: The article attempts to describe the "little man" as a special psychotype. In the novel "Shinel" reveals two layers: the first, household, layer is a story about a petty official and his writings on the acquisition of a new coat, in another, everyday, it is about literary works and the fate of the writer. The plot of the story is divided into two parts - the creation of a cloak and the loss of a cloak, and the tipping point was a party at the assistant of the head. The acquisition of the coat has led to a change in status and made it possible to expand the scope of existence

Ключевые слова: Функции литературы, эстетика, наука, деталь, образ

Keywords: The functions of literature, aesthetics, science, detail, image

Всякий художественный текст представляет собой определенную целостную структуру, подчиняющуюся собственным законам развития. Понять и раскрыть логику и организацию этой структуры – в этом и состоит задача аудитории.

Исследование образцов малой и средней эпической формы предполагает, согласно установкам поэтико-структурного анализа, выявление внутренних конструктивных деталей текста, играющих сюжетообразующую роль. Именно

они, их соотношение организуют особый композиционный строй произведения, служащий своеобразным ключом к пониманию его идейно-художественного уровня.

Нередко внимание к частным, на первый взгляд, деталям позволяет выявить новые грани произведения, идейно-смысловый уровень которого, казалось бы, давно определён. В качестве демонстрации высказанного предположения обратимся к анализу классической повести Н.Г.Гоголя «Шинель». В критике давно устоялось представление о гоголевской повести как об «истории Акакия Акакиевича Башмачкина, «вечного титулярного советника», - истории искажения и гибели человека под властью социальных обязательств», порождаемых «чиновничье-бюрократическим Петербургом». Между тем, в «Шинели» присутствует ряд мотивов, которые как бы выбиваются из привычных рамок традиционного взгляда на повесть. Предлагаемая методика позволяет выявить такие детали, которые почему-то обычно не принимаются во внимание, но которые позволяют существенно обогатить представление читателя о произведении русского классика.

История жизни героя представлена в повести весьма отрывочно – упоминается рождение героя, затем следует временной пробел, вслед за которым и возникает фигура Акакия Акакиевича – «вечного титулярного советника». Самая насыщенная часть жизни – детство, юность, зрелость – вообще оставлены автором за рамками произведения, что, конечно, характеризует эту часть жизни героя как ничем не примечательную, не достойную внимания читателя, да и чем может быть интересна жизнь персонажа с таким именем и такой фамилией! Однако факту появления на свет Акакия Акакиевича уделено немало места, и «сопровождает» этот факт образы двух героинь – матери героя, социальный статус которой оговорен сразу - «чиновница» (вот кто определил жизненную колею героя!), и кумы Арины Семеновны Белобрюшковой - «жены квартального офицера» (вспомним, что после кражи шинели все хором отговаривали героя обращаться к квартальному за помощью). Именно она, а не присутствующий на крестинах кум (имя и фамилия которого также продублированы – Иван

Иванович), нарекла героя его именем. Именно оба этих женских персонажа задают мотив роковой предопределенности, воплощенный в дальнейших женских образах повести.

Женская тема далее будет «подхвачена» образом 70-летней старухи – квартирной хозяйки героя, которую сослуживцы шутя прочили ему в жены, «острились над ним (...), спрашивали, когда будет их свадьба, сыпали на голову ему бумажки, называя это снегом». Таким образом, сама возможность соединения имени героя с женским именем осмеяна уже в зачине повести, но более существенна здесь другая деталь: женский образ оказывается увязанным с образом снега, и именно этот тандем в дальнейшем будет сопровождать трагические события в жизни Акакия Акакиевича.

Развивает женскую линию образ жены портного Петровича, которую сам он называет «мирской женщиной и немкой», и при встрече с которой «одни только гвардейские солдаты заглядывали ей под чепчик, моргнувши усом и испустивши какой-то особый голос». Эти усы и голос остаются в данном контексте бытовыми деталями, пока не особо обращающими на себя внимание, значимыми уже, однако, тем, что и они скреплены с женским образом, а главное, не забудем о чеховском «ружье», которое у мастера обязательно «выстрелит».

В продолжение ряда как будто случайных деталей возникает табакерка Петровича, «с портретом какого-то генерала (...), место, где находилось лицо, было проткнуто пальцем и потом заклеено четырехугольным лоскуточком бумажки». Гоголь словно нанизывает создающие бытовой фон детали, чтобы затем по-новому выявить их сущность. Вспомним, что после первого визита к Петровичу Акакий Акакиевич, сбившись с пути, натывается на булочника, который «натряхивал из рожка на мозолистый кулак табаку», претерпевший в дальнейшем важные изменения. Вообще, будочник с табаком сопровождает образ главного героя от начала до конца повествования, идя в параллель с женскими образами.

Свое логическое продолжение женская тема получает с того момента, когда героем овладевает идея будущей шинели: «с этих пор как будто само

существование сделалось как-то полнее, как будто бы он женился». Женщина и шинель в сознании Башмачкина сливаются, таким образом, в единое целое. Если припомнить в этой связи достаточно убедительную версию о том, что в основе повести лежит житейный сюжет об Акакии, наказанном за подмену духовных исканий материальными, то мечта о будущей шинели – греховная мечта – оказывается увязанной с женским образом. Именно в этот момент пара «женщина» - «грех» становится синонимичной. Парадоксальным, едва ли не мистическим образом всякая деталь, соприкасаясь с женским началом, обретает у Гоголя роковое звучание (деталь, много говорящая об отношении писателя к женскому полу).

Сама эта женская тема претерпевает в повести значительную трансформацию, выстраиваясь в логическую цепочку: открывает ряд, напомним, крестница Белобрюшкова, затем 70-летняя квартирная хозяйка, далее жена Петровича и, наконец, увиденная героем по дороге к дому чиновника, где отмечалась покупка шинели, на витринной картине «красивая женщина, которая скидала с себя башмак (более чем говорящая деталь!, обнаживши таким образом всю ногу, очень недурную». Можно предположить за всем этим глухой намёк на впервые возникший у Акакия Акакиевича интерес к женскому полу, вещи для него «вовсе незнакомой, но о которой, однако же, всё-таки у каждого сохраняется какое-то чутьё».

Упомянутые выше усатые гвардейские солдаты напоминают о себе на той же картине «каким-то мужчиной с бакенбардами и красивой эспаньолкой под губой» (там же), словно предвосхитив дальнейший ход событий. Гоголь словно скрепляет изнутри повествование перекликающимися деталями.

Выпив у чиновника два бокала шампанского, Акакий Акакиевич, выйдя в переднюю, видит свою шинель лежащей на полу, что, конечно, не предвещает ничего хорошего. Домой он отправляется в 12 часов ночи, и эта деталь как бы знаменует композиционный рубеж повести, за которым начинается разворачиваться настоящая фантасмагория, начало которой задаёт, опять-таки, женский образ: Башмачкин «подбежал было вдруг, неизвестно почему, за какою-то дамою (...), у

которой всякая часть тела была исполнена необыкновенного движения». Это, образно говоря, максимальная точка приближения героя к женщине, образ которой оказывается губительной границей в жизни героя. Бесконечная площадь, которую приходится преодолевать Акакию Акакиевичу по пути к дому – для героя такой же своеобразный жизненный рубеж. С этого момента и художественное время повести обретает небывалую до тех пор динамику: если предыдущее повествование охватывало три месяца, то после трагического происшествия проходит всего-то неделя, предельно насыщенная событиями.

За этими рубежами указанные выше детали, ранее составлявшие как бы бытовой фон, обретают inferнальное воплощение. Усатые солдаты, забавы ради заглядывавшие под чепчик портновской жене, превращаются в «каких-то людей с усами» и «громовым голосом», кулак будочника – в «кулак величиною с чиновничью голову». Всё предыдущие события словно отражаются в каком-то кривом зеркале, представая в трагически-саркастическом виде. Красивая женщина, скидывавшая с ноги башмак в витрине магазина, оборачивается старухой, хозяйкой квартиры, встречающей героя после кражи шинели «с башмаком на одной только ноге» (вот и панночка-ведьма из «Вия» мелькнула в зеркале!). Оживает и портрет генерала с проткнутым лицом на табакерке Петровича, превратившись в *значительное лицо*. И фантастическим образом в этом значительном лице восстанавливается «незначительное лицо» Акакия Акакиевича, разыгрывается как бы «лже-бытие» героя. Так же, как и Башмачкин значительное лицо в роковой вечер отправляется на вечеринку к одному из приятелей, так же выпивает «стакана два шампанского» и по пути домой так же сворачивает в сторону – решает ехать «к одной знакомой даме, Каролине Ивановне, даме, кажется, немецкого происхождения». (Вот, кстати, аукнулось и «немецкое происхождение» жены Петровича). И в этой части повести женский образ так же знаменует собой роковой поворот событий. Встретив призрака, значительное лицо переживает ужас, похожий на тот, который испытал отчитанный им Акакий Петрович.

Показательно, что повесть не заканчивается после совершенного отмищения. Привидение несчастного Акакия Акакиевича продолжает бродить по окраинам города, расширяя, таким образом, географию своих прогулок. Если вспомнить, что автор назвал героя в начале повести «вечным чиновником» и упомянул о «вечной идее будущей шинели», то можно предположить, что своё произведение автор завершает пародийным «перевертышем» легенды о Вечном жиде, и эта аллюзия придаёт повести дополнительную глубину. Согласно гоголевской логике превращений и образ чиновника теперь трансформирован до неузнаваемости: у него теперь «преогромные усы» и «такой кулак, какого и у живых не найдёшь». Мученик и мучители словно поменялись местами, подобная же метаморфоза высвечивает гоголевское, явно невесёлое мнение о свойствах человеческой природы, в которой добро весьма охотно уступает место злу.

Выстроенная таким двухчастным образом композиция повести, в которой каждая деталь, каждый образ имеет своего ирреального «двойника», как бы уравнивает реально-бытовую и мистическую стороны жизни, допуская и даже утверждая возможность такого сосуществования, помогая приблизиться к лучшему пониманию авторского мировосприятия.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гоголь Н. В. Шинель // Избранные сочинения: Т. 1. М., 1994
2. Розанов В. В. Мысли о литературе. М., 1996.
3. Эйхенбаум, Б. Как сделана «Шинель» Гоголя // О прозе. Сборник статей. Л., Художественная литература, 1969. С. 306-326. С. 307

ФИО автора: Xakimova Maksuda Egamberganovna

Xorazm viloyati Urganch tumani

1-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Название публикации: «BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH»

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari va yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: komil inson, pedagogik texnologiya, didaktik o'yinlar, o'qish motivlari, erkin va mustaqil qobiliyat.

Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang'ich ta'lim shubhasiz mustahkam poydevor yo'lini o'taydi. Boshlang'ich ta'lim standartida o'quvchilarning o'qish malakalarining sifatlari va ijodiy fikrlay olishlari, o'z-o'zini nazorat qila bilishlari, nutq madaniyatini o'zlashtirishlari, husnixat bilan savodli yozish ko'nikmalarini egallashlari alohida qayd etilgan.

Yurtimizda ta'lim mazmuniga alohida e'tibor qaratib, DTS o'quv dasturlarining yangi tahrirdagi variantlari tajriba sinovdan o'tkazilmoqda, pedagogik texnologiyalar asosida o'quv jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanilmoqda. Boshlang'ich sinfda "o'qish" fani o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrlarini yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikmasi va malakalarga xizmat qiladi. Sinfda o'qish darslariga qo'yilgan vazifalar:

1. O'qish malakasini takomillashtirish. O'quvchilarda yaxshilik darajasi sifatlari: to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish.
2. Bolalarda kitobga muhabbat uyg'otish, kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimni olishga o'rgatish, ya'ni kitobni sevuvchi, kitob bilan ishlashni biladigan chuqur fikrlovchi, sermulohaza kitobxonlarni yetishtirish.

3. O'quvchilarda atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish.

4. O'quvchilarni axloqiy, estetik jihatdan mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

5. O'quvchilar nutqi (asosan,og'zaki nutqi) ni va tafakkurini o'stirish.

6. Adabiy tasavvur elementlarini shakllantirish.

Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining mazmuni:

1. Ta'lim metodlarini to'g'ri tanlash va ulardan o'rinli foydalanish - ta'lim samarasini ta'minlashga yordam beradi.

2. Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o'qituvchi va o'quvchi faoliyat doirasini aniq belgilab beradi.

3. O'qitish metodi deganda ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning kutilgan maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati tushuniladi.

O'qitish usullari ta'lim jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi.

O'qitish usullari har ikkala faoliyatning:

a) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish;

b) o'quvchilar tomonidan berilayotgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llanadigan yo'llarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik

texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O'qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog'chadan so'ng maktabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois, boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng ma'suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehni o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bu

davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan harakterlanadi.

Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta'lim jarayonida qo'llanadigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi, ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini, o'qish motivlarini rivojlantiradi. O'qish motivlari ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o'rin tutadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari jarayonida erkin va mustaqil qobiliyati shakllanadi. Mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishi natijasida, o'quvchilar atrof olamdagi, jamiyatdagi qonunlarni, shuningdek, asardagi ijobiy va salbiy qahramonlar orqali insoniy fazilatlarni anglash, bilimlarni chuqur o'rganish, keng fikrlash, tegishli qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchilarning bilimlarni keng egallashi va ma'naviy fazilatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash, ularni obektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta'lim berishda pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklarni o'rganish, amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T., 2006.
2. Avliyoqulov N.X. Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2008.
3. Internet manbalari: www.ziynet.uz
4. www.referat.uz
5. www.arxiv.uz

ФИО автора: Abdullayeva Kamolat Shuxratovna

Shovot tumani 4-maktab Ona-tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Название публикации: «TIL MILLAT KO'ZGUSI»

Bir qarasam har shevangda ming jilolar
Har novdangda har mevanda ming jilolar
Qodiriylar, Cho'lponlar Abdullolar
Sening qaytgan kuning men tug'ligan yilim
Ona tilim ey muqaddas Ona tilim

Muhammad Yusuf

Annotatsiya:

Millatning shon-u shavkati, iftixori, ertasi va buguni. Ushbu maqolada ona-tilimizning boshqa tillardan afzallik tomoni, nufuzi, butun yer yuzida tutgan mavqei va tashkil topishi borasida hamda So'z mulkingning sultoni Navoiy bobomizning til haqidagi fikrlari aytiladi

Kalit so'zlar:

Ona-tilim, baxshida etmoq, Navoiy bobomizning Ona-tilimizni takomillashishga qo'shgan hissalari, tildan unumli foydalanish usullari, "varvarizm", "vulgarizm".

Kirish:

Ona-tili. Bu so'zni eshitganimiz yoki ko'rganimizda qalbimizni tub-tubidan bir faxr-iftixor, g'urur, manfaat hamda shijoat hissini tuyamiz. Negaki, bu so'zning zamirida qanchadan-qancha ma'no va mazmun mujassamdir. Ona-tili bizga buyuk avliyo zotlarimiz, olim-u ulamolarimiz va mutaffakkirlarimizdan qolgan me'rosdir.

Asosiy qism:

Oллоhimga shukrlar bo'lsinki bizga shunday yurt, shunday aziz zaminni, shunday buyuk avliyo zotlarni hamda shuning barobarida shunday aziz ne'mat bo'lgan til, ya'ni Ona-tilimizni bizga bir buyuk ne'mat tariqasida in'om etdi. Biz insonlardan esa shu tilni qadriga yetib, ko'z qorachig'imizdek asrab-avaylab, o'z o'rnida tartib bilan foydalanib, uni kelajak avlodga yanada takomil etgan, jiloli va mazmundor qilib

yetkazib berish talab etiladi. Chunki tilni qanchalik asrab avaylab, ardoqlasak biz o'zimni ko'zguda shunchalik aks etgan bo'lamiz. Shuning uchun ham "Til millatning ko'zgusi" deya bejizga aytib o'tilmagan. Avvallari bizning o'zbek xalqimiz rus, arab tojik va boshqa tillarda so'zlashganlar, chunki arab, rus istilolari va tili biz o'zbek xalqiga o'z ta'sirlarini o'tkazib kelganlar va shuning barobarida o'zimizning mustaqil va shaxsiy tilimiz ham bo'lmagan. Buning uchun Navoiy, Koshg'ariy va ko'plab mutaffakirlarimiz bu muammoning ustida ishlab o'z ona -tilimizni yaratadi va biz o'zbek xalqiga tadbqiq etadi. Va oxir oqibatda necha zamon, necha yil, necha oy-u kunlar o'tib, ya'ni 1989 -yilga kelib o'z ona tilimiz, ya'ni O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilib, mustaqil ona-tili sifatida keng qo'llanila boshlanadi. Hozirgi vaqtga kelib barcha davlatlarning o'z shaxsiy ona-tili borligidek, biz o'zbek xalqimizning ham o'z ona-tilimiz mavjud. Bugungi kunda ko'pchilik yoshlar orasida chet so'zlarni qo'shib, o'z ona-tilimizning so'zlarini ham buzib aytib notog'ri qo'llamoqdalar. Bu esa yoshlarimizning savodsiz, madaniyatsizligidan dalolatdir.

O'zbek tili davlat tili maqomini olgach turli tillardan ayniqsa rus tilidan kirgan varvarizmlardan (" Братан", "Дедуля", "Земляк", "мир", "чотке" va bosh) o'zbek so'zlashuv tili faol tozalana boshlandi. Varvarizm ma'lum bir tilga chet tilidan kirib kelgan so'zlardir. Biz o'zining ona-tilisi turib boshqa chet tili so'zlarini ishlatib yuradigan kishilarni varvarlar deb ataymiz. Buning oldini olish uchun esa pedagog o'qituvchi ustozlarimizdan yoshlarga ona-tilimizning qanchalar go'zal, qanchalar so'zlarga boy va shuning barobarida sehrli kuch-qudratga ega ekanligini uqtirib, ularning qalbiga singdirib borish talab etiladi. Ota-bobolarimiz qadimdan tilni asrab avaylashgan, rivojlantirishgan. Masalan, A.Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Lutfiy va boshqalar. O'zbek tilining rivoji uchun beqiyos hissa qo'shganlar. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilimiz bizning bebaho boyligimizdir.

So'z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zi yashagan murakkab davr – XV asrda tilimiz ximoyasiga o'tlanib, turkiy til o'z imkoniyatlari jihatidan boshqa tillardan sira qolishmasligini ilmiy va amaliy jigatdan isbotlab berdi. O'zining "Hamsa" kabi shoh asarini turkiy tilda yaratdi. Hozirda ham shoirlarimiz o'zbek tilining boyligini, uning buyukligini namoyon etuvchi asarlar yaratmoqdalar.

Boisi buyuk adabiyoti bo'lgan xalqning buyuk tili ham bo'ladi. Insonning qanday ma'naviyatga ega ekanini uning tilida, chiroyli nutqida namoyon bo'ladi. Til millatning buyuk boyligi, bebaho xazinası, tuganmas mulkidir. Chunki millatning tarixi, uning madaniy, ma'naviy merosi, urf-odatları va an'alari unda mujassam bo'ladi. Shu sababli ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitishimiz va avlodlarga to'liqligicha yetkazishimiz kerak. Birinchi Prezidentimizning ta'bri bilan aytganda "O'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-milliy bog'liqlik til orqali vujudga keladi". Bu fikrlarni doimo yodimizda tutishimiz kerak. Darhaqiqat, tilsiz millat rivojlanmaydi, taraqqiy etmaydi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'zbek tili maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilinganidan so'ng barcha davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritiladi, gazeta va jurnallar o'zbek tilida chop etila boshlandi. 1993-yil 2-sentabrda "Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish tog'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rin egallash muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu sababli chet ellerda ham o'zbek tiliga qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar soni ortib bordi. Dunyoda 5600 dan ortiq tillar mavjud bo'lib, bundan 200 tasigina davlat tili sifatida qabul qilingan. Ularning orasida o'zbek tilining borligi uning naqadar sof, mukammal, purma'no va jozibadorligidan darak beradi. Rossiyalik tilshunos olim, professor A. M. Kozlyanina "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" deb bejiz ta'kidlamagan. Shunday ekan ona tilimizning shundayin go'zalligini, sofligini keying avlodlarga yetkazish bizning vazifamizdir. Negaki, ona tilni ulug'lash, asrab-avaylash o'sha tilda so'zlashadigan har bir insonning burchidir.

Buyuk bobokalonimiz, she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy " Til insonni hayvondan ajratib turuvchi gavhari sharifdir" degan edi. Ona tilini bilmagan odam o'zining shajarasini, ildizini bilmaydi.

Xar bir millat o'z hayoti davomida foydalanadigan tilini ona tili deb ataydi. Bunday atalishiga sabab farzandni tarbiyalab voyaga yetkazishda onaning òrni beqiyosdir. Go'dak bolalik tovushlarini, sòzlarni onasidan eshitgani bois har bir

millatning tiliga ona tili deyiladi. Qadimda ona tilimiz turkiy til deb atalgan. Otabobolarimiz asrlar davomida ona tilimizni asrab - avaylab kelganlar. Ona tilini mustahkamlash maqsadida e'tiborga loyiq ishlarni amalga oshirganlar. Jumladan A. Temur ham she'rlardan zavq olgan, baytlar bitgan Husayn Boyqaro va Zahiriddin Muhammad Bobur zamonasining sultonlarigina emas, tan olingan shoirlari ham. Har bir davrning o'z muammolari bo'lgani kabi XV asrlarda turkiy tilda ham muammolar yuzaga kela boshlagan. Xuroson va Movorounnahrda oson va qulay bo'lgan fors tilida she'rlar yozilgan. Chunki fors tili ishni osonlashtirgan. Fors tilida adabiyotlar yetarli darajada bõlgan. Turkiy tilda she'r yozadigan kishi esa bu tilda ham katta salmoqli adabiyot yaratilmagani uchun izlanmođi, har bir so'z va ibora, ifoda ustida bosh qotirmođi zarur bo'lgan. Turkiy tilning imkoniyatlarini ilmiy va amaliy ko'rsatmoq, millatning ğururi va sha'nini o'zining munosib o'rniga qo'shmoq sharafi va mas'uliyati Alisher Navoiy zimmasiga tushdi. Buyuk shoir

r".

Foydalanilgan adabiyotlar:

"O'zbek tili o'lmaydi"filologiya fanlari nomzodi Inomjon Azimov."Sharq" nashriyoti 12 -bet.Akademik litsey va kasb hunar ko'llejlari uchun darslik Mahmud Qoshġ'ariy "Devoni lug'atit turk" Alisher Navoi asarlari Muhokamatul-Lug'atayn

Internet sayti

www.onatili.uz www.til.uz

T A Q R I Z

Ushbu maqolada ona-tilimizning boshqa tillardan afzallik tomoni, nufuzi, butun yer yuzida tutgan mavqei va tashkil topishi borasida hamda So'z mulkining sultoni Navoiy bobomizning til haqidagi fikrlari aytiladi

tasvirlashning formal modellari, maxsuliy tizimlar, mantiqiy yondoshish, mantiqiy tizimlarda oddiy faktlarni tasvirlash va bilimlarni tasvirlash uchun mantiqni qo'llashga doir misollar. keltirilgan.

Hulosa qismida xulosada fikrlar keltirilgan .

Maqola yaxshi darajada yozilgan.

Ushbu maqolani yozishda Matchonov Sh, Sultonova N. qo'yilgan masalaga ijodiy yondashganlar ko'rsata olgan.

ФИО авторов: Darmonoy O`rayeva

O`zbek adabiyoti kafedrası professori, f.f.d., Buxoro Davlat Universiteti,

O`zbekiston, Buxoro

Shamshoda Hamdamova

Adabiyotshunoslik yo`nalishi 1-bosqich magistranti,

Buxoro Davlat Universiteti, O`zbekiston, Buxoro

Название публикации: «O'.HOSHIMOV IJODIDA ONA OBRAZI»

ANNOTATSIYA

Maqolada mashhur adib O'.Hoshimov ijodidagi onalar obrazi yoritilgan. Ona siymosining "Dunyoning ishlari" qissasi, "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar" romanlaridagi ahamiyati tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: alla, urush, nemislar, kitob, shartlilik, badiiylik, bosh g'oya, asira ayol.

Turli xalqlar adabiyotida yaratilgan turli millat onalari obrazining badiiy chizgilarini jahonning turli xil ijodkorlari asarlarida ko`rish mumkin.. Har bir ijodkor o`z salohiyatidan iste`dodi ko`lamidan, o`zi mansub bo`lgan xalqning mental xususiyatlaridan kelib chiqib ayni bir mavzuga turlicha yondashadilar, turlicha talqin etadilar. O`zbek adabiyoti xazinasidan bu kabi gavharlar behisob albatta. Har bir inson xayolida ona deganda dastlab o`z onasi gavdalansa, ikkinchi o`rinda badiiy adabiyotga mehri bor insonning quvvayi hofizasida O`tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarii namoyon bo`ladi. "Dunyoning ishlari"... Bu asar o`zbek adabiyotida o`zbek onalarining o`zbekona talqiniga bir misol. Shunday misolki, unda millionlab o`zbek onalarining aksi bor. Sodda ammo oqila, joni po`latdan qattiq, ammo farzandining bir tomchi ko`z yoshidan ming bir joni poralanuvchi o`zbek onalariga qo`yilgan haykal bu . Mehri O`zbekiston yozining quyoshidek qaynoq, qalbi shu yurt qishining qoriday oq va pokiza bo`lgan o`zbek onalariga bitilgan javhar bu.

Asar boshida muallif shunday deb yozadi: "Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun aziz odam – Onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o`z ko`zim bilan ko`rganman. Faqat

ba'zilarining ismi o'zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan Onamga bog'langan.

Dunyodagi hamma onalar farzandiga munosabat bobida bir-biriga juda o'xshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bag'ishlanadi aziz Onajonlar!”.

Adib asarning “Kitob” nomli qismida shunday deb yozadi: “Bugun kitobim chiqdi. Har gal yangi kitobim chiqishi bilan onamga atar edim. Har gal bir xil so'z yozib berardim. “Birinchi o'qituvchim onamga”. Bugun yangi kitobim chiqdi. Birinchi nusxasini emas, bitta nusxasini emas, oltmish ming kitobning hammasini onamga bag'ishladim. Lekin...”.

“Dunyoning ishlari”da o'zbekning mushtipar, mushfiq va jafokash Onasiga tirik haykal qo'yildi. Uning biror novellasi sahnasini befarq o'qib bo'lmaydi. Kitobxon qavmi borki, ushbu asar mutolasiga kirishdi deguncha o'z bolaligi, go'daklik xotirasiga muhrlangan volidasini eslaydi. Bu eslash har qanday bag'ri tosh odamning ham ko'nglini halimlashtiradi, uni ezgu tuyg'ular girdobiga tortadi.

Asarning ikkinchi e'tiborli jihati shundaki, yozuvchi odamlarni Onaga bo'lgan munosabatidan kelib chiqib kimligini qanday insonligini ko'rsatadi. Qissaning uchinchi yo'nalishini asar qahramoni “Men”idagi evolyutsiya tashkil etadi. Bu “Men” dunyoni asosan ona timsoli orqali idrok etib ulg'ayadi, neki voqea-hodisa bo'lsa ona konteksida qabul qiladi va shu kontekstdan kelib chiqib ularning bahosini beradi. “Dunyoning ishlari”da kashf qilingan Ona obrazi O'tkir Hoshimovning keyingi asarlarida ham boshqa zamon va boshqa makonlarda o'quvchining ko'z o'ngida gavdalanadi. Chunonchi, “Tushda kechgan umrlar”dagi Qurbonoy xola ko'p jihatdan qissadagi Oyi obrazini mantiqan davom ettiradi. “Urushning so'nggi qurboni” hikoyasidagi Umri onaning mushfiqligi, xokisorligi ham bu ikki asardagi onadagi fazilatlarda deyarli farq qilmaydi.

Ona obrazini yaratishda bosqichma-bosqich bosib o'tilgan “Dunyoning ishlari” qissasi, “O'zbeklar”, “Urushning so'nggi qurboni” hikoyalari, yirik polotnodan tashkil topgan “Ikki eshik orasi” romanidagi qator onalar obrazi va ularning milliy xarakterini

yaratishdagi lirik ifoda va epik ko`lam uyg`unligining yetakchi uslubiyo`nalish tariqasida shakllanganini ko`ramiz.

O`tkir Hoshimov ijodida “Dunyoning ishlari” qissasi adibning ona obrazini yaratishdagi kulminatsion nuqtasi bo`ldi, deyish mumkin. Ustoz adib Said Ahmad “Ijod va jasorat” maqolasida qissa haqida shunday e`tirof etdi: “Dunyoning ishlari” asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo`shiqday o`qiladi. Uni o`qib turib, o`z onalarimizni o`ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarmiz oldidagi bir umr uzib bo`lmas qarzlarmizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko`z oldimizda ko`ndalang turib oladi”.

. Asardagi ona farzandi, farzandi oromi, baxti uchun jonini, jahonini berishga tayyor ming-minglab onalarimizning timsoliga aylandi.

Ona avvalo yaratuvchanligi bilan ulug`lanadi, sharaflanadi. Zero, adibning o`zi “Ayol” nomli publitsistik maqolasida Onaning yaratuvchanlik qobiliyatini kurrayi zaminga qiyoslab yozgan fikrlari bilan buni dalillaydi: “Ona mehrini to`sadigan qudrati mana shundadir. Ehtimol, ona yurt, ona tili, ona vatan degan iboralar mana shundan kelib chiqqandir. Ehtimol, ona –yer degan ibora shundan kelib chiqqandir. Shuning uchun ham men yer kurrasini ayolga o`xshataman”. Shu ma`noda, O`.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanini onalar jasorati haqida yozilgan betakror asar deyish mumkin. Albatta, bu baho romanning bitta qirrasini haqida aytilmoqda. “Ikki eshik orasi” romanida, hatto, eng kichik epizodik tasvirlarda ham onaning farzandiga bo`lgan cheksiz mehri va muhabbati yuqori pardalarda kuylanadi va ta`sirchan hikoya etiladi. Adabiyotshunos B.Sarimsoqov: “Shartlilik badiiylilikning mezoni sifatida asardagi bosh g`oyani to`laqonli ifodalashga xizmat qiladi. Haqiqiy badiiy asar ko`p g`oyali bo`ladi. Asardagi barcha g`oyalar, barcha unsurlar ana shu bosh g`oya atrofida markazlashib, uni yorqin va to`laqonli ifodalanishiga xizmat qiladilar” – deydi. Olim e`tirof etganidek, “Ikki eshik orasi” romanida ham bosh g`oya urushdan jabrlangan o`zbekning, uch avlodning fojiaiy qismatini keng planda ochib berishdir. Ammo asardagi juda ko`plab taqdir, maishiy lavhalar, psixologik tasvirlar, qistirma

hikoyalar, epizodik obrazlar barcha-barchasi bosh g`oya atrofida birlashib, jipslashgan. Jumladan, asira ayol hikoyasi ham ana shunday badiiy maqsad yo`lida kiritilgan.

Ona qay millat vakili bo`lmasin, u baribir ona, faqat bolam deguvchi zot. Yozuvchi onaning muz ostida bu qadar uzoq turgani sababini nemislar kashf qilgan qandaydir dorining kuchidan emas, balki onalik mehri tufayli, bolasining razillar qo`lida yolg`iz qoldirmaslik uchun, favqulotda matonat bilan uzoq chidaganini o`z mahorat qalamining o`tkir uchlarida so`zlab beradi. U qizalog`ini tashlab ketolmayapti, undan ko`ngil uzib o`lolmayapti.

Xulosa qilib aytganda birgina obrazda bir insondan tortib butun boshli millatni va hatto butun bashariyatni aks ettirish mumkin. Bu esa ijodkorning mahoratiga bog`liq. O`zbek adabiyotida ana shunday ona obrazini bashariyat tirgagi, mehr sarchashmasi darajasiga ko`targan adiblar talaygina bo`lsada, biz ularning ayrimlarinigina tilga olish bilan cheklanamiz. Zero adabiyot shunday bir ummonki, tubining cheki yo`q, poyoni yo`q. Shu ummondan bir qatrasini, bir tomchisinigina tahlilga tortishga muyassar bo`ldiki, ummon tubida esa hali javohirlar behisob.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Хошимов Ў. Дунёнинг ишлари. Қисса. – Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 1966. – 164 бет. .
- 2.Hoshimov O`. Ikki eshik orasi. Т.: Бадий адабиёт нашриёти, 2012. – 541 b
- 3.O`tkir Hoshimov. Ayol. Sharq yulduzi. Т.: 2003. 4-son. – 28 b.

ФИО автора: Xusanboyeva Shahnoza Shavkatbek qizi

Andijon davlat universiteti magistranti

Название публикации: «HIKOYA MATNINI O‘QITISHDA METODIK
USULLARDAN FOYDALANISH»

Boshlang‘ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she‘r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o‘rganiladi. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop maqolalar ham o‘qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, stilistik priyomlari jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘quvchilarga ta’siri ham har xil bo‘ladi. Shunga ko‘ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o‘qishda o‘qituvchi unga mos metodlar tanlashi talab etiladi.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo‘lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqea hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. Hikoya ko‘pincha kishi hayotida bo‘lgan bir epizodni tasvir etadi.

Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o‘ziga xos xususiyatlari va vazifasidan kelib chiqib ish ko‘rishni taqozo etadi. Undagi har bir so‘z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi.

Hikoya mazmunan boshlang‘ich sinf uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko‘rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko‘proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo‘lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog‘lab olib boriladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo‘ladi. So‘roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o‘rtasidagi bog‘lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoya qilishga o'rgatishda real obrazlarga tayanish lozim. So'zli usullarni didaktik o'yin yoki real narsalarni ko'rsatish bilan birgalikda amalga oshirish mumkin. Besh yoshli bolalarga ham tarbiyachi to'gridan to'g'ri savollar berish orqali qayta hikoya qilishda yordamlashishi lozim, ammo ayni paytda u mavzuni rivojlantiruvchi savollar turkumi (zanjir)ni berish, ya'ni hikoya qilishning oddiy rejasini tuzishi darkor. Dastlab reja bor-yog'i 2-3 ta savoldan iborat bo'lishi mumkin.

Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar ma'nosini tushunmaydigan so'z va iboralar ma'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda, ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. So'z ma'nosini tushuntirishga ko'p vaqt sarflamay, asar mazmunini tushunishda eng zarur bo'lgan so'zni qisqa izoh berish bilan tushuntiriladi.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. SHundan keyingina hikoya xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta

hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Kichik badiiy hikoyani izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti sxemasi e'tiborga olinadi:

1) hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...); 2) hikoyani (to'liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi; 3) idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o'rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat); 4) hikoyani qayta o'qish (hikoyani qismlarga bo'lish, o'quvchilarga o'qitish, ayrim so'zlar ma'nosini tushuntirish); 5) hikoyaning har bir bo'limi yuzasidan suhbat o'tkazish va sarlavha topish; 6) hikoyaning ayrim bo'limlarini ifodali o'qish; 7) reja asosida qayta hikoyalash; 8) hikoyani ifodali o'qishga yoki sahnalashtirishga tayyorlanish (sinfda yoki uyda); 9) hikoyani ifodali o'qish va ifodali qayta hikoyalash.

Bu hikoyani o'qish darsi rejasining varianti bo'lib, o'zgarishi ham mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, badiiy hikoyani o'qish darsida uning mazmunini, asosiy fikrini bilish bilan birga, asarning tarbiyaviy (badiiy asar misolida o'quvchilarni tarbiyalash), xususan, estetik ta'siri ham ko'zda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Adabiyotlar:

1. Matjonov S., Shojalilov A., Vohidova N., Odamova O'. 4 - sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 2002,- bet 144.

2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva X., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2009, -b 352.

3. G'afforova T. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. O'qituvchi kitobi. Toshkent, "Tafakkur", 2011.

ФИО автора: Имонова Мафтуна Бахтиёр қизи

Термиз давлат университети магистранти

Название публикации: «ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА
ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР ШАҚЛЛАНИШИ ОМИЛЛАРИ
ПСИХОДИАГНОСТИКАСИ»

Аннотация: Ушбу мақолада шфхс характери хусусиятлари хақида сўз боради. Инсон хулқида жамиятда қабул қилинган меъёр ва мезонлар ижтимоий тараққиёт жараёнида шаклланган , ижтимоий тараққиёт омилларидан бирига айлангандир. Ушбу меъёр ва мезонлар нафақат ижтимоий барқарорликка, балки индивиднинг ўзини ҳам рухий барқарорлик ва тараққиёти учун зарурдир.

Калит сўзлар: Шахс, индивид, дедуктив, жамият

Сидоров Н.Р. девиант хулқ сифатида индивиднинг шахслараро муносабатларини мунтазам бузишга қаратилган —турғун деструктив —хулқ кўриниши деб баҳолайди Ўсмирлар жинойтчилигини ўрганган психолог А.И.Долгованинг таъкидлашича, ҳуқуқбузарлик қилишдан аввал ўсмирни хулқ атворида меъёрдан кескин чекинишлар бўлиб ўтади. Муаллиф девиант хулқли ўсмирлар учун хос бўлган 2 тоифа меъёрий чекинишларни ажратиб кўрсатган: • зўрма зўраки ва худбинона тоифадаги ўсмирлар ўзини кучли, ҳозиржавоб, тенгдошларига ёрдамга шай қилиб кўрсатмоқчи бўлади. Аммо бундай тоифа ўсмирларнинг ҳақиқат ҳақидаги хулосаси жинойтчи хулосадир. Улар характерида худбинлик, золимлик, жисмоний кучга ишониш, ноанъанавий гуруҳларни ёқлаш каби элементлар устувордир. Аутодеструктив тиббий ва психологик меёрлардан четга чиқувчи шахс яхлитлиги ва тараққиётига таҳдид қилувчи хулқ кўринишларини киритади,: суицидал хулқ,овқатга тобелик,фармокологик моддаларга нисбатан тобелик , фанатик тобелик,хаёт учун хавфли бўлган фаолиятга интилиш (спротнинг экастремал турлари). Деструктивлик йўналишига кўра Змановская қуйидаги таснифни киритади антисоциал (фаол ғдеструктив) – просоциал (нисбатан деструктив , маълум бир

маънода антисоциал ижтимоий нормаларга мослашаган) – асоциал (пассивдеструктив) –ўз–ўзини вайрон қилувчи (пассиваутодеструктив) – ўз ўзини ўлдирувчи (активаутодеструктив). Айрим тадқиқотчилар деструктивликни ижодиёт билан алоқасини таъкидлайдилар Масалан В.Н. Дружинин деструктивликни 2 турини ажратади: 1]ижодий хулқ,янги мухитни яратувчи 2]Бузғунчи– дезадаптив хулқ атрофдаги мухитни вайрон қилувчи Ижодиёт ва деструктивликни ўзаро умумийлиги шундаки инсон табиатдан ва атрофдаги ижтимоий мухитдан ажралиб бегоналашиб қолади Б. Карлоф ҳар бир ижодий актда ижодий элементи борлигини таъкидлайди ва 2 турдаги деструктив хулқни фарқлайди: адаптив,инсондаги мавжуд имкониятлар билан боғлиқ креатив, яратувчи – бузғунчи] Деструктив хулқ муаммоси билан таниқли америка оими Э Фромм шуғулулланган Ўзининг «Эркинликдан қочиш», «Инсон деструктивлиги анатомияси» асарларида ушбу муаммонинг ижтимоий маданий детерминантларига алоҳида эътиборини қаратган Польшалик психолог Ю. Козелецкий фикрича ҳар бир инсонга «трансгрессия» –инсоннинг хозир эга бўлган кўрсаткичлари натижаларига қоникмасдан , янада кўпроқ натижаларга эга бўлишга интилиши ташкил қилади. Ю. Козелецкий конструктив,яратувчи трансгрессия –ижодийлик ва деструктив аввалгиларни йўқотишга қаратилган трансгрессияни фарқлайди Д.И.Фельдштейннинг фикрича, девиант ўсмирлар ижтимоий сушт, тажоввузкор, қизиққон, қўпол, «кўз ёш» тўкишга мойил бўлиб, кўплари алдоқчи, масъулиятсизлиги билан ажралиб туради. И.А.Семикашеванинг изланишлари бўйича бундай гуруҳ қатнашчилари отағонага ўхшаш хислатларга эга бўлиб, алоҳида инсонларни эмас, ўзи мансуб гуруҳни ҳурмат қилади. Бундай ўсмирлар ўз характерларига масъулият сезмай, омма орасида ҳамғ ма қатори ҳаракатланади. С.А.Кулаковнинг таъкидлашича, бундай хулқли ўсмирлар психотерапевтларнинг мижозидир, уларга аниқ ташхис қўйилмагандиру, аммо уларнинг кўпгина хислатлари меъёрий жиҳатдан бузилган. Аффектив соҳада ғ бу ҳиссий бўшанғ глик депрессия ва ҳаяжонга тез берилишдир. Маънони талаб қилиш соҳасида эркинлик, ҳимояланганликка бўлган эҳтиёжини ёпиб қўйилиши, референт гуруҳига хос бўлиши, когнитив

соҳада хулоса қилишни рад этиш кузатилади. Н.Ю.Максимованинг тадқиқотларидан шу нарса аниқландики, оғир тарбияли ўсмирларнинг ижтимоий психологик хусусиятларида салбий ҳолатларга олиб келувчи қуйидаги ички сабаблар ҳам бор экан, жумладан: синфдошлар билан мулоқотнинг қийин олиб бориш лиши, хулқ –атвор меъёрларининг шаклланмаганлиги, ижтимоий меъёрлар ва хулқ-атвор қоидаларининг қадрини тушунмаслиги, инккор этиш, ўзи атроф олами бир бутун деб тасаввур этаолмаслиги, педагогларнинг талаб ва тақлифларини инобатга олмаслик, ўз-ўзига ўта баланд баҳо бериш, ота-она, ўқитувчи билан келишмаслик оқибатида ижтимоий тўғри ривожланмаслик. А.Е.Личконинг айтишича, ўсмирларнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари шу ёш учун хос бўлган қуйидаги хоссалар билан боғлиқ: 1. Тенгдошлари билан биргаликда гуруҳларга ажралиш. Вақт ўтган сари ўзларига зарар бўлувчи можаро ва саргузаштларга ўралашиб қолишлари. Ачинарлиси, бекорчи ўсмирлар бўш қолиб, кайфиятни кўтариш учун спиртли ичимликларни истеъмол қилиш ши. Ўсмирлар баъзилари қизиқувчанликдан «катталардек бўлиш», бошқалари эса қолганларидан қолиб кетмаслиги учун ҳам ичишга рўжу қўядилар. Улар нафақат ўғил болалар, балки қизлар ҳам бўладилар 2. Имитация [ўхшатиш] бу доимо кимгадир тақлид қилишдир. Бундай ўсмирлар ўз тенгдошлари ёхуд катталарнинг хатти-ҳараф катини такрорлайдилар. Атрофдагилардан бирортаси спиртли ичимлик, гиёҳванд модда истеъмол қилса, унга тақлид қилувчилар кўпаяди. Кўпгина ўсмирлар ўзига —намуна қилиб кино қаҳрамонини, актёрлар, созандаларни танлайдилар ва уларга тақлид қиладилар. Агарда тақлид қилинаётган қаҳрамон салбий қаҳрамон бўлса, унда ота-она ва педагоглар турли нохушликларга тайёр туришлари даркор. Айниқса, —намуна учун танланган инсон реал шахс бўлсаю, у ички 3. ликбоз, гиёҳванд, жиноятчи бўлса, ундан жуда катта кулфатларни кутиш мумкин, чунончи, кўпгина гиёҳвандлар, катта пул кераклигидан турли жиноятларга ўралашиб қолишади. 4. Инкор реакцияси [қарама-қарши туйғу]. Ўсмирлар учун хос бўлган туйғу. Хулқнинг қарама-қарши хусусиятлари яқинларининг дил сиёҳлиги, шахсиятни хафа қилиши, талабларнинг бажарилишида намоён бўлади. Қарама-қарши руҳдаги ҳаракатлар

кўпинча ота-она, катталарга қаратилган бўлади. Оилада муаммоли вазият юзага келганда, боланинг ички ва ташқи —мени|| кичик ёки бўрттирилган ҳуқуқбузарликлар билан намоён бўлади. Бундай исғ ёнкорлик руҳидаги ҳаракатларга отағоналарнинг болага нисбатан лоқайдлиги, шахс сифатида уни ҳурмат қилмаслиги, қизиқишлариг га тўсқинлик қилиши сабаб бўлади: Ота-онанинг боласига қўйган ўта юқори талаблари, уни —вундеркинд|| – ўта юқори чўққиларни эгалловчи шахс қилишдек орзулари ҳам сабаби бўлади. Душманлик ҳиссини беркитиб, ўсмир катталарга бўлган норозилик, хафалигини, ундан руҳан бегонасирашини намоён қилади. У ўзига дўстларни ташқаридан излай бошлайди ва кўпинча ичувчи, чег кувчи тўдага кириб қолади. Ривожланиш туйғуси (эмансипация) ўсмирнинг ўз эркинлиги, мустақиллиги учун кураши. У катталар назоратидан тезроқ озод бўлишни хоҳлайди. Уни қанча назорат қилишса, у шунча эркинликка талпинади. Бу ўсмирнинг қайсарлиги билан боғлиқ. Руҳан соғлом ўсмирлардан ўта қайсарлик хислатлари вақти билан ўтади. Агарда катталар ўта шафқатсизлик ва сўзсиз бўйсунитишни сўрашса, унда ўсмирлар ўта кескин характер намоён қиладилар. Психодиагностик тадқиқотлар амалиётида психологик диагноз қўйишнинг 3 босқичи фарқланади: Симптоматик диагнозда дастури мавжуд ҳар қандай компьютер технологичяси орқали бажариши мумкин бўлган тадқиқотда олинган натижалар қайта ишланади. Этнологик диагнозда келиб чиқиш сабаблари бирор хусусиятнинг мавжудлигини эмас, балки унинг вужудга келиш сабаблари ҳам ҳисобга олинади. Типологик диагнозда синалувчи шахс тузилишида олинган натижаларнинг аҳамияти ва ўрни аниқланади. 1 Психодиагностика психологиянинг илмий ва амалий жабҳаларидан ташқари унинг бошқа соҳаларида кенг қамровда қўлланилади. Масалан, тиббий психология, патопсихология, инженерлик психологияси, меҳнат психологияси каби инсоннинг психологик хусусиятларини билиш талаб қилинадиган барча соҳаларда фойдаланилади. Илмий ва амалий психодиагностика қайд этилган барча ҳолатларда ҳам ўзига хос муҳим вазифаларни ҳал этади. Уларга қуйидагилар киради: 1. Инсондаги мавжуд бирор психологик хусусият ёки ҳуқ-атвори ҳолатини аниқлаш; 2. Мазкур хусусиятнинг шаклланганлиги, яъни унинг

микдорий ва сифатий кўрсаткичларда намоён бўлиши даражасини ўрганиш; 3. Зарур бўлган ҳолдагина шахснинг ташҳис қилинаётган хулқ-атворидаги психологик хусусиятларини очиб бериш; 4. Ўрганилаётган хусусиятларнинг шаклланганлик даражасини таққосий ишланмасини яратиш. Амалий психодиагностикада санаб ўтилган вазифаларнинг ҳар бири алоҳида ёки комплекс тарзда олиб борилаётган тадқиқот мақсадига мувофиқ амалга оширилади. Психологик диагностика жараёнида Шахснинг индивидуал-руҳий ҳолатлари, шахсий хусусиятлари ўрганилади; Аниқ диагностика маълумотлари шахснинг руҳий ҳолатини, унинг феълидаги хоссаларини, темпераментини баҳолашга имкон яратади. Ижтимоий-психологик диагностика - бу ўсмирларнинг ўзаро оилада, «кичик гуруҳларда, тўғаракда, спорт жамоаларида ва бошқаларда шаклланган ижтимоий-психологик хусусиятларини тўғри баҳолаш». Россиялик психолог Ю.М.Антонян диагностик тадқиқотлари деструктив фаолият деярли доимо узок вақт давом этадиган фрустрация (лот. *frustratio* – алдов, беҳуда кутиш-хоҳиш, эҳтиёжларни қондириш билан боғлиқ муваффақиятсизликлар натижасида юзага келадиган психик ҳолат) ёхуд норасолик ҳисси шаклланиши натижасида юз беришини исботлаган.[15] Фрустрация натижасида келиб чиқадиган деструктив ҳаракатлар экстрапунитив характер касб этиши (ён-атрофдаги кишиларга, шу жумладан, фрустрация ҳолатига умуман алоқаси йўқ бутунлай нотаниш одамларга, алоҳида нарсабуюмлар ёки ижтимоий тузилмаларга йўналтирилиши) ёхуд интропунитив аҳамиятга эга бўлиши (субъектнинг фрустрация сабаби ўзи эканлигини англаши ва жароҳатловчи вазиятдан алкоголизм, гиёҳвандик ёки суицид орқали чиқишга ҳаракат қилиши) мумкин. Албатта, ўзини ўзи намоён қила олмаган ва фрустрация ҳолатида бўлган барча одам ҳам деструктив ҳаракатларни амалга оширавермайди. Бунда биологик омиллар билан бир қаторда турли ижтимоий омиллар, тарбия ва муҳитнинг шахс шаклланишидаги ўрни, инсоннинг турли деструктив, салбий психологик-манипуляцион таъсирларга тушиш хусусиятларини ҳам инобатга олиш зарур. К.Леонгарднинг шахс типологиясига кўра ўзини ўзи бошқаролмаслик, хоҳиш ва интилишлари юзасидан назоратнинг

суствлиги, физиологик майлларнинг устуворлиги бу типдаги шахсларда уйғунлашиб кетади. Уларга инстинктивлик, импульсивлик, кўполлик, миждовлик, бадқовоқлик, беадаблик, орсизлик, дағалликка мойиллик хосдир[16.]. Бундай кишилар турли низо ва мунозараларни келтириб чиқариб, уларнинг фаол иштирокчиси бўлишади. Сержаҳл, серзарда, жиззаки бўлиб тезтез иш жойларини згартириб туришади, жамоадагилар билан чиқиша олмайдилар. Мулоқотга киришувчанлиги, вербал ва невербал реакциялари, хатти-ҳаракатлари суст. Қўзғалувчан типдаги кишиларнинг аксарияти болаликларида «қулоқсиз» бўлишган, хулқ-атвори талабга жавоб бермаган. Бошланғич синфларданок ўқишга ҳафсаласи бўлмаган. Бетўхтов назорат остида, истаристамас улар уй вазифаларини, топшириқларни бажаришган. Барча ёмон ёрлиқлар уларга ёпиштирилган. Ёлғизликда ўзларини ёмон ҳис қилишган. Ташкилотчилик хислатларининг етарли даражада шаклланмаганлиги уларнинг етакчи бўлишларига имкон яратмайди. Ўқишни тез ташлашади. Бирор ишдан улар завқ олишмайди, бошқа илож йўқлиги сабабли бу кишилар муайян фаолият билан шуғулланишади. Бир қарашда соғломдек кўринган ўқувчиларнинг диққат, хотира, тафаккур, идрок жараёнидаги бузилишлар дарсни қабул қилиш чоғида тажрибали педагогга яққол кўринадилар. Истиқбол, келажакка бефарқ бўлиб, фақат бугунги кун билан яшашади, кўнгилхушликни яхши кўришади. Жазавага тушгач, ҳовуридан пасайиши қийин кечади, бу пайтда атрофдагилар учун хавф туғдириши мумкин. Ўзидан кучсизлар орасида ҳукмрон бўлишга интиладилар. Деструкцияга мойил шахсларнинг яна бир хусусияти уларда хавотирланиш даражасининг юқори бўлишидир.

Девиант хулқли ўсмир хулқ-атвор йўналишининг таҳлили. Бунинг учун авваламбор Б.Бас методикаси бўйича анкета сўровномаси тўлдирилади. Анкета жавоблари умумлаштирилиб, психолог хулосалари билан ўсмирнинг ўзи ва гуруҳдагилар билан ўртоқлашади. Б.Бас тузган анкета саволномаси 3 тоифа шахснинг йўналишлар хоссаларини белгилайди. Ўз-ўзига қаратилган йўналиш - фақат ўзининг хотиржамлигини кўзлаш, шахсий устунликка интилиш,

рақобатчиликка, ҳукмронликка, биринчи бўлишга интилиш ҳамда одамовилик, тажовузкорлик, тажанглик, ташвиш- ли ҳолатда бўлиш кабилардир. Бунда ўсмирлар ишда, жамоада биринчи галда шахсий манфаатларини устун қўядилар. Ўзаро мулоқот ҳамжиҳатликка қаратилган йўналиш - инсонлар билан мулоқотга интилиш, баъзида муваффақиятли бўлмаса-да жамоада умумий фаолият билан шуғулланиш.

Адабиётлар;

1. Каримов И.А. Узбекистан стремится в XXI век, Ташкент .: 2001.
- 2.Петровский А.В. Психология, Ташкент 1992 г.
- 3.Каримова В.М. «Основы социальной психологии» - Т., 1994.
- 4.Гозиев Э. Психология. Т., Учитель, 1994
- 5.Баратов Ш. Методы изучения личности студента. Т., 1995 г.
- 6.Гозиев Е. Психология интеллекта. Т., Учитель, 1996 г.
- 7.Гозиев Э. и Б. Проблемы психологии. Т., Учитель, 1996 г.
- 8.Гозиев М. Высшая школа психологии, Т .: 1997.
- 9.Давлетшин М.Г., Психологический аннотированный словарь. Т., 1998 г.
- 10.Психология В.Каримова. Ташкент, 2002 г.

ФИО автора: A`zamova Dilfuza Shafoevna

O`qituvchi, Termiz davlat universiteti

Название публикации: «ЎЗБЕК БАДИЙ ДИСКУРСИДА МИЛЛИЙ-МАДАНИЙ ФОНДНИНГ ИФОДАСИ»

Annotatsiya: Maqolada o`zbek badiiy diskursida milliy-madaniy fondining ifodasi haqida so`z boradi. Madaniyatlar aralashgan bugungi kunda turli tillar, xalqlar, ularning madaniyatlariga qiziqish, ularni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ikkita milliy madaniyat hech qachon bir-biriga to`liq mos tushmaydi. Retsipiyentning boshqa madaniyatdagi matnni o`z madaniyati doirasida qabul qilishi o`sha madaniyatni tushunmaslikka, ayrim hollarda madaniyatlararo to`qnashuvlarga sabab bo`ladi. Lisoniy to`siqlar mavjud bo`lmagan holatlarda ham aynan madaniyatlardagi farqlar madaniyatlararo muloqotga xalaqit qilishi mumkin.

Kalit so`zlar: diskurs, badiiy, chet tillari, madaniy

U yoki bu lingvomadaniyat jamoasining milliy xususiyatlarini ifodalovchi lakunalar chet tillarni o`rgatishda o`ziga xos to`siq sanaladi. Biroq madaniyatlararo muloqot tajribasi mazkur madaniyatlarning milliy o`ziga xos farqlaridagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishda turli usullarning mavjudligini ko`rsatadi. Binobarin, G. A. Antipov, O. A. Donskix, I. Y. Markovina va Y. A. Sorokinlar ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning ikki: *to`ldirish* va *kompensatsiyalash* usullariga ajratishadi⁹⁰.

Lakunalarni *to`ldirish* retsipiyent uchun boshqa madaniyatga tegishli bo`lgan ayrim tushunchaning ma`nosini ochib berish jarayonidir. Lakunalarni to`ldirishning eng ko`p tarqalgan turi matn tarjimasida milliy-madaniy xususiyatga ega bo`lgan unurni saqlab qolishdir. Masalan, *In der Gaststätte*

⁹⁰ Антипов Г. А., Донских О. А., Марковина И. Ю., Сорокин Ю. А. Текст как явление культуры. Новосибирск, 1989.

*bestellte er Hackepeter. U restoranda ziravorlangan xom go'shtdan tayyorlanadigan xakepeter olib kelishni buyurdi*⁹¹.

Ijtimoiy lakunalarni bartaraf qilishning yana bir usuli *kompensatsiyalash* bo'lib, uning asosiy vazifasi milliy o'ziga xos to'siqni olib tashlashdir. Matndagi lakunalarni kompensatsiyalashning eng sodda turi boshqa madaniyatga oid bo'lgan parchani retsipyent tilida berishda muallif tomonidan realiyalardan foydalanishdir. Masalan, *“У него (дерева) густая раскидистая крона, продолговатые листья, как у нашей черемухи, только в несколько раз крупнее*”⁹².

Bunda havola va iqtiboslar keltirish kompensatsiyalash usulining asosiy unsuri bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, lakunalar bir tomondan milliy madaniyatning o'ziga xos belgisi, mentalitet xususiyatlari darajasining ko'rsatkichi bo'lsa, ikkinchi tomondan madaniyatlararo o'zaro ta'sir sharoitida o'zga ko'rinishga kira oladigan birliklar hisoblanadi. Lakunalarni tadqiq qilish lakunologiya fanini shakllantirishga, uning tushunchaviy-terminologik apparatini va tadqiqot metodlarini ishlab chiqishga, tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib berishga, madaniyatlararo muloqotda to'siqlarni yengishga, chet tillarni o'rgatishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

“Lakuna” termini ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unga shunday ta'rif berilgan: “Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi”⁹³.

⁹¹ Папикян А. В. Социокультурные лакуны: типология, причины появления способы заполнения при изучении иностранных языков. – С. 481. Электрон вариант.

⁹² Пиляцкий Б. Восточная и Южная Азия. М., 1981. - С.175.

⁹³ Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –Paris, 1958. –P. 10.

V.G. Gak lakunalarni “tilning leksik tizimidagi bo‘shliqlar, bor bo‘lishi kerakdek ko‘ringan so‘zlarning mavjud emasligi”⁹⁴, deb tushuntiradi. Tadqiqotchi lakunalarni mazkur jamiyatda tushunchalarning mavjudligi, biroq ularni ifodalovchi so‘zlarning yo‘qligi, bunday tushunchalar uchun boshqa tilda alohida leksik ifodalarning mavjud bo‘lishi deb hisoblaydi. Lakunalarga misol tariqasida fransuz tilida rus tiliga qiyosan *сумка* va *куняток* so‘zlarining mavjud emasligini keltiradi.

Lakunalar (J.P. Vine va J. Darbelne, V.L. Muravev), oraliq, lakuna (K. Xeyl), zid so‘zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog‘lar (Y.S. Stepanov), tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar (V.G. Chernov), muqobilsiz, nol so‘z (I.A. Sternin), muqobilsiz yoki fonli leksika (L.S. Barxudarov, Y.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov), tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika (L.S. Barxudarov) va h.k. qo‘llanilganini ko‘rish mumkin.

S.Vlaxov va S.Florinlar lakuna hodisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo‘lgan realiyalar, ya’ni “biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari”⁹⁵ sifatida talqin qilishgan. O.A. Ogursovaning fikricha, mazkur leksemalar qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashi bo‘lmagan so‘zlardir. Olima *lakuna* terminini qo‘llashni ma’qul ko‘radi va uni so‘z birikmasi emas, konnotatsiyadan holi bo‘lgan qisqa so‘z ekanligini; tasvirlanayotgan hodisani farqlilik darajasi xususida so‘z yuritish mumkin bo‘lgani uchun unga nisbatan muqobilsiz terminini qo‘llashning o‘rinsiz ekanligini qayd qiladi. “Lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud

⁹⁴ Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –Л.: Просвещение. Ленингр. от-е, 1977. –С. 261.

⁹⁵ Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. –М.: Высш. шк., 1986. –С. 55.

bo‘lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so‘zlar va so‘z birikmalaridir”⁹⁶.

Aksariyat tadqiqotchilarning tillar va madaniyatlardagi farqliliklarni tahlil qilishda “lakuna” (lot. lacuna – bo‘shliq, chuqurlik, cho‘nqir joy; frans. lacune – bo‘shliq, bo‘sh joy) terminini qo‘llashlari bejiz emas. A.M.Proxorovning tahriri ostidagi “Советский энциклопедический словарь” (М., 1981)da tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi lakunalar “matnda bo‘sh qolgan, tushib qolgan joy” deb izohlangan. Bunga o‘xshash izohni “Словарь иностранных слов” (М.,1984)da ham uchratish mumkin.

Muayyan xalqning madaniyatida boshqa madaniyat vakillari tomonidan qabul qilinmaydigan stereotip xarakterdagi bir qator o‘ziga xos unsurlar mavjud bo‘lib, ular Y. A. Sorokin va I.Y.Markovinalar tomonidan lakunalar deb nomlanadi. Retsipiyent har doim ham o‘zga madaniyat matnini to‘liq tushuna olmaydi. Matndagi ayrim birliklar unga g‘alati tuyuladi va ular maxsus izoh talab qiladi. Bunday birliklar matn yaratilgan madaniyatning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, lakunalarni yuzaga chiqaradi.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida “yurist, advokat” ma’nosini anglatgan *lawyer* so‘zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* “vakil”, *barrister* “oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan advokat”, *solicitor* “mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega”, *counsel* “yuristkonsult”, *counsellor* “maslahatchi”, *advocate* “oliy darajadagi advokat” (Великобритания, 1978) kabi so‘zlar ham qo‘llaniladi. Mazkur ifodalarga o‘zbek va rus tillaridagi faqat *advokat* so‘zigina muqobil bo‘la oladi.

⁹⁶ Огурцова О.А. К проблеме лакунарности //Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. –С. 79.

O'zbek tilida onaning onasiga ham otaning onasiga ham *buvi*, onaning otasiga ham, otaning otasiga ham *buva* deyilsa, turk tilida *anneanne*, *babaanne*, koreys tilida otaning onasiga *halmoni*, otaning otasiga *haraboji*, onaning onasiga *vihalmoni*, onaning otasiga *viharaboji* deyiladi. Yoki koreys tilida *obba* “aka” ayollarning, *hyŏŋ* “aka” erkaklarning, *onni* “opa” ayollarning, *nuna* “opa” erkaklarning nutqida ishlatiladi”⁹⁷.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida onaning onasi// otaning onasi, onaning otasi//otaning otasi kabi tushunchalar mavjud bo‘lsa-da, ularni ifodalash uchun faqat ikki so‘z: *buvi* va *buvadan* foydalaniladi. Turk va koreys tillarida esa bu tushunchalarning har biri alohida so‘zlar (*anneanne*, *babaanne*, *halmoni*, *vihalmoni*, *haraboji*, *viharaboji*) vositasida ifodalangan.

Demak, mazkur so‘zlar o‘zbek tilida lakunalarni yuzaga chiqaradi.

Madaniyatlararo verbal va noverbal kommunikatsiya jarayonida “muloqotning uzilishi”, “muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi”, “noqulay aloqa”, “lisoniy to‘qnashuv”, “madaniy shok” va h.k. ijtimoiy-madaniy lakunalarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-madaniy lakunalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Turli lingvomadaniyat jamoalari vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan subyektiv lakunalar. *Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar* madaniyatlararo muloqot jarayonida ishtirokchilarning milliy-psixologik qarashlari bir-biriga mos kelmaganda yuzaga keladi. Masalan, nemislar o‘ta tartiblilik bilan boshqa xalqlardan ajralib tursa, koreyslar aksariyat hollarda kech qolishi bilan boshqa xalqlardan farqlanadi. Koreys muloqotida salomdan keyin kattalarga *shiksa hashossoyo?* (ovqat yedingizmi?) yoki kichiklarga *bab mokossoyo* (ovqat yedingmi?), deb so‘rash odat (bu odat Koreyadagi urush yillaridagi og‘ir ocharchilik paytida hol-ahvol so‘rash oqibatida shakllangan) bo‘lsa, o‘zbek muloqoti uchun bu holat notabiiy sanaladi.

⁹⁷ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: “Akademnashr”, 2013. –Б . 152-156.

Yapon jamiyati muloqot shakllaridagi “o‘ziniki-begona” qarama-qarshiligi ham subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalarni aks ettiradi. Yaponiyada “o‘zinikilar” bilan dialektlar vositasida muloqotga kirishilsa, “begonalar” bilan, xususan, chet elliklar bilan adabiy tilda muloqot qilinadi⁹⁸.

2. Turli faoliyatlarning o‘zaro aloqasida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradigan *faoliyat-kommunikativ lakunalari*. Mazkur guruhga muayyan madaniyatga xos bo‘lgan xatti-harakat va imo-ishoralar, urf-odatlar, an‘analar bilan bog‘liq maishiy yoki kundalik muomala, shuningdek, muomala madaniyati kiradi. Masalan, “*Bu kitob sizniki emasmi?*” yoki “*Ertaga band emasmi?*” savoliga deyarli barcha madaniyatlarda “*Yo‘q, meniki emas*”, “*Yo‘q, band emasman*”, deb inkor ma‘nosida *bosh chayqab* javob beriladi. Koreyslar (yaponlar ham) “*Ne, ne cheki animnida*” (“Ha, mening kitobim emas”) va “*Ne, babiji ansimnida*” (“Ha, band emasman”), deb tasdiq ma‘nosida *bosh irg‘ab* javob beradi. Chunki koreys muloqotida asosiy e‘tibor suhbatdoshga qaratilgan bo‘lib, uni hurmatlash birinchi o‘rinda turadi. Yoki aksariyat xalqlarning so‘zsiz muloqotida *bosh barmoqni ko‘tarish* holati “juda yaxshi”, “juda zo‘r” ma‘nolarni ifodalasa, koreys muloqotida “boshliq”, “erkak” va “muhr” ma‘nolarini anglatadi. O‘zbeklar yoki ayrim xalqlarda *qo‘lini oldinga uzatib, ko‘rsatkich barmoq* bilan “bu yerga kel”, deb ishora qilinsa, koreys yoki yaponlarda bu ishora itlarni chaqirish uchun qo‘llaniladi⁹⁹. Bunday lakunalarning voqelanishi nafaqat u yoki bu muloqotning noto‘g‘ri tushunilishiga, balki madaniyatlararo to‘qnashuvlarni ham yuzaga chiqarishi mumkin.

Ba‘zan turli xalqlar madaniyatida ranglar ifodalagan ramziy ma‘nolar ham o‘ziga xos lakunalarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, rus

⁹⁸ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 152-156.

⁹⁹ Usmanova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. –Seoul, 2004. –Б. 51.

lingvomadaniyatida yoshlik “зелёный юнец”, “зелен виноград” yashil rangning konnotatsiyalari vositasida ifodalansa, Xitoy an’alarida mazkur ma’no uchun oq rang konnotatsiyasidan foydalaniladi: *bai mian shu shen* – “tajribasiz yoshlar, ilmga yangi kirib kelgan”¹⁰⁰.

3. Matnlarning xususiyatlari (matnning mazmuni, matnni yaratish va uni tushunish, muayyan retsipyentga yo’nalish, muallif poetikasi va h.k.)dan kelib chiqadigan *matniy lakunalar*. Masalan, retsipyent ona tilida bo’lmagan matnni o’qish jarayonida unga “begona” bo’lgan madaniyat bilan to’qnashadi va uni o’zining milliy madaniyati doirasida qabul qilishga harakat qiladi. Natijada retsipyent “begona” madaniyatning o’ziga xos xususiyatini noto’g’ri talqin qiladi. Bunday holatlarda lakunalar matnni tushunmaslikdan yuzaga keladi. Shuningdek, muallif va kitobxon orasidagi zamonda (zamonaviy kitobxon klassik asarlarni tushunmasligi mumkin) ham farq bo’lishi mumkin.

4. Madaniy makondagi lakunalar u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi vakillarining madaniy makon va ichki ko’rinishni baholashdagi nomutanosibligini ifodalaydi. Muloqot jarayoni keng ma’noda olinganda *madaniy makondagi lakunalar*, tor kommunikativ akt miqyosida olinganda *ichki ko’rinish lakunalari* deb yuritiladi. Madaniy makon deganda har qanday madaniyat tashuvchisini o’rab olgan muhitning cheksizligi tushuniladi. Madaniy makonning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- u yoki bu lingvomadaniyat jamoasi vakillarining atrof-muhitga qanday ahamiyat berishi;
- mazkur jamoa vakillarining turmush tarzi, hayoti;
- mazkur jamoa vakillarining bilimlar zaxirasi, madaniy fondi.

¹⁰⁰ Вань Ланьсясюань. Национально-культурные особенности картин мира русского и китайского языков (на материале коннотаций – цветообозначений) <http://jurnal.org/articles/2010/fill28.html>

Madaniy makon va uni tarkib toptiruvchi atrof-muhit, turmush tarzi, bilimlar zaxirasi, madaniy fond kabi unsurlar boshqa madaniyat jamoasining vakili uchun lakuna hosil qiluvchilar sanaladi.

Madaniy lakunalarning o'ziga xos turlaridan biri *etnografik lakunalar*dir. Ular ma'lum bir madaniyatga oid bo'lib, boshqa mahalliy madaniyatda mavjud bo'lmaydi. Etnografik lakunalar ko'pincha maishiy hayot predmetlarini tavsiflash uchun xizmat qiladi. Boshqa madaniyat retsiyenti ular haqida tasavvurga ega bo'lmaydi, bunday tushunchalarning asosiy ma'nosi ang'lay olmaydi. Masalan, koreys turmushidagi "o'ndol" tushunchasi koreys uylaridagi pol ostidagi isitish tizimini ang'latadi. Yoki o'zbek maishiy hayotidagi "tancha" tushunchasi isinish jihozini bildiradi. Tabiiyki, boshqa madaniyat retsiyentlari mazkur predmetlar haqida tasavvur hosil qilishga, bu tushunchalarning ma'nolari ang'lashga qiynaladi. Ko'rinadiki, etnografik lakunalar maishiy hayot predmetlariga xos bo'lib, ular tasviriy va tavsifiy izohlarni talab qiladi¹⁰¹.

V.Muravev etnografik lakunalarning paydo bo'lishini qiyoslanayotgan madaniyatlardan birining sohibida boshqa madaniyat vakilida bo'lgan turli ijtimoiy-madaniy omillar natijasida yuzaga kelgan lingvo-etnografik assotsiatsiyaning yo'qligi bilan bog'laydi¹⁰².

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Usmanova Sh. O'zbekcha va koreyscha so'zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. –Seoul, 2004. –B. 51.

¹⁰¹ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: "Akademnashr", 2013. –Б . 154.

¹⁰² Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). –Владимир, 1975. –С.38.

2. Вань Ланьсясюань. Национально-культурные особенности картин мира русского и китайского языков (на материале коннотаций – цветообозначений) <http://jurnal.org/articles/2010/fill28.html>
3. Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –Paris, 1958. –Р. 10.
4. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –Л.: Просвещение. Ленингр. от-е, 1977. –С. 261.
5. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. –М.: Высш. шк., 1986. – С. 55.

ФИО автора: Sharopov Nabi Mirzaali o`g`li

Termiz davlat universiteti magistranti

Название публикации: «INTELEKT VA HISSIYOTNING SHAXS-
PSIXOLOGIK QIYOFASI SHAKLLANISHIDAGI O`RNI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada intellect va hissiyot shaxs psixologik qiyofasi haqida so`z boradi. Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ - ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (eshi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham individlar deb ataladi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudod, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi.

Kalit so`zlar: shaxs, individ, tushuncha, psixologiya, umumiy

Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi. Ijtimoiy qurshov (oila a'zolari, mahalla axli, jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasi), ijtimoiy guruh ichida (kishilarning og'ushida, ularning qalb to'risida) odamning bundan keyingi rivojlanishi uni shaxs sifatida shakllantiruvchi, uning ongi va irodasining xususiyatlariga mutlaqo bog'liq bo'lmagan har xil xususiyatli munosabatlar majmuasini vujudga keltiradi.

Umumiy psixologiya fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari tadqiq etiladi. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta'rif berilgan va uning tuzilishini o'ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Quyida mualliflarning ayrimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

A. G. Kovalevning fikricha, shaxs - bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob'yekti, ham sub'yektidir. A.N.Leont'yev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat sub'yektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan: jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta'rificha, shaxs bu tashqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart-sharoitlar majmuasidir. Psixologiya fanida bir-biriga yaqin, lekin ayniyat bo'lmagan tushunchalar qo'llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. Odam: sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

2. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

Sobiq sovet psixologiyasida eng ko'p tarqalgan shaxsning tuzilishiga oid materiallar bilan qisqacha tanishib o'tamiz. S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - extiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.

2. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar, hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.

3. Individual tipologik xususiyatlar temperament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

K. K. Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. Yo'nalganlik osttuzilishi shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi, Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba osttuzilishi - ta'lim vositasida, shaxsiy [tajribada egallangan bilimlar](#), ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

III. Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi - ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

IV. Biologik shartlangan osttuzilish - miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi. Shaxs – ong egasi bo'lgan konkret odam. Faoliyat – u yoki bu yumushni bajarishga qaratilgan harakatlar majmui. Malaka – odamda harakatlarning tezlashuvi, avtomatlashuvi. Ko'nikma – avtomatlashgan harakatlarning doimiyliigi. «Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fyenomyenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruxiy olami qonuniyatlari bilan kizikkan xar qanday olim yoki tadqiqotchi xam shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chyetlab utolmagan. SH a x s — ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli, ongli faoliyatning sub'yekti bo'lmish individdir. SHaxsga taaluqli bo'lgan eng muxim tasnif xam uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga byevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan xam ob'yekt, xam sub'yekt bo'lishlikdir.

Odam insonshunoslik fanlari tomonidan har tomonlama o'rganilib kelinmoqda. Psixologiyada odam biologik evolyutsiya maxsuli sifatida, jamiyat ishlab chiqarishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning sub'yekti sifatida o'rganiladi. Odamning boshqa shaxslar bilan, tashqi olam bilan bo'lgan munosabatlari xilma-xil bo'lganligi uchunga unga xos bo'lgan psixologik sifatlar va fazilatlar ham nihoyatda xilma-xildir. Shaxs strukturasi, ya'ni tuzilishi muammosini bayon, talqin qilishda tayanch va jabha, komponent tushuncha tariqasida yaxlit tuzilishning nisbiy mustaqil qismidan, tahlilning birligi sifatida element tushunchasidan (atamasidan), har qanday kontekstlardan yaxlitlik xususiyatini aks ettirmasa ham ulardan foydalanamiz. Bunday tafovut (farq) shaxs xususiyatlarini yaxlit holda mukammal ochish uchun tarkibiy tizimli va elementli-tizimli darajalarini namoyon etish uchun mutlaqo zarur.

Shaxsning tuzilishi to'g'risidagi muammo o'zining dolzarbligi bilan fanning tadqiqot doirasidan, predmetidan tashqari chiqadi. Shaxs tuzilishiga oid ilmiy tasavvurlarning yaratilishi, ishlab chiqilishi yaxlit nazariyaning zaruriy sharti hisoblanib, insonning ijtimoiy mohiyati qirralarini ochish imkoniyatiga egadir. Xuddi shu boisdan psixologiyaga falsafa, pedagogika, tibbiyot singari fanlarning namoyandalari tomonidan uni muhokama qilish namoyon bo'layotganligi tufayli unga qiziqishning kjsakligidan dalolat bermoqda.

Psixologiya fani shaxs strukturasi modelini yaratishga boshqa fanlardan izchilroq kirishadi, uning tabiatini aks ettirish imkoniyatiga erishadi, natijada u psixologiya muammolari majmuasida markaziy o'rin egalladi. Psixologiya olimlari tomonidan tadqiqot qilinayotgan dolzarb muammolar bilan shaxs tuzilishiga oid masala u yoki bu jabhasi orqali uzviy bog'liqlikka ega. Bu kontekstda xulq motivatsiyasi, shaxsning tipologiyasini ishlab chiqish, shaxsga ta'sir o'tkazishning samarali yo'lyo'rinishini qidirishni eslatib o'tishning o'zi kifoya. Psixologiya fanida shaxsga strukturaviy yondashish bo'yicha eng salmoqqi ilmiy izlanishlar amalga oshirilganligi qonuniy holat bo'lib, xilma-xil shaxs strukturasi modelini yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu borada B.G.Anan'yevning fikricha, psixologik hodisalarni aql (intellekt),

hissiyot (emotsiya) va irodaga ajratilishi inson psixologiyasida strukturaviy yondashish tajribasining dastlabki ko'rinishi bo'lib, uning xaqchilligi ko'pgina psixologlar tomonidan tan olinishidir. B.G.Anan'ev strukturaviy yondashishning boshqa variantlari tariqasida turlicha psixik hodisalar bilan qarama-qarshi aloqalarning e'tirof etilishi-psixik aktlarning psixik funksiyalar, ongning ongsizlik, tendensiyalarning potensiyalar bilan uyg'unligini ta'kidlaydi. L.S.Vigotskiyning mulohazasiga ko'ra, insonning psixik funksiyalarini yuksak, madaniy, quyi, tabiiy turlarga ajratishni kiritish mumkin, chunki ularning negizida ta'lim bilan insonning oliy nerv faoliyatida birinchi va ikkinchi signallar sistemasi o'zaro ta'sirining ifodalanishi yotadi. Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh davri, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlariga asoslaniladi. Yosh davrning sifatlari ontogenetik, evolyutsiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo'ladi va takomillashuv jarayonida o'z ifodasini topadi, jinsiy dimorfizm xususiyati esa ularga mutlaqo mos tushadi. Individning individual-tipologik xususiyatiga konstitutsion (tananing tuzilishi, biokimyoviy individuallik, ya'ni yakkahollik) holatlar, simmetriya va asimmetriya juft retseptorlari, effektorlari funksiyasi kiradi. Bu xususiyatlar, holatlar, hodisalar, mexanizmlar va xossalar birlamchi hisoblanib, hujayra va molekulyar tuzilishning barcha darajalarida ishtirok etadi.

Jahon psixologiyasi to'plagan nazariy va amaliy ma'lumotlarga ko'ra, yosh, jinsiy va individual-tipologik xususiyatlar sensor (subsensitiv), mnemik (xotira), verbal (so'z orqali) va mantiq psixofiziologik funksiyalarining dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini aniqlaydi. Individning bu xususiyatlarini ikkilamchi deb atab, ularning integratsiyasi temperament xususiyatlarida va tug'ma mayllarda ifodalanishini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq. Chunki yuqoridagi sifatlari ontogenetik evolyutsiya jarayonidan iborat bo'lib, ular filogenetik dasturga asoslanib hukm suradi. Yosh davrga oid va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy muhitda vujudga kelgan sifatlari ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchiligi omilini yanada kuchytiradi.

Insonning shaxs sifatida tavsiflanishining muhim psixologik lahzasi uning dinamik xususiyatlari hisoblanib, jamiyatdagi statusi (iqtisodiy, siyosiy, xuquqiy, mafkuraviy negizga bog'liq, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni, nufuzi, mavqei bilan belgilanadi) orqali ifodalanadi. Statusning negizida esa hamisha uzluksiz ravishda o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Inson bajarishi lozim bo'lgan guruhiiy faoliyat va yakkahol turmushga, kasb-hunarga aloqador, ya'ni kasabaviy, oiladagi hamda jamoadagi rolning ijtimoiy funksiyasi, uning muayyan maqsadga, qadriyatga, ma'naviyatga yo'nalganligi shaxsni faollashtiradi, natijada u barcha jabhalarda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Status, rol, qadriyatga yo'nalganlik [shaxs xususiyatlari](#), sifatlari, fazilatlarini, xosiyatlari va xislatlarining birlamchilarini tashkil etadi, uning tuzilishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning tavsifi faoliyat, xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor (oddiy stereotipdan tortib, to xalq donishmandligi namunalari) tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikqilamchi alomatlar, belgilar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikqilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning shaxs xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl uning jamiyatdagi hayot yo'li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimai xoli hisoblanadi. Shaxsning xalqiga qilgan xizmati uning e'zozlanishiga, hattoki milliy ma'naviy boylik, tafakkur gulshani va sarchashmasi darajasiga ko'tarilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Karimov I.A O'zbekiston XXI asrga intilmoqda, Toshkent.: 2001 yil
2. Petrovskiy A.V. Psixologiya, Toshkent 1992 yil
3. Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya asoslari».-T., 1994 yil
4. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. T., 1995 yil
5. Goziev E. Intellekt psixologiyasi. T., O'qituvchi, 1996 yil
6. Goziev E. va b. Psixologiya muammolari. T., O'qituvchi, 1996 yil
7. Goziev M. Oliy maktab psixologiyasi, T.: 1997 yil
8. Davletshin M.G., Psixologiyadan izoxli lugat. T., 1998 yil

ФИО автора: Sobirova Lobar Raximovna

Termiz davlat universiteti magistranti

Название публикации: «YOSH O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA
UCHRAYDIGAN PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TO'SIQLAR»

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yosh o'qituvchilar faoliyatida Pedagogik va psixologik qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish mexanizmlari haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: faoliyat, mahorat, tushuncha, vosita, maʼsuliyat

O'qituvchilik kasbi jamiyatdagi eng mas'uliyatli kasblardan biri bo'lib, qadimdan unga katta e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, rivojlanayotgan mustaqil mamlakatimizda o'z kasbining ustasi, yuksak zamonaviy kasbiy bilimlarga ega bo'lgan, tashabbuskor, davr va jamiyat talablarini nozik va zukko tushuna oladigan, muxtasar qilib aytganda kasbiy jihatdan kompetentli pedagog kadrlarga katta ehtiyoj mavjud. Ushbu masalaning nazariy jihatlarini tahlil qilishga o'tishdan oldin uning lug'aviy tomonlariga nazar tashlasak. Pedagogik kompetentlik (lot. kasbiy moslik) – o'qituvchidagi ijodiy imkoniyatlarning yanada kengroq tasarruf etilishi, kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilarga etkazish, ular bilan pedagogik muloqotga kirishish mahorati bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da belgilangan vazifalar ta’lim mazmunini tubdan takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardiki, bu pedagoglardan tinimsiz ijodiy izlanish, har tomonlama chuqur bilim va fidokorona mehnat qilishni, ya’ni, kuchli pedagogik kompetentlikka ega bo’lishni taqozo etadi. Zero, Muhtaram Yurtboshimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, - “Maktab degan ulug’ dargohning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi va ta’sirini, nafaqat yoshlarimiz, balki butun xalqimiz kelajagini hal qiladigan o’qituvchi va murabbiylar mehnatini hech narsa bilan o’lchab, qiyoslab bo’lmaydi”. Mazkur pedagogik masala dolzarbligini e’tirof etgan holda uning nazariy jihatdan o’rganilganligi borasida fikr yuritamiz. O’qituvchilik kasbi o’zida yuksak ijtimoiy mas’uliyatni aks ettirganligi bois, bu borada bildirilgan

ilmiy fikrlar, g'oyalar va nazariyalarning ildizi qadim moziyga borib taqaladi. Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat rivojini ta'minlovchi kuch hisoblanib, unga katta mas'uliyat yuklangan. Bu to'g'rida Sharqda, zardushtiylik ta'limotining manbai "Avesto"da, Islom dinining muqaddas kitobi "Qur'oni Karim" va "Hadisi sharif"da, O'rta Osiyo uyg'onish davri mutafakkirlari Abu Nasr al-Forobiy (873-930), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Burxoniddin Zarnudjiy (XII asr), Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (1184-1292), Alisher Navoiy (1441-1501) larning badiiy – falsafiy asarlarida, G'arbda Qadimgi Yunoniston va Rimda Demokrit (460-370), Suqrot (469-339), Aflotun (427-347), Arastu (383-322), Mark Fabiy Kvintilian (42-118), Yan Amos Komenskiy (1592-1670), Adolf Disterverg (1790-1866) kabi buyuk faylasuf, pedagog, mutafakkirlarning ta'limotlarida, ma'rifiy-axloqiy asarlarida maydonga kelib, katta pozitiv ijtimoiy rezonansga sabab bo'lgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot taraqqiyoti sharoitida pedagogik jarayonga "Onalar maktabi", "Buyuk didaktika" (Yan Amos Komenskiy), "O'qituvchilar uchun 33 qoida" (Adolf Disterverg), "O'qituvchiga ta'lim yo'lida o'quv qo'llanma", "O'rtoq, o'qituvchi, fan tanlash haqida" (Burhoniddin Varnudjiy), "Nozik iboralar" (Az Zamaxshariy), "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) kabi pedagogik asarlar paydo bo'lgan. Eramizdan oldingi 551 – 479 yillarda yashab o'tgan Xitoy faylasufi va davlat arbobi Konfutsiy ham "Men eshitsam - esdan chiqaraman; ko'rsam - eslab qolaman; bajarsam - tushunaman!" deganida bajarish, faoliyat ko'rsatish mahoratini nazarda tutgan edi. Alloma Burhoniddin Zarnudjiy (XII asr) – «O'qituvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma» asarida pedagog quyidagilarga e'tibor berishi lozimligini ta'kidlaydi. - muallim bilimdon, tajribali, oliyjanob bo'lishi lozim; - muallim qanoat, sabr, muruvvatli, bilimini har kuni takrorlashi lozim; - o'z fani va kasbidan to'la qanoat hosil qilishi; - aql-farosat egasi bo'lishi darkor. O'zbek xalq pedagogikasiga oid asarlarda murabbiy-ustoz eng hurmatli, mo'tabar inson sifatida ulug'lanadi. Mashhur Rim pedagogi Mark Fabiy Kvintilian o'zining "Notiqni tarbiyalash to'g'risida" nomli pedagogik asarida pedagogik faoliyatda kasbiy moslik tushunchasi va uning ijtimoiy mohiyati to'g'risida qimmatli fikrlarni aytgan. U pedagogik faoliyatning mohiyati xususida to'xtalib, pedagog o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotkorlik bilan yondashishi, buning

uchun o'zi o'qimishli, bilimdon, ijtimoiy fanlar asosini mukammal egallagan, madaniyatli inson va "... o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim. Har bir o'qituvchi o'qitishning hamma bosqichlarini o'tishi kerak. Yuqori tipdagi ta'lim muassasasi o'qituvchisi, avvalo, boshlang'ich maktabda muallimlik qilishi maqsadga muvofiq. Muallim va tarbiyachilarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak"², - deb ta'kidlangan. Qadimgi Yunon faylasufi va pedagogi Platon (eramizdan avvalgi 427-348 – yillar) – “agar kavushduz yomon usta bo'lsa, davlat bundan unchalik zarar ko'rmaydi, fuqarolar birmuncha yomonroq kiyinib yuradilar, xolos. Ammo bolalarni tarbiyalovchi kishi o'z vazifalarini yomon bajarsa, mamlakatda nodon va yolg'onchi odamlarning butun bir avlodi vujudga keladi”, - deganda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanuvchilar pedagogik kompetentlikka ega bo'lishi, ular o'z ishining mohir ustasi bo'lishi lozimligini qayd etadi. Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) pedagogik faoliyatni “er yuzidagi har qanday kasbdan yuqoriroq turadigan faxrli faoliyat” deb hisoblab, pedagog mehnatiga katta ahamiyat beradi. Yan Amos Komenskiy bir tomondan aholining o'qituvchi – tarbiyachiga hurmat bilan qarashi lozimligini talab qilsa, ikkinchi tomondan esa o'qituvchining o'zi ham jamiyatda qanday muhim vazifani bajarayotganligini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olib ishlashi lozim, deb ta'kidlaydi. “Pedagog, - deb yozadi Yan Amos Komenskiy, sof vijdonli, ishchan, sabotli, matonatli, o'quvchilarga o'zi singdirishi lozim bo'lgan fazilatlarining ibratli kishisi bo'lishi, keng ma'lumotli va mehnatga layoqatli inson bo'lishi lozim. Pedagogik faoliyat hamma davrda aniq tarixiy tavsifga ega va shunday bo'lib qoladi, chunonchi u yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq. Tarbiya va pedagogik faoliyat bir zanjirning ikki halqasidir. Tarbiya ijtimoiy, tarixiy tavsif kasb etgani singari pedagogik faoliyat ham ijtimoiy-tarixiy tavsifga ega. Keyingi davr Sharq va O'rta Osiyo allomalari, ma'naviyat va ma'rifat darg'alari pedagogik faoliyat mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy tavsifi to'g'risida qimmatli so'zlarni aytganlar. Buni biz Abdulla Avloniy, professor Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, akademik G'afur G'ulom, O'zbekiston qahramoni, shoir Abdullo Oripov va kenja avlod ta'limotida yaqqol ko'ramiz. Jumladan, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek pedagogik faoliyat,

aniqroq aytadigan bo'lsak, o'qituvchi va uning jamiyatdagi o'rni to'g'risida quyidagi fikrlarni bayon etadi: "O'qituvchi - er yuzidagi asosiy kasb. U bo'lmasa fiziklar ham, liriklar ham bo'lmas edi". Pedagog shaxsining kasbiy sifatlari, qobiliyatlarini o'rganish borasidagi ilk tadqiqotlar o'tgan asrning 60-70 yillarida paydo bo'la boshladi. Hozirgi kunda darslarda ilg'or pedagogik va innovatsion axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish jarayonini baholashning nazariy jihatlarini o'rganish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. V.M.Korotkov, B.T.Lixachyovlar, V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavtsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabilarning ishlari shular jumlasiga kiradi. Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Evropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J. Koroll, P.Ya.Galperin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I.Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespalko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, Yu.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavtsev, A.M.Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va pedagoglarga taalluqlidir. Shuningdek, L.V. Zankov, T.Ya.Galperin, V.I.Davidov tadqiqotlarida bosqichli o'qitishning yaxlit texnologiyalari haqida fikr yuritiladi. Zero, jamiyat taraqqiyotiga, maktab hayotida, bolalar barkamolligiga qalbini baxshida etadigan, o'z fanini mukammal bilishga intiladigan, rang-barang metodikalardan foydalanib bolalarni ilm cho'qqilari sari etaklaydigan pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy hayotning barcha yo'nalishlari, munosabatlari bilan bog'liq. Pedagogik faoliyat birinchidan iqtisodiy ustqurmaga bog'liq. Shuning uchun, bu kasb egalari jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlari, kuchlari, ijtimoiy - madaniy va davlat ehtiyojlaridan xabardor bo'lishi, o'z faoliyati jarayonida ularga tayanishi lozim. Zero, u jamiyat hisobidan ta'minlanib, uning ijtimoiy buyurtmasini bajaradi, yoshlarning jamiyat boyligini asrab – avaylashga, ko'paytirishga va shaxsiy fazilatlarini tarkib toptirishga rahbarlik qiladi. Pedagogik faoliyat ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat mafkurasi bilan bog'liq holda yoshlar ijtimoiy ongining o'sishi ustida g'amxo'rlik qiladi, ularni haqiqiy insonparvar, demokrat, milliy istiqlool mafkurasi g'oyalarini himoya qilishga tayyorlash uchun xizmat qiladi. Eng avvalo o'qituvchi shuni chuqur anglashi lozimki, u jamiyatning

ishonchli vakili, zero, jamiyat unga o'zining eng qimmatli boyligi, umidi, ishonchi va kelajagi bo'lgan bolalarini topshiradi. Bu oliyjanob va murakkab kasb unga hayotini bag'ishlagan har bir kishidan doimiy ijod, izlanish, ulkan sahovatli qalb, bolalarga muhabbat, o'z kasbiga cheksiz sadoqatni talab etadi. Hozirgi kunda kasbiy kompetentli o'qituvchi tomonidan ta'lim jarayoni samaradorligini oshiruvchi psixologik mexanizmlardan samarali foydalanish jarayonining nazariy jihatlarini o'rganish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Dars – pedagogik jarayonning ustaxonasi. Bu ustaxonada ma'lumotlar bayon etiladi, idrok qilinadi, axborotlar o'zlashtiriladi, bilim, ko'nikma, malakalar nazorat qilinib baholanadi. Xullas darsda o'rgatish, etkazib berish, bajarish, qo'lga kiritish, hayotga qo'llash ko'nikmalari shakllantiriladi. Bunda o'qituvchi muhim vazifani amalga oshiradi – o'quvchilarni bilim olishga yo'naltiriladi, jalb qiladi va ularni bilmaslikdan bilishgacha, voqelikdagi narsa va hodisalarning oddiysidan murakkabigacha bilish sari olg'a harakatlantiradi. Bu esa o'qituvchidan kasbiy tayyorgarlik va kompetentlikni talab etib, uning nazariy, amaliy va metodik qurollanganligiga bog'liq bo'lib qoladi. Pedagogik–psixologik nazariya va maktab tajribasi o'qituvchining darsni tayyorlash va o'tkazish uchun uch bosqichli tayyorgarlik loyihasini ishlab chiqish lozimligi bilan tavsiflanadi. Hozirda tadqiqot muammosiga oid izlanishlar ya'ni, maktab o'qituvchisining kasbiy kompetentligi masalasi tahlil etilgan ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, Usanova O.N., Morozova N.Yu. lar tomonidan o'quvchilarga parallel xizmatlar ko'rinishidagi turli tashkiliy tizimlar majmui yaratilishi, Bityanov M.R., Xutornaya M.A. va Konovalova N.L. lar tomonidan tibbiy–ijtimoiy va psixologik-pedagogik maxsus markazlarning barpo etilishi kabilar fikrimizga dalildir. Dubrovina I.V., Ovcharova R.V., Maxnovets S.N., Bulanova O.E., Shulga T.I. tomonidan turli yosh guruhlarini tashkil etuvchi o'quvchilar bilan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish mahoratini shakllantirish tamoyillari tezkorlik bilan ishlab chiqildi. Jamiyatda ro'y berayotgan sifatiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda pedagog kadrlarni tayyorlashga tayangan turli o'quv dasturlarining Glotochkin A.D., Zabrodin Yu.M., Sosnovskiy B.A., Derkach A.A., Bodalyov A.A., Samoukina N.V. va Gromkova M.T. lar tomonidan havola qilinishi bir muncha ijobiy natijalar berdi. V.S.Bezrukova kasbiy kompetentlik

tushunchasida “savodli darajada qaror qabul qilishga, baho va fikr bildirishga imkon yaratadigan kasbiy jihatdan yuqori darajadagi bilim va malakalar majmuasini tushunadi. E.F.Eser va O.N.Shaxmatova esa kasbiy kompetentsiya deganda, kasbiy bilim va malakalar yaxlitligini, shuningdek, kasbiy faoliyatni bajarish usullarini ko’zda tutadi. Zabrodin Yu.M, Markova A.K., Maxnovets S.N., Maxnovets L.A. lar tomonidan yaratilgan pedagog amaliy faoliyatining turli qirralarini tadqiq etish algoritmlari maktab o’qituvchilari faoliyatiga keng joriy etilgan. Faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, psixofiziologlar va pedagoglar B.G.Ananyev, A.Disterverg, P.G.Redkin, K.D.Ushinskiy, L.N.Ruvinskiy, G.M.Andreyeva, N.V.Kuzmina, V.Slastenin, F.N.Gonobolin, A.A.Bodalyov, E.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalyov, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasishev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, E.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Ayzenk, M.Fishbayn, T.Maslou va boshqalar o’z ish maqsadlariga asoslanib o’qituvchi pedagogik munosabatini turli yo’nalishlar bo’yicha tadqiqot obyektiga aylantirdilar va ma’lum darajada nazariyfundamental asoslar yaratdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A O`zbekiston XXI asrga intilmoqda, Toshkent.: 2001 yil
2. Petrovskiy A.V. Psixologiya, Toshkent 1992 yl
3. Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya asoslari».-T., 1994 yil
4. Goziev E. Psixologiya. T., O`qituvchi, 1994 yil
5. Baratov Sh. O`quvchi shaxsini o`rganish usullari. T., 1995 yil
6. Goziev E. Intellekt psixologiyasi. T., O`qituvchi, 1996 yil
7. Goziev E. va b. Psixologiya muammolari. T., O`qituvchi, 1996 yil
8. Goziev M. Oliy maktab psixologiyasi, T.: 1997 yil
9. Davletshin M.G., Psixologiyadan izoxli lugat. T., 1998 yil
10. Psixologiya V.Karimova. [Toshkent](#), 2002 yil

ФИО автора: A`zamova Dilfuza Shafoevna

O`qituvchi, Termiz davlat universiteti

Название публикации: «“ЛАКУНА”, “РЕАЛИЯ”, “НОЭКВИВАЛЕНТ ЛЕКСИКА” ТЕРМИНЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚОТЛАРДАГИ ТАВСИФИ»

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Lakuna” termini haqida so`z boradi. “Lakuna” termini ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilib, unga shunday ta’rif berilgan: “Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi”¹⁰³.

**Kalit so`zlar:** lakuna, tizim, bo`shliq, tushuncha, misol

V.G. Gak lakunalarni “tilning leksik tizimidagi bo‘shliqlar, bor bo‘lishi kerakdek ko‘ringan so‘zlarning mavjud emasligi”¹⁰⁴, deb tushuntiradi. Tadqiqotchi lakunalarni mazkur jamiyatda tushunchalarning mavjudligi, biroq ularni ifodalovchi so‘zlarning yo‘qligi, bunday tushunchalar uchun boshqa tilda alohida leksik ifodalarning mavjud bo‘lishi deb hisoblaydi. Lakunalarga misol tariqasida fransuz tilida rus tiliga qiyosan *сумка* va *куняток* so‘zlarining mavjud emasligini keltiradi.

Lakunalar (J.P. Vine va J. Darbelne, V.L. Muravev), oraliq, lakuna (K. Xeyl), zid so‘zlar, oraliqlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dog‘lar (Y.S. Stepanov), tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlar (V.G. Chernov), muqobilsiz, nol so‘z (I.A. Sternin), muqobilsiz yoki fonli leksika (L.S. Barxudarov, Y.M. Vereshagin, V.G. Kostomarov), tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika (L.S. Barxudarov) va h.k. qo‘llanilganini ko‘rish mumkin.

¹⁰³ Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –Paris, 1958. –P. 10.

¹⁰⁴ Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –Л.: Просвещение. Ленингр. от-е, 1977. –С. 261.

S.Vlaxov va S.Florinlar lakuna hodisasini ifoda vositalarining alohida kategoriyasi bo‘lgan realiyalar, ya’ni “biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy va tarixiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo‘lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo‘lmagan so‘z va so‘z birikmalari”¹⁰⁵ sifatida talqin qilishgan. O.A. Ogursovaning fikricha, mazkur leksemalar qiyoslanayotgan tillarda o‘xshashi bo‘lmagan so‘zlardir. Olima *lakuna* terminini qo‘llashni ma’qul ko‘radi va uni so‘z birikmasi emas, konnotatsiyadan holi bo‘lgan qisqa so‘z ekanligini; tasvirlanayotgan hodisani farqlilik darajasi xususida so‘z yuritish mumkin bo‘lgani uchun unga nisbatan muqobilsiz terminini qo‘llashning o‘rinsiz ekanligini qayd qiladi. “Lakuna qiyoslanayotgan tillarning birida mavjud bo‘lgan va boshqasida uchramaydigan grammatik kategoriya, so‘zlar va so‘z birikmalaridir”¹⁰⁶.

Aksariyat tadqiqotchilarning tillar va madaniyatlardagi farqliliklarni tahlil qilishda “lakuna” (lot. lacuna – bo‘shliq, chuqurlik, cho‘nqir joy; frans. lacune – bo‘shliq, bo‘sh joy) terminini qo‘llashlari bejiz emas. A.M.Proxorovning tahriri ostidagi “Советский энциклопедический словарь” (М., 1981)da tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi lakunalar “matnda bo‘sh qolgan, tushib qolgan joy” deb izohlangan. Bunga o‘xshash izohni “Словарь иностранных слов” (М.,1984)da ham uchratish mumkin.

Muayyan xalqning madaniyatida boshqa madaniyat vakillari tomonidan qabul qilinmaydigan stereotip xarakterdagi bir qator o‘ziga xos unsurlar mavjud bo‘lib, ular Y. A. Sorokin va I.Y.Markovinalar tomonidan lakunalar deb nomlanadi. Retsipiyent har doim ham o‘zga madaniyat matnini to‘liq tushuna olmaydi. Matndagi ayrim birliklar unga g‘alati tuyuladi va ular maxsus izoh talab

¹⁰⁵ Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. –М.: Высш. шк., 1986. –С. 55.

¹⁰⁶ Огурцова О.А. К проблеме лакунарности //Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. –С. 79.

qiladi. Bunday birliklar matn yaratilgan madaniyatning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari, lakunalarni yuzaga chiqaradi.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni ko'rsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar, asosan, tillarning qiyosida seziladi. Masalan, ingliz tilida "yurist, advokat" ma'nosini anglatgan *lawyer* so'zidan boshqa advokatlik kasbining turli-tumanligini ifodalaydigan *attorney* "vakil", *barrister* "oliy sudlarda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan advokat", *solicitor* "mijozlarga va tashkilotlarga maslahat beruvchi; quyi sudlarda ishtirok etish huquqiga ega", *counsel* "yuristkonsult", *counsellor* "maslahatchi", *advocate* "oliy darajadagi advokat" (Великобритания, 1978) kabi so'zlar ham qo'llaniladi. Mazkur ifodalarga o'zbek va rus tillaridagi faqat *advokat* so'zigina muqobil bo'la oladi.

O'zbek tilida onaning onasiga ham otaning onasiga ham *buvi*, onaning otasiga ham, otaning otasiga ham *buva* deyilsa, turk tilida *anneanne*, *babaanne*, koreys tilida otaning onasiga *halmoni*, otaning otasiga *haraboji*, onaning onasiga *vihalmoni*, onaning otasiga *viharaboji* deyiladi. Yoki koreys tilida *obba* "aka" ayollarning, *hyŏŋ* "aka" erkaklarning, *onni* "opa" ayollarning, *nuna* "opa" erkaklarning nutqida ishlatiladi"¹⁰⁷.

Ko'rinadiki, o'zbek tilida onaning onasi// otaning onasi, onaning otasi//otaning otasi kabi tushunchalar mavjud bo'lsa-da, ularni ifodalash uchun faqat ikki so'z: *buvi* va *buvadan* foydalaniladi. Turk va koreys tillarida esa bu tushunchalarning har biri alohida so'zlar (*anneanne*, *babaanne*, *halmoni*, *vihalmoni*, *haraboji*, *viharaboji*) vositasida ifodalangan.

Demak, mazkur so'zlar o'zbek tilida lakunalarni yuzaga chiqaradi.

¹⁰⁷ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: "Akademnashr", 2013. –Б . 152-156.

Madaniyatlararo verbal va noverbal kommunikatsiya jarayonida “muloqotning uzilishi”, “muloqotning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi”, “noqulay aloqa”, “lisoniy to‘qnashuv”, “madaniy shok” va h.k. ijtimoiy-madaniy lakunalarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiy-madaniy lakunalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Turli lingvomadaniyat jamoalari vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan subyektiv lakunalar. *Subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar* madaniyatlararo muloqot jarayonida ishtirokchilarning milliy-psixologik qarashlari bir-biriga mos kelmaganda yuzaga keladi. Masalan, nemislar o‘ta tartiblilik bilan boshqa xalqlardan ajralib tursa, koreyslar aksariyat hollarda kech qolishi bilan boshqa xalqlardan farqlanadi. Koreys muloqotida salomdan keyin kattalarga *shiksa hashossoyo?* (ovqat yedingizmi?) yoki kichiklarga *bab mokossoyo* (ovqat yedingmi?), deb so‘rash odat (bu odat Koreyadagi urush yillaridagi og‘ir ocharchilik paytida hol-ahvol so‘rash oqibatida shakllangan) bo‘lsa, o‘zbek muloqoti uchun bu holat notabiiy sanaladi. Yapon jamiyati muloqot shakllaridagi “o‘ziniki-begona” qarama-qarshiligi ham subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalarni aks ettiradi. Yaponiyada “o‘zinikilar” bilan dialektlar vositasida muloqotga kirishilsa, “begonalar” bilan, xususan, chet elliklar bilan adabiy tilda muloqot qilinadi¹⁰⁸.

2. Turli faoliyatlarning o‘zaro aloqasida milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettiradigan *faoliyat-kommunikativ lakunalari*. Mazkur guruhga muayyan madaniyatga xos bo‘lgan xatti-harakat va imo-ishoralar, urf-odatlar, an‘analar bilan bog‘liq maishiy yoki kundalik muomala, shuningdek, muomala madaniyati kiradi. Masalan, “*Bu kitob sizniki emasmi?*” yoki “*Ertaga band emasmisiz?*” savoliga deyarli barcha madaniyatlarda “*Yo‘q, meniki emas*”, “*Yo‘q, band emasman*”, deb inkor ma’nosida *bosh chayqab* javob beriladi. Koreyslar

¹⁰⁸ Усманова Ш. Маданиятлараро мулоқотда лакуналарнинг ўрни // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. V. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 152-156.

(yaponlar ham) “*Ne, ne cheki animnida*” (“Ha, mening kitobim emas”) va “*Ne, babiji ansimnida*” (“Ha, band emasman”), deb tasdiq ma’nosida *bosh irg‘ab* javob beradi. Chunki koreys muloqotida asosiy e’tibor suhbatdoshga qaratilgan bo‘lib, uni hurmatlash birinchi o‘rinda turadi. Yoki aksariyat xalqlarning so‘zsiz muloqotida *bosh barmoqni ko‘tarish* holati “juda yaxshi”, “juda zo‘r” ma’nolarni ifodalasa, koreys muloqotida “boshliq”, “erkak” va “muhr” ma’nolarini anglatadi. O‘zbeklar yoki ayrim xalqlarda *qo‘lini oldinga uzatib, ko‘rsatkich barmoq* bilan “bu yerga kel”, deb ishora qilinsa, koreys yoki yaponlarda bu ishora itlarni chaqirish uchun qo‘llaniladi¹⁰⁹. Bunday lakunalarning voqelanishi nafaqat u yoki bu muloqotning noto‘g‘ri tushunilishiga, balki madaniyatlararo to‘qnashuvlarni ham yuzaga chiqarishi mumkin.

Ba’zan turli xalqlar madaniyatida ranglar ifodalagan ramziy ma’nolar ham o‘ziga xos lakunalarning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, rus lingvomadaniyatida yoshlik “*зелёный юнец*”, “*зелен виноград*” yashil rangning konnotatsiyalari vositasida ifodalansa, Xitoy an’analarida mazkur ma’no uchun oq rang konnotatsiyasidan foydalaniladi: *bai mian shu shen* – “tajribasiz yoshlar, ilmga yangi kirib kelgan”¹¹⁰.

3. Matnlarning xususiyatlari (matnning mazmuni, matnni yaratish va uni tushunish, muayyan retsipyentga yo‘nalish, muallif poetikasi va h.k.)dan kelib chiqadigan *matniy lakunalar*. Masalan, retsipyent ona tilida bo‘lmagan matnni o‘qish jarayonida unga “begona” bo‘lgan madaniyat bilan to‘qnashadi va uni o‘zining milliy madaniyati doirasida qabul qilishga harakat qiladi. Natijada retsipyent “begona” madaniyatning o‘ziga xos xususiyatini noto‘g‘ri talqin qiladi. Bunday holatlarda lakunalar matnni tushunmaslikdan yuzaga keladi.

¹⁰⁹ Usmanova Sh. O‘zbekcha va koreyscha so‘zsiz muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari // International Journal of Central Asian Studies. Vol.9. –Seoul, 2004. –Б. 51.

¹¹⁰ Вань Ланьсясюань. Национально-культурные особенности картин мира русского и китайского языков (на материале коннотаций – цветообозначений) <http://jurnal.org/articles/2010/fill28.html>

Shuningdek, muallif va kitobxon orasidagi zamonda (zamonaviy kitobxon klassik asarlarni tushunmasligi mumkin) ham farq bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Vinay J.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. –Paris, 1958. –P. 10.
2. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. –Л.: Просвещение. Ленингр. от-е, 1977. –С. 261.
3. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. –М.: Высш. шк., 1986. –С. 55.
4. Огурцова О.А. К проблеме лакуарности //Функциональные особенности лингвистических единиц: Сб. трудов Кубанского ун-та. Вып.3. Краснодар: Изд-во Кубанского ун-та., 1979. –С. 79.

ФИО автора: Ibragimova Gulbahor Faratovna

Samarqand ixtisoslashtirilgan san'at maktabi Xor dirijorlik sinfi o'qituvchisi

Название публикации: «MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA XOR SAN'ATINING RIVOJLANISHI»

Markaziy Osiyo xalqlari davr taqozosi bilan, madaniyatlar yaqinlashuvi tufayli xor ijrochiligi san'atidan ham bahramand bo'ldilar. Ular tarixan shakllangan o'z professional xor madaniyatiga ega bo'lmasa-da, jamoa bo'lib kuylash, xalqning turmush tarzi, hayoti, mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan azaliy qo'shiqlariga, musiqiy merosiga ega bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida asta-sekin musiqasevarlar jamiyatlari o'z faoliyatlarini boshlagan. Bunday jamiyatlardan – «Lira» deb nomlangan xor jamiyati kapelmeysteri V.Leysek tomonidan tashkil etilib, mahalliy xalqlarni yangi san'at turiga qiziqtirgan. Bu jamiyatning faoliyati ta'sirida turmush sharoiti, hayot tarzida o'zgarishlar ro'y berdi. Dunyo madaniyatiga bo'lgan qiziqish tobora avj olib bordi. V.Leysek uyushtirgan konsertlarda jahon tan olgan kompozitorlar – Meyerber, J.Verdi, M.Glinka va A.Dargomijskiy kabilarning operalaridan xorlar birinchi bor ijro etilgan va tinglovchilarda katta taassurot qoldirgan.

Ko'plab qadimiy musiqiy folklor namunalari ilgari ham allomalarimiz tomonidan tadqiq etilganligi barchaga ma'lum. Ijod namunalari ko'proq yilning ma'lum bir kunlari, ya'ni marosimlari bilan bog'liq bo'lgan. Misol sifatida o'zbek xalqining ijodiyotini keltirish mumkin. «Lola bayrami», mehnat qo'shiqlaridan – «Xashar», «Paxta teradi», «Suz xotin», to'y marosim qo'shiqlari – «Yor-yor», «O'lan», bolalar ijro etadigan – «Boychechak», «Ramazon qo'shiqlari», «Laylak keldi», «Oftob chiqdi», «Choriy chambar» va shunga o'xshash turli mavzulardagi qo'shiqlarni xor ijrochiligi shaklida ko'rish mumkin.

Ular faqat tabiat qo'ynida, aniq bir marosimlarda o'z-o'zidan ijro etilgan. Bizning tushunchamizdagi dirijorlarda ehtiyoj bo'lmagan. Xor ijrochiligi sahna sharoitiga ko'chgandan so'ng rahbar boshqarib borishi lozimdir. Turli ko'rinishdagi jamoa bo'lib kuylash jarayoni o'zbek folklorida ayrim janrlarning paydo bo'lishiga

sabab bo'lgan. Xor san'atining birinchi pog'onasi sifatida – qo'shiq va raqsning bir-biriga uyg'unlashib, alla janrining paydo bo'lishini hisoblash mumkindir.

Qo'shiqning asosiy matnini yallachi raqs bilan birgalikda ijro eta boshlaydi, naqarotni esa bir ovozda bo'lsa-da kichik ashulachilar guruhi jo'r bo'lib ijro etadi. Shuningdek, jamoa bo'lib ijro etish darvishlar xonishlarida ham ko'rinadi. Erkaklarning zikr aytishlari ham bunga yorqin misoldir. Asrlar davomida to'plangan ko'hna meros – «Shashmaqom»ning vokal qismlaridagi taronalar ham xonandalar ansambli tomonidan ijro etilib kelgan. Jumladan, o'zbek folklor qo'shiqlari va maqomalardagi jamoa bo'lib kuylash kelajakda Markaziy Osiyo xalqlari orasida xor san'ati rivojida katta zamin bo'la olgan.

O'zbekiston hududida XX asrning boshlarida teatr truppalari tuzilib, tomoshalar vaqtida spektakl mazmun-mohiyatidan kelib chiqib jo'rlikda ijro etiladigan qo'shiq va ashulalar xor ijrochiligi astasekin o'zbek xalqiga singib borayotganligidan dalolat bo'lgan. Tinglovchilarda kuyga solingan va birgalikda kuylangan matnlar katta taassurot qoldirgan, yuraklarni larzaga solgan. 1918-yilda Xalq konservatoriyasi ochilishi xor san'ati targ'ibotida muhim rol o'ynaydi. Toshkent shahrida birinchi bo'lib jonkuyar ustoz, izlanuvchan inson, ma'rifatparvar Ali Ardobus Ibrohimov rahbarligidagi oltmishta o'zbek og'il bolalaridan tashkil topgan maktab teatr jamoasi tuzildi.

V.Sakovich tashkil etgan «Zebbiniso», Sh.Shoumarovning «Namuna» va S.Yenikeyevaning o'zbek qizlar xor jamoalari tuzilishi ham xor ijrochiligi ommaviylashishida munosib o'rin tutgan. 1936-yilda O'zbekistonda birinchi xor kapellasi tuzilgan va unga M.Lepexin rahbarlik qilgan. Dastlabki konsert dasturi xalqaro miqyosda, xususan, Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston adabiyoti va san'ati kunlarida namoyish etilib, keng tinglovchilar olqishiga sazovor bo'lgan. Shu yo'sinda Respublika teatrlarida, harbiy okruglarda, o'rta maktablarda, o'quvchilar saroylarida xor jamoalari tuzilishi avj oldi. O'zbekistonda xor ijrochiligini yuqori darajaga ko'tarish uchun yana bir muhim vazifani amalga oshirish joiz edi. Bu kadrlar tayyorlash ishi bo'lib, Toshkent davlat konservatoriyasida (hozirgi – O'zbekiston davlat konservatoriyasi) 1943-yildan boshlab xor dirijorlari tayyorlana boshlandi.

Xuddi shu jarayon Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida ham amalga oshirildi. Tayyorlanayotgan kadrlar oldiga asosiy vazifa qilib, xor ijrochiligida professionallik nuqtai nazaridan yuqori madaniyatga erishish, repertuar siyosatini olib borish yo'llari, targ'ibot usullarini o'zlashtirish belgilandi. Dastlabki tayyorlangan mutaxassislar (R.Xublarov, Ye.Gudkova, A.Vasilyeva, E.Melik Karamyan, M.Subayeva kabilar) va kompozitorlar (Muxtor Ashrafiy, Tolibjon Sodiqov, Mutavakkil Burhonov, Sharif Ramazonov, Botir Umidjonov kabilar) yurtimizda xor san'atining yangi bosqichda shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynadilar.

ADABIYOTLAR

1. Дмитриевский Г. Хоровоедение и управление хором. М., 1957.
2. Гудкова Е.А. Узбекская хоровая литература. Т., 1974.
3. Sharafiyeva N. Xorshunoslik. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987.
4. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987.
5. Jumayeva L.X. O'zbek xor musiqasi tarixidan. T., 2000.
6. Sharafiyeva N. Xor sinfi. T., 2005.

ФИО автора: Ibragimova Saodat Saydullaevna

Samarqand ixtisoslashtirilgan san'at maktabi Xor dirijorlik sinfi o'qituvchisi

Название публикации: «PROFESSIONAL XOR IJROCHILGI,

QO'SHIQCHILIK OVOZLARI VA ULARNING TAVSIFI»

O'zbekistonda professional xor san'ati eng yangi san'at turlaridan biridir. Dastlab havaskorlik darajasida madaniyatimizga kirib kelgan bo'lsa-da, davr talabi bilan ushbu ijrochilik yo'nalishiga ham e'tibor kuchaydi. Professional xor jamoalari tuzish davlat tomonidan amalga oshirila boshlandi. Avvalambor 1952-yilda O'zbek filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi, maxsus ta'lim jarayonini o'tagan mutaxassislardan tuzildi. Ko'p ovozli yangi davr musiqa asarlarini ijro etish bunday jamoalardan mahoratni talab etar edi. Kapella, deb nomlanadigan bu musiqiy badiiy jamoaga iste'dodli xormeyster S.Valenkov rahbar etib tayinlangan. Bu jamoaga keyinchalik A.Sultonov, R.Xublarov, X.Vohidov, A.Hamidovlar rahbarlik qilishdi. Hozirda bu jamoaga D.Jdanov boshchilik qilmoqda.

Nihoyatda nozik musiqiy ifodalash xususiyatlariga ega bo'lgan, o'zining turli-tuman rango-rang tembri(tusi)ga boy bo'lgan inson ovozi – murakkab musiqa asbobidir. Shuning uchun ham ko'pincha inson ovozi «gapirib turuvchi musiqa asbobi», deb nomlanadi.

Inson ovozi apparati asosan uch qismga bo'linib, bular:

- nafas olish organlari;
- hiqqildoq;
- rezonatorlar bo'lib, bir-biriga uzviy bog'langandir.

Inson ovozi juft va toq hiqqildoq tog'aylari pardalarining muskuli yordamida bir-biriga bog'lanadi. Nafas ovoz pardalariga urilib, ularni tebratadi va tovush chiqaradi. Ovoz pardalari lotinchada – «lig vocale» deb nomlanib, ular aniqlanishining asosiy tamoyillari:

- xorda qo'shiq ayta oladigan ovoz turi;

– xorga zarur musiqa qobiliyati (ya’ni, eshitish, usul ushlash va musiqiy xotira)ga ega bo‘lgan insonlar ovozi;

– ovoz sifatlari (tembr, diapazon) mujassam bo‘lishi darkor.

Xonanda ovozi o‘z navbatida jinsiy tuzilishga qarab – bolalar, ayollar va erkaklar ovozlariga bo‘linadi.

Bolalar ovozining xususiyatlari. «... men bolalarning ovozini ilk bahorda unib chiqqan juda nozik, nafis va go‘zal maysaga o‘xshataman. Agar bu maysa o‘z vaqtida suv, havo yoki quyosh nuri bilan ta‘minlanmasa, buning natijasi nimaga olib kelishi aniq holdir. Bola ovozi ham xuddi shunday bir nozik a‘zoki, unga juda katta ehtiyotkorlik bilan yondashish kerak» deb uqtiradi ustoz san’atkorimiz Shermat Yormatov.

Bolalarning ovoz boylamlari kattalar ovoz boylamlaridan ancha farq qiladi. Ularning juda nozikligi, kichikligi tufayli bolalar ovozi baland pardalarda jarangdor yangraydi. Bolalar ovozi kuchi past bo‘lsa-da, yuqori registlarda yengil va jarangdordir. Xormeysterlardan bolalar badiiy jamoasini kuylata olish, rivojlantirish katta mahorat talab etadi. Bolalar ovozi o‘z navbatida – soprano yoki diskant (og‘il bolalardagi eng baland ovoz) va alt ovoziga bo‘linadi.

– Soprano yopki diskant, deb bolalarning yuqori ovoziga aytiladi. Yengil, o‘zgaruvchan yumshoq yangraydigan ovoz bo‘lganligi sabab, qo‘shiqlarda asosiy kuy yo‘lini ta’sirchan ijro etadi. Uning diapazoni birinchi oktava «do»dan ikkinchi oktava «sol»gacha bo‘lgan oraliqni egallaydi;

– Alt ovozi esa bolalar ovozining pastki ovozi bo‘lib, bir muncha yo‘g‘onligi va kuchli tembrga yaqinroqligi bilan ajralib turadi. Diapazoni – kichik oktava «sol»dan ikkinchi oktava «re»gacha bo‘ladi. Mutatsiya davri. Xormeyster bolalarning ovozini doimo nazorat qilib borishi kerak. Bola Yoshi ulg‘aygan sari turli jinsiy o‘zgarishlar, ya’ni:

– ruhiy;

– fiziologik o‘zgarishlarga uchraydi.

O‘g‘il bolalarda ko‘proq sezilib turadigan «mutatsiya» (rasta bo‘lish, jinsiy o‘zgarish) davrida ovoz diapazoni chegarasi keskin qisqaradi. Ovozi bo‘g‘ilib,

intanatsiya tushunarsiz, ovozi tez-tez charchaydigan bo‘lib, ko‘pincha bu davr 12-14 yoshlarda o‘tib kechadi. 17–18 yoshga yetib, o‘spirin ovozi o‘z yangi tembri, yangi diapazoni, ya’ni katta kishilar ovoziga o‘zgarib, 20–22 yoshlarda to‘liq shakllanadi.

Qiz bolalarda ham mana shu yoshda o‘zgarishlar bo‘lib, o‘g‘il bolalarga nisbatan ancha yengil, ovozi mutatsiya davrida takomillashib, ovoz diapazoni kengayib boradi. Ayollar ovozining tavsifi va ularning turlari. Ayollar ovozi ham o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi: Soprano va lat ovozlar. – Soprano – italyancha so‘z bo‘lib, «yuqori» degan ma’noni anglatadi. Bu ovoz o‘z navbatida quyidagi ichki bo‘linmalarga ega: koloratura, lirik koloratura, lirik soprano, lirik-dramatik va dramatik soprano, lirik va dramatik metsso-soprano kabilardir. – Alt – ayollar pastki ovozi bo‘lib, metsso-soprano va kontralto, deb yanada aniqroq ta’riflanishi mumkin.

Erkaklar ovozining tavsifi va ularning turlari. Erkaklar ovozi asosan quyidagilarga ajratiladi:







– Tenor – lotinchada «teneo» – «ushlayman» degan ma’noni anglatadi. Erkaklarning yuqori ovozi bo‘lib, umumiy diapazoni ikki oktavani tashkil etadi – «do» kichik oktavadan «do» ikkinchi oktavagacha. Tenor ovozining asosiy turlariga

– altino-tenor, lirik tenor, lirik-dramatik va dramatik tenor kiradi.

– Bas ovozlar guruhiga – bariton, bas va oktavachi baslar, erkaklarning past ovozlari kiradi.

Mavzuga nota misollari:

Inson ovozlarining nomlanishi va dizpazonlari jadvali:

	Umumiy diapazon	Ishchan diapazon
S.		
A.		
T.		
B.		

ADABIYOTLAR

1. Дмитриевский Г. Хоровое пение и управление хором. М., 1957.
2. Гудкова Е.А. Узбекская хоровая литература. Т., 1974.
3. Sharafiyeva N. Xorshunoslik. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987.
4. Ro'ziyev Sh. Xorshunoslik. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1987.
5. Jumayeva L.X. O'zbek xor musiqasi tarixidan. T., 2000.
6. Sharafiyeva N. Xor sinfi. T., 2005.

ФИО автора: Nagizova Aynura Men'libaevna

1st year master's degree student, Department of Education Management, NMPI
Master's Department

Название публикации: «METHODOLOGY OF IMPROVEMENT OF
FUNCTIONAL DUTIES OF SCHOOL DIRECTOR»

Abstract. In the organization and management of modern school activities, there is a common satisfaction of the staff of the educational institution with the results of their work, the correct distribution of work in the team, the formation of a sense of responsibility in relation to their duties, the modern educational process. The effectiveness of the organization on a scientific basis at the level of requirements will largely depend on the extent to which the heads of educational institutions understand and implement their functional responsibilities.

Key words: Guidance, management, function, diagnosis, control

Reference concepts: leadership, management, function, analysis, management

Management is the process of communicating with a particular business or group in order to achieve the highest possible results.

The word "function" comes from Latin and means performance, duty, service, obligation. Management functions are understood as the type of service required to manage an object. Management tasks create management technology with their own content. The meaning of the control function includes two elements: it first determines what is working in the system, and then the response to the request "how to". [3. 54]

In the management of the educational institution, the interaction between pedagogical staff, parents and students plays a necessary role in controlling the process and creating a mental environment that is necessary and comfortable for all. For him, the existing interaction in the leading educational institution, the factors influencing the physical, mental and intellectual development of students, that is, teachers with students, parents with the Department of Education, and students with must be well

aware of the relationship between. In the process of timely identification of possible negative situations and identification of the most convenient ways to address them, the collection, processing and objective assessment of reliable information about the conditions of the educational process. it is very important to be aware of what is meant.

It should be noted that the principal of the school is the organization of educational work, which is the main purpose of the educational institution, the analysis of the message, which has a special role in the development, targeted motivation, advance It is necessary to systematically and correctly perform the functions of vision - business planning, organizational - executive, control - diagnostic and regulatory - reconciliation.

The information-analytical function in the management service has a special role in management, and the acquisition and analysis of information is the essence of the management system. The first goal is to continuously collect information about pedagogical systems, to study them in depth and to evaluate them objectively. Based on the results obtained, it is necessary to establish a strategy of management activities, development factors, specific options, organize and monitor their implementation. Therefore, the information must be reliable, fresh and clearly useful.

In the implementation of the target-motivational function in the leadership service, first of all, it is necessary to take into account the generality of the objectives of the educational institution, as well as the existing conditions and circumstances. Therefore, it is important to maintain the unity of goals in the distribution of tasks, to include them in the process of determining the objectives for the timely and effective implementation of tasks, to have a clear understanding of the expected endpoints, to analyze tasks and clearly define their deadlines. necessary. In this case, it is important to take into account the characteristics of the motives, that is, to know which of them allows you to properly mobilize management activities, to create an effective action plan. [1. 480-484]

Cognitive-business planning function identifies organizational appearances, methods, influencers, control criteria and serves to evaluate the results. Along with this, the pedagogical system and its participants have the opportunity to harmonize and regulate their activities. Thus, the leader must determine the conditions of the educational institution, the results achieved, development opportunities and dynamics, the study of the mental environment, relationships and needs in the community, and the strategy of creating a process of interaction that is conducive to existence. designation is the basis of the pre-planning function.

The organizational-executive function finds its meaning in the existing directions of management activity.

That is, it will be related to the selection and placement of personnel, the formation of a system of interaction of executors, the collection and processing of information. For this reason, it is known that a single structural system of pedagogical management emerges. Its effective implementation is based on mutual trust and support, giving everyone the right to choose, setting not only the goal, but also the criteria for achieving it, creating conditions for employees to work to the fullest extent of their individual capabilities and abilities, initiative It is associated with the strengthening and objective assessment of the work of each employee, and plays a special role in the emergence of a healthy socio-psychological environment in the community.

Control-diagnostics also plays a different role in the management service. Control is related to the functions that exist in the management process. Supervision of the work assigned by the manager is ensured by the control and proportion of the manager.

The function of regulation-reconciliation serves to maintain the necessary conditions of the pedagogical system, to raise it to a new level of quality and to correct mistakes in the pedagogical process and to regulate the behavior of participants. Using this function, the activities of the subjects of the pedagogical system were harmonized.

In turn, the direction of movement of the reconciliation pedagogical system is that good leaders listen to the opinions of their employees, learn from them and try to be useful to their communities. [2. 67-68]

In conclusion, the management of a modern school has a complex, multi-component organizational field, with the main goal being to prepare students for life, regardless of their working and complex socio-economic conditions. The generalization of the efforts of all subjects in the educational institution to ensure faster adaptation to the tour depends on the correct organization of these functions in the leadership of the applicant.

References.

1. General pedagogy Tashkent 2018
2. General pedagogy Tashkent 2019
3. Zaynutdinov SH. N. et al. "Fundamentals of Management" .- T .: Teacher, 2003

ФИО автора: Turobova Munira,

Student at Tashkent state university of Law Public law faculty

Название публикации: «THE INTRODUCTION OF THE PRELIMINARY HEARING INSTITUTION IN CRIMINAL PROCEDURAL LEGISLATION IS THE SOLUTION TO MANY PROBLEMS: IN THE EXAMPLE OF FOREIGN COUNTRIES»

Abstract: Recently to further strengthen human rights guarantees and to put into practice the principle of adversarial proceedings, the procedure for the introduction of the institution of preliminary hearings in criminal courts has been established by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan № 6034 'On additional measures to further improve the activities of the courts and increase the effectiveness of fair trial'. Below is a brief overview of what functions the preliminary hearing institution performs, and its significant aspects for Criminal Procedural Law.

Keywords: The preliminary hearing, controversial-providing model, felony, preliminary discussion.

The introduction of the institute of preliminary hearing will serve to expand the powers of the judiciary and strengthen the principle of adversarial proceedings. This article explores the benefits of the preliminary hearing institute based on foreign experience.

The preliminary hearing, which has just entered our legal system, is a form of direct control over the activities of the bodies of inquiry and preliminary investigation by the court, and one of the most important principles is the procedural process, which is carried out on the principle of contention.

First, in developed countries, the legal system has such forms as *inspection-search*, *dispute-feeder*, *the mixed model* of the appointment of a criminal case to appear in court [1]. The most effective of them is the *controversial model*, which at this stage is recognized separately because all issues are resolved within the framework of judicial proceedings (that is, in the process of preliminary hearing). More precisely, the

process is conducted in the form of a dispute. The most important aspect of this principle is that there is an opportunity to finish the criminal case at the stage itself.

The preliminary hearing is available in the criminal procedural system of several foreign countries. For example, in the Anglo-Saxon legal system, the preliminary hearing as an example appeared in Great Britain. In this state, the preliminary hearing on criminal cases is conducted by the magistrate (judge). The judge does not touch on the question of the defendant's guilt but concludes that the evidence in the criminal case is insufficient, that all evidence is acceptable either unacceptable. The judge has the right not to consider the evidence provided for by the accusation [2].

In US courts, there is almost a similar process – *preliminary examination* too. However, the existing form of the preliminary hearing in America has its characteristics. In the US, a preliminary hearing is conducted mainly on grave crimes (felony), in which prison can be applied. In this process, the main question is asked whether the further action of the work on the results of the initial hearing is necessary or not. In US criminal cases, the preliminary hearing was considered the "center" of the judicial process, and 96 percent of criminal cases found their solution at the preliminary hearing stage [3].

In some states of the former Union, the preliminary hearing has already been introduced. Although this institute is called by different names: "preliminary hearing" of the Russian Federation, Kazakhstan, Kyrgyzstan, "judicial preparatory meeting" in Azerbaijan, "preliminary discussion" in Turkmenistan, "preliminary meeting" in Moldova, the essence is almost identical. That is, the same process is conducted without the appointment of a separate specialized judge, but by the judge, who will consider the case of the future crime.

Second, we pay attention to the next issue, namely the question of what legal problems the initial hearing will solve in our national legislation.

In our Criminal Procedural Law, a judge has several powers to appoint a criminal case in court, although in practice he cannot take full advantage of all of them. For example, in practice, a judge appoints a criminal case to appear in court, although it is obvious that there is a basis for the termination of the case. Then the court will examine

this issue with the participation of the parties and decide on the termination of the criminal case. In this situation, the issue of time is cross-cutting. And the introduction of the preliminary hearing can be a practical solution to this problem. For example, there is no special provision regulating the finding of a direct answer to the question of whether all grounds are sufficient for a judge to consider a criminal case in the courtroom. That is, about all the cases that can be brought as a basis, in our legislation it is not mentioned.

The preliminary hearing will allow the judge to directly examine these grounds on their own.

In summary, the initial hearing presents many new possibilities, along with providing solutions to several of the problems listed above in our legislation.

The introduction of the preliminary hearing will ensure that the parties will be able to participate in the preliminary hearing at the stage of their appointment to see the criminal cases brought to court. As a result, this institution serves to ensure unconditional observance of the principle of dispute among the parties in the decision-making process, which gives the opportunity to further enforce human rights and guarantees in the course of seeing the cases and to practically realize the principle of dispute among the parties, timely elimination of the causes that hinder the viewing of criminal

Also, in judicial-investigative activities, along with more reliable protection of the rights, freedoms, and legitimate interests of citizens, they increase people's confidence in law enforcement agencies and the court.

References:

1. Keith Harries, Ph.D. Research Report 'Mapping Crime: Principle and Practice' U.S. Department of Justice Office of Justice Programs 810 Seventh Street Washington, 1999. 206 pages.
<https://www.ojp.gov/pdffiles1/nij/178919.pdf>

2. Surayyo Rahmonova, Head of the Criminal Law Department of the Higher School of judges: “Suddailojibor-u, imkoniyo’q...”<https://www.xabar.uz/uz/tahlil/surayyo-rahmonova-sudda>
3. https://www.americanbar.org/groups/public_education/resources/law_related_education_network/how_courts_work/pretrial_appearances/

ФИО авторов: Ibragimova Xurshida Sherali qizi

Termiz Davlat Universiteti pedagogika fakulteti 1-bosqich talabasi

Tashmurodova Shoir Bolliiyevna

Denov tumani 76 -maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Название публикации: «BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK
TA'LIMNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O'QITISHNING MAZMUN
VA MOHIYATI»

Anototatsiya: Maktab amaliyotining tajribasi darsning ma'lum strukturasini yaratdiki, ko'pchilik o'qituvchilar bu strukturaga rioya qilib, ma'lum yaxshi natijalarga erishmoqda. Odatda darsning boshida uy vazifasi tekshiriladi yoki o'tgan mavzu takrorlanadi, so'ngra o'tgan mavzu yuzasidan savol-javob o'tkaziladi. Shundan keyin yangi material bayon etiladi va uni mustahkamlash uchun o'quvchilarga misol va masalalar yechdiriladi yoki nazorat savollari beriladi. Dars oxirida uyga vazifa va ni bajarishga oid tavsiyalar beriladi.

Ba'zan, bu maqsadlardan bittasiga bag'ishlanishi mumkin. Ana shu bitta maqsadni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi va boshqalar unga amal qiladi.

Kalit so'z: Matematika, xalqaro qobilyat, Xatolar, A+1, A+2, DARAJALR. Dasturlar
1. Matematikadan dars turlari.

Boshlang'ich sinflarda matematikadan quyidagi dars turlarini ko'rsatish mumkin.

- 1) O'quvchilarni yangi tushunchalar bilan tanishtirish, yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish. Bunday darslarda hisoblash, grafik yoki masala yechish bilimlari hosil qilinadi.
- 2) Turli xil mashqlar yordamida yangi bilim, malaka, ko'nikmalarni mustahkamlash.
- 3) O'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish darslari.
- 4) O'quvchi yo'l qo'ygan xatolar ustida ishlash maqsadida bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish darslari. Har bir matematika darsida turli xildagi didaktik maqsadlar amalga oshirilishi mumkin: uy vazifasini tekshirish, darsning va mavzuning maqsadini bayon qilish, oldin o'tilganlarni takrorlash yoki bolalarning hayot tajribasini esga tushirish yo'li bilan o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga

tayyorlash, og'zaki hisoblash uchun maxsus mashqlar, yangi materialni o'rganish (darsning asosiy bo'limi), bolalarning jamoa ishi sifatida 1-chi o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash, o'rganilgan bilimlarni hisoblash, mashq, bilim va malakalarni qo'llash (darsning asosiy bo'limi), o'quvchilarni mustaqil ishlari va uni tekshirish, oldin o'zlashtirilgan materiallarni takrorlash, uyga vazifa berish, darsni xulosalash.

Darsning asosiy struktura qismlarini turli xilda va turli metodlar bilan birga qo'shib olib borish mumkin.

Dars qanday qismlardan iborat bo'lishi, ularni qanday ketma-ketlikda joylashtirish, ular o'rtasida o'quv materialini qanday taqsimlash, bu qismlar bir-biriga qanday bog'lanishda, ular darsning asosiy didaktik maqsadini amalga oshirishda yetarli miqdorda yordam bera oladimi va h.k. Boshlang'ich sinfda matematika darsining har bir qismini umumiy didaktik masalalarni bajarishga qaratilmog'i kerak. Darsning qismlari asosiy didaktik maqsadga qarab o'zaro bog'langan bo'lishi kerak. Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflar uchun dars turlarining alohida strukturalarini qarab chiqamiz.

Masalan: o'quvchilarni yangi tushunchalar bilan tanishtirish, yangi bilim va ko'nikmalarni hosil qilish darslari.

Darsning borishi. Darsni maqsadga muvofiq shunday boshlash kerakki, barcha o'quvchilarni ishga, o'quv vazifalarini faol bajarishga darhol tortadigan bo'lsin. Shu maqsadda uncha katta bo'lmagan mustaqil ishlarni kartochkalarga yozib borish kerak, bu esa o'quvchilardan masala shartini yozmasdan hisoblash natijalarinigina yozishni talab qiladi. Bunday mustaqil ishlar o'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlaydi.

Darsning birinchi qismida agar uy vazifasi mazmun jihatidan yangi materialga bog'liq bo'lsa, uni tekshirish ham mumkin. Agar uy vazifasi yangi mavzuga bog'liq bo'lmasa, yangi mavzuni o'tishda o'quvchilar uni qo'llamas, u holda yangi bilimlarni bayon qilish darsida uy vazifasini tekshirish shart emas. Shunday qilib darsning birinchi qismi o'quvchilarning faolligini va diqqatini yo'naltirishga qaratilmog'i lozim, bu bosqichga uncha ko'p vaqt sarf qilmaslik kerak.

O'quvchilar diqqatini yo'naltirish usullaridan yana biri, darsning mavzusi va maqsadini aniq tushunarli e'lon qilishdir. Bunda albatta o'quvchilarning qiziqishini orttirish va muammoli vaziyat yaratish zarur. Masalan: o'quvchilar faqat hisoblashning og'zaki usuli bilan tanish bo'lsalar, ularga ikkita uch xonali sonlarni qo'shish tavsiya qilinsa, unda o'zlarining ortiqcha bilim va malakalarini qo'llaydilar. O'quvchilar ma'lum qiyinchiliklardan o'tadilar. Shunday qilib, oldindan o'rganilgan hisoblash jarayonlari bilan bu misolni bajarish qiyin emasligiga ishonch hosil qiladilar. O'quvchilar og'zaki hisoblash usulni o'zlashtirishlari kerak. Dars ana shu usulga bag'ishlangan bo'ladi.

Ikkinchi holda dars o'quvchilar bilan qisqacha suhbat bilan olib borilishi mumkin. Bunday darsdan o'quvchilar bir xonali sonlarni ko'paytirishni tushuntirishda foydalanish mumkin.

Yangi o'quv materialini o'quvchilarning faol o'zlashtirishiga tayyorlash maqsadida oldin o'zlashtirilgan materiallar takrorlanadi, takrorlash xarakteridagi materiallar ko'pincha og'zaki hisoblash orqali bajariladi. Shuningdek, yangi materialni o'zlashtirishga qaratilgan misol va masalalarni mustaqil yechish ham mumkin.

Darsning ikkinchi qismida yangi matematik tushuncha beriladi yoki arifmetik misollarning yangi turi yechiladi. Bu o'quvchilarning bayoni yoki suhbatlari orqali olib boriladi. Ba'zan o'qituvchi buni mustaqil tanlab olishni ham tavsiya qiladi. Masalan, oldin o'tilgan mavzuga bog'liq holda masala yoki misol yechish maqsad qilib olingan bo'lsa, u holda misollarni o'quvchilar mustahkamlash, mustaqil yechish orqali o'zlarining bilim va malakalarini oshirishlari mumkin.

Yangi materialni mustahkamlash. Bu bosqichda o'quvchilarga keltirib chiqarilgan holda, xulosa, muhokamalarni esga olish, undan keyin mustahkamlash xarakteridagi vazifa berish kerak. Bu vazifani bajarish yordamida o'tilgan yangi bilim mustahkamlanadi va birinchi bor amaliyotga tatbiq qilinadi. Birinchi vazifalar odatda jamoa ravishda bajariladi. Ba'zan esa misol-masalalar mustaqil bajarilgandan keyin, o'quvchilardan birortasi doskaga chiqib shu qoidaning to'g'riligini misol, masala yechish orqali ko'rsatib beradi.

O'quv materialining murakkabligiga qarab har qaysi bosqichda ham eng samarali yo'l tutish lozim.

3. Boshlang'ich sinflarda matematika darsiga tayyorlanish.

Matematika darsiga tayyorlanishda birinchi navbatdagi mavzu bir tizimga keltirilgan darslarning o'rnini ko'rsatish zarur. Undan keyin o'quvchilarga yangi dars materiali yuzasidan ishga qanday me'yorda tayyorlanganligini, buning uchun nimani takrorlash zarurligini aniqlash zarur.

Darsga tayyorlanish uchun o'qituvchi matematika dasturini, ishchi rejasini, darslik va o'quv qo'llanmalarini, metodik adabiyotlarni va ko'rsatma qurollarni hozirlagandan keyin navbatdagi darsga tayyorgarlikni boshlaydi. Eng avvalo, navbatdagi dars matematika dasturida qaysi o'rinda, qaysi mavzular bilan bog'liq holda, tushunchani nimalarga bog'lab tushuntirish kerakligini aniqlaydi. Bu savollarning hammasi bayon qilinganidan keyin darsning asosiy didaktik maqsadini va uning tipik xususiyatini qat'iy aniqlash kerakligi kelib chiqadi. Bu esa darsning mazmunini aniqlashga yordam beradi. Darsning didaktik maqsadida ushbu mazmunidan ularga darsning strukturasi bog'liqligi kelib chiqadi, ya'ni darsning alohida bo'limlarining birlashashi, ularning organik birligi darsning qismlarini to'ldiradi va bir-birini bog'laydi. Darsning rejasini tuzishda mavzuning didaktik maqsadiga javob beruvchi asosiy qismlarni o'ylab tuzishdan boshlash kerak. Agar u dars yangi bilimlarni bayon qilishdan iborat bo'lsa, masalan: uch xonali sonlarni yozma qo'shish haqidagi mavzu bo'lsa, o'qituvchi oldin o'quvchilarga qay holda, yozma qo'shish algoritmini bayon qilishni, undan keyin esa o'tgan darsdan nimalarni takrorlash kerakligini, bu asosda yangi mavzuni yaxshi o'zlashtirish mumkinligini, ya'ni, mavzudan oldin uy vazifasini tekshirish zarurmi yoki yo'qmi, yangi mavzuni o'zlashtirish uchun o'quvchilarga qaysi topshiriqni tavsiya qilishligini o'ylab ko'rishi kerak. Shundan keyin o'qituvchi qaysi o'quv materiali bilan darsning har bir bo'limining strukturasi to'ldirish zarurligini, o'qitishning qaysi metod va usullarini, qanday ko'rgazmalar tayyorlash va qo'llash mumkinligini hisobga oladi.

Darsning har bir bo'limini bajarish uchun qancha vaqt talab qilishni aniqlash zarur. Tabiiyki, darsning eng katta qismi darsning asosiy didaktik maqsadini yechadigan bo'limga qaratilishi zarur.

Darsga tayyorgarlik ko'rishda darsda o'quvchilarga beriladigan vazifani bajarish usularini ko'rsatish, ya'ni misol va masalalarni yechib qo'yish, sxematik yozuv va grafik ishlarni tayyorlash, o'qituvchining o'zi uchun foydalidir. Darsning maqsadi, uning strukturasi va mazmuni aniqlangandan keyingina darsning rejasini tuziladi.

Darsning rejasida uning mavzusi va asosiy didaktik maqsadi, foydalaniladigan ko'rgazma qurollar va uni jihozlash ko'rsatiladi. Tartib bo'yicha dars bo'limlarining strukturaviy nomi va uning mazmuni, mumkin qadar vaqtning taxminiy bo'linishi ham ko'rsatiladi.

Dars ishlanmada texnologik xarita mumkin qadar to'laroq yoritiladi. Suhbatni olib borishga yordam beradigan savollar o'quvchilarga havola etiladi va o'quvchilardan kutadigan javoblar uchun o'quv ishining metod va usullari yoziladi.

Misol va masalalar yechishga oid tavsiya va ko'rsatmalar beriladi. Shunday qilib o'qituvchi quyidagi ishlarni bajarishi lozim:

1. O'quv dasturi va o'qituvchi rejasida darsning o'rnini aniqlash.
2. Darsning asosiy didaktik maqsadini aniqlash.
3. Dars mazmunini aniqlash.
4. Dars bosqichlarini tuzib chiqish.
5. Dars rejasini tuzish.
6. Dars ishlanmalar (konspektini) tuzish.
7. Dars o'tish metodlarini aniqlash.
8. Har bir bosqichga sarflanadigan vaqtni aniqlash.
9. Darsda va uyga beriladigan misol va masalalarni yechib chiqish.
10. Ko'rgazma qurollarni tayyorlash va h.k.

4. Matematika darsini o'tkazish.

Tuzilgan matematika darsining reja yoki konspekti o'qituvchiga o'quvchilar bilan bajaradigan ish turining umumiy yo'nalishi va ketma - ketligi, misollar, algebraik ifoda namunalarini ko'rsatib turadi.

XIX asrda Angliyada gersog Beford xonadonida volan o‘yini ayniqsa juda ommalashadi. Gersog badminton Assotsiatsiyasining homiysi bo‘lgan. Bugungi kunda u egalik qilgan Front Xollda ko‘hna raketka va volanlarning ajoyib kolleksiyasi saqlanadi. 1860-yilda Isaak Sprat badminton haqida kitob yozdi va unda ushbu o‘yinning ilk qoidalarini tavsiflab berdi. Zamonaviy badmintonning Vatani Hindiston hisoblanadi. U XIX asrda Hindistonda keng ommalashgan va ayrim manbalarga ko‘ra - “pune”, boshqalarida aytilishicha — “roopa” deb atalgan o‘yindan kelib chiqqan.

O‘sha davrda Hindistonda xizmat qilgan ingliz zobitlari bu o‘ymni katta qiziqish bilan o‘ynaganlar. 1872-yilda Vatanlariga qaytgach, ular mazkur qiziqarli o‘yinni Glochestershir yaqinidagi Badminton er-mulkida namoyish etishadi. Aynan shu yil Angliyada mana shu er-mulk nomidan kelib chiqib “badminton” deb nom berilgan o‘yinning “tug‘ilgan yili” hisoblanadi.

1875- yilda zobitlarning “Folkstaun” nomli badminton klubiga asos solinadi. Assotsiatsiyaning ilk prezidenti polkovnik Dolbi bo‘lib, u “pune” - “roopa” o‘yinlari qoidalari asosida badmintonning yangi qoidalarini ishlab chiqishda faol ishtirok etadi. Ana shu qoidalarning ayrimlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Asta-sekin Angliyada badminton klublari yuzaga kela boshlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘sha davrda turli hududlarda o‘lchami har xil bo‘lgan maydonlarda o‘ynashgan. Gvilforddagi kort ayniqsa mashhur bo‘lgan. Aynan mana shu kortning o‘lchamlari

(44x20 fut yoki 13,4012x6,096 m) 1887-yilda Badminton klubi tomonidan nashr etilgan o'yin qoidalariga kiritiladi.


1898-yilda badminton bo'yicha ilk rasmiy turnir bo'lib o'tadi. 1899-yil 4-aprelda Londonda birinchi marta Angliya chempionati o'tkaziladi. Keyinchalik Angliyada chempionatlar ommalashadi, badminton klublari soni ham ortib, badminton o'yini Birlashgan Qirollik va butun Yevropada keng ommalashib boradi. Yangi sport o'yini tez ommalashib, o'z navbatida, volan ishlab chiqarish ham rivojlanadi. 1898-yilda volan ishlab chiqarish bo'yicha ilk patentni Enn Jekson xonim oladi. Badminton nafaqat Angliya, balki uning ko'pdan ko'p mustamlakalarida ham keng tarqaladi.

Shu bois, 1934-yil 5-iyulda Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF)ga asos solgan mamlakat-- laming aksariyati Buyuk Britaniyaning sobiq mustamlakalari hisoblanadi. Bugunga kelib mazkur federatsiyaga 100 dan ortiq mamlakat a'zo. Xalqaro badminton federatsiyasi (IBF) turli musobaqalar o'tkazib keladi. Ular orasida erkaklar milliy terma jamoalari o'rtasida o'tkaziladigan Tomas kubogi (IBFning birinchi prezidenti nomi bilan atalgan), ayoliar terma jamoalari o'rtasida boiib o'tadigan Uber kubogi (IBFning mashhur va faol vakilasi nomiga qo'yi!gan) musobaqalari eng yiriklari hisoblanadi.


Tomas kubogiga 1948-yiida asos solingan bo'tib, u har uch yilda bir marta o'tkaziladi. Saralash bosqichi to'rtta hududda: Amerika, Avstraliya-Osiyo, Osiyo va Yevropa mintaqalaridabo'lib o'tadi. Mintaqaviy musobaqalar g'oliblari kubok sohibligiga nomzodni aniqlash uchun o'tkaziladigan asosiy bosqichda kuch sinashadilar. Asosiy bosqich g'olibi finalda uch yil oidingi musobaqada kubokni qoiga kiritgan jamoa bilan ro'baro' keladi. Uber kubogi bahslari esa 1956-yildan beri uch yilda bir marta o'tkazib kelinmoqda. 1968-yildan boshlab ikki yilda bir marta Yevropa shaxsiy birinchiligi, 1972-yildan esa qit'aning jamoaviy chempionati o'tkazilmoqda.

Badminton o'ynash uchun raketka, volan, sport kiyimi va maydoncha kerak bo'ladi. Plyaj badmintoni (u sportga oid emas)ni etarlicha ochiq joy boisa, to'rsiz o'ynasa ham bo'ladi. O 'yinni bir vaqtning o'zida ikki nafardan besh nafargacha odam o'ynashi mumkin. Agar o'yinchilar soni juft boisa, bir-birlariga qarama-qarshi turgan holda raketka yordamida volanni bir-birlariga uzatishlari kerak. Bunda imkon qadar

volanni erga tushirib yubormaslikka intilish zarur. O' yinchilar soni toq bo'lganda esa, kengroq joylashib olib, volanni nafaqat sherigiga, balki doira bo'ylab ham uzatish mumkin. O' yinchilar sonidan qat'i nazar, ular orasidagi masofa o'rtacha uch metrdan o'n metrgacha bo'lishi talab etiladi. O' yin joyini tanlashga e'tiborli bo'lish kerak. U tekis bo'lishi, atrofda o'yinchilarga tan jarohati etkazishi mumkin bo'lgan narsalar bo'lmasligi lozim. O' yinni boshlashdan oldin ozgina mashq qilib - yugurib, sakrab, qo'l va oyoqlarni aylantirib, o'tirib-turib, badanni qizitib olgan ma'qul. Sport badmintoni esa maxsus tayyorgarlikni va maxsus sport maydonchasi bo'lishini talab qiladi. Sport badmintonining mazmuni shundan iboratki, o'yinchi raketka yordamida volanni to'r ustidan oshirib raqibi tomonga tashlashi, bunda volan o'zi tarafda erga tushmasligiga, aksincha, raqib tomonida erga tushishiga harakat qilishi zarur. Agar raqiblar ikki kishi bo'lsa, bu o'yin yakkalik, mabodo to'rt kishi bo'lsa, juftlik deb ataladi. Shuningdek, erkak-ayol juftligi xuddi shunday juftlikdagi raqibga qarshi ham o'ynashi mumkin. Bunday o'yin mikst deb nomlanadi. "Mikst" so'zi inglizchadan tarjima qilinganda, "aralash" degan ma'noni anglatadi. Raketkani ushlash usullari. Raketkani ushlashning universal shakli quyidagicha (1-rasm): • chap qo'l bilan raketkaning sterjenidan dastagini o'zingizga qaratib ushlaysiz, bunda raketka kallagi gardishi polga perpendikulyar bo'lishi kerak; • o'ng qo'l bilan raketka dastagini xuddi salomlashgandek ushlaysiz va uni qo'lga siqqandek siqasiz (2-rasm); • dastakni qo'l bilan shunday ushlash kerakki, bunda yon tomoni ko'rinib tursin va turlicha holatlarda zarba berganda barmoqlarning harakatlanishiga xalaqit bermasin; • katta barmoqning birinchi bo'g'inini chap tomonida - dastak keng yuzasining yon tomonida bo'lishi zarur.




1-rasm. Raketkani ushlash texnikasi va uning kaft bilan tutashish nuqtalari.



2-rasm. Raketkani ushlab turgan tasviya etiladigan

umumiy holatlari.

Raketka kallagi tomonlarini anglatuvchi maxsus atamalar: ochiq tomon va yopiq tomon (3-rasm).



3-rasm. Raketka kallagining tomonlari. Agar si.z

raketkani to‘g‘ri ushlab turgan bo‘lsangiz hamda qo‘yingizni oldinga cho‘zganingizda raketka kallagi pol bilan perpendekular shaklda bo‘lsa, raketkaning chap tomon i ochiq, o‘ng tomoni esa yopiq bo‘ladi. Raketkaning ochiq tomoni bilan zarba berilganda, raketkani ushlab turgan qo‘yingizni ko‘targaningizda u go‘yoki tanangizni ochgandek, yopiq tomon bilan zarba berilganda esa tanani yopgandek bo‘ladi. Shunga mos ravishda badmintonchi atrofidagi joyni zarba chegaralariga bo‘lishi mumkin (4-rasm).



4-rasm. Sportchi tanasiga nisbatan raketkaning ochiq va yopiq tomoni bilan zarba berish chegaralari.

Aralash chegaralar - bu shunday joylarki, o‘yinda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib, volanga raketkaning qulay tomoni bilan zarba berishdan iboratdir. Universal o‘yin uchun raketkani sterjeniga juda yaqin ushlab, yoki aksincha, kaft bilan

dastakning oxirini changallab turish tavsiya qilinmaydi. Oddiyroq qilib aytganda, raketka dastagini o'rtasidan xuddi u bilan qoi berib salomlashayotgandek ushlab tursangiz hamda bu holatda raketka kallagi yuzasi polga perpendikulyar holatda boisa, universal ushlash holati boiadi.

Ayrim sportchilar to'r yaqinida o'ynayotgan paytlarida raketkani sterjeniga yaqin ushlashadi, bu esa volanga zarba berish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Bugungi kunda sportchilarda universal ushlashdan tashqari yana ikki turdagi raketka ushlash usuli mavjud: osiyocha va evropacha. Osiyocha usulda raketka dastagi xuddi to'r yaqinida o'ynagandagi kabi sterjen asosiga yaqin ushlanadi. Bunday ushlash reaksiya borasida kattagina afzallik beradi, ammo buning uchun badmintonchi yaxshi texnika va yuksak tayyorgariikdagi jismoniy sifatlarga ega bo'lishi zarur.



5-rasm. Raketkani ushlash variantlari: o'ng

tomondan zarba uchun; chap tomondan zarba uchun.

Raketkani ushlashning boshqa ko'plab variantlari ham mavjud, ammo yuqorida tasvirlangan universal usul asosiy hisoblanadi.

Volanni o'yinga kiritish. Volanni o'yinga kiritish bilan bog'liq texnik element oshirish deb nomlanadi. Volan qoidalarida ko'rsatilgan tartibda o'yinga kiritilishi kerak. Ushbu qoidalarga ko'ra, volanga zarba berilayotgan paytda raketka kallagining gardishi uni o'yinga kiritayotgan sportchining belidan baland, raketkaning kallagi esa uning dastagidan balandda bo'lmazligi lozim. O'yin davom etishi uchun volanga zarba berilgandan keyin u raqibning zarbasini qabul qilishning tegishli kvadratiga o'tishi zarur (yakkalik va juftlik o'yinlari uchun).

Amaliyotning ko'rsatishicha, o'yin paytida sportchi hech qachon bitta holatda qotib turmaydi, balki o'yinda yuzaga keladigan har qanday vaziyat va holatga tayyor turish va o'z vaqtida samarali usul qo'llash uchun turlicha badminton gavda holatlarini qo'llagan holda doimiy harakatda bo'ladi.

1. Шакиржанова К.Т., Тухтабоев Н.Т., /Основы техники, методики обучения в беге на короткие дистанции, – Т.: 2012 г.150 с
2. Смуригина Л.В., Ганибоев И.Д., /организация и методика тренировки бегунов на средние дистанции, методическое пособие– Т.: 2011 г. 190 с
3. Таранова А.В., Колобов В.А., /Теорию и методика обучения легкой атлетике в профессиональной подготовке студентов ИФК, методическое пособие– Т.: 2012 г.160 с
4. Сушко Г.К. Гимнастика и методика её преподавания Т.: ИЛМ ЗИҲО.-2012 г.
5. Фалин В. Основы юношеского спорта. М., «ФиС», 1999.

Internet manbalar

1. www.Ziyonet.uz
2. Xalqaro Yengil atletika Federatsiyasi tarmog'i, [www. IAAF.org](http://www.IAAF.org).
3. O'zbekiston Yengil Atletika Federatsiyasi tarmog'i www.uzathletics.uz.

ФИО авторов: Djurayeva Xursanoy Zakirovna, Farmankulova Yorqinoy Rafiqovna
Andijan State Medical Institute

Название публикации: «ASPHYXIA IN CHILDREN»

Annotation: The predisposing factors of hypoxic-ischemic lesion are the features of the architectonics of glutamate receptors, which depend on the gestational age and maturity of the newborn, the specifics of regional blood supply (the areas of adjacent blood circulation are most often affected), the features of regional cerebral metabolism, which determine the different energy needs of certain areas of the brain. The study of the brain of experimental animals revealed a clear lag in size and mass, a delay in the growth of brain capillaries, and histological revealed a significant decrease in the size of large cells of the red nucleus, deuteronuclei and cells of the lower olive, which are inhibitory in nervous processes. Morphological study of the brain of children who have suffered asphyxia revealed a delay in the differentiation of the layers of the cerebral cortex, a violation of the processes of myelination, which causes the immaturity of certain higher mental functions and their disharmonious development.

Keywords: natural development, posterior neck muscles, physical therapy

The criteria for excluding patients from the study were: an indication of the presence of a history of neuron-infections, traumatic brain injuries, epilepsy, mental illness, and chronic somatic pathology in children. The analysis of the behavior features took into account the course of the natural development of mental functions, the manifestations of individual traits of temperament..

The following instrumental studies were performed: ultrasound Dopplerography of the extra-and intracranial arteries, duplex and triplex scanning of the vessels of the neck and head, electroencephalography, cranio -, spondylography. Dopplerography was performed on the Sonomed-300 device according to generally recognized methods, with standard location points, with the use of load tests on the cervical spine in the form of turning the head to the side. To characterize the pulse wave, we used the systolic velocity and the resistance index as the least variable indicators. The EEG was recorded on a 16-channel Neuron-Spectrum electroencephalograph according to a

generally accepted method with visual assessment and subsequent computer processing of the data.

In the neurological status, diffuse micro focal symptoms from the cranial nerves in the form of asymmetry of the eye slits, weakness of the mandibular muscles, language deviation were detected in 15 (38%) of 42 patients of group 1 and only in 3 (15%) of 20 children. Diffuse muscular hypotension, mild torticollis, impaired posture, peripheral cervical insufficiency syndrome, non-rough restriction of head rotation to the sides, defiance of the posterior neck muscles, pain during palpation of the spinous processes of the cervical vertebrae were observed in 31 (73.8%) children and 8 (40%) children, respectively; moderate neurological symptoms during coordination tests (discoordination of movements by the type of static-locomotor and dynamic ataxia, dysdiadochokinesis, insufficiency of fine motor skills, individual choreiform or ticoid hyperkinesis) — in 23 (54.8%) and 6 (30%) patients, respectively.

Venous disorders in the form of acceleration of blood flow through the rectus sinus, the Galena vein of more than 20 cm / s or the appearance of retrograde flow through the orbital veins with an amplitude of more than 1 kHz ($p < 0.01$) were observed in 28 (66.7%) children of group 1 and in 8 (40%) in group 2. Such a high percentage of venous dysgemia is explained by the fact that the endothelial cells of the venous walls are extremely sensitive to various stimuli (stress, blood chemistry, etc.). In our study, the severity of the symptoms of attention deficit hyperactivity disorder is directly related to the degree of venous congestion. We believe that excessive motor activity in such children is to some extent a protective mechanism for improving venous outflow from the cranial cavity due to increased respiratory, cardiac and muscular activity. According to absolute indications, 8 schoolchildren with these venous disorders underwent craniography, which revealed signs of intracranial hypertension in the form of increased pattern of finger-shaped indentations, dilation and deepening of the channels of diploic veins, deepening of the furrows of the transverse sinuses, mastoid emissaries, and sclerosis of the coronary suture.

In a large number of patients, nonphysiological interhemispheric asymmetry of blood flow along the terminal branches of the internal carotid arteries was recorded due to a decrease in systolic velocity ($p < 0.01$), more often in the anterior cerebral artery basin. Similar changes prevailed in children of the 2nd group (in 16 out of 20 patients). At the same time, the resistance index was increased, which indicated an increase in peripheral resistance to blood flow distal to the measurement site. In children with such disorders, memory was more often reduced (13 patients), especially long-term, and there was a more pronounced clinic of hyperactivity.

Psychological testing of 42 children of group 1 showed that they had increased anxiety (25 patients), aggressiveness (34) and rigidity (30). 18 children had reduced short-term and/or long-term auditory-speech memory. The majority of patients (31) had attention instability — the "memorization curve «was zigzagged. It is known that the functional systems of attention and memory rely on a number of brain structures that are widely represented in different parts of the central nervous system, which may explain such a wide prevalence of such abnormalities in children with prenatal injuries.

According to the results of the clinical examination, the patients were prescribed complex treatment with the use of medications (nootropics, vascular, restorative drugs), physiotherapy (electrophoresis of antispasmodics on the cervical spine, darsonvalization of the collar zone), massage and physical therapy, individual and family psychotherapy. Against the background of treatment, the children's condition improved, motor disinhibition decreased, behavior characteristics improved, attention concentration increased, school performance improved, relationships with peers and parents improved, and headaches stopped.

Literatures:

1. Bryazgunov I. P., Kasatikova E. V. Attention deficit with hyperactivity in children. M: Medpraktika 2002; 128.
2. Palchik A. B., Shabalov N. P. Hypoxic-ischemic encephalopathy of newborns. St. Petersburg: Peter 2000; 224.

3. Klossovsky B. N. The problem of brain development and the influence of harmful factors on it. M: Medgiz 1960; 238.

4. Barashnev Yu. I., Burkova A. S., Ozerova O. E., etc. Clinical and laboratory criteria for cerebrovascular lesions in newborns. Akush and Gin 1990; 1: 29-31.

ФИО авторов: Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Defektologiya kafedrası o'qituvchisi

Asqarova Rahbaroy

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti

2-kurs talabasi

Название публикации: «NUTQI TO`LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALARNING
DIQQAT XUSUSIYATLARINI O`RGANISH METODIKASI»

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning diqqat xususiyatlarini o'rganish, taffakur etish rivojlanish tamoyillari, o'ziga xosligi, olib boriladigan korreksion ishlarning samardorligi haqida yoritib berilgan.

Аннотация

В статье рассказывается об изучении особенностей внимания детей с дефектами речи, принципов развития мышления, специфики, эффективности коррекционной работы.

Annotation

This article describes the study of attentional characteristics of children with speech impediments, the principles of development of thinking, specificity, the effectiveness of corrective work.

Kalit so`zlar. Diqqat, turg'unlik, orientatsion impulsivlik temperament
stimullar proaktiv inhibe barqarorlik

Ключивые слова: внимание застой ориентация темперамент
импульсивность стимулы активный подавлять стабильность

Key words. attention stagnation orientational impulsiveness temperament stimuli proactive inhibit stability

KIRISH. Diqqat –bu ayrim predmet va hodisalarning bir vaqtda boshqalardan chetga olishda eng yaxshi aksini ta'minlovchi inson ruhiy faoliyatining xususiyati. Diqqat - shaxsning faolligini hamda uning obyektiv borliqdagi predmet va hodisalarga tanlovchi munosabatini belgilaydi. Diqqatda odam psixikasining moslashtiruvchi vazifasi namoyon bo'ladi. Agar diqqat bo'lmasa, odamda aniq maqsadga qaratilgan amaliy faoliyat ham bo'lmaydi. Diqqat muayyan sharoitlarda va vaziyatlarda mo'ljal olish imkonini beradi. Diqqat sezilarli darajada yoshga ko'ra o'zgaradigan asosiy yuqori nerv faoliyati jarayonlari rivojlanishi darajasiga bog'liq. Bola hayotining birinchi yilida qandaydir vaqt ichida u yoki bu predmet bilan shug'ullanishi mumkin, biroq bunda uning diqqati xali turg'un emas. Beixtiyor diqqat shakllanishining shu boshlang'ich davri shu bilan tavsiflanadiki, bola rang-barang narsalarni ko'rib, baland tovushlarni eshitib, vaqt o'tishi bilan yanada sust, sekin tanish bo'lgan qo'zg'atuvchilarga e'tibor berishni boshlaydi. 2 yoshga borib u narsalarni ko'rib chiqib, qo'li bilan boshqarib, uzoq vaqt ularda diqqatini to'playdi. Bu yoshda bolaning nutqqa ega bo'lish bilan bog'liq bo'lgan ixtiyoriy diqqat belgilari yuzaga keladi. 3-4 yoshda bolalar ko'pgina predmet va hodisalar bilan qiziqishni boshlaydi, kattalarni diqqat bilan eshitadi, soatlab ular ishini kuzatadi va o'zlari o'z oldiga muayyan vazifalarni qo'yishga qobiliyatli bo'ladi. Ularning diqqati bir joyga to'plangan bo'lishi mumkin, biroq hali ham etarli darajada turg'un bo'la olmaydi. Katta maktabgacha bo'lgan yoshda diqqat turg'unligi ancha olib boradi. Biroq bolalar hali uni yaxshi boshqara olmaydi. Ular uzoq vaqt qandaydir predmetni qidira olmaydi, diqqatini to'play olmaydi. Ixtiyoriy diqqat maktabgacha yoshda hali sust rivojlangan va bolaning faoliyati uning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi, bular kattalar ishini bajarish hamda o'yin o'ynashdan iborat. O'yin uni kuzatuvchanlikka, muayyan qoidalarini bajarishga o'rgatadi, irodasini tarbiyalaydi. Maktabdagi o'qish, bilimlarini egallash jarayoni bularning barchasi kichik yoshda o'quv yuzaga keladigan qiziqishlar natijasida, xususan o'quv mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqish asosida rivojlanadigan

beixtiyor diqqatning tezda o'sishiga yordam beradi. U nihoyatda materialning yorqinligi, uning ko'rgazmaliligi va aniqligi, bola hissiy sohasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

Bog'chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning diqqati nihoyatda beqaror bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan, bolaga yangi o'yinchoq bersangiz u o'yinchoqni juda qiziqib ko'ra boshlaydi. Lekin ayni shu paytda yana bir boshqa o'yinchoqni ko'rsatsangiz, birinchi o'yinchoqni tashlab, ikkinchisiga talpinadi. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqatining beqarorligi fiziologiya nuqtai nazaridan ularda hali tormozlanish protsesslarining kuchsizligi bilan bog'liqdir. Tormozlanish jarayoni qo'zg'alish jarayonining keng yoyilib ketishini to'xtata olmaydi. Ana shuning uchun kichik bolalarning diqqati bir narsadan ikkinchi narsaga chalg'ib ketaveradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati bo'linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko'lamining torligi sababli ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga intiladilar. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar, odatda, bir hikoyani qayta-qayta eshita beradilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko'lami hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig'dira olmaydi.

Shuning uchun ular hikoya va ertaklarni qayta-qayta aylantirib eshitaveradilar. Shunday qilib, bolaning bog'chagacha va bog'cha yoshidagi davrida diqqat ancha tez rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning beixtiyorsiz turi ko'proq rivojlanadi. Lekin bolaning bog'cha yoshidagi faoliyat va xususan didaktik hamda mehnat mashg'ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, maktabdagi ta'lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljiy olmaydi. Shuning uchun bog'chada turli majburiy mashg'ulotlar orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keyingi taraqqiyoti maktabda ta'lim jarayonida amalga oshiriladi.

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining o'ziga xosligi. Nutqi rivojlanmagan bolalar uchun diqqat-e'tiborning qator xususiyatlari xarakterli: o'zgaruvchanlik, erkin e'tiborning past darajadagi ko'rsatkichlari, o'z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar. Bolalar masalani hal qilishda turli usul va vositalarni

qidirib, shart-sharoit tahlilida qiyinlik bilan diqqat-e'tiborlarini to'playdilar. Diqqat-e'tiborning erkinligini namoyon qilish farqida ta'sir etuvchining modalligiga bo'ysunishi ma'lum bo'ladi (ko'rish yoki eshitish): nutqida patologiyasi bor bolalarda ko'rish sharoitiga qaraganda vazifani so'z qo'llanmasi sharoitida bajarish uchun, diqqat-e'tiborini to'plash ancha og'ir. Birinchi marta, rangi, shakli, figuralarning joylashishiga ko'ra farq qilishda qo'pol buzilishlar bilan bog'liq xatolarning soni ko'pligi kuzatiladi. NTR maktab yoshiga etmagan bolalarda faoliyat tezligining barqarorligi ish jarayonida intilishni pasayishiga olib keladi. Nutqida patologiyasi bor bolalarda diqqat-e'tiborni nutq va amaliy harakat o'rtasida bo'lish, amalda bajarib bo'lmaydigan qiyin vazifa hisoblanar ekan. SHu bilan birga ularda oydinlashtirish va ta'kidlash fe'lidagi nutq qarshiliklari ustun keladi, unda nutqi sog' rivojlangan bolalardagi kabi murakkab qarshiliklar kuzatuvidagi fe'lda va shu paytda bajarilayotgan harakatga bog'liq bo'lmagan qarshiliklar kuzatiladi. NTR li bolalarda diqqat-e'tibor xatolari butun ish davomida qatnashadi va doimo mustaqil e'tibor qilinmaydi va yo'qotilmaydi. Xatolar fe'li va ularning o'z vaqtida bo'linishi me'yordan sifatli farqlanadi. Faoliyat ustidan nazoratning hamma ko'rinishlari (avvalgi, hozirgi, keyingi) tez shakllanmagan yoki ancha buzilgan bo'ladi, shu bilan birga vazifa shartlarini tahlili bilan bog'liq bo'lgani uchun, ko'proq nazoratning hozirgi turida qiynaladi (vazifani bajarish jarayonida). Keyingi nazorat (natijalar bo'yicha nazorat), uning ayrim belgilari asosan pedagogning qo'shimcha yordami orqali ko'rinadi: qo'llanmani takrorlash talab qilinadi, namunani ko'rsatish, aniq ko'rsatmalar va boshqalar. Nutqi rivojlanmagan bolalarning erkin diqqat-e'tiborining xususiyatlari chalg'itish xarakterida namoyon bo'ladi. Nutqi sog' bolalar uchun «tajriba o'tkazuvchiga» faoliyati jarayonida chalg'itishga intilish xarakterli (bolalar tajriba o'tkazuvchiga qarab, u yoki bu vazifani to'g'ri yoki noto'g'ri bajarishganini uning ta'siridan aniqlashga harakat qilishadi), nutqida patologiyasi bor bolalar uchun esa ko'pincha chalg'itishning quyidagi ko'rinishlari bo'ladi: «derazaga qaradi (atrofga)», «vazifa bilan bog'liq bo'lmagan harakatlarni amalga oshiradi». Nutqi og'ir buzilgan bolalarda erkin diqqat-e'tiborning past darajadaligi ularning shakllanmaganligiga yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi (O.N.Usanova, YU.F.Gargusha). Nutqida

nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning beixtiyorligi, ya'ni. bolani har qanday tashqi rag'batlantirish, o'rganish jarayoni osongina va tezda chalg'itadi. L.S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, bola ob'ektiv faoliyat va kattalar bilan muloqot qilish jarayonida ixtiyoriy e'tiborni egallaydi. L.S.ning so'zlariga ko'ra Vygotskiy, ixtiyoriy e'tibor kattalarning nutq ko'rsatmalarida shakllanadi, chunki ba'zi ob'ektlarga qo'shimcha orientatsion reflekslarni chaqirish signal tizimlarining diqqatga ta'sirining asosidir. N.N. Tragugott, S.I. Kaidanova ta'kidlashicha, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqat e'tiborga olinmaydi va uning tez charchashi. Yu.A.ning so'zlariga ko'ra. Florenskaya, nutqning buzilishi bo'lgan bolalarda diqqatning o'ziga xos xususiyatlari - sekinlik, beqarorlik. Ixtiyoriy ravishda eshitish e'tiborining buzilishi qayd etiladi: bolalar tinglamaydilar, tovushlarni tinglamaydilar, tez charchaydilar, chalg'itadilar, tovushlarga qiziqishni yo'qotadilar va eshitish funktsiyasi susayadi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlarining e'tiborlarini og'zaki ko'rsatmalarning bajarilishiga vizual sharoitlarga qaraganda yo'naltirish qiyinroq. Bolalar ko'rsatmalarga quloq bilan rioya qilishganda, bolalar ranglarning shakli, shakli yoki pozitsiyasining farqlanishi bilan bog'liq bo'lgan ko'plab xatolarga duch kelishadi. Shuningdek, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda faoliyat tezligi sustroq va bu ish jarayonining pasayishiga olib keladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun nutq va amaliy harakatlar o'rtasida e'tiborni taqsimlash qiyin, deyarli imkonsiz vazifa bo'lib chiqadi. Shu bilan birga, ularda aniqlovchi va aniqlovchi tabiatning nutq reaksiyalari ustunlik qiladi, nutqning normal rivojlangan bolalarida esa, unga hamroh bo'lgan tabiatning murakkab reaksiyalari va ayni paytda amalga oshirilgan harakatlar bilan bog'liq bo'lmagan reaksiyalar kuzatiladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda ishni bajarish jarayonida diqqat xatolari doimo mavjud bo'lib, ular har doim ham o'z-o'zidan sezilmaydi va yo'q qilinmaydi. Faoliyatni nazorat qilishning uchta turi qayd etilgan:

- faol (ish sharoitlarini tahlil qilish bilan bog'liq);
- joriy (vazifa davomida bog'langan);
- kuzatuv (natija bo'yicha nazorat, ya'ni o'qituvchining qo'shimcha yordami talab qilinadi, masalan, ko'rsatmalarni takrorlash yoki namunani ko'rsatish). Ko'pincha,

faoliyatni nazorat qilishning bunday turlari shakllanmagan yoki juda buzilgan, aksariyat hollarda proaktiv nazorat zarar ko'radi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda ixtiyoriy e'tibor xususiyatlari chalg'ituvchi xususiyatlarida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, agar nutqni rivojlantirish me'yoriga ega bo'lgan bolalar faoliyat jarayonida o'qituvchi tomonidan chalg'itishga moyilligi bilan ajralib tursa (bolalar bu yoki boshqa vazifani to'g'ri bajaradimi yoki yo'qmi, uning reaksiyasi bilan aniqlashga harakat qilishadi), keyin bolalar uchun nutqning buzilishi bilan, topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan harakatlar amalga oshiriladi. Gapirish qobiliyati og'ir bolalarda ixtiyoriy e'tibor darajasi juda past va bu faoliyat tuzilishida shakllanmagan yoki sezilarli buzilishlarga olib keladi. Shuningdek, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z harakatlarini rejalashtirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. V.A. Kovshikovaning ta'kidlashicha, chalg'itish nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda diqqat buzilishining o'ziga xos ko'rsatkichidir. Bolalardagi aqliy jarayonlarda chalg'itish nafaqat noma'lum materialga, balki tanish materialga ham tegishli. Bolalarni qiziqtiradigan ishlarni bajarayotganda ham chalg'itishi mumkin. Chalg'itadigan sabablar juda xilma-xil bo'lishi mumkin, masalan:

- boshqa yorqin va kuchli stimullarga ta'sir qilish;
- impulsivlik;

- qiyinchiliklarni engish uchun irodaviy sa'y-harakatlarning namoyon bo'lishi uchun umumiy tartibsizlik. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda uyushqoqlik va o'zini o'zi boshqarish darajasi qanchalik baland bo'lsa, har xil vazifalarni bajarishda bo'shliqlar shunchalik kam bo'ladi. Bolaning shaxsiy xususiyatlari ko'p jihatdan turli xil xatolarga bog'liq, ya'ni. aqliy jarayonlarni tashkil etish darajasi va bolalar asab tizimining xususiyatlari to'g'risida. Masalan, qo'zg'alish jarayoni yuqori bo'lgan bolalarda, inhibe qilingan bolalarga qaraganda ko'proq xatolarga yo'l qo'yiladi. Shuningdek, chalg'ituvchi va xatolarga bardoshlik darajasi bolaning temperament turiga bog'liq bo'ladi. E'tiborning jihatlari, masalan: nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda almashtirish, ovoz balandligi, barqarorlik, tarqalish sezilarli darajada kamayadi va nutqida nuqsoni bo'lmagan bolalarnikidan farq qiladi. Ba'zi bolalarda ushbu ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin, bu unga turli

xil tuzatish choralari talab qiladi. Shunday qilib, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning diqqatini bir qator xususiyatlar, ya'ni beqarorlik, ixtiyoriylikning past darajasi, kontsentratsiya va etarlicha e'tibor taqsimoti bilan tavsiflanadi.

Bolalar osib, ulg'aygani sari ularning nutqi ham rivojlanib boradi. Bu davrda ba'zan nutqning ma'lum darajadagi buzilishlari kuzatilishi mumkin. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklarini bartaraf etish yuzasidan xilma – xil yonalishda tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Rossiyada R. Ye. Levina, L. F. Slirova, V. A. Kavshikov, Ukrainada Ye. F. Sabotovich, Ozbekistonda L. R. Mominova, Ye. A. Boboeva tomonlaridan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muminova L.R., Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'qituvchi, 1993.
2. Ayupova M.YU. Logopediya. –T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati. 2007 y.
3. Muminova L.R., Amirsaidova SH., Abidova N. va boshqalar.
4. Maxsus psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2013.
5. I.Q.Sayfullayeva. Eshitishda nuqsoni bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikani o'rgatishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni. Maktab va hayot. 2020 y.-26 b.
6. I.Q. Sayfullayeva. Eshitishda nuqsoni bor 1-2 sinf oquvchilarining arifmetik amallarni bajarishga o'rgatishning samarali usullari. TDPU Ilmiy axborotlari 3-son. 2020 y

ФИО авторов: Sadikova Dildora Shukurullayevna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy Ish 2-kurs magistranti,

Qayumova Gulnoza Nabiyeвна

Marg'ilon shahar xalq ta'limi bo'limi mudiri,

Axmadaliyev Muxammadjon Abdullayevich

Marg'ilon shahar xalq ta'limi bo'limining Bolalarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash markazi metodisti

Название публикации: «IJTIMOIY ISH AMALIYOTINING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI IJTIMOIY ISH AMALIYOTINING YORITILISH SOHALARI»

ANOTATSIYA: Ushbu maqola orqali ijtimoiy ish amaliyoti nazariyasi va amaliyotining birligi, ijtimoiy ish amaliyoti haqida qaysi jarayon va sohalarda qo'llanilishi mumkinligi haqida so'z boradi.

Kalit so'z: Ijtimoiy ish amaliyoti, Sohalar, jarayonlar, amaliyotning zarurligi, madaniy, shaxsiy, ijtimoiy lingvistik.

10. Taniqli adib Gyote 'Faust' tragediyasida Mefistofel tilidan bir iborani keltiradi: 'Nazariya quruqdir do'stim, ammo u yashnar hayot daraxtidir.'

Biz buni talqin qilmoqchi emasmiz. Butun harakatlarning samarasi, natijasi bilan qiziqishga e'tiborni jalb etmoqchimiz, xolos. Barcha jarayonlarda, jabhalarda nazariya va amaliyot uyg'unligi zarur. Et va tirnoq singari ajralmas, uzviy jarayon bu. Ilmu fan, madaniyat san'at yoxud ishlab chiqarish bo'lsin, ularsiz sohaning shaklu shamoyilini to'liq belgilash qiyin. U bamisoli insondagi vena va arterial qon aylanish tizimiga monand. Busiz tiriklikni anglash, tasavvur etish mushkul.

Ijtimoiy ish ‘ bu muhim kasb bo’lib, ijtimoiy ta’minot doirasida faoliyat yuritadi va ushbu tizimda ijtimoiy xizmatlar ko’rsatiladi.¹¹¹

Ijtimoiy ishning qonuniyatlarini ochib berishda ikki yondashuvga asoslanganlik amaliyoti mavjud. Qonun (ijtimoiy qonuniyat) ijtimoiy hodisa, jarayon va tizimlarning tashkil etuvchilari va barcha taraflarining muhim, barqaror, takrorlanuvchi aloqalarini, insonlarning hayotiy faoliyati namoyon bo’lishining barcha shakllaridagi yaxlitligini namoyon etadi. Iqtisodiy adabiyotda ijtimoiy ishning quyidagi qonuniyatlari sanab o’tiladi:

jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik;

ijtimoiy ishning mazmuni, shakl va usullari turli guruh, birliklar, individlar hayotiy faoliyatining aniq shart-sharoitlari bilan belgilanadi;

ijtimoiy muammolarni mijozlarning shaxsiy ehtiyoj va manfaatlari orqali hal etish;

ijtimoiy ishning samaradorligi va natijaviyligi mutaxassislarning malakasi, ma’naviy hususiyatlari, jamiyat va davlatning ijtimoiy tizimi imkoniyatlariga bog’liqligi.

Bu yerda ijtimoiy ishning subyekti va obyektlari o’rtasidagi o’zaro harakat, aloqalari tufayli vujudga keluvchi barqaror, takrorlanuvchi aniq ijtimoiy hodisa, jarayon va munosabatlarning rivojlanishiga ta’sirining xarakteri va yo’nalishini belgilaydigan qonuniyatlarga umumiy ta’rif beriladi.

Ijtimoiy faoliyat ijtimoiy borliqning mavjudligi va rivojlanishi omili, tashqi olamning maqsadga yo’naltirilgan o’zgarishini aks etishidir. Uning belgilari: onglilik, samaralilik, ijtimoiylik. Ijtimoiy ish faoliyatning quyidagi uch shakllarda: ilmiy, ta’limiy va amaliy ko’rishlarda namoyon bo’ladi.

Ijtimoiy ish amaliy faoliyat turi sifatida o’z faoliyati yo’naltirilgan obyektning o’ziga xosligi bilan ajralib turadi. Tor ma’noda ijtimoiy ish ‘ insonlar, tashkilotlarga muammo, qiyinchiliklarni (shaxsiy, ijtimoiy va holatiy) anglashga,

¹¹¹ Deyl Karnegi. Muomla sirlari yumshoq muqova 2012 yil Toshkent nashriyoti 24- bet

ularni himoyalash, qo'llab- quvvatlash, to'g'ri yo'naltirish va qayta tiklash orqali yengib o'tishga yordam beruvchi faoliyat hisoblanadi. Keng ma'noda esa ijtimoiy ish alohida shaxslar, aholi ijtimoiy qatlam va guruhlarining ijtimoiy muammolarini yechishga, insonlarni ijtimoiy vazifalarini bajarishiga bo'lgan qobiliyatlarini qayta tiklash va yaxshilashga samarali ta'sir etuvchi shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan faoliyatdir.

Umuman olganda, ijtimoiy ishning maqsadi aholini jumladan, ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarining ijtimoiy kafolatlangan guruh, shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan umumlashgan, universal faoliyat turidir.

Ijtimoiy ish amaliy faoliyat sifatida quyidagi tashkiliy qismlardan: obyekt, subyekt, vazifalar, vositalar, maqsadlar va boshqaruvdan iborat.

Ijtimoiy ishning obyektiga (keng ma'noda) yordamga muhtoj barcha insonlar hisoblanadi: qariyalar; nafaqaxo'rlar; nogironlar; yetim-yesirlar; baxtsiz hodisaga duchor bo'lganlar; kuchli stress holatini boshidan kechirayotganlar; farzandlarini yakka o'zi tarbiyalovchi onalar va otalar; deviant xulq-atvorli shaxs va guruhlar (ichkilikbozlar, giyohvandlar, jinoyatchilar va b.); qamoqxonalarda o'tirganlar va ozodlikka chiqqanlar; ishsizlar; qochoqlar va boshqa ijtimoiy zaif, qaltis guruhlar.

▲ Ijtimoiy ishning subyektlari:

'qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati, davlat, ijtimoiy ta'minot vazirligi, turli darajadagi ijro etuvchi va boshqaruv organlari;

turli ijtimoiy ish olib boruvchi tashkilotlar; oila va bolalar bilan ijtimoiy ish olib boruvchi hududiy markazlar; ota-onasiz qolgan bolalar bilan ishlash markazlari; imkoniyatlari cheklangan bolalar va o'smirlar bilan ishlaydigan reabilitatsion markazlar; aholiga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatuvchi markazlar va h.k.

ijtimoiy, xayriya tashkilotlari, kasaba uyushmalari, fondlar, mahalliy boshqaruv organlari (mahalla), xususiy ijtimoiy xizmatlar, nodavlat xayriya tashkilotlari.

Ijtimoiy ishning asosiy subyekti amaliy faoliyat olib boruvchi professional insonlardir.

Ijtimoiy ishning predmeti ‘ mijozning ijtimoiy holati, ya’ni ijtimoiy ishchining faoliyati yo’naltirilgan holati. Uning faoliyati maqsadi ‘ mijozning ijtimoiy holatini yaxshilash va uning muammolarini hal etishda yordam berish, ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijtimoiy maqomini tiklash, jamiyatga ijtimoiy moslashishini ta’minlash, moddiy mustaqillikka erishishiga yordam berish.

Professional faoliyat sifatida ijtimoiy ish quyidagi sohalarni qamrab oladi:

shaxsiy va oilaviy darajadagi ijtimoiy terapiya;

turli tasnifdagi guruhlar (yosh bo’yicha, jins, qiziqishlar) bilan ishlash;

yashash joyidagi ijtimoiyish.

Ijtimoiy ishning funksiyalari:

obyekt haqida ma’lumot yig’ish, yosh va jins xarakteristikalarini aniqlash, mijozning sog’lig’i, yashash sharoiti, moddiy ahvoli, yashash uchun zarur bo’lgan ne’matlar bilan o’zini ta’minlay olish darajasini, qo’ni-qo’shnilarni, ruhiy holatining, xarakterining o’ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

tashxis qo’yish; olingan ma’lumotlardan foydalanilgan holda «ijtimoiy» tashxis qo’yish, alohida inson yoki guruhning hususiyatlari va mikromuhit ta’siri darajasini aniqlash;

prognostik; bashorat ‘ jamiyatdagi barcha sotsial institutlarning ijtimoiy ish obyektlariga ta’sirini bashorat qilish va ushbu obyektlarning ijtimoiy xulq-atvori modellarini ishlab chiqish;

tashkiliy; ishlab chiqarish korxonalari va muassasalarda, jumladan, yashash joylarida ijtimoiy ishni tashkil qilishga yordam berish, aholiga turli yordam va ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirishga jamoatchilikni yo’naltirish; psixo-pedagogik; barcha yordamga, ijtimoiy moslashish va ijtimoiy rehabilitatsiyaga muhtoj insonlarga maslahatlar berish, shaxslar o’rtasidagi munosabatlarni yo’lga solish, ularning qiziqish va ehtiyojlarini aniqlash;

profilaktik; yordamga muhtoj, kam himoyalangan qatlamlarga, adashgan insonlarga yordam berish va qo'llab quvvatlash, jumladan ularning xatti-harakatlaridan kelib chiqadigan salbiy oqibatlarining oldini olish;

boshqaruv: qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, nazorat va moddiy ta'minot, kadrlar tayyorlash;

amaliy: aholining turli toifadagi qatlamlariga ijtimoiy yordam ko'rsatish.

Ijtimoiy ishning tamoyillari:

ijtimoiy-siyosiy tamoyil ' hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda, demokratizm prinsiplari asosida, guruh yoki insonning yashashi, faoliyatining shart-sharoitlari, ijtimoiy ishchining faoliyatini qonuniy va vijdoniylikni nazorat qilish;

tashkiliy tamoyil ' kadrlarning ijtimoiy-texnologik kompetentligi, faoliyatini nazorat qilish, huquq va majburiyatlar, vakolat va javobgarlik birligi tamoyili;

psixologo-pedagogik tamoyillar - ijtimoiy ish mijozlariga psixo-pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalarini tanlashga bo'lgan talabni aks ettiradi, ijtimoiy-texnologik muolajani amalga oshirishda individual xususiyatlarni inobatga olish lozimligini anglatadi.

Ijtimoiy ish tamoyillari madaniyatning umuminsoniy xususiyatlari, insoniy qadriyatlar ustunligi, gumanizm, falsafasi asosida quriladi.

Ular quyidagilardan iborat:

kam ta'minlanganlarning muammolarini o'z omadsizligi deb qarash va uni hal etish uchun ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish;

ish bilan ta'minlanganlik farovon yashash uchun yagona vosita hisoblanadi;

Ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi dastlabki o'quv muassasalari xayriya tashkilotlari tomonidan tuzilgan. 1896-yilda deyarli bir vaqtda Angliya va Germaniyada kurslar ochildi. 1898-yilda AQShda Nyu York filantropiya maktabida ijtimoiy xodimlar tayyorlana boshladi. Keyinchalik u Kolumbiya universitetining ijtimoiy ish maktabiga aylanib, muhtojlarga yordam berish bilan shug'ullanuvchilar uchun bir yillik ta'lim dasturini taklif etdi. G'arb mamlakatlari jamoatchiligi ongida

muhtojlarga professional yordam ko'rsatish g'oyasi yanada aniqlashdi. Bu g'oya XIX asr oxirlaridayoq amalga oshirila boshlandi. 1899-yilda Ijtimoiy xodimlar tayyorlash institutiga asos solgan Amsterdamdagi ijtimoiy islohotchilar guruhi ijtimoiy xodimlarni tayyorlash bo'yicha jahonda birinchi institutga asos solish sharafiga erishdilar. Institut dasturida o'zlarini ijtimoiy ishga bag'ishlashni istagan erkak va ayollar uchun ikki yillik kunduzgi nazariy ta'lim va amaliy tayyorgarlikning to'liq kursi ko'zda tutilgan.

asrning birinchi yarmi davlatning o'rni kuchayishi va «umumiy mehr-muruvvat jamiyati» nazariyasi va amaliyoti rivojlanishi bilan izohlanuvchi ijtimoiy ishning institutsionallashuvi bilan harakterlanadi.

5. Ijtimoiy xodimlar professional faoliyati natijasida ularning asosiy huquq va majburiyatlari shakllanishi, mehnatga rasmiy haq to'lash, o'quv muassasalari, professional tashkilotlar yaratilishi hisoblanadi. Garchi professional ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni boshlagan dastlabki ixtisoslashgan o'quv muassasalari Niderlandiya, so'ngra AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniyada yaratilgan bo'lsa- da, «ijtimoiy xodim» kasbi dastlab AQShda, so'ngra G'arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy nufuzga ega bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bizning mamalakatimizda ham aholi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida barcha sohalarda hususan, ta'lim sohalariga ham 'Ijtimoiy ish amaliyoti'ni joriy etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu esa 'Ijtimoiy ish' sohalari bo'yicha yetuk kadrlarni faoliyat olib borishlariga zamin yaratib beradi. Ijtimoiy ish soha egalarining joylarda izchillik bilan yondoshgan holda faoliyatlarini olib borishi ayniqsa, belgilangan maqsadlarni amalga oshishiga xizmat qiladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

N 2. @ Ijtimoiy soha iqtisodiyoti: Darslik/ Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. T.: Iqtisodiyot, 2013. 418b.

Foydalanilgan adabiyotlar .

долгосрочные тенденции и изменения последних лет. Краткая версия доклада: док. К ХВИ апр. Междунар. науч. конф. по проблемам развития экономика и общества. М., 2015. 7-10 апр. / Отв. ред. Я.И. Кузминов, Л.Н. Овчарова, Л.И. Якобсон. Нац. исслед. ун-т Высшая школа экономики. М.: Высшая школа экономики, 2015. 51, [1]с.

Uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish xizmati faoliyatini tashkil etish metodik qo'llanmasi/ M. Karmanyan, M. Xasanbaev, M. Aminov. T.: Baktria press, 2014. 100 b.

Ijtimoiy soha iqtisodiyoti: Darslik/ Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. T.: Iqtisodiyot, 2013. 418b.

ФИО автора: Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi

talaba, Termiz davlat universiteti, Termiz, O'zbekiston

Название публикации: «A.P.CHEXOVING “UYQU ISTAGI” HIKOYASI TAHLILI»

Annotatsiya

Ushbu maqolada Uyqu istagi hikoyasining yaratilish tarixi, asar syujeti, qahramonlar xarakteri va taqdiri, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi tahlil qilingan .

Kalit so'zlar : Varka, gumanizm, Tolstoy, realizm, proletariat, Ketrin Mensfild.

Hikoya badiiy adabiyotning kichik epik janrlaridan biri bo'lib, unda hayot hodisalari, insoniyat taqdiri ixcham va sodda ifodalanadi. Jahon adabiyotida hikoya janri taraqqiyoti haqida so'z yuritganimizda, albatta, rus adabiyoti haqida gapirmasdan ilojimiz yo'q. Bu janr rivojida, ayniqsa, A.P.Chexovning alohida o'rni bor. Uning ijodi ham rus adabiyotida, ham jahon adabiyotida ushbu janrni taraqqiy ettirishdagi xizmatlari bilan ahamiyatlidir. Uning hikoyalari real voqealarga asoslangani, badiiy uslubi, qahramonlar xarakterini o'ziga xos usulda yoritishi bilan ajralib turadi. Chexov ijodida gumanizm alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, uning bolalar haqidagi hikoyalarida insonparvarlik, bolalarga bo'lgan munosabat keng yoritilgan.

Korolenko, Tolstoy, Dostoyevskiy kabi Chexov ham bolalar haqida bir qancha hikoyalar yozgan. Jumladan, “Uyqu istagi” hikoyasi uning eng sara hikoyalaridan hisoblanib, unda bolalar ruhiyatining tipik namunasi tasvirlangan. “Uyqu istagi” 1888-yil yozilgan bo'lib, yozuvchi asarni yarim kunda yozib tamomlagan. Hikoya dastlab o'z davrida ko'plab tanqidlarga uchragan va hukumat tomonidan nashr etilishi ta'qiqlangan. Xususan, “Mediator” nashriyotida I.Gorbunov-Posadov tomonidan hikoya “Sun'iy” deb baholangan. Ammo bu asossiz fikr bo'lib, og'ir mehnat ostida ezilgan, ko'z oldida otasidan ayrilgan qizaloqning ruhiyatida bo'lgan karaxtlik mantiqan olganda uning “Jinoyati” ning asosiy sababidir. Bundan tashqari, qizcha bolani o'ldirayotganida galyutsinatsiya holatida bo'lgan va nima qilayotganini anglab yetmagan.

Bir qancha tanqidlardan so'ng hikoya Sankt-Peterburg gazetalarida ilk bor chop etilganda barcha zamondosh yozuvchilar yozuvchiga tan berishadi. Tolstoy hikoyani Chexovning kichik nasriy asarlari ichida eng yaxshisi ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, “Uyqu istagi” hikoyasiga L.N.Tolstoy tomonidan yuksak baho berilgan. A.B.Goldenweiser shunday deb yozgan edi: ”Lev Nikolayevich Chexovning deyarli

barcha kichik hikoyalarini o'qib chiqdi, so'ngra shunday xulosaga keldi: "Chexov yuqori darajadagi mahoratga ega ijodkor. Men uning hikoyalarini ulkan zavq bilan qaytadan o'qib chiqdim. "Bolalar", "Uyqu istagi", "Sudda" — hikoyalari Chexov jodining haqiqiy marvaridlaridir". Ushbu hikoya ingliz, fransuz, serb tillariga tarjima qilingan. Bundan tashqari, taniqli ingliz yozuvchisi Ketrin Mensfild Varka obrazidan ta'sirlanib, "Charchagan bola" hikoyasini yozgan.

"Uyqu istagi" hikoyasi o'n uch yoshli Varka ismli xizmatchi qizcha haqida bo'lib, uning ayanchli qismati asar kompozitsiyasining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ma'lumki, XIX asrda Rossiyada proletariat qatlami juda og'ir ahvolda bo'lib, ishchi-xizmatchilar huquqlari kamsitilgan, hatto yosh bolalar mehnati ham eksplutatsiya qilingan. Asar bosh qahramoni Varka ham hunarmand oilasida xizmatchi bo'lib, yosh bo'lishiga qaramasdan barcha yumushlarni bajarishga, tunlari xo'jayinining farzandiga enagalik qilishga majbur bo'ladi. **"Varka zinani yuvadi, uylarni yig'ishtiradi, so'ng ikkinchi pechkani yoqadi va boqqollik do'koniga qarab yuguradi. Ish ko'p, biron daqiqa bo'sh vaqt yo'q."** U shunchalik ko'p ishlaydiki, dam olishga biroz bo'lsada uxlab olishga imkoni bo'lmaydi. **"U yerga o'tirib, kalishni yuvar ekan, shu katta va chuqur kalishga boshingni tiqib, bir pastgina mizg'ib olsang qanday yaxshi bo'lardi, deb o'ylaydi. Birdan kalish shishib kengayib uyday katta bo'lib qoldi. Varkaning qo'lidan cho'tkasi yerga tushib ketdi. Varka darhol boshini silkib, ko'z oldidagi narsalar kattalashib, harakatlanmasin deb ko'zlarini kattaroq ochishga tirishdi"**. Varka o'zining bolalarcha soddaligi bilan qiyinchiliklariga, uyqusizligiga chora topishga urinadi va bularning bariga xo'jayinning bolasi sababchi degan xulosaga keladi. Qahramon qizning ruhiy ezilishi va tinimsiz uyqusizlik ayanchli fojiga sabab bo'ladi. Hikoya davomida qizning azob-uqubatlari kuchayib borgan sari uning ta'siri ham kamayadi. Ya'ni qahramon karaxt ahvolga tushadi, atrofidagi barcha voqealar tushida sodir bo'layotganday tasavvur qiladi. **"U kulib, ko'zlarini qisib, shipdagi dog'ga qarab, barmog'I bilan tahdid qiladi, asta belanchak yoniga boradi va engashib bolani bo'g'adi, keyin darhol polga yotib uxlashning iloji topilganidan behad sevinadi va bir daqiqadan so'ng o'likday uxlab qoladi"**. Hikoya yakuniga e'tibor qiladigan bo'lsak yozuvchi Varkaning taqiri nima bilan tugashi haqida hech qanday izoh bermaydi. Bu esa har bir o'quvchini individual hukm chiqarishga, fikr yuritishga undaydi.

"Uyqu istagi" hikoyasi realizm ruhida yozilgan bo'lib, yozuvchi insoniyatning, davrning kuchli ziddiyatini, nochor oila farzandlariga bo'lgan munosabatni kichik qizaloqning ayanchli taqdirida tasvirlagan. Shuningdek, Varkaning bolalarcha xayollarida, tushlarida tasvirlangan voqealar davr ruhini, jamiyatning mavhum taqdirini aks ettirgan. Hikoya juda haqqoniy yozilgan bo'lib, Chexovga xos qisqalik va har bir so'zdan unumli foydalanish uning badiiy qiymatini yanada oshirgan. Yozuvchi hikoyada keltirilgan har bir so'zga, har bir obrazga asar mohiyatini yoritib beruvchi alohida yuk bergan va har bir detal uning maqsadini ochishga xizmat qilgan. Jumladan, yashil shamchiroq, soyalar va qizaloqning tushlari tushlari qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarni ochib beruvchi vosita bo'lgan. Ushbu hikoyaning o'ziga xos jihati yozuvchi qahramonlar taqdirini syujetning ichida yurgandek, voqealarni

kuzatib turgandek so'zlab beradi va shuning uchun ham qahramonlar ko'z oldimizdagidek yaqqol namoyon bo'ladi.

Chexov- bolalar qalbining buyuk bilimdonidir, u o'zining "baxtli" bolalalik hayotini hech qachon unuta olmagan va shu sabali ham ijodi davomida jamiyatdagi bu illatni aks ettiruvchi ko'plab asarlar yozgan. U o'zini eng baxtsiz bola deb hisoblagan, otasining talabiga binoan, ko'pincha vaqtini ta'lim olish o'rniga cherkov xorida yoki oilaviy do'konda, baliq ovida o'tkazishga majbur bo'lgan. Shu sabab, yozuvchi qahramon qiz Varkaning ayanchli holatini, ruhiyatini yaxshi tushunadi va aynan shu holat asarning jonli va o'ta ta'sirchan chiqishining asosiy omili hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda , Chexov Varkani dahshatli harakati uchun qat'iy hukm chiqara olmaydi. U faqat jinoyatning haqiqat ekanligidan afsuslanadi. Adabiyotning asosiy vazifasi insonni anglash va anglatishdan iborat ekan, mazkur hikoya insonni tanitish, insoniylik burchini ado etish hamda bolalarga yaxshi munosabatda bo'lish haqida saboq beradi. Yozuvchi hikoya orqali kattalar tomonidan qilinayotgan zulm, loqaydlik qanchadan-qancha yosh taqdirlarning izdan chiqishiga, bolalarga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lish insoniyat kelajagining fojeasi ekanligini tushuntirishga uringan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O.Qayumov "Chet el adabiyoti tarixi" "O'qituvchi" nashriyoti - Toshkent.1973-yil

2.H.Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" -Toshkent.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.2004-yil

3.[https://:kh-davron.uz](https://kh-davron.uz)

ФИО авторов: Мадалиев Эркин Ўринбоевич

Application for pre-small grouping of goods at terminals Low-tonnage rolling stock for long-distance transportation and delivery of small and medium freight to the terminal and load on recipients;
- settlement operations after receipt of orders for planned, transport, commercial and complex freight forwarding services;
- Carrying out loading and unloading operations during acceptance and delivery of cargo to customers and terminals;
- processing of goods at terminals and registration of consignments, packaging, marking of goods, registration of packages;
- organization of cargo transportation in containers;
- providing warehouse services to customers, providing storage of products (raw materials) in the terminal;
- organization of cargo transportation in mixed transport; delivery cargo (containers) to railway stations, terminals (removal), rivers and airports, the process of delivery of goods from the sender to the consignee, ensuring full and timely transportation of goods, taking full responsibility for all transport;
- introduction of centralized accounting for all operations and movement of goods;
- information support of the customer to control the cost, location and cost of

transportation of goods, vehicles, tariffs for various modes of transport, the movement of goods in general, the introduction of paperless work, etc[3].

Discussions: Transportation remains a major source of air pollution. air in populated areas. This is mainly the result of the superior distribution of passenger and freight volumes between modes of transport, where, as mentioned above, road transport predominates. As for environmentally friendly railways and water transport, which are the most efficient over medium and long distances, their potential is still not used. There is a reason for this misleads consumers because they only reflect direct costs, transport enterprises, including society, are a social and environmental component of such costs without taking into account the total transportation costs.

Conclusion. It should be noted that a lot of work is being done in Uzbekistan. Software is currently being developed for the transportation system, which will create great convenience in the transportation system. The issuance of laws, decrees and orders issued by the head of our state is not in vain. The Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to radically improve the system of freight and passenger transportation" is a clear proof of the radical reform and development of the system of freight and passenger transportation.

References:

- [1] Kosimov S.X. Nishonov A.O. "PATI RAGUITIE LOGISTICESKOY SISTEMY PRI ORGANIZATsII PEREVOZKI GRUZOV NA MEJDUNARODNYX MARSHRUTAX" ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES 2021y.
- [2] S.V. Miloslavskaya A.B. Myskina "PERSPECTIVE DEVELOPMENT OF THE TRANSPORT SYSTEM OF THE EUROPEAN UNION" cyberleninka 2021y.
- [3]. D.M. Umarova, M.A. Boronova "LOGISTICS" Tashkent-2016.

ФИО авторов: Normirzayev Abduqayum Rakhimberdiyevich

dots, teacher, NamMQI, Namangan

student, NamECI, Namangan. Dadabayev Dadajon Rustamovich

student, NamECI, Namangan. Egamberdiyev Bakhtiyor Sadiqjanovich

Название публикации: «ANALYSIS OF PASSENGER TRANSPORTATION
SYSTEM BY ROUTES»

Annotation: Shortcomings in the public transport system, ways to overcome them, foreign solutions to these problems, the work done in Uzbekistan in the passenger transport system and shortcomings, adapting foreign technologies to the conditions of our country it's about doing.

Keywords: Passenger, system, economic, price, regional, economic, UPT, street, traffic, control, station, transport.

АНАЛИЗ СИСТЕМЫ ПЕРЕВОЗКИ ПАССАЖИРОВ ПО МАРШРУТАМ.

Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич

доц. учитель, Наманганский инженерно-строительный институт,

Наманган

студент, Наманганский инженерно-строительный институт, Наманган.

Дадабаев Дададжон Рустамович

студент, Наманганский инженерно-строительный институт, Наманган.

Эгамбердиев Бахтиёр Садикжанович


dadajondadabayev0008@gmail.com

Аннотация: Недостатки в системе общественного транспорта, способы их преодоления, зарубежные решения этих проблем, работа, проделанная в Узбекистане в системе пассажирского транспорта, и недостатки, адаптация зарубежных технологий к условиям нашей страны.

Ключевые слова: Пассажирский, система, экономический, цена, региональный, экономический, УПТ, улица, движение, управление, вокзал, транспорт.

Introduction. The main factors affecting the performance of public passenger transport will be considered. It was noted that economic policy in the field of state regulation should be considered as an important part of the overall state economic and social policy of public passenger transport, aimed at improving the quality of life of the population. It is also recommended that the formulation and implementation of economic policy should be associated with the creation of social methods, procedures and mechanisms to establish effective transport tariffs aimed at maintaining and developing subsidies in accordance with the economic justification and development plans of public transport, as well as a set of socio-economic constraints to manage reasonable directions in order to optimize their use. We can highlight a number of unresolved or found problems on the basis of which the more effective solution is the modern development of the theory and methods of state regulation of public passenger transport. The problem is the transparency of the goals and content of economic policy, the transparency of methods and regulatory mechanisms. In this regard, it will be necessary not only to adjust regulatory mechanisms and procedures, but also to inculcate a culture of openness. The problem of methodological regulation of public passenger transport can be solved through the formation and implementation of economic policy of regulation of public passenger transport, as well as the creation of a development model New methods, procedures and mechanisms of economic policy of the state regulation of passenger traffic, etc. [1]. The central link in the formation of price (tariff) policy and the implementation of economic policy is the connection to public passenger transport, so an important place is given to its analysis and improvement. One of the regional problems is the lack of adequate coverage of consumers (citizens) legislation, social availability routes and the appropriate level of budget to economic entities, defined by the

presence among consumers of a large number of privileged categories of products, works and services [2].



Route 21 is the route of passenger traffic.

Methodology: The problem of determining the waiting time of a passenger arises in solving a number of practical problems at bus stops Problems related to the design and operation of urban public transport (UPT) [3]. The level of satisfaction of passengers from the installation task transport services is related to these problems provided by UPT. The right level of UPT services makes it more attractive for city dwellers and attracts a certain percentage compared to the option of transporting in your last used car. This will significantly reduce the severity of the problem of congestion on modern streets and highways of major cities, and traffic will need to be removed or eliminated altogether [4].

Analysis and results: Recommendations on averaging were taken to allow sufficient time to substantiate the accuracy of the practical calculation of the waiting time of passengers at the joint stop of several UPT routes, optimization of the route network, technological development of transport. Design decisions on support and passenger assessment are important to ensure the quality of service for items that require field observations directly at bus stops. However, the application of the results is limited, as much of this depends on the actions of controlled and uncontrolled factors, both internal and external, for the study. First of all, it is expedient to provide passengers with information about the bus schedule on certain routes, agree on bus schedules for passengers who change different routes and routes in their joint areas,

and, accordingly, the network bus. depending on the front, the flow of passengers and the use of buses will vary the capacity of passengers. Second, the area of the route under consideration must be clearly indicated, as well as the personal preferences of the passengers on the next transport and the general uncertainty of the location of the bus. The presence of an indirect or combined effect of these factors gives reason to believe in the derived expressions that the waiting time at the bus stop should always be indicated as the upper limit for the average passenger size.

Discussions: Checked bus stops along the route have been identified There must be at least one joint stop on the next route of selected buses for all routes to pass through it. However, not all stops are essential for any route. This choice allows you to assume that there are alternatives for some passengers when choosing a route. During the observation, the bus was taken to a stop and all routes were recorded. At the stations, buses were monitored for how long they would stop, pick up and drop off passengers.

Conclusion. Today, as we improve our passenger transportation system, we have many important benefits. In particular, first of all, we will achieve traffic safety. Electronic boards are constantly installed at our stations, and passengers are constantly informed about how long the route is waiting for passengers. In addition, there will be a reduction in vehicle noise on the territory of Uzbekistan. Today, the impact of car signals on the quiet and free movement of passengers is also being determined. So, I think it is necessary and necessary for us to contribute to the development of our country without being indifferent to the changes in the passenger transport system.

References:

[1] Petrenko Oleksandr Mikolayovich, "The impact of social factors on public transport passenger regulation to improve the state" UDC: 351.81 DOI: [https://doi.org/10.32689/2617-2224-2019-5\(20\)-164-174](https://doi.org/10.32689/2617-2224-2019-5(20)-164-174).

[2] Novikova A. M., Yashchenko T. M., Kovalchuk N. M., Leonov M. A. (2018). Finansuvannia hromadskykh posluh z perevezennia pasazhyriv - rivniannia na yevropeyskyi riven yakosti [Financing public services on passenger transportation - the equation to the European level of quality]. Avtoshliakhovyk Ukrainy - Roadster of Ukraine, 2, 21–27 [in Ukrainian].

[3] Ceder, A. Public Transit Planning and Operation: Theory, Modeling And Practice [Text] / A. Ceder. - Elsevier: Butterworth-Heinemann, 2007. - 626 p.

[4] Litman, T. Evaluating Public Transit Benefits and Costs [Text] / T. Litman. - Victoria Transport Policy Institute, 2015. - 141 p.

ФИО автора: Imomova Ruxsora Axmedovna

Buxoro davlat univetsiteti magistranti

Название публикации: «RAUF PARFI SHE'RIYATIDA OKSIMARON BADIY SAN'ATI VA RANGLAR TASVIRINING QO'LLANISHI. "ADASHGAN RUH" DOSTONINING POETIK TALQINI»

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Rauf Parfi ijodida g`arb adabiyoti an'analariga mos bo`lgan oksimaron she'riy san'atining qo`llanishi va ijodkor ijodida ranglar poetikasi haqida ma'lumot olishingiz mumkin. Rauf Parfining "Adashgan ruh" dostoning poetik talqinida ramziy oobrazlarga yuklangan murakkab ma'nolar ochib berilgan.

kalit so`zlar: oksimaron, poetika, "Adashgan ruh", ranglar poetikasi, Turkiston, doston

Rauf Parfi she'riyatiga chuqur ruhiy holat tasvirlarini singdirar ekan, go`zal badiiy tasvir vositalari orqali satrlarga yanada jilo bag`ishlaydi. Rauf Parfi va jahon adabiyotining juda yaqin ekanligini yuqoridagi fikrlarimiz orqali aytib o`tdik. Shoir nafaqat yangi she'riy janrlarni, balki yangi badiiy tasvir vositalarini, badiiy san'at turlarini ham o`zbek she'riyatida akslantira olgan. Go`zal tashbeh-u metaforalar, ko`chimlarsiz shoir ijodini tasavvur qilish qiyin. Ammo yana bir tasvir vositasi borki, usiz ham shoir she'riyatining asl mazmunlari ochilmay qoladi. Bu G`arb adabiyotida keng qo`llaniladigan badiiy ko`chim turlaridan biri oksimarondir. Shoirning sonet janri orqali Shekspirning ijod ana'analarini davom ettirganini bilib oldik. Shekspir asarlarini tarjima qilish mobaynida shoirga juda katta mahorat o`tganligini mana shu ko`chim turi ham isbotlaydi.

Oksimaron (grek. Oxumaron – zakiy nodon so`zidan olingan) badiiy ko`chim turlaridan biri bo`lib, tarkibidagi qarama-qarshi ma'noli tushunchalar yangi bir

kutilmagan ma'noni keltirib chiqaradi. Oksimorondagi mana shu xususiyat kuchli obrazlilik kasb etadi. Masalan:

*Uyg'on, ey malagim, tur o'ringdan tur,
Otashin muzlarda isinaylik yur.
Yong'inli daryoda quloch otaylik,
Bu yerdan ketaylik, faqat ketayli[2,214-b].*

Sevgi har qanday muzni ham otashga aylantiradi. Qalbida muhabbati bor bo'lgan inson uchun esa har qanday muz otashin kabidir. Daryo obrazi xalq og'zaki ijodidan ma'lumki, o'zbek she'riyatida muhabbat, nikoh ma'nolarini beradi. Unda suzmoq esa muhabbatga g'arq bo'lgan qalblarni anglatadi.

*His va xayol kechasi
Xaroratli bir sovuq,
Gulxan yoqaman vas en,
Obbo, tamaki ham yo`q,
Meni asta quchasan[3,58].*

Yuqoridagi she'rda his va xayolga boy bo'lgan kecha qanchalar sovuq bo'lmasin, muhabbat bergan tarovatdan harorat oladi.

*Yomg'ir qorga aylanar,
Ko'zingda kular alam.*

Ushbu misralarda ham alam so'ziga teskari ma'noli so'z kulmoq qo'llanilgan.

Oksimaron san'atida qarama qarshi qo'yilayotgan so'zlar aynan antonimlar bo'lishi shart emas. Masan, quyidagi misralarda "shodlik" va "qo'li bog'langan" so'zlari teskari ma'noda kelgan:

*Sen rang tanlamaysan, shodlik.
Sen bilan qiyoslash mumkin bo'lgan narsa
Faqat shodlikdir.
Qo'llari bog'langan.*

Yoki:

*Shodlik, seni o'ylab g'amga botaman,
Shodlik, seni men bashariyat*

ga ulashmoq,

Sochmoq istayman[3,101].

Rauf Parfi she'r misralarini sindirib bir qatorni ikki yoki uch qatorda beradi. "shodlikni o`ylab g'amga botmoq" mumkinmi? Uni o`ylaganda quvonish kerakmasmi? Lirik qahramonning ruhiyati shunday ahvoldaki, shodlik kunlarini kuta-kuta g'amga berilgan. Xuddi shu "shodlik-g'am" ma'nolariga yaqin bo`lgan oksimarondan shoir quyidagi misralarda ham o`ziga xos tarzda foydalanadi:

Tomirimda g'imirlar-ku qon,

Hayqirurman, so`rarman shafqat.

Kerak emas menga hech qachon,

Shodliklarga o`ralgan hasrat[3, 109].

Barcha misralardan ko`rinib turibdiki, oksimaronning shartlaridan yana biri teskari ma'nodagi so'zlar bir-biriga ulangan holda bitta misrada, bir butun so'z birikmasi holida kelishi kerak.

Bilurman... yo`limda g'ijirlar toshlar,

Zafaron kuz yanglig` hayotim taqir.

Shaharning g`avg`oli tinchini tashlab,

Uzoq vaqt yoningga bormadim axir[3,117].

"Onamga xat" she'ridan olingan bu parchada "g`avg`oli tinchlik" deganda shoirning shahar haqidagi xulosalari aks ettiriladi. Shahar doimo gavjum, ish qizigan bo`lsa-da negadir tinch, deydilar. Chunki barcha o`zining ishi bilan mashg`ul. Birovning birovga ishi yo`q, g'iybat yo`q, janjallarni esa uy ichida to`rtta devor, ko`chalarda esa sariq xazonlar tomosha qiladi xolos. Bu garchand bemehrlikday tuyulsa-da, har kim o`z aravasini o`zi tortadi.

O , ona – tabiat, o`ylayman seni,

Tinglayman, olamning shivirin takror.

Bandi maskaniga chorlaydi meni,

Kibor cho`qqilarda muzlagan bahor.

"Shoir" she'rida aks etgan "muzlagan bahor" shoirning ilhomi timsolidir. Kibor cho`qqilarning uchlarida bahor paytida erigan muzlardan oq qalpoqlar qolishi shoirga

ilhom beradi. Oksimaron san'atining har bir soʻz birikmasiga eʼtibor berasak, bularning bari ramziy maʼno tashishini ham bilib olamiz. Rauf Parfi sheʼriyatini oddiy holda tushunib boʻlmaydi. Shoir ruhiy dunyoni ochib berish uchun ham tabiat manzaralaridan foydalanadi. Sheʼriyatga hayotdagi barcha hodisalarni boʻysundira oladi. Oddiy insonlar osmondagi yulduzlarga tikilib, quyoshdan koʻzlari qamashganda, oyga ertaklarini aytganda, shoirga yulduzlar boqadi, quyoshning oʻzi shoir koʻzlaridan qamashib ketadi, oy shirin afsonalarini aytadi. Bunday mahorat, bunday oʻy-kechinmalarni tasvir etib berish uslubi oʻzbek sheʼriyatida bir qadam oldinga tashlash boʻlgan, desak adashmaymiz.

“Hech narsadan toʻlib ketgan dil”, “hech narsadan boshlangan gap”, “hech narsani soʻzlaydigan til” sohibi Rauf Parfi olislardan turib bu hayotga zaboni oʻrtanguncha qichqirib, jonini sukunat oʻtiga tashlab, aynan shu “hech narsalar”ni tan olmay “hech narsadan boshlangan jahon” aro yashadi. Shoirning hatto sukunat koʻchalarida ham haqiqat bolalari qiyqirib oʻynadi. Hech narsasiz yashayotgan bu dunyoning sheʼriyat aro topgan butun haqiqatini insonlarga baxshida etdi. U qullik va ozorlarga yengilmadi va oʻz xalqini ham shunga undadi. Shoir bir sheʼrida turkiylarga shunday murojaat qiladi:

Turkiylar, aytingiz bizda nima bor?

Bizda bor , mutelik, qullik, ozorlar,

Bizda bor qoʻllardan ketgan ixtiyor,

Manxus kimsalarning talon taroji.

Shoir yana mana shunday haqiqatni “Adashgan ruh “ dostonida ifodaladi. Doston turkiylar hayoti tasviriga bagʻishlangan. Unda oʻzbek xalqining 30-50 yillardagi hayoti tabiatdagi holatlarga hamohang tarzda ramziylikda ochib berilgan. Doston boshdan oyoq ramziylik asosida qurilgan. "Adashgan Ruh" xalq orasida yerlariga “gumonlar, yolgʻonlar” ekilgan Ona yurt tasviridan iborat.

“Adashgan ruh” – tillarida haqiqati qotib qolgan xalq uchun fido boʻlgan fidoyi insonlar.

Dostonning boshida Rauf Parfi tuygʻularni ranglar orqali ifoda etadi:

Quyoshning yogʻdusi qoradir,

Yulduzlar muzlardir to`kilgan.

Bu dunyo uzangan yaradir,

Daraxtlar egilgan, bukilgan.

Yulduzlar harorati muzlarga ko`chgan, xalqda harakat yo`q, bir paytlar mag`rur daraxtlar esa bugun egilgan holda turibdi. Quyoshning yog`dusi nega endi qora? Rauf Parfi shu misralarda rang orqali mazmunni voqelantiradi. Najmiddin Kubroning “latoyif” ya`ni, ranglar nazariyasiga ko`ra, rang bu ruhiy holatning o`zgarishini ifodalovchi vositadir. Har bir rang ma`lum bir holatni anglatadi.

Qora rang – zulmat ramzi, u ko`pgina xalqlarda baxtsizlik, g`am-anduh, motam ma`nolarini bildiradi. Navoiy ham “Sab`ai sayyor” asarida yetti qasrning yetti xil rangda ekanligini va shanba kuni qora rangli qasrda shoh Bahromning hikoyat tinglashi tasvirida rang orqali bosh qahramon ruhiyatidagi tushkunlikni ifodalagan. Rauf Parfi ham o`lkadagi yuz berayotgan holatga, erksizlikka ko`kdagi quyoshning g`am bilan boqishi uning qora nur sochishi orqali tasvirlaydi. O`lkadagi ahvol shunchalar achinarli ediki, hatto quyosh ham qora nur sochardi.

Dostonda poetik ta`sirchanlikni oshirish uchun takror usuliga keng o`rin berilgan. Birinchi to`rt misraning har bir qatori keyingi bandlarning birinchi misrasida takrorlanadi.

Yulduzlar muzlardir to`kilgan,

Toshlardek qotmishdir tumanlar.

Yerlarga tikanlar ekilgan,

Ekilgan yolg`onlar, gumonlar.

Asar 1990-yilda yozilgan. Voqealar esa, oldinroq, sobiq tuzum davrini aks ettiradi. Xalq shu davrda o`z fikrini ochiq aytolmagan. Zero, bunda tumanlar tarqalmaydi, fikrlar toshday qotgan, "yolg`onchi dehqonlar" esa bu tuproqqa “tikan” ekadilar, uning gullashi esa “gumon”dir. Dostonning uchinchi bandida shoir yozadi:

Bu daryo uzangan yaradir,

Hasratdan tinmagan hech qachon.

Jimirlab qaylarga boradir,

Boradir bezabon, bemakon.

Bu daryo – yaralangan xalq. Ayni paytda u bezabon va o`z yurtida bemakon. Yurtda o`zga hukmronlar bor. Rauf Parfi xalqning jabr-zulmga qarshi harakatsiz ekanligini, barchasini ichiga yutib yashashini “*uzangan yara*” tashbehi orqali ifodalaydi. Bu davrda xalqni uyg`oqlikka chorlab, Behbudiy shunday yozgan edi: "...Muxtoriyatni Turkiston bolalarining o`zi birlashib, g`ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo`lidan kelsa, bermaslar. Biz bo`shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo`liga sa`y qilmasak, albatta, hozirgi qog`oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo`q qilurlar ...".

Daraxtlar egilgan, bukilgan ,

Yer tishlab yotibdir yaproqlar.

Toshlarga mixlangan, chekilgan,

Lochinlar, kaptarlar, chorloqlar.

Yuqoridagi misralarda xalqning lochinlari ham „tosh“day qotganligini ramziy ifoda etilgan.

Nahotki eng so`nggi choradir,

Adashgan ruhni men ko`rgayman.

So`nggi chorani izlagan shoirning ko`zlari esa “adashgan ruh”ni ko`radi. Shoir o`z yurtdoshlarini sotganlarni quyidagi ramziy obrazlar orqali ifodalaydi:

Toshlardek qotmishdir tum

Bulutlar falakning ohlari.

“Bulut “ va “tosh” ramzlari salbiy ma`no ifoda etadi. Shoir tuzumning maqsadini ham aniq ifodalaydi:

Yerlarga tikanlar ekilgan,

Dov uchun, ov uchun, g`ov uchun.

Shoir turkiylarni ham yo`qolib ketgan xalqlarga qiyoslaydi. Turkiylarning bu ketishda o`zini-da yo`qotib qo`yishi esa, quyidagi bandda o`z aksini topgan.

Akkadlar, sumradlar, yunonlar,

Turkiylar nahotki kechmishdir .

Ketmishdir, yitmishdir jahonlar,

Yo`qlikning zahrini ichmishdir.

Doston quyidagi satrlar bilan tugaydi.

Ekilgan yolg`onlar, gumonlar,

Bergaydir chorasiz mevasin.

Bu tunlar, bu kunlar, bu tonglar,

*Men va sen, Men va sen, Men va sen.*¹¹²

Butun doston davomida shoir ramzlardan juda samarali foydalangan. Ramzlar orqali shoir yaqin o`tmish manzaralarini badiiy ifodalashga erishgan. Rauf Parfi qo`l urgan janrlar badiiy jihatdan juda go`zal tasvirlangan va keng mushohadaga chorlaydi. Ko`rib turganingiz doston janrida ham shoir muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan. O`tmish ajdodlari “Qodiriy, Cho`lpon, Fitrat, Usmon Nosirlarga munosib izdoshlik qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.O`rayeva, D. Quvvatova. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug`ati. –T.: “Turon zamin ziyo”, 2015.
2. N.Xotamov, B.Sarimsoqov. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`ati. –T.: “O`qituvchi”, 1979.-361 b
3. Rauf Parfi. Turkiston ruhi. Saylanma. –T.: “Sharq”, 2013.-319 b
4. Mahmudxo`ja Behbudiy. Tanlangan asarlar.–T.: “Ma`naviyat”, 1999.

¹¹² Doston “Turkiston ruhi” kitobidan olingan.

ФИО авторов: A.S. Yuvmitov¹, A.M. Kazadaev²

¹ – Institute of Mechanics and Seismic Stability of Structures AS RUz

² – Namangan Engineering Construction Institute

Название публикации: «INFLUENCE OF TECHNOLOGICAL ERRORS ON THE INTERNAL FORCES OF A FLAT FRAME OF THE MULTI-STOREY REINFORCED CONCRETE FRAME BUILDING»

Abstract: In this article was studied the influence of technological errors in the construction of the reinforced concrete columns on the internal forces of flat frame of the multi-storey frame buildings. As an example was studied four-storey flat frame of the frame building on the rigidly fixed foundation with a change in the boundary conditions of the interstorey connection point of the columns at the floor level. Plots of the internal forces are obtained by comparing flat calculation models using the Lira software package.

Key words: pinched support, mechanical properties, technological errors, calculation model, column, frame, boundary conditions, hinge joint, lateral force, mosaic of internal forces, mosaic of displacements.

ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ОШИБОК НА ВНУТРЕННИЕ УСИЛИЯ ПЛОСКОЙ РАМЫ МНОГОЭТАЖНОГО ЖЕЛЕЗОБЕТОННОГО КАРКАСНОГО ЗДАНИЯ

А.С. Ювмитов¹, А.М. Казадаев²

¹ – Институт механики и сейсмостойкости сооружений АН РУз

² – Наманганский инженерно-строительный институт

Аннотация: В данной статье исследован вопрос влияния технологических ошибок при возведении железобетонных колонн на внутренние усилия плоской рамы многоэтажного каркасного здания. В качестве примера исследована плоская рама четырехэтажного каркасного здания на жестко заделанном фундаменте с изменением граничных условий места междуэтажного соединения колонн на уровне этажа. Получены графики внутренних усилий с сопоставлением моделей расчета с помощью пакета программы Лира.

Ключевые слова: защемленная опора, механические свойства, технологические ошибки, расчетная модель, колонна, рама, граничные условия, шарнирное соединение, боковая сила, мозаика внутренних усилий, мозаика перемещений.

В последние годы в стране с увеличением населения растет спрос на жилье и общественные места. С учетом потребности населения производятся многомасштабные строительно-монтажные работы, в том числе многоэтажные дома, отвечающие на повышенные требования к архитектурному облику жилой застройки центральных городов [1]. Основная конструктивная система зданий включает себя каркасной, бескаркасной или комбинированной системы с повышенной этажности [2]. Разработаны качественные проекты

с учетом сейсмичность территории для обеспечения сейсмостойкости строящихся зданий и сооружений.

Технологический процесс строительства зданий несмотря на этажности всегда под контролем соответствующими органами по требованиям нормативных документов [3]. Несмотря на качественного проекта и строгого контроля, в строительстве встречаются часто повторяющиеся технологические ошибки, которые допускаются из-за не внимательности строителей. К таким ошибкам можно отнести холодный шов в стыке соединения междуэтажных колонн, отслоение бетона из-за недоброкачественного выполнения технологических процессов, сварные соединения и т.д. (рис.1-3).




Рис.1. Холодный шов между этажных колонн и отслоение бетона железобетонной монолитной стены



Рис.2. Холодный шов соединения междуэтажных колонн и отклонение колонн от проектной оси



Рис.3. Каркас колонн на уровне этажа и продольные арматуры каркаса здания

Это соединение в расчетной схеме многоэтажных каркасных зданий учитывается как жесткое соединения. Учитывая вышеуказанных, в данной статье исследована задача влияния холодного шва соединения междуэтажных колонн на внутренние усилия железобетонного многоэтажного каркаса с помощью пакета программы Лира Софт [4].

Для объекта была выбрана плоская рама четырехэтажного каркасного здания, состоящего из одного шага. При расчетах была учтена постоянная нагрузка и постоянные боковые единичные силы, приложенные на уровне перекрытия с цель определения жесткости рамы в поперечном направлении. Плоская расчетная схема рамы четырехэтажного каркасного здания с учетом и без учета шарнирного соединения, учитывающего холодного шва в стыке междуэтажных колонн приведены на рис.4.





Рис.4. Плоская расчетная схема рамы четырехэтажного каркасного здания

Геометрические характеристики поперечной рамы четырехэтажного каркасного здания следующие: размер поперечного сечения колонн составляет 0,4х0,4 м, а также для ригелей 0,4х0,5 м. В расчетах были получены механические свойства бетона в следующих значениях: модуль упругости бетона $E = 300000 \text{ кгс/см}^2$, коэффициент Пуассона составляет $\mu=0.2$, а также удельный вес бетона конструкций составляют $\gamma=2500 \text{ кгс/м}^3$ [5].

Результаты расчетов усилия плоской рамы каркасного здания от статических сил без учета и с учетом шарниров в стыках междуэтажных колонн приведены ниже в виде мозаики перемещений и усилий (рис.5-7).






Рис.6. Мозаика нормальной силы плоской рамы




Рис.7. Мозаика изгибающего момента вокруг оси Y

Из полученных численных результатов установлено, что при учете в расчетной схеме угловое шарнирное соединение в стыках соединения междуэтажных колонн от воздействия собственного веса и боковых единичных сил максимальное значение перемещения рамы составляло при жестком соединении 0,082 м, а при учете углового шарнирного соединения колонн 0,098 м, что приводит к увеличению перемещения этажей на 17%.

Значение нормальной силы одинаковые, а изгибающего момента в стыках соединения рамы при жестком соединении составляло 2,7 тс·м, при учете углового шарнирного соединения 5,41 тс·м, что приводит к увеличению значения изгибающего момента на 50 %.

В результате анализа исследований установлено, что допущение технологических ошибок в процессе строительно-монтажных работ существенно влияют на сейсмостойкость зданий и сооружений. Требуется соблюдать все указанные нормы, указанные в нормативных документах строительства для того, чтобы обеспечить надежность и сейсмостойкость зданий и сооружений.

ЛИТЕРАТУРА

1. https://novostroyka.shahar.uz/classifikator_novostroek_tashkenta
2. Шевцов К.К. Архитектура гражданских и промышленных зданий (том 3) Жилые здания. М.: Стройиздат, 1983г. -233 с.
3. КМК 2.01.03-2019. "Строительство в сейсмических районах". Изменение №3. Ташкент. Министерство строительства РУз, 2019. - 111 с.
4. Стрелец-Стрелецкий Е.Б., Боговис В.Е., Гензерский Ю.В., Гераймович Ю.Д., Марченко Д.В., Титок В.П. ЛИРА 9.4. Руководство пользователя. Основы. Учебное пособие. – Киев: Изд. «Факт», 2008. – 164 с.
5. КМК 2.03.01-96. "Бетонные и железобетонные конструкции". Ташкент. Государственный комитет Республики Узбекистан по архитектуре и строительству. 1997. - 143 с.

ФИО авторов: Хамракул Санакулов – Низомий номидаги ТДПУ «Бошланғич таълим педагогикаси ва психологияси» кафедраси доценти, п.ф.н.

Гўзал Эргашева - Низомий номидаги ТДПУ «Бошланғич таълим педагогикаси ва психологияси» кафедраси ўқитувчиси

Название публикации: «ТАЪЛИМ МЕНЕЖМЕНТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ПЕДАГОГИК ТАЛАБ ВА УСЛУБЛАРИ»

**ОСОБЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ И МЕТОДЫ
УПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЕМ
SPECIAL PEDAGOGICAL REQUIREMENTS AND METHODS OF
EDUCATIONAL MANAGEMENT**

Хамракул Санакулов - Ташкентский государственный
педагогический университет им. Низами

«Педагогика и психология начального образования»

Гўзал Эргашева Ташкентский Государственный
Педагогический Университет им. Низами.

«Педагогика и психология начального образования»

преподаватель кафедры

H. Sanakulov - Nizami Tashkent State Pedagogical University

"Pedagogy and Psychology of Primary Education"

Associate Professor, p.f.n.

G. Ergasheva - Tashkent State Pedagogical University
named after Nizami "Pedagogy and psychology of primary
education" teacher of the department

Аннотация: Бошқариш фақат ишлаб чиқаришгагина хос бўлган жараён эмас. Балки ижтимоий соҳалар, шунингдек, таълим тизимида ҳам бошқаришнинг тўғри ташкил этилиши жуда муҳим, ушбу мақолада таълим менежментининг ўзига хос педагогик талаб ва усуллари баёни этилган.

Таянч сўзлар: менежмент, таълим муассасалари, тизим, бошқаришнинг асосий масалалари, усул, услуб, метод, система, тартиб, қоида, қонунлар, устоз, шогирд.

Аннотация: Менеджмент (управление) процесс, относящийся не только к производству. Значительную роль он имеет и в социальных сферах, также в сфере образования. В данной статье представлены педагогические требования и методы свойственные к менеджменту.

Ключевые слова: менежмент, образовательные учреждения, система, основные задачи управления, способ, метод, система, порядок, правила, законы, учитель, ученик.

Annotation: Management is not just a process specific to production. Perhaps the proper organization of management in the social spheres, as well as in the education system, is very important, this article describes the specific pedagogical requirements and methods of education management.

Keywords: management, educational institutions, system, basic issues of management, method, system, order, rule, laws, teacher, student.

Таълим менежменти фақат ишлаб чиқаришгагина хос бўлган жараён эмас. Балки ижтимоий соҳалар, шунингдек, таълим тизимида ҳам бошқаришни тўғри ташкил этилиши жуда муҳим.

Ҳозирги пайтда ягона педагогик жараённи бошқаришга илмий ёндашиш ҳаракати кучайди. Бу эса интеллектуал салоҳияти юқори кадрларни шакллантириш учун ўта муҳим ҳисобланади. Аввало, таълим менежментининг ижтимоий моҳиятини англаб олайлик. Таълим менежменти - таълим тизими иштирокчилари бўлган раҳбарлар, мутахассислар ва ходимлар фаолиятларини мувофиқлаштириш, назорат қилиш ҳамда самарали бошқарувни таъминлашдан иборат. Таълим менежменти маълум бир объектга ташкилий, режали, тизимли таъсир кўрсатиш демакдир.

Бугунги кунда педагогика фанига таълим муассасаларини бошқариш бўйича янгидан-янги тушунчалар кириб келяпти, уларнинг моҳияти аввалгилардан ҳам теранроқдир. Таълим менежментининг педагогик

хусусиятлари амалга оширилаётган ислохотларимизнинг самарадорлиги бой тарихий меросимизнинг кенг ўрнатилиши, маданият, санъат, фан ва таълим ривожини билан узвий боғлиқдир. **Таълим менежменти** – бу илмий асосда ташкил этилган, **ўзига хос поғонавийликка** асосланган бошқарув.

Таълим муассасалари ичидаги бошқарувни тўғри ташкил этишда бошқарув **хос педагогик талаб ва услубларининг** роли бениҳоят каттадир.

Бошқаришнинг педагогик хусусиятлари амалга оширилаётган ислохотларимизнинг самарадорлиги бой тарихий меросимизнинг кенг ўрганилиши, маданият, санъат, фан ва таълим ривожини билан узвий боғлиқдир.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг таълим тизимини бошқариш бўйича қўйилган талаблар:

- таълим соҳасида ягона давлат сиёсатини рўёбга чиқариш;
- таълим муассасалари фаолиятини мувофиқлаштириш ва услуб масалаларида уларга раҳбарлик қилиш;
- мутахассисларнинг билим савияси ва касб тайёргарлигига бўлган талаблар бажарилишини таъминлаш;
- таълим муассасасининг педагог ходимларни тайёрлашни, уларнинг малакасини оширишни ташкил этиш;
- Қонун ҳужжатларига мувофиқ таклиф ва талаблар киритамиз.
- бу талабларни амалга ошириш учун бошқариш усуллари асосий рол ўйнайди.

Раҳбарлик вазифаси мезонлари

1. Маънавий-маърифий, сиёсий етуклик: - давлат ва таълим сиёсатини тушуниш ва талқин қилиш;

2. Раҳбарлик лавозимига зарур бўлган тажриба, билим, кўникма, малакага эга бўлиш;

3. «Таълим тизими ва ўқув муассасаси» ўқитувчилари, ходимлари, талабалари фаолияти олдиндан сеза билиши, шунга қараб чора-тадбирларни белгилаши;

4.Ахлоқли ва тарбияланганлиги обрў-эътибори – ростгўйлик, адолатлилик, камтарлик, камтаринлик, барча камчиликларга мурасасиз бўлиш;

5.Сўзи биланиши бирлиги – ишчанлик ва удадабуронлик;

6.Инсон психологиясини билиш – аниқ бир мақсадга йўналтирилганлик, ҳар томонлама ривожланган психологик муҳит ўрнатишга интилишга эриша олиш;

7.Таълим муассасининг барча раҳбарияти – педагогик ходимларнинг вазифаларини тўғри тақсимлай олиш уларнинг натижаларини ҳолисона баҳолаш;

8.Таълим муассасалари педагогик ходимлари ва талабалар билан самимий муносабатда бўлиш, мумкин қадар қулай шароит ярата олиши;

9.Ўз меҳнат фаолиятини тўғри ташкил эта олиш, ўқув тарбиявий жараёнини самарали бўлишга имконият ярата олиш;

10.Педагог – ўқитувчилар, ходимлари, талабаларнинг соғлом бўлишлари, ишчанлик ҳолатларини сақлаши, уларнинг кундалик эҳтиёжларини қондиришга бўлган шароитни яратиши, зарур моддий ҳамда маънавий ёрдам беришнинг имкониятларини танлай билиши.

Раҳбарлик тушунчасини қуйидагича ифодалаш мумкин:

Раҳбарлик – бу:	
Йўналтириш	Педагогик ва талабалар жамоасини миллий истиқлол мафкурасининг асосий ғоялари, тамойиллари асосида фаолият кўрсатишга йўналтириш.
Вазифа қўйиш	«Кадрлар таёрлаш миллий дастури», «Таълим тўғрисида»ги Қонун, шунингдек, шу каби расмий ҳужжатлар асосида педагог ва талабалар жамоаси олдида шахс ва жамоани тарбиялаш бўйича вазифа қўяди.
Ўрганиш	Педагогик жамоани таълим-тарбия жараёнини самарали ташкил этиш учун аниқ мақсад қўйиш ва керакли метод шакллари топишга ўрганиш.
Ёрдам бериш	Жамоада меҳнат фаолияти ва таълим-тарбия ишларини ташкил этиш ва фаоллаштиришга ёрдам беради.
Қўллаш	Педагогик ва талабалар жамоас, ўқитувчи ва талабалар ташаббусини қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш.
Маслаҳат бериш	Жамоага ўз имкониятларини тўлиқ ишлатишлари учун керакли амалий-услубий маслаҳатлар бериш.

Кузатиш	Катталар ва болалар жамоасининг савияси, ахлоқий ва маданий-маърифий ўсишини такомиллаштириб боришини кузатиш ва ўргатиш.
Тартибга солиш	Жамоанинг ишга бўлган ва ўзаро муносабатларини жамоа аъзоларининг меҳнат фаолиятларини ижобий салбий томонларини тартибга солиш.
Кўрсатма бериш	Жамоага меҳнат фаолиятларини ташкил этишларига керакли кўрсатма бериш
Назорат қилиш	Педагогик ходимлар ва талабалар фаолиятлари натижаларини мунтазам назорат

Бошқариш услублари

ШАКЛ	МАЗМУНИ
АВТОРИТАР УСЛУБ	
Қисқача иш фармойишлари; Пўписали тақиқлар; Қўл остидагилар билан совуқкон муомала; Мақтов ва танбеҳ субъектив; Раҳбарнинг ўрни – гуруҳдан ташқарида, ундан юқорида	Гуруҳ ишлари раҳбар томонидан олдин режалаштирилади;бул қилинади; Қарорлар ўзбошимчалик билан қабул қилинади; Раҳбарнинг сўзи – қатъий; Фақат бевосита мақсадлар қабул қилинади, истикбол номаълум.

ДЕМОКРАТИК УСЛУБ	
Қўлланмалар таклиф сифатида берилали; Ўртоқлик, муомала, ходимларга ҳурматли ва эътиборли муносабат; Фармойишлар ва тақиқлар мунозалалар асосида бўлади; Мақтов ва танбеҳлар – маслаҳат билан; Раҳбарнинг ўрни – гуруҳ ичида.	Тадбирлар якка эмас, гуруҳ билан режалаштирилади; Қарорлар коллегиял муҳокама қилинади; Таклифни бажарилишида ҳамма жавобгар (раҳбар ҳам, ходимлар ҳам)

ЛИБЕРАЛ УСЛУБ	
Мақтов ва танбеҳлар йўқ; Жамоа ишларида раҳбар умуман четлашган; Ҳеч қандай ҳамкорлик йўқ.	Ишлар гуруҳда ўз-ўзидан боради; Раҳбар топшириқлар бермайди; Кичик гуруҳлар лидерларнинг айрим манфаатлари ҳисобига иш қисман бажарилади.

Бошқарувда таълим муассасалари ҳужжатларини чуқур ўрганиш ва таҳлил қилиш масалаларига қаратилган.

Таълим муассасаларидаги: ўқув жадвали, таълим муассасалари ишларини ривожлантириш турлари, таълим-тарбияга тегишли ҳужжатлар, синфдан ва мактабдан ташқари ишларни ҳужжатларини таҳлил қилиб уларни тўғри йўлга қўйиш учун хизмат қилади.

Бошқарувнинг масъулиятли ишларидан бири таълим муассасалари ишларини режалаштиришдир. У ўз ёрдамчилари ва ходимларининг актив иштирокида мактаб ва таълим муассасаларининг иш режасини тузиб олади. Қайси муассасаси иш режасиз иш юритса, унда таълим-тарбия иши ҳам ҳар томонлама талабга жавоб бермайдиган бўлиб қолади.

Таълим муассасаларда бошқарувчи таълим-тарбия ҳақидаги қонуннинг бажарилишида, ўз ходимлари ва ўринбосарлари билан фаолият кўрсатиши мақсадга мувофиқдир.

Агар бошқарувчи умумий таълим иши билан астойдил шуғулланса, бу ишга бутун коллективини сафарбар қила олса, жамоатчиликнинг диққатини бу масалага торта олса, ота-оналар орасида педагогик ташвиқотларни кенг йўлга қўйилса, албатта катта натижаларга эриша олади.

Бошқарув муассасани режимга тўғри амал қилиниши ва муассасанинг бутун ҳаёти тўғри йўлга қўйилиши учун жавобгардир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш. Бугун маърифатга эътибор қаратиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимдир.Электрон ресурс.
2. Формирование интеллектуального, духовно-нравственного и физического потенциала обучающихся общеобразовательной школы Республики Узбекистан на современном этапе: Учебно-метод. пособие для учителей и воспитателей/ Пед. фанлари доктори, проф. Р.Х.Жўраевнинг умумий таҳрири остида. – Т., 2005. – 190 б.
4. Психология и педагогика. – М., 1998. – 311 б.

ФИО автора: Asqarova Manzura Baxtiyor qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

Название публикации: «SALOHIDDIN TOSHKANDIYNING "TEMURNOMA" ASARI LEKSIKASI XUSUSIDA»

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur shaxsi, "Temurnoma " asarining yaratilishi va uning til xususiyatlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: "Temurnoma", sistem-struktur tahlil, tadrij, portret, realizm, syujet, badiiylik, tarixiylik.

Mustaqilligimizni qo'lga kiritganimizdan so'ng tariximiz tiklandi, Temur va Temuriylar davri manbalari o'rganilmoqda, tadqiq etilmoqda. Jahon olimlari O'rta Osiyoda qudratli markazlashgan davlatni qaror toptirgan, birgina nomining o'zi jahonning ko'pgina hukmdorlarini tahlikaga solgan sohibqiron Amir Temurga qiziqish bilan qaraganlar. U haqida qanchadan-qancha rivoyatlar to'qilgan, asarlar bitilgan. Amir Temurning hayoti, siyosiy va jangovor faoliyati haqida hikoya qiluvchi kitoblar ko'plab yaratilgan[1,17] "Temurnoma" asari Amir Temur faoliyatini aks ettirgan muhim adabiyotligi bilan e'tiborga molikdir.«Temurnoma»"uch yo'nalishdagi asarlarning majmuasi sifatida maydonga kelgan. Kitobni, ya'ni «Temurnoma»" ni yaratishda eng avvalo tarixiy asarlardan ("Kitob-ul axbor", "Tarixi Tabariy", "Zafarnoma" singari), badiiy asarlardan ("Iskandarnoma") A. Xatibiy asarlari va diniy asarlardan foydalanilgan.Tarixiy asarlarni o'rganilganda ularning til xususiyatlarini o'rganish ham bugungi kun nazariy tilshunosligi va matnshunosligining dolzarb vazifalaridandir. XXI asr jahon va o'zbek tilshunosligida yangi soha va yo'nalishlar rivojlanmoqda. Ayniqsa tilni sistem-struktur jihatdan tadqiq etish muhim vazifa bo'lib qoldi. Olimlarimizning bir necha yirik tadqiqotlari mazkur yangi yo'nalishda olib borilmoqda. "Bu tadqiqotlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, lisoniy faktlarga avtonom holda yondashmay, har qaysi lisoniy hodisaning ostida yashirinib yotgan mohiyatning ochilishiga diqqat qilinadi" [2,13-b]. Bunday tadqiqotlar natijasida tilning sistema sifatidagi manzarasi yanada oydinlashadi. Har bir leksik birlik mohiyatan talqin qilinadi, til tizimidagi pozitsiyalari belgilanadi. Lisoniy birliklarni tizimga

solgan holda o'rganish, paradigmalarga ajratish keyinchalik fanda maydon nazariyasini vujudga keltirdi. Salohiddin Toshkandiyning eng katta yutug'i shundaki, Amir Temur obrazi muvaffaqiyatli chiqqan. U qahramonining portretini chizmaydi, e'tibor berib o'qilsa, hech qaysi qahramonning tashqi ko'rinishi alohida tasvirlanmagan. Bu ham adibning o'ziga xos uslubi hisoblanadi. Ammo, qahramonlarning qiyofasi ularning nutqlari orqali shunday namoyon bo'ladiki, beixtiyor o'sha odamlar yonginangizda turgandek, siz ularni hayotda ko'rgandek tuyuladi. Sharq adabiyotidagi tarixiy-voqeaviy obrazlarning xarakter -xususiyatlari, nutq uslublari ham adib ijodida o'z o'rnini topganligini ko'ramiz.

Salohiddin Toshkandiy ijodi xalqchil ijod. Adib ijodidagi realizm, badiiylik, an'anaviylik, milliylik va umuminsoniylik kabi muhim g'oyaviy-estetik o'lchovlar zahirini xalqchilliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning asarlaridagi lirikalar, ma'nodor misralar, tanlangan so'zlarning jarangdorligi o'quvchini o'ziga rom etib kelmoqda. Har bir voqeada bir muncha afsona yoxud miflarning mavjudligi, qaytariq, o'git ham, sharqona andishayu, teran falsafiylik ham, hatto o'tkir tanqid ham beozor, ta'sirchan ifodalanadi. Adib hikoyat, maqol va hikmatlardan, afsona va rivoyatlardan muvaffaqiyatli foydalanadi. Boblar qahramonlari ham hayotiy. Masalan, uning Sohibqironning tug'ilmoqligi kabi voqealarning qahramonlari kishini befarq qoldirmaydi. Asar qahramonlari – yuksaklik, olijanoblik, axloqiylikning butun ulug'vorligini va hamma qadr-qimmatini tushunadigan, ularga nisbatan ma'naviyat va ma'rifat bilan ruhlangan kishilardir. Ular o'zlarida ko'p olijanoblik, ko'p aql, sof insoniy fazilatlar his etadilar, shuning uchun ham "Temurnoma" insonlarni ibrat yo'liga boshlaydi. Shuni aytish joizki, tarixiy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo'lishiga qaramay, unga munosabat turli millatlarda o'z ma'naviy-axloqiy o'lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Chunonchi, G'arb ahli bundan necha minglab yillar oldin ham tarixiy doston va asarlarga katta e'tibor bilan qaragan. Shu bois, bu o'lkalarda antik zamonlardayoq tarixiy-voqeaviy adabiyot rivojlangan. Buni xalq og'zaki ijodida Boburning ayrim asarlari, Mirzo Muhammad Haydar, Abdulg'ofi Bahodirxon bitiklari misolida ko'rish mumkin.

Xuddi bitta odam kabi butun millat ham, bir qancha uluslar yig'indisi bo'lmish jamiyat

ham bir ma'naviy-axloqiy holatdan boshqasiga og'riqsiz o'tib ketolmaydi. Shunday davrda yashab ijod qilish chekiga tushgan ijodkor shaxs o'z atrofidagi odamlar va ularni yuzaga keltirgan sharoitga murosasizlik bilan teran nazar tashlaganidan hayotdagi nuqsonlarni oshiribroq tasvirlashga moyil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Салоҳиддин Тошкандий, Темурнома. – Тошкент: “Чўлпон”1990.
- 2.Искандарова Ш. Лексикани мазмуний майдон асосида ўрганиш муаммолари. Тошкент: “фан”,1998.
- 3.Лингвистический энциклопедический словарь М.,1990,стр: 380
- 4.Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1996.

ФИО автора: Olg'irova Nafisa Bahodirovna

(O'zDJTU Roman-German fakulteti Fransuz tili va amaliyoti kafedrası, o'qituvchisi)

Название публикации: «XORIJIY TILNI O'RGANISHDAGI MUAMMOLAR»

ANNOTATSIYA: Bir tildan boshqasiga tarjima qilinayotganda ular o'rtasidagi jiddiy leksik grammatik farqlar bilan birgalikda, o'sha tillarda so'zlashuvchi xalqlar yashayotgan tabiiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar hamda kishilar ongida shu omillar taqozosi bilan tug'ilgan tasavvur, tushuncha, e'tiqodlar o'rtasida katta tafovutlar borligini inobatga olgan xolda tarjimaga yondashish talab etiladi.

KALIT SO'ZLAR: Grammatik, til, leksikologiya, xorijiy tiller, lug'at, fikr.

Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir". Tilning lug'at tarkibining rivoji ma'lum qonuniyatlarga asoslanadi. Lug'at tarkibida muayyan tarixiy davrlar o'tishi bilan o'ziga xos ma'lum o'zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o'zgarishlar ma'lum ichki qonuniyat, tashqi kuchlar ta'sirida, obyektiv ravishda, ma'lum mezonlar doirasida yuz beradi. Tilga boshqa tillardan so'z qabul qilinishi ham shunday. Til o'zida vositalar, imkoniyatlar bo'lgan holda boshqa, o'zga tildan so'z olmaydi. Qabul qilinuvchi so'z ma'lum, biror yangi tushuncha anglatsa, yangi informatsiya tashisa yoki u yoki bu semantik yukka ega bo'lsagina tilga kirishi mumkin. Til ijtimoiy hodisa va u doimo rivojlanishda bo'ladi. Uning rivojlanishi ikki omilga bog'liq: Ichki va tashqi omilga. Tashqi omilga o'zlashmalar kiradi. O'zbek tili leksikologiyasida o'zlashmaga quyidagicha ta'rif berilgan: "Bir tildan ikkinchi bir tilga til elementlarining qabul qilinishi, o'tishi o'zlashtirish deb yuritiladi. O'zlashtirish tufayli bir tildan ikkinchisiga o'tgan til elementlari o'zlashmalar deb yuritiladi.

Leksik ma'no tilshunoslikning leksikologiya sohasida o'rganiladi. Leksikologiya grekcha (leksikos)"lug'at" (so'z)ga, oid (logos) "ta'limot", "fikr" kabi tushunchalarni

anglatadi. Leksikologiya tilshunoslikning lug'at tarkibini tekshiradigan bo'limidir. Nemis tili leksikologiyasi esa nemis tili lug'at boyligini o'rganadi. Demak, tildagi so'zlar yig'indisi leksika va uni o'rganuvchi ta'limot esa leksikologiya deb yuritiladi. Turg'un iboralar ham o'z xususiyatiga ko'ra leksikologiyada tekshiriladi. Leksikologiya jamiyat taraqqiyoti bilan lug'at boyligi o'rtasidagi dialektik bog'liqlik, til leksik sistemasining qurilishi va ushbu sistema elementlarining bir-biri bilan ko'p qirrali munosabatlari xamda ularning ma'no turlarini o'rganadi. XIX asr oxirlari va XX asr boshlarida nemis tili lug'at boyligini o'rganishga qator ilmiy ishlar bag'ishlandi. Ulardan biri G.Xirtning —Etymologie der neuhochdeutschen Sprache asari bo'lib, unda nemis tili lug'at boyligining keng etimologik analizi va tarixiy boyish yo'llari tadqiq qilingan.

Grammatika tilshunoslik fanning nazariy bo'limlaridan biri bo'lib, gapda so'zlaning o'zgarishi va birikishi haqidagi qoidalarni o'rgatadi. Grammatika atamasining ikki ma'nosi mavjud. Birinchidan, grammatika tilning muayyan tarkibiy qismi, grammatik qurilishini ifodalasa, ikkinchidan shu grammatik qurilishga xos qoidalarni umumlashtirib, uni ilmiy asosda o'rganuvchi fanni bildiradi. Tilning grammatik qurilishi grammatikaning tekshirish obyektidir. Ma'lumki, har qanday tilning o'ziga xos grammatik qurilishi mavjud bo'ladi. Tilning grammatik qurilishi muayyan tilni boshqa tillardan farqlovchi o'ziga xos belgilardan biridir. Shu boisdan grammatika tilning eng yuqori, oliy shaklidir. Binobarin grammatikasiz fikr ifodalab bo'lmaydi. Tilning grammatik qurilishi o'z o'zidan vujudga kelmaydi. U nutq jarayonida tilning fonetik va lug'aviy tomonlari bilan bog'liq holda borliqdagi narsa va hodisalarni umumlashtirish asosida vujudga keladi. Biroq grammatika tilning boshqa sohalariga, chunonchi, lug'at tarkibiga ko'ra ham keng qamrovlidir. Chunki grammatikada faqat so'zlar emas, balki ular orasidagi munosabatlar ham ifodasini topadi, ya'ni tildagi har bir so'z lug'aviy ma'no ifodalaydi. Biroq bu ma'nolarning o'zi bilan fikr ifodalanmaydi. Ko'rinadiki, so'zlar nutqda grammatik jihatdan shakllangan bo'lsa, o'zaro bir-biri bilan bog'lansagina fikr ifodalash uchun xizmat qiladi. Shunday ekan har qanday so'z birikmalari va nutqning asosida so'z yotadi. Shu jihatdan tilning grammatik qurilishi lug'at tarkibi bilan chambarchas

bog'langandir. Grammatika tilning eng oliy ko'rinishi sifatida yakka birliklar asosida emas umumlashmalar asosida vujudga keladi. Masalan, kitob, daraxt, bola, talaba, gul so'zlari turli predmetlarning nomini bildiruvchi so'zlardir. Biroq ular grammatikada bir grammatik kategoriya - ot turkumidir. Bu holat grammatik umumlashmadir. Shu asosida grammatika tildagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan hodisalarni o'rganish asosida ularni muayyan tizimda birlashtiradi.

Yirik davlat va siyosat arbobi, shoir va olim, nosir va dramaturg, ma'rifatparvar Fitrat 1886-yilda Buxoroda ziyoli oilasida dunyoga keldi. Dastlab eski maktabda o'qidi, keyin Mirarab madrasasida tahsilni davom ettirdi. Asrimiz boshlarida vujudga kelgan "Tarbiyayi atfol" jamiyati ko'magida 1909-1913-yillarda Istambulda tahsil oldi. Bu yerda qizg'in ijod qildi. Shuning samarasi o'laroq, 1911-yili "Sayha" (Chorlov) nomli she'riy to'plamini chop ettiradi. Turkiyadan qaytgach, Buxoroda o'qituvchilik qiladi. "Yosh buxoroliklar" harakatida faol ishtirok etadi, uning bosh mafkurachisi, g'oyaviy yo'lboshchilaridan biriga aylanadi. 1917-yil apreldan 1918-yil martigacha Samarqandda chiqib turgan "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qiladi. 1918-yili Fitrat Toshkentga keladi. bu yerda asosan ilmiy, ijodiy, ma'rifiy ishlar bilan ko'proq band bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, o'zbek tili ko'p shevaliligidan yangi o'zbek adabiy tili qanday bo'lishi, qaysi shevalarga tayanmog'i lozim degan muammo bu masalalardan edi. Fitrat mazkur muhim masala bo'yicha fikr yuritib shahar shevalariga arab, fors tillari ta'siri kuchli ekani, shuning uchun bu shevalarga emas, balki qishloq shevalariga tayanish lozimligini bayon qiladi: "Bizning shaharlarlarimiz ko'plab yillardan beri arab, forsiy adabiyotining hukmi ostida yashaydi. Shuning uchun bizda shahar tili buzulg'ondir. Tilimizning sof shaklini daladagi el-aymoqlardan ko'ra olamiz". Shuning uchun el-aymoqlar orasida ularning jon og'izi bo'lib turg'on dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashula-qo'shiqlarni xalq og'zidan qanday talaffuz qilinsa shundayligicha yozib olish, ularni sinchiklab o'rganish va shu asosda ma'lum ilmiy xulosaga kelish lozimligini ko'rsatadi. Fitrat yuqoridagi fikrlari asosida singormonizmli shevalar o'zbek adabiy tilining tayanch shevalari bo'lishi kerak, degan xulosaga keladi. O'zbek tilining fonetik tizimi, morfologik Ikkinchidan, grammatikadan tashqarida so'zlar til uchun oddiy material,

ular grammatik munosabatlar asosida birikadi. Demak, grammatika tildagi lug'aviy materiallarni ma'lum maqsadlarga ko'ra ishlatish vazifasini ham bajaradi. Til grammatik qurilishining muhim xususiyatlaridan biri uning takomillashib, o'zgarib borishidir. Bunday o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotidagi obyektiv qonunlar asosida vujudga keladi. Ammo tilning grammatik qurilishi til uchun umumiy bo'lgan normalarga, qoidalarga bo'ysunadi. Masalan, adabiy tilda ega gapning birinchi qismida kelishi yoki aniqllovchi aniqlanmishdan oldin kelishi: keng dala, moviy ko'l, ulkan tog'; qaratqich bilan qaratmishning shaxs va sonda moslashib kelishi: mening do'stim, uying eshigi, kitobning varag'i - til normalari asosidagi hodisalardir. Bu normalar grammatikada ham grammatik qurilishga xos qonun qoidalar asosida o'z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tugrisida». Uzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 2012 yil 10 dekabr. —Xalk suzi, 2012 yil 12 dekabr
2. M.E.Umarxo'jaev. Nemis tili leksikologiyasi va frazeologiyasi. Andijon, 2010
3. Umarxujaev M.E. Xozirgi zamon tarjimashunosligining ba'zi masalalari. UMU, ilmiy-amaliy konferensiya, 2008
4. Umarxujaev M.E. Tarjima va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari. Xozirgi zamon tarjimashunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, ADTPI, 2008
- 5 Xozirgi zamon tarjimashunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, ADTPI, 2008

ФИО автора: Рахматов Азизбек Бекзод ўғли

Ўзбекистон Республикаси

Давлат божхона қўмитасининг

Божхона институти 4-курс курсанти

Название публикации: «ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР БОЖХОНА
ЛАБОРАТОРИЯЛАРИДА ҚЎЛЛАНИЛАЁТГАН ИННОВАЦИОН
ТЕХНОГИЯЛАР»

Калит сўзлар: экспертиза, божхона экспертизаси, иктисодий хавфсизлик, халқаро иктисодий муносабатлар, Ультрамаг Универсаль детектор 5СГЛ, банкнотлар, қимматли қоғозлар, визуал ҳимоя белгилари, идентификация, сув белгилари, PRESIDIUM, ДеМон-Ю, Антиквариат, коллекцион экспонантлар.

Бугунги кунда жаҳон сиёсатида ўз ўрнига эга, халқаро иқтисодий муносабатларга киришаётган ҳар бир ривожланган ва ривожланаётган давлатнинг ўз тараққиёт йўли мавжуд. Бу йўл революцион ёки эволюцион кўринишда амалга оширилади. Ушбу йўллар бир-бири билан иқтисодий ривожланиш, дунё ҳамжамиятига кириб боришда тубдан фарқ қилсада, баъзи жиҳатлари умумий ҳисобланади. Умумийликни ўзида акс эттирувчи соҳалардан бири экспертиза соҳасидир. Мустақилликнинг дастдабки йилларидан Ўзбекистон Республикаси ўз ривожланиш йўлида “Тараққиётнинг ўзбек модели” тамойилларига асосланиб келмоқда. Экспертиза соҳасидаги фаолият бу тамойилларнинг ҳеч биридан четда колмаган. Ушбу соҳасида амалга оширилаётган ишлар нафақат Ўзбекистон Республикасининг давлат ва иқтисодий хавфсизлигини таъминлашда балки, инсон ҳаёти ва саломатлигини саклаш, атроф-табiiй муҳитни муҳофаза қилиш, Республика халқларининг тарихий, бадий, археологик бойликлари, истеъмолчиларнинг манфаатларини ҳимоя қилишда кўзга ташланади. Хорижий мамлакатларнинг божхона экспертизаси тажрибасини ўрганиш Ўзбекистон миллий божхона

экспертизасини ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга. Қуйида Германия давлатининг божхона лабораториялари фаолияти ва уларда қўлланилаётган инновацион технологиялар билан танишамиз.

Германия божхона экспертиза муассасалари

Божхона эксперт-техник таълим муассасасининг вазифалари (ZPLA).

4 та ишчи гуруҳида - турли кимёвий-аналитик жиҳозлар билан қарийб барча турдаги товарлар тадқиқ қилинади.

1-Ишчи гуруҳининг вазифаси:

- Текстиль ва текстиль маҳсулотларининг тадқиқоти ва экспертизаси;
- Кийим-кечак экспертизаси ва классификацияси;
- Махсус рухсатнома талаб қиладиган маҳсулотларнинг тадқиқоти;

2-Ишчи гуруҳининг вазифаси:

- Биринчи навли қоғоз ва қоғоз маҳсулотларининг экспертизаси;



Ультрамаг Универсаль детектор 5СГЛ

Қурилма банкнотлар, қимматли қоғозлар ва визуал ҳимоя белгилари бўйича ҳужжатларнинг ҳақиқийлигини комплекс ва визуал текшириш учун мўлжалланган универсал портатив қурилма.

Ультрабинафша нурлари банкнотлар, қимматли қоғозлар, ҳужжатлар, идентификация ва акциз маркаларнинг махсус белгиларини:

- чоп этиш усуллари ва нуқсонларини аниқлайди;
- қоғоз ёзувларида умумий люминесанс фонининг йўқлиги;
- махсус люминесцент бўёқлар билан ишланган пул белгиларининг (маркалари, толалари, чизилган қисмлари) люминесанси;
- сув белгиларининг кўринмаслиги.

Қурилма оқ нур ёрдамида банкнотлар, қимматли қоғозлар ва визуал химоя белгилари бўйича ҳужжатларнинг:

- чоп этиш усуллари ва нуқсонларини аниқлайди;
- чоп этилган кичик белгиларнинг нуқсонларини аниқлайди;
- тозалаш имкони бор ёки юқлигини аниқлайди.

Қурилма қуйидаги химоя белгиларини аниқлашни таъминлайди:

- сув белгилари;
- химоя иплари ва чизиклари;
- микроперфорациялар;
- бирлаштирилган кодли расмлар, теглар ва купюраларнинг олди ва орқа томонидаги фарқларни.

Қурилма ёрдамида идентификациялашнинг қуйидаги турлари амалга оширилиши мумкин:

- тозалаш мумкинлиги;
- чоп этиш усуллари;
- химоя элементларининг мавжудлиги;
- яширин нурли химоя элементларнинг мавжудлиги.

3-Ишчи гуруҳининг вазифаси:


Қимматбаҳо металллар ва тошлардан ясалган товарларнинг экспертизаси, уларнинг таҳлили эса (яъни кимёвий-таҳлили) илмий бўлим орқали амалга оширилади;



PRESIDIUM

Қимматбаҳо тошларни аниқлаш ускунаси ёрдамида олмос ва бриллиантнинг фарқини ва бошқа турдаги қимматбаҳо рангли тошларни қисқа фурсатда аниқлаш мумкин. Ускуна олмос ва бриллиантнинг фарқини иссиқлик ўтказувчанлиги тамойилига кўра аниқлашга мослаштирилган. Олмос иссиқликни бошқа моддаларга қараганда тез ўтказиши унинг бошқа нарсалар билан имитация қилишга юл қўймайди. Қурилма фойдаланувчиларга умумий рангли тошларни бир-биридан

ажратишда ёрдам бериш учун " ColorStoneEstimator " дисплеи билан жиҳозланган. Қурилма экспертга рангли тошларни бири биридан фарқлашни осонлаштириш учун "ColorStoneEstimator" экрани билан жиҳозланган.



ДеМон-Ю

Ушбу электрохимический детектор тангалар, қимматбаҳо металллар ва қотишмалардан тайёрланган маҳсулотларни таҳлил қилиш учун портатив электрон қурилма ҳисобланади. Қурилма қимматбаҳо металллар сиртининг электрохимический хусусиятлари орқали тезкор экспертиза ўтказиш имкониятини беради.

Прибор олотин, палладий, кумуш ва платина қотишмалари учун дастурланган. Шунингдек қурилма олотин ва ундан тайёрланган тангаларни ҳақиқийси билан сохтасини тезкор ажратиш учун қўлланилади.

4-Ишчи гуруҳининг вазифаси:

- Синтетик материаллардан тайёрланган маҳсулотлар, ёғоч ва пўкак маҳсулотлари тадқиқоти;
- Пойафзал, экран, шиша ва кулолчилик товарларининг тадқиқоти;
- Электрон переключателлар элементларининг тадқиқоти ва уларнинг чиқарилишига рухсат;
- Оптик жиҳозлар, ўлчовчи асбоблар, мебель, автомобиль ва бошқа товарларнинг тадқиқоти;
- Антиквариат ва коллекцион экспонантлар тадқиқоти;

Эксперт вазифалари билан бир қаторда, ушбу бўлимнинг барча экспертлари божхоначиларнинг ўқиш ва малакасини ошириш билан ҳам шуғулланиладилар.

Бунинг учун қуйидаги йўналишларда махсус курслар олиб борилади:

- Йўловчиларнинг божхона расмийлаштирилишидаги ҳаракатлари;

- Божхоначиларнинг чет тиллари бўйича тайёргарликлари;
- Мижозлар билан ишлаш маҳорати;
- Акциз солиқнинг қўлланиши ва назоратига ўргатиш;

Бир йилда ўртача 1100 га яқин намуналар тадқиқ қилинади ва экспертизадан ўтказилади, 30 та таълим тадбирлари - кадрлар малакасини ошириш ишлари олиб борилади, жумладан 600 га яқин божхоначилар ва бўлғуси божхона мутахассислари ўқитилади.



Горелки спиртовые.

Қурилма 900°С гача иситиш орқали очик ҳолатда материаллар ва маҳсулотларни иситиш учун қўлланилади. Кимёвий лабораторияларда, микробиологик, ситология, биотехник лабораторияларда, тиббиёт муассасаларида ва очик оловдан кичик иссиқлик қувватидан фойдаланишни талаб қиладиган жойларда қўлланилади.

қурилма материалларни иситиш ва эритиш, асбобларни очик оловда стерилизация қилиш, тиббиётда фламблаш, кичик лаборатория приборлар (найчалар, шишалар ва бошқалар) ни иситиш ва бошқа шунга ўхшаш термал. жараёнлар учун ишлатилади.

Юқоридагиларни ўрганиш билан бир қаторда мамлакатидан ва сўнги йилларда нанотехнологиялар асосида ишлаб чиқарилаётган янги авлод товарлари уларни божхона мақсадларида идентификациялаш ва таснифлашда муаммоли ҳолатлар келиб чиқишига сабаб бўлмоқда.

Бу божхона органлари фаолиятида самарадорликни ошириш, ҳар қандай вазиятга тайёр туришлари учун товарларни идентификациялаш жараёнларини мунтазам равишда такомиллаштиришни талаб этади.

Бу борада яхши ишлаб чиқилган идентификация механизми товарларни идентификация қилишда қабул қилинадиган дастлабки қарор сифатини оширади, бу борада ишлаб чиқилган қўлланмалар декларацияловчи шахсларни мустақил равишда тўғри ТИФ ТН кодини белгилашига ёрдам беради. Натижада божхона экспертизаси миқдор жиҳатдан камайиб сифат жиҳатдан қўпаяди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- Қ.М.Каримқулов, О.А.Хасанов, Б.Ё.Абдуғаниев, И.Р.Асқаров. Божхона экспертизаси, Товарларни ҳалқаро сертификатлаш: Дарслик. - Т: “Ёшлар матбуоти ООО” нашриёти, 2013 й. -296 бет.
- Пулатова Л.Т. Таможенная экспертиза. Учебник. Т.: ВВТИ, 2014 г. – 373 стр.
- https://ec.europa.eu/taxation_customs/sites/taxation/files/resources/documents/customs/customs_controls/custom_laboratories/brochure_clen.pdf
- Customs.uz
- Ziyonet.uz

ФИО авторов: Эшпўлат Жабборов,

филология фанлари номзоди, доцент. Қарши давлат университети, Қарши,
Ўзбекистон

Земфира Каримова,

Қарши давлат университети магистранти

Название публикации: «ТАРИХИЙ-БАДИЙ АНТРОПОНИМЛАРНИНГ
ЎРГАНИЛИШИГА ДОИР»

Аннотация

Мақолада ўзбек тилшунослигида бадий антропонимларнинг ўрганилиши бўйича бажарилган айрим тадқиқотлар таҳлилга тортилган. Шу асосда Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романидаги антропонимларни ўрганишнинг долзарблиги асосланган.

Калит сўзлар: антропоним, бадий антропонимлар, антропонимик аниқлагич, тарихий-бадий асар, ономастика, ономастик бирликлар, рамзий ном, персонаж.

ОБ ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИКА-ХУДОЖЕСТВЕННЫХ АНТРОПОНИМОВ

Эшпулат Джаббаров

кандидат филологических наук, доцент

Каршинский государственный университет

Карши. Узбекистан.

Земфира Каримова

Каршинский государственный университет,

магистр

Аннотация

В статье анализируются некоторые проведённые исследования об изучении художественных антропонимов в узбекском языкознании. В связи с этим, обоснована актуальность изучения антропонимов в романе Пиримкула Кодирова «Юлдузли тунлар» («Звёздные ночи»).

Ключевые слова: антропоним, художественные антропонимы, антропонимик определитель, историко-художественное произведение, ономастика, ономастические единицы, символическое название, персонаж.

Ўзбек тилшунослигида бадий асарларда қўлланган антропонимлар тадқиқи бўйича бир қатор ишлар амалга оширилган. Уларнинг маълум қисми тарихий-бадий асарлар матнида қўлланган антропонимлар тадқиқига бағишлангандир. Г. Ф. Благованинг “Бобурнома”даги аёллар исмига [3], Б. Бафоевнинг “Навоий асарларидаги киши исмларига” [1], Қ. Каримовнинг “Қутадғу билиг”да учрайдиган шахс номлари”га бағишланган тадқиқотларини шунга мисол сифатида кўрсатиб ўтиш мумкин.

Қ. Каримовнинг эътироф этишича, шарқ оғзаки ва ёзма адабиётининг мумтоз намуналарида “қаҳрамонларга рамзий ном беришнинг дастлабки гўзал намуналари “Қутадғу билиг” асарида учрайди. Бир қатор тадқиқотчилар асардаги номлар хусусида ўз фикр-мулоҳазаларини ҳам билдиришган: “Кунтуғди (чикқан кун) – адолат тимсоли бўлиб, Элиг ўрнида, Ойтўлди (тўлган ой) – давлат тимсоли бўлиб, вазир ўрнида, Ўгдулмиш (ақли расо) – ақл тимсоли бўлиб, вазирнинг ўғли ўрнида, Ўзғурмиш (уйғонган) – қаноат тимсоли бўлиб, вазирнинг қариндоши ўрнидадир” [5:42].

Алишер Навоий асарларидаги ономастик бирликлар хусусида тадқиқотлар олиб борган Ш. Ёқубовнинг ишларида *Мажнун, Исо, Юсуф, Фарҳод, Дилором, Паричеҳра, Паринайкар* ва бошқа кўплаб антропонимлар номинатив маъносига мувофиқ характерлар бўлиш билан биргаликда муаллифнинг услубий мақсадига ҳам хизмат қилувчи образлар сифатида эътиборга моликдир [4:8-18].

Й. Солижонов ва С. Мўминовларнинг бадий асардаги антропонимлар таҳлил этилган мақоласида Абдулла Қодирий тарихий асарларининг қаҳрамонлари исми ҳақида эътиборга молик мулоҳазалар қайд этилади. Қаҳрамонларнинг ташқи ҳамда ички қиёфасининг қай даражада уйғунлиги хусусида мақола муаллифлари қуйидаги фикрларни баён этадилар: “Ёзувчи ҳамма асарларида ижобий ва салбий қаҳрамонларига исм танлашда “ўхшатмагунча учратмас” қабилида иш тутлади. “Ўтган кунлар” романининг бош қаҳрамонлари *Отабек ва Кумуш*, “Меҳробдан

чаён”даги қаҳрамонлар *Анвар ва Раъноларнинг* исмлари фақат ўз характерларига мос бўлибгина қолмай, айти пайтда, бири иккинчиси учун алоқадор ҳамдир. Уларнинг исмлари ҳам, феъл-атворлари ҳам, ташқи кўринишлари ҳам бир-бирига жуда муносиб. Қаҳрамонларни китобхонга худди шу тарзда таништирган Абдулла Қодирий уларнинг бири иккинчиси яшай олмаслигини, бир-бирларини жуда қаттиқ севишларини исмларига ҳам боғлаб қўяди. Эътибор берилса, Отабекнинг исми “к” билан тугаб, Кумушбиби “к” билан бошланади. Отабекдан “к”ни олиб ташлаб бўлмаганидек, Кумуш ҳам “к”сиз маъно англатмайди. “Ўтган кунлар”да моҳирлик билан қўлланилган бу усулдан “Меҳробдан чаён”да ҳам моҳирона фойдаланилган” [6:46].

Тилшунос Э. Қиличевнинг ёзувчи Садриддин Айний тарихий асарларидаги антропонимларнинг услубий хусусиятлари ҳақидаги мақоласида: “Ёзувчи баъзи персонажларга уларнинг характеридан келиб чиқиб ном берган. Яъни исм персонаж характерини изоҳлаб туради. Жумладан, “Қуллар” романида доимо “Мен как партийный” деб бошқаларга гап бермайдиган, маҳмадана, ҳар қандай ишга юзаки, шошма-шошарлик билан қарайдиган бир персонажнинг номи *Шошмақулдир*. Унинг номи характерига мос бўлиб тушган” [7:22].

Айтиш мумкинки, бадий асар қаҳрамони исми билан унинг феъл-атвори ўртасидаги алоқадорликни, уйғунликни ҳар қандай бадий асардан қидириш ҳам унчалик тўғри эмас. Чунки бундай мутаносиблик кўпинча халқ оғзаки ижодига хос хусусият саналиб, унинг яшаб келаётган узвий қисми ҳисобланади.

Т. Қурбонов бадий асарлардаги топонимларни ўрганиш масаласига бағишланган монографиясида Пиримкул Қодиров асарларидаги топонимларни тўплаш ва комплекс таҳлил қилишнинг аҳамияти муҳим эканини таъкидлаб, бундай тадқиқотлар ёзувчи маҳоратини белгилашда, жой номлари таснифини беришда, топонимларнинг лексик-семантик, грамматик хусусиятини ўрганишда, уларни тарихан таққослаб ўрганишда, жой номларининг изоҳли этимологик луғатини тузишда, олий ўқув юртларида этимология ва тил тарихи фанини ўқитишда долзарблигини қайд этиб ўтади [8:10]. Олим П. Қодиров асарларида қўлланган топонимларни тарихий топонимлар ва ҳозирги топонимлар тарзида иккига гуруҳга бўлиб ўрганади.

Ш. Ёқубов “Навоий асарлари ономастикаси” мавзусидаги диссертацион тадқиқотида ўзбек номшунослари ўзбек тили атоқли отлари тизимини ўрганиш бўйича жиддий ишларни амалга оширганини эътироф этиш билан бирга бу соҳада қилиниши керак бўлган бир қатор ишлар мавжудлигини ҳам айтади. Айниқса, “ўзбек адабий ономастикаси ёки бадиий ономастика деб юритилувчи атоқли отлар тизимининг деярли тадқиқ қилинмаганлигини қайд этиш ўринлидир”, – дея эътироф этади тадқиқотчи [4:3].

Бизга маълумки, ўзбек тилида исмлар ва тахаллуслар ҳақида бой манбалар мавжуд. Улар ўзбек мумтоз адабиёти асарларида, ўзбек халқининг ўтмиш тарихига оид ёзма ёдгорликларда, шунунгдек, ўзбек халқ шеваларида яхши сақланган. Ўзбек антропонимларининг бой материаллари махсус тўпланган ва тадқиқ қилинганини ҳам эътироф этмоқ даркор. Аммо тарихий мавзуда ёзилган асарлардаги антропонимлар эндигина ўрганила бошланди. Шу боис таниқли ўзбек ёзувчиси Пиримқул Қодировнинг тарихий романларидаги ономастик бирликларни, шу жумладан, антропонимларни илмий ўрганиш долзарб масала саналади.

Ҳар қандай бадиий асарда инсон ҳаёти, унинг бахт-у саодати, ташвиш-у ғамлари, кураши ёритилади. Шу боис ҳам тарихий-бадиий асарлардаги антропонимлар – алломалар, олимлар, подшоҳлар, авлиёлар ва турли ёшдаги, касбдаги инсонларнинг исмлари ҳамда ана шу исмлар билан биргаликда қўлланувчи луғавий бирликлар тарихий ҳамда миллий колорит ифодаловчи асосий лисоний воситалардан бири саналади.

Ёзувчи Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романи аниқ воқеалар ва реал шахслар асосига қурилган [11]. Романда ҳаёт, воқелик автобиографик асардаги каби асар қаҳрамонларининг сўзи, дунёқараши, тушунчаси, кечинмаси нуқтаи назаридан акс эттирилади.

Асардаги аксарият воқеалар ёзувчи томонидан ҳикоя қилинади. Шунинг учун кўп қаҳрамонлар роман сюжети йўлида пайдо бўлиб, сахнадан тушиб қолади. Шу боис асардаги антропонимлар тизими бой ва хилма-хилдир. Уларнинг номлари “гапирувчи номлар” сифатида асарда алоҳида услубий, бадиий мавқега эга.

Асарнинг бош қаҳрамони – Бобур. Бобур антропоними луғатларда “1) йўлбарс, арслон; 2) улуг, улкан, буюк; 3) тез гапирадиган одам”, – дея изоҳланади

[2:63]. “Довюраклиги ва жасурлиги учун у ёшлигидан “Бобур” (“Шер”) лақабини олади”, - дея қайд этилади қомусий луғатда [10:445]. Асарда Бобур антропоними юқоридаги маъноларнинг барчасини ўзида бирлаштирганига асарни ўқиш давомида яна бир бора амин бўламиз.

Ўзбек тили антропонимларига бағишланган деярли барча ишларда шахс номлари дастлаб икки гуруҳга ажратиб таҳлил этилгани кўзга ташланади: а) ҳаётда реал яшаган шахс номлари; б) ҳаётда мавжуд бўлмаган афсонвий шахс номлари [9:34].

Биз тадқиқ қилаётган “Юлдузли тунлар” тарихий романи асосан реал воқеалар асосига қурилгани боис реал шахс номлари асар матнида кўп учрайди: Маҳмудхон, Абубакир дуғлат, Султон Аҳмад мирзо, Бобур мирзо, Умаршайх мирзо, Султон Али мирзо, Бойсунқур мирзо, Жаҳонгир мирзо, Ҳумоюн мирзо, Ҳиндол мирзо, Комрон мирзо, Хонзодабегим, Ойишабегим, Эсон Давлатбегим, Қорақўзбегим, Фотима Султонбегим, Моҳимбегим, Гулрухбегим, Гавҳаршодбегим, Гулбаданбегим, Хадичабегим кабилар.

Тахт вориси бўлган подшоҳлар хонадонига мансуб йигитларга мирзо, қизларга эса бегим сўзи қўшиб айтилган. Бу апеллятив лексикага оид бирликлар антропонимик аниқлагич деб ҳам юритилади. Масалан бегим апеллятиви 1) бек фарзанди, беклар авлодига мансуб, бекзода; шоҳзода; ҳоким, ҳукмдор; 2) подшоҳнинг хотини ёки қизи; малика, бекзода; хоним, бека, ойим; юксак мартабали, аслзода. Исм таркибида ҳурмат маъносини англатиб келади.

Пиримқул Қодиров тарихий романларида бу ҳолатга қатъий амал қилгани кўринади. Айрим мисоллар келтириш билан чекланамиз: *Қўқонни талаб, бизнинг устимизга қўшин тортиб келаётган Самарқанд подшоси **Султон Аҳмад мирзо** эса бизнинг подшомиз билан бир отадан бўлган оға-инидирлар (12-б.). Самарқанд подшосининг қизи бизнинг валиаҳдимиз **Бобур мирзога** беш яшарлигидан унаштириб қўйилган эди (12-б.). Ҳиротда **Шоҳруҳ мирзо Бойсунқур мирзо** учун қурдирган саройнинг деворлари гўзал қизлар сурати билан безалган экан (16-б.).*

Романда ёзувчи томонидан ўйлаб топилган тўқима образлар ҳам кўп. Хуллас, Пиримқул Қодировнинг “Юлдузли тунлар” романида қўлланган антропонимларни тўплаш ва уларнинг лингвистик табиатини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент; Фан, 1983. – 153 б.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси. (Изоҳли луғат). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1998. – 608 б.
3. Благова Г.Ф. Туркские средневековые женские имена (по могилам «Бобурнаме»). Личные имена в прошлом, настоящем и будущем. – М., 1970. – С. 252-258.
4. Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси//Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1994.
5. Каримов Қ. “Қутадғу билиг” асарида учрайдиган шахс номлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1967. № 2. – Б. 42-45.
6. Солижонов Й., Мўминов С. Бадий асарларда исмнинг айрим функциялари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. – № 2. – Б. 44–49.
7. Қиличев Э. Айний асарларидаги антропонимларнинг стилистик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. № 4.
8. Қурбонов Т. Бадий асарлардаги топонимларнинг лингвистик таҳлили ва изоҳи масалалари. – Самарқанд, 2006.
9. Хусанов Н. Ўзбек антропонимлари тарихи. – Тошкент, “Наврўз” нашриёти, 2014. -175 б.
10. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. // WWW.Ziyounet.uz. com kutubxonasi. Б ҳарфи.
11. Қодиров П. Юлдузли тунлар. Роман. // [WWW.Ziyounet. uz.com kutubxonasi](http://WWW.Ziyounet.uz.com/kutubxonasi).

ФИО автора: Hoshimova Dilshoda

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va Dizayn instituti Miniatyura va Xattotlik yo‘nlashi III bosqich talabasi

Название публикации: «BO‘YOQLAR VA ULAR BILAN ISHLASH
TEKNOLOGIYASI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘yoqlar haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, hamda ulardan foydalanish texnologiyalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘yoq, rang, eritma, qattiq, yumshoq, kukun, mato, faner, karton, suyak, naqsh.

Резюме: В данной статье описаны сведения об красках, свойствах и технология работы с ними.

Ключевые слова: краска, цвет, решение, твердый, мягкий, порошок, материал, фанера, картон, кость, узор.

Annotation: This article describes information about paints, properties and technology to work with them.

Key words: paint, colour, decision, solid, soft, powder, material, plywood, cardboard, bone, pattern.

AKVAREL BO‘YOG‘I VA UNING O‘ZIGA XOS

XUSUSIYATLARI

Bo‘yoqlarning akvarel, guash, tempera va moy bo‘yoq turlari mavjud. Bo‘yoqlardan akvarel lotincha so‘z bo‘lib, suvga qoriladigan bo‘yoq, shuningdek «akvarelda ishlangan rasm» degan ma’noni bildiradi. Akvarel qadimgi Misr, Yaponiyada keng qo‘llanilgan. XIX asrda akvarelda yirik san’at asarlari ishlash juda taraqqiy etgan. Akvarel bilan ishlash bundan bir yarim asr avval Angliyada rivojlangan

edi.¹¹³ D.Kozens, Turner, D.Konstabel, R.Bonington, T.Gertin kabi rasomlar o'zlarining akvarelda ishlagan asarlarida Angliyaning go'zal tabiatini moxirlik bilan ishlaganlar. Rossiyada esa akvarel bilan ishlash san'ati XVIII asrdan boshlab keng yoyila boshlandi.

O'rta asrlarda Rossiyada bo'lganidek, G'arbiy Yevropada ham akvareldan cherkovga qarashli bo'lgan diniy kitoblarni naqsh va illyustratsiyalar bilan bezashda foydalaniladi. Lekin u vaqtlarda akvarel oq bo'yoq moddasi qo'shilgan holda ishlatilar edi.

O'rta Osiyoda akvarel kitoblarni chiroyli qilib bezash maqsadida qo'llaniladi. O'rta Osiyo rassomlari ichida, ayniqsa, Kamoliddin Behzod kitoblarga akvarel bilan miniatura hamda illyustratsiyalar ishlashda shuxrat qozondi.

Akvarel bilan ishlash usullarining murakkablashuvi, takomillashuvi uning turlarining ko'payishiga va xilma-xillashuviga olib keladi. Hozir akvarelning bir qancha turlari mavjud. Chunonchi, qattiq, yumshoq va xamirsimon holdagi akvarellar. Akvarel bo'yog'i quyidagi ko'rinishda ishlab chiqiladi. Bog'lovchi emulsiya tayyorlanadigan moddalarni bo'yoq rangini o'zgartirmaydigan, qog'ozga surtilganda tekis yotadiganlaridan foydalaniladi. Bog'lovchi moddalar asosan gummi arabika, olcha, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shiralaridan tayyorlanadi. Daraxt shirasidan masalan, olcha shirasidan juda osonlik bilan eritma tayyorlanadi. Shuningdek, bo'yoqning tez qotib qolmasligi, pishiqligini va suvda eruvchanligini oshirish uchun unga asal, dekstrinlar aniq miqdorda olinishi lozim. Har bir akvarel uchun bog'lovchi emulsiya turli miqdorda tayyorlanadi. Taxtacha ko'rinishidagi akvarel uchun emulsiya shiraning, dekstrining suvdagi eritmasi, meva shakari, ho'kiz o'tidan tayyorlanadigan aralashmadan iborat bo'ladi. Dastavval, shiraning hamda dekstrinning suvdagi eritmasi tayyorlanadi. Meva shakari suv bilan aralashtirilib, siropsimon eritma hosil qilinadi. Ana shu uch xil eritma birlikda to'xtovsiz aralashtiriladi hamda unga o'tdan tayyorlangan aralashma va fenoldan keraklicha tomiziladi. Chinni idishlardagi

¹¹³ Buxorolik san'atshunos olim. Q. Jumaev suxbatidan yozib olindi. – 2002 yanvar.

yumshoq akvarel uchun emulsiya tayyorlashda moddalar ko‘proq miqdorda olinib, meva shakari o‘rniga asalari mumi va glitsirin qo‘shiladi. Tyubiklarda chiqariladigan akvarel tarkibidagi elementning ko‘pchilik qismini asal tashkil etadi. Glitsirin va shira ozroq miqdorda qo‘shiladi. Akvarel tayyorlashda qo‘llaniladigan bo‘yoq kukunlari tabiiy yoki sun‘iy kukunlar bo‘lishi mumkin. Ayrimlari o‘simliklar yoki hayvonlarda uchraydigan pigmentlardan (masalan, jigar rang, karmili bo‘yoqlardan) tayyorlanadi. Bo‘yoq kukunlarini tanlashda va tayyorlashda ularning tiniqligiga, bir-birlari bilan yaxshi aralashishiga e‘tibor berish lozim. Masalan, quyidagi bo‘yoq kukunlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

Sariq kukunlar: tabiiy jigar rang, sariq mars, zarg‘aldoq mars va hokazo.

Qizil kukunlar; qizil tusli mars, qirmizi.

Binafsha: binafsha tusdagi kukun.

Yashil kukunlar: zumrad rang, yashil rangli laklar.

Zangori: zangori laklar.

Jigar rangli kukunlar: kuydirilgan jigar rang, jigar rang mars, qora kukunlar uzumdan olinadi.

Akvarel tayyorlash uchun bo‘yoq moddasi tayyor emulsiyaga aralashtiriladi. Agarda sinash uchun olingan bo‘yoq suvda yaxshi erisa, aralashtirish hamda ishlov berish uchun tayyor bo‘lgan hisoblanadi. Shuni esda tutish lozimki, quyilgan akvarel bo‘yog‘i quriganidan keyin o‘z rangini bir oz o‘zgartirib, ochlashadi. Bunga bo‘yoq qavatidagi suvning bug‘lanishi, qog‘ozga singishi ta’sir etadi.

Biz yuqorida faqatgina akvarel bo‘yog‘ining xarakterli xususiyatlariga to‘xtalib o‘tdik. Chunki sizlar ana shu bo‘yoq yordamida o‘quv topshiriqlarini bajarasizlar.

AKVAREL BO‘YOG‘IDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI¹¹⁴

¹¹⁴ Tursunaliyev.N. Rang texnologiyasi Toshkent «Yangi asr avlodi» 2012. 24-29 bet.

Akvarel bo'yoqlarida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi mavjud bo'lib, unga amal qilinmasa, tayyorlangan ishlarning sifatiga putur yetishi mumkin. Biz akvarel bo'yog'ida biror naqshni yoki bezakni bo'yashimizdan oldin uning chiziqli tasvirini tayyorlab olamiz. So'ng, bo'yashga o'tamiz.

Mo'yqalamda bo'yoq olinayotganda uni haddan tashqari qattiq ishqalash mumkin emas. Aks holda, mo'yqalam yedirilib ketishi mumkin. Olingan bo'yoq qavati qog'oz sirtiga yupqa qavat tarzida surtilishi lozim. Agar bo'yoq qavati haddan tashqari quyuq bo'lsa, qog'oz sirti ko'rinmay qoladi va akvarel bo'yog'ida ishlash texnikasi qo'pol ravishda buzilgan bo'ladi. Lekin akvarelda naqshlar va bezaklarni bo'yayotganda bu tartibga boshqacharoq tarzda rioya qilinadi. Naqshlar va bezaklarda bo'yoqlarning turli-tuman tuslaridan ham foydalaniladigan bo'lganligi sababli, uning tuslarini ko'proq yoki kamroq surtish orqali ochlashtirish yoki to'qlashtirish mumkin. Chunki bo'yoqlarning juda och tuslarini hosil qilishda guashning oq bo'yog'i ham qo'shib ishlatiladi. Demak, o'z-o'zidan mazkur bo'yoq aralashgan rang tuslari yuzaga qalin qoplam bo'lib yotadi.

Akvarelda naqsh yoki bezak ishlanayotganda rang tuslarining toza bo'lishiga e'tiborni qaratish kerak bo'ladi. Bir bo'yoq olinganidan so'ng ikkinchi xil bo'yoq olinishidan oldin mo'yqalam tozalab yuvib tashlanadi. Shunday qilinsa, bo'yoq tuslari toza va chiroyli ko'rinishda bo'ladi.

GUASH BO'YOG'I BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI¹¹⁵

Guash italyancha so'z bo'lib, suvli bo'yoq degan ma'noni bildiradi. Kukun bilan suv yelim bog'lovchilari ya'ni bug'doy kraxmali, dekstrin hamda oq bo'yoq (belila) aralashmasidan iborat bo'yoq. Qog'oz, karton, faner, mato, suyakka naqsh, tasvir ishlashda qo'llaniladi. Guash bo'yog'idan O'rta asrlardayoq Osiyo va Yevropaning ko'p mamlakatlarida, asosan kitob miniaturasida foydalanib kelingan. XIX asr o'rtalaridan guash bo'yoq sanoatida ishlab chiqarila boshlagach, mustaqil usulga aylanadi. Guash akvareldan oq bo'yoq qo'shilganligi, bo'yoq qatlamining qalinligi va

¹¹⁵ Egamov H. Bo'yoqlar bilan ishlash. T.: O'qituvchi, 1981. 42-43 bet

bo'yoq qatlamlarining xiraligi bilan farq qiladi. Hozirda guash plakat, amaliy grafika va kitob grafikasi, teatr dekoratsiyasi eskizlari, bezak ishlari, miniatura, mahobatli rangtasvir, naqqoshlik va boshqalarda keng qo'llanib kelinmoqda. Guash bo'yoqlari plastmassa, shisha bankachalarda, tyubiklar holida ishlab chiqariladi.

Guash bo'yog'i quyuq ko'rinishda bo'ladi. U qurib qolmasligi uchun ustiga glitsirin, suv, kuchsiz olcha shirasi va boshqalar quyiladi. Guash bo'yog'ida ishlashning o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, mo'yqalamda oson olinishi, quriganda uqalanib, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo'yoq qavatini bir tekisda to'la berkitadigan bo'lishi kerak. Guash bo'yog'ining tarkibiy bog'lovchisi dekstrin, glitserin hisoblanadi. Guash bo'yog'ini tayyorlashda bo'yoq kukunlaridan foydalaniladi. Guash bo'yog'ida akvarel mo'yqalamlari va ulardan bir oz qattiqroq mo'yqalamlar hamda moy bo'yoqlari uchun chiqarilgan mo'yqalamlardan ham foydalaniladi. Maxsus rassomchilik va badiiy ishlarida alohida emulsiyalardan tayyorlangan guash bo'yoqlar ishlatiladi. U o'zining tiniqligi, rangining chiroyliligi bilan farqlanadi.

Guashning florsentli guash deb ataladigan turi ham bo'ladi. Bu guash turini akvarel va temperalar bilan aralashtirib ishlatilsa ham bo'ladi. Florsentli guash o'zining chiroyliligi, tekisligi va yorqinligi bilan ajralib turadi. Umuman guash bo'yoqlari rasmlar, naqshlar, har xil gazeta, plakatlar, shiorlar yozishda va boshqalarda ishlatiladi. Guash bo'yog'ida ishlashda ham ana shu tartiblarga rioya qilinsa-da, uning tuslari yuzaga o'ta qalin bo'lib qoplanishi bilan farq qiladi. Buni unutmaslik lozimki, guash bo'yoqlarining tarkibida oq bo'yoq moddasi mavjud bo'lganligi sababli uning tuslari keyinchalik ochlashib ketadi. Shunga ko'ra, olinadigan rang tuslari belgilangan darajadan ancha to'qroq tuslarda bo'lishi lozim. Aks holda, bo'yoq qavati ho'lligida to'q bo'lgan rang tuslari keyinchalik ochlashib ketadi va ko'rinishini buzadi. Guash bo'yog'ida ishlangan naqshlar va bezaklar rang tuslarining ancha xiraligi bilan akvareldan farq qiladi. Ularning ana shu xarakterli xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ko'pincha aralashtirib ishlatiladi. Guash bo'yog'i quyuqligi jihatidan moybo'yoqlarga o'xshab ketsa-da, lekin faqat qog'ozlar sirtigagina bezaklar ishlash

mumkin bo‘ladi. Ba’zi hollarda guash bo‘yog‘idan miniatura ishlashda, qutichalar sirtini bezash va lak bilan qoplashda foydalaniladi.

Guash bo‘yog‘ining tarkibiy bog‘lovchilari dekstrin, glitsirin va boshqalar hisoblanadi. Kraxmal yelimining asosiy turi dekstrindir. Dekstrinni kraxmalni yoki suyuq kraxmalni qayta ishlash yo‘li bilan olinadi. Uning oq va sariq tuslilari bo‘ladi. Oq dekstrin faqat qizdirilganda suvda eriydi, hamda soviganda bo‘tqasimon ko‘rinishga ega bo‘ladi. Sariq rangli dekstrin sovuq suvda oson erib, dekstrin yelimini hosil qiladi.

Glitsirinning vazifasi shundaki, guash tez qurib qotib qolishini oldini oladi. Guash bo‘yog‘ini tayyorlashda akvarel uchun ishlatiladigan bo‘yoq kukunlaridan foydalaniladi. Oq bo‘yoq esa rang tuslariga qarab ma’lum miqdorda qo‘shiladi. Shuningdek, ularning tarkibini mustahkamlash uchun kaolin va blanfikslardan foydalaniladi. Oq bo‘yoqlarning qo‘rg‘oshinli, titanli, baritli, sinkali tuslari mavjud. Guash bo‘yoqlari uchun emulsiya tayyorlashda suv, bug‘doy kraxmali, novvot suvi, olcha shirasi, glitsirin, ho‘kiz o‘ti, fenol kabi moddalar kerak bo‘ladi. Badiiy bezakli tasvirlar ishlashda guashning bog‘lovchi emulsiyasi boshqacha tartibda tayyorlanadi. Bunda kraxmal yelimi bog‘lovchi element hisoblanadi. Tiniq tusdagi guash bo‘yoqlarini tayyorlashda duradgorlik yelimi, bug‘doy kraxmali, suv, natriy ishqori kabi moddalardan foydalaniladi. Duradgorlik yelimini esa oldindan tayyorlangan kraxmal yelimiga aralashtirish tavsiya etiladi.

Guash bo‘yog‘ini tayyorlashda bog‘lovchi emulsiyaga bo‘yoq kukuni va oq bo‘yoq qo‘shiladi, hamda yaxshilab iylanadi. Bo‘yoqlarni tayyorlashda maxsus apparatdan yoki hovonchadan foydalanish mumkin. Aralashma quyi qaymoq ko‘rinishiga kelguncha ishlanadi. Qolgan ishlar odatdagicha bajariladi. Guash bo‘yoqlarining hammasiga bir xil tarkibli bog‘lovchi emulsiyani qo‘llash qiyin. Shuning uchun kerakli rang tuslarini hosil qilishda biror elementni ko‘proq yoki ozroq olishga to‘g‘ri keladi. Guash bo‘yoqlari bilan ishlashda akvarel, tempera va moybo‘yoqlari uchun qo‘llaniladigan metodlardan foydalaniladi. Naqsh ishlashda, rang tuslarini har xil ko‘rinishini hosil qilishda suvni ko‘p qo‘shib yuborilsa, o‘z

xususiyatini o'zgartirib bo'yalayotgan yuza tekis chiqmay, ola-bula chiqadi. Agar guash qurib qotib qolgan bo'lsa, ustiga iliq suv, suyuq duradgorlik yelimi yoki PVA bo'yog'i qo'shiladi. Ikki yoki uch kun o'tgandan so'ng guash yaxshilab aralashtiriladi. Guash qumo-qumo bo'lib qolgan bo'lsa, uni dokadan yoki kapron paypoq bo'lagidan o'tkazib olish kerak. Guashga duradgorlik yelimi yoki PVA qo'shinishi sababi uning tarkibini mustahkamlaydi. Yana ishchi yuzaning bo'yalgan joyi qo'lga yuqmaydigan bo'ladi.

Ish jaryonida guash idishlaridan oddiy tayoqcha yoki maxsus oddiy kurakchalar yordamida bo'yoqlar olinadi. Har bir guash bo'yoq rangiga alohida kurakcha ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Guash bo'yog'ini ishlatishda akvarel, mo'yqalam va maxsus guash bo'yog'i uchun akvarel mo'yqalamidan qattiqroq mo'yqalamlar ishlatiladi. Ko'pincha, guash bo'yog'i uchun ishlab chiqarilgan yumshoq yoki yapaloq mo'yqalamlar ishlatiladi. Naqqoshlikda oq rang, limonli sariq, kadmiyli sariq, stransion sariq, tilla rang oxra, qizil rang, alvon rang, qirmizi, zumrad, sovuq tusli yashil, to'q zangori, havo rang, qora rang va boshqalar ko'p ishlatiladi.

Guash bo'yog'ini temperaga ham aralashtirib ishlatga bo'ladi. Guash bo'yog'i bilan naqsh kompozitsiyasini bo'yashda quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- Naqsh elementlarini aniq chizish.
- Ranglarning bog'liqligiga va tiniqligiga erishish.
- Bo'yoq qavatlarini tekis chiqarish.
- Ko'zga yaqqol tashlanadigan rang dog'lari hosil bo'lishiga yo'l qo'ymaslik.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Bulatov S. S. Rangshunoslik. –T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2009.
2. Nabiyeu M. Rangshunoslik. –T.: O'qituvchi, 1995
3. Egamov H. Bo'yoqlar bilan ishlash. T.: O'qituvchi, 1981.
4. Tursunaliyev.N. Rang texnologiyasi Toshkent «Yangi asr avlodi» 2012

ФИО автора: Абдурахманов Диёр Марсельевич,

Ташкентский государственный университет востоковедения, Направление:

История (по направлениям и странам), 2 курс магистр

ФИО научного руководителя: д.и.н. Сайфуллаев Д.Б.

Кафедра: Мировая политика и международные отношения

Название публикации: «КУРДСКИЕ НАСЕЛЕНИЯ В ТУРЦИИ ПРИ ПРАВЛЕНИИ ЭРДОГАНА И ПСР»

АННОТАЦИЯ.

Турция - многонациональное государство с многочисленными этническими и религиозными меньшинствами. Перспектива вступления Турции в ЕС объединила турецкое общество в беспрецедентной степени и вызвала сильный толчок к экономическим и политическим изменениям. Секуляристы, исламисты, курды и алевиты - все они считали возможное членство в ЕС лучшей гарантией в борьбе против своих оппонентов. Арест лидера РПК Абдуллы Оджалана в феврале 1999 года и одностороннее заявление РПК о том, что она будет соблюдать режим прекращения огня, который должен был продлиться до лета 2004 года, создали атмосферу реформ. Реформы, осуществленные в период с 2001 по 2004 год для соответствия Копенгагенским критериям, также привели к важным изменениям в области военно-гражданских отношений.

В этой статье обсуждается курдская политика партии ПСР с момента Всеобщих выборов в ноябре 2002 года до настоящего времени. Кроме того, было уделено внимание роли курдов в политике Эрдогана во внутренней политике Турции.

Ключевые слова: Турция, ЕС (Евросоюз), экономическим и политическим изменениям, секуляристы, исламисты, курды, алевиты, РПК (Рабочей партии Курдистана), Абдуллах Оджалан, Копенгагенским критерия, ПСР (Партия Справедливости и развития), Всеобщие выборы, Эрдогана, внутренняя политика.

ABSTRACT.

Turkey is a multi-ethnic state with numerous ethnic and religious minorities. The prospect of Turkey joining the EU has united Turkish society to an unprecedented degree and has triggered a strong push for economic and political change. Secularists, Islamists, Kurds, and Alevis all saw possible EU membership as the best guarantee against their opponents. The arrest of PKK leader Abdullah Ocalan in February 1999 and the PKK's unilateral declaration that it would abide by the ceasefire, which was to last until the summer of 2004, created an atmosphere of reform. The reforms implemented between 2001 and 2004 to meet the Copenhagen criteria also led to important changes in the field of civil-military relations.

This article discusses the Kurdish politics of the JDP (Justice and Development Party) party from the November 2002 General election to the present. In addition, attention was paid to the role of the Kurds in the policy of Erdogan in the domestic policy of Turkey.

Key words: Turkey, EU, economic and political changes, secularists, Islamists, Kurds, Alevis, PKK (Kurdistan Workers ' Party), Abdullah Ocalan, Copenhagen criteria, JDP (Justice and Development Party), General election, Erdogan, domestic politics.

ВВЕДЕНИЕ.

Внутриполитическая ситуация в Турции в течение нескольких лет характеризовалась борьбой за власть между избирательной, умеренно исламской ПСР, с одной стороны, и лайцистскими, националистическими оппозиционными партиями НРП (Республиканская народная партия) и ПНД (Партия националистического движения) - с другой. ПСР хочет присоединиться к ЕС и инициировала реформы, направленные на то, чтобы сделать страну более демократичной и укрепить права человека. Тем не менее, в настоящее время переговоры о вступлении в ЕС вряд ли продвигаются вперед в результате Европейского отказа, турецких реформ и нерешенного кипрского вопроса и могут полностью закрыться в следующем году.

Потому что встреченных реформы представляют традиционное господство военных в качестве гаранта светского характера Турции в вопросе и для курдов больше культурных прав предусматривают, они отклоняются от оппозиции, от ее правосудия доминируют аппарат и от военных и затрудняет ее реализацию. Так можно объяснить, что есть с одной стороны отверстие тенденций, новых культурных прав курдского меньшинства и текущих мирных переговоров, но с другой стороны курдских партий и СМИ запрещены, борьба с РПК (Рабочей партией Курдистана) продолжается, а также продолжают разбирательства в отношении правозащитников, журналистов, курдских протестующих и политиков. Независимые наблюдатели отмечают, что турецкое государство в настоящее время посылает сильно противоречивые сигналы.

Турецкие избиратели поддерживают - как на конституционном референдуме 12 сентября 2010 г. - реформаторский курс правительства регулярно на избирательных участках. Голосующие курдские этнические группы также частично поддерживают ПСР, потому что они надеются, что реформы приведут к большему количеству культурных свобод для вступления в ЕС, и потому, что ПСР апеллирует к общей мусульманско-суннитской идентичности.

ОСНОВНОЙ ТЕКСТ.

В 2005 году турецкое правительство при премьер-министре Эрдогане впервые высказалось о так называемой «проблеме курдов», извинилось за жестокое обращение, совершенное силами безопасности, и признало «законные требования». В то же время правоохранительные органы начали расследовать преступления сил безопасности над курдским гражданским населением. В 2009 году было запущено так называемое «демократическое открытие». Курдам следует предоставить больше культурных прав и тем самым лишить РПК земли. Фактически, в сентябре 2009 года был утвержден университетский курс курдского языка, а 13 ноября 2009 года курдские телеканалы. Однако националистические турки категорически отвергают это развитие, опасаясь раскола. В конце 2009 года Конституционный суд, близкий к оппозиции, запретил крупнейшую курдскую партию ПДО (DTP- партия демократического

общества) и тем самым нанесла «демократическому открытию» удар, от которого оно уже никогда полностью не оправилось. Партийный запрет и последовавшие за ним многочисленные аресты курдских политиков привели к насильственным столкновениям между курдами и силами безопасности и общей дестабилизации ситуации в безопасности в курдских районах.

В первом полугодии 2010 года произошли многочисленные инциденты между армией и бойцами РККА (Рабоче-крестьянская Красная Армия). В июне 2010 года РПК объявила о своем одностороннем прекращении огня. В качестве обоснования она привела, что за ней неотступно следят. Затем количество нападений на силы безопасности резко возросло, 19-20 июня 2010 года были убиты 13 солдат и 17 повстанцев. В конце июля РПК предложила сложить оружие на случай, если правительство предоставит курдам культурные права и прекратит борьбу с РПК. Правительство, однако, по-прежнему отказывается вести переговоры с РПК официально. В августе 2010 года РПК объявила один месяц одностороннем прекращении огня, который был продлен в конце сентября 2010 года на один месяц. Тем не менее, несколько боевиков погибли в столкновениях с силами безопасности, и было совершено несколько взрывов, за которые РПК, однако, снял с себя ответственность.

Националисты с обеих сторон разжигают конфликт и пытаются предотвратить возможный мирный процесс. Согласно курдской Партии мира и демократии (ПМД (BDP): партия преемников ПДО(DTP)) и свидетельствам, собранным на курдском веб-сайте, смертельный теракт возле Хаккари 16 сентября 2010 года мог быть осуществлен экстремистскими националистическими группировками в рамках служб безопасности. В то же время группа осколков РПК ТАК (Сокол свободы Курдистана) объявила о кровавом теракте на площади Таксим 29 сентября 2010 года.

Казалось утвердиться в последнее время также форм ненасильственного сопротивления. Так что бойкот в некоторых курдских районах Турции школах как символ культурного подавления. Недавний референдум по конституционной реформе был частично проигнорирован в курдских районах после призыва к

бойкоту ПМД, что считается доказательством удержания курдских партий среди населения.

В целом в области культурных прав курдов наблюдаются улучшения. С 13 ноября 2009 года использование курдского языка в средствах массовой информации и в частных школах в основном разрешено. Тем не менее, курды, которые публично стоят за свою этническую, культурную и языковую идентичность, продолжают рисковать домогательствами, цензурой или преследованием.

С сентября 2009 года заключенным разрешено говорить на курдском языке со своими посетителями, курдские деревни, получившие турецкие названия, могут вернуть свои оригинальные названия, а также курдские названия разрешены с 2003 года. Что касается выбора имени, следует отметить, что, хотя он свободен, четыре буквы W, X, Q и î, не существующие в турецком алфавите, и курдские имена, написанные с ним, по-прежнему не допускаются.

Однако, помимо этих достижений, по - прежнему существуют большие ограничения на беспрепятственное использование курдского языка. Как описано в главе 4.1.4 говорилось, обвиняют курдских политиков по-прежнему из-за использования курдского языка во время политических мероприятий (например, в Begrüssens партийцев на курдский) и из-за использования курдского брошюры, приглашения или новогодней открытки. В апреле 2010 года был изменен избирательный закон, кампаний в других языках, кроме турецкого, были разрешены. В то же время политическая деятельность, например, политические речи или распространение политических рекламных материалов на языках, отличных от турецкого, остается, в соответствии со статьей 81 Закона о политических партиях по-прежнему запрещены. Также в апреле 2010 года лидер курдской газеты был арестован за то, что он хотел защитить себя в процессе на курдском языке.

Курдские граждане могут быть политически активными без лишних слов, пока они ассимилируются в языковом и культурном отношении. Политически активные курды, которые разделяют свой курдский язык.

С другой стороны, публичное поддержание идентичности в качестве политиков становится обычным явлением. Обвиняемые в принадлежности к запрещенной РПК, они рискуют попасть в тюрьму или получить долгосрочные политические запреты. Правозащитные организации заявили о более чем 1000 обвинений против членов DTP / BDP за то, что они говорили на курдском языке в политических дискуссиях или за выражение критики государства.

ВЫВОДЫ.

Под руководством умеренно исламской партии ПСР, Турция в последние годы реформировалась экономически и политически, улучшая культурные права своего курдского меньшинства в определенных аспектах. Страна сегодня понимает себя как развивающуюся и независимую региональную экономическую и военную державу. Но растущее самосознание не может скрыть того, что страна по-прежнему характеризуется борьбой за власть между судебным аппаратом, военными и националистической светской оппозицией, с одной стороны, и правительством ПСР, поддерживаемым большинством народа, с другой. Глубокие идеологические траншеи разделяют обе группы и затрудняют дальнейшие и более быстрые реформы на благо всех, и прежде всего курдского меньшинства. Различные и частично противоположные интересы важных государственных органов вызывают противоречивые сигналы, как курдскому населению, так и Европейским наблюдателям.

Положительным развитием являются отмена ограничений курдских СМИ в ноябре 2009 года и возможность для частных школ предложить уроки курдского языка.

Отрицательным является то, что по-прежнему, в соответствии с настоящими цифрами, даже все чаще, критические журналисты, курдские газеты, правозащитники, протестующие, политики и партии юридически преследуются, арестовываются и запрещаются. Условия содержания по-прежнему неудовлетворительны, пытки и бесчеловечное обращение по-прежнему распространены даже через семь лет после провозглашения «нулевой толерантности к пыткам». Неудовлетворительным является то, что курдский

юго-восток мало выигрывает от быстрого экономического роста Турции. Подавляющее большинство курдов по-прежнему живут в бедных условиях, менее хорошо образованы, не имеют возможности изучать собственный язык, и имеют меньшие возможности для работы и роста, чем турецкое большинство. Курдское меньшинство по-прежнему не признает себя равноправным турецким государством, требует более быстрых реформ и, в конечном счете, определенной автономии в культурной, но и политической сферах.

Турецкое правительство сталкивается с большой проблемой осуществления реформ, необходимых для решения курдской проблемы и устойчивого умиротворения и развития юго-востока, против большого внутривластного и социального сопротивления.

Список использованной литературы.

1. Алптекин, Гусейн. "Политика этнической инкорпорации и периферийные реакции: Как государство относится к турецким курдам и как они воспринимают их обращение?" *Афро-евразийские исследования* 1, № 2 (2012).
2. Буран, Ахмет. "Курды и Курдский Язык". *Турецкие исследования* 6, № 3 (2011).
3. Курдский конфликт в Турции: Оценка текущего процесса. Лондон: Институт демократического прогресса. Ноябрь 2013 года.
4. AK Parti. "GAP Eylem Planı Açıklandı." Last modified March 8, 2015. <https://www.akparti.org.tr/site/haberler/gap-eylem-planı-aciklandi/> 72187#1.
5. Алесина, Альберто, Арно Девлеешаувер, Уильям Истерли, Серджио Курлат и Ромен Вачиарг, "Фракционирование". *Журнал экономического роста* 8, № 2 (2003).
6. "İşte Yıllara Göre Etkisiz Hale Getirilen PKK'lı Sayısı." *Habertürk*, May 31, 2016. <http://www.haberturk.com/gundem/haber/1247022-iste-yillara-gore-etkisiz-hale-getirilen-pkkli-sayisi/53>.
7. "Цель РПК-Оттолкнуть Его от Ислама". *Известия* 7, 15 Мая 2011. <http://www.haber7.com/guncel/haber/743956-pkknin-amaci-islamdan-uzaklastirmak>.

ФИО автора: Анваржонов Аббос Адхамжон ўғли

Ўзбекистон давлат санъат ва маданиятинститутини магистратура бўлими,
“Актёрлик санъати” (Қўғирчоқ театри актёрлиги санъати) мутахассислиги
2-босқич магистранти

Название публикации: «ҚЎҒИРЧОҚ БОШҚАРИШ КЎНИКМАСИНИ
ШАКЛЛАНТИРИШДА- “ҚЎЛ ПЛАСТИКАСИ”НИНГ АҲАМИЯТИ»

Аннотация. Мақола, қўғирчоқ театри актёрини касбий шакллантиришида -
“қўл пластикаси”, гавдани ва қўғирчоқни бошқариш кўникмасининг аҳамияти
хусусида. **Калит сўзлар:** қўғирчоқ театри, актёр, қўл пластикаси, гавдани
бошқариш биомеханикаси, гапит.

Аннотация. В данной статье говорится о важности пластики тела, рук и
навыков кукловодства в профессиональном становлении актёра театра
кукол. **Ключевые слова:** кукольный театр, актёр, пластика рук, биомеханика
управления телом, гапит.

Annotation The article deals with the importance of "hand plasticity", body and
puppeteering skills in the professional formation of a puppet theater actor. **Key words:**
Each nation's future life and development of the country depends on physical and moral condition of the youth. Nowadays, intergovernmental communication is developing day by day by the help of highly produced technologies and transportation. It reasons intergovernmental competitions, that can be: sport and education or intellectual activity. On the other hand, improvement of the nation's intellectual-physical capacity and forming special conditions for these is becoming the key of development and flourishing of the country in the XXI century. We should realize it deeply.

Our president Islam Abduganiyevich Karimov paid great attention to the role and improvement of educating healthy and mature generation and made it the main part of public policy from early days of independence. The important thing is that it is involved in not only physical training sport of youth but also whole nation's physical condition, it must be uninterrupted and integral. Islam Abduganiyevich Karimov suggests increasing the number of sport competitions and arrangements. Such competitions should be held in our country continuously. Only 24 years passed since our country has become independent and during this short period many changes have happened in the field of science, education, economy, and also sport. Independence gave these fields great chance to develop. Many sport competitions are being held continuously and it reasons healthy lifestyle of youth and foundation of many new sport resources. It can be seen our president's such words: "Great country can be built only by

healthy generation, strong nation.” In other words, upbringing and educating of healthy and intellectually developed children or youth means great future of the country. And it plays an important role on the freedom and peace of the country and it is the key of forming community of legal citizenship. The years of independence shows that such kind of activities are widely spread over the country and gave many successful results. We know, without health person can't manage anything. So that in our country much attention is paid for the development of physical training and sport. By such activities not only sport increases but also they have an influence on upbringing of young generation morally healthy. The other side of such attention to sport and physical training is that healthy and physically fit generation and at the same time they should be also well-educated and they should have their own opinion. Because sport develops nation's pride and gives them an encouragement and moral power. And this pride unites nation around one idea. It is important that sport's development in our country prevents youth spending much time for nonsense. Sport makes young generation do their best in sport competitions and it becomes main part of their life. We know nothing can make the country popular as sport all over the world quickly. By the different competitions and Olympic Games our young sportsmen achieved many gold, silver and bronze medals. All the people of the world get acquainted with our country and they know the country named Uzbekistan by such competitions.

DISCUSSION

More recently, winter sports were available during the cold season, but with the advent of artificial snow and ice, it became possible to organize competitions all year round. Winter sports are the most spectacular and interesting. They are useful for immunity, stimulate metabolism, harden the body, as well as raise the mood and keep in good shape. Winter sports is mandatory presented in the program of the Olympic Winter Games. It is not necessary to engage in sports professionally, many people prefer just outdoor activities in the winter.

In order to develop and popularize winter sports, to ensure worthy participation of athletes of Uzbekistan in international sports competitions, the decree approved the Program for development of winter sports in Uzbekistan in 2020 – 2023.

The program provides for the organization of a modern ice palace on the basis of the Uzkurgazmasavdo building, which is intended for winter sports competitions, exhibitions and forums. Until January 1, 2023, Winter Sports Association, Uzbekistan Hockey Federation, their territorial divisions, professional clubs and non – governmental children`s sports schools in winter sports:

- Shall pay property tax and social tax on the income of attracted foreign athletes and specialists with a reduced rate (50 percent)

- Are exempted from customs duties for imported sports equipment and special professional sport equipment, vehicles, including special vehicles that are not produced in the Republic of Uzbekistan, according to the lists established in the prescribed manner.
- Also, in 2020 – 2023, on the basis of public – private partnerships, indoor areas with lightweight ice cover will be built in the regions.

Starting from the academic year 2020 – 2021, the department of winter sports will be created at the Uzbek State University of Physical Culture and Sport. Another important issue is the creation of an effective system to grow world – class athletes in winter sports in our country. In this way, Humo Ice Palace is being built in the capital, as well as a modern complex, recently launched in the Amirsoy recreation place in Tashkent region will be the most important factor to improve quality of winter sports in Uzbekistan.

Unfortunately, Uzbekistan has never hosted prestigious sports events such as Olympics or Asian Games yet. Therefore, we should start developing a long term plan to host one of the Asian Games.

CONCLUSION

With the onset of a cold winter, many people prefer to stay at home, drink hot tea and stay warm. However, this past time is completely useless. In winter days, you need to spend as much time outside as possible, breathe clear frosty air, and to do exercise. There are many winter sports that people do professionally: snowboarding, figure skating, skiing, luge, curling, biathlon, hockey, speed skating, ski jumping. For adherents of winter tourism, ski resorts are opening up, with an ideal infrastructure. The mountain slope is equipped with a special track prepared for descents, using sports uniforms. Vacationers can always combine rest with skiing, snowboarding and sledding. Those who like to practice sport in the fresh air and away from big cities are welcomed Uzbekistan. The mild climate allows you to practice most sports almost all year round. For classic winter sports, there are four well – equipped mountain resorts: Chimgan, Bildirsoy, Amirsoy and Yangiobod. Their number is growing.

The National Olympic Committee, Committee for Physical Culture and Sports , Association of Winter Sports and sponsors held a meeting devoted to development of winter sports in Uzbekistan. Four winter sports federations: Federation of Ice Hockey, Federation of Figure Skating and Short Track, Federation of Curling and Federation of Skiing which will also include snowboarding, skiing, freestyle, ski jumping and other winter sports, will be created in Uzbekistan, the National Olympic Committee (NOC) said.

REFERENCE: Rajabov O.A.” The role of sport and physical training in the state policy of Uzbekistan during the years of independence.”

“Tashkent based

Humo club to play in Higher Hockey league in 2019 – 2020 season” Tashkent times June 3, 2019.

Sports. Uz. 28. 12 2020

Kun. Uz. 5. 02. 2020

ФИО автора: Маъсудов Шамсиддин Хусанович

Давлат Божхона Қўмитаси

Божхона институти 4-курс курсанти

Название публикации: «МАЖБУРИЙ МАРКАЛАШ — КОНТРАФАКТ
ТОВАРЛАРГА ҚАРШИМИЗ!!! СИФАТСИЗ ВА ХАВФЛИ ТОВАРЛАРНИНГ
ИҚТИСОДИЁТГА ТАЪСИРИ»

Аннотация. Коронавирус пандемияси, инсон саломатлиги учун асосий таҳдиддан ташқари, ҳам мавжуд деган хулосага келишди глобал иқтисодиёт ва мамлакатнинг иқтисодий хавфсизлиги учун муқаррар оқибатлар. Пандемия таъсири натижасида Иқтисодий ўсишнинг сезиларли пасайишига олиб келган COVID-19 ушбу кўрсаткичларни сақлаб қолиш ҳар қачонгидан ҳам муҳимроқ. таҳдидлар мақбул даражада. Мақолада товарлар айланмаси, шу жумладан улардан фойдаланишни назорат қилиш хусусиятлари кўриб чиқилади. Товарларни маркалаш, товар айланмаси тўғрисидаги маълумотларни товар айланмасини мониторинг қилиш бўйича давлат ахборот тизимида киритиш, амалга оширувчи операторнинг ҳуқуқий муносабатларида иштирок этиш, маркалаш кодларини чиқариш, маълумотларни йиғиш, уларни сақлаш ва тақдим этиш каби.

Калит сўзлар: COVID-19, белгилаш, акциз маркалари, голографик, контрафакт, "кулранг" усул, параллел импорт, репликация, мониторинг қилиш, "яширин" сектор, "Хонест Марк".

Аннотация. Они пришли к выводу, что пандемия коронавируса не только является серьезной угрозой для здоровья человека, но и имеет неизбежные последствия для мировой экономики и экономической безопасности страны. Сохранение этих показателей COVID-19, который привел к значительному замедлению экономического роста в результате пандемии, важнее, чем когда-либо. угрозы приемлемы. В статье рассматриваются особенности товарооборота, в том числе контроль за их использованием. Маркировка товаров, внесение данных об обороте в государственную информационную систему контроля оборота, участие в правоотношениях реализующего оператора, выдача кодов маркировки, сбор, хранение и представление данных.

Ключевые слова: COVID-19, обозначение, акцизные марки, голографические, подделка, «серый» метод, параллельный импорт, тиражирование, мониторинг, «скрытый» сектор, «Честная марка».

Annotation. They concluded that the coronavirus pandemic, in addition to being a major threat to human health, also has unavoidable consequences for the global economy and the country's economic security. Maintaining these indicators of COVID-19, which has led to a significant slowdown in economic growth as a result of

the pandemic, is more important than ever. threats are acceptable. The article discusses the features of goods turnover, including control over their use. Marking of goods, entering data on turnover into the state information system for monitoring turnover, participation in the legal relations of the implementing operator, issuance of marking codes, data collection, storage and presentation.

Keywords: COVID-19, designation, excise stamps, holographic, counterfeit, "gray" method, parallel import, replication, monitoring, "hidden" sector, "Honest Mark".

Пандемия билан боғлиқ бўлган дунё ҳолати COVID-19 нинг олиб келган муаммолардан бири бўлган иқтисодий хавфсизлик доирасидаги долзарб саволлар бизни қийинчиликда қолдирмоқда. Иқтисодий хавфсизликка таҳдид ва таҳдидлар вақтинчалик ва (ёки) мавҳум ҳам эмас, балки, улар иқтисодиёт ва жамиятга кучли зарбалар бериб, етакчилик қилмоқда. Бутун дунё илмий ҳамжамияти ҳимоя қилиш ва фаоллаштириш ҳолатидан келиб чиқиб стратегиялар ишлаб чиқилиб ва инқироз ҳодисалари, чақириқлари ва таҳдидларга қарши туришни таъминлашга қаратилган бўлиб, камида **25 та таҳдид**^[1]ни ўз ичига олади. Хусусан жинойatchилик, коррупция ва яширин иқтисодиёт каби ички таҳдидлар ҳам шулар жумласидандир. Кўрсатилган таҳдидларнинг кўрсаткичлари ва кўрсаткичларининг қийматларини сақлаб қолиш иқтисодий ўсишнинг секинлашувига салбий таъсир кўрсатиши табиий. Пандемиядан олдинги сўнгги йилларда жаҳон иқтисодиёти ўсиш тенденциясига эга эди. Йилдан йилга етакчи иқтисодий кучларнинг ўсиш суръатлари ошди. Пандемия даврида жаҳон иқтисодиёти синхрон равишда секинлаша бошлади ва ҳатто ривожланган ва ривожланаётган мамлакатларга ҳам таъсир қилди.

Америка Қўшма Штатлари ва Хитой ўртасидаги савдо қарама-қаршилик авж олди, иқтисодий ривожланишни секинлаштирди. Шундай қилиб, глобал ижтимоий-иқтисодий инқироз, коронавирус пандемияси оқибатида ички ва жаҳон бозорларининг қулашига сабаб бўлди.

Ташқи иқтисодий фаолиятга ташқи савдодаги ноаниқлик шартлари, ёпиқ чегаралар ва оширилган тарифлар бирмунча тўсқинлик қилмоқда. Бу нафақат ташқи савдо фаолиятининг ўзига салбий таъсир кўрсатди. Шунингдек, ишлаб чиқариш соҳасига ва инвестиция сиёсатига ҳам, ишлаб чиқариш ва истеъмолнинг ички таркибини ҳам ўзгартирди.

Иқтисодий фаол аҳолининг сезиларли қисми ишсизлар, шунинг учун аҳолининг даромадлари камайди, ишлаб чиқариш тўхтади ва кичик ва ўрта бизнес жуда қийин шароитларда қолди. Ноаниқлик ва кўрқув ҳолати одамларнинг хулқ-атвор хусусиятларига сезиларли даражада таъсир кўрсатди.

Ушбу муаммоларни ҳал қилиш учун давлат томонидан товар айланмасини кузатиш учун кўрилатган чоралардан бири бу *белгилаш*дир (этикеткалаш талаблари бир қатор товарларни идентификациялаш маҳсулотлар(мўйна), дорилар, парфюмерия, тамаки, поябзал ва бошқалар).

Контрафакт товарларга қарши технологиялар, маҳсулотларни қалбакилаштиришдан ҳимоя қилувчи махсус воситалардан, масалан, голограмма, сув белгиси, махсус рельеф ва ёрлиқлардан фойдаланишни ўз ичига

олади. Россияда товарларни маркалаш ва кузатилиши мумкин бўлган тизим ҳам мавжуд. Бунга ҳар хил турдаги *акциз маркалари* ва *голографик* стикерлар киради. Улар биринчи бўлиб алкоголь, тамаки маҳсулотлари ва компакт-дискларни этикеткаладилар.

“Контрафакт” нима?, ва сизнинг бизнесингизга қандай зарар етказади. n`RIS(интеллектуал мулк ҳимояси ва хавфсизлиги тизими) мутахассислари сизга қайси маҳсулотлар қалбакилаштиришга кўпроқ мойил эканлиги, қалбаки товарларни сизнинг брендингиз остида сотиш тўғрисида қандай маълумот олиш ва у билан қандай курашиш кераклигини айтиб беришади.

"Контрафакт" сўзи инглизча "сохта" - сохталаштиришдан келиб чиққан каби маъноларни изоҳлайди. Контрафакт маҳсулоти - бу муаллифлик ҳуқуқини бузган ҳолда мавжуд бўлган нусхасини кўчирадиган ҳар қандай янги маҳсулотдир. Сохта товарлар нафақат тўғридан-тўғри қалбакилаштириш, балки "*кулранг*" усулда олиб келинган (параллел импорт деб аталадиган) асл маҳсулотдир.

Божхона томонидан мусодара килинган предметлар тўғрисидаги маълумотларга кўра, дунёда сохта маҳсулотларнинг айланмаси йилига **200** дан **360** миллиард долларни ташкил қилади. Россияликларнинг **80%** дан ортиғи сохта маҳсулотларни сотиб олишга рози. Россия Федерал божхона хизмати маълумотларига кўра, 2009 йилдан 2016 йилгача аниқланган сохта маҳсулотларни етказиб бериш сони **10 марта**дан ошди!

Қалбаки пул ишлаб чиқариш тарихи тўқсонинчи йиллардан бошланади, чунки танқислик туфайли чет элдан юк ташийдиган транспортлар бозори пайдо бўлганди. Кейинчалик интеллектуал мулк тўғрисидаги биринчи қонунлар эндигина пайдо бўла бошлаган ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг бу соҳадаги ваколатлари сезиларли даражада чекланган эди.

Ҳозир кўпинча сохта маҳсулотлар Туркияда, Мисрда ва Хитойда ишлаб чиқарилади, бу эрда бутун заводлар сохта маҳсулот ишлаб чиқариш учун кескинлаштирилади. Бу, албатта, асл маҳсулот ишлаб чиқарувчиларнинг бизнесига зарар етказади. Репликациялар брендинг миллионлаб долларларга баҳоланадиган обрўсига путур етказади.

Мониторинг билан белгиланган товар айланмаси давлат ахборот тизимидан фойдаланиш хали ўрганилмаган, шу сабабли кўриб чиқиладиган муносабатларнинг мақсадлари, функциялари ва хусусиятларини таҳлил қилиш илмий қизиқиш уйғотади албатта.

Товарларни мажбурий маркалаш воситаси билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатлар идентификация қилиш билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатлар иштирокчилари, товарларни мажбурий маркалаш билан идентификация қилиш воситалари, бир неча гуруҳ шаклида ифодаланиши мумкин:

а) товар ишлаб чиқарувчилар ва импорт қилувчилар оператордан маркировка кодларини олишлари, улар товарларига кодларни қўллашлари муомалага киритилса, улар томонидан яратилган маълумотлар биринчи марта ахборот мониторинги тизимида киради. Маълумотлар тўғри деб ҳисобланади;

б) логистика субъектлари, улгуржи етказиб берувчилар сканердан ўтказишга мажбурдирлар ва унинг барча босқичларида маҳсулотни маркалаш коди сақлаш ва янгилаш учун етказиб бериш товарларнинг ҳаракатланиши ва сақланиши тўғрисида ахборот мониторинги тизимидаги маълумотлар;

в) чакана савдо тармоқлари, дўконлар, дистрибьюторлар маҳсулотни жойлаштиришда маҳсулотнинг маркалаш, кодини сканерлаш савдо майдончасида амалга оширилади ва харидорга товарларни бошқа вариантлари (чакана савдо) таклиф этилади. Маҳсулот чакана савдо тармоғида ҳам мавжуд эканлиги ҳақида ахборот берувчи мониторинг тизимининг мавжудлигини, онлайн маҳсулотни сотиб олаётганда, фискал аккумулятордан фойдаланган ҳолда ҳисобланишини, товарларнинг қонунийлигини тасдиқлайди. Ахборотни мониторинг қилиш тизими маҳсулот ёрлиғи кодининг муомаладан чиқарилганлиги тўғрисида маълумот олади;

г) Харидор товарларни ахборот тизимидан фойдаланган ҳолда қонунийлигини текширишга имкон берувчи мобил илова орқали, товарларни ва уни ишлаб чиқарувчиларни(импорт қилувчилар) маркировка кодини ўқиш орқали тасдиқлашга ҳақли. Агар дастур маҳсулот кодини аниқлай олмаса, тизимда қонунбузарлик тўғрисидаги ҳисоботни олади.

Товар айланмасини кузатиш хусусиятлари товарларнинг бир қатор ҳуқуқий ва иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш имконияти билан боғлиқ.

Мониторинг қилиш қуйидаги вазифалардан иборат: контрафакт, қалбаки товарларни муомалага киритилишининг олдини олиш, "яширин" секторда ишлаб чиқарилган товарларнинг сотилишини олдини олиш, ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, товар айланмаси тўғрисидаги маълумотлар ва мижозларга замонавий технологиялардан фойдаланган ҳолда маҳсулот ҳақида маълумот олиш имкониятини бериш.

Мониторинг қилиш хусусиятлари белгилаш функциясига тегишли бўлиши мумкин. Улгуржи ва чакана товар айланмасини таҳлил қилиш функцияси товарларни ишлаб чиқариш, импорт қилиш, ассортименти ва сотиш ҳажмларини кузатиб бориш, мажбурий этикетлаш шартларини ўз ичига олади. Ахборот функцияси саноат ва савдо вазирлиги ва ҳар бир харидорнингманфаатли маълумотларни тезкор олиш имконини беради. Идентификация функцияси эса маркалаш кодидан фойдаланиб товарларни аниқлаш ва ўрнатиш, уларнинг ишлаб чиқарилиши ва муомаласининг қонунийлигини аниқлашга имкон беради.

Маҳсулот ёрлиғи ёрдамида мониторинг қилиш хусусиятлари идентификациясига қуйидагиларни киритиш мумкин^[2]:

-  самарадорлик - режимга кириш ҳақида маълумот олиш учун реал вақтда товарларнинг ҳаракати;
-  яхлитлик - қабул қилиш ва қайта ишлаш товар айланмаси тўғрисида тўлиқ маълумотларнинг кенгайтирилган ахборот оқими ва ахборотни давлат ахборот тизимида аниқ киритиш;
-  ишончлилиқ - тизимга маълумот олингандан сўнг, товарлар тўғрисидаги маълумотларни тизимдан ўзгартириш ёки ўчириш мумкин эмас;
-  ахборотлилиқ –мазмунли маълумотлар билан таъминлаш.

Қалбаки пул ишлаб чиқариш тарихи тўқсонинчи йиллардан бошланади, чунки танқислик туфайли чет элдан юк ташийдиган транспортлар бозори пайдо бўлганди. Кейинчалик интеллектуал мулк тўғрисидаги биринчи қонунлар эндигина пайдо бўла бошлаган ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларининг бу соҳадаги ваколатлари сезиларли даражада чекланган эди.

Ҳозир кўпинча сохта маҳсулотлар Туркияда, Мисрда ва Хитойда ишлаб чиқарилади, бу эрда бутун заводлар сохта маҳсулот ишлаб чиқариш учун кескинлаштирилади. Бу, албатта, асл маҳсулот ишлаб чиқарувчиларнинг бизнесига зарар этказади. Репликациялар бренднинг миллионлаб долларларга баҳоланадиган обрўсига путур етказади.

Интеллектуал мулкни ҳимоя қилиш нуқтаи назаридан сохта товарларнинг бир неча турлари мавжуд^[3]:

- ✚ бировнинг логотипи ёки асл нусхага жуда ўхшаш, уларни аралаштириб юбориш осон бўлган логотипдан фойдаланиш. Масалан “Adidas” ўрнига “Abibas”;
- ✚ маҳсулот кўринишини сохталаштириш, унинг дизайн ечимлари. Кўпинча, ушбу турдаги сохта нарсалар сохта соатлар, кийим-кечаклар, аксессуарлар, ҳатто мебел ва декор буюмларини ўз ичига олади;
- ✚ китоблардан, компьютер дастурларидан, мултимедиа маҳсулотларидан ноқонуний фойдаланиш билан муаллифлик ҳуқуқини бузиш (қароқчилик дискларини чиқариш);
- ✚ патентланган техник ечимлардан ноқонуний фойдаланиш.

Контрафакт товарлар билан қандай курашиш мумкин?

Контрафактга қарши технологиялар, маҳсулотларни қалбакилаштиришдан ҳимоя қилувчи маҳсус воситалардан, масалан, голограмма, сув белгиси, маҳсус релъеф ва ёрлиқлардан фойдаланишни ўз ичига олади. Россияда маҳсулотни маркалаш ва кузатилиши мумкин бўлган тизим ҳам мавжуд. Бунга ҳар хил турдаги акциз маркалари ва голографик стикерлар қиради. Спиртли ичимликлар, тамаки маҳсулотлари ва компакт-дискларга биринчи бўлиб улар ёрлиқ ёзишди.

Россияда бир неча йилдан буён жорий қилинган “*Хонест Марк*”^[3] тизими ҳар бир товар турини криптография билан ҳимояланган ноёб рақамли код орқали аниқлайди. Бу давлатга, бизнесга ва истеъмолчига ҳар қандай маҳсулотни ишлаб чиқарувчидан то охириги харидоргача бўлган йўлини назорат қилиш, маҳсулотларни қалбакилаштиришдан ҳимоя қилиш имконини беради. Россияда **2019 йилдан** бошлаб бир қатор товарларни (сигарета, поябзал, кийим-кечак, шиналар ва бошқаларни) мажбурий ёрлиқлаш жорий қилинган, сут маҳсулотлари ҳам **2020 йилдан** бошлаб ёрлиқланмоқда. **2024 йилга** қадар барча товар турлари бўйича ёрлиқларни узлуксиз қилиш режалаштирилган. Кўпинча дори-дармон воситалари, шунингдек алкоголь, тамаки ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларига мажбурий ёрлиқ ва кузатиладиган тизимлар жорий этилади. Контрафакт маҳсулотларни ишлаб чиқариш ва тарқатиш учун фуқаролик жавобгарлиги **беш миллион рубльгача** жаримани назарда тутди. Шу билан бирга, сўнгги йилларда зарар катта ёки айниқса катта ҳажмда етказилган бўлса, жиноий жавобгарлик ҳам қўлланила бошланди. Муаллифлик ҳуқуқини

бузганлик учун жиноий жавобгарликка тортилган тақдирда энг кам жарима **200 минг рубль** миқдорида жарима ҳисобланади. Шунингдек, суд ахлоқ тузатиш ишлари ва олти ойгача қамоққа олиш тўғрисида қарор чиқариши мумкин.

“Alibaba” Group асосчиси Жек Ма компаниянинг интернет-дўконларида сотилаётган қалбаки маҳсулотларнинг сифати асл маҳсулотлардан юқори эканлигини айтди. Шу билан бирга, дунёдаги энг йирик онлайн-чакана савдо тармоғининг раҳбари дунёда ҳеч ким “Alibaba”дан кўра қалбаки пулларга қарши курашишга қодир эмаслигига ишонтирди^[4].

“Alibaba” Group кўп маротаба ўз онлайн-дўконларида таниқли брендларнинг сохта маҳсулотларини сотишда жуда ғайратли эмасликда айбланган. Бу борада ишлаб чиқарувчилар бир неча бор судга мурожаат қилишди (ўтган йили, масалан, “Gucci” ва “Yves Saint Laurent” брендларига эгалик қилувчи француз “Kering” компанияси унга қарши даъво аризаси билан чиққан).

Бироқ, онлайн-чакана савдо тармоғининг асосчиси Жек Ма сешанба куни Хитойнинг сохта товарлари нафақат асл товарларга нисбатан сифат жиҳатидан кам эмас, балки уларникидан ҳам яхшироқ эканлигини айтди, ва бу, Ма сўзларига кўра, компанияни ундан халос бўлишига тўсқинлик қилмоқда.

Агар тергов қонунбузарликлар бир гуруҳ шахслар томонидан олдиндан келишилган ҳолда, айниқса кенг миқёсда амалга оширилганлигини аниқласа, унда жарима миқдори **500 минг рубль**гача оширилади. Жазо сифатида улар мажбурий меҳнатга ёки олти йилгача озодликдан маҳрум қилишга ҳам қодир. Қандай бўлмасин, сохта маҳсулотларни мажбурий равишда мусодара қилиш кўзда тутилган бўлиб, уни кўпайтириш учун ишлатиладиган ускуналар ва материаллар кўпинча хибсга олинади.

Кўпинча сохта нарсалар орасида ўйинчоқлар, кийим-кечак ва поябзал, маиший электроника ва аксессуарлар, батареялар, маиший кимё, парфюмерия, минерал сув, сут маҳсулотлари, дори-дармон ва сигареталар мавжуд. Швейцариялик соатлар учун қалбакилаштириш одатий ҳодиса бўлиб, ушбу тоифадаги товарларда сохта маҳсулотлар ишлаб чиқаришдан тушадиган маблағ ҳар йили миллиард долларни ташкил этади.

Маҳсулотларингиз учун сохта маҳсулотларни аниқлашниинг усулини экспертлар, кидирув тизимларини ва бозорларни кузатишни тавсия этадилар. Катта кийим-кечак бозорлари каби таниқли сохта савдо нуқталарида ўтказилган рейдлар ҳам самарали бўлиши мумкин. Катта савдо каналлари тезкор хабарчилар ва ижтимоий тармоқларга (Telegram, WhatsApp, Instagram) кўчиб ўтди.

Адабиётлар:

[1] <https://1economic.ru>

[2] <https://cyberleninka.ru/article/n/monitoring-oborota-tovarov-kak-osobaya-forma-gosudarstvennogo-kontrolya>

[3] <https://nris.ru>

[4] <https://www.kommersant.ru>

ФИО автора: Boysunov Jonibek Xidirovich

QarDU o'qituvchisi

Название публикации: «GLOBAL O'ZGARISHLARNING YOSHLAR
MA'NAVIY MADANIYATIGA TA'SIRI»

Annotatsiya: Maqola globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviy madaniyatiga ta'siri va uning oqibatlari masalasiga bag'ishlangan. Global o'zgarishlarning yuzaga kelishi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilinib, yoshlar ma'naviyatini shakllantirish masalalari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, madaniyat, globallashuv, ma'naviy tahdid, gomogenlashuv, universallashuv, rehabilitatsiya, axborot xuruji.

Biz yashayotgan davr insoniyat tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlar va yangilnishlarga boy bo'layotgani bilan ajtalib turibdi. Rivojlanish dunyoning deyatli barcha nuqtalarida ko'zga tashlanmoqda. Buni asosini global o'zgarishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki aynan globallashuv ta'sirida bu yutuqlarning ommalashayotganini ko'rib turibmiz. Globallashuvning mohiyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, olimlar uni universal, milliy chegarani yuvilib ketishi, dunyoning gomogenlashuvi va universallashuvi(B.Bandi), hayot sur'atlarininng beqiyos darajada tezlashuvi(I.Karimov), inson aql-zakovati, iqtidori va tinmay amalga oshirgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiyalar ta'sirida harakat qilayotgan jarayon(S.Otamurodov) sifatida ta'riflashadi. Ushbu ta'riflarni inkor etmagan holda globallashuvga butun insoniyat hamjamiyati taraqqiyoti va ayni damda tanazzuli uchun ham foydalanishi mumkin bo'lgan, ikki tomonlama (ham ijobiy, ham salbiy) jarayon sifatida baho berishimiz mumkin. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov bu borada o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" kitobida shunday ta'kidlagan edi: "Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganinig asosiy omili va sabasi xususida gapirganda shuni ob'ektiv tan olish kerak- bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va

uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas"[1.111]

Bugungi kunda inson qalbi va ongi uchun kurashning yangidan yangi usuli va vositalari ko'payib bormoqda. Ayniqsa, bu borada dindan niqob sifatida foydalanishga urinishlar rivojlanib borayotgani tashvishlanarli hol. Bugungi kunda diniy e'tiqodiy tushunchalarni noto'g'ri talqin etish orqali dunyoning turli mintaqalarida bosqinchilik, qo'poruvchilik va terrorchilik harakatlarini sodir etish holatlari avj olib bormoqda. Bu esa millatlararo va dinlararo adovat, millatchilik hamda diniy ayirmachilik kayfiyatining shakllanishiga zamin yaratmoqda. Natijada uzoq yillar davomida tinch-osuda rivijlanish yo'lida bo'lgan jamiyatlar parokonda bo'lib, aholi va yoshlar urushlar girdobida qolib ketmoqda.

Shu sababli bugungi kunda aholini, ayniqsa, yoshlarni din bayrog'i ostidagi axborot xurujlari hamda turli oqimlar safiga qo'shilib qolishdan saqlab qolish, bilib-bilmay terrorchi guruhlar tarkibiga kirib qolgan yoshlarni jamiyatga qayta moslashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo bo'ylab kuzatilayotga bunday tendensiyalar respublikamizni ham chetlab o'tayotgani yo'q. Yaqin Sharq mintaqasidagi turli terrorchi guruhlar tarkibiga kirib qolgan va bu ishidan pushaymon bolsada, yurtiga qaytolmay yurgan shaxslar vataniga qaytarildi. Bu borada Markaziy Osiyo davlatlari ancha faollik ko'rsatayotganini qayd etish o'rinli. Xususan, Qozog'iston "Jusan", "Jusan-2", "Jusan-3" insonparvarlik operatsiyalari natijasida 595 nafar, O'zbekiston "Mehr" va "Mehr-2" insonparvarlik operatsiyalari natijasida 220 nafar, tojikiston 84 nafar fuqarolarini o'z ona yurtiga olib keldi. Vataniga qaytarilgan shaxslarning kata qismini yoshlar, ayollar va bolalar tashkil qiladi. Endilikda davlatlarning oldida turgan vazifasi olib kelingan fuqarolarnin ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish, rehabilitatsiya qilish va uy-joy bilan ta'minlash bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda mazkur sohani yaxshi tushunuvchi psixolog, islomshunos, axloqshunoslarga alohida ma'suliyat yuklagan holda rehabilitatsiyani hayotiy va sodada

usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu o'rinda reabilitatsiya o'zi nima, reabilitatsion jarayonlar mamlakatimizda bo'lganmi, degan savol tug'ilishi tabiiy .

Reabilitatsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "re"- yana, qayta "Habilitatio"- yaroqlilik, tiklash ma'nolarini bildiradi. Qisqacha qilib aytganda "qayta tiklash" degan ma'noda ishlatiladi. Reabilitatsiya atamasi tibbiyot sohasida ham keng qo'llanilib, bemor va mehnat qobiliyatini yo'qotgan insonlarni to'la-to'kis tiklashga qaratilgan tibbiy, pedagogik ijtimoiy chora- tadbirlar hisoblanadi. Ekstremistik va terrorchilik faoliyatiga aloqador shaxslar hamda ularning oila a'zolari ham ijtimoiy reabilitatsiya qilinadi. Jumladan islomdagi ilk bo'linishlar va ixtiloflarga sabab bo'lgan xorijiylik firqasi vakllari diniy amallarni bajarishda mustahkam bo'lishlariga qaramay, ilmsiz ekanligi sababli turli fitnalarni keltirib chiqarganlar. O'sha davrda xalifa bo'lgan Ali (r.a.) ularga haq yo'lni ko'rsatish maqsadida sahobiy Abdulloh ibn Abbos (r.a.) ni xorijiyalar oldiga yuboradilar. Ibn Abbos xorijiyalarning hukumatga nisbatan noroziligini keltirib chiqargan va g'azablanishiga sabab bo'lgan masalalar yuzasidan oyat, hadis va shariat qoidalari asosida mantiqiy javob berishlari natijasida, ularning ikki mingga yaqini to'g'ri yo'ldan adashganini anglab yetib, xorijiyalar safidan chiqqan. Bu esa mafkuraviy jihatdan aldangan yoshlarni global o'zgarishlar jarayonida ilm - ma'rifat asosida to'g'ri yo'lni tanlab olishi uchun eng samarali usul ekanini ko'rsatadi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72- sessiyasida so'zlagan nutqlarida aytgan quyidagi so'zlari nihoyatda o'rinlidir: "Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so'ngi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotganidan dalolat beradi. Bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularni oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, deb hisoblayman. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va ma'naviy madaniyatini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"[2]

O'rganishlar hali bu sohada ko'plab izlanishlar va tahlillar olib borilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, diniy omil ta'sirida adashgan oqimlar safiga qo'shilib qolgan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarish ularni milliy g'oya va vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash lozim.

Xulosa o'rnida shuni alohida qayd etish kerakki, global o'zgarishlar davrida yoshlarimizni ma'naviy tahdidlar ta'siriga tushub qolmasliklari uchun diniy va milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassamlashtirgan uslubiy qo'llanmalar yaratish, joylarda ma'naviy – ma'rifiy targ'ibotlarni tizimli tashkil qilish va bu borada jamoatchilik fikrini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, Prezidentimiz tashabbuslari bilan bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarni keng jamoatchilikka yetkazish, odamlarni o'ylantirib kelayotgan kamchilik va muammolarni o'z vaqtida bartaraf etish yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, ularni ona –Vatanga muhabbat, milliy va diniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash asosida har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Falsafa ensiklopedik lug'at.- T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010,309 bet.
2. MirziyoyevSh.M. “Niyatiulug' xalqimizningishi ham ulug', hayotiyorug' va kelajagi farovon bo'ladi”, -T.: O'zbekiston,3-jild,2019. 83-84 -betlar.
- 3.Karimov I.A.“Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch”.-T.:Ma'naviyat, 2011. 111-bet
- 4.Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 72- sessiyasida so'zlagan nutqi. 2018. 19-sentabr

ФИО автора: Shahnoza Tosheva

Qarshi davlat universiteti magistranti

Название публикации: «AXBOROT XURUJI VA MAFKURAVIY KURASH»

ANNOTATSIYA

Maqola axborot xurujlariga qarshi kurashda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarb vazifalariga bag'ishlanadi. Axborot olamning beqiyos darajada kengayishi va uning inson va jamiyat hayotiga ta'sir etishi bilan bog'liq masalalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborotlashtirish, mafkura, g'oya, mafkuraviy immunitet, axloq, ma'naviy tahdid, globallashuv, g'oyaviy tarbiya.

Mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish va mafkuraviy immunitetni shakllantirish barkamol avlod tarbiyasining muhim yo'nalishidir. Bugungi insoniyat turli xil g'oyalar va siyosiy kurashlar butun jahon miqyosida avj olayotgan, g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskinlashayotgan bir sharoitda yashamoqda. Bugungi kunda globallashuv shiddatining tobora avj olishi g'oyaviy-mafkuraviy kurashlarning kuchayishiga zamin yaratmoqda. XXI asrga kelib axborotning qudratli qurolga aylanishi, afsuski, ayrim hollarda undan g'arazli va buzg'unchi maqsadlardan foydalanishga intilish tobora kuchaymoqda. Xususan, mazkur qurol yordamida harbiy kuchlar orqali amalga oshirib bo'lmaydigan maqsadlarga bevosita erishish mumkin. Bugungi kunda axborotdan vayronkor qurol sifatida foydalanish maqsadida ayrim yetakchi davlatlar o'zga mamlakat aholisi ongi va dunyoqarashini o'zgartirish maqsadida g'oyaviy, mafkuraviy ta'sir o'tkazishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Mafkuraviy-g'oyaviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan axborot xuruji orqali inson qalbi va ongini zabt etishga bo'lgan harakatlar tobora kuchaymoqda. Binobarin, axborot xuruji orqali inson ma'naviyatiga salbiy ta'sir etuvchi g'oyalar: axloqiy buzuvchilik, zo'ravonlik, xudbinlikka zamin yaratuvchi yot oqimlar ta'siri insonlarni manqurtlikka yo'naltiruvchi illatlarni ijtimoiy namoyon bo'layotganligi barchamizdan jiddiy fikrlashni talab etmoqda. Bu haqda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov: "Hozirgi kunda

jahonda iqtisodiy kurash bilan birga, mafkuraviy qarama-qarshilik ham kuchayib bormoqda. Mafkuraviy kurash-bu avvalo, siyosiy kurash degani. Har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy nuqtai nazardan manfaati bo'lishi tabiiy hol. Bularning orasida ma'naviyat sohasidagi manfaat va kurash eng muhim jabha hisoblanadi", -deya ta'kidlagan bejiz emas, albatta. Zero, globallashuv sharoitida mafkuraviy kurash eng katta ta'sirchan kurash sifatida namoyon bo'lmoqda. Aynan, mafkura poligonlarida olib borilayotgan kurash uchun juda katta sarmoyalar safarbar qilinayotganligi tobora oydinlashmoqda. Globallashuv sharoitida dunyo miqyosida OAV, matbuot, Internetdagi ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyat va davlat ahamiyatiga molik rang-barang axborot va ma'lumotlar tarqatilmoqda. Ayniqsa, Internet veb sahifalari orqali turli siyosiy kuchlar o'zlarining g'arazli va buzg'unchi g'oyalarini targ'ibot etish orqali o'z manfaatlari yo'lida foydalanishayotganligini ta'kidlash o'rinlidir. Globallashuv shiddatining tobora avj olishi internet orqali mafkuraviy g'oyaviy ta'sir o'tkazishning o'ziga xos jihati sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, mafkuraviy ta'sir ko'rsatishda internet katta mablag' talab qilmagan holda yuqori samara beradi. Islom Karimov: "Hozirgi vaqtda dunyoda kim hukmronlik qilayapti, deb so'rasangiz, kim axborot-kommunikatsiya tizimiga egalik qilayotgan bo'lsa, o'sha xukmronlik qilayapti, deb javob bergan bo'lardim. Bugun biz juda murakkab sharoitda hayot kechirmoqdamiz. Hozirgi vaqtda dunyoda bo'layotgan turli voqea-hodisalar, tez o'zgarayotgan hayot jarayonlari ertaga qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish qiyin. Dunyoda turli informatsiya oqimlari, axborot makonlari va manbaalari, mafkura poligonlari ko'p. Ulardan qaysisi to'g'ri, qaysisi ishonchli, qaysi biri g'arazli ekanini farqlash oson bo'lmayapti. Mana, Internetni olaylik, unda nimalar yo'q, hamma narsa bor. Yolg'on ham, to'g'ri narsa ham bor. Hatto, odamlarning kurakda turmaydigan rasvo fikrlarini ham internetdan topish mumkin. Biz bolalarimizni ana shunday aldov va yolg'on ma'lumotlar girdobida, buzuq, zararli g'oya va mafkuralar qarshisida yolg'iz qoldirolmaymiz. Ularni asrash uchun internetni eplash, to'g'ri o'zanga solish, ta'bir joiz bo'lsa, Internetni jilovlash kerak", - deya alohida ta'kidlab o'tgan edi. Shu tariqa, ijtimoiy tarmoqlar orqali jamiyatga turli tuman axborot va ma'lumotlarni tarqatilishi inson qalbi va ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada,

o'zida yot g'oyalarni aks etuvchi axborotlar yoshlar ongiga singdirilishi oqibatida salbiy holatlarni keltirib chiqarishini anglash lozim. Aynan, Internet va boshqa kommunikatsiya vositalarining o'ta rivojlanib ketishi axborot tarqatish, xususan, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir o'tkazish imkonini borgan sari kengaytirib yubormoqda. Zero, har qanday axborot xurujlari orqali muayyan xalq, millatning mentaliteti, madaniyati, ma'naviyati, dini, davlatning informatsion-texnologik, harbiy infratuzilmasiga destruktiv tarzda nishonga olinayotganligi namoyon bo'lmoqda. Aynan, yoshlar qalbi va ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yuqori texnologik vositalar tizimi asosidagi maxsus dezinformatsion (ataylab noto'g'ri tarqatilgan axborot) axborotlar tarqatish oqibatida yoshlar g'oyaviy va mafkuraviy ta'sir o'tkazishga urinish tobora kuchaymoqda. Shu o'rinda axborot xuruji deganda muayyan kuchlar tomonidan yoshlar ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga ma'naviy, moddiy, ruhiy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asosida siyosiy maqsadlarini amalga oshirish tushuniladi. Shu tariqa, axborot xurujlari ta'sirida madaniyatsizlik, e'tiqodsizlik kabi bir qator "ta'limotlarini" oshkora, ba'zan esa yashirin tarzda targ'ib etilmoqda. Natijada, milliy ruh, millatning o'ziga xosligi va uning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali zimdan yemirishga zamin yaratmoqda. Bugungi kunga kelib, dunyoning "ayrim" siyosiy markazlari axborot xurujlarini amalga oshirish orqali rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon axborot makoniga chiqish jarayonini izdan chiqarishiga intilmoqda. O'z navbatida, mazkur fikrlar zahirida axborot xurujlarini uyushtirish oqibatida millatning azaldan shakllangan qadriyatlari, milliy ma'naviyat va madaniyatga zarba berish orqali mamlakat miqyosida amaldagi boshqaruv tuzumiga nisbatan norozichilik kayfiyatlarini keltirib chiqarish natijasida o'zaro diniy, milliy, etnik ziddiyatlar tufayli barqarorlikni izdan chiqishi uchun zamin yaratishini anglash lozim. Yurtimizda fuqarolarimiz qalbi va ongida o'zida g'arazli va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi axborot xurujlarini oldini olishda quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratishni taqoza etmoqda:

- milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga mutlaqo zid bo'lgan, o'zida zararli g'oyalar, mafkuraviy xurujlarni namoyon etuvchi axborot xurujlarining mohiyatini anglash, aniqlash orqali uning asl mohiyatini ochib berish;
- milliylikimizga yot bo'lgan, yoshlarimiz ongi, qalbini egallashga qaratilgan axborot xurujlari tahdidiga qarshi jamiyatning barcha qatlamlarini mafkuraviy qurollantirish;
- milliy ma'naviyatimizga rahna solish orqali milliy o'zlikni anglashga putur yetkazuvchi axborot xurujlariga yo'l qo'ymaslik;
- yurtimizga chetdan "o'zgacha" madaniyatni targ'ib etuvchi axborot xurujlarining turli xil tahdidlaridan asrash, unga qarshi kurashda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini bir maqsad yo'lida safarbar etish.

Bugun biz axborot almashinuvi jadallashgan, tinimsiz yangilanib borayotgan davrda, ya'ni globallashuv sharoitida yashayapmiz. Globallashuv jarayoni ilm-fan, texnika taraqqiyoti bilan birgalikda inson ma'naviyatiga ham o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda. Axborot inqilobi davom etayotgan hozirgi zamonda axloqiy-ma'naviy o'zlikni saqlab qolish, vatanparvarlik kabi ma'naviy qadriyatlarni tarbiyalash dolzarblashib bormoqda. Globallashuv jarayonida moddiy, ma'naviy imkoniyatlar, eng zamonaviy informatsion vositalar – kompyuter, internet, uyali aloqa vositalari va boshqa zamonaviy texnika vositalaridan foydalanilmoqda. Sirtidan qaraganda, ana shu vositalar bugun insoniyat turmush-tarzining rivojlanishi, ayniqsa, endi taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlar va xalqlarning moddiy jihatdan yaxshilashga, umumjahon demokratik qadriyatlar tizimiga kirib borishlari va ularning ma'naviy - ma'rifiy darajalarini o'sib borishiga ijobiy ta'sirini o'tkazayotganday ko'rinmoqda.

Haqiqatan ham, hozirgi zamonaviy informatsion vositalardan biri bo'lgan internet fan, texnika va texnologiya sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlarni qisqa muddatlarda ommaviylashishini ta'minlamoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev internet haqida to'xtalib o'tib, quyidagi fikrni bildirgan, "Eng tezkor axborot vositasi – internet hayotimizga tobora chuqur kirib

borayotganini alohida qayd etish lozim. Hozirgi vaqtda global tarmoqda Uz domenli veb-saytlar, axborot portallari soni 400 dan oshib ketgani, ularning aksariyati xorijiy tillarda ham faoliyat ko'rsatayotgani, ushbu yo'nalishda yangi ijodiy avlod – Internet jurnalistlari shakllanib borayotgani e'tiborga sazovordir”.

Internet ommaviy kommunikatsiya ta'sirini eng baland pog'onaga ko'tardi, veb-saytga joylashtirilgan birgina ma'lumotni yashin tezligida dunyo bo'ylab tarqatish imkonini berdi. Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, vayronkor g'oyalar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar yosh avlodning har biriga ta'sir o'tkazmoqda. Keyingi paytlarda internet orqali buzg'unchilikka chaqiruvchilar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanuvchilar ko'payib bormoqda.

Jahon axborot tarmog'iga kirayotgan yoshlar soni soat sayin ortmoqda. Masalan, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar soni 2008 yilda 2 million bo'lsa, 2016 yilda 13 milliondan oshganini, ularning aksariyati yoshlar ekanini alohida qayd etish lozim. Asosiy masala – internetdan kim qanday foydalanishida. Hozir yosh bola ham kompyuterni bemalol ishlata oladi. Bir qarashda, buning yomon joyi yo'qdek, Ammo haddan oshilsa, nazorat bo'shshsa, oqibati ayanchli bo'ladi. Bugun shaxsni manqurtga aylantirish uchun Chingiz Aytmatov yozganidek, tuya terisini odamning taqir boshiga kiydirish shart emas. Endi sodir bo'ladigan urushlar jang maydonida emas, balki mafkura poligonida yuz beradi. Shu jihatdan qaraganda, yoshlarning ko'p vaqtini internetda behuda sarflashi katta fojia. Bu bilan internetni cheklash kerak degan fikrdan yiroqmiz, chunki har bir narsani ijobiy va salbiy tomonlari bo'ladi. Shundan kelib chiqib, Birinchi Prezident I.Karimovning internet haqidagi quyidagi fikrlarini eslash joiz, “...Albatta, internet orqali dunyoning istalgan nuqtasi bilan tezkor aloqa o'rnatish, zudlik bilan zarur axborot va ma'lumotlarni olish, bilim va ma'rifatni oshirishda uning beqiyos o'ri va ahamiyati borligini hech kim inkor etolmaydi. Biz odamlarimizning internet imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishga bo'lgan intilishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz. Takror bo'lsa-da, aytmoqchiman –

axborot olamida qandaydir devor o'rnatish, o'z qobig'iga o'ralib, mahdudlikka yuz tutish yo'li bizga aslo ma'qul emas".

Internet insonlarga fikr almashish, ma'lumotlarni tez va oson olish, foydaliyu zarali xabarlarni hech bir moneliksiz tarqatishga imkoniyatlar ochdi, geografik chegaralardan oshdi va uzoq masofalarni yaqin qilmoqda. Internetni noto'g'ri ishlatish xatarli oqibatlariga, salbiy natijalarga sabab bo'lib, o'nglanmas zarari ortib bormoqda. Ya'ni internet buzg'unchi g'oyalar, yovuz qarashlar va behayo ma'lumotlar tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa yosh avlodning oilaviy hayotdan, ijtimoiy munosabatlardan uzoqlashuviga, buzg'unchi g'oyalarga tobe bo'lishiga, befoyda suhbatlarga, vaqtни zoye ketishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda axborot xuruji va uning oldini olish hamda bartaraf etishning eng samarali usuli sifatida, avvalo, yoshlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni muntazam o'tkazish, ularni doimo ogohlikka da'vat etish orqali yurtimizning istiqbolli reja va maqsadlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Islom Karimov. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish- eng oliy saodatdir. – T., "O'zbekiston". NMIU. 2015. – B. 297.
2. Karimov I.A. Hayot sinovlarida toblangan Qashqadaryo eli har qanday yuksak marrani egallashga qodir. -T., "O'zbekiston". 2016. – B. 18-19.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –B.498.
4. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya–T.: "Movaraunnahr", 2016. –B.5.

ФИО автора: Хакимова Лола Фуркатовна

Магистр образовательной программы филиала МГУ им. М.В. Ломоносова в городе Ташкент и НУУЗ

Практикующий психолог. Специалист агентства развития государственной службы при Президенте Республики Узбекистан

Название публикации: «РИСУНОЧНАЯ МЕТОДИКА АРТ-ТЕРАПИИ КАК ОБЪЕКТИВНЫЙ МЕТОД ВЫЯЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ МОЛОДЫХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ»

Аннотация: в данной статье приведены итоги научно исследовательской работы на основе психодиагностики руководителей с помощью метода арт терапии. Так же в данной статье описано то как арт-терапевтическая методика влияет на сознательные и бессознательные процессы управленцев и какие процессы формирует.

Ключевые слова: арт-терапия, психотерапия, психодиагностика, психокоррекция, экзистенциальные кризисы, бессознательный процесс, психоэмоциональная разгрузка, стрессоустойчивость.

Познав истину, мы можем многое изменить

В настоящее время арт-терапия получает все большее распространение как самостоятельное направление в психотерапии. Однако методы и техники арт-терапии могут быть использованы в контексте как метод психодиагностики и в консультирование руководителей и военных, а также лидеров. В качестве особого вида профессиональной деятельности арт-терапия начала развиваться в Великобритании после Второй Мировой войны в тесной связи с психотерапией. Терапия осознанным самораскрытием в творчестве вышла из психоанализа З. Фрейда, аналитической психологии К. Юнга, из психодрамы Дж. Морено и из динамической теории терапевтической помощи графическим самовыражением американского педагога М. Наумбурга.

По мнению А. Копытина, арт-терапия является междисциплинарной областью знания. В ходе арт-терапевтических занятий клиенты вовлекаются в изобразительную деятельность не подозревая как подсознание отвечает на поставленные вопросы психолога. Арт-терапевтические техники дают возможность относительно безболезненного доступа к глубинному психологическому материалу, стимулируют проработку бессознательных

переживаний, обеспечивая дополнительную защищенность и снижая сопротивление изменениям.

Спектр проблем, при решении которых могут быть использованы техники арттерапии, достаточно широк: внутренние и межличностные конфликты, кризисные состояния, в том числе экзистенциальные и возрастные кризисы, травмы, потери, невротические и психосоматические расстройства. Арттерапия открывает простор для психолога (любые виды психокоррекции, расширение диагностического метода, развитие личности, семейные и детско-родительские отношения, жизненные, возрастные и экзистенциальные кризисы, психологические травмы, психические заболевания, пограничные состояния, многие органические поражения и расстройства, посттравматическая психотерапия, умственная отсталость и т.д.).

Сотрудниками (психологами) института изучения проблем молодежи и подготовки перспективных кадров при академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан было проведено исследование молодых руководителей (в количестве 98 человек) в целях изучения различных пластов бессознательных процессов, которые способствовали становлению лидером и управленцем. Для исследования был использован метод арт-терапии «Дом-дерево-человек», автором которого является Дж. Бак с последующей психологической беседой.

Диагностические и оценочные процедуры в арт-терапии основаны на признании бессознательного и того, что образы являются его естественным «языком». Определенная информация может быть усвоена сознанием лишь благодаря ее передаче посредством образов, и эта информация не может быть передана словами. В процессе формирования и создания визуальных образов происходит оживление воспоминаний и фантазий, испытуемый не осознает, какое психологическое содержание раскрываются в образах.

В тех случаях, когда переживания нельзя выразить словами из-за их связи с тем периодом развития, когда речь еще не была сформирована, либо из-за перенесенной психической травмы, изобразительные средства обеспечивают доступ к этим переживаниям. Образы позволяют выражать чувства; они также вызывают разнообразные эмоциональные реакции и служат психологическим изменениям; образы затрагивают как сознательный, так и бессознательный уровень психической деятельности, обеспечивают доступ к довербальным формам психического опыта; помогают в раскрытии проблемного психологического состояния и помогает в преодолении защитной реакции

испытуемого; образы затрагивают прошлый и текущий опыт, а также позволяют выражать представления о будущем; новые ситуации и модели поведения могут быть смоделированы и проиграны в образной форме, прежде, чем они найдут свое выражение в реальном поведении и будут осмыслены; в то же время они могут осуществляться на разных уровнях психической деятельности; иногда переработка визуальной информации может затруднять или нарушать восприятие.

as the compound of any activities- at the professional level. Environmental education is a set of knowledge, skills and abilities of a person in the understanding of natural values, cultural and biophysical relations between man and nature and the environment. Environmental education is, in turn, practical skills and experience in solving problems related to the environment. Ecological education is a feature of ecological literacy of the person in relations with nature, self-improvement of the person in the system Man-nature society. In the process of studying the system of ecological education and upbringing compares the system of environmental education in several developed countries, study of the innovative educational environment in them, the modern system of learning and the factors causing an increased environmental culture, and creates efficient ways to use them in our own experience, promoting the development of students' ecological competence. Environmental knowledge and environmental worldviews education system began to flow into the Commonwealth of Independent States education system shortly thereafter. The Western system of environmental education is not strictly formulated; a city located in the territory of each state distributes the subjects of science and time, based on their location, while schools independently using different methods, forms and methods of education attract great opportunities. The school serves as a life experience area for parents, educators and school staff. In the development of environmental knowledge, education began to pay great attention to education, and the government of Japan began to establish environmental schools. Such schools in its entire name exclusively for the use in environmentally friendly, harmless to the environment, such as: generator solar and wind, rain and natural underground water, and students who are studying in these schools, consciously know that they do not harm nature and that the use of modern clean methods is effective. Realizing that the natural environment reduces the highly developed state, people consciously communicate with nature: plants, although few there, create an artificial aquatic environment and, most importantly, try to preserve the benefits of wildlife in the territory of the developed state. Knowledge of the natural

environment aims to develop active citizenship through environmental awareness and responsibility. So, the ecological competence has got trans-subject, meta-subject features and becomes the criteria of the professional competence of all specialists.

The purpose of the ecological education is to form the new ecological thinking and the environmentally reasonable behavior. Unfavorable situations, causing environmental problems, affect the environment quality and the health of population. So, everybody should have the potential of the nonrandom vision of factors, threatening nature and society. Modern technologies are aggressive to the environment. Ecology and culture try to humanize mechanisms of economic development within nature's compass. This was reflected in the provision of the World Business Committee for the sustainable development, concerning the need to preserve the balance between economic needs and responsible activities as to the environmental condition and social problems. The environmental approach to the management in globalization environment is perceived traditionally: the ecology studies such problems as co-evolution of nature and humanity, preservation of the natural diversity at our planet, live nature protection. Possibilities of the formation of manager's ecological competence in the college are referred to the application of new teaching methods, as well as new humanitarian technologies.

References

1. Valle, C.E. Nature Conservation and Industrial Development International Conference Ecological Problems of the Global World.
2. Knyazeva, E.N. Ecology of Management in the Epoch of Globalization. International Conference Ecological Problems of the Global World.
3. Graham. Identification of High Level Competence: Cross-Cultural Analysis between British, American, Asian and Polynesian Labourers.

ФИО автора: Soliboyev Umidbek

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

3-kurs talabasi

Название публикации: «SAYLOV TURLARI VA ULARNING MOHIYATI»

ANNOTATSIYA: Maqolamizda hozirgi holat va saylv jarayonlari. Ularning boshqa davlatlar bilan o'zaro qiyosiy aloqalari va farqlari haida mulohazalar mavjud.

KALIT SO'ZLAR: Saylov tizimi, Aralash saylov, proporsional saylov

Saylov tizimi — saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi xuquqiy normalarning majmui. Saylov tizimi davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bulgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan uzaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi (qarang Saylov huquqi). Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida Saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turlari qo'llaniladi. Majoritar saylov tizimi deganda (frans. majorite — kupchilik suzidan) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniklash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan kup ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan, mutlaq va malakali kupchilik ovozigaga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Masalan, **AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika** va boshqalarda. Mutlaq ko'pchilik ovozigaga asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) kup ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, kayta ovoz berish utkaziladi, bunda nomzodlar ruyxatida nisbatan kup ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish urniga 2-tur ovoz berish utkaziladi, buning natijalari boshqacha tizim buyicha aniqlanadi (masalan: Fransiyada Milliy majlis—parlamentga

saylovlarda mutlaq kupchilik ovozigaga asoslangan majoritar tizim, 2-tur ovoz berishda esa nisbatan kupchilikning ovozigaga asoslangan majoritar tizim qullaniladi). Nisbatan kupchilik ovozigaga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan uz raqiblarining har biriga nisbatan kup ovoz olgani saylangan hisoblanadi. Bu tizimda kupincha saylovchilarning qullab quvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p uringa ega bulishi mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa bir kancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo'llaniladi. [2]Shuningdek, majoritar tizimning kamdan kam hollarda qo'llaniladigan yana bir turi malakali kupchilik ovozigaga (umumiy ovozlarning $\frac{2}{3}$, $\frac{3}{4}$ ma'qullamoqismiga) asoslangan majoritar tizim ham mavjud (masalan: Chilida parlamentning quyi palatasi — Deputatlar palatasiga saylovlarda shunday tizim qo'llaniladi). Biroq, bunda faqat juda oz nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bulganligi uchun, mandatlar, odatda, vakillikning proporsional tizimi buyicha taqsimlanadi. Har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki kup mandatli majoritar saylov tizimlari bulishi mumkin. Bir mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi. Ko'p mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir necha deputat saylanadi.[3]

Proporsional Saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional Saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ruyxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniqlash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori (odatda, kamida 4—5% qilib) o'rnatiladi. Bunda, shartga ko'ra,

muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarni taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlar miqdori deputatlik o‘rinlarining soniga bo‘linadi. Shunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma’lum bo‘ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo‘lgan ovozlar miqdoriga bo‘linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o‘rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi. Saylovchilarning ovozi belgilangan me’yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Bu o‘rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro‘yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional Saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda mavjud.[4]

Aralash Saylov tizimi o‘zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi. Masalan Germaniyada Bundestagga saylovlarida aralash tizim qo‘llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko‘pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim bo‘yicha, 2-yarmi esa, ko‘p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya sub’yektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro‘yxati asosida proporsional tizim bo‘yicha saylanadi.

Aralash saylov tizimi **Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya** va boshqa mamlakatlarda ham qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining saylov tizimi mamlakat Konstitutsiyasi va saylov to‘g‘risidagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Ularga binoan, Uzbekistonda majoritar saylov tizimi qo‘llaniladi. Macalan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod saylov okrugi buyicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan kupining ovozini olishi kerak. Agar

saylovchilarning ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kam saylovda ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb hisoblanadi. Agar saylov okrugi buyicha 2 tadan ortiq nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham kupchilik ovozini ololmasa, ya'ni deputat bulib saylanmay qolsa, okrug saylov komissiyasi eng ko'p ovoz olgan 2 nafar nomzodni okrugda takroriy ovozga qo'yish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida 2 hafta ichida takroriy ovoz berish o'tkaziladi Saylov — ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri. S. o'tkazish tartibi va qoidalari, odatda, qar bir davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiyaviyhuquqiy hujjatlarda belgilanadi. S. turli ko'rinishda bo'ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillarigina ishtirok etishi mumkin. S. ochiq yoki yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Qaysi organ saylanayotganligiga qarab parlamentga yoki prezidentlikka S, parlamentning umumiy yoki bir qismi uchun S o'tkazilishiga qarab yalpi yoki qisman S. bo'lishi mumkin. Hududiga qarab umumdavlat yoki mahalliy; o'tkazilish vaqtiga qarab navbatdagi yoki muddatdan oldingi; bir partiyali, ko'p partiyali yoki partiyasiz; muqobillik asosida va nomuqobil (agar yagona nomzod ko'rsatilsa); to'g'ri yoki ko'p bosqichli; asosiy yoki qo'shimcha S. o'tkazilishi mumkin.[5]

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, mamlakat Prezident saylovi, O'zR Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga S. tegishlicha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — dekabr oyi 3-o'n kunligining 1-yakshanbasida o'tkaziladi. S.lar umumiy, teng , to'g'ridanto'g'ri S huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi (yana q. Saylov tizimi, Saylov huquqi

Keng miqyosli saylovlar zamonaviy demokratiyaga xosdir; antik Yunonistonda mansabdorlar asosan qur'a tashlash yo'li bilan aniqlanar edi (qadimgi Afinada saylovlarda faqat badavlatlar qatnashishi mumkin edi).

Saylovlarning statistik tahlili bilan shug'ullanuvchi fan psefologiya deyiladi. SAYLOV TIZIMI — saylov o'tkazish tartiblarining hamda ularni o'rnatuvchi xuquqiy normalarning majmui. St. davlat vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bulgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovlarni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan uzaro munosabatlarini belgilaydigan tartibini, fuqarolarning barcha saylov huquqlarini o'z ichiga oladi (q. Saylov huquqi). Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida Saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turlari qo'llaniladi. Majoritar saylov tizimi deganda (frans. majorite — kupchilik suzidan) vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniklash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan kup ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hoz. zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan, mutlaq va malakali kupchilik ovozigaga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llaniladi. Mac, AQSH, Buyuk Britaniya, Hindiston, Meksika va b. da. Mutlaq ko'pchilik ovozigaga asoslangan majoritar tizimda berilgan va haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) kup ovoz (ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, kayta ovoz berish utkaziladi, bunda nomzodlar ruyxatida nisbatan kup ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. Ba'zan qayta ovoz berish urniga 2-tur ovoz berish utkaziladi, buning natijalari boshkacha tizim buyicha aniklanadi (mas, Fransiyada Milliy majlis—parlamentga saylovlarda mutlaq kupchilik ovozigaga asoslangan majoritar tizim, 2-tur ovoz berishda esa nisbatan kupchilikning ovozigaga asoslangan majoritar tizim qullaniladi). Nisbatan kupchilik ovozigaga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan uz raqiblarining har biriga nisbatan kup ovoz olgani saylangan xisoblanadi. Bu tizimda kupincha saylovchilarning qullabquvvatlashiga ega bo'lmagan partiya

parlamentda ko‘p uringa ega bulishi mumkin. AQSH, Buyuk Britaniya va b. bir kancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo‘llaniladi.

[6]Shuningdek, majoritar tizimning kamdankam hollarda qo‘llaniladigan yana bir turimalakali kupchilik ovozig (umumiy ovozlarning 2/3, 3/4 kismiga) asoslangan majoritar tizim ham mavjud (mas, Chilida parlamentning quyi palatasi — Deputatlar palatasiga saylovlarda shunday tizim qo‘llaniladi). Biroq, bunda faqat juda oz nomzodlar saylovchilarning 65% ovozini olishi mumkin bulganligi uchun, mandatlar, odatda, vakillikning proporsional tizimi buyicha taqsimlanadi. Har bir saylov okrugidan saylanadigan deputatlarning soniga qarab bir mandatli yoki kup mandatli majoritar saylov tizimlari bulishi mumkin. Bir mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi. Ko‘p mandatam majoritar tizimda bir okrugdan bir necha deputat saylanadi.

Proporsional St. ovoz berish natijalarini aniklashning birmuncha murakkab tartibi bo‘lib, bunda mandatlar o‘z nomzodlarini vakillik organlariga qo‘ygan siyosiy partiyalar va b. ommaviy harakatlar o‘rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional Saylov tizimida kattakatta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o‘z vakillarining ro‘yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko‘rsatilgan vakillarning ruyxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniklash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya’ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo‘lgan ovozlar mikdori (odatda, kamida 4—5% qilib) o‘rnatiladi. Bunda, shartga ko‘ra, muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarini taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlar mikdori deputatlik o‘rinlarining soniga bo‘linadi. Shunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma’lum bo‘ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohidaalohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo‘lgan ovozlar mikdoriga bo‘linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o‘rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi

amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi.

Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional St. Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va b. mamlakatlarda mavjud.[7]

Aralash St. o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini mujassam etadi. Mas, Germaniyada Bundestagga saylovlarda aralash tizim qo'llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim bo'yicha, 2-yarmi esa, ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan german yerlari (federatsiya subyektlari)da siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi.

Aralash saylov tizimi **Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya** va b. mamlakatlarda ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasining St. mamlakat Konstitutsiyasi va saylov to'g'risidagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Ularga binoan, Uzbekistonda majoritar St. qo'llaniladi. Mac, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod saylov okrugi buyicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning yarmidan kupining ovozini olishi kerak. Agar saylovchilarning ro'yxatiga kiritilgan saylovchilarning yarmidan kami saylovda ishtirok etgan bo'lsa, saylov o'tmagan deb hisoblanadi. Agar saylov okrugi buyicha 2 tadan ortiq nomzod ovozga qo'yilgan bo'lsa va ulardan birontasi ham kupchilik ovozini ololmasa, ya'ni deputat bulib saylanmay qolsa, okrug saylov komissiyasi eng ko'p ovoz olgan 2 nafar nomzodni okrugda takroriy ovozga qo'yish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bu qaror Markaziy saylov komissiyasiga yuboriladi. Markaziy saylov komissiyasining qarori asosida 2 hafta ichida takroriy ovoz berish o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng muhim siyosiy huquqlaridan biri davlat vakillik organlariga saylash va saylanish huquqidir (Konstitutsiyaning 117-moddasi). Fuqarolar ushbu huquq orqali davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali davlatning eng muhim siyosiy masalalarini muhokama qilish va hal etishda faol ishtirok etadilar (Konstitutsiyaning 32-moddasi).

Saylov tushunchasi vakillik organni ovoz berish yo'li bilan tashkil toptirish tartibidir. Vakillik organlarini saylash jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar saylov huquqi deb ataladi. Saylov huquqi O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy huquqining muhim institutidir.

Saylov huquqi tushunchasining yana bir ma'nosi ham bor. Bu tushuncha fuqaroning saylovdagi ishtiroki, vakillik organlariga saylash va saylanish kabi subyektiv huquqini ta'riflab berish uchun ishlatiladi.

Bu borada aktiv saylov huquqi bilan passiv saylov huquqini bir-biridan farq qilish kerak. Aktiv saylov huquqi fuqaroning saylash, vakillik organlarini saylashda bevosita qatnashish huquqini bildiradi. Passiv saylov huquqi –saylanish huquqidir. Professor A.Saidov ta'kidlashicha "Saylov huquqi" tushunchasi va iborasi ikki ma'noda ishlatiladi deb izohlaydi. Birinchisi, bu saylov huquqi saylov qo'yiladigan davlat organlarini shakllantirishni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar tizimidir. Saylov huquqining manbalari Konstitutsiya, davlatning oliy va mahalliy vakillik organlariga saylovlar haqidagi qonunlardir. Ikkinchisi, bu saylov huquqi fuqarolarning saylab qo'yiladigan organlarini tuzishda qatnashish, ya'ni unga o'zlarining saylanish (passiv saylov huquqi) va ularning tarkibini saylash (faol saylov huquqi) huquqlaridir."

Davlat organlari o'zining tuzilish tartibi jihatidan turli xususiyatlarga egadir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlatning ba'zi organlari saylanadi, boshqalari tuziladi. Davlat hokimiyati organlariga o'tkaziladigan saylovlar demokratik asosda o'tkaziladi. O'zbekistonda ildiz otib borayotgan demokratiya

jahonda tan olingan demokratik an`analarni o`zida mujassamlashtiradi. Bu demokratiya hech qanday milliy, irqiy va boshqa cheklashlarni bilmaydi. Shu bilan birga, davlat organlarini saylash va tuzish tartibi ularning har qaysisining o`ziga xos xususiyatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

O`zbekiston Respublikasi davlat vakillik organlariga saylovlar O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to`g`risida"gi, "O`zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to`g`risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to`g`risida"gi va "O`zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to`g`risida"gi qonunlar tashkil qilinadi va o`tkaziladi.

Davlatdagi eng muhim masalalarning fuqarolar xohish-irodasi bilan hal etilishi demokratiyaning yaqqol namoyon bo`lishidir. Davlat hokimiyatini shakllantirishda saylovlar va demokratik tamoyillar muhim ahamiyatga ega. O`zbekistonda eng muhim masalalarning asosan referendum yo`li bilan hal etilishi bevosita demokratiya namunasidir. Shuni ham ta`kidlab o`tish kerakki, O`zbekistonda barcha davlat organlarini demokratik asoslarda tuzish tartibi va chinakam xalqchilligi bilan ham ajralib turadi. Xalqchillik shu narsada o`z ifodasini topadiki, butun davlat apparatining negizini tashkil etgan davlat organlari uning xalq deputatlari bevosita saylovchilar tomonidan umumiy saylov yo`li bilan saylanadilar.

O`zbekistonda saylovlar ochiqqligi, oshkoraligi saylov tizimining eng muhim tamoyillaridan bo`lib hisoblanadi.

Vakillik organlarining umumiy saylov yo`li bilan tashkil etilishi alohida va ko`p qirrali ahamiyatga ega. Umumxalq saylovlar davlat hokimiyatini amalga oshirishda fuqarolar ishtirokining eng muhim shakllaridan biridir.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXIII bobida fuqarolarning saylov huquqi kafolatlanishi alohida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 117-moddasida

shunday deyiladi: "O`zbekiston Respublikasining fuqarolari vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. O`z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.[8]

O`zbekiston Respublikasida Prezident saylovi, hokimiyatning vakillik organlari saylovi umumiy, teng, to`g`ridan-to`g`ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo`li bilan o`tkaziladi. O`zbekiston Respublikasining 18 yoshga to`lgan fuqarolari saylash huquqiga egadirlar.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotganlar saylanishi mumkin emas va saylovda qatnashmaydilar. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to`g`ridan-to`g`ri yoki bilvosita cheklashga yo`l qo`yilmaydi.

Saylov o`tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi."

Saylov tizimi tushunchasi va asosiy prinsiplari

Saylovlar fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishga faol jalb qilishning eng muhim shakllaridan biridir. O`zbekistonda saylov tizimi va saylov huquqi chinakam demokratik prinsiplarga asoslangan bo`lib, prinsiplar O`zbekiston fuqarolarining davlat suverenitetini to`liq amalga oshirishni ta`minlaydi.

Davlatda vakillik organlarini shakllantirish yuzasidan mavjud bo`lgan va fuqarolarni saylovga jalb etish, saylovni tashkil qilish va deputatning saylovchilar bilan o`zaro munosabatlarini belgilaydigan tartibi saylash tizimi deyiladi.

Saylov tizimi tushunchasi – davlatning demokratik yoki demokratik emasligini ko`rsatuvchi asosiy omildir. Professor A.Saidov "Saylov tizimi tushunchasi" bu fuqarolik jamiyatida davlatning vakillik organlarini saylash yo`li bilan yuzaga keluvchi davlat jamoat munosabatlari tizimidir deb fikr bildiradi.

Saylov tizimining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

Birinchisi: umumiy saylov huquqi prinsipi. Bu prinsip shundan iboratki, O'zbekistonning 18 yoshga to'lgan barcha fuqarolari saylash huquqiga egadirlar, aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan fuqarolar bundan mustasnodir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovgacha kamida o'n yil O'zbekiston hududida muqim yashagan O'zbekiston fuqarosi saylanishi mumkin.

O'zbekistonning 25 yoshga to'lgan fuqarosi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylanishi mumkin.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputatlar saylovi umumiydir. Saylov kunigacha 21 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari saylanish huquqiga egadirlar.

Saylovda qatnashish uchun yosh senzidan boshqa cheklovchi senzlarning yo'qligi saylov huquqining chinakam va real umumiyligini ko'rsatadi. Bu huquq demokratiyaning eng muhim prinsiplariga - xalq suverenitetiga, O'zbekiston fuqarolarining huquqiy jihatdan tengligiga asoslanadi. Aqldan ozganligi qonunda belgilangan tartibda aniqlangan shaxslarning mustasno qilinganligi tamomila tabiiy va qonuniyatli bir holdir. Buning boisi shuki, bunday shaxslar o'z hatti-harakatlari to'g'risida o'zlariga hisob berolmaydilar va saylovda qatnashish huquqidan ongli ravishda foydalana olmaydilar. O'zbekistonda saylovda qatnashish uchun yosh darajasi oqilona kamaytirilib, 18 yosh qilib belgilangan.

Saylovda qatnashish uchun boshqa senzlar yo'qligi O'zbekistonda keng xalq ommasi saylovlarda faol qatnashish imkoniyatiga egadir. Masalan, 1999 yil 5 dekabrda Oliy Majlisga o'tkazilgan saylov vaqtida saylovchilarning 95,03 foizi ovoz berishda ishtirok etdi.

2004 yilning 26 dekabrda mamlakatimizda ilk bor O'zbekiston Respublikasining ikki palatali parlamenti – Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga saylovlar bo'lib

o`tdi. Mazkur saylovlarda yuqoridagi partiyalar O`zlarining deputatlikka qo`ygan nomzodlari uchun kurash olib boradilar.[7]

Umumiy saylov huquqi O`zbekistonning barcha fuqarolariga nisbatan joriy etiladi. Fuqaroligi bo`lmagan shaxslar va O`zbekiston hududida yashovchi ajnabiyalar saylovda qatnashish va vakillik organlariga saylanish huquqiga ega emas. Umumiy saylov huquqi O`zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalarida, kasalxonalarda, tug`ruqxonalarda, sanatoriylarda va boshqa shifoxonalarda, kemalarda, yirik temir yo`l stansiyalarida, aeroportlarda va shu singarilarda saylov uchastkalarini tashkil etish yo`li bilan ham ta`minlanadi. Tegishli organlar saylov uchastkalarini tuzish va ovoz beriladigan joylarni belgilash vaqtida saylovchilar uchun eng ko`p qulaylik vujudga keltirish zarurligini ko`zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlat va huquq nazariyasi.- T., TDYuI, 2006 y.[1]
2. Agzamxodjaeva A. Pravovie osnovi gosudarstvennoy nezavisimosti Respubliki Uzbekistan. (monografiya).-T.: O`zbekiston ,1993.85-93-b[2]
3. Z. Islomov Davlat va huquq: umum nazariy masalalar -T.: Adolat, 2000.[3]
4. A. Saidov, U. Tadjixanov, X. Odilqoriev. Davlat va huquq asoslari: Darslik. - T.: Sharq, 2002.[4]
5. Z.M. Islamov Teoriya gosudarstva i prava CH 1–2. -T.: Adolat, 1997 –1998.[5]
6. K.T. Xolmuminov Davlat va huquq nazariyasi -T.: Adolat, 2001.[6]
7. A.Saidov, U. Tojixonov Davlat va huquq nazariyasi, 1-2-jild. -T.: Adolat, 2001[7]
8. Yuridik ensiklopediya. -T.: Sharq, 2001.[8]

ФИО автора: Hayitmamatova Iroda,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Название публикации: «ILK YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIXUSUSIYATLARI VA ULAR RUHIYATIDAGI KRIZIS»

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ РАННИХ ДЕТЕЙ И ИХ КРИЗИС

Хайитмаматова Ирода, Денов

Студент института предпринимательства и педагогики

Psychological characteristics of early childhood and the crisis in their psyche

Student of Denau Pedagogical Institute,

Hayitmurodova Iroda

Annotatsiya: Maqolada ilk yoshdagi bolalarning jismoniy va psixik jihatdan parvarish qilinishi. Bolaning psixikasi, xulq-atvori katta yoshdagi kishining psixikasidan farq qilishi, bola o'sish davomida bir davrdan boshqasiga o'tayotganida krizis bosqichini boshdan kechirishi

Аннотация: Статья посвящена вопросам физического и психического ухода за детьми-первокурсниками. Психика ребенка, поведение которой отличается от психики взрослого, ребенок переживает фазу кризиса при переходе от одного периода роста к другому.

Annotation: The article discusses the physical and psychological care of young children, the psyche of children, the differences in behavior from older children, the fact that a child goes through a period of crisis during the transition from one period of development to another.

Kalit so'zlar: İlk bolalik, psixik jarayonlar, kompleks, izolatsiya, ruhiyat krizisi

Ключевые слова: раннее детство, психические процессы, комплекс, замкнутость, психический кризис.

Keywords: Early childhood, mental processes, complex, isolation, mental crisis

“Yurishni o’rganish va uning bola rivojlanishiga ta’siri. Ilk bolalik davridagi bolalarning analizatorlari yahshi takomillashgani va ular erkin harakat qila olish imkoniyatiga ega bo’lganliklari tufayli bu darsda psixik jihatdan tea rivojlanadilar. Ma’lumki ilk bolalik davridagi bolalar faqat yurib va emaklabgina qolmay ,yugurish,sakrash,hamda baland va past to’siqlardan olib o’qish imkoniyatiga ham ega bo’ladilar. Bog’chagacha tarbiya yoshidagi bolalarning ertadan kechgacha turli harakatlar qila olish imkoniyatlari tevarak atrofdagi muhitni bilish ehtiyojini qondirishda juda katta sharoit yaratib beradi. Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo’q bo’lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi. U o’zining tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib,mustaqil ravishda kiyinish,ovqat yeyish, yuvinish kabi harakatlarni o’zlashtira boshlaydi. Bog’chagacha tarbiya yoshidagi bolalar o’zining kundalik harakatlari davomida hech bir erinmay,ko’z o’ngidagi hamma narsalarni tekshirib ko’radi. Natijajda juda ko’p yangiliklarni bilib oladi,o’zining sezgi va idrokini,tasavvur va xotirasini tafakkur va nutqini,hissiyot va xayolini umuman hamma psixik jarayonlarni rivojlantiradi. Bu yoshdagi darsda sezgilarning rivojlanishi analizatorlarning tobora takomillashuvi bilan bog’liqdir. Ilk yoshdan oshgan bolaning sesgilari(ko’rish,eshitish,hid va ta’ m bilish ,teri va harakat kabi)uning har kungi harakatlari davomida turli narsalarga bevosita to’qnash kelishi natijasida rivojlanadi. Sezgi ularning normal rivojlanishi bola idroki o’sishi uchun zamin yaratadi. Ilk bolalik davridagi bolaning idroki ancha rivojlangan bo’lsa ham katta odamlar idrokidan keskin farq qiladi. Birinchidan bolalarda . tajribasi yo’qligi tufayli ularning idroklari ham anglashmagan xarakterga ega bo’ladi. Ular ko’p narsalarga birinchi marta duch keladilar. Shuning uchun bolalar idrok qiladigan ko’p narsalar ularga yangilik,ya’ni dastlabki taasurot kuchiga ega bo’ladi. Ikkinchidan esa,bolalarning idroki ko’pincha ixtiyorsiz xarakterga ega bo’ladi,ya’ni ularning

idrokida muayyan bir maqsadni ko'zlash hali sezilmaydi. Shuning uchun ularning idroki bir narsadan boshqa bir narsaga beixtiyor ko'chib keta beradi. Lekin bu yoshdagi bolalarda hissiyot kuchli bo'lgani uchun ular o'zlarini qiziqtiradigan, hayron qoldiradigan, hissiy kechinmalar uyg'otadigan narsalarni idrok qilmadilar. Bu yoshdagi bolalar idrokining yana farqlanadigan tomoni shundaki, ular idrok qilayotgan narsalarni umumlashtira olmaydilar. Atrof-muhitdagi narsalarni qanday bo'lsa shundayligicha idrok qilmadilar. Bu xususiyat ularning rasmlarini idrok qilishlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, ikki yarim yashar bolaga otning kallasi solingan surat ko'rsatilsa, hayron bo'lib, otning o'zi qani, deb so'raydi. Bolalar idrokining takomillashuvida so'z katta ahamiyatga ega. So'z mohiyat jihatidan umumlashgan xarakterga ega bo'lib u narsalarni umumlashtirish imkonini beradi. Bola so'z yordamida o'xshash narsalarni oddiygina guruhlarga ajrata boshlaydi.

PREDMETLI FAOLIYAT ILK BOLALIK DAVRIDA YETAKCHI FAOLIYAT SIFATIDA. Ilk bolalik davridagi bolalar so'zlay boshlagan bo'lishiga qaramay, ular hali vaqt va fazo kabi murakkab tushunchalarni to'g'ri idrok qila olmaydilar, chunki ularda hali turmush tajribasi yo'q. Bunday murakkab tushunchalar kundalik hayot davomida sekin-asta hosil qilib boriladi. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarning diqqati nihoyatda beqaror va ixtiyorsiz bo'lsa, ikki yoshga to'lgan bolalarning diqqatida yangi sifatlar yuzaga kela boshlaydi. Bola o'sib ulg'aygan sari uning diqqati barqaror bo'la boshlaydi. Diqqatning ozmi-ko'pmi barqaror bo'la boshlagani shunda ko'rinadiki, bola o'zini qiziqtirgan biron narsa bilan uzoq vaqt mobaynida shug'ullana oladi. Ikki yoshga to'lib, uch yoshga qadam qo'ygach so'zlarni tushadi. So'z boyligi orta borgach, bolaning o'ziga xos bo'lgan situativ tili haqiqiy tilga aylanadi. Ilk bolalik davridagi bolalarda tafakkurning fikriy operatsiyalari, ya'ni analiz, umumlashtirish kabilarni ko'ramiz. Ilk bolalik davridagi bolalarda murakkab psixik jarayonlardan biri bo'lmish xayol anchagina rivojlana boshlaydi. Lekin bu asosan ixtiyorsiz xayol bo'ladi. Ular hali ma'lum maqsad asosida ixtiyoriy tarzda xayol yurgiza olmaydilar. Nutqning o'sishi bola xayolining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha

psixik jarayonlar ma'lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga zamin yaratadi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o'sgan bola tevarak-atrofdagi har xil narsalarga ongli munosabatda bo'la boshlaydi. Bola o'zining turli ehtiyojlarini anglab, o'zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashhur fiziolog I.M. Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab, o'z sezgilarni tevarak-atrofdagi narsalarni ajratib o'z-o'zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligida o'z shaxsini bildiruvchi "men" degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo'ladi. Ana shu tariqa bola juda elementar tarzda bo'lsa ham o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab ilk bolalik davridagi bolalarning shaxsiy (individual) xususiyatlari kamol topa boshlaydi." (1) Ayni paytda ota-onalar farzandini nafaqat tinglashi balki ularga allaqachon buyruq bergani, u yoki bu ob'ektni talab qilishini payqashadi. Ushbu davr inqiroz "deb ataladi. Ko'pincha ota-onalar o'zlari bilmagan holda bolada salbiy his tuyg'ularini keltirib chiqaradilar: ular o'ynashni xohlaganlarida uxlashadi," unchalik mazali bo'lmagan "sho'rva iste'mol qiladilar, sevimli o'yinchoqlarini qo'yadilar va uydan ketadilar. Shunday qilib bola kattalarga zarar yetkazish va o'z noroziligini bildirish istagi bor. 3yoshdagi bola kattalar e'tiborida bo'lishlari kerak. Ushbu davrda ota-onalar farzandlari yetuk bo'lganligini, ammo hali ham kichikligini va o'z-o'zidan barcha vazifalarni bajara olmasligini tushunadilar va bola mustaqil bo'lishiga intilganida, ota-onalar hozir va keyin uni tuzatadilar. Albatta u bu xalatda tanqidni har qanday yo'l bilan dushmanlik va norozilik bilan qabul qiladi. Bu vaziyatda ota-onalar sabr toqatli bo'lishlari va bolaga nisbatan iloji bo'yicha yumshoqroq muomalada bo'lishlari kerak. Ilk yoshdagi bolalarni tarbiyalash hayot davomida bolalarning boshqalar bilan munosabatlariga asos asos yaratadi.

"3yoshdagi inqiroz bola shaxsinining ma'lum bir darajada rivojlanganligini va kattalar bajaradigan xatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglashi natijasi hisoblanadi." (2)

3 yoshli bolalarni tarbiyalash.

1.Bola atrofidagi kattalarning xatti harakatlariga taqlid qiladi.Tabiiyki avvalo u ota-onasidan o'rnak oladi.U hali yahshi yoki yomon haqidagi o'z tushunchalarni shakllantirmagan .Bu yoshdagi bolalar bilan yumshoq ,beg'ubor ,ko'tarilgan ohangsiz umumiy tilni topish kerak

2.Mumkin bo'lganidek bolaga bo'lgan muxabbatingizni namoyon etishingiz kerak.Chunki bolalar sezgir va himoyasiz mavjudotlardir.Siz farzandingizni qalbingiz bilan his qilishingiz kerak.

3.Farzandingizni xatti harakatlarini boshqa bolalarning xatti harakatlari bilan taqqoslamaslik va undan ham ko'proq birovdan yomonroq demang.Ushbu yondashuv bilan o'z-o'ziga shubha qilish komplekslar va izolatsiya rivojlanishi mumkin.

4.Bola mustaqil bo'lishga intiladi,tez-tez siz undan “men,o'zim” iborasini eshitishingiz mumkin ,shu bilan birga u kattalardan qo'llab quvatlash va maqtozni kutadi.Shu sababli ota-onalar bolalarning mustaqilligini ma'qullashlari kerak .

5.Bolalar bilan tengma-teng gaplashish va kattalardek muomala qilish .Uni huquqlarini buzmaslik ,manfaatlarini tinglash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.NISHANOVA.,G.ALIMOVA. “BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA UNI O'QITISH METODIKASI" TOSHKENT- 2006.

2.Z.T.NISHANOVA.,G.K.ALIMOVA.,A.G'.TURG'UNBOEVA.,M.X.ASRANBOEVA.”BOLALAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXODIAGNOSTIKASI ”TOSHKENT-2017.

Internet saytlari:

3.www.ziyonet.uz

4.www.pedagog.uz

5.<http://oas.dsmi-qf.uz>

ФИО авторов: Mavlonov Ulug'bek Olimjonovich

Anatomiya va patalogik anatomiya kafedrası assistenti

Valijonova Mashhura Shuhratjon qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Anatomiya va patalogik anatomiya kafedrası talabasi

Название публикации: «INFEKSION KASALLIKLAR.VABO»

***Anatatsiya** Bugungi kunda kichik yoshli bolalar orasida infeksiyon kasalliklarning ko'p uchrashi va patogen qo'zg'atuvchilar Olib keladigan oqibatlar tibbiyot xodimlaridan limiy izlanishlar Olib borish va ularni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishni talab etadi.*

***Kalit so'zlar:** Xolera, vabo, patogen, infeksiyon, vibrion,angidremiya, polisitemiya.*

Infeksiyon kasalliklar - patogen mikroorganizmlar yani (viruslar, bakteriyalar,zamburug'lar, eng sodda jonivorlar) qo'zg'atadigan kasalliklar infeksiyon kasalliklar deyiladi.

Infeksiyon kasalliklar organizmning umumiy xastaligi bo'lib, mazkur infeksiyaga moyil odamlarda kuzatiladi.

Vabo(xolera)-o'tkir infeksiyon kasallik bo'lib, me'da ichak yo'lining zararlanishi, suv-tuz almashinuvining buzulishi va organizmning suvsizlanib qolishi bilan ta'riflanadi.Bu kasallik antroponozlar, ya'ni insondagina uchraydigan kasalliklarjumlasiga kiradi, haddan tashqari yuqumli bo'ladi va o'ta xavfli infeksiyalardan biri bo'lib hisoblanadi. Hozirda vaboni ikki xili klassik vabo, ya'ni Osiyo vabosi va El-Tor vabosi tasvirlangan.Klassik vabo vibrionini 1883-yilda R.Kox, El-Tor vibrionini esa 1906-yili Sinaya o da Gotshlix topgan.

Etiologiyasi va patogenezi. Osiyo vabosi qo'zg'atuvchisi Kox, El-Tor qo'zg'atuvchisi esa El-Tor vibrionidir.Bu kasalliklarning axlati va qusuq massalarida, me'da-ichak yo'li suyuqligi va safro, ya'ni o'tda hamisha topiladi.El-Tor vibrioni Kox vibrioniga qaraganda birmuncha yengilroq tusda o'tadigan kasallikni keltirib chiqaradi, o'limga kamroq sabab bo'ladi.

Vabo vibrioni xolerogen deb ataladigan enterotoksin ishlab chiqaradi, bu toksin oqsildan iborat bo'lib, unda immunologik jihatdan bir-biridan farq qiladigan ikkita fragment bor. Vabo qo'zg'atuvchisining ko'payish joyi odamning ichagi, kasallik

manbayi esa bemor odam yoki vibrion tashib yuruvchi kishidir. Vabo vibrionlari ifloslangan suv yki oziq-ovqat mahsulotlari bilan birga me'da ichak yo'lga tushishi asosiy o'rin tutadi. Kasallik kontakt yo'l bilan yo'l bilan ham yuqishi mumkin. Vabo epidemiya va pandemiyalar ko'rinishida tarqaladi.

Patogenezi yetarlicha aniq emas. Vabo vibrionlari me'da-ichak yo'lga tushganidan keyin ingichk ichak bo'shlig'ida zo'r berib ko'payib boradi. Vabo vibrionlarining ko'payishi va yemirilib turishi bir talay enterotoksin ajralib chiqishi bilan birga davom etib boradi. Ichak shilliq pardasining epiteliysi shu toksin ta'sirida ko'p miqdor izotonik suyuqlik ajratib chiqaradi. Xolerogenning enterositlar ferment sistemalari bilan o'zaro ta'sir yetishi natijasida shu xildagi suyuqlik gipersekretsiyasi kuchayib boradi. Enterositlardagi adenilatsiklazing faol holga o'tishi siklik 3,5-adenoz-inmonofosfat sintezi kuchayishiga olib keladi, shu modda nechog'lik ko'p hosil bo'lsa, ichak sekretsiyasining ishlab chiqishi ham shuncha ko'payadi.

Sanarelli fikriga qaraganda, vibrionlar ichakka to'g'ridan-to'g'ri tushmay, balki gematogen yo'l bilan o'tadi, ayni vaqtda burun-halqum halqasidagi bodomcha bezlari infeksiyaning kirish darvozlari bo'lib xizmat qiladi. Vibrionlar burun-halqum halqasining limfa sistemasida ko'payib olib, keyin qon oqimiga tushadi. Vibrionlarning ichakka o'tishining o'zida ikkita davr tafovut qilinadi: 1) vibrionlarning ichak devori bag'riga gematogen yo'l bilan o'tib borishi; 2) vibrionlarning tinmay ichak yo'lga tushib turishi.

Patologik anatomiyasi. Vaboda ro'y beradigan struktura o'zgarishlarining tabiatiga va bu kasallikning klinik o'tishiga qarab, uning avj olib borishida uch davr tafovut qilinadi: 1) vabo enteriti, 2) vabo gastroenteritis, 3) algid davri.

Vabo enteriti davrida ingichka ichak devorida boshlangan seroz-gemorogik yallig'lanish manzarasi kuzatiladi. Ichak shilliq pardasi shishib, qonga to'lib turadi, qon quyilgan joylar paydo boldi, shilimshiq ko'p ishlab chiqadi (giper-sekretsiya). Vabo gastroenteritda jarayon me'daga ham o'tib, me'da shilliq pardasida ham seroz-gemoragik gastrit manzarasi avj olib boradi. Algid davrida o'zgarishlar hammadan ko'p ifodalangan bo'ladi. Ingichka ichak shilliq pardasida distrofik o'zgarishlar kuchayib, epitelial hujayralar vakuollanadi, mikrovorsinkalarni yo'qotadi, bir qismi ko'chib tushadi (deskvamatsiya).

Vabo bilan og'rigan kasalda seroz bo'shliqlardagi suyuqlik, qon, quyushlab qoladi (angidremiya), periferik qondsagi eritrositlar sonining ko'payib qolishi (polisitemiya bo'lishi) ham shundan darak beradi.

Klinik manzarasi. Klinik jihatdan olganda vabo juda o'tkir gastroenterit simptomlari bilan tariflanadi. To'xtovsiz ich ketishi boshlanib, bemor qusaveradi, qorinda og'riq paydo bo'ladi. Ko'p o'tmay kollaps boshlanadi: badab terisi ko'kimtr

rangga kirib madori yo'qolib ilvillab qoladi. Harorat pasayib, 35°C gacha tushadi. Bemorning ko'zlari ichkariga tortib, talvasalar boshlanadi.

Vabo asoratlari spetsifik va nospetsifik asoratlarga bo'linadi. Spetsifik asoratlariga vabo tifoidi va vabodan keyin boshlanadigan uremiya kiradi. Vabo tifoidi harorat 40°C gacha ko'tarilib, bemor isitmalayotgan yoki koma holatiga tushgan kasalga o'xshab qoladi. Asosiy patalogoanatomik o'zgarishlar yog'on ichakda bo'ladi, unda difteretik yalig'lanish boshlanadi (difteretik kolit). Taloq ham kattalashib, pulpasi giperplaziyaga uchragani holda unda infarktlar ro'y beradi. Jigarda bo'laklar orasidagi tomirlar tromboziga aloqador nekroz o'choqlari paydo bo'ladi. Buyrakda yarim o'tkir ekstrakapillar glomerulonefrit va nekrotik nefroz manzarasi kuzatiladiki, shu narsa vabo tifoidida ko'riladigan uremiyaga olib keladi. Ikkinchi asorat paydo bo'lishi - vabodan keyin uremiya boshlanishi buyraklarning po'stloq moddasida infarktgacha o'xshash bir talay nekrozlar paydo bo'lishiga bog'liq. Vaboning nospetsifik asoratlaridan pnevmoniya, absesslar, flegmona, saramas, sepsisni aytib o'tish kerak. Vabo bilan og'rigan kasallar o'limning sababi suvsizlanish, koma, uremiya, intoksikatsiyasidir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. M.S.Abdullaxo'jayeva 1-qism 2019y277-315b
2. M.Zokirov , N.Zokirov, E.Eshboyev, I.Muhammedov 2006y
- 3.uz.m.wikipedia.org.

ФИО автора: Jo'rayeva Sarvara Otabekovna

Surxondaryo viloyati Termiz tumani

16-sonli umumta'lim maktabi

9-"E" sinf o'quvchisi

Название публикации: «SHONLI TARIXDAN BUYUK KELAJAK SARI»

Annotatsiya: Xalq bukilmas irodaga, ishonchga va jasoratga tayyor bo'lishi lozim va buni xalqqa namoyish etishi kerak. Bu hozirgi kunda yurtimizning oltin qoidasi. Xalqni kuchli irodaga, sinmas ishonchga va qudratli jasoratga undaydi.

Kalit so'zlar: ta'lim, kelajak, ilm vva boshqalar

Inson iroda va jasoratini amalda namoyon etib ,vatanparvarlik ravnaqi yo'lida har tomonlama kuchli bo'lishi kerak. Bularning bari Mirziyoyev bobomizning gaplaridir. Haqiqat shuki: Siz bugun nimadir qilsangiz ertaga kattaroq narsaga erishasiz. Bu degani kelajakni siz qurasiz. O'z tarixingizdan kelib chiqqan holda yurt shaniga ravnaq qo'shing. Mirziyoyev bobomiz aytganlaridek : „ Har bir inson har kuni qiladigan ishini huddi birinchi martta qilayotgandek qilishi kerak.Shunda gina ishda rivojlanish bo'ladi '' –deganlar. Ertangi buyuk kelejak, bugun nima qilayotganingiz bilan bog'liq. O'z tarixini unutmagan va bugun o'z ustida ishlagan inson yutuqga erishadi. Mirziyoyev bobomiz tasavvuridagi qahramon emas, balki hayotdagi qahramon. O'zbekning qahramoni. Bizni buyuk kelajakka chorlayotgan qalbi pok shaxsdir. Har bir gapi vatan parvarlik hisini beradi. Ishonch beradi. Kichkina yuragingizga kata ishonchni beradi. Bu ishonch samarasini topadi. Natijaga erishganingizda o'zingiz hayron qoladigan darajada maslahat olsangiz, kelajakda qudrat cho'qqisida turasiz. Yutuqga erishasiz. Siz yutuqga erishgach, bobomiz aytganidek: „ Yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirmang,bu taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir. Siz yana harakatda bo'ling. Mirziyoyev bobomizni o'gitlari hayotda asqotadi. Insonda dadillik bo'lsa bas. O'tmish qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar o'zlikni yo'qotmaslik kerak. O'tmishdagim voqealarni

dilda tugib, dunyo qarashini o'zgartirib , dadillik bilan salovatli ko'rinishda kelajakni gullatish kerak. Dunyo qarashni nima o'zgartiradi – ilim, daromad va manfaat . Ilimli bo'lgan daromadga erishaadi. Daromadni esa manfaatiga ishlatadi. Dunyo qarashni shu tariqa o'zgartirish kerak.

Mirziyoyev bobomiz o'giti, gapi va maslahati chuqur ma'noga ega. Doim xalqni vatanparvarlikga ezgulikga chaqiradi. Bularga amal qilgan shaxs hayotda o'z o'rnini topadi. Mirziyoyev bobomiz yuqorida aytilganidek yurtning qaxramoni. Bobomizning salovati, g'ururi, nigohi va jasoratini tarflab bo'lmaydi . Yurt shani uchun , istiqboli – yu , rivoji uchun jonini fido qiladi. Istagi O'zbekning kelajagi porloqdir. Bilamizki, Shavkat Miromonovch Mirzizyoyev 2016-yil O'zbekiston respublikasining prezidenti bo'ldi. Hozir esa 2021-yil ya'ni ideal zamonaviy hayot. Hozir vaqtni to'xtatib, o'tmishga ya'ni so'ngi besh yil ichiga qaratsak so'ngi 5 yil ichida O'zbekiston respublikasi davlatlar ichida o'zini ko'rsatdi va ko'rsatib kelyapti. O'zbekiston respublikasi eng yuqori qarashdagi davlatlar shoh supasida turibdi. Xalq o'tmishini unutmaganligi uchun, uni yo'qotmaganligi uchun bugun va ertaga xalqning gullagan kelajagi bor.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev davlat raxbari bo'lganda: birinchi o'rinda bor e'tiborini , diqqatini va vaqtini ta'lim tizimiga qaratdi. Ta'lim tizimidajuda katta o'zgartirish kiritdi. Nima bo'lishidan qat'i nazarbola ta'lim olishi kerak. U ta'lim olsa gina kelajakda kimdir bo'ladi. Ta'lim olmasa ertaga qancha majburlama biror bir kasb egasi bo'la olmaydi kasb egasi bo'lganda ham chin yurakdan, sitqi dildan va ko'ngil bilan ishlamaydi. Vatanga o'z xissasini qo'sha olmaydi. Shuni oldini olish maqsadida prezidentimiz tadbir choralar ko'rdi . Shaxsan o'zi bu ish bilan shug'ullandi. Hechkim va hech narsa bola bilim olishiga g'ov bo'lmasligi kerak. Prezident yurtga barcha sharoitlarni qilib bergan. Bola o'qisa bo'ldi. Shuni hech qachon unutmaslik kerak. Bola o'qiyman desa , hech kim hech qachon va hech qayerda uning yo'lini tosmasligi kerak. Bunga hech kimsaning haqqi yo'q. bola bugun o'qiydi , ertaga esau kasb egasiboladi.

Kelajakda oilasini boqadi, yurtga o'z xissasini qo'shadi, vatan parvarlik yo'lida jonidan vos kecha oladi, yurtini ximoya qiladi va o'zbek nomini dunyoga tanitib, xalqning yuzi bo'ladi. Bularningbari ta'lim –tarbiyadan kelib chiqadi. Yurtboshimiz bolaning ta'lim olishini maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshladi. Boxchada bola uchun barcha narsalar o'rgatila boshladi. Vaxolanki, oramizda boxchaga bormaganlar xam bo'lar edi. Prezidentimiz esa buning uchun hamchora ko'rdi. Ota onalar shaxsiy boxchalar chiqsa ham farzandini berishga mablag' topa olmayman deya kundan kungaso'nib borar edi. Mana endi yurt boshimizning yangi qarori tufayli ota onalar ko'ngli taskin topyabti desak mubolag'a bolmaydi. Yutr boshimiz Maktabgacha bepul majburiy ta'lim qarorini chiqardi. Endi bunda bog'chaga bora olmagan bolalar va bog'chaga borish uchun mablag'i yo'q bolalar ta'lim oladi. Bu juda kata o'zgarish biz bu yo'l bilan yana bir pog'ona balandga chiqdik. Ushbu qaror ham ,ota onani ham bolani xursand qildi. Bolajonlarni ko'ngli o'sdi. Shu qaror bo'yicha o'qiydigan bolajonlarni ko'rganman. Ularning ko'zida quvonch. Ular yangi narsani urganins uchun doimo tayyor. Ular hozir juda baxtli. Buninguchun yurt boshimizga boshimiz yerga tekkunch ta'zim aylab, katta raxmat aytamiz.

8. Қодиров М., Қодирова С. Қўғирчоқ театри тарихи. – Т.: Талқин, 2006.
9. Турсунов Т. Ўзбек театр тарихи. –Тошкент: ART PRESS, 2010.
10. Қўғирчоқ ҳамда ҳаваскорлик театрлари учун асарлар тўплами. Республика халқ ижодиёти ва маданий-маърифий ишлар илмий-методик ҳамда ахборот маркази. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.

ФИО автора: Nurxon Yoqubova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

4-bosqich talabasi

Название публикации: «YANGI HIND ADABIYOTIDA GENDER MASALASI BHARATI MUKERJE IJODIDA (“DARAXT KELIN” ASARI MISOLIDA)»

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo adabiyotidagi eng zamonaviy va dolzarb mavzulardan biri hisoblangan gender masalasining hind adabiyotidagi o'рни Bharati Mukerji asari asosida ochib beriladi. Shuningdek, o'tgan asrning 70-80-yillarida hind adabiyotidagi yangi o'zgarishlar turli mavzularga, xususan ayollar masalasiga ham ta'sir ko'rsatganligi to'grisida so'z boradi. XXI asrda adabiyotda vujudga kelgan “Yangi Ayol” iborasi Bharati Mukerji asarlari qahramonlari orqali ifoda etiladi.*

***Kalit so'zlar:** gender tengligi, ayollar haq-huquqlari, hind adabiyoti, Bharati Mukerji, Yangi Ayol.*

Zamonaviy hind adabiyoti so'nggi ikki-uch o'n yilliklarda ayol mavzusi borasida ancha taraqqiy etdi, ammo bu jarayon XX asrda Mahadevi Varmaning ijodi bilan boshlangan edi. Xususan, uning 1944-yilda yozilgan “Aloqalar seriyasi” esselar to'plamida aynan ayol mavzusi olg'a surilgan.¹³⁹ Hindiston mustaqillikka erishganidan so'ng adabiyotda iqtisodiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy masalalar keng qamrovda yoritila boshlandi, buning natijasi sifatida XX asrning oxirgi choragida adabiy asarlarda gender masalasiga e'tibor berish yanada kuchaydi. Xususan, Amrita Pritam, Krishna Sobti, Mamta Kaliya, Chitra Mugdal, Mannu Bhandari kabi adibalar asarlarida aynan ayol masalasi yetakchi o'rin tutgan.¹⁴⁰ Amrita Pritamning o'ndan ziyod asarlari aynan ayol mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bu borada yetakchilik qiladi. O'tgan

¹³⁹नेहा गोस्वामी, स्त्री विमर्श: हिन्दी साहित्य के संदर्भ में, दिल्ली विश्वविद्यालय – 2017, 4-bet

¹⁴⁰□□. □□□□ □□□□□□. 21□□□ □□ □□ □□□□□ □□□□□□ □□□ □□□□ □□□□□ – 2017

asrning 70-80-yillarida hind adabiyoti butunlay yangi qiyofada namoyon bo'la boshladi. Yozish uslublari, asar mavzulari yana-da mukammalasha boshladi. Bu davrda ayollar mavzusi alohida o'rin egallash bilan birga, mavzu jihatdan ham ancha kengaygan edi. Endi yozuvchilar faqatgina qizlarning erta turmushi yoki ularning jamiyatdagi diskriminatsiyaga uchragan taqdirinigina emas, balki, ayollarning oila a'zolari bilan munosabatlarining alohida ko'rinishlari, ularning orzu-havaslari va intilishlari, ideal juftlik va ideal oila to'g'risidagi qarashlari, toptalgan orzulari uchun yuraklarida olovlangan isyon hissini ham yoritib bera boshladilar. Shuningdek, bu davrdagi yozuvchilar asarlarida ayollar bosh qahramon sifatida o'z hayot yo'llarini, o'z yashash tarzlarini o'zlari tanlay boshladilar.

Bu davrda yozilgan hikoyalardan biri — “Qabr qo'shig'i” Simma Harshi qalamiga mansub bo'lib, yosh va orzulari bisyor bo'lgan yosh kelinchak Ratika tilidan hikoya qilinadi. Hikoyada an'anaviy muammolar butkul yangi ko'rinishda va yangi tuyg'ular ila ochib berilgan. Asar “ichki monolog” yo'nalishida yozilganligi bois tajriba-hikoya deb ham ataladi. Kelinchakning hayoti shu qadar yorug'likdan yiroqki, u o'z kunlarini “qabr ostida” deb ta'riflaydi.

XXI asrga kelib, ayollar mavzusida yangi qahramon “Yangi Ayol”¹⁴¹ obrazi paydo bo'ldi. O'tgan asrning so'nggi o'ttiz yilligi davomida hind ayollarining o'z holatiga nisbatan xulosalari va psixologik holatlari yaqqol aks ettirib berildi va buning natijasida yangi asrda yozuvchilar yana-da kuchli sabablar, mavzular va holatlarni o'rta tashlashlariga to'g'ri kela boshladi. “Yangi Ayol” obrazi nafaqat o'z isyoni va dardlarini namoyon eta oladigan, balki o'z holatini o'zgartira oladigan, hayotini tubdan isloh qila olish uchun o'zida jasorat topa oladigan ayol bo'lishi kerak edi. Shunday qahramonni yarata olishni uddasidan chiqqan yangi zamon yozuvchilaridan biri — bu Bharati Mukerjedir.

¹⁴¹ Dr. Shradha Srivastava, Dr. Arjun Dubey, Ms. Sudesh Vats. The Process of reinventing new women in Bharati Mukherjee's Desirable daughters, International Journal of Asian History, Culture and Tradition, 2015.

B.Mukerje nomi XXI asr dunyo adabiyotshunoslari va adabiy tanqidchilari orasida ma'lum va mashhur bo'lib, bugungi kunda uni "Uchinchi Dunyo Feministi" (Third World Feminist) deb atashmoqda. Adiba 1940-yil 27-iyulda Kalkuttada dunyoga kelgan bo'lib, sakkiz yoshga to'lganida ota-onasi Buyuk Britaniyaga ko'chib o'tishadi. O'n yoshidayoq Mukerjening yozishga bo'lgan qiziqishi boshlanadi va qisqa hikoyalar yoza boshlaydi. Universitet ta'limi uchun Bharati yana Hindistonga qaytadi va 1963-yilda Kakutta Universitetini tamomlaydi. Yevropa ta'sirida o'sib, so'ng yana Hindistonga qaytish B.Mukerjega ikki xil hayot tarzi orasida, ikki xil turmush va an'analar orasida qolib, hind ayoli uchun bunday holat aslida nima ekanligini his qilishga imkon yaratadi va shu tariqa bo'lajak yozuvchi ijodining aniq mavzusi paydo bo'ladi: immigrant ayollar va ularning an'analar orasida sarsonligi. Mukerjening qahramonlari bir turmush tarzidan butunlay boshqasiga o'tgan, yangi hayot tarzini ko'rib, o'z yashash holatini o'zgartirishga uringan, biroq asl tug'ilgan joyining an'alaridan chiqib ketish-ketmaslikni bilmay ikki yo'l orasida qiynalgan qahramonlardir.

Yangi asrga kelib, Bharati Mukerjening ijodi yangi bosqichga ko'tarildi va u birgina taqdirni emas, balki butun boshli sulola ayollari hayotini hikoya qiladigan trilogiya ustida ishlay boshladi. "Daraxt kelin" asari ushbu trilogiyaning ikkinchi kitobi hisoblanib, birinchi kitob 2002-yilda "Sevimli qizlar" nomi ostida chop etilgan. Ikkala asar ham adabiy tanqidchilar tomonidan juda iliq fikrlarga sabab bo'ldi. Ikkala kitobda ham Tara ismli Kalkuttada tug'ilib o'sgan Bengal qizining hayoti hikoyasi keltirilgan. "Sevimli qizlar" asari ayolni o'z-o'zini qayta kashf etishi, asar qahramon Tara esa Yangi Ayol timsoli deya e'tirof etildi. "Sevimli qizlar" asari qahramonlari uch opa-singil — Padma, Parvati hamda Tara o'ziga to'q oilada voyaga yetganliklari bois, bolalikdan barcha narsa bilan ta'minlangan edilar. Shu bilan birga ularga to'rt devor orasidagi oilaning sha'ni va hurmati ham ularning bo'ynida ekanligini uqtirib kelishar edi. Xususan, Taraning so'zlariga ko'ra:

“Otamiz biz opa-singillarga ko’chaga chiqishga ruxsat bermas edilar, bizni o’qishga olib boradigan mashinaning oynalari qoraytirilgan edi”.¹⁴²

19 yoshga to’lganida Tara otasi aytgan insonga turmushga chiqadi:

“I married a man I had never met, whose picture and biography and bloodlines I approved of because my father told me it was time to get married and this was the best husband on the market”¹⁴³

(Men hech qachon uchrashmagan, suratini ko’rmagan, hayoti va nasl-nasabini bilmagan insonga turmushga chiqishga rozi bo’ldim, chunki otam turmushga chiqish vaqti kelganligini va bu yigit “bozor”dagi eng yaxshi nomzod ekanligini aytdilar) Asarning ushbu sahnalari qaysi tabaqaga mansub bo’lmasin, hind oilasining qizi o’z majburiyatlaridan chetga chiqa olmasligini bildiradi.

Turmush o’rtog’i bilan Kaliforniyaga ko’chib kelgan Tara o’z hayoti borgan sari yengillashib emas, balki Hindistonda bo’lganidan ham kuchliroq yopilib borayotganligini his qiladi. U boshqa ayollar kabi mashina haydashni, ko’chalarni aylanishni xohlardi, ammo turmush o’rtog’i begona shaharda qayerga ham borishi mumkinligi haqida aytib, ruxsat bermaydi. Tara ayol sifatida o’z-o’zini kashf etishni istardi, buning oqibatida fikrlari to’g’ri kelmaydigan turmush o’rtog’i bilan murosasiz hayotiga nuqta qo’yishga qaror qildi. Hindistonda ajrashish inson uchun juda keskin harakat hisoblanadi. Nikoh mangu bo’lishi kerak deb hisoblanadi. Ammo ba’zida bir-biri haqida deyarli bilmagan insonlarning bir-birini qiynab yashashiga barham berish kerakligi inobatga olinmaydi.

“Sevimli qizlar” romanining e’tiborli jihati shundaki, uch opa-singil ham o’z huquqlari erkinliklarini turlicha ifodalashadi, ya’ni ular o’zlarini kashf etish uchun turli yo’llarni tanlashadi. Ular “Yangi Ayol” tushunchasiga o’zlari tushungan holda izoh beradilar. Tara ajrashib, ijtimoiy hayotda o’z faolligi uchun harakat qilayotgan bir paytda, Parvati turmush o’rtog’i bilan to’liq an’anaviy-oilaviy hayotda yashaydi va

¹⁴²Bharati Mukerjee, Sevimli qizlar. — 29-bet

¹⁴³Bharati Mukerjee, Sevimli qizlar. — 26-bet

oilada ayolning baxti uning erkinligidir deb hisoblaydi. Padma esa, bu ikkisi o'rtasidagi muvozanatni saqlab turishga harakat qiladi, ya'ni turmush o'rtog'i bilan yashasa-da, turli an'analarga to'liq rioya etmaydi. Tanqidchilar Shrava Shrivasta hamda Arjun Dubey Tara obrazini ancha yuqori baholashadi va ular Tara "Yangi Ayol" obraziga Padma va Parvatidan ko'ra ko'proq loyiq deb hisoblaydilar.¹⁴⁴ Buning sababi u oilasi bilan ajrashgani emas, balki ayol kishi ham jamiyat orasida mavqe egallashga, oilaviy hayotdan tashqari o'z shaxsiy qiziqishlari bilan shug'ullanishga, ishlashga va bu orqali turmush o'rtog'iga doimiy iqtisodiy qaramlikdan qutulishga haqqi bor deb hisoblagani uchun. "Daraxt kelin" romani 2004-yilda nashrdan chiqqan bo'lib, "Sevimli qizlar" asarining mantiqiy davomi, trilogiyaning ikkinchi kitobi hisoblanadi. Roman Taraning o'z ajdodlari tarixiga qiziqib qolib, ma'lumotlar ichidan o'ziga ismdosh bo'lmish Tara Lata ismli daraxtga turmushga chiqqan ajdodi haqida hujjatlarni topgani bilan qizg'in tusga kiradi. Tara Lata besh yoshligida u voyaga yetgach turmushga chiqishi kerak bo'lgan yigit ilon chaqishi oqibatida vafot etadi. Shundan so'ng, Taraning otasi qiziga "Beva" degan nom qo'ymasliklarini oldini olish uchun uni daraxtga nikohlab qo'yadi(!). Shunday qilib, uni xalq orasida "Daraxt kelin" nomi bilan atay boshlaydilar. Bharati Mukerje ushbu hodisa bilan hind jamiyatidagi bir qancha an'analar ortidagi illatlarni ochib bergan:

Birinchidan, hali go'dak bo'lgan qizning kimga turmushga chiqishini oldindan belgilab qo'yish;

Ikkinchidan, hali turmushga chiqmagan bo'lishiga qaramasdan, bo'lajak kuyov vafot etishi bilanoq, jamiyat yosh qizchani "Beva" deb atay boshlashi (aslida bu mantiqqa zid bo'lsa-da); Uchinchidan, qizini "Beva" degan nom olmasligi uchun otaning o'ta mantiqsiz qaror qabul qilishgacha borib yetishi, ya'ni qizini daraxtga nikohlab berishi. To'rtinchidan, farzand taqdiridan ham ko'ra, jamiyat fikri va gap-so'zlari kuchliroq ahamiyatga ega bo'lib qolganligi. Tara Lataning fe'l-atvori ham

¹⁴⁴ Dr. Shradha Srivastava, Dr. Arjun Dubey, Ms. Sudesh Vats. The Process of reinventing new women in Bharati Mukherjee's Desirable daughters, International Journal of Asian History, Culture and Tradition, 2015.

katta bo'lgani sari daraxtga o'xshab ketaveradi. U ko'p gapirmaydi, ota uyidan ko'chaga deyarli chiqmaydi va ko'pincha yolg'izlikda bo'lishni afzal biladi. U katta bo'lgach ham turmushga chiqmaydi, kambag'allarga yordam berib umr o'tkazishni ma'qul topadi. Hatto Hindiston ozodlik kurashida ham ishtirok etadi va Britaniya hukumati tomonidan hibsga olinib, o'limga hukm qilinadi.

Ushbu asari orqali Bharati Mukerje ayol qanchalik qudratga ega ekanligini, agar u istasa urf-odatlar o'rami ichida yashab ham buyuk ishlar qila olishini isbotlashga harakat qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Bharati Mukerje bugungi kunda o'zining ingliz tilidagi asarlari orqali butun dunyo ayollarini kurashga, o'z hayotini yana-da yaxshiroq yashashi mumkinligini anglatishga harakat qilmoqda. Uning "Sevimli qizlar" va "Daraxt kelin" asarlari esa ayollar o'z yo'llarini o'zlari tanlay olishlarini, kurashish uchun har bir ayolda kuch borligini isbotidir. Shuningdek, ushbu asarlar ayollar baxtni nima-da ko'rsalar, shunga intilishlari mumkinligini, erkinlik bu to'laqonli oilasiz hayot emasligini ham yaqqol aks ettiradi.

2011-yilda Bharati Mukerje va'da qilingan trilogiyani yakuniga yetkazishga muvaffaq bo'ldi hamda uchinchi kitob – "Miss New India" romanini e'lon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ambika Sharma, Tanu Gupta. Bharati Mukerjee's The Tree Bride: Assimilation of the West in the East, ReasearchGate. 2015
2. Dr. Shradha Srivastava, Dr. Arjun Dubey, Ms. Sudesh Vats. The Process of reinventing new women in Bharati Mukherjee's Desirable daughters, International Journal of Asian History, Culture and Tradition, 2015.
3. Dr. S.Chelliah, Bharati Mukherjee as an adept in her genuine portrayal of "Women" and candid depiction of the rootless life of an Indian woman as reflected in her fictional world: An Appraisal, 2017

4. Joanne Skerrett, Globe Staff. "Tree Bride" mixes past, present in eloquent tale, 2004.

ФИО автора: Mamajonova Mukhlisa Muzaffar qizi

Journalism and mass communication university of Uzbekistan

Second year student

Название публикации: «WHAT IS THE PR? WHY DO WE SHOULD USE?»

Annotation: Today, we encounter the word PR many times, both in our daily lives and in our professional life. However, the more we hear this word, the less we get to its essence. In fact, we start entering this field only when we know the answer to the questions of what PR is, when and under what circumstances we use it, what we do is PR, what we do is not PR. Until then, it is useless to call any behavior PR.

Like other fields, PR has its own theoretical and practical definitions, goals and objectives. Before studying this, we need to fully understand the extended original form of the word PR and its meaning. Through this article, we will answer in detail what the word PR is, why we need this field, for what purposes we use it and what are its functions.

Key words: Public relations, journalism, advertising, advertisement, functions

As the era becomes more globalized, modern, new areas are emerging. One of such necessary and new areas is PR. PR is actually an abbreviation of "public relations" and it means public relations. There are more than 500 definitions of the term so far. Each country has its own PR strategies¹⁴⁵. And because of these strategies, the term has been defined, and even now, not a single definition has been chosen as the most appropriate. Each definition focuses on some aspect of the industry. PR is neither journalism nor advertising.

The British Institute of Public relations (BIPR) defines public relations as ‘the deliberate planned and sustained effort to establish and maintain mutual understanding

¹⁴⁵ Nishanova.G. PR basics. T, 2018. P.3-5

between an organization and its publics.” This definition suggests that public relations is the creation or establishment of mutual understanding between an organisation and its publics. It also suggests that public relations is not a haphazard process. It must be consciously designed. Planning calls for attention, deliberation, research, anticipation, analysis and consequences.¹⁴⁶

Public Relations (hereinafter - PR) analyzes the communication flows of any structure, hence the term "communicative audit" adopted within its framework, reflecting the initial stage of analyzing the work of an organization. At the same time, the purpose of such work is to establish positive relations between this structure and its public, and they rely to a large extent on existing communication flows. For its successful functioning, any structure must take into account the opinions and moods of both its own employees (after all, labor productivity is directly related to people's job satisfaction), and those with whom it is associated with numerous types of addiction.¹⁴⁷

The term “Public Relations” was first used by Thomas Jefferson, the third president of the United States. He first used the term in his Seventh Address to Congress in 1807. The aim was to raise the government's public relations at that time to the state level, to establish it scientifically and organizationally¹⁴⁸.

Edward Bernays, one of the founders of the science of Public Relations, described the essence of the phrase as "an action in the public interest"¹⁴⁹. This means that "the emergence of PR in the United States is a direct product of political processes"¹⁵⁰. A century later, the history of PR, which became a reality as a separate science, stems from the events of that period.

¹⁴⁶ Abuja Annex, National Open University of Nigeria. Principles and practice of public relations. National Open University of Nigeria – 2006, P. 3-4

¹⁴⁷ Г.Г.Почепцов, Паблик рилейшнз для профессионалов, Киев-2005. P.7-10

¹⁴⁸ Муминов Ф. Паблик рилейшнз: история и теория. Т.: Ижод дунёси, 2004, P.32

¹⁴⁹ Bernays E. L. The Later Years. Public Relations Insights 1956-1986.-Rhinebeck: Free Press, 1986.-P.12.

¹⁵⁰ Арзиев Ф. Паблик рилейшнз – ахборот ортидаги манфаат. –Халқ сўзи, 2003, 4 ноябрь.

From the above, it is clear that PR is a way of communication with the public. Introduces the activities of the organization and its work to the public, its target audience, informs them about the latest developments in the life of the organization. It also works with the image of the organization. He does not advertise the organization or expose everything through journalistic inquiries. That is why this field is different from advertising and journalism.

References:

1. Nishanova.G. PR basics;
2. Abuja Annex, National Open University of Nigeria. Principles and practice of public relations;
3. Г.Г.Почепцов. Паблик рилейшнз для профессионалов;
4. Муминов Ф. Паблик рилейшнз: история и теория;
5. Berneys E. L. The Later Years. Public Relations Insights;
6. Арзиев Ф. Паблик рилейшнз – ахборот ортидаги манфаат.

ФИО автора: Dilshodova Nilufar Dilshod qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani

2-sonli umumta'lim maktabi

“Rus tili va adabiyoti” fani o'qituvchisi

Название публикации: «RUS TILI VA ADABIYOTI DARSLARIDA M.YU.LERMONTOVNING “UCH PALMA DARAXTI”- SHE'RINING TAHLILI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada Rus tili va adabiyoti darslarida Lermontovning “Uch palma daraxti” she'rininig tahlili va shoirning ichki kechinmalarini o'quvchiga to'liq yetkazish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Uch palma daraxti, shoir, tahlil

Mixail Yuryevich 1814 yil 3 oktyabrda Moskvada tug'ilgan. . Mixailning tug'ilishidan ikki yil o'tgach, onasi Chaxotkadan vafot etdi va buvisi nabirasini oldi, aks holda merosidan mahrum etish bilan qo'rqitadi. 1831 yildagi Otaning o'limi. Lermontov universitetda o'qiganida uni yolg'iz o'zi ko'rdi. Buvim nabirasini va bolaligini yaxshi ko'rardi. Lermontov, ota-onalarning etishmasligiga qaramay, baxtli edilar.

Rus tili darslarida Lermontovning hayoti va ijodini o'rganish o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stiradi. Hayotga ijobiy ko'z bilan qarash tuyg'ularini jonlantiradi. Lermontov hayoti va ijod yo'li haqida gapirar ekanmiz, u juda qisqa umr kechirgan bo'lsada asrga tatigulik ijodini meros qoldirgan. Mixail Lermontovning shaxsiyati sirli bo'lib, uning ishi shunchalik chuqur va mazmunli ediki, go'yo bu asarlar yillar davomida juda etuk, dono odam tomonidan yaratilganga o'xshaydi. O'sha paytda, M. Yu. Lermontov "Uch palma" ni yozganda, u bor-yo'g'i yigirma to'rt yoshda edi. Ammo bu asar nafaqat landshaft lirikasining yorqin namunasidir, bu erda shoir o'zini ajoyib hikoyachi va mutafakkir sifatida namoyon etadi. Lermontov inson hayotining asosiy masalalari, ehtirolarning kuchi va ruhning kuchi haqida o'yladi. U lirik yoki

nasriy bo'lsin, o'zining yorqin dinamik qissasi bilan o'quvchini o'z fikrlari orbitasiga jalb qildi. Shuning uchun biz uning qahramonlari va usta asarlarida tasvirlangan voqealarga befarq bo'lmaymiz. Bu ba'zan "Uch palma daraxti" balladasi deb nomlanadigan she'rga to'liq tegishli.

Inson hayotining ma'nosi va barcha tirik mavjudotlarning halokati haqidagi falsafiy fikrlarga to'la "Uch palma" dostoni Mixail Yurievich Lermontov 1838 yilda yozgan. Ushbu she'riy asar chuqur falsafiy ma'noga ega bo'lgan sharqiy masalga ega, asosiy lirik qahramonlar yo'q, she'riy so'z ustasining mahoratli qo'li ostida tabiatning o'zi hayotga kiradi, u hissiyotlarga ega va haqiqiy inson kabi aks etadi. Tabiatni juda yaxshi ko'rgan va uning go'zalligi va ulug'vorligi bilan hurmatga sazovor bo'lgan Lermontov ushbu asarda odamlarning qalbiga murojaat qilishni, atrofimizdagi tabiiy dunyoning qadr-qimmatini ko'rsatishni xohladi, barchani uning ne'matlarini qadrlashga, kichik birodarlarimizga nisbatan mehribon va hamdard bo'lishga chaqirdi.

She'riy hikoya qadimgi Arabistonning cho'l vohasida o'sayotgan mahalliy flora vakillari, uchta opa-singillarning tasviri bilan boshlanadi. Ular bu erda juda uzoq vaqt o'sib boradilar va ular o'rtasida oqayotgan tetiklantiruvchi, sovuq oqim tufayli butun vohada hayotni qo'llab-quvvatlaydigan kuch va hayotiylik bilan to'la, ammo ular cheksiz baxtsiz, chunki ular o'zlarini mutlaqo foydasiz va yolg'iz deb bilishadi. Xurmo daraxtlari umidsizlikka tushib, kimgadir foydali bo'lishni istab, Xudodan yer yuzidagi taqdirini hal qilishda yordam so'raydi. Xuddi shu kuni savdo karvoni vohaga kelib, palma daraxtlari o'zlarining keng, zumrad barglari bilan odamlarni hayratda qoldiradi va ularning ibodatlari eshitilganidan xursand. Ammo barchasi juda achinarli tarzda tugadi: savdogarlar daryodan suv yig'ib, o'tin uchun xurmo daraxtlarini kesib, butunlay mag'lubiyatni qoldiradilar. Jannatning gullab-yashnayotgan burchagidan ko'kalamzor jo'shqin cho'lga aylanib, yupqa lentasi bilan tirik irmoqning soyasi asta-sekin issiq quyosh ostida asta-sekin yashil o'simliklarni himoya qilmasdan quriydi.

O'z ishida Lermontov odamlarga o'zlarining shafqatsizligi, befarqligi va o'z manfaati uchun abadiy tashvishi onalik tabiatiga zararli ekanligini ko'rsatdi, u bolalariga eng yaxshi sovg'alarni bepul berib, buning evaziga faqat tartibsizlik va vayronagarchilikni oladi. Bir lahzalik xohish-istaklariga amal qilgan holda, inson o'zi va avlodlari uchun kelajak haqida o'ylamasdan, aslida o'zining ona yurti bo'lgan. Yer nomli nozik va sayyorani yo'q qiladi. Hayvonlar va o'simliklar o'zlarini insonning zararli ta'siridan himoya qila olmaydilar va hamma narsani yumshoq qilib buzib tashlaydilar, faqat oqibatlari inson uchun o'zi uchun eng dahshatli bo'lishi mumkin, u hali ham u etkazgan yovuzlikning to'liq hajmini anglamagan, bu suiiste'mol qilingan ona tabiatining qasosiga aylanishi mumkin. Ushbu asarda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlardan tashqari, chuqur falsafiy ma'no yashiringan, bu erda muallif insoniyatni butun hayoti davomida qiziqtirgan juda jiddiy savollarga murojaat qiladi: Biz nega yaratilganmiz? Har bir insonning maqsadi nima? Hayotda she'rdagi uchta xurmo daraxti singari, o'zingizdan va iste'dodingizdan sizni faqat foydalanadigan, ruhingizni oyoq osti qiladigan va keyin keraksiz deb tashlab yuboradigan odamlarga berish kerakmi?

Shuningdek, "Uch palma daraxti" dostoni diniy yo'nalishga ega. Lermontov, har bir insonning yuqoridan tushadigan taqdiri borligiga amin edi, shuning uchun Yaratuvchidan so'rash yoki Uning irodasiga qarshi turish, insonni azob va umidsizlikka olib keladigan halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Xurmo daraxtlari (aytmoqchi, uchta sirli son) bu mag'rurlik gunohi bilan o'ralgan, o'z taqdirini o'zi hal qila olaman deb o'ylagan, o'z oldiga maqsad qo'yib, unga har tomonlama erishishga harakat qiladigan odamlarning timsollaridir. Biroq, ko'pincha shunday bo'ladiki, xohlagan narsasini olish natijasida odamlar na quvonchni, na baxtni his qilmaydilar va olingan natija unga qo'yilgan umidlarni to'liq oqlay olmaydi.

She'rni yozish jarayonida muallif o'zi gunohlaridan tavba qiladi, qilgan xatti-harakatlarini qayta ko'rib chiqadi va kelajakda ular uchun azob va azobga aylanadigan halokatli xatolardan ogohlantiradi. O'z asarida muallif odamlarni Xudoning irodasiga

qarshi chiqmaslikka, yuqoridan ular uchun mo'ljallangan voqealar jarayoniga aralashmaslikka chaqiradi. U xuddi shu mavzularga va tasvirlarga murojaat qildi, lekin ularni rus jamiyatida yo'nalishni o'zgartirganligini ko'rsatib, boshqacha talqin qildi.

Xulosa qilib aytadiga bo'lsak, "Uch palma daraxti" she'ri orqali o'quvchi o'zida bo'lgan kamchiliklarni anglay boshlaydi, doimo hayotda shukronalik hissi bilan yashash lozimligini tushunadi, o'z xatti-harakatlari to'g'risida o'ylashga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirishga, uning sovg'alaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishga, u bilan tinchlik, va hamjihatlikda yashashga chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.R.M.Uamanova, K.N.Kadirov Rus tili 9- sinf darslik 'Toshkent' 2019-y

2.www.ziyonet.uz

3.www.referat.uz

ФИО авторов: Наврўзова Гулчехра Нейматовна

“Ижтимоий фанлар” кафедраси профессори, фалсафа фанлари доктори Бухоро муҳандислик-технология институти (Бухара, Узбекистан)

Рахимова Нодира Кадировна

Бухоро давлат университети Филология факультети, ўзбек тилшунослик кафедраси ўқитувчиси

Название публикации: «БАҲОУДДИН НАҚШБАНДНИНГ “АВРОД” АСАРИДА ОЛАМ ВА ОДАМ МАСАЛАСИ»

Аннотация. Мақолада Нақшбандия таълимотининг асосчиси Баҳоуддин Нақшбанд Хожаи Бузург номлари билан машҳур Муҳаммад ибн Муҳаммад ад-Бухорий(1318-1389)нинг “Аврод” рисоласида олам ва одам ҳақидаги ғоялари фалсафий таҳлил этилган.

Таянч иборалар: Баҳоуддин Нақшбанд, Нақшбандия, тариқат, “Аврод”, Олам, Амр, Халқ, Ғайб, Шаҳодат, инсон, камолот.

ВОПРОСЫ ВСЕЛЕННОГО И ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «АВРОД» БАХАУДДИНА НАКШБАНДА

Аннотация. В статье анализируются вопросы вселенного и человека в произведении «Аврод» основателя суфийской пути Накшбандия Мухаммада ибн Мухаммад ал-Бухорий(1318-1389), знаменитый по именами Бахоуддин Накшбанд, Хожаи Бузург.

Ключевые слова: Бахоуддин Накшбанд, Накшбандия, тариқат, «Аврод», Вселенная, Амр, Халқ, Ғайб, Шаҳодат, человек, совершенство.

QUESTIONS OF WORLD AND PERSON IN THE BAHAUDDIN NAQSHBAND'S WORK “AVROD”

The summary. The article analyzes questions of world and person in the work “Avrod” written by the seventh feast of the holy Bukhara, the great Bahauddin Nakshband(1318-1389), known as Shoh Nakshband, Xojai

Buzurg, Balogardon, a feast of the 16th ring of the Sufi tariqah of Khojagan Nakshbandiya.

Keywords: Bahauddin Nakshband, Nakshbandiya, tariqat, “Avrod”, world, Amr, Xalq, G’ayb, Shahodat, person, perfection.

Нақшбандга оид маълумотларда: “Ҳазрат Хожанинг “Ҳаётнома” манзумаси ва “Далил ул ошикийн” унвонила тасаввуфга доир бир китоби бордир”¹⁵¹ деб ёзилган. Шунингдек: “Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод”идан (таъкид бизники Г.Н.) ва халифаси Порсо тарафидан ёзилган “Рисолаи қудсия” ва бошқа таржимаи ҳол билан боғлиқ манбалардан ташқари ҳеч қандай асарлари учрамаяпти”¹⁵² деган маълумот мавжуд.

Тадқиқотларимиз давомида Баҳоуддин Нақшбанд таълиф этган “Аврод” номли рисола мавжудлигини аниқладик¹⁵³. 1959 йилда Истанбулда нашр этилган “Ислом энциклопедияси”нинг 9 жилдида Таҳсин Ёзувчининг Баҳоуддин Нақшбанд ҳақидаги моқоласи берилган. Унда Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод” асари борлиги ёзилган.

Москвадаги “Наука” нашриёти собиқ шўролар иттифоқи Фанлар Академияси қошидаги Шарқшунослик институтининг Санкт-Петербург бўлимида сақланаётган қўлёзмалар ҳақидаги қисқа каталогини Холидов А.Б. редакторлиги остида икки қисмда 1986 йил “Арабские рукописи института Востоковедения Академии Наук СССР” номи билан нашр этган. Бу асарнинг биринчи қисмида 3464 ва 3465 тартиб рақамлари, В 3829 ва А 1539 шифр остида Баҳоуддин Муҳаммад Нақшбанд ал-Бухорийнинг (вафоти 791/1389) “Аврод” номли асари сақланаётганлиги кўрсатилган¹⁵⁴. Асар номи зикр этилгандан кейин А.Б.Холидов таълиф маъносини билдирувчи белгини қўйиб, Баҳоуддин Нақшбанд исмини ёзган. Бу билан

¹⁵¹ Шамсуддин Сомий. Қомус- ал-аълам. – Истанбул: 1312х.й.Т. 2.412-бет.

¹⁵² Таҳсин Ёзувчи. Нақшбанд/Ислом энциклопедияси. Истанбул: 1954.9-жилд.53-бет.

¹⁵³ Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (тўлдирилган қайта нашр).Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н.Наврўзова.Т.: “Sano-standart”, 2019.112 б.

¹⁵⁴ Арабские рукописи института Востоковедения Академии Наук СССР. Краткий каталог/ Под ред. А.Б. Холидов. -Москва: Наука, 1986. -Ч.1.С.174.

“Аврод”нинг муаллифи Баҳоуддин Нақшбанд эканлигини таъкидлаган.

Баҳоуддин Нақшбанднинг рисоаларининг номи “Аврод”, яъни вирдлар маъносини англатувчи асардир. “Вирд” арабча сўз бўлиб, “Тарк этмай доим бажариб турадиган вазифа” деган маънони англатади¹⁵⁵. Айни замонда “Вирд”нинг тасаввуфий маъноси ҳам бор: шайх ва муридларнинг узлуксиз ўқиб юришлари шарт бўлган тиловат, зикр, тасбеҳ, дуо, салават каби мажбуриятларни ўз ичига олган. “Вирд” тушунчаси “дуо” тушунчасидан кенг бўлиб, асосий мақсад талаб этиш эмас, балки Тангри ризолиги учун юклатилган вазифаларни бажаришдан иборат. Шунинг учун библиографик мазмунидаги асарларда дуолар ва вирдларни алоҳида гуруҳларга бўлиб тартибга келтирганлар. “Арабча – русча қомус”да вирд сўзи “манба, сарчашма деб таржима қилинган. Ҳақиқат даражасига юксалган шайхлар ўз муридларига илоҳий файзларни қабул қилиш йўллари йўлларини ўз авродлари орқали очиб берганлар.

Жалолиддин Нуриддинов “Авроди Нақшбандия” рисоласининг муқаддимасида “аврод” тушунчасига шундай таъриф берган: “Аврод”- раббоний илмга эришиш, ҳақиқатга етишишнинг йўллари, илоҳий файзни қабул қилиш воситалари, умуман, инсон ҳақида таълим берувчи тасаввуфий қўлланмадир”¹⁵⁶, “Аврод” рисоласида Нақшбандия йўлини танлаган кишиларнинг узлуксиз бажариб юриши керак бўлган вазифалар хусусида сўз юритилган. Унда сўфийнинг ўз маънавий ҳолини яшириши, шуҳрат ва риёдан қочиши зарурлиги таъкидланган. Осойишта яшаш йўли, мулойим табиатли ва раҳмдил бўлиш, илм ишташ ва ўрганиш, иллатлардан узоқда бўлиш ўғитлари берилган. Шунинг учун комиллик, фасоҳат, баркамол авлод тарбияси, қалб поклиги каби фазилатларни ўрганиш ва ҳаётда тадбиқ этишда бу рисоланинг аҳамияти катта.

Қўлимизда мавжуд бўлган Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод” рисоласи билан бу икки нусхани қиёсий таҳлил этдик. Айрим фарқлардан ташқари умумий мазмун ўхшайди.

¹⁵⁵ Тримингэм.Дж.С. Суфийские ордены в исламе. М.: Наука,1989.С.287.

¹⁵⁶ Нуриддинов.Ж. Авроди Нақшбандия.Т.: “Ўзбекистон халқаро ислом академияси” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018. -Б. 4.

Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод” рисоласининг қўлёзма нусхаси ҳажман ўн беш варақдан иборат, мўъжаз, лекин пурмаъно бўлган асардир. “Аврод” Аллоҳга ҳамду санолар билан бошланади. Унда Аллоҳнинг ҳар бир исми ва унинг моҳияти тавсифланиб, айниқса, Унинг поклигига урғу берилган. Инсоннинг Парвардигор томондан яратилганлигини ва Унинг буюк қудрат соҳиби эканлигини ҳис этиши лозимлиги таъкидланиб, қуйидагича ниёзмандлик билан муножот қилинган:

“Ё Аллоҳ, ўз илмингдан бизларга ўргатгин! Бизларга ўзингни фаҳмлашга қобилият бер! Ўзингни эшиттир ва ёрдам қалқонинг билан бизни ўраб ол!¹⁵⁷” “Аврод”даги бу муножотдан маълум бўладики, Баҳоуддин Нақшбанд Аллоҳга ҳамду санолар ўқиб, Ундан ладуний илмни ўргатишини ва Уни фаҳмлаш учун қобилият беришини сўрайдилар. Маълум бўладики, тасаввуф аҳли ва нақшбандлар учун энг олий қадрият илм экан. Бу илмнинг энг юксак даражаси илоҳий, яъни ладуний илм бўлиб, уни фаҳмлаш жуда мураккаб жараён экан. Шунинг учун ҳам Баҳоуддин тазарру билан Аллоҳдан унинг илмини фаҳмлашга қобилият ва унинг овозини эшитиш учун куч-қувват беришини ҳамда бу йўлда уни ёрдам қалқони билан ўраб олишни илтижо қилганлар.

Баҳоуддин Нақшбанд яна шундай муножот этганлар:

“Ё Аллоҳ, бизни шукрингни адо этгувчи қил! Сени зикр этгувчилардан қил! Сенинг тақводоринг қил! Бизни сердуо ва гуноҳдан қайтадиган қил! Ўзингга итоат қилувчилардан, тоатли, мутаवозеъ – камтаринлардан қил! Биз Сенга қайтувчилармиз!

Ё Аллоҳ, қабул эт тавбамизни! Гуноҳлардан бизни пок айлагин. Ижобат эт дуоларимизни! Сўзларимизни тўғри рост қил(беҳуда сўзлардан асра)!¹⁵⁸”

“Аврод”даги бу муножотлардан маълум бўладики, инсон камолотига ёрдам берувчи ва уни илоҳий сифатларни эгаллашига олиб

¹⁵⁷ Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (тўлдирилган қайта нашр).Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н.Наврўзова.Т.: “Sano-standart”, 2019. -Б.53.

¹⁵⁸Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (тўлдирилган қайта нашр).Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н.Наврўзова.Т.: “Sano-standart”, 2019. -Б.55.

келувчи фазилатлар шукроналик, Аллоҳни тили ва дилида доимий такрорлаш, тақводорлик, Аллоҳга итоаткор ва камтарин ҳолатда бўлиш экан. Бунинг учун инсон тавба мақомига кириши ва гуноҳлардан пок бўлиши зарур. Шундагина дуоларнинг ижобатини Аллоҳдан сўраш жоиз.

Баҳоуддин Нақшбанд “Аврод” асарининг таржима ва таҳлилидан маълум бўладики, у бутун борлиқ ягона илоҳий асосга эга бўлган икки оламдан иборат деган. Бу оламларнинг бири “Амр”, иккинчиси “Халқ” деб номланади. “Амр”-Тангрининг амри билан яратилган бирламчи, абадий ва асосий олам, “Халқ” шу Амр оламининг тадрижий ривожланиши натижасида вужудга келган мавжудотлар оламидир. Иккинчи оламнинг асли Амр олами бўлиб у ўзгарувчан ва фонийдир. Шу билан бирга Баҳоуддин жами борлиқни “Ғайб” ва “Шаҳодат” оламларига ажратади. “Ғайб” бизга кўринмайдиган фаришталар, жинлар ва бошқа илоҳий қувватлар олами. “Шаҳодат” биз гувоҳ бўлиб турган зоҳирий олам. Баҳоуддин фикрича, “Шаҳодат” оламини инсон ўз ҳиссиётлари ва ақли орқали ўрганиши мумкин. Аммо Тангри ўзи истаган кишигагина ғайб олами сир-асрорини ўрганиши учун ладуний - ўз олдидаги билимларидан бериши мумкин.

“Тангри истаганини ўз қудрати билан қилади, хоҳлаганини ўз изми билан ҳукм қилади. У шундай зотки, Халқ уникидир, Амр уникидир. У бутун оламларнинг муқаддас Парвардигори” -дейилган. Бу таълимотда Амр олами - Тангрининг Амри ила ҳар нарсани таъминлайдиган оламдир. Бу асарда бутун оламнинг икки ҳарфдан пайдо бўлиши, барча нарсаларни жуфт қилиб яратганига ҳам ишоратдир, чунки илоҳий амр барча нарсаларнинг сабабидир, шунинг учун бу икки ҳарфдан иборат бўлган амр бутун яратилганларнинг жуфтлигидан далолатдир, деб ёзилади.

Баҳоуддин Нақшбанд “Аврод” асарида инсоннинг “шариф”, яъни мавжудотлар ичида энг мукамал қилиб яратилганлиги ҳақида ёзади. Асарда Қуръони Каримдаги Тангри Одамни яратар экан барча фаришталарни унга сажда қилишга буюргани, зеро, У инсонни ўзининг ердаги халифаси, яъни ўринбосари сифатида яратгани ҳақидаги оятларининг моҳиятини очади. Демак, Баҳоуддин фикрича,

инсон бу оламдаги ўз ўрни, асл моҳиятини билиши лозим. Инсон Тангрининг ердаги халифаси эканлиги ва унинг барча сифат ва исмларини ўзлаштириб, куч-қудратини намоёиш этиш учун яратилганлигини билиши ва шунга мос амал қилиши керак. Инсон бутун борлиқни ўзида акс эттирган мукаммал зот эканлиги ва бу камолот даражасига етмоқ учун Тангрининг олий, пок, куч-қувватлари билан узвий боғланишда бўлиши зарурлиги уқтирилади.

Баҳоуддин Нақшбанд инсонни Тангри яратганини ва у бутун борлиқдаги энг мукаммал мавжудот эканлигини тан олади. “Сен менинг парвардигоримсан, мени халқ қилгансан”, деб таъкидлайди Баҳоуддин. У бу иборалар билан инсон Тангри амри билан яратилганлигини, таъкидламоқда. Бу билан инсоннинг асли, яратувчиси, парвардигори Тангри эканлигини кўрсатиб, унинг илоҳий хусусиятга эга эканлигини айтмоқда. “(Эй, Тангри) Сен ўз қўлинг билан бизни яратдинг, парвариш этдинг ва барча касрат – кўплик орасида бизни энг юксакликда қўйдинг”¹⁵⁹, - деб Баҳоуддин Тангри томонидан яралган нарсаларнинг барчасидан инсон мукаммал ва юксакликда турганлигини уқтирмоқда.

“... Бизни энг юксакликда қўйдинг” - ибораси билан Ҳазрат Баҳоуддин инсонни Тангри халқ қилган, яъни яратгани ва инсон бутун мавжудотлар – фаришта, ҳайвон, ўсимлик ва бошқалар ичида энг мукаммал бўлганлиги ва шунинг учун ҳам илоҳий сифатларни эгаллай олишини эътироф этади. Баҳоуддин бу ибора билан инсонни Тангрининг ердаги халифаси эканлигини айтади. У доимо шу номга муносиб бўлиш учун ҳаракат қилиш лозимлигини таъкидлайди.

Баҳоуддиннинг фикрига кўра, инсон икки нарсадан таркиб топгандир. Биринчиси - жисм бўлиб, у Халқ оламидандир. У мавжудотнинг зоҳири-шакли, кўринишидир. У маконда мавжуд. Унинг озиғи ҳам шу Халқ оламидандир. Иккинчиси руҳ бўлиб, у Амр оламидандир. У мавжудотнинг ботинидир. Унинг ҳади йўқ ва озуқаси ҳам ўша оламдандир.

¹⁵⁹ Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (тўлдирилган қайта нашр).Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н.Наврўзова.Т.: “Sano-standart”, 2019. -Б.49.

“Канз ал ибод” даги шарҳлар гувоҳлик берадики, Баҳоуддин Нақшбанд “Аврод” асарида эътибор берган масалалардан бири руҳ ва нафс тушунчаларидир. Буларни изоҳлашда Баҳоуддин латиф ва касиф тушунчаларини қўлаган. У руҳнинг латифлиги ва нафснинг касифлигини таъкидлаб, руҳнинг Амр олами билан ва нафсни Халқ олами билан боғлиқлигини айтган.

Баҳоуддин инсон қалби, вужудини покланиши учун Аллоҳдан муножот қилиб қуйидагиларни сўрайди:

“Нафрат, ёмон кўришни юрагимиздан узоқлаштиргин, кина, фасод, ғазабни қалбимиздан арит! Улар қалб ҳижобларидир!” Ҳижоб банда ва Аллоҳ ўртасидаги тўсиқлар бўлиб, инсон камолоти йўлида унга азият берадиган иллатлардир. Баҳоуддин фикрича, нафрат, ёмон кўриш, кина, фасод ва ғазаб қалбнинг ҳижоблари экан. Чунки улар қалбни қорайтиради ва уни беҳузур қилади. Бу иллатлар инсонни Аллоҳдан узоқлаштиради. Шунинг учун ҳам Баҳоуддин муножот қилиб Аллоҳдан сўрайдилар:

“Ё Аллоҳим! Сендан жуда кўп узоқлашишдан паноҳ сўрайман. Инкор этишдан ва эсдан чиқариб қўйишдан (паноҳ сўрайман). Шайтон васвасаси ва ожиз бўлишдан (паноҳ сўрайман). Ҳалок этувчи ишлардан (паноҳ ўрайман)”.

Баҳоуддин бандани Аллоҳдан узоқ бўлишига олиб келувчи энг катта иллат кибр эканлигини англаб шундай муножот қилади:

“Ё Аллоҳ! Сенинг олдингда камтарин бўлиш-хушуъни бўлиб бер! Бизни гуноҳлардан ўзинг асра! Бизга Ўзингга итоатли бўлишни ато эт!” Шунингдек Баҳоуддин “Яқинни бизга бер!” деб шак-шубҳасиз, ҳеч қандай гумонсиз Аллоҳга ишониш илмини беришни сўрайди. Чунки бу илм дунё ва охират мусибатларини кеткизади. Яна Баҳоуддин: “Бизни эшитиш, кўриш ва қувват билан насибадор қил!” деб Аллоҳдан сўрайди. Шунингдек, Аллоҳдан раҳмат нурларини сўраб, “Одамларни бир-бирларига нисбатан иттифоқ этгин”!, деб илтижо этади ва қуйидагича муножот қилади:

“Қулоқларимизни пурнур қил!

Кўзларимизни пурнур қил!

Қабрларимизни пурнур қил!
Қалбларимизни пурнур қил!
Бутун сезги аъзоларимизни пурнур қил!
Эшитиш нурини бер!
Бизни келажагимизни пурнур қил!

Парвардигорим, бизга фойдали илм, камоли ҳалимлик ва ёруғ равшан нур бер!¹⁶⁰”... “Сен бизларни гўзал ахлоққа ҳидоят эт! Сендан ўзга ҳеч ким бизларни гўзалликка ҳидоят эта олмайди!”

Аллоҳни улуғлаб, Унга жуда кўп ҳамду санолар айтиб, рисолаининг охирида Баҳоуддин Нақшбанд шундай илтижо қиладилар:
“Бизга инсоний хислатларни ато қил!

Бизнинг руҳимизни фаришталаринг билан олий даражага кўтаргин!

Ё ҳол ва қувватларни ўзгартира оладиган зот! Бизнинг ҳолимизни яхшиликка томон ўзгартир!¹⁶¹”

Бу муножотдан маълум бўладики, Баҳоуддин Нақшбанд бани башарни ҳақиқий инсон бўлишини жуда-жуда истаганлар ва Тангридан барчага соф инсоний хислатларни ато қилишини сўраганлар. Комил инсон, яъни илоҳий фазилатли инсоннинг руҳи олий даражада кўтарилишини англаб, инсониятнинг руҳини фаришталари билан олий мақомга кўтаришни сўраганлар. Комил инсоннинг ҳоли илоҳий сифатда бўлганлиги учун барчанинг ҳолини яхшиликка томон ўзгартиришни илтижо этганлар.

Умумий қилиб айтганда юқоридаги фикрлардан қуйидаги хулосалар чиқади:

1. Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод” асарида олам жуда кенг маънода таҳлил этилиб, Амр олами, Халқ олами, Ғайб олами, ва Шаҳодат олами сифатида таърифланган.

¹⁶⁰ Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (тўлдирилган қайта нашр).Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н.Наврўзова.Т.: “Sano-standart”, 2019. -Б.55.

¹⁶¹ Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод. (тўлдирилган қайта нашр).Мақола, изоҳ ва шарҳлар муаллифи, таржимон Г.Н.Наврўзова.Т.: “Sano-standart”, 2019. -Б.65.

2. Рисолада инсон илоҳий мавжудот сифатида тавсифланган ва унинг камолотида илм ва ахлоқни ўрни таъкидланган.
3. Бу асарни таҳлил этиш ва таълим-тарбия жараёнига жорий этишнинг аҳамияти каттадир.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Арабские рукописи института Востоковедения Академии Наук СССР. Краткий каталог/ Под ред. А.Б. Холидов. -Москва: Наука,1986. -Ч.1.С.174.
2. Баҳоуддин Нақшбанд. Аврод (тўлдирилган қайта нашр). Мақола, изох ва шарҳлар муаллифи ва таржимон Г. Н. Наврўзова. –Тошкент: “Sano-standart” нашриёти, 2019. 112б.
3. Баҳоуддин Нақшбанд (Манбалар таҳлили). Тўплаб нашрга тайёрловчи мақола изох ва шарҳлар муаллифи. Г. Н. Наврўзова. –Тошкент: “Sano-standart” нашриёти, 2019. 256 б.
4. “Evradi Bahaiyye arabcha yozilisi” <https://www.kerimusta.com/evrad-i-bahaiyye/>
5. Кныш. А.Д. Мусульманский мистицизм (краткая история) Пер. с англ. М.Г.Романов-СПб.: «Издательство «Диля», 2004.- С. 250-251.
6. Таҳсин Ёзувчи. Нақшбанд/Ислом энциклопедияси. Истанбул: 1954.9-жилд.53-бет.
7. Наврўзова Г. Нақшбандия тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: “Фан”, 2005. 233 б.
8. Наврўзова Г. Н Нақшбандия - камолот йўли. –Тошкент: “Фан”, 2007. 189 б.
9. Navruzova G.N. Khojagon education and the specifics of this way. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol.11, Issue1, January 2021
Impact Factor: SJIF 2021=7.492 1131-1137.
10. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд. Бухоро: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009. 174 б.
11. Наврўзова Г. Баҳоуддин Нақшбанд (Рисола)/Г.Н. Наврўзова; лойиҳа муаллифи ва масъул муҳаррир Қ.Қ. Ражабов.-Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT” нашриёти, 2011.-24 б.
12. Наврўзова Г. Н. Баҳоуддин Нақшбанднинг тасаввуфий таълимоти.

Ўзбекистон

фалсафаси тарихи. II том. Т.: “Mumtoz so’z”, 2017. 34-62 бетлар.

13. Наврўзова Г.Н. Баҳоуддин Нақшбанд таълимоти Яъкуби Чархий тавсифида. Тафаккур зиёси-илмий услубий журнал. 2020. 2- сон. 80-81 б.

14. Наврўзова Г.Н. Абдулхолиқ Ғиждувоний (Монография). Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро маркази” нашриёти, 2020. 108 б.

15. Navruzova G.N. Bahauddin Naqshband-the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islom tafakkuri (Maxsus son) 2020. B. 5-8.

16. Navruzova G.N., Ubaidova V.E. Pharaoh of the weavers of Bahauddin Naqshband.

Academicia. An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10 issue 5, May 2020.

Impact Factor: SJIF 2020=7.13. 922-926 pages.

17. Наврўзова Г., Зоиров Э. Бухорои Шарифнинг етти пири. Тошкент: Muharrir, 2018.

80.

18. Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. Пер. с англ. А.А.Ставиской, под

редакцией и с предисл. О.Ф.Акимушкина. М.: Наука. Главная редакция восточной

литературы 1989. С. 61.

19. Шамсуддин Сомий. Қомус- ал-аълам. – Истанбул: 1312х.й.Т. 2.412-бет.

20. Shaykh Muhammad Hisham Kabbani. The Naqshbandi Sufi Way History and Guidebook of the Saints of the Golden Chain. Chicago:1995. 469 pages.

ФИО автора: Norov Olim Toshpulatovich

Karshi State University. Karshi “Kuchabog”-17

Название публикации: «IMPORTANT FACTORS INCREASE THE RESULTS OF ATHLETES»

Annotation. The issue of improving the ability of athletes to work is a topical issue. In this case, the correctness of the athlete's agenda, especially the nutritional factor, is important in this regard. Athlete's diet can be an important factor in ensuring full-value, balanced work ability and outcome.

Keywords: Rational, physiological standard, micronutrients, macronutrients, energy metabolism, adisative nutrition.

The main purpose of athletes' nutrition will be to focus on three things, just like everyone else, these are, firstly, the supply of adequate energy to the body and, secondly, the equivalent amount of plastic, i.e. “building” materials, for the renewal, growth and development of all cells and tissues and finally, the third, the supply of vitamins, minerals, and water necessary for the normalization of all physiological and biochemical processes.

It is known that in sports, all results increase in advance, which, in turn, should ensure that the nutrition of athletes, in addition to the above, also increases the body's ability to work and speed up the recovery process after exercise.

There are a number of specific features of the digestive and eating processes in the athlete's body. Achieving high results, especially in big sports, and the strong loads placed on the athlete's body during exercise and competitions require great attention to these initial and important stages of metabolism and energy.

An analysis of the data presented in the literature and from our observations shows that it is necessary to follow the following five basic principles in athlete nutrition:

1. Adequate energy supply of the athlete's body corresponds to the total energy expended by him.
2. Determining the total amount of nutrients, water, vitamins and minerals in the diet and their ratio to each other depending on the type of sport, the speed, duration and extent of physical activity.
3. Periods of exercise, competition, and return require specific nutrition (nutrient balance, amount, order).
4. Determining diets that are appropriate for increasing muscle mass and strength.
5. In order to establish an adequate nutrition, biochemical properties of the athlete, national traditions, as well as the weather conditions.
5. Taking into account the physiological, biochemical characteristics of the athlete's body, national traditions and weather conditions in determining adequate nutrition.

These principles can be considered as conditions of a rational diet adapted for physical activity and sports. But many athletes, sometimes even their coaches and team doctors, pay very little attention to what is being said. Rationalization of athlete nutrition is a priority today, with a strong emphasis on physical education and sports, and an important factor in its implementation is the promotion of how, how much and when to eat among all practitioners and coaches. Rationalization of athlete nutrition is a priority today, with a strong emphasis on physical education and sports, and an important factor in its implementation is the promotion of how, how much and when to eat among all practitioners and coaches. For this purpose, in the training halls, stadiums and recreation areas, for training, competition and return periods, first of all:

- a) indicating the total energy expenditure in each sport;
 - b) indicating how many basic and additional nutrients should accept how many basic and additional nutrients should take a day according to the involved age, gender, sports qualification and sports;
 - c) to create tables indicating how many nutrients in food foods are consumed.
- Second, print and distribute the above forms of rationalized meals in the form of a

separate reminder. Third, the dealerships in the presence of colleagues in the home and catering are to monitor the relevant proposals in each seasurement and conducting conversations, lectures, seminars and trainings.

When the observations we took on the above propaganda, he gave positive results in the Christian diet of the Athletes. These are given detailed information on the report.

USED LITERATURE:

1. Азизбекий Г.А. Влияние специализированных продуктов питания на некоторые стороны электролитного обмена у спортсменов. Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. биол. наук. Москва, 1981, 28 с.
2. Алишев Н.В., Егоров А.С. К понятию «работоспособность человека». //Теория и практика физической культуры. 1985, №5. стр. 45-46.
3. Артемьева Н.К., Степуренко В.В., Зверева И.М. Повышение адаптационных возможностей спортсменов путем коррекции нутриционного статуса организма. //Теория и практика физической культуры. 2009, №7. стр. 16-19.
4. Калинин И.М., Пшендин А.И. Рациональное питание спортсменов. Киев, 1985 г.
5. Физиологические методы исследования в спорте. (Учеб. пособие для студ. ИФК). Сост: С.Н.Кучкин, В.М.Ченегин. Волгоград, 1981.
6. Курбонов Ш.Қ. Овқатланиш маданияти (монография). Тошкент, “Маънавият”, 2005 й, 208 б.

ФИО авторов: Хасанов Саидакром Аскарлович (Т.ф.д. проф)

Сайдуллаев Фарход Халилиллаевич (Магистратура резиденти)

Название публикации: «БАЛОҒАТ ЁШИДАГИ ЎҒИЛ БОЛАЛАРДА СУРУНКАЛИ ТОНЗИЛЛИТНИ ЖИСМОНИЙ ВА ЖИНСИЙ РИВОЖЛАНИШГА ТАЪСИРИ»

Тадкикотнинг максади булиб, балогат ёшидаги ўғил болаларда сурункали тонзиллитни жинсий ва жисмоний ривожланишга таъсирини баҳолаш хисобланди. Биз 2018-2020 йиллар давомида ТошПТИ клиникасининг «Оториноларингология» булимида, ҳамда РИПИАТМ “туғма ва орттирилган ЛОР аъзолари“ бўлими булимида ётиб даволанган 40 нафар беморни такширдик. Беморлар 2 гуруҳга булинди. 1 гуруҳга 22 нафар сурункали тонзиллити бор ўғил болалар, 2 гуруҳга 18 нафар сурункали тонзиллити бор жинсий етилиши орқада қолган балогат ёшидаги ўғил болалар киритилди. Барча беморларда тўлиқ клиник текшириш, сўроқ, ЛОР-аъзолари текшируви, эндоскопия, микробиологик текширув, қондаги гормонлар миқдорини аниқлаш ўтказилди, ҳамда комплекс даволаш чоралари қўлланилди. Тадкикот шуни курсатдики, балогат ёшидаги ўғил болаларда сурункали тонзиллитни ташхислаш ва комплекс даволашни такомиллаштириш қондаги гормонлар миқдорини меъёрлаштиради ҳамда беморлар аҳдолини яхшилайдди.

Калит сузлар: сурункали тонзиллит, балогат ёшидаги ўғил болалар, гормонал текширув, комплекс даволаш.

Аннотация: Целью исследования было оценить влияние хронического тонзиллита на половое и физическое развитие мальчиков-подростков. В 2018-2020 годах нами было обследовано 40 стационарных пациентов, пролеченных в отделении оториноларингологии клиники ТашПМИ, а также в отделении врожденных и приобретенных ЛОР-заболеваний РИПИАТМ. Пациенты были разделены на 2 группы. В 1-ю группу вошли 22 мальчика с

хроническим тонзиллитом, во 2-ю группу - 18 мальчиков с хроническим тонзиллитом и подростки с задержкой полового созревания. Всем пациентам проведено полное клиническое обследование, анкетирование, обследование ЛОР-органов, эндоскопия, микробиологическое обследование, определение количества гормонов в крови, применены комплексные лечебные мероприятия. Исследования показали, что улучшение диагностики и комплексное лечение хронического тонзиллита у мальчиков-подростков нормализует количество гормонов в крови и улучшает состояние пациентов.

Ключевые слова: хронический тонзиллит, мальчики-подростки, гормональное обследование, комплексное лечение.

Annotation:

The aim of the study was to assess the effect of chronic tonsillitis on the sexual and physical development of adolescent boys. In 2018-2020, we examined 40 inpatients treated in the otorhinolaryngology department of the TashPMI clinic, as well as in the department of congenital and acquired ENT diseases of RIPIATM. The patients were divided into 2 groups. The 1st group included 22 boys with chronic tonsillitis, the 2nd group - 18 boys with chronic tonsillitis and adolescents with delayed puberty. All patients underwent a full clinical examination, questionnaires, examination of ENT organs, endoscopy, microbiological examination, determination of the amount of hormones in the blood, and complex therapeutic measures were applied. Studies have shown that improving the diagnosis and complex treatment of chronic tonsillitis in adolescent boys normalizes the amount of hormones in the blood and improves the condition of patients.

Key words: chronic tonsillitis, adolescent boys, hormonal examination, complex treatment.

Мавзунинг долзарблиги:

Бугунги кунда тиббиётда катта ютуқларга эришишимизга қарамасдан оториноларингологияда сурункали тонзиллит билан беморлар

муружаати сақланиб қолган. Бу муаммо ҳозирги замон тиббиётининг энг мураккаб муаммоларидан бири бўлиб қолмоқда. Буни нафақат оториноларингологлар, балки педиатр, кардиолог, ревматолог, терапевт ва бошқа мутахассислар олдидаги муаммога айланиб бўлган. Бу муаммо фақат клиник эмас, балки умумбиологик нуқтаи назардан кўриб чиқилиши билан асосланади, чунки бодомча безлар сурункали яллиғланиши жараёни ривожланиши асосида макро ва микроорганизмларнинг биологик таъсир этиши ётади [2,6].

Адабиётлардан олинган маълумотларга кўра, сурункали тонзиллит билан ердаги аҳолининг ўртача 16% касалланади. Ўзбекистан аҳолиси ўртасида 21%ни ташкил этади [3]. Вирус-бактериал инфекциянинг қўшилиб келиши, бир неча касалликнинг қўшилиб келишига сабаб бўлади. Болалар орасида бу касаллик 12-15% ташкил қилади [1,7,8]. Сурункали тонзиллит оториноларингология органларида учрайдиган касалликлар ичида энг кўп ўрганилгани бўлиб, ҳозирги вақтга келиб кўпгина касалликларнинг сурункали тонзиллит билан боғлиқлиги ёки у билан бирга учраши аниқланган. Бодомча беzi болаларда иммун тизимида муҳим рол ўйнаб, иммун тизимининг периферия аъзоси ҳисобланади, ҳамда организмда фаол иммун хужайраларни ишлаб чиқарадиган асосий манбадир. Жаҳон адабиётларида сурункали

тонзиллитни, барча ички аъзоларга, жумладан юрак қон томир системасига, буйрак ва айирув системасига таъсири кенг ёритилган. Лекин бу касалликни жинсий тизимга, ўсиш ва ривожланишга таъсири кам ўрганилган, айниқса болоғат ёшидаги ўғил болаларга таъсири ҳақида адабиётларда маълумот деярли йўқ. Гарчи сурункали тонзиллит билан оғриган ҳамма ўспиринларда иккиламчи жинсий белгиларни шаклланишининг кечикиши, бўй ва вазннинг камлиги кузатилган. Бу муаммони ҳал этиш келажакда болаларни соғлом бўлишида катта аҳамиятга эга [9]. Шу билан бирга, лакуналарнинг чуқур сохалари анаэроб микроорганизмлар учун қулай шароит ҳисобланиб, уларнинг доимий равишда оғиз бўшлиғига ажралиб туриши муҳим аҳамиятга эга [6].

Айрим муаллифларнинг адолатли таъкидлашича, сурункали тонзиллит (СТ) нинг келиб чиқиши ва кечишида микрофлора билан бирга, микроорганизм ҳам муҳим ўрин тутди. Яллиғланиш учоғини шаклланиши микроорганизм реактивлигининг ўзгариши билан бирга кечади. Қон томонидан бўладиган комплекс реакциялар организмдаги бириктирувчи тўқима ва органлар системасидаги ўзгаришлардан далолат беради [7]. Сурункали тонзиллит нейроэндокрин ўзгаришларга ҳам олиб келиши мумкин. Буларга семириш ёки озиш, иштаханинг бузилиши, жинсий қувватнинг сусайиши каби белгилар

кузатилиши мумкин. Кўпгина олимлар сурункали тонзиллит билан оғриган пубертат ёшидаги ўғил болаларни отоларинголог ва эндокринолог диспансер назоратида бўлиши керак деб айтишади.

Тадкикотнинг максоди булиб, балогат ёшидаги ўғил болаларда сурункали тонзиллитни жинсий ва жисмоний ривожланишга таъсирини баҳолаш хисобланди.


Материал ва усуллар:

Биз 2018-2020 йиллар давомида ТошПТИ клиникасининг «Оториноларингология» бўлимида, ҳамда РИПИАТМ “туғма ва орттирилган ЛОР аъзолари” бўлимида ётиб даволанган 40 нафар беморни текширдик. Кузатувимизда сурункали тонзиллитнинг ҳар хил формаси билан оғриган 9 ёшдан 16 ёшгача ўғил болалар олинди. Беморлар 2 гуруҳга бўлинди. 1- гуруҳга 22 нафар сурункали тонзиллити бор ўғил болалар киритилди. 2- гуруҳга 18 нафар сурункали тонзиллити бор жинсий етилиши орқада қолган балогат ёшидаги ўғил болалар киритилди. Барча беморлар ҳар томонлама кўриб чиқилди. Уларда тўлиқ клиник текшириш, суроқ, ЛОР-аъзолари текшируви, эндоскопия, микробиологик текширув, қондаги гормонлар миқдорини аниқлаш ўтказилди. Барча рақамли материаллар вариацион статистика усули билан қайта ишланди, Стьюдент критерийси ёрдамида маълумотлар ишончилиги текширилди, ҳамда Microsoft Excel 2016 ёрдамида статистик таҳлил ўтказилди.

Тадкикот натижалари:

Бизнинг кузатувимизда бўлган беморлар ҳар томонлама текширувдан ўтказилди. 1 гуруҳда 10 нафар беморда сурункали тонзиллит оддий шакли, 8 нафар беморда сурункали тонзиллит токсико-аллергик шакли 1 даража, 4 нафар беморда сурункали тонзиллит токсико-аллергик шакли 2 даража учради, 2 гуруҳда эса 6 нафар беморда сурункали тонзиллит оддий шакли, 7 нафар беморда сурункали тонзиллит токсико-аллергик шакли 1 даража, 5 нафар

беморда сурункали тонзиллит токсико-аллергик шакли 2 даража учради




Барча текширилаётган беморлардан анамнез йиғилганда ҳамроҳ касалликларнинг мавжудлиги ҳам таҳлил қилинди. Унга кўра, 1 гуруҳ беморларда анемия – 15 нафар беморда, гастрит – 15 нафар беморда, холецистит – 16 нафар беморда, кариес – 8 нафар беморда, бронхит – 6 нафар беморда учради. 2 гуруҳ беморларда эса анемия – 7 нафар беморда, гастрит – 9 нафар беморда, холецистит – 7 нафар беморда, кариес – 3 нафар беморда, бронхит – 3 нафар беморда учради

Гуруҳларда сурункали тонзиллит билан оғриган ўғил болаларда ҳамроҳ касалликларнинг учраши

Касалликлар	1-гуруҳ (n=22)		2-гуруҳ (n=18)	
	сони	%	сони	%
Анемия	15	68.2	7	38.9
Гастрит	15	68.2	9	50
Холецистит	16	72.7	7	38.9
Кариес	8	36.4	3	16.7
Бронхит	6	27.2	3	16,7


Купинча беморлар шикоятлари сурункали тонзиллитнинг кечиши билан боғлиқ бўлди, яъни 1 гуруҳ беморларининг 86%и томодаги оғриққа, 72%и ютинганда дискомфортга, 91%и оғиздан нохуш хид келишига, 50%и бўғимларда оғриққа, 22%и тана харорати ошишига, 48%и холсизликка шикоят қилди. 2 гуруҳ беморларнинг 89%и томоқда оғриққа, 78%и ютинганда дискомфортга, 94%и оғиздан нохуш хид келишига, 39%и бўғимларда оғриққа, 38%и тана харорати ошишига, 62%и холсизликка шикоят қилди.



ЛОР-аъзоларини текшируви натижаларига кўра, 1 гуруҳ беморларнинг 18 (81.8%) нафарида йирингли ёки казеоз йирингли тугунлар, 16 (72.7%) нафарида Гизе белгиси, 19 (86%) нафарида Зак белгиси, 9 (41,1%) нафарида Преображенский белгиси 14 (63.6%) нафарида лимфа тугунлари катталашганлиги, 2 -гуруҳ беморларнинг 16 (89%) нафарида йирингли ёки казеоз йирингли тугунлар, 15 (83.3%) нафарда Гизе белгиси, 11 (61.2%) нафарда Зак белгиси, 14(77.8%) нафарда Преображенский белгиси, 11 (61.2%) нафарда лимфа тугунлари катталашганлиги аниқланди.

	1-гурух (n=22)		2-гурух (n=18)	
	сон	%	сон	%
Йирингли ёки казеоз йирингли тиқинлар	18	81.8%	16	89%
Гизе белгиси	16	72.7%	15	83,3
Зак белгиси	19	86%	11	61,2
Преображенный белгиси	9	41%	14	77.8%
Бўйин регионар лимфа тугунларининг катталашиши	14	63.6%	11	61,2

Микробиологик текширув натижасида 1 гуруҳ беморларнинг 10 нафарида *Streptococcus pyogenes*, 4 нафарида *Staphylococcus aureus*, 2 нафарида *Chlamidia pneumoniae*, 2 нафарида *Mycoplasma pneumoniae*, 2 гуруҳ беморларнинг 5 нафарида *Streptococcus pyogenes*, 3 нафарида *Staphylococcus aureus*, 2 нафарида *Chlamidia pneumoniae*, 2 нафарида *Mycoplasma pneumoniae*, 2 нафарида *Candida albicans* аниқланди.



Қондаги гормонлар миқдори текширилганда, 1 гурух беморларида Тестостерон миқдори ўртача $6.7 \pm 1,3$, ЛГ миқдори ўртача $4.5 \pm 1,2$ эканлиги, 2 гурух беморларида эса Тестостерон миқдори ўртача $6.4 \pm 1,2$, ЛГ миқдори ўртача $4.4 \pm 1,3$ эканлиги аниқланди.


Беморларда сурункали тонзиллитнинг кечиш даражаси ва кўрсатма бўйича жаррохлик амаллари ўтказилди, яъни 8 нафар беморда умумий оғриқсизлантириш остида тонзиллэктомия амалиёти бажарилди.

Комплекс даволаш тарзида барча беморларга 10 кун давомида танглай муртақларини ювиш, люголь эритмаси билан артиш, маҳаллий физиотерапевтик муолажалар, десенсибилизация даво, антибиотиклар, ҳамда 30 кун давомида иммуномодуляторлар тавсия қилинди.

Даволашдан сунг 1 гурух беморларининг 22%и томоқда оғриққа, 32%и ютинганда дискомфортга, 21%и оғиздан нохуш хид келишига, 16%и бўғимларда оғриққа, 4%и тана харорати ошишига, 22%и холсизликка шикоят қилди. 2 гурух беморларнинг 28%и томоқда оғриққа, 27%и ютинганда дискомфортга, 28%и оғиздан нохуш хид келишига, 20%и бўғимларда оғриққа, 7%и тана харорати ошишига, 32%и холсизликка шикоят қилди.

Қайта ўтказилган микробиологик текширув натижасида 1 гурух

беморларнинг 5 нафарида *Streptococcus pyogenus*, 2 нафарида *Staphylococcus aureus*, 2 нафарида *Chlamidia pneunoniae*, 1 нафарида *Mycoplasma pneunoniae*, 2 гурух беморларнинг 3 нафарида *Streptococcus pyogenus*, 2 нафарида *Staphylococcus aureus*, 1 нафарида *Chlamidia pneunoniae*, 2 нафарида *Mycoplasma pneunoniae* аниқланди.



Қондаги гормонлар миқдори қайта текширилганда,

1 гурух беморларида Тестостерон миқдори ўртача $7.2 \pm 0,8$,

ЛГ миқдори ўртача $6.0 \pm 0,6$ эканлиги, 2 гурух беморларида эса Тестостерон миқдори ўртача $6.8 \pm 0,7$, ЛГ миқдори ўртача $5.6 \pm 0,5$ эканлиги аниқланди.

Шундай қилиб, хулоса қилиб айтиш мумкинки, балоғат ёшидаги ўғил болаларда сурункали тонзиллитни ташхислаш ва комплекс даволашни такомиллаштириш қондаги гормонлар миқдорини меъёрлаштиради ҳамда беморлар ахволини яхшилайдди.

Адабиётлар

1. Абдулкеримов Х.Т., Карташова К.И., Давыдов Р.С. и др. Сравнительная оценка эффективности лечения пациентов с субкомпенсированной формой хронического тонзиллита антисептическим

- средством растительного происхождения в комплексе со стандартной консервативной терапией: результаты открытого рандомизированного исследования // Вестн. оториноларингол. – 2018. – №3. – С. 45-49.*
2. *Владимирова Т.Ю., Барышевская Л.А., Лямин А.В. и др. Возможности применения антибактериальных средств при хроническом тонзиллите // Вестн. оториноларингол. – 2017. – №2. – С. 55-59.*
3. *Колесникова О., Пособило Е. Микробный пейзаж нёбных миндалин при обострении хронического тонзиллита // Врач. – 2017. – №11. – С. 49-52.*
4. *Начаров П., Рязанцев С. Этиологическая и патогенетическая диагностика хронического тонзиллита // Врач. – 2018. – №3. – С. 26-29.*
5. *Abu Bakar M., McKimm J., Haque S.Z. et al. Chronic tonsillitis and biofilms: a brief overview of treatment modalities // J. Infl amm. Res. – 2018. – Vol. 11. – P. 329-337.*
6. *Dapefrid A, Lundstrom B, Tano K. Prevalence of Fusobacterium necrophorum in tonsils from patients with chronic tonsillitis // Acta Otolaryngol. – 2017. – Vol. 137, №3. – P. 297-301.*
7. *Fold E., Seemann R., Stelter K., Lill C. The effect of tonsillotomy on chronic recurrent tonsillitis in children // Acta Otolaryngol. – 2017. – Vol. 37, №9. – P. 992-996.*
8. *Kanji K., Saatci D., Rao G.G. et al. Antibiotics for tonsillitis: should the emergency department emulate*

ФИО автора: Абдулбоқиева Ойдина

ТошДЎТАУ магистранти

Название публикации: «СОҲА ТЕРМИНЛАРИНИНГ ЎЗБЕК
ЛЕКСИКОГРАФИЯСИДАГИ ЎРНИ»

Аннотация: Ушбу мақолада ўзбек лексикографиясининг шаклланиши, тил тизимидаги янги сўзлар ва атамалар, соҳа терминлари, турли соҳалардаги атамалар сонининг кўпайиши, жумладан, банк терминларининг ўзбек лексикографиясидаги ўрни ва кўлами акс этган.

Калит сўзлар: лексикография, термин, тил тизими, структура, луғат, соҳа терминлари.

Аннотация: Данная в статье отражает формирование узбекской лексикографии, новых слов и терминов в языковой системе, отраслевых терминов, увеличение количества терминов в различных областях, включая роль и объем банковских терминов в узбекской лексикографии.

Ключевые слова: лексикография, терминология, языковая система, структура, словарь, полевые термины.

Annotation: In the article reflects the formation of Uzbek lexicography, new words and terms in the language system, industry terms, the increase in the number of terms in various fields, including the role and scope of banking terms in Uzbek lexicography.

Keywords: lexicography, terminology, language system, structure, dictionary, field terms.

Бугунги кунда замонавий халқаро вазият турли мамлакатлар ўртасидаги сиёсий, иқтисодий ва илмий алоқаларнинг барқарор ўсиб бориши билан ажралиб туриши ҳамда ўз тилимиз билан бирга чет тилларини ўрганиш бу борада тобора муҳим аҳамият касб этмоқда. Сўнгги йилларда мутахассисларга қўйиладиган

талаблар, айниқса, ташқи иқтисодий (шу жумладан банк) фаолияти билан шуғулланадиганлар учун кескин ўзгарди. Замонавий филология ҳам тез ўзгарувчан дунёда катта ўзгаришларни бошдан кечирмокда. Энди филологларнинг эътиборини кўпинча ихтисослашган матнлар жалб килмокда: ахборот, бизнес, иқтисодий, ҳуқуқий, сиёсий, реклама, илмий-техник ва хоказо. Махсус тилни ривожлантириш жараёнида унинг тушунчалар тизими умумий тил тизимига қатъий кириб боради ва унинг бевосита элементига айланади. Илмий - касбий тушунчалар ўз ифодасини сўзлар, иборалар, синтактик конструкциялардан излайди; янги сўзлар ҳамда атамалар пайдо бўлади.[1] Билимларнинг мазмуни танланган тил белгиларига кириб бора бошлайди, уларни туйдиради ва тулдиради. Янги сўзлар ва атамалар тил тизимининг барча механизми таъсирига буйсунади. Терминларда ўз ифодасини топган махсус билимлар, умумий тилнинг лексик-семантик тизимининг ажралмас қисмига айланиб, у ёки бу махсус тилнинг семантик тизимига киритилган. Аксарият ҳолларда маълум бир табиий тилда пайдо бўлган янги сўзлар ва фан, техника, сиёсат, иқтисод ва бизнес алоқалари соҳалардаги янги тушунчаларни акс эттирувчи бу атамалардир. Жамиятни ахборотлаштиришдек бир даврда замонавий тилшунослик ҳолати бизни луғавий маъноларининг ўсиши ва кенгайишига ҳамда атамалар ва терминологиянинг рўлига алоҳида етибор беришга мажбур килмокда. Шунингдек, махсус билимларнинг турли соҳалардаги атамалар сонининг кўпайиши, тилнинг тез-тез ишлатиб турадиган сўзлар сонидан ошиб кетиши еҳтимоли ҳам йўқ емас. Муайян адабий тилнинг сўз бойлиги ўз таркибида махсус тушунчаларни ифодаловчи терминологик лексикани у ёки бу даражада қамраб олади. Ҳар қандай тилнинг сўз бойлиги у тарихий ёки замонавий тусда бўлмасин, инсонлар томонидан тузиладиган ранг-баранг луғатларда маълум даражада аксини топади. Луғат тилдаги сўзларни ўзида сақлаш ва келажак авлодга етказиш вазифасини бажаради. Бугун муайян тилшуносликнинг қай даражада ривожланганини ва такомил топгани айни тилда

яратилган луғатларнинг тури, миқдори ва сифати билан ўлчанмоқда. Ўзбек лексикографиясининг шаклланишида Алишер Навоий ва ўзбек мумтоз адабиёти намояндалари асарларига тузилган луғатларнинг роли сезиларлидир. XIX асрнинг 70 йилларидан эътиборан ўзбек терминологияси ва лексикографияси рус тили орқали Ғарбий Европа тилларидан кириб келаётган ўзлашмалар таъсирида ривожланиш палласига қадам қўйди. Собиқ шўролар ҳукмронлиги вақтида ўзбек тили терминологияси янги тушунчалар ва уларни ифодаловчи ҳаддан ташқари кўп миқдордаги ўзлашма терминлар ҳисобига кенгайди. Бошқа соҳалар қатори банк-молия соҳасида ҳам бу ҳолат кўзга ташланади. Буни қуйидаги жадвалда кўришимиз мумкин.

№	Термин номи	Изоҳи
1	Бухгалтер	Қонун – қоидаларга риоя қилган ҳолда савдо ва ҳисобга олиш дафтарларини юритувчи шахс.
2	Лицензия	Давлат томонидан бериладиган рухсатнома.
3	Счёт обороти	Бу счётларнинг дебет ёки кредит томонларига ёзилган операциялар суммаларининг йиғиндиси.
4.	Смета	Белгиланган баҳода кутилаётган банк харажатлари ва банк фойдаси ўртасидаги фарқ.
5.	Фоиз	Ҳисса, устама, қўшимча фойда

Соҳа терминологияси тизимининг вужудга келишида соф ўзбекча лексик бирликлар қатори русча-байналмилал терминларнинг роли юқори бўлди. Бу жиҳат аниқса, табиий фанларга хос терминологик тизимда яққол ифодасини топди. Ўзбек терминологияси ва луғатшунослиги бир неча асрлик шаклланиш ва тараққий этиш босқичларини босиб ўтди. Бу босқичларда ўзбек терминологияси ва лексикографияси нафақат ўз ресурслари, шунингдек, қариндош бўлмаган тиллар бойликларидан ўрни билан фойдаланган ҳолда ўз ривожланиш йўлида давом этди. Турмушда тубдан содир бўлган ижтимоий-сиёсий, маънавий-маданий ўзгаришлар янги тушунчалар, янги номланишларнинг воқеланишига олиб келди. Ўзбек тилининг лексик хазинаси мустақил мамлакат юритаётган миллий сиёсатни акс эттирувчи ранг-баранг сўзлар ва терминлар билан

кенгайди. Ўзбек адабий тилининг ажралмас бўлаги ҳисобланмиш терминология ҳозирги ўзбек тилшунослиги фанининг ўта шахдам ва динамик тарзда тараққий этаётган категориялардан бири бўлиб, тил луғат бойлигининг муттасил ўсиб ҳамда кенгайиб боришида туганмас манба ролини бажаради. Бугунги кунда ўзбек тили соҳа терминологияси ҳар томонлама такомиллашиш жараёнини кечирмоқда. Терминларнинг улар ифодалайдиган нарсалар-буюм, воқеа-ҳодиса тушунчаси, маъно-мазмунига мутаносиб, мос тушиши, структур(шакл) жиҳатдан ихчам бўлиши, яқка маънони ифодалаш, маънодошлик қаторларига кирмаслиги каби талаблар терминшунослар диққат марказидан жой олганлиги янгилик эмас. Айниқса, хорижий тиллардан шиддат билан кириб келаётган фан, техникага доир терминларни қандай тарзда қабул қилиш, ўзлаштириш хусусида ҳар хил ёндашувлар кўзга ташланади. Истиқлолдан кейин ўзбек терминологияси нафақат миқдор, шунингдек сифат ўзгаришларга ҳам юз қўйди. Ўзбек тили имкониятларидан фойдаланган тарзда терминлар тизимини тартибга солишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, муайян нарсалар-буюм, тушунча, воқеа-ҳодисани ифодалашда она тили қатори ўрни билан ўзбек тили шевалари ва лаҳжалари сўз хазинасида мавжуд тайёр сўзлардан фойдаланилмоқда, ўзбек тилида асрлар оша синонимларга бардош берган сўз ясовчи аффиксларнинг термин ҳосил қилишдаги иштирокидан унумли истифода этилмоқда, калькаланишнинг турлари ёрдамида терминлар ҳосил қилишга жиддий диққат қаратилмоқда.

Ўзбекистонда бозор иқтисодиёти муносабатларига ўтилиши асосида терминологик лексика миллий валюта, кичик бизнес, ўрта бизнес, хусусий тадбиркорлик, қимматли қоғозлар бозори, тадбиркорлар палатаси, консалтинг, инжиниринг, лизинг фирма, бизнес-инкубатор сингари қатор янги терминлар билан ҳам кенгайди. Ўзбек лексикографияси фан-техника соҳалари бўйича изохли луғатлар яратиш борасида муайян ютуқларни қўлга киритгани кўпчиликка маълум. Ўзбек тили изохли луғатлари тузиш анъаналари Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит

турк” асарига бориб тақалади. Изоҳли луғатлар тузишнинг бош принципларидан бири, маълумки, бош сўзнинг маъно-мазмуни, моҳиятини очиб беришда фактик мисол алоҳида аҳамият касб этади. Маҳмуд Кошғарий луғатида муайян сўзнинг изоҳини келтиришда эскуи туркий тилда қўлланган гаплар, иборалар, мақол, матал, жонли сўзлашув тили материаллари, халқ оғзаги ижоди намуналари тасдиқловчи манба фазифасини ўтаган. Айни шундай усул ва ҳолатни “Бадое ул-луғат”, “Абушқа”, “Санглох”, “Келурнома”, “Луғати чигатойи ва турки усмони” каби луғатларида изоҳлаган сўзлар мисолида ҳам кузатиш мумкин. Жаҳон тилшунослигида ҳам банк-молия соҳасига оид луғатлар яратилган, хусусан Б.Г.Федоров " Новый Англо-Русский Банковский и Экономический словарь"[2] асари, бу луғат 2006 йилда Москва Санк-Петербургда яратилган. У ўз ичига 15000 терминни камраб олган. Бундан 11 йил олдин шу муаллиф томонидан русча - инглизча банк терминларининг энциклопедик луғатини яратган. Бу луғатда 10000 та термин келтирилган. Инглиз тилида “Check your english vocabulary for banking und finance” номли луғат Jon Marks[3] томонидан 2007 йилда яратилган 30 бўлимдан иборат. Ҳозирги ўзбек терминологияси соҳа терминлари изоҳли луғатларини тузишга жиддий эътибор қаратмоқда. Ушбу йўналишда нафақат табиий фанлар, балки фалсафа, тарих, адабиётшунослик, лингвистика сингари ижтимоий-гуманитар фан соҳалари доирасида ҳам талайгина изоҳли луғатлар нашр қилинган ва улар мутахассислар, қолаверса, кенг китобхонлар ҳукмига ҳавола қилинган. Айни чоғда, ўзбек тили ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, илмий-техникавий ва бошқа соҳалар терминологияси тизимида ўзбек тили қонунларига бўйсунган ҳолда муайян қисми ўзбек тилининг сўз ясовчи элементлари билан алмаштирилган улкан миқдордаги русча-байналмилал терминлар қўлланмоқда. Ўзбек лексикографияси фан-техника соҳалари бўйича изоҳли луғатлар яратиш борасида муайян ютуқларни қўлга киритгани қўпчиликка маълум. Ҳозирги кунда илмий-техник билимларнинг тобора ортиб бораётган аҳамияти ва ривожланиши замонавий луғатларда пайдо

бўлган янги сўзларнинг 90% дан ортиғи махсус луғат таркибида эканлигида намоён бўлади. Сўнгги ўн йилликларда терминологияни бирлаштириш ва стандартлаштириш муаммолари долзарб бўлиб қолмоқда. Терминологияни стандартлаштириш бўйича меёрий ишларнинг асосий усулларида бири бу терминологик луғатлар тузишдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш.Тайбат “ Англоязычная терминология банковского дела в языковой системе и речевой практике”. Москва. 2010
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. 1-1У. Тошкент: Фан, 1983-1985.
3. Федоров Б.Г." Новый Англо-Русский Банковский и Экономический словарь" - Москва.: “Лимбус Пресс” 2006. Б.6.
4. Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905-1917 гг. Ташкент, 1940.
5. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке/Дадабаев Х., Насыров И., Хусанов Н. Проблемы лексики староузбекского языка. Ташкент: Фан, 1990. – С. 3-83.
6. Jon Marks “Check your English vocabulary for banking and finance” London. 1997

ФИО автора: Саидова Зарина Асалбоевна

студентка 3 курса факультета русского языка и литературы

ДжГПИ им. Кадыри

ФИО научного руководителя: д.ф.н., проф. Пардаева З.Ж.

Название публикации: «ПРОБЛЕМА ГЕРОЯ В РАССКАЗЕ Ф.М. ДОСТОЕВСКОГО «СОН СМЕШНОГО ЧЕЛОВЕКА»»

Аннотация: В статье рассматривается проблема героя, которая воплощена в персонаже. Его эмоциональное состояние и чувства, способствовавшие его отношению к жизни, а также формирование личности героя с помощью повествования его жизни являются основной фабулой рассказа.

Ключевые слова: сюжет, утопия, видения, антиутопия, сон, жанр.

Ф.М Достоевский начал работать над данным произведением в 1877 году. Впервые напечатан данный рассказ в апрельском выпуске «Дневника писателя». Над повестью Федора Достоевского «Сон смешного человека» можно рассуждать с разных углов. Во-первых, взять сторону унижения слабых сильными, во-вторых, увидеть смысл во всём, когда человек, от природы мягкий и хороший, становится смешным в силу эгоизма или влияющих на него внешних факторов. В-третьих, пессимизм и отвращения к жизни. Ведь один человек видит в ситуации препятствия, а другой – возможности. Если бы «смешной человек» старался видеть позитивную сторону жизни, и искать происходящем пользу для себя, он бы прожил жизнь совсем не так. О главном герое можно сказать то что его еще с самого детства считали не таким как все. Над ним всегда смеялись его ровесники и не понимали его видения мира. По этой причине он уходил глубже в себя в свои мысли. И доводит тем самым себя до идеи самоубийства, считая это самым правильным решением в его жизни [Зстр. 281].

В фантазиях главного героя живёт утопический образ мира, в котором царит безграничная любовь и уважение между людьми. Мир не настолько идеален, чтобы ждать от него приятных сюрпризов, но и не настолько плох, чтобы стремиться уйти из него. Автор пытается передать через произведение то, что человек сам является создателем и каждому человеку предстоит сделать выбор, приняв ту или иную сторону. Достоевский считает свой рассказ «фантастическим». Однако никакой фантастики в произведении читателя нет, то есть в рассказе описана действительность, в которую пришлось пережить и самому автору. Каким бы необычным ни был сон, он не даёт право считать произведение фантастическим, поскольку странные сновидения могут присниться каждому. Достоевский изображает идеальный мир по-другому, для него основой счастья становится всеобщая любовь, отказ от эгоизма. Достоевский не раз подчеркивается то, что сновидение не зависит от логики, а также что сон связан с чувством. [1, стр 89]. Станным способом является то что, смешной человек уделяет способу самоубийств особое внимание: если в реальности он хотел застрелиться в голову, то во сне он стреляет в грудь. Основной идеей произведения является показ современного мира в гармонии добра со злом, и ждать от него чего-то совсем не стоит. Нужно самому решать проблемы и работать над собой выбрав одну из сторон, добра или зла.

О главном герое можно сказать то что его еще с самого детства считали не таким как все. Над ним всегда смеялись его ровесники и не понимали его видения мира. По этой причине он уходил глубже в себя в свои мысли. И доводит тем самым себя до идеи самоубийства, считая это самым правильным решением в его жизни. Все его проблемы медленно охватывали душу смешного человека. Он уже не первый день находился в угнетённом состоянии, когда неожиданно полученный «знак свыше» заставил его всерьёз задуматься о самоубийстве. Главный герой увидел на небе звезду. Вероятно, ту же самую звезду в тот вечер увидела не одна сотня людей. И только для смешного человека она стала

«знаком», поданным ему для того, чтобы он оборвал свою жизнь. Смешной человек проходит через внутренниетерзания и переживает острый душевный кризис. В этот момент к нему приходит знание о том, что в произошедшем виноват только он сам. Смешной человек настолько недоволен миром вокруг себя, что видит его хуже, чем он есть на самом деле. Непростое детство главного героя, в котором он был вынужден терпеть незаслуженное унижение, заставило его думать о том, что общество состоит исключительно из злых и жестоких людей. Смешной человек ни от кого не ожидает добра и сам отказывается от помощи. Так эта мысль о том, что он смешной, преследовала героя, что он решил закончить жизнь самоубийством. Этому способствовал мрачный, дождливый, серый день. [2, стр 133]Суицид осуществить не удалось, благодаря маленькой девочке, звавшей на помощь. Увы, этот человек ей не помог, но сам немного задумался и не применил револьвер во зло самому себе. Но главной причиной того, что он не выстрелил сам в себя, явился спасительный сон, где косвенно было показано, что наше существование не прерывается с физической смертью.

- 1.Достоевский Ф.М. «Сон смешного человека». - <https://fedordostoevsky.ru/works/characters/hero/little/>
- 2.Тихомирова Б.Н.Словарь- справочник, собр.соч. – Санкт- Петербург 2008.
3. Якубович И.Д. Жизнь и творчество Федора Достоевского. – Санкт – Петербург, 1999 год.

ФИО авторов: Mavlonov Ulug'bek Olimjonovich

Anatomiya va patalogik anatomiya kafedrası assistenti

G'aniyeva Maftuna SHukurjon qizi

Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti. Anatomiya va patalogik anatomiya kafedrası talabasi

Название публикации: «INFEKSION KASALLIKLAR.QIZAMIQ»

Mavzuning dolzarbligi: Qizamiq - o'tkir infeksiyon kasallik bo'lgani sababli odam organizmida xavfli asoratlar qoldirishi aniqlangan.Shu sababli aholida qizamiqdan saqlanish uchun tibbiy bilim yuzaga keltirish muhim sanaladi .

Kalit so'zlar: Qizamiq , infeksiyon viruslar , virulentlik, kontagioz, enantema, ekzantema, krup.

Infeksiyon kasalliklar — patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar, eng sodda jonivorlar va h. k.)ning kishi, hayvon va o'simlik organizmiga kirib ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar. Infeksiya paydo bo'lishi va o'tishida patogen mikroorganizmlarning quyidagi xususiyatlari muhim rol o'ynay-di: 1) spetsifikligi, ya'ni muayyan biologik turning organizmida yashashi (qizamiq virusi faqat odam organizmida parazitlik qiladi) va faqat o'zi uchun harakterli infeksiyon kasallikni qo'zg'atishi; 2) virulentligi, ya'ni kasallikka nechog'li sabab bo'la olishi ; 3) muayyan a'zolarida (aksari ichki a'zolarida) joylasha olishi gonokokk siydik yo'llari bilan ko'z shilliq pardasida;stafilakokklar va streptakokklar jinsiy a'zolarida; meningokokk miya pardalarida, dizenteriya tayoqchalari yo'g'on ichak devorida yashab ko'payadi).

Qizamiq-o'tkir virusli kasallik bo'lib ,haddan tashqari tez ko'payadigan (kontagioz) bo'lishi bilan ajralib turadi.Umumiy intoksikatsiya,yuqori nafas yo'llari shilliq pardalari va ko'z konyuktivasida kataral yallig'lanish boshlanishi,badan terisiga dog'simon –papulyoz toshma toshishi bilan ta'riflanadi .Qizamiq yer yuzida keng

tarqalgan infeksiyalar bo'lib unga barcha yoshdagi kishilar, asosan bolalar kasallanadi.

Etiologiyasi va patalogiyasi. Qizamiq qo'zg'atuvchisi tarkibida RNK tutuvchi ,mikroviruslar guruhiga kiradigan virusdir ,o'lchami 150 nm keladi .Bu infeksiya havo –tomchi yo'li bilan yuqadi .ayni vaqtda virus yuqori nafas yo'llari va ko'z konyunktivasiga tushadi . Virus epiteliyda distrofik o'zgarishlarga sabab bo'ladi va shilliq parda ostidagi qatlamga o'tib ,shu yerdan limfa tomirlari orqali regionar limfa tugunlariga yetib borib, shu tugunlarda to'planib ko'paya boshlaydi .Limfatik to'siqni yengib o'tgandan keyin virus qon oqimiga tushadi va limfoid to'qimaga boradi.Natijada tipik ulkn hujayralar hosil bo'ladi .

Patalogik anatomiyasi .Konyuktiva ,tomoq, traxeya va bronxlarning shilliq pardalarida kataral yallig'lanish boshlanib og'ir hollarda nekroz bo'ladi.Hiqildoqning shishishi va nekrozga uchrashi muskullarning reflektor yo'l bilan tortishib ,spazmga uchrashi va asfeksiya bo'lib shilliq pardalar epiteliysining metaplaziyaga uchrab ,ko'p qavatli yassi epiteliyga aylanishi va enantema va ekzantema paydo bo'ladi. ENANTEMA-lunjlar shilliq pardasida oqish dog'lar bo'ladi.EKZANTEMA –yuz, bo'yin, gavda terisida va qo'l oyoqlarning yoziluvchi yuzlarida dog'simon yirik toshmalaridir.

Klinik o'tishi uch davrga bo'linadi:

1. Kataral davr
2. Toshma toshish davr
3. Pigmentatsiya davri

Kataral davr- tana haroratining 39°C gacha ko'tarilishi,yuqori nafas yo'llari shilliq pardasida o'tkir kataral yallig'lanish boshlanishida ba'zan soxta krup(bo'g'ma) bo'ladi.Bunda yuqori nafas yo'llari va ko'z kon'yunktivasi qizaradi, bemor quruq yo'taladi, tumov bo'ladi, ko'zi qizarib yoshlanadi, yorug'likka qaray olmaydi, tovushi bo'g'ilib qoladi.Bola bezovta bo'ladi, uyquasi buziladi, ishtahasi yo'qoladi,

holsizlanadi, ba'zan ich ketishi, qorinda og'riq, og'irroq hollarda umumiy intoksikatsiya, talvasalar, es-hushni yo'qotish alomatlari ro'y berishi mumkin.

Toshma toshish davri (4-5 kun)dog'simon-papulyoz toshma paydo bo'ladi. Bunda burni bilan yuqori labi shishib turadi ,ko'zlari qizarib ,yiringlab turadi .

Pigmentasiya davrida –toshma rangi o'zgarib , qoraya boshlaydi keyin jigarrang tusli bo'lib qoladi .

Qizamiq asoratlari jumlasiga : laringit ,laringotraxeit , pnevmoniya ,otit, yuz yumshoq to'qimalarining namli gangrenasi (noma) kiradi .

Oldini olish uchun bemorni sog'lom bolalardan ajratib qo'yish zarur. Qizamiqqa qarshi emlash muhim ahamiyatga ega . 1967 yildan boshlab respublikada Qizamiqqa qarshi yoppasiga emlash joriy etilgan, shu bois kasallik ahyonda bir kuzatiladi. Q. bilan og'rigan bolalar uyda, og'irroq hollarda, asorat qolganida kasalxonada davolanadi. Asosiy ahamiyat kompleks davolash chora tadbirlariga qaratiladi. Sanitariya gigiyena sharoitlarini yaxshilash, bemor bo'lgan xonaning havosini tez-tez almashtirib turish va to'lato'kis ovqatlanishiga e'tibor berish zarur.

Foydalangan adabiyotlar :

1. Abdullaxo'jayev M.S 2019y 292p
2. Ashurova .D.T 2019 y 142 p
3. Muhamedov I. 2006 y 536 p
4. avitsenna.uz .uz.m.wikipedia.org

ФИО автора: Жумагул Одашалиева,

Андижон давлат университети

Мактабгача таълим факультети талабаси

Название публикации: «БОЛАЛАРДА РЕФЛЕКСИВ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ШАКЛЛАРИ»

Аннотация

Мақолада реклефсив кўникма тушунчаси, унинг педагогика ва психологиядаги талқини ҳақида сўз юритилган. Шунингдек, мактабгача таълим тарбияланувчиларида рефлексив қобилиятларини шакллантириш ва ривожлантириш юзасидан мулоҳазалар баён этилган.

Калит сўзлар: ақлий қобилият, рефлексив кўнима, ўзини бошқариш, баҳолаш, танқидий муносабат, коррекциялаш, рефлексив тафаккур.

Мамлакатимизда ёш авлодни ақлий-интеллектуал, руҳий-маънавий ҳамда жисмоний баркамол этиб тарбиялашга катта эътибор қаратилмоқда ва бунинг учун зарурий шароитлар яратилган. Ёшларда ақлий қобилият ва маънавий юксалиш омилларидан бўлган рефлексив кўникмаларни шакллантиришга туртки берадиган таълимий ва тарбия муҳитини ташкил этишда болаларнинг фаоллигини таъминлаш, машғулотларда тарбияланувчиларнинг ҳамкорликдаги фаолиятини ташкил этиш асосида уларда ижодий ёндашув қобилиятларни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратиш муҳим аҳамият касб этади.

Рефлексия психологияда кишининг ўз руҳий ҳолати тўғрисида ўйлаш, хаёл суриш, фикр юритиш, ўз ҳолатини таҳлил қилишга мойиллик маъноларини англатади¹⁶². Психологияда А.Буземаннинг илмий тадқиқотлари натижасида рефлексия феномени мазкур фаннинг махсус ўрганиш предметиға айланди. У рефлексияни ташқи олам сабабли воқеаланаётган кечинмаларни ўз ички оламиға кўчириш сифатида талқин қилиб, психологияда рефлексия психологияси соҳасини алоҳида ажратиш кераклигини айтган¹⁶³. Рус психология фанида эса Л.С.Виготский, С.Л.Рубинштейн, А.Н.Леонтьев сингари олимларнинг ишларида рефлексия когнитив, генетик, шахсиятли ва коммуникатив йўналишларда ўрганилган¹⁶⁴.

Республикамиз психологик ва педагогик изланишларда рефлексив кўникмаларни ривожлантириш борасида илмий ишлар олиб борилмоқда.

¹⁶² <http://uz.m.wiktionary.org/wiki/>

¹⁶³ Степанов С.Ю., Семёнов И.Н. Психология рефлексии: проблемы и исследования. // Журнал «Вопросы психологии», 1985, № 3. -С. 31-40.

¹⁶⁴ Тейяр де Шарден П. Феномен человека. - М.: «Наука», 1987. –С. 136

Масалан, тадқиқотчи Д.Ҳакимова ёш авлод рефлексив кўникмалари тушунчасини шундай тавсифлайди:

- болалар ўзини мустақил ва ўзини бошқарувчи сифатида ҳис этиши, эркин сўзлаши ва фаол иштирок этиши;

- ўз фаолиятини таҳлил қилиш, янги маълумотларни ўзлаштиришда улар етакчиликка интилиши, ўзини ривожлантиришга интилиши;

- ўрганишга юқори даражадаги мотивацияга эга бўлиши;

- ўрганишнинг аҳамияти ва заруриятини англаб етиши;

- ўз фаолиятини баҳолаши, рефлексив тафаккурни ривожлантириши¹⁶⁵.

Албатта, бу мактабгача таълимда силлиқ, осон кечмайди. Тарбияланувчиларнинг ҳар бир ёш кесимида ўзига хос ёндашув, ижодкорликка асосланган меҳнат талаб қилинади. Айниқса, бу фаолият марказларининг ҳар бирида алоҳида ёндашувни талаб қилади. Бу жараёнда имкон қадар тарбияланувчиларнинг мустақиллиги илгари сурилса-да, мактабгача таълимда тарбиячининг ёрдамсиз тўлалигича муваффақ бўлиш амри маҳол. Тарбиявчи учун ҳам, болалар учун ҳам йўриқ вазифасини ўтайдиган соддалаштирилган жараёнларни ва уларнинг босқичларини белгилай олиш даркор. Психолог Наргиза Халиловага кўра рефлексив таълим ва тарбия технологияси мулоқот асосида ташкил этилганда диалогик муносабатнинг шакллари қуйидагича бўлиши мумкин: а) олдиндан белгиланган таълимий вазифалар ва натижаларни англаб етиш; б) бўлажак фаолият учун керак бўладиган вазифаларни эҳтиёжлар билан солиштириш; в) ўқув фаолиятини мотивациялаш, ўқув материали элементлари орасидаги мантикий боғланишлар ва мазмунан эслаб қолиш ёрдамида ўқув материални тушуниш ва ўзлаштириш; д) эришилган натижаларни баҳолаш ва тўғрилаш, тузатиш; е) муаммолар натижаларини таҳлил ва умумлаштириш орқали вазифа ва талабларни таққослаш методлари, схемалари орқали ҳал этиш; ф) ўқув фаолиятида қайтарма алоқа ёрдамида ўзини ўзи бошқариш, ўзини ўзи назорат қилиш рефлексия натижаси бўлиб, таълим олаётганларни ривожлантириш ва ўзгартириш, ўқув фаолияти субъекти сифатида уларни фаоллаштириш¹⁶⁶. Бу тавсия умуман таълимнинг барча босқичлари учун берилаётгани боис биз мактабгача таълим учун ўзига хос бўлган шаклларни мослаштириб олиш лозим деган фикрга келдик. Тарбиячи учун: 1) дастур ва тақвимий иш режасига кўра фаолият марказларида ўрганилаётган мавзудан келиб чиқиб вазифа белгилаш, қандай натижага эришишни чамалаш; 2) мотивациялаш механизмини режалаштириш, бунда мавзулараро ва фаолият марказлариаро интеграцияни йўлга қўйиш; 3)

¹⁶⁵Ҳакимова Д. М. Ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштириш модели. “Замонавий таълим” журнали, 2018 йил, 7-сон. 34-бет.

¹⁶⁶Халилова Н. Рефлексив технологияларни таълим жараёнига татбиқ этишнинг психологик жиҳатлари. “Замонавий таълим” журнали, 2018 йил, 7-сон. 18-бет.

тарбияланувчилар фаолиятини мақсад сари йўналтирган ҳолда уларни таълим субъектига айлантириб бориш, ўрни билан мотивацияни кучайтириш учун турли шаклларда баҳолаб бориш, тузатишлар қилиш; 4) болалар фаолиятини умумлаштириш ва хулосалаш; 5) ўз натижаларини тарбияланувчилар ютуқларидан келиб чиқиб баҳолаш, танқидий таҳлилдан ўтказиш. Тарбиячининг машғулот давомида креативлик (ижодий ёндашув) тамойилига қатъий риоя қилиши кутилган самарага эришиш омили бўлади. Тарбияланувчиларга эса уларнинг фаолиятини онгли, ижодий, мустақил ташкил қилишлари учун ўзини-ўзи назорат, таҳлил қилиш ва баҳолаш имконини берадиган йўналтирувчи савол ва топшириқлар тизимини бериш муҳим аҳамият касб этади. Улар тахминан куйидагича бўлиши мумкин: 1. Нима учун ушбу ишни қилишим керак? (Нима учун бу расмни шу рангда бўяшим керак? Ёки бу шеърни нима учун ёдлашим лозим? ва б.) 2. У(лар)ни қилиш (ёки билиш) менга нима беради? 3. Илгари ўрганган (қилиб кўрган, ёдлаган ва б.)лар билан қандай боғлиқлик, ўхшашлик ҳамда фарқли томонлар борлигини аниқлашим керак. 4. Бундан мен ўзимга нима олдим? Ўзимдаги қайси ютуқ ва камчиликларни тушундим? Бу орқали фаолият машғулотлари маълум маънода муаммоли таълим юз бура бошлайди ва муаммоли таълим тизимида О.С.Анисимов томонидан тақлиф этилган рефлексив компетенцияларни ҳосил қилиш методикаси амалиётига яқинлашади¹⁶⁷.

Болаларнинг мустақил фаолият билан боғлиқ ҳар қандай билим, кўникма ва тажрибалар аввало машғулотларида шакллантириб олинади. Ҳатто мустақил билим олишга одатлантиришнинг ҳам ибтидоси ва ҳаёт тарзига айланиш жараёни фаолият марказидаги машғулотларига бевосита боғлиқ. Машғулот материалларини ўрганиб ундан завқланмаган, таҳлилида қатнашиб матн қатига яширинган ибратга тўла тағмаёнони кашф қилиш лаззатини туймаган болада мустақил фикрлаш истаги бўлмайди ва бунинг оқибатида бу фаолият турига уни жалб қилишнинг имкони йўққа чиқади. Мустақил фикрлаш ва билишни мажбурий шаклда, зўрлаб йўлга қўйиб бўлмайди: бунда мустақил эмас, мажбурлаб тарбиялашга айланиб қолади. Фаолият марказларидаги машғулотлар орқали бола мустақил фаолият завқини туйса, ундан қониқиш ҳис қилса, ўрганиш, бажаришга нисбатан маънавий эҳтиёж юзага келади. Шу эҳтиёжни қондириш мақсадида ўзи хоҳлаб бошқа фаолият турларига интилади. Шундан келиб чиқадики, рефлексив кўникмалар аввало фаолият марказларидаги машғулотларида шакллантирилади ва бу аста-секин мустақил ўрганиш, бажариш жараёнига кўчирилади. Бу каби кўникмаларни шакллантиришда диалогларнинг алоҳида ўрни бор¹⁶⁸. Диалоглар марказида асосан тарбиячи ва бола мулоқоти, саволлар ва шу саволларга жавоб орқали бажариладиган ёки улардан бошқа алоҳида топшириқлар туради.

¹⁶⁷ Анисимов О.С. Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. - М.: Угрешская типография, 2012. -С. 285.

¹⁶⁸ Файзуллаева Н. Диалог в педагогической культуре учителя. Электрон манба: https://ibris-nbuu.ua-cgiirbis_64

Савол ва топшириқлар тарбиячи учун тарбияланувчиларни мақсад сари йўналтириб туриш учун зарур ҳисобланади. Улар болага кўра ёшлар кесимида бир оз фарқланиши – соддалаштирилиши ёки мураккаблаштирилиши мумкин.

Масалан, кичик ёш гуруҳларида расмларни бўяш учун берар экан, тарбиячи сўрайди: “Олмани қандай рангда бўяйсан?” “Олмани қизилдан ташқари яна кўк рангда бўяш мумкинми?”, “Сариқ рангда бўяса бўладими?”, “Олма қаро рангда бўладими?” каби саволлар берилади. Яна бир усул олма расмини олдиларига қўйиб, рангқалам ичидан уни бўяш мумкин бўлган қаламларни танлаш топшириғи берилиши мумкин ва нима учун бу қаламлар танланганлари борасида изоҳ сўраш болаларда рефлексив қобилиятлари чизгиларини ҳосил қилади. Табиат билан таништириш машғулотларида бир томондан, уй ҳайвонлари: қўй, сигир, ит, мушук, эчки; иккинчи томондан, йиртқич ҳайвонлар: бўри, тулки, шер, арслон аралаштириб қўйилиб, қайсиларини бирга қўйиш мумкинлигини амалий кўрсатиш топшириғини берилади ва болалар уларни гуруҳлаб ажратадилар. Топшириқ бажарилгач, ҳар бир бола ўз топшириғини изоҳлаб беради. Нима учун шундай қилганини, аксинча қилмаганини тушунтириш ўз фаолият натижасини баҳолаш қобилиятига йўл очади.

Ўрта ёш гуруҳи болаларида бу савол ва топшириқлар бир оз мураккаблаштирилиши керак. Бирор эртақ ўқиб эшиттирилганда уни қайта сўзлаб бериш сўралади. Эртақдаги ижобий ва салбий образлар хатти-ҳаракати ҳам рефлексив қобилиятларни шакллантиришда тарбиячи учун қулай восита дейиш мумкин. Масалан, “Зумрад ва Қиммат” эртагидаги ҳар икки образга болалардан баҳо бериш сўралади. Улар ўз баҳоларини берар экан, нима учун шундай баҳо бераётганларини тушунтириб беришлари лозим. Энг муҳими – тарбиячи уларнинг ўрнида бўлганларида нима қилишларини, ўзларини қандай тутишларини сўраш ўринли бўлади.

Катта ёш гуруҳида мазкур эртақ такрор характерида қайта берилганида топшириқ ва саволлар рефлексив қобилиятларни чуқурлаштиришга хизмат қилиши керак. Масалан, “Сен Зумраднинг ўрнида бўлганингда нима қилардинг?”, “Сен Қимматнинг ўрнида бўлганингда хатоларингни қандай тузатар эдинг?” тарзидаги саволлар берилиши ўринли бўлади. Шунингдек, “Тасаввур қил, эртақ ичида бўлсанг, Зумрадга нима дейишингни баён эт” ёки “Қимматга айтадиганларингни бир-бир сўзлаб бер” кабилидаги топшириқлар бериш мақсадга мувофиқ.

Қуриш, ясаш ва математик тасаввурларни шакллантириш фаолият марказларида болалар у ёки бу макет, қурилма ёхуд намунадаги бошқа шаклларни ясаб, тайёрлаб бўлганларидан кейин намунага қиёсан ўзларининг муносабат ва баҳоларини сўраш ўринли бўлади. Ўзининг ютуқ ва камчилигини кўра олган болада шахсий фаолиятига нисбатан рефлексив муносабат орта боради. Айни пайтда унинг ишлари (ижроси, ҳулосаси ва б.) ҳақида гуруҳдаги бошқа болаларнинг фикри эшитилса, фойдадан холи бўлмайди. Буни болаларнинг ёш гуруҳидан келиб чиқиб, улар чизган сурат, қуйлаган ашула,

ясаган нарсалар, тингланган эртак, ривоятлардан чиқарган хулосаларга кўра ҳам амалга ошириш мумкин. Бу болаларга ўз ишига бошқаларнинг нигоҳи билан қарашни ўргатади. Жамоавий таҳлил, муносабатнинг афзал томони шуки, бунда қатнашувчилар бир-бирларининг хулоса-ибратларини эшитиб, кўп нарса ўрганадилар.

Агар бу усулни муттасил қўллаб келинган бўлса, ҳар бир фаолият марказида тегишли усул ва воситалар билан қўлланилса, рефлексив кўникмалар шаклланиши тарбиячи кўз ўнгида юзага чиқади. Бунда ўзининг ва бошқаларнинг фаолиятини баҳолай олган тарбияланувчи мустақил ҳаракатга, эркин сўзлаш ҳамда фаолликка мойил бўлади; ўқув фаолиятини таҳлил қилиш ва янги маълумотларни ўзлаштириш жараёнларида етакчи ролни эгаллашга интилади; юқори даражадаги тайёргарлик ва мотивацияга эга бўлади энг муҳими, ўзини ўзи баҳолаш, коррекциялаш қобилияти шаклланади.

Адабиётлар:

1. Хакимова Д. М. Ўқувчиларда рефлексив кўникмаларни шакллантириш ва ривожлантириш жараёнларини такомиллаштириш модели. “Замонавий таълим” журнали, 2018 йил, 7-сон.
2. Ҳалилова Н. Рефлексив технологияларни таълим жараёнига татбиқ этишнинг психологик жиҳатлари. “Замонавий таълим” журнали, 2018 йил, 7-сон.
3. Файзуллаева Н. Диалог в педагогической культуре учителя. Электрон манба: https://ibris-nbuu.ua-cgiirbis_64
4. Анисимов О.С. Субъектная рефлексия в игромоделировании и ее понятийное обеспечение. - М.: Угрешская типография, 2012.
5. Степанов С.Ю., Семёнов И.Н. Психология рефлексии: проблемы и исследования. // Журнал «Вопросы психологии», 1985, № 3.
6. Тейяр де Шарден П. Феномен человека. - М.: «Наука», 1987. –С. 136
7. <http://uz.m.wiktionary.org/wiki/>

ФИО авторов: Бабаджанов Бекзод Казакбаевич.

Студент 1 курса 15-20,отделения централизованного пост оператора,
Нукусского железнодорожно- транспортного колледжа;

Бабаджанов Шерзод Казакбаевич

студент 1 курса 02-20 отделения Судебно- правовой действительности,
Юридического техникума Республики Каракалпакстан

Название публикации: «РУССКИЙ ОНЛАЙН В ПАНДЕМИЮ: ИСПЫТАНИЕ
ИЛИ ШАНС?»

Аннотация: В статье рассмотрены основные понятия, модели и характерные особенности современного дистанционного обучения. Проводится обоснование актуальности использования дистанционных технологий в обучении. Основной акцент сделан на особенности организации учебного процесса с использованием дистанционных образовательных технологий. Целью авторов являлось рассмотрение расширения функций онлайн-обучения как инструмента образовательного процесса, а также сохранения и повышения мотивации студентов к обучению в ситуации дистанционного образования

Ключевые слова:

русский язык, пандемия, онлайн-образование, дистанционное обучение.

Дистанционное обучение — это современная реалья, которая является важной частью и дополнением к традиционной форме обучения современного студента и расширяет возможности классического университетского обучения.

Форсмажорные обстоятельства, произошедшие в мире, способствовали ускоренной модернизации формы онлайн-обучения, разработке интеграционного комплекса методик при обучении студентов-иностранцев и, как следствие, появлению термина «онлайн-обучение» (ОУ), под которым следует понимать усовершенствованную форму дистанционного обучения:

использование презентаций в среде Power Point, программ тестирования и разработки электронных курсов на различных платформах как единую интеграционную модель. В процессе обучения произошло расширение функций ОУ как инструмента образовательного процесса, что дало возможность преподавателям принимать во внимание при проведении вебинаров различный уровень знаний обучающихся, ориентируясь на результаты, достигнутые студентами на образовательных платформах Moodle и ZOOM. Таким образом, можно сказать, что наблюдается смена приоритетов при оценке роли онлайн-обучения в образовательном процессе. Онлайн-обучение перестает выполнять вспомогательную функцию и постепенно начинает играть ведущую роль в современной системе образования.

В настоящее время в России происходит стремительное развитие онлайн-обучения, которое базируется на использовании современных технологий. В настоящее время «... в условиях пандемии коронавирусной инфекции COVID-19 онлайн-обучение становится наиболее доступной формой получения образования. Закрытию на карантин подверглись и университеты по всему миру» [1]. Практически все университеты России «перешли на дистанционное обучение с 16 марта 2020 года» [2; 3]. В условиях существования информационного общества, наряду с традиционными формами обучения все чаще применяют современные способы, которые базируются на таких технологиях, как дистанционное обучение с применением вебинаров, ориентированных на индивидуальные потребности студента и уровень его знаний, что дает возможность сделать образовательный процесс более гибким, универсальным и личностно-ориентированным. С развитием информационных технологий, локальных сетей появились новые возможности обучения, которые позволяют поддерживать образовательный процесс на должном уровне.

Изучение, усовершенствование методов онлайн-обучения является актуальной темой современных методистов и исследователей. Об этом пишут в зарубежной литературе. Например, Luis Miguel Dos Santos [4] обращает внимание на то, что поиск оптимальных и эффективных методик и стратегий обучения является неотъемлемой частью преподавания иностранных языков. В наши дни все большую популярность приобретает онлайн-обучение. Reni Puspitasari Dwi Lestariyana и Handoyo Puji Widodo [5] отмечают, что в наступившую цифровую эпоху современные студенты имеют огромный опыт активного использования цифровых технологий через такие ресурсы, как Facebook, Instagram, блоги и WhatsApp. Для них онлайн среда является привычной.

Современная ситуация, сложившаяся в высшем образовании, показывает, что проводить занятия с применением новых информационных технологий стало жизненно необходимо. Отметим, что внедрение в учебный процесс онлайн-обучения вовсе не должно исключать традиционные методы обучения, а только дополнять их. Основная цель онлайн-обучения — это формирование устойчивой мотивации через активное участие студентов и преподавателя в учебном процессе. Обеспечивать качественное улучшение результатов учебной деятельности можно только при разумном объединении накопленных методов, личного опыта и современных технологий. Преимущества онлайн-обучения наглядны — это возможность дифференцированного и индивидуального обучения для всех студентов (в том числе с ограниченными возможностями здоровья, территориальной доступности обучения в рейтинговых университетах страны и т. п.); интерактивность; качество тестов; наглядность; оправданность применения аудио, видео; возможность использования данного вида обучения для работы с одаренными студентами; дистанционное участие в олимпиадах, конкурсах, конференциях. К основным инновационным качествам онлайн-обучения относятся:

- 1) обеспечение всех компонентов образовательного процесса: получение информации, практические занятия, аттестация (контроль учебных достижений);
- 2) интерактивность, которая обеспечивает резкое расширение возможностей самостоятельной учебной работы за счет использования активно-деятельностных форм обучения.
- 3) возможность более полноценного обучения вне аудитории. Акцент на полноценность не случаен. Речь идет не о поиске и получении текстовой информации из удаленных источников.

Полноценность в данном случае подразумевает реализацию вне аудитории таких видов учебной деятельности, которые раньше можно было выполнить только в университете: изучение нового материала на предметной основе, текущий контроль знаний с оценкой и выводами, подготовку к экзаменам, а также многое другое, вплоть до коллективной учебной работы удаленных пользователей.

Для отработки навыка говорения и аудирования авторским коллективом была использована интернет-платформа ZOOM. Данная платформа предоставляет широчайшие возможности в организации видео-урока: — видеть студента (организатор имеет возможность включать видео у слушателя); — разделить группу по подгруппам для отработки диалогов, монологического высказывания; — использовать «виртуальную» доску; — демонстрировать экран ноутбука преподавателя; — отправлять файлы студентам; — организовывать чаты студентов. На вышеназванной платформе проводятся «аудиторные» занятия, включающие такие методы работы, как опрос, монологическое высказывание, беседа. Во время урока студенты имеют возможность задавать вопросы преподавателю напрямую.

Предложенная методика онлайн-обучения студентов позволяет обеспечить не только подготовку к сдаче экзамена или центрального тестирования, но и качественное проведение изучаемых предметов в условиях любых сложных ситуаций (например, во время пандемии). Обсуждение (Discussion) После трех месяцев работы авторский коллектив провел анкетирование у обучающихся онлайн студентов. Студентам было предложено ответить на три вопроса:

Что Вам нравится в онлайн-обучении? Что Вам не нравится в онлайн-обучении? Ваши предложения и пожелания.

Современность диктует свои правила во всех сферах деятельности. Нам необходимо признать, что дистанционное образование или онлайн-обучение становится реальностью высшей школы. Однако оно потребует переподготовки преподавательского состава, корректировки программ обучения, оснащения университетов современными средствами для дистанционного обучения, подключения IT-специалистов для создания электронных курсов, журналов, ведомостей и идентификации обучающегося. Дистанционное обучение — это современная реальность, без которой образование XXI века немыслимо, но необходимо отметить, что оно может быть только частью или дополнением к традиционной форме обучения современного студента, но никак не заменять ее на 100%. Несмотря на популярность и всеобщее одобрение этого вида обучения, все студенты сходятся во мнении, что онлайн-обучение не сможет заменить «живого» общения между преподавателем и студентом, создать атмосферу академической среды, заменить коллектив и дружеское общение между студентами; его задача только дополнить и расширить возможности классического университетского обучения.

Литература

1. Отмена массовых мероприятий в Москве, закрытие школ по всему миру и больше 1000 больных в США: новости эпидемии COVID-19 [Электронный

- ресурс]. URL: <https://www.forbes.ru/tehnologii/394723-otmenamassovyh-meropriyatiy-v-moskve-zakrytie-shkol-po-vsemu-miru-i-bolshe-1000> (дата обращения: 15.07.2020).
2. 2. Студентам грозит дистанционное проживание [Электронный ресурс]. URL: <https://www.kommersant.ru/doc/4292688> (дата обращения: 15.07.2020).
 3. 3. Минобрнауки рекомендовало вузам организовать дистанционное обучение. URL: <https://rg.ru/2020/03/15/minobrnauki-rekomendovalo-vuzamorganizovat-distancionnoe-obuchenie.html> (дата обращения: 15.07.2020).
 4. 4. Luis Miguel Dos Santos The Discussion of Communicative Language Teaching Approach in Language Classrooms // Journal of Education and e-Learning Research. 2020. Vol. 7. № 2. P. 104—109. ISSN(E) 2410-9991 / ISSN(P) 2518-0169. DOI: 10.20448/journal.509.2020.72.104.109
 5. Reni Puspitasari Dwi Lestariyana and Handoyo Puji Widodo. Engaging young learners of English with digital stories: Learning to mean [Электронный ресурс] // INDONESIAN JOURNAL OF APPLIED LINGUISTICS. Vol. 2018 № 2, September. P. 489—495. URL: <http://ejournal.upi.edu/index.php/IJAL/article/view/13314>. doi: 10.17509/ijal.v8i2.13314

ФИО автора: Ruziyeva Muxlisa Azim qizi

Ózbekiston davlat jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi

birinchi ingliz tili fakulteti 2-bosqich talabasi

Название публикации: «INGLIZ TILINI O'RGANISHDA MULTIMEDIA
TEKNOLOGIYALARINI JORIY ETISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI»

Abstract: This article aims to analyze the use of multimedia technology to English language teaching in the non-native speaking countries and ascertain the benefits of them in pedagogy. The rapid development of science and innavation such as multimedia technology has offered a variety of better tools to explore the new teaching methods. In fact, multimedia technology has played an significant role in English language teaching, especially, in the non-native speaking of English. This article was written in order to make non-native speakers of English as language teachers aware of the strategies to utilize it in an effective manner during the lessons.

Annotatsiya: Ushbu maqolaning g'oyasi,, Ingliz tili milliy tili bo'lmagan mamlakatlarda Ingliz tilini o'qitishda multimedia texnologiyalarining o'rni va ularning pedagogikadagi afzallik tomonlirini tahlil qilishdir. Rivojlanib borayotgan ilm-fan taraqqiyoti va multimedia texnologiyalari pedagogikada yangidan -yangi metodlarni kashf etilishiga sababchi bo'lmoqda. Darhaqiqat, bugugi kunda, ingliz tilini o'rgatishda multimedia texnologiyalarining roli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad, ingliz tili o'qituvchilari uchun dars jarayonida zamonaviy multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanish strategiyasi to'g'risida xabardor qilishdir

Kalit so'zlar: multimedia texnologiyalari, multiplikatsiya (animatsiya), interaktiv doska, audio vizual o'quv qurollar, lingafon kabineti, proyeksion, kinoproyksion apparatlar.

Key words: multimedia technologies, animation, interactive whiteboard, audio-visual teaching aids, language cabinet, projection, film projection equipment.

Zamonaviy texnologiyalar davri bo'lmish XXI asrda hayotimizning biron bir sohasini ularning o'rnisiz tasavvur qila olmaymiz. Bugungi kunda insoniyat texnologiyalar bilan hamnafas yashash bilan bir qatorda, ularning funksiyalarini yanada rivojlantirish va turmush tarziga mutanosib ravishda uyg'unlashtirish ustida qizg'in ish olib bormoqda. Shu o'rinda ta'lim tizimini ham jahon hamjamiyatining standartlariga mos ravishda, innovatsion texnologiyalarga tayangan holda olib borish bu sohada turli izlanishlar va yangi uslublarni yaratishni, darsni yanada takomillashtirib, yangicha yondashuvlarni targ'ib qilishni va eng muhimi, o'qituvchining o'z ustida ishlashini talab etmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni, jumladan, ingliz tilini o'rganishda multimedia texnologiyalarini qo'llash ta'limning eng muhim talablaridan biri bo'lib, ular nafaqat dars sifatini oshiradi, balki ingliz tilining to'rt mahorati (listening-tinglab tushunish, reading-o'qib tushunish, writing-yozish, speaking-gapirish) bilan dars davomida vaqtdan unumli foydalangan holda shug'ullanish imkonini yaratadi. Natijada esa, tilning barcha ko'nikmalari teng darajada o'sib boradi va qisqa fursatda yuqori ko'rsatkichga erishish imkonini yaratadi.

Dastlab, multimedia texnologiyalari nima degan savolga javob bersak. Multimedia texnologiyalari — bu turli shakldagi axborotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasidir. Multimedia texnologiyalariga avvalo, tovushlar, video-elementlarni qayta ishlovchi vositalar, multiplikatsiya (animatsiya) va yuqori sifatli grafika kabi vositalar kiradi. Zamonaviy ta'lim vositalari — interaktiv, audio-vizual, multimediali o'quv jihozlari bugungi kunda pedagogikada keng qo'llanilayotgan tushunchalar hisoblanib, ularning darsda qo'llanilishi o'quvchi-talabalarning ijodiy tafakkurini loyihalashtirishga yordam berish bilan bir qatorda, dars soatidan unumli foydalanish, kam vaqt sarflab, ko'proq natijaga erishish, o'qituvchiga esa har bir o'quvchining muayyan o'quv materialini ustida mustaqil ish olib borish va buni nazorat qilish, bir vaqtning o'zida muayyan o'quvchilar guruhi uchun bir nechta o'quv dasturini kiritish, o'quvchilarning nutqlarini yozib olish va qaytadan yodga tushirish, kino filmlarni sharhlash va tushuntirishga imkon beradi. Bundan tashqari, multimediali texnologiyalar o'quvchi ongida axborotning turli manbalari bilan ishlash va olingan natijalarni solishtirish qobiliyatini rivojlantiradi, uning asosida esa — foydali ko'nikma va malakalar, nihoyatda keng doiradagi salohiyatlar shakllanadi.

Nafaqat ingliz tili, balki, barcha xorijiy tillarni o'rganishda lingafon xonalarining o'rni beqoyosdir. Lingafon kabineti (lot. lingua — til va yun. phone — tovush, nutq) — tovush texnikasi degan ma'noni anglatib, proyeksion va kinoproyksion apparatlar bilan jihozlangan maxsus auditoriya (sinf, xona) hisoblanadi. Lingafon kabineti apparaturalari, ya'ni magnitofonlar, elektrofonlar, mikrofon, telefon kuchaytirgichlar o'quvchi(talaba)larga audiovizual usul bilan o'zga til nutqini, talaffuz shaklini, o'rganilayotgan til muhitini yaratish, ona tilining nutq madaniyatini o'rganish ustida mustaqil ishlash uchun qulay sharoit yaratadi. Jumladan, o'quvchi(talaba) endilikda ushbu innovatsion texnologiyalar bilan ishlagan test natijalarini bilish uchun bir hafta kutishi shart emas. Sababi, o'qituvchi avvaldan tayyorlangan testni kompyuter

xotirasiga kiritadi va monitorda test namoyish etiladi. O'quvchi testni ishlab bo'lgandan so'ng esa, qayd etilgan natija foyizlarda avtomatik ravishda kompyuter monitorida ko'rsatiladi va o'quvchi darsning o'zidayoq, test natijalari bilan tanishgan holda, xatolari ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zamonaviy multimedia texnologiyalari endilikda dars davomida ishtiroki qoniqarsiz bo'lgan o'quvchini ham darsda faol ishtirok etishiga sababchi bo'ladi. Sababi, qiziqarli va ayni vaqtda rang barang ko'rinish va bir qancha qulayliklarga ega bo'lgan jihozlar o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etmasdan qolmaydi. Interaktiv doska esa mana shunday vazifani o'z bo'yniga oladi, ya'ni o'quvchi topshiriqni interaktiv doskada bajarish davomida axborotning turli manbalari bilan ishlaydi va olingan natijalarni o'zaro bir-biriga solishtiradi, bundan tashqari, qo'yilgan savollarga javob kutar ekan, ko'rgazmali axborot ustida faol fikr yuritadi, ko'tarilgan muammolarni hal qilish yo'lini mustaqil qidiradi va shu sababli ham o'quv materialini faol o'zlashtiradi. Magnitafon va elektrafonlar esa mahalliy inglizlarning nutqini tinglash va ingliz tiliga xos bo'lgan ko'nikmalarni o'rganish imkoniyatini yaratib beradi. O'z-o'zidan o'quvchilar ingliz tili nutqiga moslashib boradilar va ingliz tilida olib borilgan suhbat (conversation)larda talaffuz qilish muammosiga kam duch kelishadi.

Ta'lim jarayoniga zamonaviy multimedia texnologiyalarining joriy etilishi hususidagi ijobiy natijalarga to'xtaladigan bo'lsak, an'anaviy ta'limga nisbatan quyidagi samaralarga erishish imkonini berishiga guvoh bo'lamiz:

- dars davomida jadval va rasmlarni rangli, ovoqli, animatsiyalar, gipermatnlar bilan boyitgan holda qo'llash;
- turli uslub va yondashuvlarga ega bo'lgan interaktiv veb-elementlar, testlardan foydalanish;
- darsning nazariy materialini boyitib borish va qo'shimcha manbalardan foydalanish;
- axborotlarning muntazam ravishda yangilab turish, jahon hamjamiyati tajribasini amalda sinab ko'rish;
- ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar bilan ko'proq individual ishlash, fikrlash doirasini yanada kengaytirish, darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, egallagan bilimlarini rivojlantirish, o'z fikrlarini mustaqil ifodalashlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni kuchaytirish, xorijiy tillarni o'rgatish davomida, xorijiy mamlakatlarda qo'llanilgan amaliyot va tajriba bilan tanishish ;
- ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, keng hajmdagi manbalarga ega bo'lish, texnologik bazasini zamonaviy AKT vositalarini joriy etish orqali yanada takomillashtirib borish;
- dars dinamikasini oshirish, egallangan yangi bilimlarni sinash va ularning darajasini aniqlash;

-natijaga ko'ra baholanish va buning natijasida o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini orttirish;

-ta'limga oid muammolarga yechim topish,ba'zaviy ma'lumotlarga ega bo'lishda yordamchi vazifasini bajarish;

Multimedia texnologiyalarining pedagogik uslublarda qo'llanilish istiqbollari ustida o'z izlanishlarini olib borayotgan olimlardan biri bo'lgan Garri Motteramning multimedia texnologiyalari xususidagi qarashlari yuqorida sanab o'tilgan fikrlarni yana bir bor tasdiqlaydi:"An'anaviy dars xonalarda ham zamonaviy multimedia texnologiyalariga yondashgan holda dars o'tish,yuksalishning ilk bosqichlarini o'zida namoyon etadi".

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, multimedia texnologiyalari ta'lim jarayonini axborotlashtirish va yangicha tizim asosida yondashishning chinakam istiqbolli yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim jarayoniga multimedia texnologiyalarining joriy etilishi talabalar va o'quvchilarni intellektual rivojlantirish, keng ijodiy tafakkurga ega, ilg'or pedagogik va bu texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan shaxs sifatida o'z kasbiy-mutaxassisligi uchun zarur fazilatlarining egasi bo'lish,o'z ustida ishlash va eng muhimi, jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiy ettirishning muhim shartidir.Shuningdek, ular o'quvchilarning chet tillarini o'rganishlarida tafakkur doiralarini yanada kengaytirish va tilning amaliy kórsatkichlarini o'stirishda yuqori darajadagi kórsatkichlarga erishish imkoniyatini yaratib beruvchi ta'lim vositalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Jamol Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi", "O'qituvchi" nashriyot matbaa ijodiy uyi, Toshkent -2012.

2.Modern technologies in teaching a foreign language

<https://articlekz.com/en/article/19667>

3.(PDF) The Use of Multimedia Technology in English Language Teaching: A Global Perspective

https://www.researchgate.net/publication/272871799_The_Use_of_Multimedia_Technology_in_English_Language_Teaching_A_Global_Perspective

4.(PDF) Impact of modern technology in education

https://www.researchgate.net/publication/325086709_Impact_of_modern_technology_in_education

5.Multimedia texnologiyalari ta'lim istiqboli kafolatidir | infoCOM.UZ

<http://uz.infocom.uz> /2017/02/17/multimedia-texnologiyalari-talim-istiqboli-kafolatidir/

6 .Lingafon kabineti - Vikipediya

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Lingafon_kabineti

7.Ko‘rgazmalilik va uning turlari

<https://hozir.org/korgazmalilik-va-uning-turlari.html>

8.The use of multimedia technology in education

<https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1036&context=namdu>

ФИО авторов: Mansurova Shabnam

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Ibragimova Nigora

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

ФИО научного руководителя: Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna

dots., PhD

Название публикации: «FIZIKA FANINI CHET TILIDAN FOYDALANIB O'QITISH»

***Annotatsiya:** Maqolada fizika fanini chet tillaridan foydalanib o'qitishning samarali jihatlari, fan o'qituvchilarining dars jarayonlarida qanday metodlardan foydalanib o'qitsa maqsadga muvofiq bo'lishi, ingliz tilini fizika bilan aloqadorligi haqida mulohazalar yuritilgan hamda darsda qo'llanadigan metodlardan namunalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** ingliz tili, samarali ta'lim, fanlararo aloqadorlik, zamonaviy pedagog, pedagogik texnologiyalar, metod, pedagogik jarayon, ta'lim tizimi.*

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri – chet tilini o'rganish, bir nechta tilni mukammal bilish hamda barcha fanlarni o'qitish jarayonlarida chet tillarini tadbiq etish ekanligi barchamizga ma'lum. Binobarin, dars jarayonida chet tillaridan foydalanish o'quvchining ushbu tilni mukammalroq o'rganishi, tilni bilishga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishi shubhasiz. Fizika fanini o'rganayotgan o'quvchi tafakkurida mazkur fanga doir atamalar yoki qoidalarining ingliz tilida ham shakllanishi o'quvchi bilim saviyasini yanada kengaytiradi.

Zamonaviylashib borayotgan kurrai-zaminimizda fan-texnika taraqqiyot etgani sayin ta'lim oluvchilarning axborot resurslaridan, internet tarmoqlaridan yangiliklar izlashi ularning barcha fanlarni chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, chet tillarini bilish, dars jarayonlarida ingliz tilidan ko'proq foydalanish hamda malakali o'qituvchilarning fizika fanini chet tilini qo'llab

o'qitishi bugungi zamon talabidir. Fizika darslarida har bir mavzuga chet tilini bog'lab o'qitishda fan o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning samarali metodlaridan foydalana bilishi zarur.

Bilim dargohlarida, jumladan maktablarda, akademik litseylarda ta'lim olayotgan o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlarni chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning o'z iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon eta olishlarida, dars jarayonining mazmunli, samarali o'tkazilishida o'qituvchining pedagogik mahorati, o'z fanini chuqur bilishi, dars jarayonini to'g'ri tashkil qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy shaklda dars o'tishning muhim kamchiliklaridan biri o'quvchilar bilimini nazorat qilish usullaridagi samaradorlikning kamligi hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilar bilan olib boriladigan og'zaki savol-javob har bir o'quvchining o'zlashtirishini sistematik tekshirib borishiga imkon bermaydi. Nazorat va mustaqil ishlardan ko'p foydalanish hamda ularni tekshirish ko'p vaqt talab qiladi.

O'quvchilarning fanni o'zlashtirishini sistematik nazorat qilib borilmasligi, o'qituvchining o'quv jarayonini tezkor boshqarishiga imkon bermaydi. Bilimni dasturlashtirilgan usulda nazorat qilish yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni ma'lum darajada bartaraf etishga imkon beradi. U sistematik va frontal ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bu usul o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashning faol shakli hisoblanib, o'qituvchiga o'qitish jarayonini qiziqarli, mazmunli tashkil qila olish imkonini beradi, hamda topshiriqlar to'g'ri bajarilganligini tekshirish uchun ham kam vaqt talab qiladi. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilarning nafaqat bilimlarini nazorat qiladi, balki ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytira oladi, shuningdek, dars jarayonida o'qituvchi turli interfaol metodlar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, fanni kundalik hayot bilan bog'lash va fanlararo bog'lanishga alohida e'tiborini qaratish, o'quvchilarning fan asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtira olishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, hozirgi kunda o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini hisobga

olgan holda, fizika darslarida bu fanlar bilan ingliz tili fani orasida bog'lanishni yo'lga qo'yish o'quvchilarning ham fizika faniga, ham ingliz tili faniga bo'lgan qiziqishini, bilimni kuchaytiradi va dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradi.

Fizika darslarida mavzularni mustahkamlash jarayonida o'quvchilarning ingliz tili fanidan bilimlarini, lug'at boyligini oshirish, diqqatini jalb qilish maqsadida mavzuga oid fizik hodisalar, fizik kattaliklar va ularning o'lchov birliklari, fizik atama, tayanch so'z va iboralar ingliz tilida beriladi, so'ng «So'zning tarjimasini toping» (Matching the words with their translation) o'yini yordamida amalga oshiriladi. Bilimni bunday nazorat qilish metodi tarqatma materiallar tarzida tuzilgan dasturga asoslangan bo'lib, bu materiallardan avval o'tilgan mavzular o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini tekshirish uchun, shuningdek, yangi bayon qilingan mavzuni mustahkamlash va nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin.

Tarqatma material

Matching the words with their translation.

So'zlarni tarjimasi bilan moslashtiring.

1	time	a	uzunlik
2	length	b	molekula
3	speed	c	kondensator
4	temperature	d	energiya
5	molecule	e	vaqt
6	light	f	zaryad
7	nucleus	g	yadro
8	charge	h	tezlik
9	energy	i	harorat
10	condenser	j	yorug'lik

To'g'ri javoblar: 1-e, 2-a, 3-h, 4-i, 5-b, 6-j, 7-g, 8-f, 9-d, 10-c.

Har bir mavzuga oid tayanch iboralarning dars jarayonida ingliz tilida o'rgatilib borilishi va qo'llanilishi o'quvchining nafaqat faolligini oshiradi, balki uning fizika va ingliz tili fanlarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini o'stiradi, fizik atamalarning ingliz tilida qanday ifodalanishi, talaffuz qilinishi ustida izlanishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

6. Hojiyev M.T., Olimov K.T. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. Toshkent. Fan nashriyoti. 2005.
7. Karimov A.M., Toshpo'latova Sh.O. Fizikani o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Toshkent. 2017.
8. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.
9. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent. O'zRFA. Fan nashriyoti. 2006.
10. Ziyonet elektron kutubxona.

ФИО авторов: Бердиева Мухаббат

Узбекистан, Термезский государственный университет, преподаватель PhD

Чориева Сурайё

Магистр Термезского Государственного Университета, Узбекистан

Название публикации: «ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПОДДЕРЖКА ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ»

Аннотация: статья представляет собой исследование системы педагогического сопровождения дошкольников, методики обучения на основе научных, теоретических, общественно-политических источников, анализ сложившейся ситуации на практике.

Ключевые слова: семья, воспитатель, родитель, дошкольное учреждение, семейное окружение, поддержка, внимание, воспитание, ребенок.

Сегодня каждый гражданин нашей страны чувствует и наблюдает небывалые изменения в сфере дошкольного образования. Без преувеличения можно сказать, что государство не получало такого систематического и дополнительного внимания и практической помощи системе дошкольного образования, которая является основой образования.

Основа любого образования - методика, в том числе дошкольное. Новые методы обучения и инновационные технологии играют важную роль в повышении качества дошкольного образования. Причина в том, что если материально-техническая база МТТ высока, но воспитатель не работает с ребенком, не преподает ему новую информацию каждый день, результат всех усилий будет нулевым. В целях повышения квалификации специалистов отрасли, оказания им необходимой методической помощи создан Институт переподготовки и повышения квалификации руководителей и специалистов дошкольных образовательных учреждений.

Сравнивая ребенка, воспитанного в детском саду, с ребенком, который не был в детском саду, нетрудно увидеть, что между уровнем их мышления есть небесная разница. Поэтому мы подняли вопрос о подведении системы дошкольного образования до уровня государственной политики и начали большую работу в этом направлении. Если мы не будем делать это аккуратно, будет сложно добиться качественного изменения всей системы образования, обеспечить преемственность образования, - сказал Шавкат Мирзиёев.

Встреча, состоявшаяся 16 августа 2017 года, стала встречей, которая войдет в историю системы дошкольного образования. В этот же день Президент нашей страны рассказал об укреплении национального генофонда государства и обозначил множество направлений для развития первой ступени образования.

С тех пор был разработан ряд законов, указов и приказов по развитию дошкольного образования. В частности, Указ Президента Республики Узбекистан от 16.12.2019 г. Закон № ЗРУ-595 «О дошкольном образовании и воспитании» (принят Законодательной палатой 22.10.2019, одобрен Сенатом 14.12.2019), Президент Республики Узбекистан 08.05.2019 Постановление № ПП-4312 «Об утверждении Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года», Концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года (Приложение 1 к Указу Президента Республики Узбекистан). № ПП-4312 от 08.05.2019 г.), Постановление Кабинета Министров РК от 22.12.2020 г. Постановление № 802 «Об утверждении Государственного стандарта дошкольного образования и обучения», Государственного стандарта дошкольного образования и обучения (Приложение 1 к Постановлению Кабинета Министров Республики Узбекистан № 802 от 22.12.2020 г.), Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25.07.2019 г. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 19.07.2019 № 626 «О дальнейшем совершенствовании системы здорового питания в

государственных дошкольных образовательных учреждениях». Постановление № 605 «О мерах по созданию экспериментальных площадок для реализации проектов по внедрению инновационных подходов в дошкольном образовании» и др. в том числе.

В решении правительства о мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности организаций дошкольного образования определены права и обязанности участников образовательного процесса: детей, их законных представителей и учителей. Гарантируется социальная защита дошкольников, установлен порядок организации их питания и охраны здоровья. Установлен порядок недельной нагрузки и оплаты труда учителей. Полномочия органов управления общественных детских садов: педагогического совета, наблюдательного совета и руководителей регулируются. Порядок управления частной организацией определяется ее учредительными документами.

С точки зрения получателей образовательных услуг важно обеспечить качество образовательного процесса. Для этого используются следующие программы государственного управления, в том числе:

- Государственная аккредитация организаций дошкольного образования осуществляется через 5 лет, деятельность частных организаций лицензируется. В обоих случаях процедура устанавливается Кабинетом министров, и Государственная инспекция по контролю качества образования при Кабинете министров является компетентным органом;
- Государственный стандарт, обязательный для всех дошкольных образовательных учреждений, будет приниматься и пересматриваться не реже одного раза в 5 лет, утверждаться государственные образовательные программы;
- Профессиональный стандарт учителя утверждается Кабинетом Министров, профессиональный стандарт учителя предъявляет требования к личным качествам учителя, которые неотделимы от его знаний, умений и способностей. Учителя проходят аттестацию не реже одного раза в 5 лет.

Исследование показало, что действующая система управления дошкольным образованием не позволяет своевременно выявить и устранить существующие проблемы, а также разработать и внедрить инновационные решения для дальнейшего развития отрасли ...

Встреча, состоявшаяся 16 августа 2017 года, стала встречей, которая войдет в историю системы дошкольного образования. В этот же день Президент нашей страны рассказал об укреплении национального генофонда государства и обозначил множество направлений для развития первой ступени образования.

Министерство дошкольного образования Республики Узбекистан было создано в качестве первого шага для решения вышеупомянутых проблем. В целях решения существующих проблем в реформировании системы дошкольного образования Указом Президента РФ предусмотрена реализация масштабных мероприятий. Определены меры по реализации единой государственной политики, направленной на развитие системы дошкольного образования, коренное реформирование системы и формирование структуры управления.

Особое внимание было уделено подготовке специалистов в сфере дошкольного образования. На повестке дня стоял вопрос подготовки высококвалифицированных педагогов, которые будут реализовывать все принятые решения и обучать наших детей самым необходимым жизненным понятиям и навыкам. Важной задачей было также освоение передовых педагогических методов и приемов, отвечающих современным требованиям в этой области, создание и издание учебно-методической литературы нового поколения. Утверждены Государственные требования развития младшего и дошкольного возраста Республики Узбекистан и Государственный учебный план дошкольного образовательного учреждения «Илк Кадам». Теперь педагоги современного дошкольного образования обучают детей новой информации через игровые уроки в центрах активности, оставляя детей свободными.

Потребность в специалистах с высшим образованием в системе дошкольного образования удовлетворяется за счет увеличения квот приема на дошкольное образование в педагогических вузах и переподготовки неспециалистов. Уделялось внимание совершенствованию учебных планов и программ повышения квалификации учителей в системе дошкольного образования на основе лучших мировых практик, выделению квот для специальных отделений заочной формы высшего образования по направлению «Дошкольное образование» для 2018-2023 гг. Итак, мы все полны надежд и заинтересованы в ярком будущем дошкольного образования.

Список использованной литературы

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 27 июня 2018 г. № ПП-3808 «Концепция укрепления семьи в Республике Узбекистан».
2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 8 мая 2019 года № ПП-4312 «Концепция развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года».
3. Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года № ПП-2707 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы дошкольного образования в 2017-2021 годах». - «Собрание законодательства Республики Узбекистан», 9 января 2017 г., № 1, статья 11.
4. М.Давлетшин. Г.Шумаров «Современная узбекская семья и ее психологические особенности».
5. Абдурауф Фитрат «Семья или управление семьей» - Т «Манавият»
6. Абдулла Авлони «Турецкий Гулистан или Мораль», учитель 1992.

ФИО автора: Komilaxon To'xtasinova,

Andijon davlat universiteti talabasi

Название публикации: «BOLALARDA OBRAZLI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHGA OID MULOHAZALAR»

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida obrazli tafakkurni shakllantirish bilan bog'liq vazifalar xususida fikr yuritilgan. Bolalardagi obrazli tafakkurini shakllantirishda tarbiyachi-pedagogdan talab etiladigan kompetensiyalar ham qayd etilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur turlari, ijodiy va aqliy qobiliyat, obrazli tafakkur, muloqot, hissiy sensor tajriba, tarbiyachi kompetensiyasi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan vazifaga ko'ra ta'lim tizimining ilk bo'g'inida kelajak vorislarini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ijodiy va aqliy qobiliyatlarni o'stirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratiladi. Ayna shu bosqichda keyingi ta'lim shakllarining tamal toshi qo'yiladi. Maktabgacha bo'lgan davrda bolalarning tafakkuri jadal rivojlanishini mutaxassislar ta'kidlaydilar [4;46]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkur turlarini rivojlanishi va shakllanishi mashg'ulotlarning qay darajada sifatli va keng qamrovli tashkil etilishiga, tafakkurni shakllantiruvchi usul va vositalarni to'g'ri tanlash hamda tarbiyachining pedagogik-psixologik kompetentligiga ham bog'liqdir.

Kichik yoshdan to maktabgacha bo'lgan davrda bolalarning tafakkuri qanday shakllanishi ularning bundan keyingi hayotlarida kim bo'lishini belgilaydi. Ushbu davrda kichikintoylarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur ustunlik qilishini inobatga olsak, bu tafakkur turini shakllantirishga ko'proq ahamiyat qaratib, samarali vositalardan foydalanish imkoiyatlarini ishlab chiqish lozim. Bolalarda bu jarayon aqliy tarbiya negizida kechishini inobatga olsak, avvalambor, aqliy tarbiyaning xususiyatlarini o'rganish lozim bo'ladi [1;31]. Aqliy tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi: *belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash; *dunyoqarashni shakllantirish; *aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish; *bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish; *shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish; *bilish faoliyatini shakllantirish; *doimiy ravishda o'z bilimlarini to'ldirish, umumta'limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish; *ta'lim oluvchilarni bilish faoliyati uslublari bilan qurollantirish; *fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.[2;86]

Mazkur vazifalarni maktabgacha ta'lim bilan bog'liqlikda ko'rib chiqamiz. Ilk yoshdan boshlab bolani aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi ularning bilish faolligini oshirishdir. Bilish faolligini oshirish orqali bola uni o'rab turgan tevarak-atrofni

o'rganadi. Bola atrof-muhitni o'yin, mehnat, sayr, mashg'ulotlar, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida anglab boradi.

Bilish faoliyati idrok etish, fikrlash va tafakkur tarzida amalga oshadi. Idrok etish orqali bola narsa-buyumlarning tashqi xususiyatlari (rang, shakl, o'lcham va boshqalar)ni anglaydi. Mazkur xususiyatlarni aks etishi orqali ongda narsa-buyumning timsoli yaratiladi. Bolaning tafakkurida narsa-buyumlarning ichki, yashirin xususiyatlari, narsa-hodisalar orasidagi sabab-aloqadorlik aks etadi. Tafakkurning natijasi so'zlar yordamida ifoda etiladi. Bolalarning tafakkurlari natijasi fikr yoki savol ko'rinishida namoyon bo'ladi. Idrok etish va tafakkur orasida chambarchas aloqadorlik mavjud [3;89]. Idrok etish bola hayotining ilk oylaridan shakllanadi, tafakkurning rivojlanishi esa qariyb ikki yoshdan boshlanadi. Tafakkurning asosida hissiy (sensor) tajribani chuqurroq bilib olish uchun qo'llaniladigan idrok etish yotadi. Maktabgacha ta'lim yoshida idrok etish tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish uchun tafakkurga yordam beradi.

Tafakkur esa o'z navbatida idrok etishning takomillashuvi va rivojlanishiga, uning maqsadga yo'naltirilganligi, samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bola hayotining ilk kunlaridanoq uning to'liq aqliy kamoloti uchun idrok etish jarayonini rivojlantirish haqida qayg'urish lozim. Ana shu jihat bilan bog'liqlikda maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasining quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Aqliy tarbiyaning mazkur vazifasi o'zida bolada tafakkurga doir harakatlar, bilish jarayonlari va qobiliyatlari rivojlantirishni aks ettiradi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tafakkurning ahamiyati yuqori ekanligini yaxshi bilamiz. Oddiy qilib aytganda, obyektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga ta'sir etishi natijasida hosil bo'lgan tuyg'u tafakkur deb ataladi. Uning tub mohiyati shundaki, tafakkurimiz orqali biz ko'zimiz bevosita ilg'amayotgan, ko'z o'ngimizda bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham o'sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo'lgan "sirli" jihatlarini ko'rish imkoniga ega bo'lamiz.

Tafakkur bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Tafakkur fanlararo tadqiqotlarni, kompleks fanlarni o'zida mujassamlashtiradi. Falsafa materiya bilan bog'liqlikda fikrlash yordamida dunyoni bilishning yo'lari va imkoniyatlarini o'rganadi. Formal mantiq tafakkurning asosiy shakllari (tushuncha, hukm, xulosa)ga e'tibor qaratadi. Tafakkurga oid tadqiqotlarning sotsiologik jihatini turli jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liqlikda tafakkurning tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish bilan tavsiflanadi. Fiziologiya esa, tafakkur hodisasini aniqlashtiruvchi aqliy mexanizmlarni o'rganadi. Kibernetika esa, insonning tafakkuriga faoliyatda muhrlanadigan axborot jarayoni sifatida qaraydi. Psixologiya tafakkurini bilish faoliyati sifatida o'rganadi hamda foydalanilayotgan vositalarning xarakteri va umumlashgan darajasiga, subyekt uchun yangiligi bilan bog'liqlikda fikrlashning turlarini differentsiyalaydi.

Pedagogika tafakkurni falsafiy, fiziologik, psixologik jarayon ekanligini e'tirof etgan holda, uni shakllantirishning shakl, uslub va vositalarini o'rganadi va amaliyotga tatbiq etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini shakllantirishda narsa-buyumlar bilan tanishtirishga doir harakatlar juda muhim. Amaliy harakatlar asosida bola obyektlarni qiyoslash, tahlil etish, taqqoslash, guruhlashga o'rganadi. Ana shu tarzda bolada tafakkurning ilk ko'rgazmali-amaliy shakli tarkib topadi. Asta-sekin bolada nafaqat bevosita narsa-buyumlarni idrok etish orqali, balki timsollar asosida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ya'ni ko'rgazmali-obrazli tafakkur shakllanadi. Keyinchalik, maktabgacha yosh davrining ikkinchi yarmida mantiqiy-nutqiy tafakkur rivojlana boshlaydi.

Tafakkurning ko'rgazmali-obrazli shakli narsa-hodisalar o'rtasidagi mavjud aloqalarni yo'lga qo'yishda namoyon bo'lib, bu jarayon MTTning didaktik imkoniyatlarini to'liq amalga oishirishga va ota-onalar bolalar bilan ta'limiy munosabatni yo'lga qo'yishga bog'liq. Obrazli tafakkur xotirada mavjud timsollar bilan ishlash bilan birga, yangi obrazlarni kashf etish xususiyati bilan tasavvurga yaqin turadi, shu sababdan bolalar bilan ishlashda asosan ko'rgazmali muhit va tasviriy faoliyatni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Bolalar obrazli tafakkurini shakllantirishda tarbiyachi-pedagogdan quyidagi kompetensiyalar talab etiladi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning anatomik-fiziologik, psixologik jihatdan shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini yaxshi bilishi va unga pedagogik jihatdan ijobiy ta'sir etish ko'nikmasiga ega bo'lishi;
- “Ilk qadam” davlat dasturi va reja grafikda ko'rsatilgan mavzularni bolalarning yosh xususiyatlari va tafakkur shakliga mos. Shuningdek, ularni rivojlantiruvchi metodikalar bilan boyita olishi;
- bitta ko'rgazmadan bir nechta maqsadlarda foydalana olishi lozimki, bolalar tafakkurida turli bilimlardan yagona va umumiy, tizimlashgan ma'lumotlar paydo bo'lishiga xizmat qilishi;
- vazifalarni bajarishda har kunlik odatiy usullaridan qochib boshqa kreativ usullardan foydalanishi va bolalarda yangiliklar yaratish va kreativ fikrlashga refleks hosil qila olishi;
- bolalar tasavvuridagi obrazlarni so'z orqali ifodalashga o'rgatish uchun, avvalo oddiy tasvir va ko'rgazmalarni o'zi tasvirlab bera olishi uchun nutqiy mahoratga ega bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarni shakllantirish ko'p jihatdan tarbiyachi-pedagogning kasbiy mahorati va kompetentligiga bog'liqdir. Aytish mumkinki, bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi balalar bilan ishlashda pedagogik jihatdan to'g'ri yondashuvlarini yo'lga qo'yish, ular bilan olib boradigan mashg'ulotlar sifatini oshirish va yangi bosqichga olib chiqishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya: pedagogika va psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – B 382, 20-38 -betlar.
2. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya.– T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2015.– B 358, 186-227-betlar.
3. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011.– B 258, 138-142-betlar.
4. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika, darslik. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2013.– B 287, 86-90-betlar

ФИО автора: Xo'janova Nasiba Choriyevna

Termiz davlat universiteti o'zbek filologiya fakulteti

3- kurs talabasi

Название публикации: «MENGZIYO SAFAROV IJODIDA INSON VA TABIAT TASVIRI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Mengziyo Safarov hayoti va ijodi yoritilgan. Adibning shoh asari "Ayrishox" tahlil qilingan. Asar yozilish sababi va bugungi kundagi ahamiyati haqida to'xtalgan.

Kalit so'zlar: Ayrishox, tabiat, surxon, oq kema, tog', Payg'ambar oroli, Amudaryo , bug'u , xongullar , Chingizxon , erk.

Surxondaryo ijodkorlari orasida Mengziyo Safarovning alohida o'rni bor. Yozuvchi o'tgan asrning 70-yillarida adabiyotimizga kirib keldi. "Turnalar uchadi", "Olis qirlar ortida", "Ona yer qo'shig'i", "Payg'ambar oroli", "Bobotog" kabi qissa va esselarida adib o'lka tabiatining ulkan bilimdoni sifatida korinadi. Bu asarlarda Mengziyo Safarov nafaqat yozuvchi, balki tarixchi, qadimshunos olim sifatida ham ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. 1 "U butun ijod yo'li davomida inson va tabiat orasidan uyg'unlik izladi". Uning asarlarida tabiat gapiradi, harakat qiladi

3."... Tog' to'shlari oppoq qor,poyi esa harir libos yuziga tortgan bahor.Bahorning ilk elchisi-adirdagi nimjon imillagan qishni hurkitmoqchidek uning qoqshol panjasi -qor qatlami etagidan tutib olgan , ustma-ust zug'um qiladi: goh chimo'tni qorga ko'madi,goh saharda zaharli izg'irin purkab,yaxmalakka zanjirtob o'raydi.U esa qasdma-qasdiga olib,tobora rang ochadi. Qish bu xarxasha, yopishqoq qo'shnidan chekinadi,oq ko'rpasini shosha- pisha yig'a ketadi". Bu xil tasvirlar kitobxondagi ona tabiatga mehr hissini junbishga keltiradi,o'zi ham shu ona tabiat farzandi ekanini eslatib turadi.Ulug' rus shoiri Pushkin" Tabiat uyqu sukutini allalaydi" deganda haq edi. Yozuvchi uzoq yillar davomida Amudaryodagi "Payg'ambar oroli" qo'riqxonasida

direktor o'rinbosari lavozimida ishladi .Bu yillarda hudud hayotini o'rgandi, materiallar yig'di. Shu kuzatishlar natijasida "Katta daryodagi kichik orollar" turkumidagi asarlari yuzaga keldi. Bu turkumdagi ilk asar " Ayrishox" qissasidir. Bu qissa yozuvchining shoh asaridir. Asar voqealari Amu sohillari va Bobotog' etaklariga tutashib ketgan Qobadiyon va Xontog'ay dashtlarida bo'lib o'tadi. Asarda "Jahongir Chingizxonni mag'rurligi, go'zalligi bilan lol qoldirgan, shunday shafqatsiz fotihdan omon qolgan, ammo bugunga kelib arziyas sabablarga ko'ra qirilib ketayotgan Bug'ular, shaxsiy hayotda omadi kelmagan, tabiat jonkuyari Suyar Suyun, "yuzida umidsizlik ko'lankasi soya solgan", befarzand Oynovvot," hayot va baxt o'g'risi", tiriklikning eng muqaddas ildiziga bolta urishdan ham tolmaydigan Botir obrazlari yorqin aks ettirilgan.

Buxoro bug'usi - xongullar! Bunga mahliyo bo'lmagan inson bu olamda topilmasa kerak. Xongullar o'z erkini muqaddas bilgan tanti hayvondir. Yozuvchi yozadi" "Erksevarliging boshingga ming xil kulfat , balo- qazolar yog'diradi.Erk har qanday qulaylik, farog'atdan yuksak. Dono ajdodlar maqtagan xosiyating ham shu xislatining bo'lsa kerak.Hurriyatning timsoli uchqur asov zotsizlar, so'nggi istak , xilqat emas-insonning hali ochilib ulgurmagan notinch xayol,parvozga mahbub tuyg'ularisiz". Asar qahramoni "Ayrishox" dastlab odamlar orasida voyaga yetadi.Bug'u ulg'aygach odamlar uni o'z qavmiga-to'dasiga qaytaradi.Bug'u insonlarga xos mehrni ham, razolatni ham ko'radi, ya'ni "hazrati inson" bu nodir hayvon qulog'iga olovli tamg'a bosadi. Ona bug'u shunday o'ylaydi: "- Qo'rqma,ular meni boqdi. Keyin shu yurtga keltirishdi va to'dangni topib ol, deyishdi. Qulog'imdan cho'zishib olov tamg'a bosishdi. Qulog'imdagi tamg'a ulardan ulgu,odamlar ming yaxshi bo'lgani bilan, ulardan olisroq yurgan afzal". Tiriklik qavmida insonchalik buyuk zot ham,insonchalik nokas zot ham yo'q. Hatto qondoshiga xusumat illati ham faqat shu qavmga xos."Bugungi kunda juda oz qolgan noyob bu hayvonni odamlar tutib, hayu- havas hovli bezagi qilishsa , ovchi esa ko'rgan yerida otsa, bu antiqa hayvonlar qirilib bitadiku" - deya ozorlanadi adib. Bu asarni o'qiyturib, beixtiyor Chingiz Aymatovning "Oq kemasi"dagi Shoxdor ona bug'u haqidagi rivoyat esga tushadi. Ona bug'u ham

dastlab insonlarga do'st edi. Lekin odamlar shonu- shuhrat ilinjida bug'ularni o'ldirib, ularning shoxlarini o'z ajdodlari qabriga bug'ushox o'rnatishni o'ylab topishadi, natijada bug'ularga qirg'in keladi. Go'zallikni toptab o'ldirib bo'ladimi? Go'zallik xazon bo'lgan joyda razolat va qabohat chechak otadiku! Adib ona tabiatning atrof-muhitning ,tabiat yaratgan go'zallik, boylikning ehtirosli himoyachisi bo'lib maydonga chiqadi. Yozuvchi bu bilan yurtga mengzatilgan hayvonlarning qirilib ketishiga oddiy tomoshabin bo'lib qolmayapmizmikin? -deb o'ylaydi.

2."Yozuvchi ijodini yaxshi bilishni istasang , avvalo, u tug'ilib- o'sgan joyni ko'r "- deydi.Chunki oila, odamlar, atrof- muhit xotirasida o'chmas iz qoldiradi,asarlari mavzusiga , obrazlariga, tafakkur tarziga o'ziga xos jilo baxsh etadi , bir umr shu manbadan ma'naviy ozuqa oladi.Buni ulkan ijodkorlarning o'zlari ham e'tirof etishadi. Mengziyo Safarov surxondaryoliklar hayotini, Surxondaryo koloritini adabiyotga olib kirishga intildi.Uning barcha asarlari Surxondaryoning o'tmishi va buguni haqida, barcha qahramonlari surxondaryoliklar,ya'ni siz-u biz bilgan oddiy odamlardir.Asardagi har bir qahramon go'yo hayotning o'zidan shundaygina ko'chirib olinganga o'xshaydi.

Asardagi eng xarakterli obrazlardan biri Botir obrazidir. U dastlab bug'uni otish uchun kelgan edi. Aslidaku, uning niyati yomon emas edi, yani uning maqsadi: "Go'daklik yillarida bir bug'uchani boqqan, keyin uni qizaloqdan majburlab tortib olishgan, o'shandan qizchaniq diydasi qotgan", ulg'ayib turmush qurib farzand ko'rmagan, befarzandlikning davosi allaqanday eshonning tavsiyasiga ko'ra dam solingan bug'u go'shtini yeyish kerak bo'lgan ayolga yordam berish! Lekin u Suyar Suyun kabi hayotini bug'ularni asrashga baxshida etgan insonlar bilan tanishib fikri o'zgaradi.

Asosiy obrazlardan yana biri Oynovvot obrazidir.Yozuvchi uni "xastadil" yuzida nur, joziba o'rniga "bemavrid parishonlik" egallagan deb ta'riflaydi. Oynovvotni befarzand ayollargagina xos "zaifona xokisorlik" allaqachon o'z iskanjasiga olgan , undan qutilish chorasiga bo'lgan ishonch so'ngan.Uning eri qovog'i soliq Bahodirning

ham chehrasida shu umidsizlik aks etgan. Bu obraz ham bizga " Oq kema"dagi " xushnud damlari kamdan- kam bo'ladigan", doim g'amgin va tajang, "farzandi bo'lganda butunlay o'zgacha yuradigan" Bekey xolani eslatadi. Bu yozuvchining Chingiz Aytmatov asaridan ijodiy ta'sirlanish natijasi deyish mumkin. Yozuvchining qadri va martabasi ,obro'yi va mavqei uning ma'naviy hayotimizga qo'shgan hissi bilan belgilanadi.

Tanqidchilarimizdan biri "Asarni birov o'qimasa - bu fojea, bu ma'naviy halokat" degan edi. Nazarimizda, asarning amaliy ahamiyati bo'lmasa, bu ham fojea. Shu ma'noda Mengziyo Safarov asarlarining ahamiyati shundaki, yozuvchi inson va tabiat qanchalik bog'liqligini, o'zligini tanigan insongina tabiat, umr, ezgulik qadriga yetishini uqtiradi. Yozuvchi tabiat bilan chambarchas bog'liqligini anglamagan, bunday hayajonni his qilmagan inson umri zanglagan umrdir deydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Normat Yo'ldoshev. Hozirgi adabiy jaroyon. Toshkent-2019 " Tafakkur" nashriyoti.*
2. *U. Normatov. Yetuklik. Toshkent. G' G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.*
3. *M. Safarov Ayrishox. " O'qituvchi" nashriyoti .Toshkent- 2008.*

ФИО автора: Yusupova Lobar Husanovna

ELT at International Islam Academy of Uzbekistan

Название публикации: «TEACHING GRAMMAR: DEDUCTIVE VERSUS INDUCTIVE APPROACH»

Annotation. That grammar is the most significant elements of the language study is a fact, since it is known to be the foundation of each language. Hence, it is to be learnt so as to become able to learn a language accurately and fluently.

Key words. Deductive and inductive approaches, grammar, explicit and implicit way of teaching, top-down and bottom-up.

It is widely known that most pedagogues used to accept and apply a deductive rule-driven approach in teaching grammar rather than inductive a rule-discovery approach. I completely concur with the ideas that some learners, especially younger ones may find a bottom up process rather boring, whereas by utilizing deductive grammar learning a teacher can succeed in enriching their learners' understanding of the process being taken place, since it helps learners use their cognitive, critical and problem solving abilities.

The question regarding teaching grammar seems to be one of the most debatable, since some pedagogues prefer deductive method, so called teacher-centered approach, in which explaining rules to students should be in priority while others recommend deductive method, where grammar is acquired via examples of speech and particular constructions.

Having read the article "The Effect of Inductive Vs. Deductive Instructional Approach in Grammar Learning of ESL Learners" (2013) by Simin Chalipa, I became confident in my opinion that both methods have their pros and cons. The article presents the results of the experiment was conducted among 40 students between 57 universities, who were Persian speakers and nonnative speakers of English. During the experiment students were divided in to two part, short-term learners and long term

learners. The results showed that the deductive method was more effective for short term learners, and both deductive and guided inductive are effective on long-term learning of grammar structures.

Recent trends in grammar teaching have led to a proliferation of studies that have been conducted progressively. According to Chalipa (2013) either teaching grammar thoroughly or not has become a catch-21 situation. He argues that advocates of both oppositions have their own unanimous decisions for robust evidence. However, having read the articles by Simin Chalipa (2013), where a more appropriate way of teaching and learning grammar was clearly broken down, due to which I was able to realize that the advantages of inductive instructional approach in grammar learning simply overweighs its disadvantages. Moreover, as Stoller (1997) stated, in order to strengthen learners' mind and engage them to become able to solve the problem, as well as improve their critical thinking, it is vital to utilize top-down process in grammar teaching.

I have been involved closely in the process of teaching grammar for a decade and the article which has been provided for our course made me discover some more specific characteristics related to educating grammar deductively and inductively. Deductive and inductive learning controversially contrast each other, thus, many scientists have been investigating their efficacy in grammar teaching almost for a half century.

It is also pivotal to comprehend the notion of not only knowing what to teach, but also how to teach. Lee and Van Patten (1995) denominate that teaching grammar explicitly is still on progress, even though more classrooms are turning to be communicative.

As an English language teacher I have been teaching grammar gleaned from traditional way of tutoring. Initially, I present forms and structures; secondly, I introduce some rules and set principles. Then the learners will be able to apply their findings systematically. But while observing the article I have drawn my attention to

the matter of inductive learning which has stabilized my fluctuated thoughts. Why not call my learners to be more creative and sociable which may propose and guarantee an energetic learning atmosphere in the classroom? Thus, I will be able to eradicate the cloud of boredom from the environment of my class.

What if I utilized both inductive and deductive teaching methods in my educating procedure? These rhetorical questions are not pacing me and I have made up my mind to use them turn by turn in a logical sequence. Evidently, deductive teaching presents an opportunity of being confident, while inductive teaching promises to broaden a creative and critical thinking of the learners.

Without any doubt, I can assure that it is a concern of future and outcomes of these blended teaching of grammar will be decoded in my further investigations. There is no universal method or approach in language teaching which can be introduced without controversial arguments. The role of inductive and deductive teaching of grammar in linguistics is pivotal, but both of them propose some merits and demerits that may be discussed discursively during endless debates.

Einstein (1987) points out that learners who have been taught according to the deductive method of teaching may feel less fear and it makes them be more self-confident while applying to the grammar base. Even though I subscribe to this view, there are some inclinations of mine which I consider to be controversial to the aforementioned idea.

The learners who have learned grammar deductively behave themselves as in “the frame”, some exceptional rules that may come further may distract them and they cannot be creative any more. They use only structural and formulaic forms which stop them being conscious learners. The robust features of deductive and inductive grammar teaching and learning may be outlined in the following claims.

Initially, instructors who are for inductive teaching can use problem-solving skills in their teaching process. If they use this criterion properly, the assigned objective

of the class can be achieved fruitfully. Consequently, learners will be able to cover some more extra miles in further practicing.

Another hefty consideration can be noticed in deductive learning in which learners will be able to identify rules and forms in an initial stage and then they will be provided with some examples that encourage them to learn the context directly. Subsequently, it guides the learners to develop their own use and application.

In the final verdict, it is high time to consider that deductive or inductive, explicit or implicit of teaching and learning may represent mutual strong and weak strategies that can be used and accepted differently by different educators. Thus, the role and approach of the teacher towards his or her learners may seem to be crucial.

References:

1. Chaliba, S. (2013). *The Effect of Inductive Vs. Deductive Instructional Approach in Grammar Learning of ESL Learners*. Iran: Jiroft.
2. Lee, J. E, & Van Patten, B. (1995). *Making communicative language teaching happen*. New York: McGraw-Hill.
3. Stoller, F. L. (1997). *A six-T's approach to content based instruction*. Longman publishing.

ФИО автора: Yo'ldashbayev Azizbek

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası 2-kurs, talabasi

ФИО научного руководителя: Qodirov O'tkir

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom cholg'u ijrochiligi" kafedrası kata, o'qituvchisi

Название публикации: «AMALIYOT SABOQLARI: CHOLG`U IJROCHILIGI TA'LIMI MUAMMOLARI XUSUSIDA»

Annotatsiya: Mazkur maqola "Amaliyot saboqlari: cholg'u ijrochiligi ta'limi muammolari xususida" mavzusida bo'lib, unda bugungi kunda an'anaviy cholg'u ijrochiligi ta'limi oldida turgan dolzarb masalalar, muammolar va yechimlar qalamga olingan. Maqolaning kirish qismida musiqa hamda musiqiy ta'limning inson ma'naviy kamolotidagi o'rni, mohiyati izohlanadi. An'anaviy cholg'u ijrochiligi ta'limida mumtoz asarlarni o'rgatishdagi mavjud manbalar, ulardan oqilona foydalanish yo'l-yo'riqlari, shuningdek, asosli takliflar, xulosalar mazkur maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Maqola ob'ekti sifatida Toshkent madaniyat va san'at kollejidagi amaliyot jarayoni tanlangan. Muallif o'zbek milliy musiqasining nodir namunasi hisoblangan "Shashmaqom"ning cholg'u ijrochiligi ta'limi jarayoniga e'tibor qaratarkan, ta'limning metodik yechimlarini ilmiy asoslashga harakat qilgan va yetarli darajada yoritib bera olgan.

Kalit so'zlar: musiqiy qomus, og'zaki manbalar, yozma manbalar, nota yozuvlari, variantlilik, musiqiy savodxonlik.

Annotation: This article is entitled "Practical Lessons: On the Problems of Instrumental Performance Education" and covers current issues, problems and solutions facing traditional instrumental education today. The introductory part of the article explains the role and importance of music and music education in human spiritual development. The main content of this article is the available resources for the

teaching of classical works in the teaching of traditional instrumental performance, instructions for their rational use, as well as sound suggestions and conclusions. The object of the article is the internship at the Tashkent College of Culture and Arts. Focusing on the process of teaching instrumental performance of "Shashmaqom", which is a rare example of Uzbek national music, the author tried to scientifically substantiate the methodological solutions of education and was able to adequately cover them.

Keywords: musical encyclopedia, oral sources, written sources, notes, variety, musical literacy

O`zbek musiqa san'ati tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida, o`ziga xos tarzda rivojlandi va madaniy evrilishlar silsilasida, insoniyatning ma'naviy tafakkuri uchun yetarli darajada tarbiya vositasi o`laroq, sharaflari vazifani ado etib keldi. Zotan, o'zbek mumtoz musiqasi, birinchi navbatda, kishiga ruhiy yengillik baxsh etish vazifasini bajarsa, ikkinchi tomondan, insonlarning tashqi dunyoga estetik munosabatda bo'lishini ta'minlaydi; uchinchi tomondan esa tarbiyaviy ta'sir vazifasini ham bajaradi. Har bir musiqa asarining inson ruhiyatiga ta'sirini qadim davrlarda yashab o'tgan olimlarning asarlari ham, hozirgi texnika taraqqiyoti davri samaralari ham isbotlab turibdi.¹⁶⁹

Chunki, musiqa qudratli kuchga ega bo'lib, o'z ohanglari bilan inson qalbini qamrab oladi. Shu boisdan musiqani xalqning, millatning qalbi deb bejiz aytilmagan. Ayniqsa, o'zbek mumtoz musiqasi ming yillardan beri insoniyat ma'naviy olamini nafaqat nafosat olamiga olib kiradi, balki yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarga ega bo'lishga, chin insonparvar va vatanga sadoqatli bo'lishga chorlaydi. O`zbek mumtoz musiqasida buning yorqin namunasi sifatida "Shashmaqom" yuksak mavqe'ga egaligi

¹⁶⁹ Rajabov I.R. Maqomlar. T.: "San'at" nashriyoti, 2006. 149-bet.

bilan alohida ahamiyatlidir. Boshqacharoq aytganda, “Shahmaqom” – musiqiy qomus hamdir.¹⁷⁰

Qolaversa, davlatimiz rahbari SH. M. Mirziyoyev e’tirof etib o’tganidek, asrlar davomida ulug’ shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san’at nafaqat yurtimiz hamda Sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida ham katta shuhrat-e’tibor qozongan. Maqom san’atining gulto’ji bo’lgan “Shashmaqom” YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro’yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig’idir.¹⁷¹

O’tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san’atini o’rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o’zbek “Shashmaqomi” nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo’shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga molik voqea bo’ldi, desak, xato bo’lmas.

Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O’zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo’nalishda maxsus kafedra faoliyat ko’rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotgani quvonarli holdir. Ammo bu holat mazkur soha doirasida to’laqonli qanoat hosil qilishimiz uchun yetarli emas. Ayniqsa, musiqiy ta’lim oldida turgan bosh maqsad, ya’ni, milliy o’zligimizni anglash, madaniyatimizni har tomonlama rivojlantirish, xalqimiz, avvalo, yosh avlodni yuksak insoniy tuyg’ular ruhida tarbiyalash ekan, ta’lim jarayonida uslubiy adabiyotlarning yetarli emasligi ijobiy natijalar oldidagi jiddiy to’siq ekanligini unutmaslik zarur. Chunonchi, musiqa va san’at kollejlari, musiqa maktablarida ta’lim oluvchilarning estetik didi va tafakkurini

¹⁷⁰ Rajabov I.R. Maqom asoslari. O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi metodika xonasi. T.: 1992. 11-bet

¹⁷¹ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi PQ-3391-sonli Qarori. “Xalq so’zi”, 17-noyabr, 2017-yil, 1-bet.

shakllantirishda maqom san'atining keng imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayapti.

Mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san'atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislarining, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari e'tibordan chetda qolib kelmoqda.¹⁷²

Shu bois, o'zbek mumtoz musiqasining ushbu nodir namunasini kelgusi avlodlarga asliyatdan uzoqlashmagan, ohoriy tarzda yetkazmoq uchun, bu borada ma'lumotga ega bo'lish, ularni o'zlashtirish hamda o'rgatishning bosh maqsadi — musiqa va san'at kollejlari, akademik litsey o'quvchilarini musiqiy savodxonlik, ijroviy mahorat yo'lida tarbiyalashga munosib hissa qo'shishdan iboratdir. Bu jihatdan bugunda musiqiy ta'lim oldida jiddiy mas'uliyatlar mavjuddirki, ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini topish mumtoz musiqiy merosimiz namunalarini yosh avlod ongiga singdirish, ayniqsa, cholg'u ijrochiligida muayyan ijobiy burilishlarga erishish yo'lida sezilarli omil bo'la olishi tabiiydir.

Endilikda, mazkur amaliy ehtiyojlar zaruriyati o'laroq, musiqiy ta'limning cholg'u ijrochiligi tizimida yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Ularni hal etish uchun quyidagi manbalarga murojaat etish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

Og'zaki manbalar. Bunda o'zbek mumtoz musiqasini o'rgatishdagi an'anaviy ta'lim predmetlari sanalgan ansambl yoxud yakka holdagi ijro variantlarini havola etish nazarda tutiladi. Mazkur manbalar musiqiy ta'lim oluvchi (asosan sozanda!) lar uchun birmuncha qulay bo'lib, ularning muayyan kuy ohangini yodda saqlash ko'nikmasini shakllantirishda muhim omil sanaladi. Ushbu manba eng qulay, sodda hamda ijroviy jihatdan samaradorligi bilan alohida ahamiyatli bo'lib, bugunga qadar musiqiy ta'limning barcha tizimida keng miqyosda qo'llanib kelinmoqda. Bular audio hamda

¹⁷² O'sha joyda.

videoyozuvlar shaklida bo`lib, unda variantlilik, **polifonik (turlicha kuy qochirimlari)** xususiyatlari bilan o`ziga xos mohiyat kasb etadi.

Yozma manbalar. Bunda mumtoz musiqiy durdonalarimizning nota yozuvlari nazarda tutiladi. Ushbu manbalar o`ziga xos afzalliklarga ega bo`lib, ayniqsa, cholg`u ijrochiligida, muayyan ijroning qat`iy qoida, yo`nalish va usulga bo`ysundirilishini, shuningdek, pirovard ijroviy savodxonlikni ta`minlashi, qolaversa, nisbatan unutilmasligi, umrboqiyliigi, ishonchliligi va kelajak avlodlarga o`zgarishsiz yetib borishi bilan ham qimmatlidir.

Bu o`rinda shuni unutmashlik zarurki, biz musiqiy ta`lim tizimida mazkur manbalar tanlovida birini ikkinchisidan ustun qo`ymoqdan mutlaqo yiroqmiz. Negaki, sanab o`tganlarimiz – og`zaki yoxud yozma manbalardan ayru holda foydalanish cholg`u ijrochisini mukammal shakllantira olmaydi. Ya`ni, mukammal sozanda bo`lish uchun ushbu manbalar, mohiyatan teng huquqli holda, bevosita bir-birini to`ldiradi hamda sozanda malakasini, tom ma`nodagi musiqiy savodxonlik darajasi yuqori bo`lishini ta`minlaydi. Shuning uchun musiqiy ta`lim tizimidagi mana shu qat`iy muvozanatni unutmashlik zarur.

Shuni alohida aytib o`tmoqchimizki, bugungi cholg`u ijrochiligi ta`limida og`zaki manbalar salmog`i yuqori: muayyan mumtoz musiqiy asarning ansambl yoxud yakka holda ijro etilgan audio-videoyozuv variantlariga murojaat qilish keng miqyosni tashkil etmoqda. Bu holat har doim ham biz kutayotgan maksimal samarani bermasligi tabiiydir. Chunki, tom ma`nodagi professional sozanda musiqiy savodxonlik darajasining bosh omili – uning nota yozuvidagi ijroviy mahorati bilan o`lchanadi. Bu borada, ayniqsa, “Shashmaqom” ta`limi amaliyotidagi ijroviy jarayonlarni kuzatish kifoyadir. Qolaversa, havaskor va professional sozanda o`rtasidagi asosiy farq ham, undagi nota savodxonligi bilan belgilanadi. Ana shu xayrli vazifani to`laqonli amalga oshirish uchun, mavjud imkoniyatlarni ishga solish hamda musiqiy ta`lim tizimida cholg`u ijrochiligi savodxonligining yuqori darajada bo`lishini ta`minlash mumtoz musiqiy asarlarning nota yozuvlari nashrini ko`paytirishni taqozo etadi.

Musiqiy amaliyot davomida kasbiy ta'lim oldida turgan yechimini kutayotgan muammolar sifatida quyidagi takliflarni havola etishni lozim topdik:

- a) cholg'u ijrochiligi darslari uchun mumtoz musiqiy asarlar (asosan "Shashmaqom") ning nota nashrlari yetarli adadlarda chop etilishi hamda ular nisbatan qisqa muddatlarda musiqiy ta'lim muassasalari (musiqa maktablari, akademik litsey va texnikumlar) dagi ta'lim oluvchilarga yetkazib berilishi zarur;
- b) nota nashrlarining yangi avlod darsliklari sifatida, rejalashtirilgan holda qayta nashr jarayonida to'ldirilishi va yondosh asarlar hisobiga boyitilib borilishi musiqiy ta'lim vositalarining yuqori darajada samarali bo'lishini ta'minlaydi;
- c) mazkur jarayon musiqa namunalari ijod, san'at turigina bo'lib qolmasdan, madaniyatning muhim bir qismi sifatida ham o'rganilishini, ayniqsa, o'rta ma'lumot beruvchi musiqa ta'lim tizimida o'zbek mumtoz musiqasini alohida fan sifatida o'rganilishida aniqlikni belgilab beradi.

O'zbek mumtoz musiqasimizning qomusi bo'lgan "Shashmaqom" – maqom san'atining eng muhim manbayi, teran ildizlaridan biridir. Undagi barcha shoh asarlarni o'zlashtirish yuqoridagi manbalarga tayangan holda sozandalar tomonidan ijro etilganda maqom ohanglaridagi mutanosiblik jihatlar butun mohiyati bilan uyg'unlashib boradi.

Xulosa sifatida alohida ta'kidlamoqchimizki, bugungi yosh avlodning o'tmishni, o'zining boy merosini mukammalroq bilishi va idrok qilishi uchun musiqiy ta'lim manbalarining yetarli bo'lishi muhim zamin sanaladi. Mumtoz musiqamizni o'rganish, uni amalda o'zlashtirish musiqa va san'at kollejlari hamda akademik litseylar o'quvchilarining milliy g'ururini shakllantirish uchun asosiy omillardan bo'lib qoladi. Cholg'u ijrochiligi sohasida taniqli namoyandalar tomonidan yaratilgan turli shakllardagi cholg'u kuylari, ijro uslublari hamda usullari yuzasidan ma'lumot hosil qilish, ular haqida mustaqil fikrni shakllantirish, bilimdon va malakali kadrlarni

yetishtirish yo`lida, o'zbek mumtoz musiqasi fani oldidagi dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov I.R. Maqomlar. T.: “San’at” nashriyoti, 2006.
2. Rajabov I.R. Maqom asoslari. O`zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi metodika xonasi. T.: 1992.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi PQ-3391-sonli Qarori. “Xalq so`zi”, 17-noyabr, 2017-yil

ФИО авторов: Mansurova Shabnam

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Ibragimova Nigora

Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

ФИО научного руководителя: Kamalova Dilnavoz Ixtiyorovna (dots., PhD)

Название публикации: «FIZIKA FANINI CHET TILIDAN FOYDALANIB O'QITISH»

***Annotatsiya:** Maqolada fizika fanini chet tillaridan foydalanib o'qitishning samarali jihatlari, fan o'qituvchilarining dars jarayonlarida qanday metodlardan foydalanib o'qitsa maqsadga muvofiq bo'lishi, ingliz tilini fizika bilan aloqadorligi haqida mulohazalar yuritilgan hamda darsda qo'llanadigan metodlardan namunalar keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** ingliz tili, samarali ta'lim, fanlararo aloqadorlik, zamonaviy pedagog, pedagogik texnologiyalar, metod, pedagogik jarayon, ta'lim tizimi.*

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri – chet tilini o'rganish, bir nechta tilni mukammal bilish hamda barcha fanlarni o'qitish jarayonlarida chet tillarini tadbiq etish ekanligi barchamizga ma'lum. Binobarin, dars jarayonida chet tillaridan foydalanish o'quvchining ushbu tilni mukammalroq o'rganishi, tilni bilishga bo'lgan qiziqishini yanada orttirishi shubhasiz. Fizika fanini o'rganayotgan o'quvchi tafakkurida mazkur fanga doir atamalar yoki qoidalarning ingliz tilida ham shakllanishi o'quvchi bilim saviyasini yanada kengaytiradi.

Zamonaviylashib borayotgan kurrai-zaminimizda fan-texnika taraqqiyot etgani sayin ta'lim oluvchilarning axborot resurslaridan, internet tarmoqlaridan yangiliklar izlashi ularning barcha fanlarni chuqur o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, chet tillarini bilish, dars jarayonlarida ingliz tilidan ko'proq foydalanish hamda malakali o'qituvchilarning fizika fanini chet tilini qo'llab o'qitishi bugungi zamon talabidir. Fizika darslarida har bir mavzuga chet tilini bog'lab

o'qitishda fan o'qituvchilari zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o'qitishning samarali metodlaridan foydalana bilishi zarur.

Bilim dargohlarida, jumladan maktablarda, akademik litseylarda ta'lim olayotgan o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirish va muayyan fanlarni chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchilarning o'z iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon eta olishlarida, dars jarayonining mazmunli, samarali o'tkazilishida o'qituvchining pedagogik mahorati, o'z fanini chuqur bilishi, dars jarayonini to'g'ri tashkil qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy shaklda dars o'tishning muhim kamchiliklaridan biri o'quvchilar bilimni nazorat qilish usullaridagi samaradorlikning kamligi hisoblanadi. Dars jarayonida o'quvchilar bilan olib boriladigan og'zaki savol-javob har bir o'quvchining o'zlashtirishini sistematik tekshirib borishiga imkon bermaydi. Nazorat va mustaqil ishlardan ko'p foydalanish hamda ularni tekshirish ko'p vaqt talab qiladi.

O'quvchilarning fanni o'zlashtirishini sistematik nazorat qilib borilmasligi, o'qituvchining o'quv jarayonini tezkor boshqarishiga imkon bermaydi. Bilimni dasturlashtirilgan usulda nazorat qilish yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni ma'lum darajada bartaraf etishga imkon beradi. U sistematik va frontal ravishda amalga oshirilishi mumkin. Bu usul o'quv materialini takrorlash va mustahkamlashning faol shakli hisoblanib, o'qituvchiga o'qitish jarayonini qiziqarli, mazmunli tashkil qila olish imkonini beradi, hamda topshiriqlar to'g'ri bajarilganligini tekshirish uchun ham kam vaqt talab qiladi. Bu usulda o'qituvchi o'quvchilarning nafaqat bilimlarini nazorat qiladi, balki ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytira oladi, shuningdek, dars jarayonida o'qituvchi turli interfaol metodlar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, fanni kundalik hayot bilan bog'lash va fanlararo bog'lanishga alohida e'tiborini qaratish, o'quvchilarning fan asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtira olishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, hozirgi kunda o'quvchilarning ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda, fizika darslarida bu fanlar bilan ingliz tili fani orasida bog'lanishni yo'lga

qo'yish o'quvchilarning ham fizika faniga, ham ingliz tili faniga bo'lgan qiziqishini, bilimni kuchaytiradi va dars jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradi.

Fizika darslarida mavzularni mustahkamlash jarayonida o'quvchilarning ingliz tili fanidan bilimlarini, lug'at boyligini oshirish, diqqatini jalb qilish maqsadida mavzuga oid fizik hodisalar, fizik kattaliklar va ularning o'lchov birliklari, fizik atama, tayanch so'z va iboralar ingliz tilida beriladi, so'ng «So'zning tarjimasini toping» (Matching the words with their translation) o'yini yordamida amalga oshiriladi. Bilimni bunday nazorat qilish metodi tarqatma materiallar tarzida tuzilgan dasturga asoslangan bo'lib, bu materiallardan avval o'tilgan mavzular o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini tekshirish uchun, shuningdek, yangi bayon qilingan mavzuni mustahkamlash va nazorat qilish uchun ham foydalanish mumkin.

Tarqatma material

Matching the words with their translation.

So'zlarni tarjimasi bilan moslashtiring.

1	time	a	uzunlik
2	length	b	molekula
3	speed	c	kondensator
4	temperature	d	energiya
5	molecule	e	vaqt
6	light	f	zaryad
7	nucleus	g	yadro
8	charge	h	tezlik
9	energy	i	harorat
10	condenser	j	yorug'lik

To'g'ri javoblar: 1-e, 2-a, 3-h, 4-i, 5-b, 6-j, 7-g, 8-f, 9-d, 10-c.

Har bir mavzuga oid tayanch iboralarning dars jarayonida ingliz tilida o'rgatilib borilishi va qo'llanilishi o'quvchining nafaqat faolligini oshiradi, balki uning fizika va ingliz tili fanlarini o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini o'stiradi, fizik atamalarning ingliz tilida qanday ifodalanishi, talaffuz qilinishi ustida izlanishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hojiyev M.T., Olimov K.T. “Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi”. Toshkent. “Fan” nashriyoti. 2005.
2. Karimov A.M., Toshpo’latova Sh.O. “Fizikani o’qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish”. Toshkent. 2017.
3. Azizxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. 2006.
4. Tolipov O’.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari (o’quv qo’llanma). Toshkent. O’zRFA. “Fan” nashriyoti. 2006.
5. Ziyonet elektron kutubxona.

ФИО автора: Закирова Дилрабо Хайдаровна

Преподаватель кафедры русского языка и литературы

Кокандского Педагогического института

Название публикации: «ГОГОЛЬ И ЕГО ПИСЬМА»

Аннотация: Жизненный и творческий путь этого писателя и его трагическая судьба до сих пор представляют собой загадку, которую разгадывает не одно поколение исследователей. Его удивительный талант проявляется в столь непохожих друг на друга произведениях по-разному - то поражая читателя богатством языка и колоритностью украинской темы, то увлекая фантастикой петербургских повестей, то вызывая смех, и порой вгоняя в ужас.

Ключевые слова: литература, творчество, Н.В.Гоголь, жанры и другие

Жонглируя русскими словами и украинскими говорами, он написал произведения как «Ревизор», «Тарас Бульба», роман «Мёртвые души», «Вий» и другие. Его жизнь как и его произведения полна мистики и тайн, но так как наука не признает мистику сделать определенные выводы весьма трудно и нам остается читать и наслаждаться его творчеством.

Великий русский писатель Николай Васильевич Гоголь родился он в многодетной семье, третий по счету, в 1809 году 1 апреля в небольшом селе Большие Сорочинцы, Полтавской губернии, в Украине. Мальчик рос весьма спокойным и без проблемным ребенком с малых лет он искал свое призвание в литературе. Однажды будучи пятилетним ребенком он удостоился чести прочесть свои стихи В.В.Капнисту (он застал его за писаниной), но к сожалению содержание этой прозы неизвестно. Гоголя с детства восхищала родная природа и пугали люди. Даже через двадцать лет он писал одному из друзей: *«Чего бы, казалось, не доставало этому краю? Полное, роскошное лето. Хлеба, фруктов, всего растительного - гибель. А народ беден, имения разорены и недоимки*

неоплатны... Начинают понимать, что пора приниматься за мануфактуры и фабрики; но капиталов нет, счастливая мысль дремлет, наконец умирает, а они (помещики) рыскают с горя за зайцами»

Не удивительно, что Николай Васильевич глубоко проникся верой во все мистическое и также был одержим страхом смерти. В последние годы эти черты личности стали доминировать. В юности писатель, как и его тревожная мать, разительно отличался от общей массы сверстников некоторыми странностями характера. Он был очень замкнут и скрытен. Был склонен к неожиданным и опасным проделкам.

Будущий представитель русской литературы идеализировал Пушкина, а личное и творческое общение Гоголя и Александра Сергеевича сыграло в жизни и его формировании как писателя исключительную роль. Период общения с Пушкиным (1831-1836 годы) -- определяющий в писательской биографии Гоголя. Для начинающего автора жизненно важным становится пушкинское одобрение, признание верности избранного в искусстве пути. Упрочению положения Гоголя в литературе способствует отзыв Пушкина о книге *"Вечеров на хуторе близ Диканьки"*, выделяющийся на фоне других в целом также хвалебных откликов своей точностью и принципиальностью (см. вступ. статью, с. 11). *"Пушкин первый угадал в Гоголе явление <...> Пять лет знакомства с Пушкиным <...> не даром были годами, когда написано, начато или задумано все, что сделало Гоголя великим художником,-- от последних повестей "Вечеров" до "Мертвых душ"* (Гиппиус Василий. Гоголь, Л., 1924, с. 41). *"Ничего не предпринимал, ничего не писал я без его совета",-- признается Гоголь вскоре после смерти Пушкина* (письмо к Погодину от 18 (30) марта 1837 г.). В этих словах нет преувеличения. Пушкин действительно находился в курсе большинства гоголевских замыслов и жизненных планов. Его советами Гоголь пользуется при подготовке к печати сборника *"Арабески"*. Еще до выхода в свет Пушкин знакомится с повестями *"Вечеров..."*, *"Тарасом Бульбой"*, ранним

вариантом "Женитьбы", "Ревизором", "Носом", многими статьями, главами первоначальной редакции "Мертвых душ". 2 декабря 1833 года Гоголь читает Пушкину свою "Повесть о том, как поссорился Иван Иванович с Иваном Никифоровичем". "<...> очень оригинально и очень смешно",-- отметил в своем дневнике поэт (Пушкин, т. XII, с. 316).

Гоголь -- Пушкину А. С., 16 августа 1831

16 августа 1831 г. Петербург [1]

16 августа. СПб.

Приношу повинную голову, что не устоял в своем обещании[2] по странному случаю. Я никак не мог думать, чтобы была другая дорога не мимо вашего дома в Петербург. И преспокойно ехал в намерении остановиться возле вас. Но вышло иначе. Я спохватился уже поздно. А сопутницы мои, спешившиеся к карантину[3] для свидания с мужьями, никаким образом не захотели склониться на мою просьбу и потерять несколько минут. Если же посылка ваша может немножко обождать, то вы можете отдать Васильчиковой[4], которой я сказал (она думает ехать в среду) заслать за нею к вам, и тогда она будет доставлена в мои руки. Я только что приехал в город и никого еще не видал. Здесь я узнал большую глупость моего корреспондента[5]. Он, получивши на имя мое деньги и зная, что я непременно буду к 15 числу, послал их таки ко мне на имя ваше в Царское Село вместе с письмом. И вам теперь, и мне новое затруднение. Но вы снисходительны и великодушны. Может быть, и ругнете меня лихим словом; но где гнев, там и милость. Письмо с деньгами вы можете также отдать для отправки ко мне Васильчиковой. Теперь ничего не пишу к вам, потому что собираюсь дня через три писать снова. Адресуйте ко мне в Институт Патриотического общества на Васильевском острове[6].

Ваш Гоголь.

¹ РА, 1880, No 2, с. 509; Акад., X, No 113.

² Речь идет об обещании Гоголя, отправлявшегося 15 августа из Павловска в Петербург, заехать в Царское Село к Пушкину за предназначенной для П. А. Плетнева рукописью "Повестей Белкина".

³ Летом 1831 г. в Петербурге была эпидемия холеры.

⁴ В доме княгини А. В. Васильчиковой в Павловске Гоголь жил летом 1831 г. в качестве домашнего учителя.

⁵ Неустановленное лицо.

⁶ С 10 марта 1831 г. Гоголь служил младшим учителем истории в Патриотическом институте.

Пушкин А. С. -- Гоголю, 25 августа 1831

25 августа 1831 г. Царское

Село [¹]

Любезный Николай Васильевич,

Очень благодарю вас за письмо и доставление Плетневу моей посылки, особенно за письмо. Проект вашей ученой критики удивительно хорош. Но вы слишком ленивы, чтоб привести его в действие. Статья Феофилакты Косичкина еще не явилась; не знаю, что это значит: не убоился ли Надеждин гнева Фаддея Венедиктовича? [²] -- Поздравляю вас с первым вашим торжеством, с фырканием наборщиков и изъяснениями фактора. С нетерпением ожидаю и другого: толков журналистов и отзыва остренького сидельца [³]. У нас все благополучно: бунтов, наводнения и холеры нет. Жуковский расписался; я чую осень и собираюсь засесть. Ваша Надежда Николаевна, т. е. моя Наталья Николаевна -- благодарит вас за воспоминание и сердечно кланяется вам.

Обнимите от меня Плетнева и будьте живы в Петербурге, что довольно, кажется, мудрено

25 августа.

А. П.

¹ БЗ, 1858, № 3, стлб. 75; Пушкин, т. XIV, № 663.

² Статья Пушкина под псевдонимом "Феофилакт Косичкин" опубликована в "Телескопе" (1831, № 13).

³ "Остреньким сидельцем" (то есть остроумным, язвительным приказчиком, продавцом) Пушкин называет Н. А. Полевого, который происходил из купеческой семьи и сам занимался торговой деятельностью. Рецензия Полевого появилась в сентябрьской книжке "Московского телеграфа", вышедшей с большим опозданием.

Известие о гибели Пушкина, полученное Гоголем в Париже, стало для него одним из наиболее тяжелых жизненных потрясений. К теме своих отношений с Пушкиным, характеристике пушкинского творчества Гоголь не раз возвращался на протяжении последнего периода своей деятельности ("Выбранные места из переписки с друзьями", "Авторская исповедь").

В настоящее время известны 4 письма Пушкина к Гоголю и 9 писем Гоголя к Пушкину. Спорным остается вопрос об адресата гоголевского "Отрывка из письма, писанного автором вскоре после представления "Ревизора" к одному литератору". По словам самого Гоголя, *"Отрывок..." представляет собой часть неотправленного письма к Пушкину* (см. письмо к С. Т. Аксакову от 21 февраля (5 марта) 1841 г.). И хотя рукопись "Отрывка..." датируется 1840-1841 годом, полностью отрицать его связь с каким-то неизвестным сегодня реальным

письмом к Пушкину нельзя. В то же время отсутствие сколько-нибудь определенных представлений о подобной связи не позволяет включить "Отрывок..." в один ряд с подлинными письмами Гоголя к Пушкину.

Белинский и Гоголь.

Белинскому принадлежит первостепенная роль в истолковании гоголевского творчества, укреплении авторитета писателя, уяснении его места в литературном процессе 1830-1840-х годов. Уже в статье *"Литературные мечтания"* (Молва, 1834, ч. 8), практически явившейся дебютом Белинского-критика, об авторе *"Вечеров на хуторе близ Диканьки"* говорится как о *"необыкновенном таланте"*, много обещающем в будущем. В следующем году появление сборников *"Миргород"* и *"Арабески"* дало Белинскому основание оценить произведения Гоголя как вершину русской прозы, а в самом писателе увидеть главу нового периода развития отечественной литературы -- периода, характеризующегося обостренным вниманием к *"жизни действительной"* (статья *"О русской повести и повестях г. Гоголя"* -- Т, 1835, ч. 26). Эти положения были позднее развиты критиком в его работах второй половины 1830-1840-х годов. На протяжении ряда лет Белинский вынашивал замысел обстоятельного разбора гоголевского творчества в особом цикле исследований. К сожалению, эта идея осталась неосуществленной. Тем не менее в своих трудах критик коснулся практически всех сторон литературной деятельности Гоголя. Перу Белинского принадлежит более двадцати статей, специально посвященных его сочинениям. В общем счете имеется 5 писем 3 Белинскому от Гоголя и 2 Гоголю от Белинского.

Письмо

В. Г. Белинского Н. В. Гоголю 20 апреля 1842 г. — первое письмо Белинского, в связи с просьбой Гоголя о печати первого тома *«Мёртвых душ»*

Письмо Н. В. Гоголя В. Г.

Белинскому 20 июня 1847 г. — первое письмо Гоголя, отзыв на рецензию

Белинского о «Выбранных местах из переписки с друзьями»

Письмо В. Г. Белинского Н. В. Гоголю

15 июля 1847 г. — второе письмо Белинского, ответ на письмо Гоголя

Письмо Н. В. Гоголя В. Г. Белинскому июль — август 1847 г. — черновик второго письма Гоголя (первая редакция)

Письмо Н. В. Гоголя В. Г. Белинскому 10 августа 1847 г. — второе письмо Гоголя (вторая редакция)

В течение своей жизни Гоголь вел переписки не только с представителями литературной среды, но и со своими друзьями, подтверждением этого является книга «Выбранные места из переписки с друзьями» созданная в 1846 и опубликована в 1847 самим Гоголем.

Список литературы:

1. "Переписка Н. В. Гоголя. В двух томах": Художественная литература; Москва; 1988

Интернет сайты:

1. Lib.ru/
2. Викитека.

ФИО автора: Қудратова Феруза

ЎзДСМИ “Драма театри ва кино санати” йуналиши 2 курс магистранти

ФИО научного руководителя: Эрназар Ёрбеков

Название публикации: «ЗАМОНАВИЙ РЕЖИССУРАГА ЗАМОН ТАЛАБЛАРИ»

Калит сўзлар: Театр, актёр, режиссиёр, мезансцена, сахна, ижро, мусиқа, режиссура, рассом, драматург.

Ключевые слова: Театр, актёр, режиссиёр, мезансцена, сцена, исполнение, музыка, режиссура, художник, драматург.

Keywords: Theater, actor, director, scene, skill, music, directing, choreographer, playwright.

Аннотация: Мазкур мақола замонавий режиссурани ривожлантириш ҳамда ўз ўрнида замон талабларига жавоб берадиган спектакллар яратишда драматург, актёр, режиссиёрнинг вазифаларига оид масалалар куриб чиқилади.

Аннотация: В статье рассматривается развитие современной режиссуры и, в некоторых случаях, роль драматургов и режиссёров в создании современных спектаклей.

Annotation: This article deals with the development of modern directing and, in some cases, the role of the playwright and director in the creation of modern performances.

Биз янги асрга юз тутдик, шу билан бирга бутунлай янги давр, янгича дунёқараш ва янги имкониятларнинг бошланғич нуқтасида турганлигимизни ҳам эътироф этиб ўтмоғимиз жоиз. Бу эса театр санатига, театр ишига ҳам ташкилий, ҳам ижодий, ҳам иқдисодий жиҳатдан бутунлай янги муносабатларни талаб қилади. Бугунги кунда айнан шу янги муносабатлар боис, театрнинг шаклланиш ривожланиш йуллари ва бу борада қилинаётган ишларни сарҳисоб қилиш учун ҳар қачонгидан ҳам кўпроқ эҳтиёж сезилмоқда. Чунки вақт ўтиши, замон ўзгариши, давр янгиланиши билан муносабатлар ўзгариб тобора такомиллашиб боради. Бу ўринда миллий театрларимизда бораётган ижодий жараёнлар, қилинаётган ишлар, уларни замонавий жараёнда эришаётган ютуқлари ва шу билан бирга камчиликлари, бу борада олиб болилаётган ислохатлар ва тадбирлар ҳусусида фикр юритишнинг вақти келди. Бизнинг заминга европа тибигаги замонавий театр кириб келгандан то мустақиллик давригача Сафокл, Шекспир, Шиллер, Мольер, Голдони, Гогиль ва бошқа кўплаб жаҳон драматургияси намаёндаларининг асарлари ўзбек репертуарини бойитиб келган. Ва бу каби сахна асарлари ўнлаб театр ижодкорлари ва санъаткорларини баркамоллик чўққисига олиб чиқди. Театр ижодкорларининг имкониятлари янада кенгайди. Шонли тарихимиз ва буюк аждодларимиз ҳақида, шу билан бирга жаҳон классик асарлари ва замонавий ўзбек драматургиясининг ўзига хос сахнавий талқинлари ҳам вужудга келганлиги фикримизнинг яққол исботидир. Хўш бугуннинг талаби, замонавий жараёнда театрнинг олдига қўйган мақсадлари ва уларнинг самараси қай тарзда рўй бермоқда? деган саволдан олдин замонавий жараён тушунчаси ва томошабинни қайси муштарак уйлар бирлаштиради деган ҳақли савол туғилиши керак. Энг аввало замонавий тушунчани изоҳлайдиган булсак ўзбек ҳалқининг бугунги ҳаёти бутунлай янги даврга янгича жамиятга юз тутаётганлиги. Бу эса одамлар онгида, ҳаётида, манавиятида, тақдирида, боринки борлиғига янгилик ҳиссини ўйғотишга сабаб бўлади. Шу мақсад йулида барча соҳалар маъсулдир. Бу борада санъатнинг барча турлари олдидаги улкан вазифаси замон қаҳрамони сиймосини яратиш. Ҳоҳ бу қаҳрамонни тарих зарварақларидан излаш ҳоҳ бугунги кун одамлари тимсолидада гавдалантириш, ҳоҳ жаҳон мумтоз дурдоналари орасадан излашидан қаттиқ назар улар орқали томошабиннинг қалбига кириш эзгу мақсад сари йўллай олиш асосий вазифадир. Балки хориждаги каби бизнинг

мактабларимизда ҳам драматургия, театр дарслари булса яхши бўларди. Халқ хаваскорлик томошаларини ривожлантириш, марказдан узоқ бўлган ҳудудларимизда бадий тарбия жараёнини яхшилаш керак. Мусиқали театр фаолиятига эга булган жамоалар республикада кўпчиликни ташкил этади. Уларнинг фаолиятини тиклаш замон талаби деб ўйлайман. Театр ижодий таркиблари билан танишиш, уларнинг иш фаолиятига иқтидорли ёш ижодкорларни режиссиёр, актёрларни жалб қилиш, керакли маиший-иқдисодий, шароитларни яратиб бериш масалаларини йўлга қўймоғимиз керак.

Бугунги кунда республикамиз миқёсида 37 та театр жамоаси фаолият юритмоқда. Бугунги замонавий ижод жараёнида улар қандай мавзуларга қул ўрмоқда, изланишлар давр талабига жавоб бермоқдами? Бу ўринда шуни эътиборга олиш зарурки, замонавий мавзу қамрови жуда кенг тушинча, шу билан баробарига мураккаб тузилишга эга. Мисол учун, шарқона ананаларга содиқлик руҳига қарши улароқ ғарб цивилизациясининг илғор имкониятларининг юртимизга шиддат билан кириб келаётганлиги давр талаби эканлигини инкор эта олмаймиз. Мана шу икки ўлкан тафовутни ўзи бу борадаги изланишлар нақадар муҳимлигини курсатиб турибди. Бундан ташқари театрни асосан драматург, режиссиёр ва актёр каби уч соҳа бирлаштириб турибди. Бу учликнинг бирлиги эса, бугунги замонавий жараёндаги энг долзарб масалалардан бири. Актёр билан ишлаш жараёнида режиссиёрнинг энг муҳим вазифаси саҳнавий ҳақиқатга эришиш ҳисобланади. Саҳнада иходий мухит яратмай туриб спектакль мофақияти ҳақида гап бўлиши мумкин эмас. Замонавий режиссиёр вазифаси нимада? У фақат саҳна асарини таҳлил қилиш ёки ролларни тақсимлаш билан чекланмайди. Режиссиёр мавзуга таяниб асар ғоясини очиш, характерларни актёрлар билан таҳлил қилиш, мезансаҳнани аниқлаш, персанождларнинг муносабатларини ўзаро кескинлаштириш, ижодий фантазиясига таяниб юксак инсоний ғояларни, самимийликни, ҳаётийликни, бадий яхлитликни сақлаган ҳолатда янги спектаклнинг дунёга келишига сабабчи бўлади. Қолаверса айни вақтда истеъдодли драматурглар билан бирга замонавий мавзулар ўстида ҳам кўпроқ иш олиб бориши керак. Актёр саҳнада ўз ўрнини топмоғи учун кўп нарсa драматург махоратига боғлиқ. Драматург қонун -қоидаларга, саҳна талаблари, бадий- ғоявий жиҳатдан кенг савияда талабга жавоб берадиган

томошабиннинг қалбига , дунёқарашига тасир кўрсатадиган манавий эҳтиёжларини қондира оладиган шу билан бирга муқаддас сахнада қўйилаётган асар сахнага лойиқ булмоғини таминламоғи лозим. Профессионал театрнинг асосий талаблари сахнада жонли мулоқат булмоғидир. Ижод қилмоқ , янги дунё очмоқ , рухий ахлоқий ва маънавий бойлик яратмоқ илинчидаги ижодкор аввало жамият онгида янгиланиб турадиган тамоилларни англаб спектакл яратмоғи лозим. Қотиб қолган қолибларни, эскирган ананаларни ривожига тусиқ булаётган иллатларни ҳис қилиб, уларни янги тамоиллар билан таққослаб ўзига ҳос ва бадий шаклда намоиш этиш ижодкорлардан катта куч ва масъулият талаб этади. Томошабиннинг онгини ва қалбини заб этиш учун замонавий театрлар янгидан-янги услубларни кашф қилмоқ зарур. Станславскийнинг айтганидек ”қотиб қолган қолиблар, ананалар ижод қилишдан тухтаганлар учун қулай ниқобдир”, деган фикрини эслаш ўринли бўлади. Чунки қобилиятсизлар шарт-шароитга мослашадилар, ижодкорлар эса янгилик яратишга интиладилар. Албатта театрда камчилик бўлганга яраша ютиқлари ҳам бисёр. Шу соҳада ижод қилган , бевосита унинг ривожланишига ўлкан хисса қушган режиссиёрларимиз номини келтириб ўтишимиз ўринли. Маннон Уйғур (“Лайли ва Мажнун” , “Фарход ва Ширин” , “Ҳамлет” , “Отело”, “Ревезор”), Етим Бобожонов (“Тор-мор” , “Макр ва муҳаббат” , “Бой ила хизматчи”), Тошхўжа Хўжаев (“Скапеннинг найранглари” , “Олтин девор” , “Хурият”) , Александр Гинзбург (“Шоҳи сўзана” , “Юлей Цезар” , “Мирзо Улуғбек”) , сингари бу касбда ўзларига олтин ҳайкал қўйиб кетган режиссиёрлар ижод ананаларини давомчиси бўлиш бугунги кун режиссиёрларидан ўлкан масъулият талаб этади. Уларнинг муносиб давомчилари сифатида бугунги кунда энг самарали ижод қилиб келаётган режиссиёрлар Боҳодир Йўлдошев, Олимжон Салимов, Валижон Умаров, Наби Абдурахмонов сингари режиссиёрларнинг фаолияти борасида ижобий хулоса чиқариб , нафақат пойтахт балки вилоят театрлари ҳам замонга мос асарлари билан томошабин қалбидан жой олишга улгурмоқда. Мисол тариқасида оладиган бўлсак Қашқадарё вилоят “ Эски масжид” театр ҳам мумтоз асарларни сахналаштиришда ўзига хос янги йўлдан янгича талқинда, албатта миллий ананаларга таянган ҳолда, замонавий ҳаёт манзарасини курсатишга алоҳида этибор қаратган. Режиссиёр Фаррух Қосимов “ Шайх Саънон ” спектакли чинакам ишқ миллий ва диний тусиқлардан устун туришинин

кескин ифода этади. Бу асар ўзига хос тарзда Шарқ ва Ғарб кишиларинг бир бирини тушинишга интилиши уларнинг дунёқарашида муштарак жихатлар мавжудлигига этибор қаратган. Спектакл қаҳрамони мусулмонлар пешвоси бўлган шайх образини Ўзбекистон санъат арбоби Исоқ Турайиб махорат билан ижро этди. Ўзбекистонга хизмат кўрсатган артист Ойгул Халилова ижро этган норосо қизи образи ҳам мукаммал тарзда ижро этилган. У шайхнинг мухаббати ҳаққоний эканлигини билиб, уни излаб мусулмон юртига йўл олади. Бу излаши давомида ўзбек халқ ашулаларидан бири “Топмадим харгис санингдек яхши жононим мани” қўшиғини саҳнага айланиб бағри куйган машуқа тимсолида маромига етказиб ижро этади. Бу ҳам халқ миллий қўшиқларининг улуғланишидир. Бундан хулоса шуки режиссиёр спектаклнинг образли ечими, ғоявий мазмуни, эмотционал таъсири мукаммал бўлиши учун мусиқий ечимни хал қилиш лозим эди. Спектаклдаги ҳар бир образлар ўзига характер топаолган ва саҳна безаклари декоратция, мусиқа, грим, либос, реквизитлар, нур ва ранглар спектаклнинг умумий темпоретимини янада оширган, замонавийлик нўқтаи назаридан қаралганда ёшларларнинг чуқур мулоҳаза қилишга ундайдиганлиги билан аҳамиятлидир. Агар асар устида кўпроқ ишланса, мунтазам равишда репетициялар ўзлуксиз давом этса, янги –янги ғоялар топилмалар билан бойитилса ўйлаймизки миллий режиссуранинг профессионал даражада кўтарилишига замин яралади. Шахс ва замоннинг янги муносабатлари театр санъати соҳасида ўзига ҳос реал бадий ифодасини топа бошлайди. Натижада театрга ташриф буюрганлар учун нафақат актёр яратган характерни, балки режиссиёр талқин қилган замоннинг саҳнавий бадий образини кўриш имконияти пайдо бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

- 1.Т.Баяндиев, Т. Исломов. Жаҳон театр тарихи.-Т.:ЎзДСМИ.2008 й.
- 2.М.Умаров. Т.Юлдашев. Режиссиёрлик ва актёрлик санъати асослари.-Т:.”.....” 2018 й.
- 3.Т.Турсунов. XX аср ўзбек театри тарихи.-Т:.”ART PRESS”Co.Ltd 2010 й.
4. С.Турсунбаев.Ф. Абдувоҳидов.Театр тарихи.-Т:.”Турон-Иқбол” 2018 й.

5.М.Қодиров. Ўзбек халқ томоша санъати.-Т.:”Ўқитувчи” 1981 й .

6.Театр журнаи, 2008йил 3сон, 4 б.

Интернет сайтлар:

Ziyouet-Ўзбекистон таълим портали.

Театр.ўз

ФИО авторов: Санаева Сугдиёна Исматуллаевна, Хайдарова Зиёда Исроил қизи
студентки 1 курса Термезского государственного университета

Название публикации: «ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ
РУССКОГО ЯЗЫКА»

Аннотация: Русский язык и литература являются необходимыми предметами для любого ученика. Но, к тому же, эти предметы можно назвать сложными для восприятия. На уроках русского языка и литературы приходится много размышлять, думать, сопоставлять, а также усиленно вкладывать свои знания и умения. В статье рассматриваются технология игр, которые используются на уроках русского языка и их значение.

Ключевые слова: технология, игры, пользоваться, задача, учитель, речь.

Одним из направлений данного процесса является применение игр в ходе новейших средств обучения – мультимедийных электронных образовательных ресурсов. Одной из центральных проблем преподавании русского языка считается совершенствование игровых технологий. [3] С помощью устной или письменной речи люди общаются ежеминутно, ежесекундно. Задача учителя – сделать эту речь правильной. А это возможно лишь при одном условии: когда урок интересен! Но как сделать стандартный урок русского языка интересным, занимательным и любимым предметом для ребёнка? Ответ на этот вопрос существует, и он прост – это игра!

В настоящее время особое внимание стали уделять развитию творческой активности и интереса у школьников к предметам. Проводятся различные конкурсы, чемпионаты, олимпиады. Это говорит о том, что принцип активности ребёнка в процессе обучения был и остаётся одним из основных в дидактике. Под этим понятием подразумевается такое качество деятельности, которое характеризуется высоким уровнем мотивации, осознанной потребностью в усвоении знаний и умений, результативностью и соответствием социальным

нормам. Такого рода активность сама по себе возникает нечасто, она является следствием целенаправленных управленческих педагогических воздействий и организации педагогической среды, т.е. применяемой педагогической технологии.

Любая технология обладает средствами, активизирующими и интенсифицирующими деятельность учащихся, в некоторых же технологиях эти средства составляют главную идею и основу эффективности результатов.

К таким технологиям можно отнести игровые технологии. Именно их мы будем использовать в будущем на уроках русского языка. Цель игровых технологий – приобрести конкретные навыки, закрепить их на уровне моторики, перевести знания в опыт. Так как мы еще начинающие педагоги, являясь молодыми специалистами, то постараемся постоянно совершенствовать и углублять знания по теории и методике преподаваемого нами предмета, пополняя свою копилку методической литературы, постараемся использовать новые технологии в своей работе.

Игровые технологии: определение, функции, классификация

Тема самообразования, взятая нами, звучит так: «Игровые технологии на уроках русского языка и литературы». К данной теме мы обратились в связи с тем, что столкнулись со снижением интереса к учебной деятельности, а в частности, к преподаваемым нами предметам. Современных детей больше интересуют компьютеры, а значит, что рассуждать и производить мозговые операции для них уже не совсем актуально. Пересмотрев ряд технологий, мы остановились на игровых технологиях, потому что они способствуют развитию познавательной активности на уроках и привлекают детей к расширенному рассуждению на уроке.

Игры - упражнения близки к обычным упражнениям. Материалом для них служат не развлекательные шарады и загадки, а обычные учебные упражнения, только преподносимые особым образом. Обычно дети получают задания

довольно трудные и скучные, но необходимые для закрепления знаний по грамматике, для выработки прочных орфографических навыков. И здесь игровая форма работы помогает им преодолеть трудности.

Игровые технологии мы будем использовать как в 6-ых, так и в 7-м классах. Нам как учителю русского языка и литературы приходится почти каждый день решать задачу: как заинтересовать ребят? Как сделать так, чтобы уроки не проходили однообразно и скучно? Программа предусматривает 6 часов (6 класс) и 5 часов (7 класс) русского языка в неделю (больше, чем отводится на другие дисциплины), обилие новых тем и орфограмм. Для нас важно сделать почти ежедневные встречи с фонетикой, морфологией, синтаксисом не скучными и обыденными, а радостными и интересными. Вот здесь на помощь приходят уроки - игры, уроки - путешествия в страну «великого и могучего» русского языка. Разумно и уместно используя подобного рода уроки наряду с традиционными формами, учитель увлекает детей и тем самым создаёт почву для лучшего восприятия большого и сложного материала.

Мы убедились, что на таких уроках ученики работают более активно. Особенно радует, что те ученики, которые учатся неохотно, на таких уроках работают с большим увлечением. Если же урок построен в форме соревнования, то, естественно, у каждого учащегося возникает желание победить, а для этого они должны иметь хорошие знания (ученики это понимают и стараются лучше подготовиться к уроку). После каждого подобного урока мы думаем услышим от детей фразу: « Давайте ещё поиграем», что свидетельствует об успешности урока.

Использовать игровые технологии можно не только в среднем звене, но и на любой ступени обучения. Конечно же, в старших классах подготовка такого урока потребует от учителя больших затрат времени. Но это оправдывается, когда учитель увидит, с каким азартом работают дети.

ИСПОЛЬЗУЕМАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бондаренко А. К. Матусик А. И. Воспитание детей в игре. — М.: Просвещение, 1983
2. Крупяк А. В. Использование игровых технологий в процессе обучения младших школьников морфологическим операциям // Образование и воспитание. — 2017. — №1.1.
3. Шадиева Д. К. ОРГАНИЗАЦИЯ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВУЗАХ //Гуманитарный трактат. — 2019. — №. 43. — С. 40-41.

ФИО автора: Ахмедов Самариддин Абилғозиевич

Тошкент ислом институти ўқитувчиси

Тошкент давлат шарқшунослик университети магистранти

Название публикации: «АРАБ ВА ЎЗБЕК ТИЛИДАГИ ОЛМОШЛАР ҚИЁСИ»

Аннотация: Ушбу мақолада араб тилидаги олмошлар мавзусини ўзбек тилидаги олмошлар билан қиёслаб ўрганиш хусусида мулоҳазалар киритилган.

Калит сўзлар: бирлик, иккилик, кўплик, музаккар-муаннас.

Ҳар бир тилда сўзларни шакиллантириш ва қуришда ўзига хос қоидалар мавжуд. Кўпинча икки тил ўртасида ўхшаш ва фарқли жаҳатлари мавжуд бўлиб, ўзга тилни ўрганган киши ўз она тили ва бошқа тил ўртасидаги ўхшаш ва фарқли жиҳатларини имкон қадар билишлиги керак бўлади. Араб тили жаҳонда энг кенг тарқалган тиллардан бири бўлиб, дунёдаги тиллар ичида кўп ўрганилган ва ҳануз ўрганилаётган тил ҳисобланади. Луғат бойлиги ҳамда қоидаларининг турли-туманлиги, бир сўзни бир неча услубда ишлатиш имкониятларининг кўплиги, комиллиги билан бошқа тиллар ичида ажралиб туради. Балки, дунёда шеваларининг жуда кўплиги билан ҳам аввалги ўринни эгаллайди. ЮНЕСКО ахборотига кўра, ҳозирги кунда 5600 дан ортиқ тил ва шивалар мавжуд.

Араб тили ушбу тиллар орасида тўртинчи ўринни эгаллайди ва дунёда 500 миллиондан ортиқ киши сўзлашади. Шунингдек араб тили Бирлашган миллатлар ташлилоти кенгашларида иш юритиш учун қўлланиладиган етти тилнинг биттаси араб тилидир. Араб тили асосан араб давлатларида ҳамда кўплаб, Туркия, Гана, Еритрея, Ефюпия, Жанубий Судан, Эрон, каби қўшни мамлакатларда тарқалган. Араб тили нафақа араблар учун балки бутун дунёдаги барча мусулмонлар учун ҳам муҳимдир. Ўрта Осиёга ислом дини тарқалиши

билан араб тили ҳам кириб келди. Ўша даврда араб тилини билмасдан киши юксак маърифат эгаси бўлиши мушкул эди.

Keywords: object, buildings, reconstruction, national architecture, element, modern fountain, landscaping, beautification, square, monument of goodness, majestic, white corridor, marble column, square composition.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz poytaxti - Toshkent shahri ham tom ma'noda kundan kunga rivojlanib, o'zgacha chiroy ochdi. Toshkentda ko'plab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, turar-joy binolari, madaniy-maishiy obyektlar, maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, bolalar sport

maskanlari, banklar, bozorlar, to'yxonalar, supermarketlar, minimarketlar va boshqa xildagi binolar va inshootlar bunyod etildi. O'nlab bog'lar, oromgohlar va dam olish maskanlari yaratildi. Toshkentning eski shahri ham yanada ko'rkamlashdi. Toshkent shahrining obro'- e'tibori butun dunyoga taralib «Sharq darvozasi» deb tan olindi.



O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining tashabbusi va bevosita rahbarligida mazmunan va shaklan tamomila yangi Mustaqillik maydoni barpo etildi. Bu yerda keng ko'lamdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi binolari tubdan rekonstruksiya qilindi. O'zbek milliy me'morchiligining elementlarini o'ziga jo etgan salobatli Senat binosi O'zbekiston poytaxtining Bosh maydoniga o'zgacha me'moriy mazmun baxsh etdi, Senat, Vazirlar Mahkamasi va Moliya vazirligi binolari birgalikda maydonning me'moriy kompleksini shakllantirdi. Maydon kompozitsiyasi takrorlanmas tashqi qiyofaga ega bo'lib, arxitektura kompozitsiyasining markazini tashkil etdi.

Mustaqillik maydonidagi, Senat binosi Bosh maydonga kiraverishda «Ezgulik arkasi» bunyod etildi. O'n olti marmar ustunni tutashtirib turgan mahobatli arka tomon eltuvchi oppoq yo'lak tepasida charx urayotgan turnalar, behadik laylaklar katta ma'noni ko'zlab ishlandi. Istiqlolning dastlabki kunlarida o'rnatilgan yer sharining ramziy timsoli - «Mustaqillik monumenti» dunyoda O'zbekiston degan yangi davlat paydo bo'lganining, o'zbek xalqini chin ozodlikka erishganinig yorqin ifodasi bo'ldi.



Mamlakatning Bosh maydonida joylashgan tubdan rekonstruksiya qilingan Moliya vazirligining zamonaviy binolari Mustaqillik maydoni. O'n olti ustunli Ezgulik arkasi O'zbekiston Respublikasining yoshlik belgisi, ezgulikning ramzi sifatida ushbu monument ona bilan bola aks ettirilgan «Baxtli ona» bronza haykali bilan boyitildi. Mustaqillik va ezgulik monumenti bosh maydonga o'zgacha fayz kiritdi. Bosh maydondagi Mustaqillik va ezgulik monumenti Ezgulik arkasi maydonining yangi mazmunini kashf etdi, u mustaqil O'zbekistonning pok va ezgu maqsadlarining ramzi boldi. Maydon obodonlashtirildi va ko'kalamlashtirildi, gullar va yam-yashil maysazorlarga bo'lindi. Mikroiklimni yaxshilash maqsadida ko'plab favvora yaratildi. Mustaqillik maydonida qurilgan zamonaviy favvoralar, quyidagi poytaxt bosh maydonining tarixiy rivojlanishiga oid tasvir keltirilgan bo'lib, unda bu maydonning 1950, 1960. 1970-yillardagi holatlari va 2005-yildagi chiroy ochgan davri tasvirlangan. Poytaxt bosh maydonining tarixiy rivojlanishiga oid lavha Mustaqillik maydonining shimol tomonida Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan vatandoshlarimizga bag'ishlangan Xotira maydoni Motamsaro ona haykali bilan barpo etildi.

Noyob me'moriy yechimda bezakli ishlangan Xotira maydoni. Bir qismining umumiy ko'rinishi. Bosh maydon ezgulik arkasining shimoli-sharq tomonida 10 yillab qurilishi tugallanmagan bino o'rniga ko'p qavatli baland zamonaviy biznes-markaz binosi bunyod etildi Tashkent shahridagi biznes-markaz binosi (orqadagi baland bino) Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'ni tashkil etilishi munosabati bilan (1991—1994-yillar) Toshkent shahrining markaziy maydonlaridan biri to'la rekonstruksiya qilindi. Bu yerda Mustaqillik va Navro'z bayramlari tadbirlari

tantanali ravishda o'tkaziladigan bo'ldi. Bog' manzarasi sun'iy ko'l bilan yanada go'zallashdi va so'limlashdi.



Bog'ni rekonstruksiya qilishdan maqsad aholi va shahar mehmonlarini dam olishi uchun odatiy qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat edi. Davlatimiz Prezidenti takliflariga ko'ra bog'ning g'arb tomonida, ya'ni tinch dam olish joyida tasviriy va amaliy san'at, kiyimlar modelini ko'rgazma qilish va boshqa maqsadlar uchun ko'rgazma paviloni bunyod etildi Alisher Navoiy nomli milliy bog'ning umumiy ko'rinishi. Alisher Navoiy nomli milliy bog'da ko'rgazma paviloni, Pavilon to'g'ri burchakli ayvon tipidagi inshoot bo'lib, perimetrlari bo'yicha yog'och ustunlarga o'rnatilgan. Atrof-muhit bilan aloqani yaxshilash va xonalarni yorug' qilish maqsadida inshootning tashqi devorlari o'rniga vitraj qo'llanildi.

Toshkent shahridagi zamonaviy o'ziga xos me'moriy yechimdagi akvaparkning umumiy ko'rinishi Bog'-rog' yaratish san'atining an'anaviy yechim usullariga murojaat qilish boshqa joylar shaharsozligidan ham o'rin egalladi. Andijonda «Bog'i Bobur», Urganchda Amir Temur va shoirlar bog'lari, Namanganda Bobur skveri, Qo'qonda Muqimiy va Furqat nomli bog'lar, Navoiy shahrida Alisher Navoiy nomli, Buxoroda Somoniy nomli bog' va Madaniy markaz shular jumlasidandir. O'zbekistonning zamonaviy shaharlarida, xususan ularning loyihalarida sifat jihatdan yangicha yechim - tabiiy muhitni landshaft bilan boyitish masalasiga katta e'tibor berildi Vatanimizda ko'plab oromgohlar yaratildi. Jizzax shahrida sun'iy soy bo'yidagi «Istiqlol» bolalar bog'i noyob shaklda suv havzasi bilan birga bunyod etilgan. Andijon shahri amfiteatrining umumiy ko'rinishi, Bo'stonliq tumani Chorvoq sohilida barpo etilgan «Piramida» mehmonxonalar kompleksi, Jizzax shahridagi Soliq inspeksiyasi

binosi Mamlakatimiz shaharlarida ko'plab zamonaviy bank binolari qurilib, foydalanishga topshirildi.

Toshkent shahridagi zamonaviy uslubda ishlangan banklar assotsiatsiyasi binolarining umumiy ko'rinishi, Buxoro shahridagi zamonaviy uslubda ishlangan yoy shaklidagi sanoat - qurilish banki binosining umumiy ko'rinishi, Guliston shahridagi Asaka banki binosining bosh fasadida me'morchilik elementlaridan foydalanilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti bozorlar qurilishi ishlariga jiddiy e'tibor berdilar. Natijada barcha shaharlar va tumanlarda zamonaviy bozorlar komplekslari qaror topdi. Namangan shahridagi Jahon bozorining kirish qismida ham qo'llanilgan. Mustaqillik sharofati bilan Toshkent shahrida metroning ko'plab bekatlari (masalan, Yunusobod yo'nalishida oltita bekat) ishga tushirildi. Mamlakatimizning barcha shaharlarda turar-joy va yangi - yangi jamoat binolari, savdo inshootlari, oshxona, choyxona, to'yxonalar, sport komplekslari qurish, servis xizmati ko'rsatish, mahsulotlar ishlab chiqarish va

Boshqa turdagi maishiy xizmat obyektlari bunyod etish ishlari rivoj topdi.

Masalan Zamonaviy qurilish materiallaridan Buxoro shahrida bunyod etilgan o'ziga xos uslubdagi shaxsiy turar-joy binolaridan birining bosh fasadi, Toshkent binolaridan birining umumiy ko'rinishi Ularning soni ko'pligi sababli hammasini bitta kitobda keltirishning imkoniyati bo'lmadi.



Biroq, yuqorida bayon etilgan fikrlar va keltirilgan misollardan ko'rinadiki, mustaqillik davrida O'zbekiston milliy me'morchilik san'ati juda tez sur'atlar bilan yanada o'sdi, arxitekturaning yashiringan yangidan-yangi qirralari kashf etildi.

Me'morlar shaharlarni yanada ko'rkam qilish, binolar va inshootlarning zamonaviy va an'anaviy yechimlarini uyg'unlashtirish yo'lida tinimsiz ijod qildilar. Ular izlanishlar olib borib, betakror loyihalar yaratdilar va yaratmoqdalar. Arxitektorlar, muhandislar, binokorlar va xalq ustalarining ijodiy hamkorligi yangi pog'onaga ko'tarildi. Yurtimizda haqiqiy arxitektura asarlarini, binolar va ularning



komplekslarini barpo etib va loyihalab, Vatanimizning yanada obod bo'lishida kattadan katta hissa qo'shmoqdalar.

Kelgusida O'zbekiston milliy me'morchiligini yanada rivojlantirish, arxitekturada mahalliy shart-sharoitlarni to'la hisobga olish, qadimiy shaharlarimizning afsonaviy qiyofalarini tiklash maqsadida Yurtboshimizning bevosita tashabbuslari bilan avval ochilgan Toshkent arxitektura-qurilish va Samarqand davlat arxitektura-

qurilish institutlari qatorida, Xiva davlat universiteti va Buxoro texnologiya instituti tarkiblarida arxitektura –qurilish fakultetlari tashkil qilindi. Ushbu fakultetlar ham yosh arxitektorlarni amaliyotga yetkazib berish va tarixiy me'morchilik maktablarini qaytadan tiklash borasida samarali faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda hozirgi vaqtda rivojlangan demokratik mamlakatlar arxitekturasi yutuqlarini hisobga olgan holda, zamonaviy qurilish materiallari (metall, beton, g'isht, yog'och, plastik, shisha singari zamonaviy materiallardan) va konstruksiyalaridan oqilona foydalanib. yangicha binolar va inshootlar barpo etilmoqda, rekonstruksiya ishlari rivojlanmoqda, me'moriy yodgorliklar restavratsiyasi tubdan yaxshilanmoqda.



Milliy shart - sharoitlar, demografik holatning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olib, an'anaviy zamonaviy uslublarni mohirona uyg'unlashtirib kelayotgan me'morlar va xalq ustalari, an'anaviy va zamonaviy konstruksiya va materiallarni qo'llab ish ko'rayotgan muhandislar ko'paymoqda.

O'zbekiston milliy me'morchiligi va binokorligining ravnaqi, Vatan obodonchiligi yo'lida ijodiy faoliyat ko'rsatmoqdalar. Tinimsiz izlanishlar olib borib, vaqt zilzilasiga bardosh beradigan. Keyingi avlodlarga ham xizmat qila oladigan mustahkam, g'ururlansa arzigulik yangidan- yangi binolar va inshootlar, ularning ansambllarini yaratish, shahar va qishloqlarimizning yanada ko'rkam va obod qilish yo'lida ijodiy mehnat qilmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyolar ro'yxati:

1. **Мирзиёев Ш.М.** Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. - Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.
2. **Ислон Каримов** Биздан озод ва обод ватан қолсин 2 ISBN 5-640-02098-5 Тошкент «Ўзбекистон». 1996.
3. **Аскарлов Ш.Д.** Архитектура Узбекистана и стран СНГ. Ташкент-2012.
4. **Аскарлов Ш.Д.** Генезис архитектуры Узбекистана. Ташкент-2014.
5. **Исамухамдова Д.У., Адылова Л.А.** «Шаҳарсозлик асослари ва ландшафт архитектураси». Дарслик. 2-қисм., Тошкент, 2009.

ФИО авторов: ¹Шахноза Дехконова Юлбарсовна, ²Навруза Юсупова Равшанбек кизи, ³Хурсаной Болтабоева Содикжон кизи

¹Андижон қишлоқ хўжалиги ва агро технологиялар институтининг ассистентини

²Андижон қишлоқ хўжалиги ва агро технологиялар институтининг магистрантини

³Андижон қишлоқ хўжалиги ва агро технологиялар институтининг талабасини

Название публикации: «ТОПИНАМБУРНИНГ АГРОБИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ, КИМӨВИЙ ТАРКИБИ ВА АҲАМИЯТИ»

Аннотация:

Тапинамбур ўсимлигининг етиштиришнинг тўғри ташкил этиш шифобахшлик хусусиятига кўра шифобахш сабзот экинлари, хусусан илдизмева маҳсулотларида етакчи ўринни эгаллашлиги билан ажралиб туради. Бу етиштирилаётган илдизмева агробиологик ва кимёвий хусусиятлари ва таркибининг ўрганиб ундан олинаётган шарбат шифобахшлик хусусиятлари ҳамда доривор ўсимликлиги билан алоҳида аҳамиятга эга.

Калит сўзи: Тапинамбур нави, шифобахш хусусияти, ўлчамини, агробиологик хусусиятлари, кимёвий таркибининг.

Кириш:

Юртимизда қишлоқ хўжалигининг маҳсулотларининг етиштириш йилдан йилга ортиб бормоқда. Бу ўринда айниқса шифобахш сабзот экинлари, хусусан топинамбур илдизмева маҳсулотлари етакчи ўринни эгаллайди. Бироқ бу етиштирилаётган илдизмева маҳсулотларининг кимёвий таркибининг ўрганилмай келинмоқда ҳамда улардан тайёрланаётган маҳсулотларининг турлари ҳам кам. Саноат корхоналарининг маҳсулот билан таъминлаш мақсадида 2018 йилда Вазирлар Маҳкамасининг махсус Қарорини қабул қилиниб, бунга кўра Республика буйича 575 гектар, жумладан, Қорақалпоғистон Республикасида 110 га, Андижон вилоятида 110 га, Қашқадарё вилоятида 100 га, Тошкент вилоятида 125

ва Наманган вилоятида 130 гектар майдонга топинамбур экилиши режалаштирилиб, бугунги кунда ушбу режа амалга оширилмоқда. Асосий озик-овқат маҳсулотлари билан биргаликда доривор ва зиравор ўсимликларни етиштириш соҳасини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилиб келинмоқда.[4]

Топинамбур ўсимлиги барча тупроқ хусусиятига эга бўлган шароитларда ҳам ўса олади. Бироқ маҳсулот сифатини сақлаш учун бунга алоҳида аҳамият бериш талаб этилади. Доимий суғориладиган бўз тупроқли майдонларда тупроқни зичланиш даражаси дала нам сифими бўлганда ўсимликни 27см^2 квадрат озикланиш майдонидаги тупроқни зичланиш даражаси 100 см^3 кубни ташкил этиши ҳисобиги ҳосилдорлик кескин камаяди, маҳсулот сифати 45-50% гача (илдизмеваларини шакли нуқсонли, нотекис, ғадир-будир бўлади) пасайиши кузатилади.

Топинамбур туганакларини тез ва тўлиқ униб чиқишини таъминлаш мақсадида тупроқ ва об-хаво шароитига кўра зарурият бўлганда биринчи сув яъни уруғ суви берилади, ҳар-бир суғоришни меъёри тупроқнинг сув ўтказувчанлиги, нам сақлаш қобилиятига кўра ўртача 450-500 метр кубдан ошмаслиги шарт. Бунда тугунаклар жойлашган тупроқни остки қисми 8-10 см қатлами нам ҳолга келиши кифоя қилади.

Тугунаклар ердан текис униб чиққандан сўнг биринчи ишлов яъни қатор оралиги чопилиб, культивация қилинади. Ўсимлик 40-45 см баландликка етганда иккинчи ишлов яъни иккинчи чопик ва иккинчи культивация ишлари амалга оширилади.

Зарурий ҳолатлар (тупроқ унумдорлиги ута паст бўлса) да 100 кг/га азотли ўғит, 200 кг/га фосфорли ўғит 20-25 тонна майдаланган органик ўғитга аралаштириб культивация даврида берилади. Занг касаллигига 1 % ли бордос суюклиги тайёрлаб сепилиши мақсадга мувофиқдир. Бунинг учун 5 литр сувда 100 грамм

сўндирилган охак олиб эритилади ва сут ҳолига келтирилади. Иккинчи сирланган идишдаги 5 литр сувга 100 гр мис кўпориси солиниб эритилади. Аралашма 10 литр ҳажмга эга бўлган идишга (эра ёки бошқа сепиш аппаратларига) олдин охакли эритма филтрланиб қуйиладисўнгра мис кўпориси эритмаси аста секин қуйилади. Эритма ранги тук хаво ранг ҳосил қилади. ОВХ пуркаш агрегатлари учун ҳам эритмалар шу тарзда тайёрланиб фойдаланилади. Бунинг учун ОВХ-4 агрегати сув сиғими 400 литр бўлса эритма тайёрлаш учун 4 кг мис кўпориси ва шунча миқдорда сундирилмаган охак сарфланади.

Ўсимликни суғориш, суғориш меъёрлари ва муддатларини белгилаш муҳим агротехник тадбир бўлиб, у маҳсулотни мул ва сифатли ҳосил етиштиришни таъминлайди. Бунинг учун тупроқ унумдорлиги унинг таркибий тузилишини эътиборга олган ҳолда суғориш меъёрлари белгиланади.

Тадқиқот услублари ва мақсади: - Бугунги кунда шифобахш дорвор ўсимликларни етиштиришда фермер, деҳқон ва кластерлар томонидан етиштирилаётган топинамбурни мақбул агротехнологияларни ишлаб чиқиш муҳим масалардан бири бўлиб ҳисобланмоқда. Топинамбурнинг агробиологик хусусиятлари Топинамбур-кўп йиллик утчил сабзавот ўсимлиги бўлиб, вегетация давомида 2,0-4,8 метр баландликкача усади. Поя тузилиши кунгабоқар ўсимлигига ухшайди. Гуллари сарик, саватчасимон бўлиб, 6-10 см диаметрни ташкил этади, август-сентябр ойларида тўлиқ гуллайди, илдизмеваси ноябр ойида ердан униб чиққандан бошлаб 260-270 кунда пишиб етилади. Топинамбур ўсимлиги ёругсевар, кургокчилик ва шўрга чидамли, ортиқча меҳнат талаб этмайдиган ўсимлик ҳисобланади. Илдизмевалари -35-40С совукка чидайди, меванинг тузилиши цилиндрсимон, ноксимон, юмалок шаклда, ранги оқ, сарик ёки сафсар тусли бўлади, эти нафис, сувли, таъми ўзига хос хушбуй хидга эга.

Топинамбур туганаклари кимёвий таркибида 3,2-5,4% оксил, 16-18% энулент, 0,86% азот, сувда эрувчи витаминлар ва Fe, Cu, Mg каби макроэлементлар, 17 ҳил аминокислоталар мавжуд бўлиб, улардан валин,

гистидин, изолеэтин, теитин, лизин, метинон, треонин ва фениланин каби аминокислоталар алмаштириб бўлмайдиган аминокислоталар ҳисобланади.

Топинамбур оксили амнокислота таркиби бўйича биологик фаол ва юқори тўйимлилиги билан характерлидир.

Топиламбур асосий функционал актив ингредиентлари сифатида инулин ва пектин моддалари ажралиб туради.

Топиламбур тугунчагида инулин миқдори 8-20% ни ташкил этади. Инсулин ($C_3A_{10}O_5$) n – полисахаридозлар группасига оид органик модда, фруктоза полимери ҳисобланади.[4]

Таркибида инсулин моддасининг кўплиги ва унинг организмда тез сингиши қандли диабет билан оғриган беморларлар учун турли ҳил пархез озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун ҳам хомашё сифатида фойдаланиш имкониятини яратади. Топинамбурнинг илдизмеваси, ёш барги, гули ва новдаларидан қандли деабед хафақонлик, ўпка сили, атеросклероз, камқонлик, айрим териш ва буғин касалликларини даволашда фойдаланиб келинмоқда. Қандли диабет билан оғриган беморларнинг кундалик овқатланиш тартибига топинамбурнинг киритилиши қон таркибидаги қанд миқдорини доимо бир ҳил меъёрда сақлаб туриш билан бир вақтда организмни зарур витамин ва минерал моддалар билан таъминлаш оркали ташқи муҳитга чидамлилигини оширади. Шунингдек, ундан мазали турли ҳил салатлар тайёрлаш мумкин. Саноатда инулин, пектин, фруктоза, целюлоза, этанол, бутанол спиртлари ва шифобахш шарбатлар ва консерва маҳсулотлари ишлаб чиқаришда хомашё сифатида фойдаланилади. Кўк пояси парандачилик ва балиқчилик, асаларичиликда озуқа сифатида ишлатилади. Қоғоз фабрикасида қоғоз, картон ишлаб чиқаришда целелоза олиш учун фойдаланилади. Шу сабабли АКШ, Канада, Бразилия, Австралия, Тайландда биоэтанол, биодизел ёкилгилар куллаш кўпаймоқда. Энергия таъминоти давлат хавфсизлиги масаласига киради. Шу сабабли ўсимлик маҳсулотларидан ёкилги олишга катта эътибор берилмоқда. 30 тоннадан 2500-

3000 литр этил спирти олиниши ва уни бензин билан алмаштириш мумкин. Топинамбур ўсимлиги туганагидаги кимёвий моддаларни аниқлаш учун «Файз барака» ва «Муъжиза» навларини 3 такрорийликда поя ва мева намуналари олиниб, уларда куруқ модда протеин, кличатка, ёғ, азотсиз бўлмаган моддалар вакул микдорлари методикага асосан институт кимё лобараториясида аниқланди (1.1.1 жадвал)

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси: Андижон вилояти шароитида ўстирилган топинамбур ўсимлигида поясида ўртача 19,4 % куруқ модда, 9,8% протеин, 18,9% клейчатка, 1,8 ёғ, 54,6 азотсиз экстракт моддалар бўлса, уни туганагида 23,9%гача куруқ модда, 11,8% протеин ва 85,3%гача азотсиз экстракт моддалар борлиги аниқланди. Бу кўрсаткичлар «Файз барака» навида саноат учун муҳим бўлган кўрсаткич ундаги куруқ модда микдори 25%гача, хом протеин 12,3%гача бўлиши бу навнинг ўзига хос такрорланмас хусусиятидир. Вилоятимизда етиштирилган тапинамбур ўсимлигининг илдизмеваларидаги дармондорилар микдори бошқа ҳудудларда етиштирилган маҳсулотлардан деярли фарқи йўқ

1.1.1-жадвал

Топинамбур ўсимлиги таркибидаги кимёвий модда микдори, %.

Нави	Вариантлар	Куруқ мода	Про- теин	Килет- чатка	Ёғ	Азотсиз моддалар	Кул микдори
«Файз барака»	Поясида	20,2	10,1	19,1	1,9	55,4	13,4
	Туганагида	25	12,3	6	1	86,4	15,4
«Муъжиза»	Поясида	18,4	9,6	18,7	1,7	53,9	12,6
	Туганагида	22,8	11,4	4,9	1,2	84,2	16,2
Ўртача	Поясида	19,4	9,8	18,9	1,8	54,6	13,0

	Туганагида	23,9	11,8	5,4	1,1	85,3	15,8
--	------------	------	------	-----	-----	------	------

ХУЛОСА:

Ушбу мақола янги тур шифобахш шарбат маҳсулотларини ишлаб чиқиш, қандли диабет хасталиклари билан касалланган беморлар учун пархезли ичимликлар етказиб бериш ва уларни даволаш билан аҳамиятлидир

Ўрганилган топинамбур ва бошқа илдизмевалардан кимёвий таркибини урганилганда шифобахш хусусиятлари ичимликлар тайёрлашда яратилаётган тайёр маҳсулот шифобахшлик хусусияти юқори хисобланади .

Топинамбур қандли диабет панкреатит, ичакларни яллиғланиши ва гипертоник кассаликларга даводир. Озиқ- овқат истеъмол қилишга яроқли хусусияти жихатидан топинамбур картошкadan қолишмаслигини хисобга олиб, вилоятимизда кенг майдонларда етиштиришни амалга оширилиши керак. Топинамбур илдизмевасининг таркибида 39, 41% шарбат чиқишини хисобга олган ҳолда саноатда кенг қамровда ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш зарур. Ушбу маҳсулотларни ишлаб чиқариш корхона учун яхшигина даромад келтирибгина қолмай, балки аҳолини дори дармонга бўлган талабини қондиришдан иборат.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. “Ўзбекистон” нашриёти, Тошкент-2017,

2 Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар Стратегияси” фармони. Халқ сўзи газетаси. 8-февраль 2017й.

3. Мирзиёев Ш.М. “Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик- ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак”.

Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий - иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устивор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза, 2017 йил 17 январь.- Тошкент: - “Ўзбекистон”, 2017. -104 б.

4. Абдуллаев Ш.В., Ер нок. Наманган 2010 й.

5. Батурин А.К. Химический состав и энергетическая ценнопищевых продуктов. Профикс, 2003г.

6. Бўриев Х., Ризаев Р. Мева-узум маҳсулотлари биокимёси ва технологияси. – Т.: Меънат, 1996 й.

ФИО автора: Касымова Наргиза Дилмуратовна

Преподаватель Андижанского государственного медицинского института,
кандидат психологических наук

Название публикации: «ФОРМИРОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА КОМПЛАЕНСА У МОЛОДЫХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА»

Аннотация. В статье изложены сведения о вопросах компетентной деятельности молодых преподавателей и студентов высших медицинских учебных заведениях, а также даны методические рекомендации формирования психологического механизма комплаенса.

Ключевые слова: компетенция, комплаенс, коммуникация, деятельность, некомплаентность, интерактивность, перцепция, обучение.

Аннотация. Мақолада Тиббиёт олий ўқув юртиниш ёш ўқитувчилари ва талабалариниш коммуникатив фаолияти, шунингдек, комплаенс психологик механизмларини шакллантириш бўйича методик тавсиялар берилган.

Таянч сўзлар: компетенция, комплаенс, фаоллик, комплаенсга мос келмаслик, коммуниктив, интерактив, перцептив томонлар, ўрганиш.

Annotation. The article provides information on the issues complement activity of young teachers, and students of higher medical educational institutions as well, as gives methodological recommendations for the formation, of a psychological mechanism of compliance.

Key words; competence, compliance, communication, activity noncompliance, interactivity, perception, learning

Подготовка высоко компетентных специалистов в высшей школе актуализирована в документе «Обеспечение здравоохранения» (утвержден Указ Президента Узбекистана от 7 декабря 2018 г. № ПП -5590- «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан на 2019-2025 года, вступила в силу с 1 января 2019г. Электронное медицинское образование ведет к изменениям в обучении специалистов, в том

числе и в области коммуникации. В высших медицинских учебных заведениях Узбекистана реализуется компетентно-деятельностный подход, согласно которому результаты обучения студентов оценивают по степени освоения универсальных и профессиональных компетенций. Коммуникативная компетенция будущего врача специалиста становится одной ведущих компетенций. У молодых преподавателей и студентов в процессе обучения должна быть сформирована универсальная компетенция. Они должны способны быть применению современные и коммуникативные технологии, в том числе на иностранном(ых) языке(ах) для академического и профессионального взаимодействия. Целью и задачей нашего исследования и есть изучить формирование комплаенса молодых преподавателей и студентов с помощью психологических методов, по итогам исследования, формировать у них механизмы комплаенса. Известно, в высшей школе при обучении будущих специалистов в других отраслях например (юристов, инженеров и др.) основные вопросы коммуникации рассматривают с позиций социализации студентов с акцентом на формирование иноязычной коммуникативной компетенции как залога профессионального успеха в ситуации глобализации. Для молодых преподавателей и будущих врачей студентов коммуникативная компетенция является, прежде всего, профессионально значимой характеристикой, поскольку деятельность специалиста неразрывно связана с общением, процессом обмена информацией, восприятием и пониманием друг-друга, или пациентов, их родственников, коллег. Лучшее восприятие ситуации и предмета общения, достижение взаимопонимания между партнерами по общению способствуют установлению доверительного контакта с больным человеком, а значит, и комплаенса (терапевтического сотрудничества). Под термином «комплаенс» (от. английского compliance - «уступчивость, податливость») принято понимать приверженность пациента к лечению, осознанное сотрудничество между врачом, больным и членами его семьи и как результат - добровольное следование рекомендациям лечащего врача. Серьёзной медицинской проблемой является некомплаентность, т.е. неприверженность режиму лечения. Отсутствие контакта между врачом и пациентом ведет к снижению комплаентности. А также, это проблема чаще встречается в обучении между преподавателями и студентами. Молодые преподаватели на занятиях владеть всеми педагогическими приёмами коммуникативной, интерактивной а также перцептивной стороной общения со студентами. Эти приёмы коммуникативной компетенции, и сеть владение коммуникативными технологиями позволяет установить высокий уровень комплаенса, который соответственно определению М.Линдена, определяет собой отношение к психологической близости, то есть сочетание комплаенса

«учитель- студент», комплаенса «учитель—общепризнанный стандарт обучения».

Взаимосвязь коммуникативного мастерства преподавателя с качеством освоения коммуникативной компетенции студентов очевидна. Лишь преподаватели высшей школы – хорошие коммуникаторы, владеющие всеми аспектами коммуникативной компетенции как совокупности лингвистической, социолингвистической, дискурсивной, стратегической компетенций, будут успешно формировать ее у студентов.

Анализ психологических и педагогических исследований свидетельствует, что учеными подробно рассмотрены структура, субъекты, виды коммуникации, уровни и барьеры общения, в том числе профессионального общения врача. Научные работы, посвященные формированию коммуникативной компетенции у студентов, структуре и содержанию, критериям коммуникативной компетентности преподавателей вузов, оставляют ряд вопросов вне поля зрения исследователей. Среди таких вопросов – и подготовка молодых преподавателей к формированию коммуникативной компетенции у студентов, лишь в единичных работах рассмотрена эта проблема в условиях до цифровой эры образования.

Дефиниция понятия «коммуникативная компетенция» присутствует в многочисленных работах исследователей – психологов, педагогов, юристов, менеджеров, причем термин рассматривается как с учетом подхода данной конкретной науки, так и в качестве объекта междисциплинарного исследования. Коммуникативная компетенция, по определению М.В.Стуриковой, представляет собой «способность обучаемого к восприятию любых высказываний и готовность к созданию своих речевых произведений в соответствии со знаниями, умениями, практическим опытом, принятыми нормами языка, личностными качествами, с использованием невербальных средств, а также умение ориентироваться в пространстве, обстановке, учитывая тему, цель, задачи, коммуникативные и этические установки; достигать результатов посредством речи». Такое значение термина «коммуникативная компетенция» ближе авторам, и его использовали в исследовании. Однако в связи с переходом к цифровому образованию, с массовым переходом к дистанционному обучению, в том числе в вузах, преподавателю необходимо также ориентироваться на формулировку термина, представленную в утвержденном официальном перечне ключевых компетенций цифровой экономики. Содержание компетенции «Коммуникация и кооперация в цифровой среде» заключается в способности человека в цифровой среде использовать различные цифровые средства, позволяющие во взаимодействии с другими людьми достигать поставленных целей.

Выявлены особенности коммуникации молодых преподавателей и студентов – медиков, которые необходимо учитывать преподавателям в образовательном процессе. Студенты-медики, изучая большой спектр научных

дисциплин в соответствии с учебным планом, осваивают научный базис, категории, терминологию каждой из них. На практических занятиях при участии в научных конференциях или иных образовательных событиях, при тестировании или при любом другом виде контроля (например, при написании истории болезни), при общении с коллегами студенты выстраивают коммуникацию с использованием профессиональных практик, при курации пациентов на клинических кафедрах студенты должны уметь установить контакт с больным человеком, простым и доступным языком рассказать ему о его заболевании, состоянии, лечении, прогнозе. В последние годы с введением первичной аккредитации выпускников вузов- врачей в чек лист стали включать вопросы профессиональной коммуникации. И, если ранее вопросы общения врача и пациента рассматривались на клинических кафедрах в фоновом режиме, то теперь перед молодыми преподавателями стоит задача с самого начала ориентировать студентов на освоение коммуникативной профессиональной компетенции в двух аспектах – научном и профессионально- бытовом. Термин «профессионально-бытовая коммуникация» предложен нами и обозначает коммуникацию на понятном и доступном языке с пациентом и его родственниками. Задача преподавателя состоит в том, чтобы разъяснить студенту значимость коммуникативной компетентности, которую рассматривают в качестве условия профессиональной подготовки специалиста. Хотя данное утверждение было высказано в исследовании С.Н.Захаровой относительно студентов педагогического вуза, справедливо будет экстраполировать его при обучении студентов медицинского вуза.

Анализируя современное состояние подходов к формированию коммуникативной компетенции студентов в научной педагогической литературе и практику их реализации в медицинском институте, можно выявить основные методы и технологии, применяемые преподавателями. Структурными единицами коммуникативной компетенции, как и любой другой, выступают знания и умения. Теоретические основы коммуникации студенты-медики получают при изучении дисциплины «Психология и педагогика» знания о ценностно-смысловом значении профессиональной коммуникации в медицине получают при освоении дисциплин «психология медицины». Умения профессиональной научной коммуникации обучающиеся осваивают на теоретических и клинических кафедрах при ответах на вопросы, беседах в парах, в групповых дискуссиях на семинарах, при выступлении с подготовленной заранее речью и с не подготовленной заранее речью, при этом преподаватели широко используют интерактивные методы обучения, технологии формирования критического мышления, технологии проблемного обучения. Практическая подготовка студентов медиков к собственно общению с пациентами включает два этапа, порой последовательных, порой параллельных: 1) наблюдение за стилем профессиональной коммуникации преподавателя –

врача с больными на занятиях, при проведении мастер-классов(клинический обход профессора, заведующим отделением); 2) осуществление профессионального общения студентами в ходе ролевых и деловых игр, при отчете о решенном веб-квесте, при мини курации, когда в роли пациента выступает другой студент. А уже на практике или на практических занятиях студенты получают опыт реального общения с пациентами.

Рекомендация. Упражнение. “Процесс обучения”.

Это упражнение помогает участникам формировать комплаенс, проанализировать получения знаний и дает возможность двигаться дальше. Описанным здесь способом можно работать с разными понятиями (например, справедливость, природа, бессилие итд.) Данное упражнение посвящено теме «Здоровье».

Инструкция. Я хочу показать вам очень простой способ, который можно использовать для упорядочивания своих мыслей.

Вы сможете сопоставить три разных аспекта ваших знаний: что вы узнали о проблеме здоровья от других, что вы узнали из своего опыта и что еще вы хотели бы для себя прояснить.

Для этого возьмите чистый лист бумаги и разделите его на четыре равные части, проведя вертикальную и горизонтальную линии.

В первой кратко, в несколько словах, напишите и в символической форме изобразите, чему вас научили другие. Какое отношение к здоровью было заложено в вас воспитанием? Что вы узнали от значимых для вас людей?

Во втором прямоугольнике кратко запишите и в символической форме изобразите чему вы научились сами. К чему вы пришли на основе собственного жизненного опыта? Что вы прочитали, что узнали, наблюдая за собой и другими?

В третьем прямоугольнике кратко запишите и в символической форме изобразите, что вам еще неизвестно, что вы хотите узнать, на что надеетесь, т.е. обозначьте перспективу дальнейшего развития ваших знаний.

Четвертый прямоугольник оставьте пока пустым. В нем вы сможете изложить свои идеи, наблюдения, планы и проекты, которые будут возникать в ходе вашей работы с тремя первыми разделами, в процессе их сопоставления и размышлений по их поводу.

Упражнение -2. “Цели обучения”.

Это упражнение предназначено для извлечения на свет неосознанных желаний и представлений, касающихся перспектив учения. Оно особенно полезно в том

случае, когда участники ставят перед собой сложные цели, так как помогает им соотнести возможности человека с его намерениями. Это упражнение хорошо проводить в начале работы учебной группы.

Инструкция. Положите в середине аудитории следующие предметы; мерную ленту, толстый моток ниток, ножницы, большую нитку.

Я хочу предложить вам обменяться своими соображениями о том, что каждого из нас интересует. То, чему каждый хочет научиться, определяется многими факторами. Глубоко внутри нас есть желания, навеянные нашим бессознательным. Для того, чтобы нам легче было выразить эти малоосознаваемые цели, давайте воспользуемся предметами, лежащими в середине аудитории. Когда кто-нибудь из вас захочет высказаться, он сможет взять в руки те предметы, которые каким-то образом привлекли его внимание и, может быть, помогут ему выразить его цели. Держите их в руках, пока будете говорить, а потом положите назад.

Заключение. Подготовка молодых преподавателей и студентов к формированию коммуникативной компетенции дифференцирована в зависимости от исходного педагогического опыта, включает наряду с вопросами традиционной профессиональной коммуникации вопросы электронной образовательной коммуникации, проводится в интерактивном режиме, причем в процессе обучения слушатели на себя опробуют коммуникативные приемы и техники.

Литература.

1. Указ Президента Республики Узбекистана от 7 декабря 2018 г. № ПП - 5590- «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан на 2019-2025 года.
2. Абдуллина О.А. Проблема формирования педагогических умений и навыков у будущих учителей// Проблема профессиональной подготовки студентов педвузов и университетов. М.: АПН, 1976
3. Кабанов М.М., Личко А.Е., Смирнов В.М. Методы психологической диагностики и коррекции в клинике. - Л.: Медицина, 1983.
4. Вердьян Ю.В. Структура и развитие профессиональной компетентности специалиста с высшим образованием. МПГУ. - Дис. докт. пед. наук. - 1999.
5. Малкина-Пых И.Г. Справочник практического психолога. Техники гештальта и когнитивной терапии. - М.: Изд-во Эксмо, 2004.
6. www.science-education.ru.

ФИО автора: Fayzullayeva Muhayyo Zokirovna

Navoiy viloyati Navoiy shahri 16-AFChO'IM matematika fani o'qituvchisi

Название публикации: «МАТЕМАТИКА FANI MAQSADI, VAZIFASI VA RIVOJLANISH TARIXI»

Annostatsiya: Mazkur maqolada matematika fani maqsadi, vazifasi va rivojlanish tarixi uning o'qitish metodining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy interaktiv metodlarni yoritib berishga xarakat qilindi.

Kalit so'zlar: Matematika, differensial, integral, analitik geometriya, trigonometriya, matematik struktura.

Avvalo matematika tarixi matematik fanlar jumlasiga kirishini e'tirof etish joiz. Ma'lumki, matematik fanlarning sohalari turli-tuman bo'lishiga qaramay, ular umumiylik belgisi ostida bitta predmetga birlashtirilgan. Bu umumiylik belgisini quyidagi matematikaga berilgan ta'rifidan yaqqol ko'rish mumkin. «Matematika-haqiqiy borliqning miqdoriy munosabatlari va fazoviy formalaridir».

Matematikaning turli sohalari mana shu miqdoriy munosabatlar va fazoviy formalarning ayrim xususiy hollari bilan ish ko'radi. Matematika predmetining sanab o'tilgan elementlari o'zaro bog'liq va rivojlanishda. Biror aniq davrda shu rivojlanish qanday ro'y bergan, keyinchalik bu rivojlanish qanday tus oladi, shularni o'rganish, natijada ularning sabablarini ochib berish matematika tarixi predmeti zimmasiga yuklatiladi.

Demak, matematika tarixi matematika rivojlanishining obyektiv qonunlari haqidagi fan ekan. Shu sababli ham matematika tarixi juda katta masalalarni hal etishiga to'g'ri keladi.

Bu vazifalar ro'yxatini keltirish ancha mushkul ish, ammo bo'lajak matematika o'qituvchilari matematika tarixidan nimalarni bilishlari zarur ekanini sanab ko'rsatish mumkin.

Asosiy qism.

Birinchidan, bo'lajak matematika o'qituvchisi matematikaning rivojlanish bosqichlarini, matematik tushunchalar qadim-qadim zamonlarda qanday shakllanganini bilish, *ikkinchidan*, fan sifatidagi matematika qanday yo'llar bilan shakllanganligini bilish, *uchinchidan*, fan sifatidagi va o'quv predmeti sifatidagi geometriyaning rivojlanish tarixi bilan tanish bo'lish, *to'rtinchidan*, trigonometriya tarixini bilish, *beshinchidan*, algebraning vujudga kelishi, rivojlanishi, hozirgi kundagi ahvoli bilan tanish bo'lish, *oltinchidan*, matematik tahlil predmeti, uning boshlang'ich tarixini bilish zarur.

Bundan tashqari, matematika tarixini o'rganishda hozirgi zamon mantiqiy strukturalarning tarixiy xarakteri, ularning rivojlanish dialektikasi sistemali o'rganilishi kerak, bu esa matematika sohalarining nisbati va ular rivojlanishining istiqbolini bilib olishga yordam beradi.

Matematika tarixi predmeti ko'p sondagi boshqa fanlar va ularning tarixi bilan bog'liq, bu esa uning muammolari doirasini yanada kengaytiradi va tarixiy-matematik tekshirish metodlari rolini orttiradi.

Matematika rivojlanishining asosiy davrlari

Ko'pchilik matematika tarixchilari matematika rivojlanishining A.N.Kolmogorov tomonidan tavsiya qilingan davrlashtirishni ma'qul ko'radilar. Buning asosiy sababi, Kolmogorovning davrlashida matematikaning muhim metodlari, g'oyalari va natijalari,

ya'ni matematikaning mazmunini baholash asos qilib olingan. Matematika rivojlanishini bunday maxsus davrlarga bo'lish matematika tarixini mohiyatini butunlay hal qilib bermaydi, balki matematika rivojlanishining obyektiv qonunlarini yaxshiroq tushunish uchun qo'shimcha bir vosita bo'ladi. Uning fikricha matematika rivojlanishini quyidagi to'rt davrga bo'lish maqsadga muvofiqdir: **1.Matematikaning vujudga kelishi.** Bu davr eradan oldingi VI-Y asrlargacha davom etgan, ya'ni bu davrda matematika o'zining predmeti va metodlariga ega bo'lgan mustaqil fanga aylangan. Davrning boshi eng qadimgi davr-ibtidoiy jamoa tuzumiga borib taqaladi. Bu davrning xarakterli tomoni-matematik faktlarning yig'ilishidan iborat.

2.Elementar matematika davri (O'zgarmas miqdorlar matematikasi davri). U er.avv. VI-V asrlardan XVII asrgacha davom etgan. Bu davrda o'zgarmas miqdorlarni o'rganish sohasida katta yutuqlarga erishildi. Bu yutuqlar haqida hozirgi kunda o'rta maktablarda o'qitiladigan matematika kurslari ba'zi tasavvurlarni berish mumkin. Bunda o'zbek olimi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850 yy.) tomonidan algebra fanining yaratilishi, R.Dekart tomonidan analitik geometriyaning yaratilishi, cheksiz kichik miqdorlarning rivojlana boshlashini eslash lozim. Umuman olganda, elementar matematika tushunchasiga ta'rif berish qiyin, uning aniq bir ta'rifi ham yo'q, ammo matematika tarixida mana shunday davrni farqlash to'g'ri va u tarixni o'rganishni qulaylashtiradi.

3.O'zgaruvchi miqdorlar matematikasi davri. Bu davr R.Dekart (1596-1650) tomonidan analitik geometriyaning uzul-kesil yaratilishi, I.Nyuton (1642-1727) va Leybnis (1646-1716) lar tomonidan differensial va integral hisobning vujudga kelishi bilan boshlanadi. Davrini oxiri XIX asrning yarmigacha boradi. Bu davrda matematika hozirgi zamon ko'ri-nishiga keldi. Xuddi shu davrda klassik matematika deb ataluvchi matematikaning hamma ilmiy asoslari hosil bo'ladi.

4.Hozirgi zamon matematikasi davri. U XIX asrning o'rtalaridan boshlanadi. Bu davr matematik abstraksiya rolining ortishi, matematikada matematik modellash keng

ko'lamda qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Mana shu davrda klassik matematika deb ataladigan matematika o'zi uchun, matematikaning boshqa sohalari uchun tatbiq etishga ancha torlik qilib qoldi. Sababi, matematika juda ko'p tarmoqlarga ajralib ketdi, unda aksiomatik metod keng rivojlandi, natijada yangi matematik tushuncha-matematik struktura vujudga keldi. Matematik struktura tushunchasi bir qaraganda bir-biridan juda uzoq tuyulgan matematik faktlar va metodlarning birligini o'rgatishga yordam beradi.

Ma'lumki, matematika elementlari ixtiyoriy bo'lgan to'plamlar ustida amallar bajaradi va turli munosabatlarni qaraydi. To'plamlarning elementlari ularni boshqaruvchi aksiomalarga bog'liq ravishda turli matematik strukturalar hosil qiladi. Keyingi paytlarda matematikaning turli bo'limlarini, hatto ayrim matematik predmetlarni o'sha strukturalarning modeli sifatida talqin qilina boshladi. Shu sababli hozirgi zamon matematikasini matematik strukturalar va ularning modellari haqidagi fan deb ta'riflash mumkin.

Matematika hamma boshqa fanlar singari uzluksiz rivojlanib turadi. Buning quyidagi ikki sababi mavjud: birinchidan, uning rivojlanishini kundalik hayot va amaliyot taqozo qiladi; ikkinchidan, rivojlanishni matematikaning o'z ichki ehtiyoji talab qiladi.

Matematikaning tez sura'tlar bilan rivojlanishi texnikani, iqtisodni, ishlab chiqarishni boshqarishning rivojlanishiga, shuningdek boshqa qo'shni fanlarning ham rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Matematika darslari jarayonida tarixiy ma'lumotlardan foydalanish uni yanada qiziqarli qiladi, o'quvchilarning o'rganilayotgan materialga qiziqishlarini orttiradi, bilimlarni mustahkam egallashlariga yordam beradi.

Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil etadi. Boshlang'ich kursning asosiy o'zagi natural sonlar va asosiy miqdorlar arifmetikasidan iborat. Bundan tashqari, bu kursda geometriya va algebraning asosiy tushunchalari birlashadi.

Boshlang'ich sinf matematika kursi maktab matematika kursining organik qismi bo'lib hisoblanadi. V–XI sinflarda o'qitiladigan matematikaning eng asosiy va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan elementar tushunchalari beriladi. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan va boyitilgan holda o'qitiladi. Demak, boshlang'ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.U. Bikbayeva va boshqalar. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi”. Toshkent. “O'qituvchi” 1996 yil.
2. B.Toshmurodov. “Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish”. Toshkent. “O'qituvchi” 2000 yil.
3. R.J.Ishmuhammedov “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari”. Toshkent 2009 yil.
4. M.E. Jumayev “Matematika o'qitish metodikasi”. Toshkent. “O'qituvchi”. 2004 yil.
5. M.E.Jumayev “Matematika o'qitish metodikasidan praktikum”. Toshkent. O'qituvchi. 2004 yil.
6. M.Axmedov va boshqalar. “Matematika 1 sinf uchun darslik”. Toshkent 2003 yil.
7. M.Axmedov va boshqalar “Matematika o'qituvchi uchun darslik”. O'qituvchi. Toshkent 2003 yil.